2026-yil, 15-iyun 11(79)-son

ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802





DOLZARB MAVZU

Dilobar JO‘RAYEVA,
RMMM Buxoro viloyat bo‘limi
Olot tuman bo‘linmasi rahbari



TARAQQIYOTGA OLIB BORUVCHI USTUVOR QADRIYATLARNI AHOLI AYNIQSA YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISH MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada milliy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, uning buguni va ertangi kuni, taraqqiyotga olib boruvchi ustuvor qadriyatlarni aholi ongiga singdirish shuningdek, yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning ahamiyati to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Vatanparvarlik va milliy qadriyatlar barcha mamlakatlarda ham davlat va jamiyat ravnaqida muhim asos bo‘lib hisoblanadi. Fuqarolarda, ayniqsa yoshlarda milliy qadriyatlar, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va kuchaytirishda bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda, bulardan yoshlarda ustuvor qadriyatlarni shakllantirishda oila, mahalla va ta’lim tizimi alohida o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, tarbiya, milliy qadriyatlar, milliy g‘oya, mafkura, jamiyat, davlat, manfaat, millat, ona tili, xalq, ma’naviyat, ma’naviy qadriyatlar, yurtga muhabbat, sadoqat, fidoyilik.*

Annotation:this article discusses the role of national values in the development of society, their present and future significance, and the importance of instilling priority values in the minds of the population. It also highlights the significance of national values in the upbringing of young people. Patriotism and national values serve as an important foundation for the progress of the state and society in all countries. A number of measures are being implemented to develop and strengthen national values and patriotic feelings among citizens, especially among the youth. In this process, the family, neighborhood community, and education system play a special role in shaping priority values in young people.

Key words: *education, upbringing, national values, national idea, ideology, society, state, interest, nation, mother tongue, people, spirituality, spiritual values, love for the Motherland, loyalty, devotion.*

Аннотация:в данной статье рассматривается роль национальных ценностей в развитии общества, их значение сегодня и в будущем, а также вопросы формирования приоритетных ценностей в сознании населения. Особое внимание уделяется значению национальных ценностей в воспитании молодежи. Патриотизм и национальные ценности являются важной основой развития государства и общества во всех странах. В настоящее время проводится ряд мероприятий по формированию и укреплению у граждан, особенно у молодежи, чувства патриотизма и национальных ценностей. В этом процессе особое место занимают семья, махалля и система образования.

Ключевые слова: *образование, воспитание, национальные ценности, национальная идея, идеология, общество, государство, интерес, нация, родной язык, народ, духовность, духовные ценности, любовь к Родине, преданность, самоотверженность.*

Har bir xalq va millat ming yillar davomida zamonlar zayli, davrlar taqozosi hamda o‘z zehniyatining talabiga ko‘ra, uni tarix sahnasida ushlab turadigan qadriyatlarini kashf eta boradi. Va ana shu bebaho xazina, mustahkam tayanch millatning o‘zligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanadi. Biroq, har qanday jamiyatda ham vaqtlar o‘tishi bilan paydo bo‘ladigan qadriyatlar qadrsizlanishi, ularga xurofot va bid’at aralashuvi, natijada xalq turmush tarziga yot bo‘lgan irim-sirimlar, urf-odatlar kirib kelishi, oqibatda millatni tanazzulga eltuvchi jarliklar paydo bo‘lish ehtimoli juda yuqori bo‘ladi. Mana shunday ma’naviy bo‘htonlardan millatni eson-omon olib o‘tuvchi eng qudratli vosita – milliy qadriyatlarni avaylash, ularni zamonga uyg‘unlashtirish, yosh nasllarga tushuntirish va ma’rifatga jiddiy e’tibor qaratishdir.

Kuni kecha Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishida muhtaram yurtboshimiz bir narsani qat’iy ta’kidladi.

“Islohotlarimiz natijadorligi avvalo, sadoqatli, fidoyi va korrupsiyaga toqatsiz yangi avlodga bevosita bog‘liq. Bu ishda fikri toza yosh avlodni tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanishi shart”, – dedi Prezident.

Shu maqsadda maktab direktorlari **“Tarbiya”** fani doirasida o‘g‘il-qizlarimizga halollik, birovni haqiga xiyonat qilmaslik kabi ezgu g‘oyalarni sodda tilda tushuntirib borishi kerakligi ta’kidlangan.

Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan vijdoni pok, iymoni butun, sofdil, vatanparvar, xalqsevar, mard, har tomonlama sog‘lom, intellektual salohiyatli, bir so‘z bilan aytganda sog‘lom avlodni tarbiyalash davr talabi. Bugungi globallashuv davrida esa mana shunday ezgu ishni amalga oshirish barchamizning Vatan oldidagi muqaddas burchimizdir. Sharq mamlakatlarida farzandni har tomonlama yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalash eng muhim vazifa hisoblanadi.

Shu o‘rinda xalqimizni, ayniqsa yosh avlodni bugun tobora ko‘payib borayotgan, e’tiqodi sust ba’zi yoshlarni o‘z domiga tortayotgan turli axloqsizliklardan asrash o‘ta jiddiy va muhim masalaga aylanib ulgurganini alohida ta’kidlash lozim. Shuni qayd etish lozimki, axloq masalasi aslida ma’naviyat va tarbiyaning o‘zak ildizi bo‘lsa-da, bugun ushbu fenomen hodisa katta siyosatga daxldor masalaga aylanib bo‘ldi. (A.Mavrulov)

Bugun mana shunday yoshlarni ma’naviy yo‘qotishlarga duchor bo‘lmasliklari uchun imkon qadar kitob mutoala qilishga chorlash lozim. Muhtaram prezidentimiz alohida tashabbus ko‘rsatib, eng yaxshi kitobxonlarni moddiy rag‘batlantirganligining o‘ziyoq bugungi davr kitobxonlarining oshib borayotganiga yorqin misoldir.

Kitob mutoala qilish yordamida o‘sib kelayotgan bola odamiylik, sadoqat, mehr –muruvvat, rahm –shafqat kabi ezgu fazilatlarni o‘zida shakllantiradi. Milliy qadriyatlarni yoshlar ongi va qalbiga singdirish usullari to‘g‘risida fikr bildirganda shuni alohida qayd qilmoq kerakki, avvalo ma’naviy ta’sir va g‘oyaviy hujumlarga ehtiyotkor bo‘lish talab qilinadi. Yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy sohada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning bosh tamoyillaridan biri aynan yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash tezlik bilan amalga oshiriladigan ish emas, g‘oyaviy dunyoqarashni shakllantirish, yoshlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish uchun tarbiyaviy ishlarning mavjud barcha usullari va vositalaridan o‘z o‘rnida to‘g‘ri foydalanish umumiy maqsadlarmizni amalga oshirishda muhim o‘rin egallaydi.

Bugun fikri toza yosh avlodning shakllanishida har bir tashkilot va muassasa, mahalla qolaversa har bir insonning o‘ziga yarasha vazifalari bor. Ana shu daxldorlik hissi bilan yashab, mas’uliyatni vijdonan ado etsakgina Uchinchi renessansni har tomonlama yetuk, ma’naviyatli, bilimli va yuksak salohiyatli yoshlar bilan quramiz va ko‘zlagan maqsadlarimizga yetamiz. Bundan ko‘rinadiki, har bir qadamimiz maktab ya’ni tarbiya o‘chog‘idan boshlanadi. Biz bugun bir jonu bir tan bo‘lib, bu o‘ta mas’uliyatli ishga kirishsak, bora-bora u o‘z mevasini beradi. Zero, bugunning yoshlari yurtning ertangi kuni egalaridir!

Asrlar davomida barqaror saqlanib, sayqallanib kelayotgan milliy qadriyatlar o‘zbek xalqining ham ulkan boyligidir. Ular millat o‘zligini belgilovchi omillar sifatida xalqning turmush tarziga chuqur singib ketgan. Oila muqaddasligi, mehru oqibat, yaqinlarga ko‘maklashish, har bir ishda adolat tamoyillariga suyanish, me’yorni unutmaslik, el-yurt ishiga hamisha kamarbasta bo‘lish, farzandlar tarbiyasiga beparvo bo‘lmaslik va eng asosiysi – har qadamda yangilikka, ilmga intilish, dunyo bilan hamqadam bo‘lish kabi fazilatlar xalqni, millatni taraqqiyotga yetaklashi shubhasiz.

Milliy qadriyatlarni toifalarga ajratish, aslida, unchalik to‘g‘ri emas. Ammo, shunday qadriyatlar borki, ular boshqalaridan o‘z yashovchanligi, o‘z-o‘zini yangilab borishi, millat zehniyati va rivojiga kuchli ta’sir o‘tkaza olishi bilan ajralib turadi. Yuqorida sanab o‘tilgan milliy xususiyatlarning har biri ana shunday qudratga ega, biroq, ular orasida eng taraqqiyparvar va hech qachon eskirmaydigani – bu ilmga, ma’rifatga intilishdir.Bugun globallashuvning sarhadsiz sahrosiga tushib olgan dunyo har lahzada bir yangilik, bir kashfiyot qilishga majburdir, illo, bir joyda depsinib turish har qanday jamiyatni inqirozga olib kelishi va u bostirib kelayotgan ma’naviyatsizlik bo‘ronida halok bo‘lishi muqarrardir.Ilmu ma’rifat azaldan millatning tayanch ustunlaridan biri bo‘lib kelgan va hamisha shunday bo‘lib qoladi. U millatni taraqqiyotga yetaklovchi eng qudratli kuch sanaladi. Bugun jahon ahli yangi texnika va texnologiyalar ko‘magisiz yasholmaydi, bularning bari ilmu fan yangiliklari bilan bog‘liqdir.

Ustuvor qadriyatlar millatni, jamiyatni bir o‘zanda, o‘z yo‘lida ushlab turishga xizmat qiladi, zero, ular unutilgan paytda omma orasida boshboshdoqlik va sarosima boshlanadi: fikrlaru qarashlar ikkiga ajraladi, turli ixtilof va to‘qnashuvlar paydo bo‘ladi. Yaqin o‘tmishda Navro‘z bayrami ta’qiqqa uchraganda jamiyatda yuz ochgan besaranjomlikni eslash kifoya. O‘shanda millatning ham milliy, ham diniy suyanchlariga siyosiy hamla uyushtirilgandi, millat ruhiyati esa buni qabul qilolmasdi.

O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov o‘zining “Qo‘riqxona” she’rida “Adolat – borliqqa yolg‘iz onadir”

deya ta’kidlaganida bu tuyg‘uning bezavolligiga ishora qilgandi. Aynan ijtimoiy adolat har bir millatning umruzoqligini ta’minlaydi. Xalq ko‘plab kamsitilishlarga chidashi mumkin, biroq, u adolatsizlikka uzoq chidab turolmaydi. Natijada esa xalq orasidan chiqqan fikri o‘zg‘ir insonlar adolat bayrog‘ini yana yuksaltirishga bel bog‘lashadi. Sohibqiron bobomiz Amir Temur hazratlari “Kuch adolatdadir” deya ta’kidlagani bejiz emas.

Millatni, jamiyatni jipslashtiradigan, uni yaxlit bir vujudga aylantiradigan yana bir qadriyat – bu vatanpparvarlikdir. Muayyan jamiyat ichida yashayotganlar orasida fikrlar xilma-xilligi bo‘lishi tabiiy, lekin, Vatan mudofaasi yo‘lida bu kabi mayda ziddiyatlar orqa planga suriladi, yurtga xatar yaqinlashganda barcha birday uning himoyasiga otlanadi. Ikkinchi jahon urushi davrida hatto Sho‘rolar tuzumiga qarshi bo‘lganligi uchun turmalarda saqlanayotgan ashaddiy jinoyatchilar ham nemis fashistlariga qarshi kurashga otlanganlar.Ular Sovet Ittifoqi uchun emas, ona Vatan, jonajon tuproq uchun jang qilishga bel bog‘laganlar. Zotan, siyosiy tuzumlar o‘tkinchi, Vatan esa abadiydir.

Aslar bo‘yi ustuvor yashab kelayotgan, jamiyatni taraqqiyotga eltuvchi qadriyatlar juda ko‘p. Shulardan yana biri – oila mustahkamligi, mehru oqibat va qarindoshlik rishtalaridir. Bularsiz o‘zbek oilasini tasavvur etib bo‘lmaydi. Aynan mustahkam oila, qavmu qarindoshlar o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlik jamiyatni barqaror asrab turadi, parokandalikdan asraydi. Faqat tinch va farovon jamiyatdagina taraqqiyot bo‘ladi.

Islom dini qariyb bir yarim ming yildan beri dunyoga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelayotir. Markaziy Osiyo mamlakatlari hayotida ham u muhim o‘rin tutadi. Xalq zehniyati diniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq, ammo, dunyoviy davlatda din boshqaruvdan ajratilgan. Me’yor buzilgan, belgilangan chegaralar pisand qilinmagan muhitda albatta notinchlik boshlanadi. Shuning uchun hukumatimiz diniy mutaassiblik, aqidaparstlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun qator qonunlar qabul qilgan. Dinni buzish, uni noto‘g‘ri talqin etish odamlar ongiga jiddiy ta’sir etadi, taraqqiyotga ham xavf soladi. Aslida Qur’oni karim ilmga, ma’rifatga da’vat etadigan taraqqiyparvar, insonparvar din bo‘lmish islomning muqaddas kitobidir. Uning ilk nozil bo‘lgan surasi ham “Iqro” (O‘qing) bo‘lgani bejiz emas.

Taraqqiyotga eltuvchi qator milliy qadriyatlar bugun xalq qalbi va shuurida yashab kelmoqda, biroq, masalaning tag‘in bir muhim jihati borki, unga e’tibor qaratmaslik – ertanga kunga, kelajakka beparvolik bo‘lur edi. Gap ustuvor qadriyatlarni el orasida targ‘ib etish, ularni aholi ongiga singdirish to‘g‘risida bormoqda. Bu borada asosiy mas’uliyat ma’naviy-ma’rifiy va madaniy soha vakillari zimmasiga tushadi.

Xo‘sh, ustuvor qadriyatlarni aholi ongiga singdirish bizga nima beradi? Bu savolga qisman maqolamiz avvalida javob berdik. Qo‘shimcha sifatida aytish mumkinki, aynan taraqqiyotga xizmat qiluvchi qadriyatlarni mavsumiy, o‘tkinchi udumlardan ajratib olish va ularga e’tibor qaratish juda muhimdir. To‘y va ma’rakalarda me’yor talablarining buzilishi, haddan ziyod isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilishi, keraksiz kichik marosimlarning ko‘payib borayotgani – bularning bari o‘tkinchi udumlar, ularni jamiyat hayotiga zo‘rlab tiqishtirishga urinish faqatgina ma’naviy va moddiy qashshoqlikni keltirib chiqaradi, xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoev: Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. [Internet manba]. URL: https://president.uz/ uz/lists/view/4089 Murojaat sanasi: 19.01.2021. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi.

2. Mirziyoyev Sh. Prezident: Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. 22.12.2023. president.uz/uz/lists/view/6941

3.A.Mavrulov “Axloqsizlik – yangi axloqmi?” mavzudagi maqolasi.

4. Musurmanova O., Norqulov Ҳ., Abdurahimova F. Mahallalarda oila farovonligi: milliy qadriyatlar va odob дурдоналари. (Услубий qo‘llanma). –Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2023

5.2025-yil 5-mart kuni Shavkat Mirziyoyev ishtirokida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha o’tkazilgan milliy kengashning kengaytirilgan yig‘ilishi. https://president.uz/oz/lists/view/7924



TILSHUNOSLIK

Bahodirjon DEHQONOV,
FarDu o‘qituvchisi
Ilmiy rahbar: **Anvarjon MUXITDINOV,**
f.f.d., professor

TEATR VA KINO SAN’ATI TERMINOLOGIYASINING GENEZIS, TADRIJIY RIVOJLANISH VA ZAMONAVIY LINGVOMADANIY TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqola teatr va kino san’ati terminologiyasining shakllanish tarixi, lingvistik xususiyatlari va madaniy semantikasini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Teatr terminlarining yunon-lotin tilidan o‘zlashishi, ularning milliy madaniy kontekstdagi transformatsiyasi, shuningdek, kino terminologiyasining paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari qiyosiy tahlil qilinadi. Xitoy, rus, ingliz tillaridagi teatr va kino terminlarining semantik xususiyatlari ochib berilgan. O‘zbek teatr va kino san’ati terminlarining shakllanishida G‘arb va Sharq madaniy an’analarining sintezi, shuningdek, rus tili orqali o‘zlashtirilgan internatsional terminlarning milliy til me’yorlariga moslashuvi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *teatr terminologiyasi, kino terminologiyasi, lingvomadaniy tahlil, semantik adaptatsiya, teatr va kino, rejissyor, avtorlik kinematografi, terminlarning shakllanishi.*

Аннотация: эта статья посвящена изучению истории, лингвистических особенностей и культурной смысловой терминологии театра и кино. Сравнительно анализируется овладение театральными терминами греко-латинским языком, их трансформация в национально-культурном контексте, а также появление и развитие терминологии кино. Раскрыты смысловые особенности терминов театра и кино на китайском, русском и английском языках. При формировании терминов узбекского театра и кино рассматривается синтез западных и восточных культурных традиций, а также адаптация интернациональных терминов, усвоенных русским языком, к нормам национального языка.

Ключевые слова: *терминология театра, терминология кино, лингвистический анализ, семантическая адаптация, театр и кино, режиссер, авторский кинематограф, формирование терминов.*

Annotation: this article is devoted to the study of history, linguistic features and cultural semantic terminology of theater and cinema. « The mastery of theatrical terms in the Greek-Latin language, their transformation in the national-cultural context, as well as the emergence and development of cinema terminology are relatively analyzed. The semantic features of the terms theater and cinema in Chinese, Russian and English are disclosed. When forming the terms of Uzbek theater and cinema, the synthesis of Western and Eastern cultural traditions is considered, as well as the adaptation of international terms learned by the Russian language to the norms of the national language.

Key words: *theater terminology, cinema terminology, linguistic analysis, semantic adaptation, theater and cinema, director, author’s cinema, formation of terms*.

Kirish. XXI asrda madaniyatlararo muloqotning kuchayishi, globallashuv va millatlararo integratsiya jarayonlari tilshunoslik fani oldiga san’at terminlarini kompleks tadqiq etish vazifasini qo‘ymoqda. Teatr va kino san’ati terminologiyasi bu borada alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular nafaqat san’at turlarining ichki qonuniyatlarini, balki madaniy merosning tilda ifodalanishini ham aks ettiradi.

San’at turlarining terminologik tizimini o‘rganish ularning genezisi, tarixiy tadriji va zamonaviy holatini tushunishga xizmat qiladi. Teatr san’ati insoniyat madaniyatining eng qadimgi ko‘rinishlaridan biri bo‘lsa, kino san’ati nisbatan yosh bo‘lib, u XIX asr oxirida paydo bo‘lgan -5. Bu ikki san’at turi terminlarining lingvistik tahlili ularning o‘zaro ta’siri, semantik rivojlanishi va milliy tillardagi adaptatsiyasini ochib beradi.

“Teatr” so‘zi yunon tilidagi **θέατρον** (*theatron* – “tomoshagoh”) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab tomosha, tomosha qilinadigan joy ma’nosini anglatgan -1. Keyinchalik bu termin san’at turining o‘zini, shuningdek, tomoshalar namoyish etiladigan binoni ham ifodalay boshlagan. Ta’kidlash joizki, san’atshunoslik nuqtayi nazaridan binoni “teatr” emas, balki “teatr binosi” deb atash to‘g‘riroq -1.

Teatr – sintetik san’at turi bo‘lib, unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san’at, raqs, me’morchilik kabi turli san’at turlari uyg‘unlashadi -1. Bu sintetik tabiat teatr terminologiyasining ko‘p qatlamli va serqirra bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Teatr san’atining asosiy unsurlariga quyidagilar kiradi:

Aktyor (frans. *acteur*, lot. *actor* – ijrochi) – rol ijrochisi

Rejissyor (frans. *régisseur* – boshqaruvchi) – spektaklning badiiy rahbari

Sahna (yunon. *skēnē* – chodir, shayton) – tomosha ko‘rsatiladigan maydon

Dramaturgiya (yunon. *dramaturgia* – harakat) – spektaklning adabiy asosi

Ssenografiya (yunon. *skēnē* + *graphō* – sahna tasviri) – spektaklning bezak san’ati

M.X. Hallaviy tadqiqotlariga ko‘ra, teatr terminlarining taxminan 60% i yunon-lotin tilidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, ularning 30% i keyingi davrlarda yevropa tillari (fransuz, nemis, ingliz) orqali boshqa tillarga tarqalgan.

Teatrning muhim vositalaridan biri **sahna nutqi** hisoblanadi.Aktyor qahramonning pyesadagi so‘zlarini o‘zlashtirar ekan, uning nutqiy tavsifini yaratadi, boshqa personajlar bilan muloqotga kirishadi -1. Sahna nutqi terminlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Monolog (yunon. *monos* – yakka + *logos* – so‘z) – bir kishining nutqi

Dialog (yunon. *dialogos* – suhbat) – ikki yoki undan ortiq kishining so‘zlashuvi

Replika (frans. *réplique* – javob) – qisqa javob so‘zi.

Kino san’ati 1895-yil 28-dekabrda Parijda Ogyust va Lui Lyumyer aka-ukalar tomonidan ixtiro qilingan -5. Dastlabki kinolentalar hujjatli xarakterga ega bo‘lib, oddiy hayotiy jarayonlarni aks ettirgan. “Kino” termini yunoncha **κίνημα** (*kinema* – harakat) so‘zidan olingan bo‘lib, “harakatlanuvchi tasvir” ma’nosini anglatadi.

Kino san’atining rivojlanishida amerikalik rejissyor Devid Uork Griffitning xizmatlari katta. U birinchilardan bo‘lib **yirik plan**, **parallel montaj**, **kengaytirilgan panorama** kabi ifoda vositalarini qo‘llagan -5. Kino san’atining 4 asosiy turi mavjud -5:

Badiiy film – maxsus yozilgan ssenariy yoki badiiy adabiyot asosida yaratilgan film.

Ilmiy-ommaviy kino – tabiat va jamiyat hayoti, ilmiy kashfiyotlar bilan tanishtiradi.

Hujjatli kino – bo‘lgan voqea va harakatlarni tasmaga tushiradi.

Animatsion kino – rasmli yoki qo‘g‘irchoqli filmlar.

Kino san’atining asosiy janrlariga komediya, tarixiy film, drama, sarguzasht filmlari kiradi -5.

Kino ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq terminlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Ssenariy (ital. *scenario*) – filmning adabiy asosi.

Montaj (frans. *montage* – yig‘ish) – kadrlarni ketma-ket ulash.

Dublyaj (frans. *doublage*) – filmni ovozlashtirish.

Treyler (ingl. *trailer*) – filmning qisqacha tanishuv videosi.

Kasting (ingl. *casting*) – aktyorlar tanlovi.

Asosiy qism. Zamonaviy tilshunoslikda teatr va kino terminologiyasining lingvomadaniy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Xitoy tili misolida olib borilgan tadqiqotlar teatr terminlarining 68% i tarixiy kelib chiqishga ega ekanini, kinematografik leksikaning esa 72% i zamonaviy neologizmlar yoki o‘zlashtirmalar ekanini ko‘rsatgan -9.

Teatr terminlarining asosiy xususiyatlari:

Marosimiylik va an’anaviylikni ifodalaydi.

Ko‘p holda qadimgi kelib chiqishga ega.

Jamoaviy qabulni aks ettiradi.

Kinoterminlarining asosiy xususiyatlari:

Texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq.

Ko‘pincha ingliz tilidan o‘zlashtiriladi.

Individual qabulni aks ettiradi.

Teatr va kinoshunoslikda “avtorlik” tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. G‘arb teatrshunosligida “avtorlik teatri” (auteur theatre) va “rejissyor-avtor teatri” kabi terminlar kino san’atidan o‘zlashtirilgan -6.

Emiliya Demensova ta’kidlaganidek, rejissyorning dramatik pyesalarni faol adaptatsiya qilishi, ularga aralashuvi va o‘z uslubini shakllantirishi “avtor” tushunchasining teatrga nisbatan qo‘llanilishiga olib kelgan -6. Hozirgi kunda teatrshunoslikda “post-avtor” va “neo-avtor” kabi yangi terminlar paydo bo‘lgan bo‘lib, ular hali to‘liq tadqiq etilmagan.

Post-avtorlik teatri rejissyor-avtor ijodini shaxsiy dahoning ifodasi emas, balki uning biografiyasi, intertekst, kontekst va muayyan tarixiy vaziyatning uchrashuv nuqtasi sifatida talqin etadi -6.

Teatr va kino terminologiyasida madaniyatlararo ta’sir kuzatiladi. Xususan, xitoy tilida teatr terminlarining 85% i tarixiy kelib chiqishga ega bo‘lsa, kino terminlarida bu ko‘rsatkich atigi 15% ni tashkil etadi -9. Bu kinematografiyaning nisbatan yosh san’at turi ekanligi va uning terminologiyasida G‘arb ta’siri kuchliligi bilan izohlanadi.

Yapon tilida esa kino va teatr terminlari asosan, xitoy iyerogliflari asosida shakllangan bo‘lib, ularning talaffuzi ham xitoycha-yaponcha o‘qish (on yomi) asosidagi iyerogliflar bilan ifodalanadi -7. Masalan, 監督 **(kantoku)** – rejissyor, 俳優 **(xayyuu)** – aktyor, 脚本 **(kyakuxon)** – ssenariy kabi terminlar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston hududida an’anaviy teatr juda qadimgi va boy tarixga ega. Uning kurtaklari ibtidoiy jamoa davridayoq ov va boshqa mehnat jarayonlari aks etgan taqlidiy raqslar, jangovar va xalq o‘yinlari, tabiat kuchlariga topinish oqibatida yuzaga kelgan marosimlar shaklida namoyon bo‘lgan -1.

Qadimgi O‘rta Osiyo hududida yunon-baqtriya podsholigi davrida (mil. avv. III-II asrlar) Oyxoni, Niso, Shahri G‘ulg‘ulada maxsus teatrlar bo‘lgan bo‘lib, ularda

Yevripidning “Alkesta”, “Ippolit” kabi tragediyalari ko‘rsatilgani ma’lum.

O‘zbek milliy kino san’ati XX asrning 20-yillarida vujudga keldi. Birinchi o‘zbek kinooperatori Xudoybergan Devonov o‘zining ilk hujjatli-xronikal filmlarida o‘zbek xalqining hayotini, urf-odatlarini, Xorazm manzaralarini aks ettirishga intilgan -5.

1925-yil Toshkentda “Sharq yulduzi” (1936-yildan “O‘zbekfilm”) kinofabrikasining tashkil bo‘lishi o‘zbek kino san’ati rivojini boshlab berdi -5. Sovet davrida kino va teatr terminologiyasi asosan, rus tili orqali shakllandi. Rus tilidagi terminlar (rejissyor, aktyor, ssenariy, montaj) o‘zbek tiliga fonetik jihatdan moslashtirilib qabul qilindi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy san’at terminologiyasini rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. O‘zbek tilining davlat tili maqomiga ega bo‘lishi milliy terminlarning shakllanishiga turtki bo‘ldi. Bu jarayonda quyidagi tendensiyalar kuzatiladi:

Xalqaro terminlarning o‘zbek tili fonetikasiga moslashuvi (rejissyor → rejissyor, aktyor → aktyor, prodyuser → prodyuser)

O‘zbekcha atamalarning joriy etilishi (tovush rejissyori – ovoz rejissyori, sahna bezagi – ssenografiya).

Eski o‘zbek teatr terminlarining qayta tiklanishi (masxaraboz, qiziqchi, dostonchi). XXI asrda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi kino va teatr terminologiyasiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. “Striming”, “onlayn-translyatsiya”, “virtual reallik”, “3D-texnologiyalar” kabi terminlar san’at terminologiyasining bir qismiga aylanmoqda.

V.V. Batsiyev tadqiqotlariga ko‘ra, kinematograf va teatrning sintezi natijasida “Kinodagi teatr” (Teatr v kino) mediafenomeni paydo bo‘lgan bo‘lib, bu teatr spektakllarining ekranga translyatsiya qilinishi, teatr qo‘yilishlarining ekranlashtirilishi kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi -2. San’at terminlarining lug‘atlarda aks ettirilishi muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Germaniyaning “Duden” nashriyoti chop etgan “Adabiy terminlar ensiklopediyasi” teatr va kino terminlarini ham o‘z ichiga oladi -4. Bunday lug‘atlar terminlarning standartlashuviga va ilmiy muomalada birxillikka erishishga xizmat qiladi.

Xulosa. Teatr va kino san’ati terminologiyasining tadqiqi quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Tarixiy tadrij. Teatr terminologiyasi qadimgi yunon-lotin ildizlariga ega bo‘lib, asrlar davomida rivojlangan va milliy tillarda adaptatsiya qilingan. Kino terminologiyasi esa nisbatan yosh bo‘lib, XIX asr oxirida paydo bo‘lgan va texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq holda tez rivojlanmoqda.

Lingvomadaniy xususiyatlar. Teatr terminlari ko‘p holda marosimiylik va an’anaviylikni ifodalasa, kino terminlari texnologik yangiliklarni aks ettiradi. Xitoy tilida teatr terminlarining 68% i tarixiy, kino terminlarining 72% i zamonaviy neologizmlar ekanligi buni tasdiqlaydi -9.

O‘zaro ta’sir. Teatr va kino terminlari o‘rtasida doimiy o‘zaro ta’sir mavjud. “Avtorlik teatri” termini kino san’atidan teatrshunoslikka o‘tgan bo‘lsa, “rejissyor teatri” tushunchasi ikkala songa ham taalluqlidir -6.

O‘zbek terminologiyasi. O‘zbek teatr va kino terminologiyasi qadimiy milliy an’analar, rus tili orqali o‘zlashtirilgan internatsional terminlar va mustaqillik davrida shakllangan yangi atamalar uyg‘unligida rivojlanmoqda.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, teatr va kinoning sintezi, “teatr v kino” mediafenomeni terminologiyaning yanada boyishiga olib kelmoqda -2. Bu jarayonlarni lingvistik jihatdan tadqiq etish istiqbolli ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Teatr va kino terminologiyasining lingvomadaniy tahlili nafaqat tilshunoslik, balki san’atshunoslik, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu terminlarning standartlashuvi, lug‘atlarda aks ettirilishi va ilmiy muomalada birxillikka erishishi dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Teatr // O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006 .

2.Batsiyev V.V. Media fenomen “teatr v kino”: prinsipi sozdaniya i vospriyatiya / V.V. Batsiyev // Vestnik Moskovskogo gosudarstvennogo universiteta kulturi i iskusstv. 2024. – № 5. – S. 65–75.

3.Kino san’ati // O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006.

4.Ensiklopedichen rechnik na literaturnite termini / pod red. na D. Lilova, B. Vilchev. – Sofiya: “Xeyz’l”, 2002.

5.Demensova E.V. K voprosu o terminologicheskix trudnostyax opredeleniya ponyatiya avtorskogo teatra / E.V. Demensova // Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta. Kulturologiya i iskusstvovedeniye. 2022. – № 45. – S. 25–31.

6.Japon tilinde kino jəne teatr terminologiyasi // Polyglot Club. 2024. – URL: https://polyglotclub.com/wiki/Japanese/Vocabulary/Film-and-Theater-Terminology (murojaat sanasi: 05.03.2026) .

D.B.AXMEDOVA,
BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d. (DSc)
Nozanin MUHIDDINOVA,
BuxDPI 1-kurs talabasi

O‘ZBEK TILI TASVIRIY IFODALARINING LINGVOMADANIY JIHATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilidagi tasviriy ifodalar (parafrazalar)ning lingvistik mohiyati, ularning shakllanish manbalari, funksional-uslubiy xususiyatlari hamda nutqdagi o‘rni ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tasviriy ifodalarning badiiylik, obrazlilik va ta’sirchanlikni oshirishdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, ularning turlari, semantik xususiyatlari va zamonaviy o‘zbek tilidagi rivojlanish tendensiyalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *tasviriy ifoda, parafraza, obrazlilik, badiiy til, nutq, semantika, uslub, metafora, o‘zbek tili.*

Аннотация: в данной статье анализируется лингвистическая сущность образных выражений (парафраз) в узбекском языке, источники их формирования, функционально-стилистические особенности и их роль в речи на основе научных источников. Раскрывается значение образных выражений в повышении художественности, образности и выразительности речи. Также рассматриваются их виды, семантические особенности и тенденции развития в современном узбекском языке.

Ключевые слова: *образное выражение, парафраза, образность, художественный язык, речь, семантика, стиль, метафора, узбекский язык.*

Annotation: this article analyzes the linguistic nature of figurative expressions (paraphrases) in the Uzbek language, their sources of formation, functional-stylistic features, and their role in speech based on academic sources. The role of figurative expressions in enhancing artistic quality, imagery, and expressiveness is revealed. In addition, their types, semantic characteristics, and development trends in the modern Uzbek language are examined.

Key words: *figurative expression, paraphrase, imagery, literary language, speech, semantics, style, metaphor, Uzbek language*.

O‘zbek tilining boy va rang-barang leksik tizimi tasviriy ifodalar orqali yanada boyib boradi. Tasviriy ifodalar (parafrazalar) – predmet, hodisa yoki shaxsni bevosita nomlash o‘rniga uning muhim belgilari orqali obrazli ifodalovchi til birliklaridir [2]. Ular nutqqa badiiylik, ta’sirchanlik va estetik joziba bag‘ishlaydi. Tilshunoslikda tasviriy ifodalar badiiy va publitsistik uslubning muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi [2].

O‘zbek tilida tasviriy ifodalar qadimdan mavjud bo‘lsa-da, ayniqsa, XX asr va mustaqillik davrida ularning soni va qo‘llanish doirasi sezilarli darajada kengaydi [1]. Bu esa jamiyat taraqqiyoti, ommaviy axborot vositalari va badiiy adabiyot rivoji bilan chambarchas bog‘liq.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tasviriy ifodalar o‘zbek tilida quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

Birinchidan, tasviriy ifodalar predmetni bevosita emas, balki uning muhim belgisi orqali ifodalaydi. Masalan, “oq oltin” – paxta, “kumush tola” – pilla, “oynayi jahon” – televizor kabi ifodalar shular jumlasidandir [2].

Ikkinchidan, ular nutqqa obrazlilik va emotsional-ekspressivlik bag‘ishlaydi. Bu esa, ayniqsa, badiiy adabiyot va publitsistik matnlarda muhim ahamiyatga ega [7].

Uchinchidan, tasviriy ifodalar ko‘pincha ot turkumiga mansub bo‘ladi va shaxs, narsa yoki joy nomlarini ifodalaydi. Masalan, “bilim bulog‘i” – kitob, “ilm o‘chog‘i” – maktab, “g‘azal mulkining sultoni” – Alisher Navoiy [2].

To‘rtinchidan, tasviriy ifodalar sinonimik va omonimik xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, “qora oltin” so‘zi neft yoki ko‘mir ma’nosini anglatishi mumkin [2].

Tasviriy ifodalar (parafrazalar) o‘zbek tilining semantik va uslubiy tizimida alohida o‘rin tutadi. Ular tilning nafaqat nominativ (nomlash) funksiyasini, balki ekspressiv, estetik va kommunikativ imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Lingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, tasviriy ifodalar predmet yoki hodisani bevosita nomlashdan ko‘ra, uning muhim belgilarini ajratib ko‘rsatish orqali ikkilamchi nomlash vazifasini bajaradi [9]. Shu jihatdan ular semantik jihatdan ko‘chma ma’no asosida shakllangan birliklar hisoblanadi.

Avvalo, tasviriy ifodalarning lingvistik mohiyatini tahlil qilish zarur. Ilmiy manbalarga ko‘ra, tasviriy ifodalar ko‘pincha metafora, metonimiya va sinekdoxa kabi semantik ko‘chimlar asosida yuzaga keladi [6]. Bu esa ularning badiiy tafakkur mahsuli ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, “oq oltin” (paxta), “zangori olov” (gaz), “po‘lat qush” (samolyot) kabi ifodalar real obyektlarning muhim belgilarini obrazli tarzda ifodalash orqali yaratilgan. Bu yerda rang, shakl yoki funksional belgilar asosiy semantik omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tasviriy ifodalar tizimining muhim jihatlaridan biri – ularning motivatsiyalanganligi, ya’ni asosli va tushunarli bo‘lishidir. Har bir tasviriy ifoda muayyan asosga ega bo‘lib, u til egalariga mantiqan tushunarli bo‘ladi. Masalan, “kumush tola” ifodasi pillaning rang va noziklik xususiyatlariga asoslanadi, “ilm o‘chog‘i” esa maktab yoki ta’lim muassasasining bilim tarqatish funksiyasiga ishora qiladi [3]. Bu esa tasviriy ifodalarning semantik shaffofligini ta’minlaydi.

Tasviriy ifodalarni funksional jihatdan tahlil qilganda, ularning bir nechta muhim vazifalarni bajarishini ko‘rish mumkin.

Birinchidan, ular nutqni takrorlardan xalos etadi. Bir xil so‘z yoki ibora takrorlanishining oldini olib, nutqni rang-barang qiladi. Masalan, “kitob” so‘zi o‘rniga “bilim bulog‘i”, “bilim manbayi” kabi ifodalarni qo‘llash nutqni yanada jozibador qiladi [6].

Ikkinchidan, tasviriy ifodalar nutqqa emotsional-ekspressiv rang beradi. Ayniqsa, publitsistik va badiiy matnlarda bu xususiyat yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, “asr vabosi” iborasi oddiy “kasallik” yoki “muammo” so‘ziga nisbatan ancha kuchli emotsional ta’sirga ega [3]. Bu esa tilning ta’sirchanlik darajasini oshiradi.

Uchinchidan, tasviriy ifodalar estetik vazifa bajaradi. Ular matnni obrazli, badiiy va ifodali qiladi. Shu sababli ular adabiy tilning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, tasviriy ifodalar, ayniqsa, badiiy va publitsistik uslublarda keng qo‘llanadi [9].

Tasviriy ifodalarni semantik jihatdan tahlil qilganda, ularning sinonimik va omonimik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlanadi. Masalan, “bahor kelinchagi” va “uyg‘onish fasli” bir xil tushunchani (bahor faslini) ifodalaydi va ular sinonimik tasviriy ifodalardir [9]. Aksincha, “qora oltin” parafrazasi turli kontekstlarda neft yoki ko‘mir ma’nosini anglatishi mumkin, bu esa omonimik xususiyatni ko‘rsatadi [3].

Tasviriy ifodalar tizimida strukturaviy jihatlar ham muhim ahamiyatga ega. Ular asosan, otli birikmalar shaklida uchraydi va ko‘pincha aniqlovchi+ aniqlanmish modeliga asoslanadi. Masalan, “kumush choyshab”, “oltin boshoq”, “yashil vodiy” kabi birikmalar shunday tuzilmaga ega [9]. Bu esa ularning sintaktik jihatdan barqaror birliklar ekanligini ko‘rsatadi.

Tasviriy ifodalar tarixiy jihatdan ham tahlil qilinishi lozim. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ularning yaratilishi tilning barcha davrlarida bir xil darajada faol bo‘lmagan. Eski o‘zbek tili davrida tasviriy ifodalar kamroq bo‘lgan bo‘lsa, XX asrda, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari rivoji bilan ular keng tarqala boshlagan [3]. Masalan, “dala malikasi” (makkajo‘xori) yoki “oq oltin” (paxta) kabi ifodalar ma’lum tarixiy-iqtisodiy sharoitlar natijasida paydo bo‘lgan.

Bu holat tasviriy ifodalar jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Har bir davr o‘ziga xos tasviriy ifodalarni yaratadi. Masalan, XX asrda texnika taraqqiyoti natijasida “zangori ekran” (televizor), “zangori olov” (gaz) kabi ifodalar paydo bo‘lgan. Mustaqillik davrida esa “virtual olam” (internet) kabi yangi tasviriy ifodalar yuzaga kelgan.

Tasviriy ifodalar dinamik tizim bo‘lib, ular vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi. Ba’zi ifodalar faol qo‘llanilishda davom etsa, boshqalari asta-sekin eskiradi va passiv qatlamga o‘tadi. Masalan, “dala malikasi” ifodasi hozirgi davrda kamroq qo‘llaniladi, chunki u bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o‘zgargan. Bu esa tilning ijtimoiy hodisa sifatida o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi.

Tasviriy ifodalarni pragmatik jihatdan ham tahlil qilish muhimdir. Ular nutq jarayonida ma’lum kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Masalan, notiq tasviriy ifodalar orqali tinglovchiga kuchliroq ta’sir ko‘rsatishi, uning e’tiborini jalb qilishi mumkin. Ayniqsa, publitsistik nutqda bu vosita keng qo‘llanadi [6].

Bundan tashqari, tasviriy ifodalar ijtimoiy-falsafiy mazmunni ifodalashda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “asr vabosi” iborasi nafaqat kasallikni, balki jamiyat uchun xavfli bo‘lgan muammolarni umumlashtirib ifodalaydi. Bu esa tasviriy ifodaning umumlashtiruvchi va ramziy xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tasviriy ifodalar va frazeologizmlar o‘rtasidagi munosabat ham muhim masalalardan biridir. Ular o‘xshash jihatlarga ega bo‘lsa-da, farqlari ham mavjud. Tasviriy ifodalarda, odatda, kamida bitta komponent o‘zining asl ma’nosida qo‘llanadi, frazeologizmlarda esa butun birikma ko‘chma ma’noda ishlatiladi [9]. Bu esa ularning semantik tuzilishidagi asosiy farqni belgilaydi.

Tasviriy ifodalar tilning leksik boyligini oshiradi. Ular yangi ma’no qatlamlarini yaratib, tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli tilshunoslikda ular alohida tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, tasviriy ifodalar lug‘at tarkibini boyitish bilan birga, jamiyat taraqqiyoti talablariga mos ravishda yangilanib boradi [6].

Zamonaviy o‘zbek tilida tasviriy ifodalar yaratish jarayoni davom etmoqda. Bu jarayon globalizatsiya, texnologik rivojlanish va madaniy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Masalan, internet, ijtimoiy tarmoqlar va yangi texnologiyalar bilan bog‘liq tushunchalar uchun yangi tasviriy ifodalar yaratilmoqda. Bu esa tilning zamon bilan hamnafas ravishda rivojlanayotganligini ko‘rsatadi.

Tasviriy ifodalar ta’lim jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Ularni o‘rganish o‘quvchilarning nutq madaniyatini oshiradi, ularning badiiy tafakkurini rivojlantiradi. Shu sababli ona tili darslarida tasviriy ifodalarga alohida e’tibor qaratiladi. Bu esa tilni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tasviriy ifodalar o‘zbek tilining muhim leksik-semantik qatlamini tashkil etadi. Ular tilning obrazlilik darajasini oshirib, nutqni boyitadi, ta’sirchan qiladi va estetik jihatdan mukammallashtiradi. Shu bois ularni chuqur o‘rganish va ilmiy jihatdan tadqiq etish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy ifodalar o‘zbek tilining muhim leksik-semantik qatlamini tashkil etadi. Ular nutqqa obrazlilik, ta’sirchanlik va estetik joziba bag‘ishlaydi. Tasviriy ifodalar tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, zamonaviy davrda ham rivojlanib bormoqda. Ularni ilmiy jihatdan o‘rganish va tizimlashtirish o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Rasulov R., Umirov I. *O‘zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug‘ati*. – Toshkent, 1997. 10–25-betlar.
2.Hamroyeva M.A. *Ona tili*. – Toshkent, 2009. 45–52-betlar.
3.Sayfullayeva R. *Hozirgi o‘zbek tili*. – Toshkent, 2009. 78–85-betlar.
4.Tursunov U., Rahmatullayev Sh., Muxtorov J. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. – Toshkent, 1992. 120–135-betlar.

Dilnoza SOBIROVA,
Buxoro davlat universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari doktori (DSc)

TIBBIY REKLAMA MATNLARINING SHAKLLANISH TARIXI

Annotatsiya: ushbu maqolada ilk tibbiy reklama matnlarining shakllanishi, bu borada jahon reklamashunosligidagi qarashlar xususida so‘z yuritiladi. Dunyo mamlakatlari va O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan dastlabki tibbiyotga oid reklamalarning bugungi kunga qadar bosib o‘tgan o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tibbiy reklama, reklama matni, ijtimoiy reklama, tijoriy reklama, patentlangan dori, savdo varaqasi.

Annotation: this article discusses the formation of the first medical advertising texts and the views of world advertising studies in this regard. It highlights the unique development path of the first medical advertisements available in the countries of the world and Central Asia to date.

Key words: medical advertising, advertising text, social advertising, commercial advertising, patented drug, sales sheet.

Аннотация: в данной статье рассматривается формирование первых медицинских рекламных текстов, а также взгляды мирового рекламоведения на этот вопрос. Освещается уникальный путь развития первой медицинской рекламы, существовавшей в странах мира и Средней Азии, до наших дней.

Ключевые слова: медицинская реклама, рекламный текст, социальная реклама, коммерческая реклама, запатентованное лекарство, торговый лист.

Ko‘pgina manbalarda reklamaning shakllanishi bilan bog‘liq qarashlar yunonlar, rimliklar bilan bog‘lanadi. Eng keksa “reklama matni” qadimgi Yunonistonning Memfis shahri qoldiqlari orasidan topilgan bo‘lib, miloddan oldingi VI asrga taalluqli degan qarashlar mavjud. Unda quyidagi jumla yozilganligi ta’kidlanadi: “Men, Krit orolidan chiqqan Rino, iloh va ma’budlarning irodasi bilan tushlaringiz ta’birini aytib bera olaman”. Boshqa bir manbada esa dastlabki reklamalar Rimda qullar savdosi yuritiladigan bozorlarda vujudga kelgan, bunda qulning o‘ziga xos sifatlarini aytish orqali xaridorlar e’tibori “jonli mahsulot”ga qaratilgan mazmunidagi fikrlar mavjud. Lekin aslida O‘rta Osiyo bozorlarida ham “Op qoling”, “kep qoling” kabi chaqiriqlar orqali mahsulotni og‘zaki tarzda “maqtab sotish” an’anasi mavjud bo‘lgan. Fikrimizcha, M.Tangeyt haqli ravishda ta’kidlaganidek, “Aslida reklamalar birinchi mahsulot yaratilib, kishilar uni sotishga ehtiyoj sezgan davrlarda shakllangan [1, 20]”.

Tibbiy reklama – dori-darmonlar, tibbiy vositalar, tibbiy xizmatlar targ‘iboti, shuningdek, jamiyat salomatligini saqlashga qaratilgan chaqiriqni o‘z ichiga oluvchi ommaviy aloqa shakli [2, 27]. Aytish mumkinki, tibbiy reklamalarning ilk ko‘rinishlari eng qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bundan uch ming yillar muqaddam yuzaga kelgan zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da ham tanani toza tutish lozimligi, shuningdek, Efedra o‘simligidan tayyorlanuvchi muqaddas Xaoma ichimligining shifobaxshligi xususida qaydlar mavjud:

Xavoncha, sut va dasta
Pok yuvilgan qo‘l ila
Uriru dasta tutsin
Barsman tutib, duo-la
Pishirsin Xaomani [3,61].

Xaomaga keldi yaqin,
Bo‘ldi unga yonma-yon
Dardlarga em go‘zal Xaoma…
Shifobaxsh, ko‘rkam, go‘zal
Olti ko‘zli Xaoma [3, 43].

Xaomaning shifobaxshligi xususidagi ma’lumotlar, qo‘lni toza tutish borasidagi chaqiriqlarni qadim zardushtiylar davridagi o‘ziga xos ijtimoiy tibbiy reklama deyish mumkin.

Qadimgi misrliklarning eng yirik madaniy markazlaridan biri bo‘lgan Fiva shahridagi ko‘hna imoratlar devorlarida banan o‘simligini parvarishlash haqida bir qancha mukammal bitiklar o‘yib qoldirilgan. Tarixchilarning aytishicha, Misr hakimlari banandan sog‘liq uchun o‘ta foydali dori-darmon sifatida foydalanishgan ekan [4, 15].

Qadim davrlardan din insonlar hayotining ajralmas qismi bo‘lgan. Odamlar ma’lum bir dinga e’tiqod qilar ekanlar, shubhasiz, o‘z dinlarining muqaddas kitobi ular uchun dasturil amal vazifasini bajargan. Yuqorida keltirganimiz zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da bo‘lgani kabi islom dinining bosh qomusi

“Qur’oni Karim”da ham poklik, tanani, kiyimlarni, yashash makonini toza tutish lozimligi borasidagi qaydlar borki, ular islom dini vakillari uchun o‘ziga xos tozalik, salomatlik targ‘iboti vazifasini bajargan:

Ey, imon keltirganlar! Namoz (o‘qish)ga turar ekansiz, albatta, ***yuzlaringizni, qo‘llaringizni tirsaklarigacha yuvingizlar, boshlaringizga mas’h tortingizlar va oyoqlaringizni to‘piqlarigacha (yuvingizlar)! Agar junub bo‘lsangiz, obdon poklaningizlar (cho‘milingizlar)! …*** *(Moida surasi, 6-oyat) [6, 68].*

… ***So‘ngra kirlarini ketkazsinlar*** *(ya’ni, ehromdan chiqib, soch oldirib****, toza liboslarini kiysinlar)...*** *(Haj surasi, 29-oyat) [6, 219].*

X-XI asrlarga kelib esa tib ilmining sultoni – Abu Ali ibn Sinoning “Urjuza fit-tib” asaridagi hikmatlar kishilarga sog‘liqni saqlash, salomatlikni tiklash borasida yo‘riqnoma vazifasini bajargan. She’riy usulda yozilgan mazkur asardagi har bir misrani bitta ijtimoiy tibbiy reklama deb aytish mumkin:

“G‘arg‘ara qil, tishingni yuv, misvok ishlat,
Og‘iz, tanglay toza bo‘lur, qolmas illat”.
“Qora, yashil rangdan ko‘zga bor manfaat,
Shu ranglardan topgay basorating quvvat.
Oq-u sariq ranglar haddin oshsa agar,
Bundan sening ko‘zlaringga yetgay zarar”.
(Abu Ali ibn Sino. “Urjuza fit-tib”dan Abdusodiq Irisov tarjimasi).

Anglashiladiki, dastlabki tibbiy reklamalar O‘rta Osiyoda eng qadimgi davrlardan mavjud bo‘lgan.

Jahon tibbiy reklamasi tarixida bugungi zamonaviy tibbiy reklamalarning dastlabki ko‘rinishlarini XVIII-XIX asrlarda shakllangan deyish mumkin. Bu davrlarda qirol oilasi uchun maxsus tayyorlangan, sinovdan o‘tkazilgan, eng ishonchli dori-darmonlarga “patent” berilgan. Bunday dorilar oddiy aholi orasida qiziqish uyg‘otgan. Mahalliy aholi bu kabi dorilarni “patentlangan dori” deb atagan. Tabiiyki, dori-darmon sotuvchilari orasida tibbiy mahsulotlarni “patentlangan dori” deya sotish “urf”ga kirgan. Manbalarda ta’kidlanishicha, XIX asrda aholining barcha qatlamining birdek shifokor ko‘rigiga borib davolanishga imkoni bo‘lmagan. Shu boisdan ular “patentlangan dori” deya reklama qilinayotgan tibbiy mahsulotlarni sotib olib iste’mol qilish orqali shifo topishga harakat qilishgan. “Patentlangan dori”larni sayohatchilar odamlar gavjum joylarda, bozorlarda ot-aravalaridan maxsus “dorixona” sifatida foydalanib mana shu mo‘jaz dorixonalaridagi dori vositalarini “patentlangan dori” sifatida reklama qilishgan. Tibbiy vositaning omma orasida esda qolishi va keng tarqalishini ta’minlash maqsadida ular tibbiy mahsulotning o‘ziga xos sifatlari, agar shu dori vositasidan foydalanilsa, salomatlik bilan bog‘liq qaysi muammolarni barataraf etish mumkinligi hamda bu borada qanday ijobiy natijalarga erishish mumkinligi borasidagi o‘ziga xos ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan “savdo varaqa”laridan foydalanishgan (1-rasmga qarang).




1-rasm. Savdo varaqasi (XVIII asr) [7]

Tibbiy mahsulotning “savdo varaqa”lari aholiga bepul tarqatilgan. “Savdo varaqa”lari o‘lchami 8x13 sm atrofida bo‘lgan. Ular odatda ikki qismdan tarkib topgan. Dastlabki qismda kishi diqqatini tortuvchi vizual tasvir hamda tibbiy mahsulot nomi o‘rin olgan. Varaqaning ikkinchi qismida dori vositasining o‘ziga xos xususiyatlari, afzalliklarini o‘z ichiga olgan ma’lumot keltirilgan.

“Savdo varaqa”dan mazkur dori reklamasiga mos tasvir ham o‘rin olgan. Reklama matniga e’tibor qaratilsa, *Ayer’s Cherry PECTORAL* tomoq va o‘pka bilan bog‘liq tibbiy muammolar *(shamollash, yo‘tal, tomoq og‘rig‘i, gripp, kvinsi, laringit, xirillash, bronxit, krup, astma va katarra)* ni bartaraf eta olishi xususida so‘z boradi. Shuningdek, *u ovozning kuchi va egiluvchanligini ajoyib tarzda*

oshirishi alohida qayd etiladi. “Savdo varaqa” tasvirida inglizlarning Amerika hindulariga mazkur dorini tavsiya etayotganligi aks etgan. Amerika hindularining kundalik turmushi, jamoaviy xatti-harakati turli xil tovushlar, ovoz bilan bog‘liqligini inobatga olsak, reklamada hindularning tanlangani “savdo varaqa”ning ta’sirchanligini oshirgan (2-rasmga qarang).





2-rasm. Ayer’s Cherry PECTORAL tibbiy vositasi reklamasini o‘z ichiga olgan “savdo varaqasi”

Cornell universiteti olimlarining ta’kidlashicha, “turli xil dori-darmonlarni targ‘ib qiluvchi savdo varaqalar orqali biz asabiy dispepsiya, qaytalanuvchi isitma, holsizlik, assimilyatsiya, katara, tetter, nevrasteniya, tayanch-harakat ataksiyasi, tuxumdon nevralgiyasi, ayollarning shikoyatlari kabi “ajoyib” kasalliklar ro‘yxatiga duch kelamiz. Patent dori-darmonlari va ovqatlanish rejimlari juda ko‘p reklama qilingan va ikkalasi o‘rtasida juda nozik farq bor edi. Soda, tonik, fosfat, seltser va ildiz pivosi kabi nomlari saqlanib qolgan o‘sha davrlardagi suyuq “dori vositalari” bugungi kunda ko‘plab tetiklantiruvchi yaxna ichimliklarga to‘g‘ri keladi [9].

Xullas, “savdo varaqa”lari bilan yonma-yon gazeta va jurnallarda ham tibbiy mahsulotlar reklamasi chop etilgan. Biroq mahalliy aholini oq-qora rangdagi gazeta reklamasidan ko‘ra rangli tasvirlarni o‘z ichiga olgan “savdo varaqa”lari ko‘proq qiziqtirgan. “Savdo varaqa”lari o‘z davrining beqiyos reklama shakli bo‘lgan. Odamlar ularni yig‘ib, maxsus kolleksiyalar yaratishgan.

Ilk gazeta reklamalari Turkistonda ham ommalashgan. Xususan, “Turkiston viloyatining gazeti”da turli xabarlar bilan bir qatorda e’lon va reklamalarga o‘rin ajratilgan. Mazkur gazetada dastlabki tibbiy reklama (gigiyenik vosita (sovun) reklamasi) 1911-yilda chop etilgan (3-rasmga qarang).



3-rasm. “Turkiston viloyatining gazeti”da gigiyenik vosita reklamasi

Xullas, reklamalar uzoq tarixga ega bo‘lib, ular jamiyat hayotining barcha jabhalarida mavjud bo‘lgan. Xususan, tibbiyotga oid reklamalarning eng dastlabki ko‘rinishlari tijoriy (moddiy jihatdan foyda olish) emas, balki ijtimoiy xarakterda bo‘lib, ular jamiyat a’zolarining salomatligini saqlash, mustahkamlashga oid chaqiriqlar, da’vatlar, tavsiyalar shaklida namoyon bo‘lgan. Bu, dastlab, ayniqsa, muqaddas diniy kitoblarda namoyon bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik o‘z davrining mashhur hakimi Ibn Sino “urjuza”larida o‘z aksini topgan. Keyinchalik Yevropada “savdo varaqa”larining shakllanishi va ommalashishi tibbiy reklamalar taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘targan. Bora-bora gazeta, jurnal, radio kabilarning ommalashishi bilan tibbiy reklamalarning e’lon qilinish uslubi va shaklining o‘zgarib borishiga sabab bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тангейт М. Всемирная история рекламы. Пер. с англ. — 3-е изд. — М.: Альпина Паблишер, 2016. С. –20.
2. Собирова Д. Тиббий рекламаларнинг социопрагматик хусусиятлари. Филол. фан. фалс. докт. (PhD) дисс. – Қарши, 2022. – Б. 27.
3. Авесто: Яшт китоби./М.Исҳоқов таржимаси. — Т.: «Шарк», 2001. – Б. 61.
4. Sihat-salomatlik jurnali. 2020-yil, 10-11-son. 15-b.
6. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. Tarjimon: Abdulaziz Mansur. 68-b.
7. https://library.artstor.org/public/28280832
9. Cures and Curses: A History of Pharmaceutical Advertising in America. https://library.usa.edu/cures-curses-exhibit

Abdulla XUDAYQULOV,
TerDU dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Laylo JUMANAZAROVA,
TerDPI, 2-bosqich magistranti
E-mail: jumanazarovalaylo18@gmail.com

O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMALARNING ISHLATILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek pedagogikasiga ingliz tilidan o‘zlashgan leksik birliklar tahlil qilinadi. Globallashuv va ta’lim standartlashuvining tilga ta’siri, inglizcha atamalarning o‘zbek pedagogik kontekstida tutgan o‘rni atroflicha yoritiladi. Ushbu terminlarning o‘zbek tiliga o‘zlashish darajasi zaruriyat, qo‘llanilish chastotasi va vaqt nuqtayi nazaridan tasniflanadi. Maqolada hozirgi kunda faol qo‘llanilayotgan inglizcha terminlar aniqlanib, aniq me’zonlar asosida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik terminlar, ta’limning standartlashuvi, to‘liq o‘zlashgan, yarim o‘zlashgan va yangi o‘zlashayotgan terminlar, neologizmlar, qo‘llanish chastotasi.*

Аннотация: в данной статье анализируются лексические единицы, заимствованные из английского языка в узбекскую педагогику. Подробно рассматривается влияние глобализации и стандартизации образования на язык, роль английских терминов в узбекском педагогическом контексте. Степень заимствования этих терминов в узбекский язык классифицируется по необходимости, частоте использования и времени. В статье выявляются и изучаются активно используемые в настоящее время английские термины на основе конкретных критериев.

Ключевые слова: *педагогические термины, стандартизация образования, полностью ассимилированные, частично ассимилированные и вновь ассимилированные термины, неологизмы, частота*

Annotation: this article analyzes the lexical units that have been absorbed from English into Uzbek pedagogy. The impact of globalization and educational standardization on the language, the role of English terms in the Uzbek pedagogical context are covered in detail. The degree of absorption of these terms into the Uzbek language is classified in terms of necessity, frequency of use and time. The article identifies and studies English terms that are currently actively used based on specific criteria.

Key words: *pedagogical terms, standardization of education, fully assimilated, semi-assimilated and newly assimilated terms, neologisms, frequency of use.*

Kirish. O‘zbek tilining pedagogik terminologiyasi kun sayin boyib bormoqda. Xususan, ta’lim va tarbiya jarayonlarida ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarning salmog‘i va ahamiyati tobora kengayib bormoqda. Ta’limning standartlashuvi hamda ingliz tilining global ilm-fan va ta’lim tiliga aylanishi bilan bog‘liq ushbu jarayon inglizcha terminlarning nafaqat ilmiy adabiyotlarda, balki amaliy pedagogik jarayonlarda ham faol ishlatilishiga olib kelmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi – o‘zbek pedagogikasida qo‘llanilayogan inglizcha terminlarning o‘zlashish darajasini aniqlash va misollar orqali tasniflashdan iboratdir. Maqolada terminlarning fonetik, grafik hamda semantik moslashuvi asosiy me’zon sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Terminologiyaga o‘zlashmalar masalasi keng o‘rganiladigan yo‘nalishlardan hisoblanadi. Xorijiy olimlar tomonidan o‘zlashmalarning til tizimiga kirish bosqichlari va ularning moslashuv darajalari atroflicha tadqiq qilingan. Bu jarayonda terminlarning fonetik, grafik hamda semantik moslashuvi asosiy e’tibor markazida bo‘lgan. O‘zbek tilshunosligida ham ushbu masalaga doir qator ilmiy ishlar mavjud bo‘lib, ularda asosan, rus va arab tillaridan kirib kelgan pedagogik terminlar tahlil qilingan. So‘nggi yilarda esa zamon talabiga moslashgan holda inglizcha o‘zlashmalarga qiziqish ortgan va bu borada ham qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Biroq terminlar bir joyda to‘xtab turmaydi, kun sayin yangi terminlar oqimi kirib kelaveradi va tilimizda pedagogik terminologiya doirasida inglizcha o‘zlashmalarning lingvistik tahlili yetarli darajada tizimli o‘rganilmagan.

Terminologiya va pedagogik terminlarni o‘rganish borasida o‘zbek olimlari tomonidan qator izlanishlar olib borilgan, jumladan, Sh.Rahmatullayev, H.Dadaboyev, N.Mahmudov [1], O.S.Ahmedov, H.Jamolxonov, N.N.Azizxo‘jayeva [2], L.S.Azizova [3] va boshqalarning tadqiqotlari alohida e’tiborga sazovordir.

MDH olimlaridan L.P.Krysin [4], I.V. Kichayeva [5], B.M.Leychik [6], L.A.Marenko [7] kabi tilshunoslar terminologiya sohasining shakllanishi, asoslari va tartibga solinishini masalalari yuzasidan tadqiqotlar olib borishgan. Bundan tashqari, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman, qoraqalpoq tillari terminologiyasida ham ayni masalalar o‘rganilgan. Jumladan, ingliz o‘zlashmalarining rus tiliga o‘zlashishi borasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan olim L.P.Krisin shuni ta’kidlaydiki, “bir tildan ikkinchi tilga turli elementlarning xoh og‘zaki, xoh yozma kirib kelish jarayonini o‘zlashtirish deb atash maqsadga muvofiqdir. Mazkur o‘zlashish jarayonida tildagi turli elementlar tilning tuzilishga qarab – fonologiya, morfologiya, sintaksis, leksika, semantika kabi jabhalarda o‘zgarishlarga uchrab kirib kelishini anglatadi” [4:16].

Jahon tilshunosligida esa E. Vuster, J. Sager, H. Felber, S. Rayt, Basil Bernstein va M. Kabre, J. Smit [8] singari mashhur olimlar pedagogik terminlar va umuman, teminologiya sohasining shakllanishida o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shgan.

Ingliz va o‘zbek tillarida pedagogika sohasi leksikasining chog‘ishtirma tadqiqi borasida ham bir nechta ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, M.B.Nizomova [9], Z.B.Mustafaqulovalarning [10] ishlari ham mavjud. Ushbu ishlarda ta‘lim tizimining u yoki bu sohasida boshqa tillardan o‘zlashgan ayrim leksik birliklar tahlilga tortilgan. Bizning ishimizda bevosita inglizcha yoki etimologik jihatdan boshqa tillarga mansub bo‘lib, ingliz tili vositasida o‘zlashgan qator o‘zlashmalar tahlilga tortiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida chog‘ishtirma tahlil, lisoniy tavsif, kvantitativ, semantik-struktur, leksik, tasniflash, tavsiflash metodlaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar. Zamonaviy o‘zbek terminologiyasida ingliz tili dominantlik qilmoqda, ayniqsa, axborot texnologiyalari va pedagogika sohasidagi terminlar bevosita o‘zlashtirish orqali kirib kelmoqda. Ta’limning standartlashuvi, globallashuv jarayonlari va texnologiyalarning jadal rivoji bunda muhim rol o‘ynamoqda.

Boshqa terminlar singari pedagogik terminlarning ham tilga o‘zlashishini belgilovchi qator omillar mavjud bo‘lib, ular terminning tilda qancha vaqt davomida ishlatilishi, so‘z ifodalaydigan tushunchaga bo‘lgan ehtiyoj va uning tildagi qo‘llanish chastotasini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, agar o‘zbek tilida muayyan tushunchani ifodalovchi muqobil bo‘lmasa, o‘zlashma tilga tezroq va chuqurroq o‘rnashadi.

Ingliz tilidan kirgan pedagogik terminlarni ona tilimizga qay darajada o‘zlashganligiga ko‘ra quyidagi asosiy uch guruhga ajratish mumkin:

1. To‘liq o‘zlashgan terminlar
2. Yarim o‘zlashgan terminlar
3. O‘zlashmagan oki yangi o‘zlashayotgan terminlar (neologizmlar).

To‘liq o‘zlashgan terminlar o‘zbek tilining imlo qoidalariga bo‘ysunadi va ularga o‘zbekcha qo‘shimchalar tabiiy qo‘shiladi. Ular o‘zbek tili tizimiga singib ketgan so‘zlardir. Misol tariqasida ushbu terminlarni keltirish mumkin:

Test (ingl. *test*) – Bilimni sinash usuli. (*Testlarimizni topshirdik*).

Klub (ingl. *club*) – Qiziqishlar bo‘yicha birlashma. (*Psixologlar klubi*).

Lider (ingl. *leader*) – Guruh yetakchisi. *(Bizning guruhda har bir talaba o‘zini haqiqiy lider sifatida ko‘rsatishga intiladi).*

Metod (*method*) – usul. (*Interfaol metodlardan dars davomida foydalanildi*).

Sistema (*system*) – tizim. *(Zamonaviy ta’lim sistemasi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan.)*

Fakt *(fact)* – dalil. *(Bugungi dars plani bo‘yicha mashg‘ulotlar yangi, interaktiv formatda tashkil etildi).*

Auditoriya *(auditory)* – darsxona. *(Keng va yorug‘ auditoriya).*

Institut (*institute)* – oliygoh. (*Institutda tashkil etilgan tadbir mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.)*

Akademiya (*academy)* – muassasa. *(Bizning institut bitiruvchilari Malaka oshirish uchun Fanlar akademiyasi qoshidagi kurslarda tahsil olishmoqda).*

Sertifikat *(certificate)* – guvohnoma. *(Bitiruvchilarga tantanali ravishda oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplom va qo‘shimcha kurs sertifikatlari topshirildi).*

Professor *(professor)* – ilmiy unvon. *(Keng va yorug‘ auditoriyada tajribali professor talabalarga ma’ruza o‘qimoqda).*

Keyingi turga kiruvchi yarim o‘zlashgan pedagogik terminlar gibrid yoki qisman moslashgan terminlar deb ham yuritiladi. Ularda inglizcha shakl saqlanib qoladi, lekin o‘zbekcha so‘z yasovchi qo‘shimchalar bilan birika oladi.

Trening (ingl. *training*) – Amaliy mashg‘ulot turi. Bugungi trening davomida talabalar jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishdi).

Monitoring (ingl. *monitoring*) – Kuzatish va nazorat qilish. (O‘quv jarayoni sifati yuzasidan muntazam ravishda monitoring o‘tkazib boriladi).

Innovatsiya (ingl. *innovation*) – Yangilik kiritish. (Ta’lim tizimiga tatbiq etilayotgan har bir innovatsiya dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi).

Menejment (ingl. *management*)–Boshqarish tizimi. (Oliy ta’lim menejmenti sohasida xalqaro tajribalarni o‘rganish juda muhim).

Kredit (ingl. *credit*) – O‘quv yuklamasi o‘lchovi. (Talaba o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan har bir fan uchun ma’lum miqdorda kredit ajratilgan).

Modul (ingl. *module*) – O‘quv fanining qismi. (Yangi o‘quv rejasi bo‘yicha talabalar fanni modul tizimi asosida o‘rganmoqdalar).

Reyting (ingl. *rating*) – Baholash ko‘rsatkichi. (O‘quv yili yakunida eng yuqori reyting ballarini to‘plagan talabalar rag‘batlantirildi).

Kouching (ingl. *coaching*) – Yo‘naltiruvchi ta’lim. (Pedagogik kouching usuli o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirishda samarali yordam beradi).

Tutorlik (ingl. *tutor*) – Murabbiylik faoliyati. (Universitetda joriy etilgan tutorlik tizimi talabalarning muammolarini hal etishga ko‘maklashmoqda).

Fasilitator (ingl. *facilitator*) – Yordam beruvchi pedagog. (Guruh ishida o‘qituvchi faqat fasilitator vazifasini bajarib, talabalarga yo‘l ko‘rsatdi).

Kompetensiya (ingl. *competence*) – Ko‘nikmalar majmuasi. (Zamonaviy mutaxassis nafaqat bilimga, balki yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyaga ham ega bo‘lishi shart).

O‘zlashmagan yoki yangi o‘zlashayotgan terminlarga tilimizga yaqin yillarda kirib kelgan o‘zlashmalar kiradi. Ular hali tilga “begona” dek tuyuladi va ko‘p hollarda asl inglizcha yoki unga juda yaqin shaklda ishlatiladi. Quyida ushbu turga kiruvchi terminlarga misollar keltirilgan.

Bulling (Ingl. *bullying*) – O‘quvchilar o‘rtasidagi tazyiq. (Maktab psixologi o‘quvchilar orasida uchraydigan bulling holatlarining oldini olish bo‘yicha suhbat o‘tkazdi).

Soft skils (Ingl. *soft skills*) – Yumshoq ko‘nikmalar. (Zamonaviy mehnat bozorida mutaxassisning kasbiy bilimidan ko‘ra uning soft skils darajasi yuqoriroq baholanmoqda).

Hard skils (Ingl. *hard skills*) – Qattiq ko‘nikmalar. (Muhandislik yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar darslarda murakkab hisob-kitoblar kabi hard skilslarini rivojlantirmoqdalar).

Mentoring (Ingl. *mentoring*) – Ustoz-shogirdlik tizimi. (Katta tajribaga ega o‘qituvchi yosh pedagogga mentoring qilish orqali dars o‘tish sirlarini o‘rgatmoqda).

Vebinar (Ingl. *webinar*) – Onlayn o‘quv seminari. (Masofaviy ta’lim doirasida tashkil etilgan xalqaro vebinarda mingdan ortiq pedagoglar ishtirok etishdi).

Keys-stadi (Ingl. *case study*) – Vaziyatli tahlil metodi. (Biznes maktabi talabalari real kompaniya muammosini keys-stadi usuli orqali tahlil qilib, yechim taklif qilishdi).

Vorkshop (Ingl. *workshop*) – Mahorat darsi, amaliy seminar. (Xorijiy mutaxassis ishtirokida vorkshop o‘tkazildi.

Fidbek (Ingl. *feedback*) – Qayta aloqa. (Dars yakunida o‘qituvchi o‘quvchilardan mavzuni qanchalik tushunganliklari haqida fidbek oldi).

Storiteyling (Ingl. *storytelling*) – Hikoya orqali o‘rgatish. (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi darsda storiteyling usulidan foydalandi.

Podkast (Ingl. *podcast*) – Ta’limiy audio material. (Ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun tayyorlangan maxsus podkastlar talaffuzni yaxshilashga yordam beradi).

Netvorking (Ingl. *networking*) – Kasbiy aloqalar o‘rnatish. (Xalqaro konferensiya ishtirokchilari uchun tashkil etilgan netvorking tadbiri yangi ilmiy hamkorliklarga yo‘l ochdi).

Breynstorming (Ingl. *brainstorming*) – Aqliy hujum metodi. (Guruh a’zolari yangi loyiha ustida ishlayotganda breynstorming usulidan foydalanishdi.

Tahlilga tortilgan materiallarda ko‘plab inglizcha atamalar ishlatiladi. Masalan, *peer assessment* (*peer* – tengdosh, assessment – baholash) va boshqa qator pedagogik diskursga oid terminga duch keldik. Mazkur termin o‘quvchilarning bir-birini baholashi orqali tahliliy va tanqidiy fikrlashni anglatadi. *Case study* (*case* – *holat*,

study – o‘rganish) amaliy vaziyatlar orqali o‘rganishga asoslangan tarmindir. O‘zbek tilida *keys-stadi* shaklida o‘zlashgan. *Blended learning* (*blend – aralashtirmoq*, *learning – o‘rganish.* Bu metodda onlayn va an’anaviy darslar uyg‘unlashtiriladi. O‘zbekchada *“blendlangan ta’lim”* deb yuritiladi); *Interactive Learning (inter – orasida, act – harakat.* Ushbu metodda talaba faol ishtirok etadi, dars muloqot shaklida tashkil qilinadi. “*Interaktiv o‘qitish”* shaklida keng qo‘llaniladi) kabi atamalarning keng qamrovli tahlilini amalga oshirganmiz.

E’tiborli jihati, boshqa sohalarga tegishli terminlar ham ta’lim sohasida keng qo‘llanilmoqda. Masalan, *menejer, start-up* va boshqalar.

Manager atamasi lotincha *manus* (“qo‘l”) ildizidan kelib chiqqan bo‘lib, italyan tilidagi *maneggiare,* ya’ni *boshqarish, idora qilish* fe’li orqali ingliz tiliga kirib kelgan. Bu termin bugungi kunda “*tashkilot yoki loyihani boshqaruvchi, mas’ul shaxs”* ma’nosini anglatadi. Ushbu atamaning o‘zbek tilidagi shakli *menejer* so‘zi bo‘lib, *sotuv menejeri*, *kadrlar menejeri*, *loyiha menejeri* kabi qator birikmalarda uchraydi va korporativ boshqaruv leksikasining muhim tarkibiy qismiga aylangan[1]. “*Ta’lim menejeri”* atamasi pedagogik diskursga faol qo‘llanilayotgan o‘zlashmalardandir.

Startap (ingl. *Start-up* – Innovatsion biznes loyihasi) atamasi ham keyingi vaqtlarda ko‘p qo‘llanilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2025-yildagi PF-232-son O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmonida inglizcha *Start-up* termini ishlatiladi: “IT соҳасига ихтисослашган олий таълим ташкилотлари ҳамда хусусий IT компаниялар билан юридик соҳада Legal Tech start-up лойиҳаларини амалга ошириш бўйича ҳамкорлик ўрнатиш”.

Misollardan ko‘rinadiki, ingliz o‘zlashmalari ko‘p o‘rinlarda so‘z oluvchi tilning ichki qonuniyatlariga moslashadi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek pedagogik terminologiyasida inglizcha o‘zlashmalar salmog‘i kun sayin kengayib bormoqda va bu har qachongidan kengroq izlanishlarni talab etadi. Qo‘llanish chastotasi, vaqt va zaruriyat natijasida bugun neologizm sifatida tilga kirgan termin bir necha yildan so‘ng gibrid va hatto to‘liq o‘zlashgan so‘z sifatida o‘zbek tili lug‘atlaridan o‘rin egallashi mumkin. Misol uchun, oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi *tyutor* atamasi besh-olti yil ilgari talabalar uchun ham butunlay yangi tushuncha hisoblangan bo‘lsa, hozir ularning ota-onalari uchun ham bu neologizm emas. Vaqt o‘tishi, zarurat kuchayishi va qo‘llanish chastotasi ortishi har qanday o‘zlashmaning tilga singib ketishini ta’minlaydi.

1 https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/manager

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mahmudov N. So‘z o‘zlashtirish va til madaniyati // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2011. – №3. 10–15-b.

2.Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. 160-b.

3.Azizova L.S. Inglizcha o‘zlashmalarning o‘zbek tili leksik qatlamidagi o‘rni. – Toshkent: Universitet, 2018. 88-b.

4.Крысин, Л. П. Иноязычные слова в современном русском языке. – Москва: Наука, 1968. 220 с.

5.**Кичева И.В. Формирование понятийно-терминологической системы педагогики в 90-е годы XX века: Автореферат дисс. ... док. пед. наук. – Пятигорск, 2004.** 44 с.

6.**Лейчик В.М. Терминоведение**: Предмет, методы, структу**ра. – Москва: КомКнига, 2009.** 256 с.

7.**Манерко Л.А. Истоки и основания когнитивно-коммуникативного терминоведения // Лексикология. Терминоведение. Стилистика**. – **М**.: **Рязань**, 2001. 124-125 **с**.

8.Smith J. Educational Terminology and Globalization: An Overview. – Oxford: Oxford University Press, 2021. 215 p.

9.Nizomova M.B. Ingliz va o‘zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarning struktur-semantik xususiyatlari va tarjima muammolari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. – Termiz, 2022. 54-b.

10.Mustafaqulova Z. Til o‘qitish metodikasiga oid leksik birliklarning (anglisizmlarning) tadqiqi. *«ACTA NUUz»*, *1*(1.7). 2025. 267– 269-b.

Munira AKBAROVA,
Qo‘qonDU dotsenti, f.f.b.f.d., PhD
ORCID: 0000-0002-4837-4883
Email: akbarovam1989@mail.ru

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA “ALDANGAN KUTILGANLIK” FENOMENINING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida “kutishning aldanishi” fenomeni (foregrounding)ning nazariy asoslari, uning stilistik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu hodisaning badiiy matndagi namoyon bo‘lish shakllari, normadan og‘ish orqali yuzaga keladigan ekspressivlik va kommunikativ ta’sir mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, fenomenning o‘zbek tilshunosligida mustaqil termin sifatida shakllanmaganligi, biroq stilistika va matn lingvistikasi doirasida faol qo‘llanilishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *kutishning aldanishi, foregrounding, “aldangan kutilganlik”, stilistika, normadan og‘ish, ekspressivlik, badiiy matn, pragmatika, o‘zbek tilshunosligi.*

Annotation: this article analyzes the theoretical foundations of the phenomenon of “deceit of expectation” (foregrounding) in Uzbek linguistics, its stylistic and pragmatic features. The forms of manifestation of this phenomenon in the literary text, the mechanisms of expressiveness and communicative influence arising from deviation from the norm are scientifically substantiated. It also highlights the fact that the phenomenon has not been formed as an independent term in Uzbek linguistics, but is actively used within the framework of stylistics and text linguistics.

Key words: *deception of expectation, foregrounding, “deceited expectation”, stylistics, deviation from the norm, expressiveness, literary text, pragmatics, Uzbek linguistics.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы феномена «обмана ожиданий» (выдвижения на первый план) в узбекской лингвистике, его стилистические и прагматические особенности. Научно обоснованы формы проявления этого феномена в литературном тексте, механизмы выразительности и коммуникативного влияния, возникающие при отклонении от нормы. Также подчеркивается тот факт, что феномен не сформировался как самостоятельный термин в узбекской лингвистике, а активно используется в рамках стилистики и текстовой лингвистики.

Ключевые слова: *обман ожиданий, выдвижение на первый план, «обман ожиданий», стилистика, отклонение от нормы, выразительность, литературный текст, прагматика, узбекская лингвистика.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda nutqning ta’sirchanligi va badiiylik darajasini belgilovchi muhim omillardan biri — bu kutishning aldanishi fenomeni hisoblanadi. Ushbu tushuncha ilk bor struktur tilshunoslik doirasida shakllangan bo‘lib, ayniqsa Praga lingvistik maktabi vakillari tomonidan rivojlantirilgan. Tilshunoslikda bu hodisa “foregrounding”, “обманутые ожидание”, “deceived expectation”, ya’ni nutqdagi muhim birliklarni ajratib ko‘rsatish orqali o‘quvchi e’tiborini jalb qilish sifatida talqin qilinadi. Bunda asosiy mexanizm til normasi buzilishi yoki kutilmagan birliklarning qo‘llanishidir. Aksar tilshunoslar tilning stilistik jihatdan tuzilishi yuzasidan mulohaza yuritar ekan, ular kutilmaganlik belgisiga turlicha e’tibor qaratganlar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. K.A.Dolinin belgi ekspressivligi borasida so‘z yuritar ekan, “nutqda amaliy jihatdan har qanday ifoda, agar u kutilmagan, oldindan aytib bo‘lmaydigan tarzda bo‘lsa, ekspressiv bo‘la olishi”ni alohida ta’kidlaydi va mazkur hodisa tilshunoslikda “aktuallashuv”, “aldangan kutilganlik effekti”, “me’yordan og‘ish” kabi terminlar bilan ham yuritilishini qayd etadi.[7]

Viktor Shklovsky nazariyasiga ko‘ra, san’atning asosiy vazifasi – odatiy narsani noodatiy shaklda ifodalashdir[1]. Tilshunoslikda aldangan kutilganlik fenomeni – bu tinglovchi yoki o‘quvchining oldindan shakllangan tilga oid kutilmalari (grammatika, ma’no, uslub, kontekst) real nutq bilan mos kelmaganda yuzaga keladigan psixolingvistik holatdir. Natijada inson nutqni noto‘g‘ri tushunadi yoki uni qayta talqin qilishga majbur bo‘ladi. Tilni qabul qilish jarayonida inson miyasi passiv emas – u oldindan ehtimoliy ma’nolarni taxmin qiladi, gapni “bosqichma-bosqich” tushunadi, eng oson va tez talqinni tanlaydi. Agar keyingi ma’lumot bu talqinni inkor etsa, “aldangan kutilma” yuz beradi. Tinglovchi gapning boshidan ma’no taxmin qila boshlaydi (boshlang‘ich kutilma), gapning birinchi qismi asosida “to‘g‘ri” deb qabul qilingan tushuncha paydo bo‘ladi (vaqtinchalik talqin), keyingi so‘zlar bu talqinni buzadi (mos kelmaslik), miya gapni boshqatdan tushunishga majbur bo‘ladi (qayta ishlash (reanaliz)).

O‘zbek tilshunosligida mazkur fenomen alohida termin sifatida kam ishlatilgan bo‘lsa-da, u stilistika, poetika va matn lingvistikasi doirasida keng o‘rganilgan. Matnda o‘quvchi kutgan standart tuzilma buzilganda, diqqat aynan shu elementga qaratiladi. Bu jarayon grammatik og‘ish, leksik yangilik, sintaktik inversiya orqali yuzaga keladi. Masalan, o‘zbek tilida odatiy gap tartibi ega–to‘ldiruvchi–kesim bo‘lsa, bu tartibning buzilishi stilistik effekt beradi. O‘zbek tilshunosligida stilistika XX asr o‘rtalaridan boshlab faol rivojlandi va dastlab badiiy tilni o‘rganishga

yo‘naltirildi. Bu jarayonda badiiy nutqning ifodaliligi, tilning estetik funksiyasi, normadan og‘ish holatlari asosiy tadqiqot obyektiga aylandi.

Badiiy matnda leksik darajada “kutishning aldanishi” hodisasining namoyon bo‘lishi neologizmlar, okkazional birliklar, metaforik kengayish orqali yuzaga chiqadi. Masalan: “Jimjitlik qichqirdi.” Bu yerda semantik zidlik orqali kuchli ekspressivlik hosil qilinadi. O‘quvchi “jimjitlik” so‘zini o‘qishi bilan sukunat, tinchlik, tovush yo‘qligini idrok etadi, ya’ni ongimizda “jimjitlik” so‘zi orqali “hech qanday shovqin yo‘q” degan mantiqiy kutish yuzaga keladi. Gapning ikkinchi qismi “qichqirdi” so‘zi baland, keskin tovushni bildiradi. Bu yerda jimjitlik (sukunat) + qichqirish (shovqin) bir-biriga zid tushunchalar to‘qnashadi. Natijada o‘quvchining kutishi buziladi. O‘quvchida kutish buzilgani bois u to‘xtab, o‘ylab qoladi, matndan oddiy ma’no emas, chuqurroq hissiy ma’no izlay boshlaydi. “Jimjitlik qichqirdi” aslida tashqi sukunat ichki kuchli hissiyotlarni yashira olmayotganini, sukutning o‘zi ham “og‘riq”, “azob” yoki “bosim” bilan to‘la ekanini bildiradi. Masalan, og‘ir vaziyatdagi sukut, aytilmagan gaplar, ichki iztirob kabi hissiyotlarni ifodalaydi. Mazkur ifoda oddiy tasvir emas, balki o‘quvchini chalg‘itib, chuqurroq fikrlashga majbur qiladigan kutishning aldanishi usuli hisoblanadi.

Muhokama. Aldangan kutilganlikning sintaktik jihatdan yuzaga chiqishi inversiya, elliptik konstruksiyalar orqali o`z ifodasini topadi. Masalan, “Ketdi u. Hech narsa demay.” Bu konstruksiya o‘quvchi kutgan to‘liq gap modelini buzadi va dramatik effekt beradi. Oddiy nutqda biz “U hech narsa demay ketdi” ko‘rinishidagi bir butun, silliq gapni kutamiz, ya’ni, harakat (ketdi) va holat (hech narsa demay) bitta sintaktik tuzilma ichida kelishini kutamiz. Bu yerda esa gap ikki bo‘lakka bo‘lingan: “Ketdi u.” va “Hech narsa demay.” Ikkinchi qism mustaqil gapdek ajratilgan, aslida esa u birinchi gapga bog‘liq. Bu grammatik va sintaktik me’yordan chekinish hisoblanadi. Mazkur gap tuzilishi orqali birinchi qismda (“Ketdi u”) harakat keskin va yakuniy tuyuladi, keyingi “Hech narsa demay” kechikib kelgan urg‘u beradi. Buning natijasida o‘quvchi avval ketish faktini qabul qiladi, keyin esa uning qanday ketganiga alohida e’tibor qaratadi. Ikkinchi qismni alohida ajratish sukutni kuchaytiradi, aytilmagan gaplarning og‘irligini his qildiradi, ichki ziddiyat, ranjish yoki sovuqlikni ko‘rsatadi. Bu oddiy xabar emas, balki “u jim ketdi va aynan shu jimlik muhim” degan ma’noni urg‘ulaydi.

Natijalar. Kutishning aldanishi pragmatik jihatdan o‘quvchi kutishini boshqaradi, matnning ta’sir kuchini oshiradi, yashirin ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Bu jarayon o‘quvchi tafakkuri bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Mazkur fenomen badiiy matnda emotsional ta’sirni kuchaytirish, obrazlilikni oshirish, muallif uslubini individuallashtirish, o‘quvchini faol interpretatsiyaga jalb qilish kabi bir qator vazifalarni bajaradi.

O‘zbek tilshunosligida “kutishning aldanishi” termini kam qo‘llanilishiga qaramay, stilistik effekt, normadan og‘ish, ekspressiv vositalar orqali badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish jarayonlarida mazkur terminga ehtiyoj seziladi. Shu sababli, o‘zbek tilshunosligida mazkur hodisani chuqur ilmiy tadqiq etish, termin sifatida alohida ajratish zarurati mavjud.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “kutishning aldanishi” fenomeni o‘zbek tilshunosligida mustaqil termin sifatida yetarlicha shakllanmagan. Biroq u stilistika va matn lingvistikasi doirasida faol qo‘llaniladi. Ushbu fenomen badiiy matnning ekspressivligini ta’minlovchi asosiy mexanizmlardan biridir. Kelgusida uni kognitiv va pragmatik yo‘nalishda chuqurroq o‘rganish muhim ilmiy natijalar beradi. “Aldangan kutilganlik” fenomeni faqat stilistik vosita emas, balki murakkab pragmatik strategiyadir. U o‘quvchi e’tiborini jalb qilish, matnning estetik qiymatini oshirish, interpretatsiya jarayonini faollashtirish, ko‘p qatlamli ma’no hosil qilish kabi bir qancha funksiyalarni bajaradi. Shuningdek, bu fenomen zamonaviy adabiyotda postmodern uslub bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lib, an’anaviy narrativ kutishlarni buzishga xizmat qiladi. “Aldangan kutilganlik” fenomeni badiiy matnda muhim kommunikativ va kognitiv vosita hisoblanadi. U bir qator jihatlari bilan ajralib turadi: kommunikativ strategiya sifatida muallif va o‘quvchi o‘rtasida interaktiv aloqani ta’minlaydi, pragmatik effektlar orqali matnning ta’sir kuchini oshiradi, diskursni boyitadi va ko‘p qatlamli ma’no yaratadi, o‘quvchini faol interpretatorga aylantiradi. Shu bois, mazkur hodisani o‘rganish nafaqat lingvistika, balki adabiyotshunoslik va kognitiv fanlar uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shklovskiy V. Iskusstvo kak priem // Russian Formalist Criticism: Four Essays / Ed. by L. T. Lemon, M. J. Reis. – Lincoln: University of Nebraska Press, 1965. P. 3–24.

2. Galperin I. R. Stilistika angliyskogo yazyka. – Moskva: Vysshaya shkola, 1977. 332 s.

3. Yakobson R. Lingvistika i poetika // Style in Language / Ed. by T. A. Sebeok. – Cambridge, MA: MIT Press, 1960. P. 350–377.

4. Akbarova, Munira Sh. “Linguopoetic features of unusual compounds in the literary text.” Current research journal of philological sciences 3.05 (2022): 73–76.

5. Akbarova, Munira Shavkatovna. “Features of Linguopoetic Analysis of Literary Text.” International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology (2022).

6. NIZAMOVA, S., & AKBAROVA, M. (2021). Lexical-semantic analysis of some nicknames. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, 10, 563–565.

7. Долинин К.А. Стилистика французского языка. –Л.: «Просвещение», 1978. С. 120.

Kamolaxon ORIPOVA,
Qo‘qon davlat universiteti
o‘qituvchisi (PhD);
Zulfiyaxon MASODIKOVA,
Xorijiy filologiya fakulteti dotsenti

SO‘Z MA’NOSINING SEMANTIK STRUKTURASI VA UNING LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya: mazkur ishda tilshunoslikda ma’no tuzilishi, semantik komponentlar hamda konseptual yondashuv masalalari tahlil qilinadi. Komponent tahlili, semalar ierarxiyasi va ularning til birliklaridagi ifodalanishi ilmiy jihatdan yoritilib, til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *semantik tahlil, komponent tahlili, sema, arxisema, differensial sema, konsept, til va tafakkur*

Annotation: this study analyzes issues of meaning structure, semantic components, and conceptual approaches in linguistics. It examines component analysis, the hierarchy of semes, and their linguistic realization, revealing the interrelation between language, thinking, and culture.

Key words: *semantic analysis, component analysis, seme, archiseme, differential seme, concept, language and thinking.*

Аннотация: в данной работе рассматриваются вопросы структуры значения, семантических компонентов и концептуального подхода в лингвистике. Анализируются компонентный анализ, иерархия сем и их языковая реализация, а также раскрывается взаимосвязь языка, мышления и культуры.

Ключевые слова: *семантический анализ, компонентный анализ, сема, архисема, дифференциальная сема, концепт, язык и мышление.*

Tilshunoslikda qo‘llaniladigan so‘z tahlili metodlari muayyan lingvistik nazariya va ilmiy metodologik yondashuv asosida shakllangan bo‘lib, har bir metod til hodisalarini o‘rganishda o‘ziga xos tamoyillarga tayanadi. Shu bilan birga, ilmiy-amaliy tajribalar birgina metoddan foydalanish doimo yetarli natija bermasligini, aksincha, bir necha tahlil usullarining o‘zaro uyg‘unlashuvi samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi. Bunday integrativ yondashuvda har bir metod boshqa usullarni nafaqat to‘ldiradi, balki ularning natijalarini aniqlashtirish va chuqurlashtirish imkonini ham yaratadi.

Lingvistik tahlil usullari ularning shakllanishiga asos bo‘lgan metodologik tamoyillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi sababli, ular odatda ilmiy metodlar kesimida tasniflanadi. Shu nuqtayi nazardan, tilshunoslikda keng qo‘llaniladigan asosiy metodlar qatoriga gipotetik-deduktiv metod, oppozitsiyalar metodi, distributiv-statistik tahlil, valentlik tahlili, komponent tahlili, kontekstologik tahlil hamda matnni avtomatik tahlil qilish metodlari kiradi. Mazkur metodlar til birliklarining semantik, strukturaviy va funksional xususiyatlarini chuqur tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

M. V. Nikitinning ta’kidlashicha, ma’no — bu muayyan belgi bilan bog‘langan konsept hisoblanadi. Shu sababli ma’no nafaqat mazmuniy jihatga, balki til tizimiga xos bo‘lgan aloqador lingvistik xususiyatlarga ham ega bo‘ladi. Olim ushbu xususiyatlarni “ma’noning tilshunoslikdagi statusi” tushunchasi orqali izohlaydi. Mazkur status ma’lum bir so‘z ma’nosining nominativ til vositalari tizimidagi o‘rnini belgilovchi nomazmuniy belgilar yig‘indisini anglatadi. Boshqacha aytganda, u ma’noning tilda qanday shaklda mavjud bo‘lishini, konseptning qaysi usul orqali ifodalanishini, ushbu ifoda usulining boshqa vositalarga nisbatan funksional xususiyatlarini, qo‘llanish shartlari hamda uning til tizimidagi tarqalish darajasini belgilaydi.

Tilshunoslikda so‘z strukturasi deganda so‘zni tashkil etuvchi komponentlarning tarkibi va o‘zaro tashkil topish tizimi tushuniladi. So‘z kombinator xarakterga ega bo‘lib, bir tomondan morfemalardan, ikkinchi tomondan esa semantik komponentlardan tashkil topadi. A. P. Peshkovskiy grammatikaning boshlanishini aynan so‘zning nafaqat tovush, balki ma’no jihatdan ham tarkibiy qismlarga ajralishi bilan bog‘laydi. Bu esa til birliklarining ichki semantik tuzilishini o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, ma’no nazariyasiga oid hech bir mukammal konsepsiya komponent tahlil jarayonisiz to‘liq shakllana olmaydi. Ushbu tahlilning asosiy birligi sifatida “sema” tushunchasi qo‘llaniladi. Sema (yunoncha séma — “belgi”) til birligi ma’nosining eng kichik konstruktiv elementi hisoblanadi. Turli semantik nazariyalarda ushbu tushuncha “semantik komponent”, “semantik marker”, “differensial belgi” kabi terminlar bilan ham ifodalanadi. Semalar til birliklarining ma’no tarkibini aniqlash, ularning o‘zaro semantik farqlari va umumiyliklarini belgilashda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Zamonaviy tilshunoslikda til belgisi ma’nosi murakkab strukturaviy tizim sifatida talqin qilinib, uning tarkiban kichik semantik birliklarga ajralishi mumkinligi keng e’tirof etiladi. Ma’noni tarkibiy qismlarga ajratish jarayoni semantik dekompozitsiya deb yuritiladi va u til birliklarining mazmuniy tuzilishini ilmiy jihatdan tavsiflashning asosiy metodologik vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki har qanday lingvistik birlikka berilgan izoh yoki ta’rif mohiyatan uning semantik mazmunini yanada ochiq, kengaytirilgan va aniqlashtirilgan shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Semantik dekompozitsiya nazariyasida leksema ma’nosi uni tashkil etuvchi elementar semantik belgilar yig‘indisi sifatida qaraladi. Masalan, “bo‘ydoq” (inglizcha bachelor) leksemasining ma’nosi “hech qachon turmush qurmagan voyaga yetgan erkak” tarzida tavsiflanishi mumkin. Ushbu ta’rif asosida mazkur leksema ma’nosi bir necha semantik komponentlarga — “inson”, “erkak jinsi”, “voyaga yetganlik” va “nikohda bo‘lmaganlik” kabi semalarga ajratiladi. Natijada leksema semantikasi ko‘p qatlamli va ierarxik tuzilishga ega ekanligi namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslikda ushbu yondashuv komponent tahlili yoki sema tahlili metodi sifatida shakllangan bo‘lib, uning nazariy asoslari amerikalik olimlar J. J. Kats va J. A. Fodor tadqiqotlarida ishlab chiqilgan. Mazkur metod til birliklarining semantik tarkibini minimal ma’no elementlari orqali aniqlashga asoslanadi hamda leksemalar o‘rtasidagi umumiylik va differensial belgilarni ochib berishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan komponent tahlili semantik tadqiqotlarning universal va samarali metodlaridan biri sifatida baholanadi.

Komponent tahlili ma’no strukturasining iyerarxik jihatdan tartiblangan tizimini o‘rganishga qaratilgan semantik tahlil usuli hisoblanadi. Ushbu metodning asosiy maqsadi tilning leksik-semantik sathidagi bosh birlik bo‘lgan ma’noni yanada kichik va elementar semantik qismlarga ajratishdan iboratdir. Bunday elementlar tilshunoslikda sema, ma’no atomi, mazmun figurasi, differensial belgi, semantik marker, noema, semantik ko‘paytiruvchi yoki ma’no komponenti kabi terminlar bilan ifodalanadi. Aynan shu minimal semantik birliklarning o‘zaro birikishi natijasida muayyan leksemaning umumiy ma’nosi shakllanadi. Shu bois komponent tahlili til birliklarining ichki semantik tuzilishini, ularning umumiy va farqlovchi belgilarini aniqlashda muhim ilmiy metod sifatida e’tirof etiladi.

Leksik ma’noni tashkil etuvchi semalar muayyan tushunchalarning belgilariga mos keladi. Tushuncha belgilari esa o‘z navbatida real borliqdagi hodisa va predmetlarning xususiyatlarini aks ettiradi. Shu sababli semalar o‘z mohiyatiga ko‘ra nolingvistik asosga ega bo‘lib, insonning borliq haqidagi bilimlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Turli so‘z ma’nolarida umumiy semalarning mavjudligi va ularning takrorlanishi mazkur birliklarning mazmuniy jihatdan o‘zaro aloqadorligini ta’minlaydi.

Differensial semalar esa bir semantik guruh tarkibidagi so‘zlarni bir-biridan farqlovchi individual belgilarni ifodalaydi. Aynan shu semalar orqali til birliklarining o‘ziga xos semantik xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Demak, arxisema umumiylikni, differensial sema esa farqlilikni ta’minlovchi asosiy semantik komponent sifatida tilning leksik-semantik tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, semalarning iyerarxik tuzilishi til birliklari o‘rtasidagi paradigmatik va sintagmatik munosabatlarni aniqlashda ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki leksemalar ma’nosidagi umumiy va farqlovchi semalarning mavjudligi ularning ma’lum semantik maydon doirasida birlashishiga yoki o‘zaro qarama-qarshi qo‘llanishiga sabab bo‘ladi. Shu jihatdan sema tahlili nafaqat alohida so‘z ma’nosini ochib berish, balki tilning butun leksik tizimidagi ichki bog‘lanishlarni aniqlash imkonini ham yaratadi.

Semantik komponentlarning o‘zaro munosabati natijasida til birliklarida ko‘p qatlamli ma’no tizimi shakllanadi. Bunda ayrim semalar markaziy va asosiy ma’no yukini ifodalasa, boshqalari qo‘shimcha, uslubiy yoki emotsional-ekspressiv ma’no komponentlarini yuzaga chiqaradi. Shu sababli leksema ma’nosi faqat bitta semantik belgi bilan emas, balki murakkab semalar tizimi orqali shakllanadigan ko‘p qirrali semantik strukturadir.

Umuman olganda, zamonaviy tilshunoslikda ma’no va konsept masalalarini o‘rganish tilning semantik, kognitiv hamda kommunikativ tabiatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Til birliklari ma’nosi murakkab strukturaga ega bo‘lib, ular o‘zaro bog‘langan semantik komponentlar orqali shakllanadi. Shu sababli komponent tahlili, semantik dekompozitsiya va konseptual yondashuv kabi metodlar tilning ichki tizimini ilmiy jihatdan tadqiq etishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Katz, J. J., & Fodor, J. A. (1963). The structure of a semantic theory. *Language, 39*(2), 170–210.
2. Lyons, J. (1977). *Semantics* (Vol. 1–2). Cambridge University Press.
3. Leech, G. (1981). *Semantics: The study of meaning* (2nd ed.). Penguin Books.
4. Cruse, D. A. (1986). *Lexical semantics*. Cambridge University Press.
5. Jackendoff, R. (2002). *Foundations of language: Brain, meaning, grammar, evolution*. Oxford University Press.

Mohira SA'DULLAYEVA,
f.f.f.d. (PhD)
Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi
DSc mustaqil izlanuvchisi
E-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com
ORCID 0009-0004-5071-7066

O'G'UZ SHEVALARIDA MADANIY KONSEPTLARNING TIL BIRLIKLARI ORQALI IFODALANISHINING SEMANTIK-PRAGMATIK MODELI

Annotatsiya: ushbu maqola o'g'uz shevalarida madaniy konseptlarning til birliklari orqali ifodalanishini semantik-pragmatik nuqtayi nazardan modellashtirishga bag'ishlanadi. Tadqiqotning maqsadi o'g'uz arealidagi lingvokulturologik mazmunni tashuvchi birliklarni aniqlash, ularning semantik tuzilishi va nutqiy qo'llanish shartlarini birlashtiruvchi izchil modelni taklif etishdan iborat. Metodologiya sifatida konseptual tahlil, komponent tahlil, nutq aktlari va implikatura nazariyasi elementlari, shuningdek, korpusga yaqin dalillar asosida kontekstual-pragmatik tahlil qo'llanildi. Ilmiy yangilik shundaki, konseptning leksik, frazeologik va paremiyologik realizatsiyalarini yagona semantik-pragmatik tizim doirasida tasvirlaydigan uch bosqichli model ishlab chiqildi, unda denotativ yadroni, baholovchi-emotiv qatlamni va muloqot vaziyatiga bog'liq pragmatik indekslarni farqlash taklif etiladi.

Kalit so'zlar: *o'g'uz shevalari, madaniy konsept, lingvokulturologiya, semantika, pragmatika, frazeologiya, paremiologiya.*

Аннотация: настоящая статья посвящена семантико-прагматическому моделированию выражения культурных концептов языковыми единицами в огузских говорах. Цель исследования состоит в выявлении единиц, репрезентирующих лингвокультурное содержание огузского ареала, и в построении целостной модели, объединяющей их семантическое устройство с условиями речевого употребления. В качестве методологии использованы концептуальный анализ, компонентный анализ, элементы теории речевых актов и импликатуры, а также контекстуально-прагматический анализ на основе материалов, близких к корпусным данным. Научная новизна заключается в разработке трехуровневой модели, описывающей лексические, фразеологические и паремиологические реализации концепта в рамках единой семантико-прагматической система, в ней разграничиваются денотативное ядро, оценочно-эмотивный слой и прагматические индексы, зависимые от коммуникативной ситуации.

Ключевые слова: *огузские говоры, культурные концепты, лингвокультурология, семантика, прагматика, фразеология, паремиология.*

Annotation:this article explores semantic and pragmatic modeling of how cultural concepts are expressed through linguistic units in Oghuz dialects. The study aims to identify the units that encode linguocultural content in the Oghuz area and to propose an integrated model that links their semantic structure to conditions of language use in discourse. The methodology combines conceptual and componential analysis with selected tools from speech act theory and implicature, complemented by contextual-pragmatic examination of evidence comparable to corpus-based data. The main contribution is a three-layer model that represents lexical, phraseological, and paremiological realizations of a concept within a unified semantic-pragmatic matrix. The model distinguishes a denotative core, an evaluative-emotive layer, and pragmatic indices sensitive to communicative situation, including speaker stance and interactional goals.

Key words: *oghuz dialects, cultural concepts, linguocultural studies, semantics, pragmatics, phraseology, paremiology.*

Kirish. O'g'uz shevalari turkiy tillar makonida tarixiy qatlamlar, migratsion jarayonlar va areal ta'sirlar kesishgan hududiy ko'rinish sifatida ajralib turadi. Bunday shevalarda madaniy tajriba, ijtimoiy me'yor, qadriyat va kollektiv xotira til birliklariga ko'chib, ko'pincha standart til tasvirlay olmaydigan nozik semantik bo'yoqlarni yuzaga chiqaradi. Shunga qaramay, dialektal materialda madaniy konseptlarning ifodalanishini faqat leksik ro'yxat yoki etnografik sharhlar doirasida berish ko'p hollarda yetarli emas, chunki konsept til tizimida ma'no qatlamlari bilan birga nutqiy vaziyatda pragmatik kuchga ega bo'ladi. Mazkur muammo o'g'uz shevalarida, ayniqsa, muomala

odobi, qarindoshlik munosabatlari, mehmonnavozlik, uy-ro‘zg‘or marosimlari, sha’n va uyat, baraka va qut kabi madaniy tayanch tushunchalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Konseptning mazmuni faqat nominatsiya bilan tugamaydi; u baholash, ijtimoiy masofa, hurmat darajasi, aytilgan gapning bilvositaligi yoki ochiqligi, shuningdek, gapiruvchining pozitsiyasini ham kodlaydi.

Mavjud tadqiqotlarda turkiy tillarda konsept, lingvokulturologik birlik va diskursning o‘zaro bog‘lanishi turli yo‘nalishlarda izohlangan. Konseptual yondashuv konseptni kognitiv tuzilma sifatida talqin qilib, uning til orqali namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratadi, lingvokulturologik an’ana esa konseptni madaniy kod va qiymat tizimi bilan birga ko‘radi [2]. Dialektologiya doirasida shevalar lug‘aviy boylikni saqlovchi manba sifatida keng o‘rganilgan, lekin dialektal birliklarning pragmatik indekslari ya’ni vaziyatga bog‘liq ijtimoiy ma’nolari muntazam modellashtirish darajasiga ko‘tarilmagan. O‘zbek tilshunosligida shevalarning leksik-semantik xususiyatlari va frazeologik qatlamiga doir izlanishlar mavjud bo‘lsa-da [1], o‘g‘uz shevalari materialida konsept ifodasining semantik tuzilishi bilan nutqiy funksiyasi uyg‘un holda, qatlamli model asosida yoritilishi hanuz yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Xalqaro pragmatika va ma’no nazariyasida esa implikatura, presuppozitsiya, relevans va nutq aktlari kabi tushunchalar ma’no hosil bo‘lishini vaziyat bilan bog‘lab tushuntiradi [5; 6], biroq bu apparat o‘g‘uz shevalari materialiga moslashtirilgan holatda kam qo‘llangan.

Tadqiqotning maqsadi o‘g‘uz shevalarida madaniy konseptlarning til birliklari orqali ifodalanishini tushuntiradigan semantik-pragmatik modelni ishlab chiqish va uning ishlash mexanizmini dalillar asosida ko‘rsatishdan iborat.Vazifalar quyidagilarni qamrab oladi: birinchidan, o‘g‘uz shevalarida madaniy konseptlarni namoyon etuvchi leksik, frazeologik va paremiyologik birliklar sinfini ajratish; ikkinchidan, bu birliklarning semantik tarkibini yadroviy va periferik komponentlar bo‘yicha tavsiflash; uchinchidan, ularning nutqiy vaziyatda qanday pragmatik ma’no va ijtimoiy indekslarni hosil qilishini aniqlash; to‘rtinchidan, kuzatilgan hodisalarni umumlashtirib, uch bosqichli semantik-pragmatik matrisa shaklida model taklif etish.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot materiali sifatida o‘g‘uz shevalarida uchraydigan madaniy belgilangan leksik birliklar, turg‘un birikmalar, maqol-matallar va muomala formulalariga oid namunalar bazasi shakllantirildi. Materiallar dialektologik nashrlar, mavjud lug‘atlar, ekspeditsion qaydlar va tabiiy nutqqa yaqin yozib olingan kontekstlar asosida tanlab olindi; tanlovda birlikning madaniy konsept bilan bog‘liqligi, turli vaziyatlarda qo‘llanishi va baholovchi komponenti borligi asosiy mezon bo‘ldi. Nazariy poydevor sifatida konsept nazariyasi va lingvokulturologik talqin, shuningdek, pragmatik ma’no hosil bo‘lishi haqidagi qarashlar birlashtirildi [2; 5]. Metodlar majmuasiga komponent tahlil (yadro semalari va periferik semalarni ajratish), konseptual xaritalash (konseptning atributlari va ssenariylarini belgilash), kontekstual-pragmatik tahlil (nutqiy vaziyat, adresat, ijtimoiy masofa, maqsad va bilvositalik), shuningdek, funksional-semantik taqqoslash (bir konseptning turli birliklar orqali ifodalanish variantlari) kiritildi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida o‘g‘uz shevalarida madaniy konseptlarning ifodalanishi uch asosiy realizatsiya kanalida jamlanishi kuzatildi: leksik nominatsiya, frazeologik-kollokatsion ifoda va paremiyologik umumlashma. Leksik darajada konsept ko‘pincha predmet va munosabat nomlari orqali beriladi, biroq bunday nominatsiyalar semantik jihatdan neytral bo‘lib qolmaydi; ularning tarkibida ijtimoiy rol, hurmat, yaqinlik yoki taqiqlanganlik kabi nozik komponentlar yashirin tarzda mustahkamlangan bo‘ladi.Frazeologik darajada esa konsept odatda tayyor model orqali nutqiy tezkorlik, baholashning keskinligi yoki yumshoqligini ta’minlaydi; Paremiyologik darajada konsept “me’yoriy xulosa” shaklini oladi: maqol va matallar tajribani umumlashtirib, ma’lum vaziyatlarda qanday pozitsiya tutish kerakligini bildiradi, shu bilan konseptning normativ-aksiologik qirrasini faollashtiradi.

Taklif etilgan semantik-pragmatik model uch qatlamdan iborat bo‘ldi.Birinchi qatlam denotativ yadro sifatida belgilandi; bunda birlikning predmetli yoki voqeiy referenti, minimal “nima haqida”ligi ajratiladi. Ikkinchi qatlam baholovchi-emotiv komponentlardan tuzildi; bunda birlikning ijobiy yoki salbiy qiymatlanishi, intensifikatsiya darajasi, uyat, sha’n, baraka, mehmonnavozlik, saxovat kabi aksiosemalar bilan bog‘langan bo‘yoqlari ko‘rsatildi. Uchinchi qatlam pragmatik indekslar majmuasi sifatida tavsiflandi; bunda birlikning kim tomonidan, kimga, qaysi vaziyatda, qanday niyat bilan ishlatilishi va natijada qanday ijtimoiy ma’no hosil qilishi belgilandi. Pragmatik indekslar tarkibida kamida besh turdagi parametr barqaror uchrashi aniqlandi: adresatga nisbatan ijtimoiy masofa, hurmat va yumshoqlatish strategiyasi, bilvositalik darajasi, nizoni boshqarish yoki hamjihatlik yaratish funksiyasi, shuningdek, lokal identifikatsiya signali.

Model doirasida bir konseptning turli birliklar orqali “ko‘p kodli” ifodalanishi ham qayd etildi. Masalan, mehmondo‘stlik konsepti leksik darajada mehmon bilan

bog‘liq nominatsiyalarni, frazeologik darajada kutib olish va izzat-ikrom ssenariylarini, paremiyologik darajada esa mehmonni ulug‘lash yoki mehmonni ranjitmaslikka doir normativ xulosalarni birlashtiradi. Sha’n va uyat konsepti esa ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytishdan qochish, kinoya yoki yumshoq ishora qilish kabi pragmatik mexanizmlar bilan birga ishlaydi; bunda ikkinchi qatlamdagi baholash uchinchi qatlamdagi bilvositalik parametri bilan mustahkam bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Natijada, konsept ifodasi faqat ma’no “nimani bildiradi” degan savol bilan cheklanmay, “qanday ijtimoiy ta’sir qiladi” degan o‘lchov bilan ham tavsiflanadigan bo‘ldi.

Muhokama. Olingan natijalar konseptni faqat kognitiv birlik sifatida emas, balki muloqot jarayonida ishga tushadigan madaniy mexanizm sifatida ko‘rishga asos beradi. Bu jihat lingvokulturologiyada konseptning aksiologik tabiatiga urg‘u beradigan yondashuvlar bilan mos keladi [2], biroq taklif etilgan model ulardan farqli ravishda pragmatik indekslarni alohida qatlam sifatida ajratib, dialektal birlikning vaziyatga bog‘liq ijtimoiy kuchini tizimli ko‘rsatadi. Xalqaro pragmatika an’analarida implikatura va nutqiy hamkorlik tamoyillari ma’noning kontekstda hosil bo‘lishini tushuntiradi [6]; o‘g‘uz shevalari materialida esa aynan madaniy konseptlar bilan bog‘liq birliklar implikaturani kuchliroq rag‘batlantirishi kuzatildi, chunki ular adresatning umumiy madaniy bilimiga tayanadi. Demak, dialektal pragmatika “til bilimi” bilan “madaniy bilim”ning tutash nuqtasida ishlaydi va modelning uchinchi qatlamini asoslashga xizmat qiladi.

Natijalarning nazariy ahamiyati shundaki, dialektal lingvokulturologik birliklar uchun semantik va pragmatik tavsif bir-birini to‘ldiruvchi, ajralmas ikki o‘lchov sifatida ko‘rsatildi. O‘zbek dialektologiyasida sheva leksikasi ko‘pincha tarixiy-etimologik yoki leksikografik kesimda berilgan [1], rus tilshunosligida esa pragmatik ma’no va madaniy kodlar integratsiyasi bo‘yicha muayyan metodik yechimlar taklif etilgan [3]. Ushbu maqolada taklif etilgan matritsa yondashuvi ularning kuchli tomonlarini birlashtirib, konsept realizatsiyalarini uch birlik darajasida bir modelga jamlash imkonini berdi. Amaliy jihatdan bu, masalan, dialekt lug‘atlarida izoh berishda faqat “ma’nosi”ni emas, balki “qaysi vaziyatda ishlatiladi, qanday baho beradi, kimga nisbatan mos” kabi parametrlarni ham standartlashtirishga zamin yaratadi. Tarjimada madaniy konseptning denotativ ekvivalenti topilganda baholovchi va pragmatik qatlamlar mos kelmasa, model bunday nomoslikni oldindan ko‘rib, kompensatsiya strategiyalarini tanlashga yordam beradi.

FDU adabiyotshunoslik kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)
Email: dexqonovamaxsuma@gmail.com

XX ASRNING 80-90-YILLARIDA ABDULLA QODIRIY, OYBEK, ABDULLA QAHHOR IJODI VA O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI

Annotatsiya: XX asrning 80-90-yillari o'zbek adabiy tanqidchiligi o'ziga xos davrli ekanligi bilan tanqid taraqqiyotida alohida o'rin tutadi. XX asrning 80-yillar tanqidchiligida sho'ro davri "sotsrealizm" metodi hukmronligi ijodkor hamda adabiy jarayonga salbiy ta'siri, 90-yillarda istiqlol bois adabiy tanqidchilikning sinfiy, partiyaviy yondashuvlardan xalos bo'lganligi badiiy asarlarni baholashda xolislik va haqqoniylik, obraz yaratishda o'ziga xosligini belgilaydi. Bu davrda qodiriyshunoslik, oybekshunoslik, qahhorshunoslik maktablari ham taraqqiy etdi.

Kalit so'zlar: *80-90-yillari o'zbek adabiy tanqidchiligi, qodiriyshunoslik, oybekshunoslik, qahhorshunoslik, ijodkor shaxsiyati, xolislik va haqqoniylik.*

Аннотация: 80-90-е годы XX века занимают особое место в развитии узбекской литературной критики благодаря своей специфической периодичности. В литературной критике 80-х годов XX века господство метода «соцреализма» в советский период оказывало негативное влияние на творца и литературный процесс, а в 90-х годах вследствие независимости литературная критика освободилась от классовых и партийных подходов, что определяло объективность и справедливость в оценке художественных произведений, а также их оригинальность в создании образа. В этот период также развивались школы изучения достойнства (кодирийшунослик), Ойбека (ойбекшунослик) и Каххара (каххоршунослик).

Ключевые слова: *узбекская литературная критика 80-90-х годов, кодирийшунослик, ойбекшунослик, каххоршунослик, личность творца, объективность и справедливость.*

Annotation: the 1980s-1990s of Uzbek literary criticism occupies a special place in the development of criticism due to its distinctive period-specific characteristics. In the criticism of the 1980s, the domination of the Soviet-era "socialist realism" method negatively affected both the creator and the literary process, while in the 1990s, due to independence, literary criticism became free from class and party approaches, ensuring impartiality and fairness in the evaluation of literary works and uniqueness in character creation. During this period, the schools of Qodiriy studies, Oybek studies, and Qahhor studies also developed.

Key words: *uzbek literary criticism of the 1980s-1990s, Qodiriy studies, Oybek studies, Qahhor studies, creator's personality, impartiality and fairness.*

Bizga ma'lumki, 80-90-yillar oralig'i adabiy tanqidchiligida turli ilmiy qarashlar asosida cho'lponshunoslik, hamzashunoslik, qodiriyshunoslik, oybekshunoslik, qahhorshunoslik maktablari shakllandi. Xususan, Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Naim Karimovning tadqiqotlari asosida 80-90-yillar adabiy tanqidchiligida qodiriyshunoslik, oybekshunoslik, qahhorshunoslik qisman ko'p o'rganilgan. Ushbu ilmiy maktablar tadqiqida ham o'ziga xos jihatlar mavjud. Jumladan, **qodiriyshunoslik:** Abdulla Qodiriy ijodi kashf etildi, ijodkorning badiiy-estetik ideali kabi masalalar o'rganildi, yangi tahlil metodlariga tayanildi, kitobxon ommasiga yetkazish vazifasi avj oldi. **Oybekshunoslik:** ijodkor shaxsiyatiga e'tibor kuchaydi, asarlari hayotiy faktlar asosida tekshirildi, ayniqsa, she'riyati qayta o'rganildi. **Qahhorshunoslik:** ijodkor asarlari tahlilida ziddiyatli qarashlar yuzaga keldi. Mahorati, shaxsiyati tadqiq etildi. ***Qodiriyshunoslikka doir tadqiqotlar.*** Qodiriyshunoslik bo'yicha 80-90-yillar adabiy tanqidchilikda ko'p izlanishlar olib borilgan. Jumladan, M.Qo'shjonov yozuvchi mahoratini chuqur tadqiq etdi. U "Mehrobdan chayon" romanini "O'tkan kunlar" ga qiyosan tahlil qildi[1]. Birinchi romanda xon istibdodi natijasida yuz bergan fojialar aniq ko'rsatilgan bo'lsa, ikkinchi romanda katta fojia aks etgan bo'lsa ham, "O'tkan kunlar" darajasiga chiqarilmagan. Bundan tashqari, O'rta Osiyo xonliklarining

1 Қўшжонов М. Сайланма. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 42.

tipik markazi bo‘lgan Qo‘qon xoni Xudoyorxon va uning saroyida inson qadrining toptalishi, inson sha’niga to‘g‘ri kelmaydigan tubanliklar ochiq ko‘rsatilgan. Shuningdek, “O‘tkan kunlar”da o‘tmish chirkinliklari qahramonlar fojiasida aks etgan bo‘lsa, “Mehrobdan chayon”da xon istibdodi natijasidagi chirkin hayot ochib berilgan. Ikki romanning uslubi ham katta farq qiladi. Birinchi romandagi qahramonlar tanlovi ikkinchi romanda o‘zgaradi. Anvar oddiy mehnatkash xalq orasidan chiqqan. Otabek va Kumush xon saroyidan uzoqda xonning zulmini tortsa, Anvar va Ra’no shu xon saroyining muhitida jabr chekadi. Tadqiqotda tanqidchi Abdulla Qodiriyning tiliga yuqori baho beradi. Turli til uslublari hukm surgan davrda yozuvchi bugungi adabiy til me’yoriga to‘g‘ri keladigan uslubda realistik roman yaratgan. Yozuvchi asarlarida badiiylik va g‘oyaviylik omuxta bo‘lib ketgani natijasida ularni alohida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Uning yana bir maqolasi[2]da yozuvchining nasrdagi yutuqlari tilga olinadi. O‘zbek adabiyotida nasrning turli ko‘rinishlari uchrab turgan bo‘lsa ham, uning barkamol namunasi A.Qodiriy tomonidan yaratilgan. Ushbu roman janr nuqtai nazaridan Yevropa tushunchasiga to‘g‘ri keladigan namuna bo‘la oladi. Tanqidchi yozuvchini o‘zbek romanining asoschisi deyilishiga haqli, deb hisoblaydi. Romanning psixologik quvvati, milliy koloriti, syujet va kompozitsiyasi mukammal bo‘lsa ham, asar turli bo‘htonlar bilan kitobxonlar qo‘lidan tortib olingan. Romanning adabiyotshunos va tanqidchilar tomonidan salbiy baholanishi, unga qarshi janglar ko‘payib ketganini tanqidchi achinarli hol sifatida baholagan. “O‘tkan kunlar” romaniga bag‘ishlangan ilmiy risolasi[3]da esa roman kompozitsiyasi, g‘oyasi, tasvir usullari, syujet, konflikt, yechim kabilarni nazariy jihatdan puxta tahlil etdi. Toshkentlik bir yigitning savdo ishlari bilan Marg‘ilonga kelib qolishi va shu yerlik qizga oshiq bo‘lishini xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotdagi an’anaviy syujet – bir yurtdan ikkinchi yurtga borib qolgan, shu yurt qiziga oshiq bo‘lib, unga qiyinchiliklar bilan erishganiga qiyoslaydi. Munaqqid yozuvchini voqeliklarning keskin o‘zgarib, almashib turishidan keng foydalanganini ta’kidlaydi. Otabekka nisbatan kitobxonda muhabbat uyg‘otgandan keyin qiziq bo‘lmagan voqealar oqimini tasvirlab ketadi. Bu ham yozuvchining mahoratli ekanini isbotlaydi. Tanqidchi A.Qodiriyning o‘zbek ayollari xarakterini yaratishdagi o‘ziga xosligiga ham e’tibor qaratadi. Kumush obrazini ichki va tashqi go‘zalligi bilan tasvirlagan bo‘lsa, Ra’noni qahramon obraz qilib yaratadi. Chunki yozuvchi Kumush fojiasi tufayli kitobxon oldida o‘zini gunohkordek his qilgan. Umarali Normatovning bir qator tadqiqotlari[4]da ham A.Qodiriy ijodiga munosabat bildirgan. Uning fikricha, o‘zbek nasrida mehnatkash xalqning realistik obrazi “O‘tkan kunlar”da yaratilgan. Romanda shaxs va mehnatkash xalq muammosi ko‘tarilgan. Yozuvchining “Mehrobdan chayon” romanida ham shaxs va mehnatkash xalq munosabati ochib berilgan. Shuningdek, faollik ijobiy qahramonlarning yetakchi hislatiga aylangan. Realistik roman tendensiyasi asosida ikki romanda ham intellekt qahramon yaratish kuchli bo‘lgan. Ammo yozuvchi obrazlarni ideallashtirmagan. Yozuvchining realistik obrazlaridan biri Solih Mahdum ham adabiyotshunoslikda salbiy tip, qabohat timsoli sifatida qoralangan. Tanqidchi adabiyotshunoslikdagi munozaralarni keltirar ekan, adabiyotshunos A.Rahimovning “Solih Mahdumda nima ayb?” maqolasida obrazga qo‘yilgan ayblovlarni rad etgani, obrazning ijobiy fazilatlariga dalillar keltirgani, unga javoban Murtazo Qarshiboyev “Solih Mahdum farishtami?” maqolasida A.Rahimovga nisbatan e’tiroziga munosabat bildiradi. M.Qarshiboyev obrazni o‘ta salbiy kimsa sifatida qoralaydi va bir qator dalillar keltiradi. Tanqidchining fikriga ko‘ra, Solih Maxdum obrazini tasvirlashda yozuvchi realizmning eng mo‘tabar mezonlariga amal qilgan. Obraz kitobxonda nafrat ham, mehr ham uyg‘otmaydi. Uning tabiati rang-barang, obraz haqida hukm chiqaraman degan kishi, shubhasiz, yanglishadi[5]. Shu munozaralarni o‘qir ekanmiz, har bir tanqidchi o‘z dunyoqarashi asosida asarga yondashishini anglaymiz. Shu bilan birga, ushbu bir-birini rad etuvchi qarashlar adabiy tanqidning asosiy vazifasini ko‘rsatib bergan. Asar haqidagi turlicha fikrlar, bahslar shu sohaning rivoji uchun xizmat qilishini unutmasligimiz kerak.

Mustaqillik yillarida qodiriyshunoslik qayta jonlandi. Qator ilmiy tadqiqotlar ham yaratildi[6]. Xususan, Naim Karimov bu sohada barakali ilmiy izlanishlar olib bordi. Ozod Sharafiddinov ta’biri bilan aytganda: “XX asr o‘zbek adabiyotini ikkinchi yarmidagi o‘zbek adabiyotidagi

2 Қўшжонов М. Қайта қуриш ва ўзбек романи // Шарқ юлдузи, 1988. – № 1. – Б. 167-177.

3 Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 1994.

4 Норматов У. Насримиз анъаналари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978; Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007; Қодирий мўъжизаси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2010.

5 Норматов У. Сержило кулги // Шарқ юлдузи, 1991. – № 3. – Б. 191-198

6 Маҳмудова З. Абдулла Қодирий “Ўткан кунлар” романининг миллий ўзига хослиги: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996; Каримов Б. XX аср ўзбек адабиётшунослигида талқин муаммоси (қодирийшунослик мисолида): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002; Тўлаганова С. Ижодкор шахсияти ва бадиий қаҳрамон муаммоси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2019.

rivojlanishni Naim Karimovsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi”. Akademikning biografik metod asosidagi katta maqolasi[7]da Abdulla Qodiriyning hayotiga doir adabiyotshunoslikka ma’lum bo‘lmagan ma’lumotlar berildi. Qodiriyshunoslik 80-90-yillar adabiy tanqidchiligida keng o‘rganildi. 80-yillardan oshkoralik boshlangan bo‘lsa ham, yozuvchi asarlariga munosabatda tanqidchilarimiz o‘zlarini ehtiyot qildilar. Abdulla Qodiriyning yozuvchilik mahorati, yuksak saviyasini Matyoqub Qo‘shjonov va Umarali Normatov keng ommaga taqdim qildi. Mustaqillikdan keyingi yillarda ham ularning qodiriyshunoslikdagi faoliyati yangicha yondashuvlar asosida davom etdi. Naim Karimov Abdulla Qodiriy asarlarini biografik metod asosida tahlil qilib, yangi yo‘nalishning taraqqiyotiga hissa qo‘shdi. ***Oybekshunoslikka doir tadqiqotlar.*** O‘rganilayotgan davrda Oybek ijodi boshqalardan ko‘ra salmoqliroq tadqiq etildi. Hamid Olimjonning “Oybek prozada shoiru poeziyada prozaikdir. U eng mayda ikir-chikirlarni she’rda kuylay biladigan talantli shoirdir. U kishilar portreti, ko‘z va qosh harakatlarini juda aniq tasvirlab beradi...”[8], degan ta’rifi, shaxsiyati haqidagi zamondoshlari tomonidan aytilgan fikrlari oybekshunoslikda alohida o‘rin egalladi. Oybek she’riyati, nasri shu bilan birga, uning shaxsiyati ham qator tadqiqotlarga manba bo‘ldi. Oybekning shaxsiyati, o‘spirin Musodan yetuk Oybekkacha bo‘lgan davri Zarifa Saidnosirovaning[9] “Oybegim mening” nomli kitobidan o‘rin oldi. Uning ijodi bo‘yicha tadqiq olib borgan munaqqidlar, olimlar adib shaxsiyati, faoliyati, asarlari uslubi, g‘oyasi, poetik mahoratini tahlil qildilar. Tanqidchi Umarali Normatov ta’kidlaganidek: “Kim bilsin, ehtimol, hozirgi yosh tanqidiy iste’dodlar orasida Oybekni yoki G‘afur G‘ulom ijodini bizdan ham teranroq his qiladiganlari, bizdan ham yorqinroq, ta’sirliroq shaklda ochib beradiganlari bordir?”[10]. 80-90-yillar oralig‘ida eng ko‘p o‘rganilgan ijodkor Oybek ekani ma’lum. Shunga qaramay, tanqidchi Oybek ijodi qayta o‘rganish muhimligini qayd etadi.

Oybek ijodi Homil Yoqubov, Matyoqub Qo‘shjonov, Naim Karimov, Baxtiyor Nazarov, No‘mon Rahimjonov, Ibrohim G‘afurov, Akbarali Sabirdinov, Ulug‘bek Hamdam va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. 80-yillardan uning ijodiga munosabat yangilanib, qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, oybekshunoslikni Naim Karimovsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Biz oybekshunoslikni M. Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov hamda Naim Karimov tadqiqotlari asosida ko‘rib chiqamiz. Oybek ijodi bo‘yicha Ozod Sharafiddinov ancha vaqtgacha izlanmadi. Bu haqda munaqqid shunday degan edi: “Homil Yoqubov, Matyoqub Qo‘shjonov, Naim Karimov, Baxtiyor Nazarov, Ibrohim G‘afurov kabi zabardast oybekshunoslar panjasiga panja urishdan hayiqqandirman. Balki, hamisha Oybekning vujudida ufurib turadigan ulug‘vorlik qarshisida o‘zimni ojiz sezgandirman”[11]. Uning qayd etishicha, Oybek tavalludining 100 yilligi oldidan A.A’zam maqola yozishni maslahat beradi. Salomatligi yomonlashib kasalxonada yotgan olim Oybek ijodi bo‘yicha yaxshigina ilmiy maqola yozadi. Milliy universitetda chop etilgan to‘plam O. Sharafiddinovning “Millatni uyg‘otgan adib” maqolasi bilan ochilgan. Maqolada munaqqid bir matematik bilan bo‘lgan suhbatini yozar ekan, “Qaysi roman XXI asrga o‘tadi?”, degan savoliga, “Navoiy”, deb javob berganman, deydi. Uning yozishicha, Oybekning romani Alisher Navoiy siymosini anglash uchun yozilgan, chunki ulug‘ siymo haqida batafsil va to‘laqonli yozilgan roman edi. Tanqidchi Oybekning inson sifatida eng buyuk fazilatlarini ta’kidlaydi. “XX asrda ikkita komil inson o‘tgan bo‘lsa, ularning biri Oybekdir. Agar bitta bo‘lgan bo‘lsa, u ham Oybekdir”[12]. Ijodkorning xarakterini ham tasvirlab, undagi ijtimoiy adolat tuyg‘usi kuchli ekanligini qayd etdi. Oybekning “Na’matak” she’rini tahlilga tortib, shoirning adolat bilan kurashganini ta’kidlaydi. Oybek adabiyotshunos sifatida 1927-yili Cho‘lponni himoya qilgani, Oybekning “g‘oyaviy-siyosiy xatosi” aytilgan bo‘lsa-da, 1930- yillarning o‘rtasida “Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li” nomli risolasini yozishi munaqqidning aytishicha, “shakkoklik” edi. Shu ishlardan so‘ng Oybek ishdan ketib, ayolining maoshiga kun ko‘rishga majbur bo‘lgan. Shu qiyin sharoitda u o‘zining “Qutlug‘ qon”ini yaratadi. Bu romandan g‘oyaviy illat topilgandan so‘ng adib mafkuraviy tazyiq talabi bilan ba’zi obrazlarni kiritishga majbur bo‘ladi: “Unga yopishsa-yopishmasa, inqilobchi Petrov obrazini kiritib, uni Yo‘lchiga ustoz qilishga majbur etishadi. 1937-1938-yillar sharoitida Oybek “do‘stlari”ning talabiga yon berishga majbur bo‘ladi. Natijada, romanda so‘galga o‘xshagan sovuqdan-sovuq bir bob paydo bo‘ladi”[13]. Oybekning butun bir ijodi haqida tasavvur bera oladigan munaqqidning ushbu maqolasi oybekshunoslikning taraqqiyotida alohida o‘ringa ega. Naim Karimov umrining ko‘p qismi Oybek ijodini tadqiq

7 https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/naim-karimov-abdulla-qodiriy-qayerda-oqigan.html.

8 Олимжон Ҳ . Мукаммал асарлар тўплами. 10 том. 6-том. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 280-281.

9 Саидносирова З. Ойбегим менинг. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 5.

10 Норматов У. Талант тарбияси. – Тошкент: Ёш гвардия, 1980. – Б.142.

11 Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. 493-б.

12 Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. 496-б.

13 Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. 498-б.

etishga bag‘ishlangan. Uning “Oybek” (1985), “Oybek gulshanida qolgan g‘unchalar” (1985), “Oybek va Zarifa” (1990), “Ilhom chashmasining ajib mavjlari” (1982) singari asarlari shu izlanishlar natijasi. Uning Naim Karimovning “Oybek” nomli essesi yozuvchining tug‘ilishidan vafotigacha bo‘lgan davrini qamrab oladi. “Oybek gulshanida qolgan g‘unchalar”[14] risolasida esa Oybek ijodiy laboratoriyasi kirib boradi. Risolada ijodkorning turli adabiy janrlarga mansub tugallanmay qolgan badiiy asarlari tekshirilgan. Oybekning nashr etilgan barcha asarlari bilan yaqindan tanish bo‘lgan olim uning tugallanmay qolgan asarlarining g‘oyaviy mundarijasini tiklashga uringan va tegishli xulosalarga kelgan. ***Qahhorshunoslikka doir tadqiqotlar.*** Shu yillarda Abdulla Qahhor ijodi ham chuqur o‘rganilgan bo‘lib, yozuvchining adabiy portreti “Abdulla Qahhor zamondoshlar xotirasida”[15] kitobiga jam bo‘lgan. Ushbu kitobdagi “Jonli qoya” maqolasi akademik Matyoqub Qo‘shjonov qalamiga mansub. Uning xotiralari yozuvchining shaxsi, dunyoqarashi, ijodkorlik mahorati, adabiyotshunos sifatidagi olami haqida umumiy tasavvur beradi. Tanqidchi tomonidan berilgan yozuvchining quyma fikrlari uning shaxsini aniq ochib bergan: “Adabiyot – muqaddas narsa, u – iste’dod mahsuli. Adabiyot orqali kun ko‘rmoqchi, boylik va shuhrat orttirmoqchi bo‘lganlar bu muqaddas dargohga yotdirlar”. Matyoqub Qo‘shjonovga yozuvchining shu kabi fikrlari adabiyotshunoslik ilmida hamroh bo‘ldi. Munaqqid Abdulla Qahhor ijodi bo‘yicha qator tanqidiy tadqiqotlar yaratib, qahhorshunoslik taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shdi[16]. U ijodkorning o‘zbek adabiyotidagi muhim xususiyatlarini tahlil qilarkan, “Sarob”ning tahlilida uning yaxlitligiga e’tibor qaratadi. Yozuvchi asarlarining markazida bitta bosh qahramon turadi. Romanda ham Saidiy taqdiri batafsil yoritiladi, boshqa obrazlarga kam o‘rin beriladi. Bu orqali Saidiyning sotsial fojiasini ko‘rsatib beradi[17]. Uning hikoyalari, qissasida ham bosh qahramonning markazda turishi asarlarni badiiy jihatdan baquvvatligiga sabab bo‘lgan. Munaqqid xulosalarida “Qo‘shchinor chiroqlari” romani yuqoridagi an’anaga muvofiq yozilmagani, natijada badiiy jihatdan zaif yozilganini qayd etadi. Obrazlar psixologiyasi, hayotiy muammolar va o‘zgarishlarning kishilar ongiga ta’siri, qahramonlar ruhiyati kuchliligi, shuningdek, inson ichki dialektikasini chizish A.Qahhor ijodining muhim xususiyati. So‘z va kartina yaratishdagi ixchamlik prinsipi ham aynan yozuvchining uslubini belgilaydi. Yozuvchi hajviy asarlarida tasvirlangan o‘tmish voqealarida o‘zi ishtirok etadi. Asar ma’nosini detallarga yuklaydi. Markaziy obrazlarni xarakterlashda portret belgilari va nutq belgilaridan foydalanishini ta’kidlagan. Kutilmagan yechim bilan xulosalash usuli ham A.Qahhorning ijodida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. “Boshsiz odam”, “Mayiz yemagan xotin” hikoyalarida bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tanqidchining fikricha, “Mayiz yemagan xotin” hikoyasida kutilmagan yechim bilan ayolning xarakteri bir-biriga muvofiq kelmagan. “hikoyada yaratilgan yechim bilan xotin xarakteri mantiqi orasida ziddiyat bor. Mana shu ziddiyatning hal bo‘lishi, asarning hajviy portlash kuchini oshiradi”[18]. Yozuvchining asarlari hajviyligi kutilmagan yechimdan mohirona foydalanganligi hamda xarakterlarning soxta mantiqiga zid ravishda berilishidadir. Matyoqub Qo‘shjonov A.Qahhorning novatorligini tayyor usullardan foydalanmasligida, xalq hayoti ustida bosh qotirishida, xalq dardini xalqqa mukammal shaklda yetkazishida, xalqning milliy ruhidan, uning oldidagi tarixiy vazifalar talabidan kelib chiqib yozishida deb biladi.Bundan tashqari, uning xulosalarida yozuvchining ijodi o‘zining ichki ohangi, badiiy uslublari, hayotga nazar tashlash yo‘sinlari, voqelikning ko‘z ilg‘amas ichki oqimini payqash, xarakter yaratishda obrazlarning individual xislatlarini bo‘yoqdor ko‘rsatish singari xususiyatlarga ega ekanini qayd etadi. Qahhorshunos Ozod Sharafiddinov ham yozuvchi ijodi bo‘yicha keng izlanish olib bordi. Yozuvchining o‘ziga xos uslubini tadqiq etib, asarlarining ruhi, asarlaridan anqib turadigan xushbo‘y hidi, hayotga munosabati, fikrlash yo‘sini, asar tili uslubini tashkil etishini ta’kidladi. Yozuvchi tilining tabiiyligi, soddaligi, bezakdan xoliligi, so‘zni o‘ziga bo‘ysundirgani uslubining takrorlanmasligidir. Tanqidchining ustoziga ehtiromi “Ustoz o‘gitlari”[19] maqolasida aks etgan. Tanqidchi Y.Solijonov[20]ning fikrlarini keltirish joiz. Uning fikricha, A. Qahhor ilk hikoyalaridanoq talant qirralarini ko‘rsata olgan va tinmay o‘z ustida ishlagan. Birgina “Boshsiz odam”ning tahriri jarayonida uning ulkan san’atkor ekanligini anglash mumkinligini aytadi. Yozuvchi bosqichma-bosqich ijodida

14 Каримов Н. Ойбек гулшанида қолган ғунчалар. – Тошкент: Фан, 1985. 80-б.
15 Абдулла Қаҳҳор замондошлар хотирасида. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
16 Қўшжонов М. Ҳаёт ва маҳорат. – Тошкент: Ўздавлат бадиий адабиёт нашриёти, 1962; Абдулла Қаҳҳор ижодида сатира ва юмор. – Тошкент: Фан, 1973;
17 Қўшжонов М. Ҳаёт ва нафосат. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970; Абдулла Қаҳҳор ижодида сатира ва юмор. – Тошкент: Фан, 1973.
18 Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор ижодида сатира ва юмор. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 42.
19 Абдулла Қаҳҳор замондошлар хотирасида. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 287.
20 Солижонов Й. “Бошсиз одам”нинг такомиллашуви // Шарқ юлдузи, 1987. – № 9. – Б. 169-170.

ulkan muvaffaqiyat qozongan. 30-yil o‘rtalarida yaratilgan “Anor”, “O‘g‘ri”, “Bemor” hikoyalari O.Sharafiddinov tomonidan ijobiy baholandi. Uning ta’kidicha, o‘tmish mavzusidagi bu hikoyalarda oddiy odamlarning ayanchli taqdiri, xalqning boshidan kechgan haqsizliklar, haqoratlar fojiona mohiyati bilan hajman juda kichkina, ta’sir jihatidan keng tarzda namoyon bo‘ldi. “O‘g‘ri” hikoyasida hikoyaning ixchamligi, soddaligi, detallar yorqinligi, asar tili rangdorligi tahlil qilinadi. Yozuvchini portret chizmasdan (amin obrazi), yashashi, fikrlari haqida ma’lumot bermasdan ham obrazning ba’zi qiliqlaridan kitobxon ko‘z oldida u haqidagi tasavvur (razil, qabih)ni bera olishini yuksak baholaydi. Munaqqid xulosalarida asar g‘oya jihatidan sotsialistik realizmning namunasi ekanligini qayd etadi. Umuman, o‘tmish haqidagi hikoyalari badiiy jihatdan yuksak va shu hikoyalarida realistik prinsiplar shakllanib borgani aytiladi. Shuningdek, tadqiqotda sotsialistik tuzumning ma’naviyatga ta’siri yoki boshqa bir holatdagi ijobiy ko‘rinishlari ham tilga olinadi. “Uni “Sho‘ro mafkurasiga xizmat qilgan adib, binobarin, uning asarlarini bugun o‘qigan yoshlar mafkurasi buzilishi muqarrar”, deb hisoblashadi... To‘g‘ri, Abdulla Qahhor sho‘rolar zamonida yashagan va tabiiyki, shu zamon ramkalaridan chiqib keta olgan emas”[21]. Shunga qaramay, tanqidchi yozuvchi hamisha “chest” berib turadigan soldat emasligini anglagan, diqqat markazida inson tabiati va uning fazilat va nuqsonlari turgan, “Sinchalak”day mafkuraviy asarini ham yuksak badiiyat bilan sug‘organ yetuk ijodkor deb biladi.

Abdulla Qahhorning tanqidchilikka qo‘shgan hissasi tanqidchi Umarali Normatovning esdaliklari[22]da aks etgan. Yozuvchi nihoyatda bilimli, so‘zni kerakli o‘rinda ishlatadigan, haq so‘zni gapiradigan, tanqidchilikda ham shu prinsiplariga amal qiladigan shaxs bo‘lgan. Umarali Normatov[23] A.Qahhor o‘ziga yaqindan tanish bo‘lgan odamlar hayotini tasvirlashi, kundalik hayotiy voqealarni keskinlashtirib, qabartirib ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Uning bu usuli o‘zi tasvirlagan kishilarning alohida ajralib turishini ta’minlaydi. Munaqqidning fikricha, bunday keskinlashtirish va qabartirish obrazlarning hayotiyligiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Yozuvchining ifoda tarziga xos muhim xususiyatlardan yana biri yumorga moyilligida ko‘rinadi. Asarlaridagi kulgi fojiani yumshatishga xizmat qiladi. Shuningdek, nazariy jihatdan yetuk hamda estetik prinsiplarga ega san’atkor ekanini ta’kidlaydi. U “Hayot saboqlari” maqolasi[24]da “Sarob” romani bilan bog‘liq turli mulohazalarga to‘xtaladi. Romanga nisbatan salbiy munosabat yillar davomida rivojlandi. 1989-yilda ham bu qarashlar o‘z kuchini yo‘qotmagan. Uning fikricha, adabiyotshunoslik 30-yildan buyon romanni vulgar sotsializm ruhidagi qoralashlardan himoya qilish, romanning asl mohiyatini ochish bilan band bo‘lgan. Ko‘plab yaxshi tadqiqotlar yaratilgan. Shunga qaramay, bahslarga nuqta qo‘yilmagan. 30-yillarda yaratilgan “Sarob”ning ham zamona mafkuraviy ta’siriga berilgan o‘rinlari borligi va bu hech kimga sir emasligini aytgan. Maqolada O.Otaxonov tomonidan asarga bildirilgan asossiz mulohazalarga o‘z dalillari bilan javob qaytargan. Uning fikricha, maqola yozilgan yillarda “Sarob” tanqidchilar tomonidan adashganlar fojiasini, inson tabiatidagi ojizlik va xudbinlikni badiiy tadqiq etuvchi asar sifatida baholangan. Qahhorshunoslik 80-90-yillar oralig‘ida chuqur o‘rganildi. Yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati, badiiy saviyasi, tili, uslubi turlicha baholandi. Ammo asarlarning matn osti ma’nosi, yozuvchining ideali, ichki niyati biroz chetda qoldi. 90-yillardan keyingi tadqiqotlardagina yuqoridagilar aks eta boshladi. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, qodiriyshunoslik, oybekshunoslik, qahhorshunoslik maktablari shu yillarda shakllandi. Xarakterli tanqidchilarimizgina Abdulla Qodiriy ijodiga munosabat bildirgan bo‘lsa, Oybek, Abdulla Qahhor ijodi ayni shu davrda keng o‘rganildi. Shu davrda qodiriyshunoslikka tamal toshi qo‘yilib, oybekshunoslik, qahhorshunoslik chuqur o‘rganildi.

21 Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 286.

22 Абдулла Қаҳҳор замондошлар хотирасида. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 176.

23 Норматов У. Гўзаллик билан учрашув. – Тошкент: Ёш гвардия, 1976.

24 Норматов У. Ҳаёт сабоқлари // Шарқ юлдузи, 1990. – № 4. – Б. 178-187.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 1994.
2. Норматов У. Насримиз анъаналари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
3. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007; Қодирий мўъжизаси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2010.
4. Норматов У. Талант тарбияси. – Тошкент: Ёш гвардия, 1980.142-б.
5. Қўшжонов М. Ойбек маҳорати. – Тошкент: Тошкент, 1965.356-б.
6. Қўшжонов М. Маъно ва мезон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.168-б.
7. Қўшжонов М. Маъно ва мезон.94-102-б.

Adiba DAVLATOVA,
ChDPU professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

ILK JADID DRAMALARI: MA'RIFAT, JASORAT, TARAQQIYOT ORZUSI

Annotatsiya: maqolada XX asr boshlarida o'zbek jadid dramaturgiyasining shakllanish jarayoni, uning ma'rifiy va ijtimoiy mohiyati tahlil qilinadi. Behbudiy, Avloniy, Hamza, Hoji Muin va Abdulla Qodiriy kabi jadid adiblarining dramatik asarlarida ilm-ma'rifat targ'ibi, jaholat va bid'atlarga qarshi kurash, jamiyatni isloh qilish g'oyalari yoritilgan. "Padarkush", "Baxtsiz kuyov", "Biz va Siz", "Eski maktab, yangi maktab" kabi asarlar misolida jadid dramaturgiyasining estetik ideali, millat taraqqiyoti va zamonaviy inson tarbiyasi masalalari ochib beriladi. Muallif jadid dramalari o'zbek milliy teatri va yangi adabiyotining shakllanishida muhim o'rin tutganini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *jadid dramaturgiyasi, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, milliy teatr, "Padarkush", ilm-ma'rifat, taraqqiyot, milliy uyg'onish, jadid adabiyoti, ijtimoiy islohot.*

Аннотация: в статье анализируется процесс становления узбекской джадидской драматургии начала XX века, её просветительская и общественная сущность. На примере произведений Бехбуди, Авлони, Хамзы, Ходжи Муина и Абдуллы Кадыри рассматриваются идеи просвещения, борьбы с невежеством и религиозными предрассудками, а также вопросы реформирования общества. Особое внимание уделяется драмам «Падаркуш», «Несчастный жених», «Мы и Вы», «Старая школа, новая школа», в которых отражены проблемы воспитания современного поколения и национального прогресса. Автор подчёркивает важную роль джадидской драматургии в формировании узбекского национального театра и новой литературы.

Ключевые слова: *джадидская драматургия, джадидизм, просветительство, национальный театр, «Падаркуш», образование и просвещение, прогресс, национальное возрождение, джадидская литература, социальные реформы.*

Annotation: the article examines the formation of Uzbek Jadid drama in the early twentieth century and analyzes its educational and social significance. The dramatic works of Jadid writers such as Behbudi, Avloni, Hamza, Hoji Muin, and Abdulla Qodiriy are studied in terms of their promotion of enlightenment, criticism of ignorance and outdated customs, and ideas of social reform. Through works like "Padarkush," "The Unfortunate Bridegroom," "We and You," and "Old School, New School," the article highlights the aesthetic ideals of Jadid drama, issues of national progress, and the upbringing of a modern generation. The author emphasizes the important role of Jadid dramaturgy in the development of Uzbek national theater and modern literature.

Key words. *Jadid drama, Jadidism, enlightenment, national theater, "Padarkush," education and enlightenment, progress, national awakening, Jadid literature, social reform.*

XX asr boshlari Turkiston madaniy jarayonining xarakterli xususiyatlari o'qituv tizimining isloh qilinishi, yangi adabiyotning shakllangani, milliy matbuot va teatrning paydo bo'lgani bilan belgilanadi. "1905-yilgi birinchi rus inqilobidan keyin Turkistonga turli g'oyaviy va estetik yo'nalishdagi turk, ozarbayjon va birinchi navbatda, tatar adabiyoti va matbuoti keng tarqala boshladi".1 Maorif sohasidagi islohotlar va mahalliy nashrlarning vujudga kelishida umumturkiy xalqlar bilan faol aralashuv samarali ta'sir ko'rsatgani singari dramaturgiyaning shakllanishida ham shu kabi omillar muhim asos bo'lib xizmat qildi. Teatrning milliy ongga ta'sirini yaxshi anglagan ziyolilar uni "ibrat oynasi" deb atadilar. Teatrni taraqqiy qilmoqning birinchi sababi ekani to'g'risida Behbudiy ("Tiyotr nadur?"), Avloniy ("Tiyotr xususida munozara"), Tavallo ("Teatr haqinda", "Teatrga maxsus") kabi jadid ziyolilari qator maqola va asarlar e'lon qildi. Bir tomondan, qardosh xalqlar teatr truppalarining o'lkamiz bo'ylab gastrol safarlari, ikkinchidan, yetilgan tarixiy sharoit tufayli o'lkamizda teatr va dramaturgiya shakllandi. "Jadid ziyolilari orasida teatru asarlarini yaratish va uni sahnaga qo'yish harakati ozarbayjon, tatar teatru truppalari va teatru asarlarining Turkistonga 1910-1912- yillarda kirib kelishi bilan ayniqsa kuchaydi".2 O'zbek jadid dramaturgiyasini maxsus tadqiq etgan olim Sh.Rizayev shakllanish bosqichida o'nlab dramatik asarlar yaratilganini aniqlaydi va ularning taxminiy ro'yxatini keltiradi.3 Ilk o'zbek jadid dramasi sifatida e'tirof etilgan "Padarkush" asaridagi ilm targ'ibi Behbudiy publitsistikasida ham parallel ravishda qalamga olindi. Ular orasida "A'molimiz yoinki murodimiz" maqolasi alohida ahamiyatga ega. Muallif kecha-kunduz mehnat va mashaqqatning boisi kelajakni ta'minlamoq ekani, buning uchun tinimsiz harakat lozimligini uqtiradi. Lekin bu yo'ldagi sa'y-g'ayrat qaysi maqsadga xizmat qilmoqda? Yigirma yillab zahmat chekib topilgan mol-davlat uch

1 Турдиев Ш. Чўлпон ва татар адабиёти (Алоқалар тарихи, манбалари) // ЎТА, 1997. №9. Б. 10.

2 Сотти Ҳусайн. Ҳамза Ҳакимзода. Ҳаёти ва фаолияти. – Тошкент – Самарқанд, 1940. Б.14.

3 Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Т.: Шарқ, 1997. Б.129.

kunlik to‘y uchun sarf qilinayotgani adolatdanmi? Qarz olib xalqqa osh berish evaziga umrbod qarzdorlik tamg‘asini yelkasiga osib yashash qaysi sog‘lom jamiyatga xos? Isrof etilayotgan aqchalar millat bolalariga, yanayam aniqroq aytganda, “zamonaviy kishilar”ni yetishtirmoqqa berilsa bo‘lmasmi? Bu kabi savollar jamiyat rivojiga to‘siq bo‘layotgan illatlarga muolaja izlayotgan millatparvar adib iztiroblarining hosilasi edi. “Padarkush” dramasida Behbudiyning bu qarashlari Ziyoli nutqida aks etgan. Asarda Ziyoli boyni dunyo o‘zgarishlaridan ogoh etib, “Olimi zamoniy bo‘lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarib, zaruriyati diniya va o‘z millatimiz tilini bilaturg‘ondan so‘ngra hukumatimizni(ng) nizomli maktablariga bermoq kerakdur...Peterburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san’at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o‘qitmoq lozimdir”, 4 desa, muallif yuqorida nomi keltirilgan maqolasida esa “talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulg‘a va Rusiya dorilfunun va dorulsanoatlarig‘a yuborilub diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg‘a sa’y qilinsun”,5 - deb aynan Ziyoli fikrlarini qaytaradi.

Har bir asar, u badiiy ijod turiga mansubmi, publitsistik yoki ilmiymi qat’i nazar, muallif ichki “men”i, voqea-hodisalarga yoki kishilarga individual munosabati o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Ijodkor o‘z dunyoqarashi, ong va ong osti zahirasidagi tushunchalardan yuqori darajada yoza olmaydi. Ko‘rgan-kechirganlari, o‘rganganlari yoxud faoliyatiga ta’sir ko‘rsatgan holatlar natijasida ma’lum bir munosabat shakllanadi. Subyektning o‘rganilayotgan obyektga munosabatida mohiyatga qarab ijobiy yoki salbiy yondashuv yuzaga keladi. Uni qoniqtirmayotgan voqeliklar, jamiyat va inson borlig‘iga nisbatan nafrat asarlarda fojeaviy yoki hajv yo‘li bilan ifodalanishi mumkin. O‘tgan asrning boshlarida yaratilgan asarlarning aksariyatida mana shu jihatni kuzatish mumkin. Lekin asarlar tagmatnida faqatgina nafrat hissi ustunlik qiladi, desak xato bo‘ladi. Hajviy qahramonlar muallif yoki boshqa obrazlar nutqi orqali emas, o‘z-o‘zini fosh etish yo‘li bilan yuqoridagi savolning javobiga bir qadar oydinlik kiritadi. “Padarkush”dagi boyning “xambozasini ko‘rib xalq beto‘xtov kulishi”ning sababi ham shunda. Bu obrazning ziddi(antipodi) hisoblangan Domulla va Ziyoli obrazlarining fikri bir nuqtada tutashib, yozuvchining ideali – zamona odamlarini tarbiyalash va millat ravnaqi yo‘lida xizmat ettirishdek ulkan g‘oyani tashkil etadi. “Padarkush” boshlab bergan ma’rifat g‘oyasi ta’sirida o‘nlab dramatik asarlar yaratildi va sahnalashtirildi. Birinchidan, 1911-yilda yozilib, 1913-yilda Samarqandda sahnalashtirilgan ilk dramatik asar oz fursatda butun Turkistonga yoyildi. Jaholat tanqidi, ilm targ‘ibi aks etgan ushbu drama nafaqat ziyolilar, balki butun xalq ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatdi. Garchi Behbudiy asar sahnalashtirilayotganda muallifdan ruxsat olishi shartligini uqtirgan bo‘lsa-da, asarning turli joylarda qayta-qayta o‘ynalgani haqidagi ma’lumotlar yangilikka tashnalikning o‘ta kuchliligidan darak beradi. Ikkinchidan, drama ta’sirida Abdulla Qodiriy, Hoji Muin, Hamza singari adiblar yangi janrga qo‘l urib, ijodiy imkoniyatlarini sinab ko‘ra boshladilar. Shunday qilib, jadid dramasi shakllanish bosqichiga kirdi. “Amin bo‘lmog‘imiz kerakdurkim, bizlar to erkak va qiz bolalarimizni birgalikda tarbiya etmaguncha bizlardan kelajakda mas’ud oilalar yetishmas. Bizlar hech vaqt g‘oyai a’molimiz bo‘lg‘on chin baxt va saodatg‘a, taraqqiy va tamaddung‘a yetolmasmiz”.6

Hoji Muinning yaxshi kelajak garovi sifatida bergan bu kabi tavsiyalari dramatik asarlarida batafsil yoritildi. Uning Komilboyi (“Eski maktab, yangi maktab”) ham “ochiq fikrli, yangi maktab tarafdori” sifatida Behbudiy orzusidagi Ziyoli (“Padarkush”)ga juda yaqin. Agar Avloniy Kamol, Hamza Mahmudxonu Maryamxonlar fojeasida ota-ona va farzand muammosini ko‘rsatsa, eski va yangi maktablar muqoyasasida Hoji Muinning ijtimoiy muammolarga munosabati aks etgan. Komilboyning “Hozir Turkistonda minglarcha maktablar, yuz minglarcha farzandlarimiz shundoq johil maktabdorlarning qo‘llarida xarob va parishon holdadirlar” (Eski maktab mudarrisiga nisbatan fikri – A.D.) degan maorifdagi turg‘unlikdan kuyinib aytgan so‘zlari amaliy faoliyatga aylanib, yangi maktabga asos bo‘ladi. Dramadagi muallim obrazi ham Komilboy kabi yangilik tarafdori, yangi usulli jadid maktabining yosh o‘qituvchisi sifatida asarda bosh qahramonning ijobiy xususiyatlarini to‘ldirib keladi. Uning o‘zi ham diniy va dunyoviy bilimlar sohibidir. Yosh avlodni tarbiyalashga chog‘langan ma’rifatparvarning o‘zi har tomonlama komil bo‘lmog‘i lozim edi. Asar xotimasida muallif badiiy niyatiga erishadi, ya’ni Komilboy eskilik tarafdori bo‘lgan domla imomni o‘zining haqiqatiga – jadid maktablarining foydali ekaniga ishontiradi. Dramada qalamga olingan g‘oya qadim va jadid muammosi jadidlarning dastlabki asarlarida barcha ziyolilarni qiynagan savol sifatida o‘rtaga tashlanadi. Hoji Muin murosa, birlashish yo‘lini tanlaydi. Asar yakunida Komilboy va Domla imom munosabati ham Ziyoli hamda Domla obraziga yaqinlashib qoladi. Demak, har ikkala adibni ayni maslak, ideal bir nuqtada tutashtiradi.

“Padarkush” ta’sirida yaratilgan “Baxtsiz kuyov” (Qodiriy) dramasining syujeti ham bevosita oilaviy muammolar bilan aloqador. Ya’ni o‘sha davr uchun nihoyatda og‘ir bo‘lgan to‘y oliq-soliqlari xususida. Dramada adib orzusidagi muayyan bir obrazni ko‘rmaymiz. Lekin oila fojeasi fonida Qodiriy istagan mukammal turmush, tenglik masalasini anglash qiyin emas. O‘quvchida bu sezimni paydo qilish uchun adib bir qancha vositalardan foydalanadi. Birinchisi, ellikboshi obrazi. Drama avvalida adib uni o‘ttiz besh yashar, yangi fikrli kishi deb tanishtiradi. Ellikboshining zamona ahvolidan boxabarligi Abdurahim bilan birgalikda Fayziboynikiga sovchilikka borgandagi suhbatda yanada oydinlashadi. Ya’ni u Fayziboyni haddan ortiq soliq solishdan qaytaradi. Chunki bo‘lg‘usi kuyov

4 Беҳбудий. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 3-нашри. – Т.: Маънавият, 2006.45- б.

5 Ўша манба. 160- б.

6 “Меҳнаткашлар товуши”. 1918, 9-июл.

yetim, uning qarz ko‘tarmoqdan o‘zga iloji yo‘q. Qarz olib to‘y berish musulmonchilikka ham, sog‘lom jamiyatga ham xos emasligini harchand uqtirsa-da, na johil boyni, na uni qo‘llab-quvvatlab turgan turgan ilmsiz imomni maqsaddan qaytara olmaydi. Ellikboshining johil otani bid’atdan qaytara olmasligining boisi boshqa edi. Aslida yozuvchi oqibatni tasvirlab, keyin sababni ro‘y-rost ko‘rsatishni niyat qilgan. Natijada ellikboshi guvohligida yozuvchi kutgan fojea sodir bo‘ladi. Ya’ni qarzni muddatida qaytara olmagan yigit nomusga, chorasizlikka chiday olmay o‘zini o‘ldiradi, eng dahshatlisi kelin ham jaholat, bid’at qurboniga aylanadi. Bu judolikka chidolmay dodlab turgan Fayziboyga murojaati vositasida yozuvchi xalqqa, o‘quvchiga haqiqiy niyatini oshkor etadi. “Shari’ati mustafog‘a bo‘yunsuninglar, endi ko‘zlaringizni ochinglar. Bid’at to‘yg‘a isrof bo‘ladurg‘on oqchag‘a o‘g‘lingizlarni o‘qitunglar yoki jamiyati xayriyalarga iona qilinglar. O‘g‘il o‘qitmoq yaxshi ham farzdur, to‘yg‘a isrof qilmoq bid’atdur”.[7] Demak, ellikboshi yozuvchining ma’rifat idealini ifodalashga xizmat qilgan.

Ikkinchi vosita esa biroz mukammalroq. Aynan Fayziboy, Domla imom va Boy obrazlarining tanqidiy qiyofasi vositasida adib bunday kimsalarning ziddi bo‘lgan shaxslarni orzu qiladi.Ya’ni Fayziboyning kibri, ochko‘zligi, Domla imomning ilmsizligi, jaholati, Boyning riboxo‘rligi tanqidida aslida yetimparvar, millatni turli bid’atlardan qaytaruvchi, el-yurt manfaatini o‘ylaydigan kishilarga ehtiyoj masalasi turgan edi. Shunday qilib, maishiy turmushdan olib yozilgan dramalar mavzu va son jihatdan o‘sib bordi.

Avloniyning “Biz va Siz”da bosh qahramon ziyoli, yevropadan qaytgach, eskiliklar hamon davom etayotgan turmushga ko‘nika olmayotgan yigit. Dramada jiddiy mulohazalar orqali voqealar liniyasi fojeaga aylana boradi, qahramonlar taqdiri ayanchli xotima topadi. “Biz va Siz”da oiladagi, turmushdagi jaholat, ilmsizlik fosh etiladi. O‘n yil Yevropada tahsil olib qaytgan Kamol ham ruhiy va jismoniy, ham ma’naviy jihatdan barkamol yigit. Tahsili davomida yurtida kechayotgan o‘zgarishlarni eshitib, xursand bo‘lgan qahramon uyga qaytgach, tamoman aks manzarani ko‘rib qayg‘uga botadi. “Emdi nima qilmoq kerak?” degan savol uni qiynaydi va “...men o‘zimga lozim bildim, jazm qildim, bular turmushida qat’iy kurash yasashg‘a. Bu kurashda yo men yengarmen, yo ular”[8] – degan qarorga keladi. Mana shu yerda adibning, shuningdek, butun jadidlarning g‘oya-maqsadlari aniqlashadi. Faqatgina isloh yo‘li bilan maqsadga erishish mumkin.

Vaziyat talabiga ko‘ra isloh turli ko‘rinish kasb etishi mumkin. Nima bo‘lganda ham maqsad sari chora, najot kerak! Asarda keltirilgan muallif qalamiga mansub:

Garchi manzildur xatarlik ham yiroq maqsudimiz,
Hech yo‘l yo‘qdirki bo‘lmas unda poyon chekma g‘am.
Har kishida bir g‘arazdur, har ko‘ngulda bir xayol,

Har kim o‘z ummidining qurboni, Hijron, chekma g‘am[9] she’ri esa umidsizlikka tushmay, tortishuvga, kurashga undaydi. Masalaning qiyin tomoni shundaki, farzand ota-ona, qavm-qarindoshga qarshi. Haqiqatan olib qaraganda, ota-onaga osiy bo‘lish – og‘ir gunoh. Lekin Kamolning bunday “gunohkorligi” o‘zini oqlaydi. Ota-onasi tomonidan o‘zi tanimagan, bilmagan qizga nikohlanishga majbur qilingan Kamol isyon ko‘taradi. “Men sizning buzuq xurofotlar bilan to‘lg‘on turmushingizni istamayman. Yangi turmush istayman! Yangi hayot istayman! Mana shu yangi turmushga menga rahbarlik qilg‘udek, oila boshlig‘i bo‘lg‘udek yo‘ldosh istayman. Men yangi xayol va siz eski xayol...”. Hamzaning qahramoni Mahmudxon (“Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”) ham xuddi shu vaziyatga tushib qolgan, u ham “Menga hayot kerak! Hayot uchun ko‘nglum istamish maqsad kerak, u maqsad esa Maryamxonimdan boshqa emas!”[10] – deydi. Bu yerda har ikki ijodkorning oila islohi, xotin-qizlarning ham o‘qimishli bo‘lishi jamiyat taraqqiyotiga hissa bo‘lib qo‘shilishi haqidagi qarashlari ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda, “Padarkush” yaratilgan davrdan to 1917-yilgacha o‘zbek dramaturgiyasi shakllanish bosqichini boshdan kechirdi. Bu bosqichda mualliflarning estetik ideali zamon va jamiyat ehtiyojiga qarab o‘zgarib, barqarorlashib bordi.

7 Қодирий А. Диёри бакр. Шеърлар, ҳикоялар, саҳна асарлари, ҳангома, фельетон ва мақолалар. – Т.: Янги аср авлоди, 2007. - Б. 39.

8 Авлоний. Танланган асалар.II жилдлик. II жилд. – Т.:Маънавият, 1998. - Б. 157.

9 Ўша манба.

10 Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Учинчи том. Драмалар (1915-1920). – Т.: Фан, 1988. - Б.20.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авлоний. Танланган асалар.II жилдлик. II жилд. – Т.:Маънавият, 1998
2. Беҳбудий. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 3-нашри. – Т.: Маънавият, 2006.
3.Сотти Ҳусайн. Ҳамза Ҳакимзода. Ҳаёти ва фаолияти. –Тошкент:Самарқанд, 1940. - Б.14.
4.Турдиев Ш. Чўлпон ва татар адабиёти (Алоқалар тарихи, манбалари) // ЎТА, 1997. - №9. 10-б.
5.Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Т.: Шарқ, 1997.
6.Қодирий А. Диёри бакр. Шеърлар, ҳикоялар, саҳна асарлари, ҳангома, фельетон ва мақолалар. – Т.: Янги аср авлоди, 2007.

Nodira XOLIKOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, f.f.d. (DSc)
nodira.79@inbox.ru

O‘ZBEK OYIM OBRAZIDA O‘ZBEK AYOLI TABIATI VA MILLIY RUH IFODASI

Annotatsiya: mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi O‘zbek oyim obrazining milliy va psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Asardagi oilaviy munosabatlar, milliy qadriyatlar va ona xarakteri badiiy talqin asosida yoritilgan. O‘zbek oyim obrazi orqali o‘zbek ayoliga xos mehr-muhabbat, or-nomus, farzandparvarlik bilan bir qatorda o‘jarlik va shoshqaloqlik kabi ziddiyatli jihatlar ochib berilgan. Shuningdek, qahramonning roman konfliktlaridagi o‘rni hamda milliy ruh ifodasi ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *Abdulla Qodiriy, “O‘tkan kunlar”, O‘zbek oyim obrazi, milliy xarakter, ona timsoli, o‘zbek ayoli, milliy ruh, oilaviy munosabat, jadid nasri*

Аннотация: в данной статье анализируются национальные и психологические особенности образа Узбек ойим в романе O‘tkan kunlar Abdulla Qodiriy. На основе художественной интерпретации раскрываются семейные отношения, национальные ценности и характер матери. Через образ Узбек ойим показаны такие качества узбекской женщины, как любовь, честь, преданность детям, а также противоречивые черты — упрямство и поспешность. Также научно проанализированы роль героини в конфликтах романа и художественное выражение национального духа.

Ключевые слова: *Абдулла Кадыри, «Минувшие дни», образ Узбек ойим, национальный характер, образ матери, узбекская женщина, национальный дух, семейные отношения, джадидская проза.*

Annotation: this article analyzes the national and psychological characteristics of O‘zbek oyim in the novel O‘tkan kunlar by Abdulla Qodiriy. The study highlights family relations, national values, and the maternal character through artistic interpretation. The image of O‘zbek oyim reveals such qualities of Uzbek women as love, honor, devotion to children, as well as contradictory traits like stubbornness and impulsiveness. The article also examines the heroine’s role in the conflicts of the novel and the artistic expression of national spirit.

Key words: *Abdulla Qodiriy, “O‘tkan kunlar”, O‘zbek oyim character, national character, mother image, Uzbek woman, national spirit, family relations, Jadid prose.*

Islom, shariat va ayol huquqi masalasida cheklanganlik, muammolarni bir tomonlama ko‘rish va hal etish – jamiyatdagi ziddiyatlar in’ikosidir. Har bir ota-ona Otabekning volidaynlari kabi “orzu” qilishga haqli. O‘zbek xonadonlarida O‘zbek oyimlar ham bo‘lishi shubhasiz. Ziddiyatli qarashlar va nihoyasi o‘ylab ko‘rilmagan orzular esa inson taqdirini u yoki bu tomonga o‘zgartirishi ham haqiqat. Asar konfliktidagi kundoshlik munosabatlari Kumushbibi va Zaynab obrazlarini bor ichki dunyosi bilan ochib berar ekan, asl go‘zallik hayot bilan vidolashayotgan eng so‘nggi damda ham o‘z malohati-yu tarovatini saqlab qolishini ko‘rasan. Qomusiy olim Ibn Sino shunday degan edi: “*Vujud – ruh amriga vojibdir*”. Ruhiy olami go‘zal insonning vujudi ham go‘zal bo‘lishi bejiz emas. Oliy tuyg‘ularidan, armonlaridan tug‘ilgan o‘z idealini bevaqt o‘limga mahkum qilishdek og‘ir yukni zimmasiga olgan adib o‘sha davr muhitining achchiq haqiqatini ko‘rsatib berdi.

O‘zbek oyim chinakam xarakter darajasiga ko‘tarilgan obraz. Unda o‘zbek ayoliga xos fazilatlar jamlangan. Uchta zo‘ravonni bir o‘zi yenggan Otabekdek jasur yigitning ortida ham O‘zbek oyimdek jasoratli, dangalchi ona turibdi. O‘zbek oyim ismi jismiga monand ayol. U o‘zbek ayoli va onasining tipik ko‘rinishi. To‘g‘ri, u shoshqaloq, u kibrli, u “chala dumbul”, u hamma narsani va farzandining baxtini ham o‘z qarichi bilan o‘lchaydigan ona. Lekin O‘zbek oyim ana shu xislat va kamchiliklari bilan O‘zbek oyim. Uni boshqacha tasavvur ham qilolmaymiz. U aslida o‘z farzandiga mehri cheksiz, uning baxti uchun har narsaga tayyor shartaki ayol. Uning tabiatida birovga hasad, g‘araz yoxud yomonlik aslo mavjud emas. Uning qalbi toza. Uning aybi farzandi baxti uchun kuyib-pishgan ona bo‘lganida. U o‘g‘li Otabekni balog‘atga yetgan, ulg‘aygan yigit ekanini yoddan chiqarib, uning taqdirini o‘zi nazorat qilishni istagani nafaqat o‘ziga, balki atrofdagilarga ham anchayin ziyon keltirishidan bexabar ona. O‘zbek oyim tipik o‘zbek onasi. Qodiriyning buyuk mahorati shundaki, u shu obraz orqali niyatlari sarobga aylangan o‘zbek onasini va baxti ochilmagan farzand qismatini ko‘rsatib berar ekan, juda hayotiy va real obraz qiyofasini yaratdi. O‘zbek oyim portreti juda original tasvirlarda berilgan. Yozuvchining har bir so‘zga yuklagan ma’nosi cheksiz: “O‘zbek oyim – (55 yoshda) chala-dumbul tabiatlik bir xotin, ammo eriga o‘tkir. O‘zga xotinlar uning soyasiga salom berib to‘ylarida, azalarida, qisqasi, tiq etgan yig‘inlaridag‘i uylarining to‘rini O‘zbek oyimg‘a atag‘an edilar, o‘z xohishiga teskari kelgan haqiqatni ko‘rmaydirgan qiziq bir tabiatka molik”.

Birgina “chala dumbul” deb sifatlashining o‘ziyoq kitobxon yuzida beixtiyor yengil tabassum uyg‘otadi. Har qanday narsani pishgani afzal, biroq chala pishgan narsa nimadir asorat qoldirishi yoxud biror yoqimsiz holatga olib kelishi tayin. Shunday ekan, yozuvchi ta’riflagan “chala dumbul” ayolda ham nimasidir “chala” bitishi yoki “chala” pishishi oqibati borligini aytmoqchi. Bunaqa tabiat nafaqat O‘zbek oyimga, juda ko‘pchilikka xos.

Adabiyotshunos U.Jo‘raqulov “O‘zbek oyim nega “og‘ma”?” maqolasida quyidagi so‘zlarni keltiradi: “Chala dumbul tabiatlik” bu xotin istasa to‘nini teskari kiyib olishi, ko‘nglidagi eski adovatlar yanada balandroq alangalanishi mumkin”[1]. Lekin O‘zbek oyimning

1 Жўрақулов У. Ўзбек ойим нега “оғма”? / Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва (илмий адабий мақолалар). – Т.: Фан, 2006. Б. 178.

o‘zbek ayollariga xos eng nozik jihati bu uning shirin so‘z va mehr oldida ojizligidadir. Kechagina “andi” deb atayotgan marg‘ilonlik kelinni ilk ko‘rgan zahotiyoq cheksiz mehr bilan sevib qolishi, unga parvona bo‘lishi, hatto Zaynabdan ham ko‘ra Kumushga bog‘lanib qolishi – bular hammasi uning pok va samimiy muhabbatidan. Aslida, O‘zbek oyimning qalbi mehr-muhabbatga to‘la. U Otabekni baxtli ko‘rish uchun har narsaga tayyor...

“O‘tkan kunlar” romanidagi O‘zbek oyim obrazi uchun adib atrofida uchragan yuzlab o‘zbek onalarini prototip qilib olgani shubhasiz. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek O‘zbek oyim obraziga baho berar ekan, uni romandagi “eng jonli, realistik chiziqlar bilan ko‘rsatilgan shaxs, o‘z xohishiga teskari kelgan haqiqatni ko‘rmaydigan qiziq tabiatga molik kimsa” deb ta’riflaydi. “Chala dumbul” tabiatli bu ayol o‘zi istamagan holda o‘g‘lining baxtsiz bo‘lishiga, Kumushning halok bo‘lishiga, Zaynabning turmushi hazon bo‘lishiga sababchi bo‘ldi, desak yanglishmaymiz. Lekin U.Normatov ta’kidlaganidek, “Nima bo‘lganda ham, O‘zbek oyim – baribir ona; tabiatidagi barcha ziddiyatlari, ojiz tomonlariga qaramay, u o‘zbekning mag‘rur, tanti onasi”, har qancha gunohkor bo‘lmasin, o‘ta andishali, adib uni qoralashga tili bormaydi. Ayni paytda rostgo‘y, realist yozuvchi bu o‘jar, “chala dumbul tabiatli” ayolning nojo‘ya qiliqlari, xatti-harakatlarini batafsil qalamga olish bilan birga, uning qalbi tubidagi ajib mehr, muruvvat tuyg‘usini, tantilik kabi fazilatlarini ham favqulodda mahorat, teran va nozik ruhshunos sifatida badiiy inkishof etadi. Marg‘ilonlik qudalarini kutib olish jarayoni tasviri bu jihatdan noyob ixtiro!”[2]

Asarning “Qudalarni kutib olish” bobida quyidagi jumlalarni o‘qiymiz: “Kumush salom berdi va qo‘lidagi paranjisini yerga tashladi, yugurib kelib o‘zini O‘zbek oyimning quchog‘iga otdi. O‘zbek oyim ham uni mahkam siqib quchoqlab olgan, yuzidan shap-shap o‘pib, aylanib, o‘rgilar va tikilib-tikilib nima uchundir yig‘lar edi”. Bu yig‘ining sababini Kumushbibi bilmasligi mumkin, lekin kitobxon buni yaxshi biladi. O‘sha lahzada O‘zbek oyim o‘zining o‘jarligi-yu xudbinligi bilan yolg‘iz o‘g‘lining baxtiga o‘zi zomin bo‘lganini tushunib yetgan bo‘lsa ajab emas. Eng hayotiy va eng jonli obraz O‘zbek oyim asarga o‘zgacha ruh bag‘ishlaydi.

“Har bir mahalla, har bir qishloqning o‘z O‘zbek oyimi bor, yozuvchi aytganday, bularsiz na to‘y o‘tadi, na aza! Hatto erkaklar ham ularning maslahatisiz ish qilishmaydi!”[3], – deydi Odil Yoqubov. O‘zbek oyimning oiladagi hurmat-e’tiborini uning umr yo‘ldoshi Yusufbek hoji ham qo‘llab-quvvatlashi shubhasiz. Yusufbek hoji o‘g‘li Otabekka qarab, allaqachonlar O‘zbek oyim tomonidan pishitib qo‘yilgan ishni aytmoqchi bo‘lib, shunday deydi: “O‘g‘lim, hali sen eshitdingmi, yo‘qmi, haytovur, biz sening ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...”[4] Shu bir og‘iz jumlani Yusufbek hoji ming bir istihola bilan o‘g‘liga aytadi. Chunki Yusufbek hoji ham, o‘g‘li Otabek ham bu “qilingan ish” to‘g‘ri ish emasligini yaxshi bilishardi. Lekin Yusufbek hoji hamma aybni xotiniga ag‘darib qo‘yishni o‘ziga ep bilmaydi. U xotini O‘zbek oyimni shu yerda biroz ayaganini sezish mumkin. Chunki har o‘zbek erkagi uchun oila muqaddas. Shuning uchun u “onang qildi”, “onangning ishi” degan so‘zlarni emas, “biz qilib qo‘ydik”, deb qo‘ya qoladi. Yusufbek hoji oilaboshi, u ayolining izzatini hech kimning oldida to‘kishga haqqi yo‘q. Va, eng achinarlisi, “ish” O‘zbek oyim tomonidan pishitib qo‘yilgan, shu bois orqaga qaytish, so‘zdan qaytish insoniylik vajidan to‘g‘ri kelmaydi. Bu tasvirlar milliylik, or-nomus, erkagu ayol va oila sha’nining yorqin namunasi. “O‘tkan kunlar” tag-tomiri bilan milliy ruh, o‘zbekona qadriyatlar bilan to‘yingan asar. Undagi har bir so‘z, har bir jumlada o‘zbekning qiyofasini ko‘rasiz. O‘zbekning o‘zbekligini ko‘rsatib turuvchi urf-odat, qadriyat va muhitni ko‘rasiz. Yozuvchi qanday tasvir, ta’rif yoxud sifatlash qo‘llaganki, farzandining baxtiga zomin bo‘lgan onani kitobxon yomon ko‘rolmasa. Abdulla Qodiriy O‘zbek oyim obrazini shu darajada tabiiy tasvirlaganki, uni o‘sha “dumbul”ligi bilan xush ko‘rasiz. Uni ona sifatida tushunasiz, u bilan birga yig‘laysiz, birga xursand bo‘lasiz.

Yusufbek hoji ham O‘zbek oyimning oiladagi ayollik, onalik mavqeini baland tutadi. Bir qarashdan, juda o‘tkir, cho‘rtkesar, aytgani aytgan, degani degan, Yusufbek hojidek davlat miqyosida yuqori mansab-martabaga ega odamni ham o‘ziga bo‘ysundirgan O‘zbek oyimdek ayolning Otabek va Kumush fojeiy qismatida hissasi bordek tuyuladi. Biroq taqdiri azal, qismat, tole’ insonning ixtiyorida emas. Kumush va Zaynab yoxud Cho‘lponning Zebisi ham, avvalo, taqdir hukmi oldida ojiz qolgan ayollar.

Zero, Turkistonda XX asr boshida ayollarga bo‘lgan munosabatni aynan mana shu asarlar yorqin tasvirlab bergani bilan ahamiyatlidir. O‘zbek jadid nasrida xotin-qizlar obrazida, xususan, O‘zbek oyim, Oftob oyim, Kumush, Ra’no, Nigorxonim, Zebi, Qurvonbibi kabi ayollarda milliy ruh ifodasi ustunlik qilishi, ularning tabiatida milliylik va sharqonalik belgilari xatti-harakatlari va nutqlari orqali yorqin ifodalangan.

Maqolada O‘zbek oyim nafaqat individual xarakter, balki muayyan ijtimoiy muhit va milliy tafakkur mahsuli ekani aniqlandi. Uning nutqi, xatti-harakati, oiladagi mavqei va munosabatlari orqali o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odatlari va oilaviy muhiti yorqin ifodalangan. Shu bilan birga, adib qahramonni mutlaq ijobiy yoki salbiy tarzda emas, balki barcha insoniy fazilat va nuqsonlari bilan tasvirlagani romanning realistik qimmatini oshirgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek oyim obrazi o‘zbek adabiyotida milliy ona timsolining eng mukammal va ta’sirchan badiiy namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu obraz orqali Abdulla Qodiriy nafaqat bir inson taqdirini, balki butun bir davrning ma’naviy-ijtimoiy muhitini ham yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirgan.

2 Норматов У. Қодирий мўъжизаси. Тадқиқот, қайд, суҳбат ва мулоҳазалар. – Т.: O‘zbekiston, 2010. Б. 215.

3 https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/odil-yoqubov-abdulla-qodiriyni-oqiganda-1969 / Одил Ёқубов. Абдулла Қодирийни ўқиганда (1969)

4 Қодирий А. Ўткан кунлар. – Т.: Ғафур Ғулом, 1972. Б.137.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Қодирий А. Ўткан кунлар. – Т.: Ғафур Ғулом, 1972.
2.Жўрақулов У. Ўзбек ойим нега “оғма”? / Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва (илмий адабий мақолалар). – Т.: Фан, 2006.
3.Норматов У. Қодирий мўъжизаси. Тадқиқот, қайд, суҳбат ва мулоҳазалар. – Т.: O‘zbekiston, 2010.

Kandilatxan IUSUPOVA,
Renessans ta'lim universiteti,
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail: kandilatyusupova71@gmail.com

INGLIZ AYOLLAR IJODI: TARAQQIYOT BOSQICHLARI VA BADIIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz adabiyotida ayol yozuvchilar ijodining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Ayol mualliflarning adabiy jarayondagi o'rni, ular asarlarida aks etgan ijtimoiy, ma'naviy va gender masalalari hamda ingliz adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Shuningdek, ingliz ayollar ijodining o'ziga xos badiiy xususiyatlari va jahon adabiyotiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *ingliz adabiyoti, ayol yozuvchilar, gender, feminizm, badiiy obraz, ayol obrazi, roman janri.*

Аннотация: в данной статье анализируются этапы становления и развития творчества женщин-писательниц в английской литературе. Освещаются роль женщин-авторов в литературном процессе, социальные, духовно-нравственные и гендерные проблемы, отражённые в их произведениях, а также их вклад в развитие английской литературы. Кроме того, рассматриваются своеобразные художественные особенности творчества английских писательниц и его влияние на мировую литературу.

Ключевые слова: *английская литература, женщины-писательницы, гендер, феминизм, художественный образ, женский образ, жанр романа.*

Annotation:this article analyzes the stages of the formation and development of women writers' творчество in English literature. It highlights the role of female authors in the literary process, the social, moral, and gender issues reflected in their works, as well as their contribution to the development of English literature. Furthermore, the article examines the distinctive artistic features of English women's writing and its influence on world literature.

Key words: e*nglish literature, women writers, gender, feminism, literary image, female image, novel genre.*

Kirish. Ingliz adabiyoti jahon adabiyotining eng boy va serqirra sohalaridan biri hisoblanadi. Uning taraqqiyotida ayol yozuvchilarning o'rni beqiyosdir. XVIII–XX asrlarda ijod qilgan ko'plab ingliz ayol adibalari nafaqat milliy adabiyotning rivojlanishiga, balki jahon adabiyotining boyishiga ham katta hissa qo'shganlar.[1][Showalter E. A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing. Princeton University Press, 1977. P. 11.]. Ular o'z asarlarida ayollarning jamiyatdagi o'rni, huquqlari, ma'naviy kechinmalari va mustaqillik uchun kurashini badiiy ifoda etganlar[2][Gilbert S., Gubar S. The Madwoman in the Attic. Yale University Press, 1979. P. 45.].

Asosiy qism. Ingliz adabiyotida ayollar ijodi XVIII asrdan boshlab faol rivojlana boshladi. Bu davrda ayollarning ijtimoiy hayotdagi mavqeyi cheklangan bo'lsa-da, ular adabiyot orqali o'z fikr va qarashlarini ifoda etish imkoniga ega bo'ldilar.[3][Showalter E. Ushbu asar. P. 23.].

Ingliz adabiyoti tarixida muhim o'rin egallagan ayol yozuvchilardan biri Jeyn Ostin hisoblanadi. Uning asarlarida inson xarakteri, muhabbat, nikoh va jamiyat munosabatlari chuqur psixologizm asosida tasvirlangan. Muallif o'z qahramonlari orqali ayollarning aqliy salohiyati va mustaqil fikrlash qobiliyatini namoyon etadi.[4][Pride and Prejudice. London, 1813. P. 67.].

XIX asrda ingliz adabiyotida ayollar ijodi yanada yuksaldi. Ayniqsa, Sharlotta Bronte, Emili Bronte va Anna Bronte singari adibalar tomonidan yaratilgan asarlar ingliz realistik adabiyotining muhim namunasiga aylandi.[5][Gilbert S., Gubar S. Ushbu asar. P. 72.]. Ular ijodida ayolning ichki dunyosi, erkinlikka intilishi va jamiyat bilan munosabatlari markaziy o'rinni egallaydi.[6][Showalter E. Ushbu asar. P. 58.].

Ayniqsa, "Jeyn Eyr" romanida bosh qahramonning mustaqil shaxs sifatida shakllanishi va hayot sinovlarini yengib o'tishi tasvirlanadi. Bu asar nafaqat muhabbat qissasi, balki ayol erkinligi haqidagi ijtimoiy-falsafiy roman sifatida ham ahamiyat kasb etadi.[7][Jane Eyre. London, 1847. P. 135.].

XX asrga kelib, ingliz ayollar ijodida modernizm va feministik g'oyalar kuchaydi. Bu jarayonda Virjiniya Vulf alohida o'rin tutadi. U o'z asarlarida ayolning jamiyatdagi

1 Showalter E. A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing. Princeton University Press, 1977. P. 11
2 Gilbert S., Gubar S. The Madwoman in the Attic. Yale University Press, 1979. P. 45.
3 Showalter E. Ушбу асар. P. 23.
4 Pride and Prejudice. London, 1813. P. 67.
5 Gilbert S., Gubar S. Ушбу асар. P. 72.
6 Showalter E. Ушбу асар. P. 58.
7 Jane Eyre. London, 1847. P. 135.

mavqei, ijod erkinligi va shaxsiy mustaqilligi masalalarini keng yoritgan.[8][A Room of One's Own. London: Hogarth Press, 1929. P. 18.]. Muallifning "Shaxsiy xona" asari ayollar adabiyoti va feministik tanqidning muhim manbalaridan biri hisoblanadi.[9][Woolf V. Ushbu asar. P. 45.].

Ingliz ayollar ijodining muhim xususiyatlaridan biri psixologizmning kuchliligi hisoblanadi. Ayol yozuvchilar qahramonlarning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va ruhiy holatlarini chuqur tahlil qilish orqali inson tabiatining nozik qirralarini ochib berishga harakat qiladilar. Shu jihatdan ularning asarlari nafaqat badiiy, balki psixologik ahamiyatga ham ega hisoblanadi.

Bundan tashqari, ingliz ayollar adabiyotida oila mavzusi yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Mualliflar oilaviy munosabatlar, nikoh, farzand tarbiyasi va jamiyatning ayol hayotiga ta'siri kabi masalalarni realistik tarzda tasvirlaydilar. Ayniqsa, "Jeyn Ostin" va "Bronte" singillari asarlarida mazkur mavzular chuqur badiiy talqin qilingan.

Zamonaviy ingliz ayol yozuvchilari ijodida esa globallashuv, migratsiya, madaniyatlar muloqoti, irqiy tenglik va inson huquqlari bilan bog'liq mavzular muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular o'z asarlarida nafaqat ingliz jamiyati, balki butun insoniyat uchun dolzarb bo'lgan muammolarni ko'tarib chiqmoqdalar. Bu esa ingliz ayollar ijodining mavzu va g'oya jihatidan yanada boyib borayotganligini ko'rsatadi.

Ayol yozuvchilar ijodida ayol obrazining badiiy talqini alohida ahamiyatga ega. Ular tomonidan yaratilgan qahramonlar o'zining murakkab xarakter xususiyatlari, hayotiy maqsadlari va ma'naviy izlanishlari bilan ajralib turadi. Bunday obrazlar orqali mualliflar ayollarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini ochib berishga harakat qiladilar. Ayniqsa, XIX asr romanchiligida ayol qahramonlar faqat oila doirasida emas, balki mustaqil fikrlaydigan, hayotiy qarorlar qabul qila oladigan shaxs sifatida tasvirlana boshladi. Bu holat ingliz adabiyotida inson huquqlari va shaxs erkinligi g'oyalarining mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Ingliz ayollar ijodida oila va nikoh munosabatlari ham muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Mualliflar bu mavzularni yoritishda an'anaviy qarashlar bilan bir qatorda ayolning shaxsiy baxti, orzu-intilishlari va huquqlariga ham alohida e'tibor qaratganlar.[10] Ular nikohni faqat ijtimoiy majburiyat sifatida emas, balki o'zaro hurmat va tenglikka asoslangan munosabat sifatida talqin qilishga intilganlar. Bu g'oyalar o'z davri uchun ilg'or qarashlar hisoblangan.

Bundan tashqari, ingliz ayol yozuvchilari ijodida badiiy uslubning o'ziga xosligi ham kuzatiladi. Asarlarda psixologik tahlil, ichki monolog, badiiy detallar va ramziy obrazlardan samarali foydalaniladi. Bu esa qahramonlarning ichki dunyosi va voqealarning mazmunini yanada ta'sirchan ifoda etish imkonini beradi. Ayniqsa, modernizm davri vakilalari inson ongida kechadigan jarayonlarni tasvirlashning yangi usullarini joriy etib, ingliz adabiyotining badiiy imkoniyatlarini kengaytirdilar.

Ingliz ayollar ijodining asosiy xususiyatlaridan biri inson ruhiyatini chuqur tahlil qilishdir. Ayol yozuvchilar qahramonlarning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va psixologik holatlarini tasvirlashga katta e'tibor qaratadilar[Gilbert S., Gubar S. Ushbu asar. P. 93.]. Shuningdek, ular asarlarida ijtimoiy tengsizlik, gender muammolari, ta'lim va shaxsiy erkinlik masalalarini ham ko'tarib chiqadilar.[11][Showalter E. Ushbu asar. P. 101.]. Bugungi kunda ham ingliz ayol yozuvchilari jahon adabiyotida muhim o'rin tutadi. Ular yaratayotgan asarlar zamonaviy jamiyat muammolarini yoritish, inson huquqlari va tenglik g'oyalarini targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega.[12][Showalter E. Ushbu asar. P. 214.].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz ayollar ijodi milliy va jahon adabiyoti taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ingliz ayol yozuvchilari o'z asarlarida nafaqat ayollarning hayoti va taqdirini tasvirlaganlar, balki inson erkinligi, ma'naviy kamolot va ijtimoiy adolat g'oyalarini ham ilgari surganlar. Ular yaratgan badiiy meros bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda va yangi avlod tadqiqotchilari uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

8 A Room of One's Own. – London: Hogarth Press, 1929. P. 18.
9 Woolf V. Ушбу асар. P. 45.
10 Gilbert S., Gubar S. Ушбу асар. P. 93.
11 Showalter E. Ушбу асар. P. 101
12 Showalter E. Ушбу асар. P. 214.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Showalter E. A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing. Princeton University Press, 1977. P. 11.
2. Gilbert S., Gubar S. "The Madwoman in the Attic". Yale University Press, 1979. P. 45.
3. "Pride and Prejudice". – London, 1813. P. 67.
4. "Jane Eyre". – London, 1847. P. 135.
5. "A Room of One's Own". – London: Hogarth Press, 1929. P. 18.
6. Woolf V. Ушбу асар. P. 45.

Arofatoy MUYDINOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti v.b.
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
amuydinova73@gmail.com.

BOSITXON SHOSHIY IJODIDA MA’RIFATPARVARLIK VA MILLIY UYG‘ONISH G‘OYALARINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya: O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, tariximizni qo‘lyozma manbalar asosida xolis o‘rganish, ajdodlarimizdan qolgan boy ilmiy va madaniy merosni tadqiq etish muhim vazifalardan biriga aylandi. O‘z davrida yetuk tabib, shoir, tarjimon va olim sifatida tanilgan Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy (Hariqiy) adabiy merosi, xususan, “Devoni Hariqiy” devoni uzoq yillar davomida keng omma va adabiyotshunoslik e’tiboridan chetda qolib kelayotgan edi. Ushbu devonning o‘rganilishi milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti xazinasini boyitishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr birinchi yarmida yashab ijod etgan toshkentlik shoir Bositxon Shoshiy (Hariqiy) hayoti, ilmiy va adabiy merosi haqida so‘z boradi. Shoirning ma’rifatparvarlik, maktab va ilm-fanga targ‘ibot, milliy uyg‘onish va ijtimoiy ittifoqlikka doir qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *devon, bayoz, ma’rifatparvarlik, maktab, milliy uyg‘onish, ittifoqlik, adabiy muhit, shoir, muvashshah, g‘azal.*

Аннотация: после обретения независимости одной из важнейших задач стало объективное изучение нашей истории на основе рукописных источников, а также исследование богатого научного и культурного наследия, оставленного предками. Литературное наследие Боситхона ибн Зохидхона Шаши (Харики), известного в своё время как выдающийся врач, поэт, переводчик и учёный, в частности диван «Девони Харики», на протяжении долгих лет оставался вне широкого внимания общественности и литературоведения. Изучение данного дивана имеет особое значение для обогащения сокровищницы узбекской литературы периода национального возрождения. В данной статье рассматриваются жизнь, научное и литературное наследие ташкентского поэта Боситхона Шаши (Харики), жившего и творившего во второй половине XIX – первой половине XX века. Проанализированы просветительские взгляды поэта, его идеи, связанные с пропагандой школы, науки и образования, национального возрождения и общественного единства.

Ключевые слова: *диван, баяз, просветительство, школа, национальное возрождение, единство, литературная среда, поэт, мувашшах, газель.*

Annotation: following the independence of Uzbekistan, the objective study of our history based on manuscript sources and the research of the rich scientific and cultural heritage left by our ancestors became one of the paramount tasks. The literary heritage of Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy (Hariqiy), who was recognized in his time as an accomplished physician, poet, translator, and scholar—particularly his divan “Devoni Hariqiy”—had long remained overlooked by the general public and literary criticism. The study of this divan holds specific significance in enriching the treasury of Uzbek literature from the national awakening period. This article explores the life, scientific, and literary heritage of the Tashkent poet Bositxon Shoshiy (Hariqiy), who lived and created during the second half of the 19th and the first half of the 20th centuries. It analyzes the poet’s views on enlightenment, the promotion of schooling and science, national awakening, and social solidarity.

Key words: *divan, bayaz, enlightenment, school, national awakening, solidarity, literary environment, poet, muvashshah, ghazal.*

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti alohida adabiy-estetik hodisa hisoblanadi. Bu davr ijodkorlari an’anaviy she’riyatni ham mazmun, ham shakl jihatdan yangiladi. Davr adabiyotiga qiziqish, uning kishilik jamiyati taraqqiyotida muhim o‘ringa egaligi, rivojlanish tendensiyasining alohidaligi, tarixiy haqiqatlarga boyligi, adabiy-estetik tafakkurning yangilanishi jihatidan davr adabiyotini o‘rganish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridandir.

O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti ijodkorlari tomonidan yaratilgan asarlar ilm-ma’rifatni targ‘ib etish, inson kamoloti bilan bog‘liq ideallarni kuylash orqali insoniyat badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotiga xizmat qiladi. Mazkur davr adabiyotini har jihatdan izchil o‘rganishning keng imkoniyatlari mustaqillikning ilk yillarida vujudga keldi. Xususan, Toshkent adabiy muhitining yorqin vakillaridan biri – olim va shoir Bositxon ibn Zohidxon Shoshiyning toshbosma usulida chop etilgan ilmiy merosini nashr etish ham istiqlol yillarida amalga oshirildi. Shoir devoni 2009-yilda olim Mahmud Hasaniy tomonidan nashrga tayyorlanib chop etilgan.

Zohidxon Hariqiy XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiy jarayonda qatnashgan va o‘sha davrdagi yetuk shoirlar Kamiy, Xislat, Miskin, Sidqiy kabi shoirlar bilan mustahkam aloqada bo‘lgan [4,6].

Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy 1877-yili Toshkentning Sebzor dahasida ma’rifatli va yetuk tabib oilasida dunyoga kelgan. Uning otasi Zohidxon hakim o‘z davrining hoziq tabiblaridan bo‘lib, o‘g‘lining ham tabib, ham o‘qimishli inson bo‘lib yetishishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bositxon yetti yoshidan boshlab otasi rahbarligida tibbiy kitoblarni

mutolaa qila boshlaydi va keyinchalik tabobatda yuqori darajaga erishadi.

Bositxon Shoshiy sermahsul ijodkor bo‘lib, aniq va ijtimoiy fanlarga oid o‘ndan ortiq asarlar yaratgan va tarjima qilgan. U o‘zbek tilida yozilgan “Qonuni Bositiy” nomli tib qonunlari kitobi muallifi. Uning qalamiga mansub “Qonun al-Mabsut” (ikki jildli tibbiy asar), “Farhang al-mabsut” (tibbiy istilohlar lug‘ati), “Amali handasa” (geometriya) va “Muqaddimai ilmi faroyiz” (meros huquqi) kabi asarlar bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Bositxon Shoshiy “Hariqiy” taxallusi bilan g‘azal, muhammas va ijtimoiy-siyosiy mavzularda she’rlar yozgan. Shoir o‘z she’rlarini to‘plab, bayoz tuzishga kirishadi, biroq 1917-yildagi inqilobiy o‘zgarishlar va sho‘ro tuzumining o‘rnatilishi sababli bayoz to‘liq yakuniga yetmay qolgan. Ushbu adabiy meros “Devoni Hariqiy” nomi bilan fanga kiritilgan [4,7]. Devondan o‘rin olgan she’rlarda shoirning falsafiy-diniy qarashlari bilan bir qatorda XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o‘zbek ziyolilariga xos bo‘lgan milliy ma’rifatparvarlik g‘oyalari yorqin aks etgan.

Hariqiy ijodining eng muhim qirrasi – xalqni g‘ofillikdan uyg‘otish, ilm-ma’rifatga chorlashdir. Shoirning “Ash’ori milliyi Hariqiy ba fasodi olam va odam” deb nomlangan 410 misradan iborat she’rida davrning ijtimoiy illatlari, millatning taraqqiyotdan ortda qolayotgani afsus bilan bayon etiladi. Shoir millat qaddini ko‘tarishning yagona yo‘lini maktab va maorifda ko‘radi. U maktabni jamiyatni asrovchi va yuksaltiruvchi muqaddas maskan deb biladi:

Maktab erur javohiri hikmatni ma’dani,
Maktab erur foydai millatga chun hisor [4, 62].

Hariqiyning “Shogirdlarni maktabga targ‘ibi haqida“gi 100 misrali she’rida esa yosh avlodga ilm olishning fazilatlari chuqur uqtiriladi. U maktabni ilm toliblari uchun xuddi Ka’bani bino qilish yoxud ziyorat qilish kabi ulug‘ savobli va sharafli ishga o‘xshatadi [4,74]:

Bu dunyoning muborak jannat ul-ma’vosidur maktab,
Jahon sahnini beshak ahsan ul-husnosidur maktab.
Jahon ahlini alhaq maqsadi aqsosidur maktab,
Ma’orif tolibini Ka’bai barposidur maktab.

Ilm millatning joni va hayot manbai ekanligini ta’kidlagan shoir ilmsiz millatni jonsiz jismga o‘xshatadi. Ilm va olimlik maqomini yuksak pardalarda tarannum etadi:

Millat misoli jism-u bu millatni joni ilm,
Millat chu bir jazira-yu obiravoni ilm.
Millat chu bir Madina-yu ilm anga qal’adur,
Millat chu bahr-u la’li badaxshoni ilm.

Ushbu misralarda shoir millatning johillikdagi ahvolini jazirama sahroga, ilmni esa millatning chanqog‘ini qondiruvchi oqar suvga (“obiravon“ga) qiyoslaydi. Millat Madina kabi muqaddas shahar bo‘lsa, ilm uni himoya qiluvchi qal’adir, millat bebaho boylik bo‘lsa, uning qimmatbaho la’li ilmdir, deya ilmni ulug‘laydi.

Hariqiy Turkiston xalqining o‘sha davrdagi chor mustamlakachiligi sharoitidagi og‘ir hayotini, g‘ofillik va qoloqlikka yuz tutganini achchiq alam bilan tasvirlaydi. U “Zamona ahvoli va Turkiston ahlining g‘aflati“ she’rida millatni ma’rifatli xalqlar qatoriga qo‘shilishga da’vat etadi [4,77].

Shoir jamiyatning parokandaligi va tanazzulining bosh sababi sifatida o‘zaro nifoq va ixtilofni ko‘radi. “Ittifoqlik natijasi va ixtilofning zarari” nomli she’rida xalqni jipslashishga, ahil bo‘lishga chaqiradi. Chunki ittifoqlik – taraqqiyot va tinchlik asosi, ixtilof esa millat binosini buzuvchi ofatdir. She’rning birinchi qismida shoir ittifoqlikni taraqqiyot va tinchlikning asosi sifatida baholaydi:

Boisi avj-u rivoj-u ulv-u unvon ittifoq,
Markazi iqbol-u baxt-u fathi a’von ittifoq.

Ikkinchi qismda esa Turkiston fojiasining bosh sababi bo‘lgan ixtilofning oqibatini antiteza usulida ochib beriladi:

Ayshimizning qal’asini qildi vayron ixtilof,
Ahlimizning barchasini qildi hayron ixtilof.
Millatimiz ravnaqini qildi pinhon ixtilof,
Millat ahlin holini qildi parishon ixtilof [4,82].

“Aysh qal’asining vayron bo‘lishi” va “millat ahlining parishonligi” to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, ma’naviy inqirozning she’riy ifodasidir. Shoir milliy jipslashuv va birdamlikka erishilmas ekan, har qanday islohot samarasiz bo‘lib qolishini chuqur anglagan va xalqni siyosiy-ijtimoiy uyg‘onishga chaqirgan.

Xulosa qilib aytganda, Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy (Hariqiy) nafaqat yirik tabib va serqirra olim, balki milliy uyg‘onish davri adabiyotining ma’rifatparvar vakillaridan biridir. Uning “Devon”i yosh avlodni vatanparvarlik, ilm-fanga muhabbat va milliy birlik ruhida tarbiyalashda g‘oyat qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Hariqiy adabiy merosini yanada chuqur va atroflicha tadqiq etish, yangi asr o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.
2. Afoqova N. Jadid g‘azaliyoti. – Toshkent: Fan, 2005.
3. Atoulloh Husainiy. Badoyi’u-s-sanoyi’. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
4. Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy (Hariqiy). Devoni Hariqiy. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
5. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq,1999.
6. Karimbek Kamiy. Dilni obod aylangiz. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.
7. Miskin. Savti dugoh. – Toshkent: Akademiya. 2009.
8. Mo‘minjon Muhammadjonov. Turmush urinishlari. – Toshkent:Badiiy adabiyot, 1964.
9. Nuriddinov Sh.B. Mulla Qo‘shoq Miskin hayoti va uning adabiy merosi. – dis.filol.fan.nomz. – Toshkent, 2011.
10. Oltinbek O. Karimbek Kamiy – milliy uyg‘onish shoiri. – Toshkent: Muharrir, 2018.

Ozodaxon BOLTABOYEVA,
University of Business and Science Toshkent filiali Tillar kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
Ozodaxonb@gmail.com
https:orcid.org/ 0009-0001-5631-5648

XILVATIY IJODINING BADIIY-ESTETIK OLAMI VA JANR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari ijodidagi diniy-ilmiy tafakkur mezoni o'z davrining mashhur shoiri Mulla Yo'ldosh Xilvatiy asarlari asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *aqoid, fiqh, mazhab, kalom ilmi, e'tiqod, islom falsafasi, manbalar, tafakkur, ilohiyot.*

Аннотация: в данной статье анализируется проявление религиозно-научного мышления в творчестве видных представителей литературной среды Намангана начала XX века. В частности, на основе произведений известных поэтов-просветителей того периода Муллы Йулдоша Хилвати раскрываются их религиозно-доктринальные, правовые и просветительские взгляды.

Ключевые слова: *акида, фикх, мазхаб, калам, вероубеждение, исламская философия, религиозно-просветительское наследие, источники, мышление, теология.*

Annotation: this article examines the manifestation of religious and scholarly thought in the works of prominent representatives of the Namangan literary milieu of the early twentieth century. In particular, it analyzes the religious, jurisprudential, and educational views reflected in the works Mulla Yo'ldosh Xilvatiy.

Kirish. O'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan Namangan adiblari o'zlarining boy adabiy-tarixiy merosiga ega. Hozirgi Namangan viloyati hududining Axsikent, Koson, Pop, Chust shaharlarida qadimdan adabiy-madaniy hayot rivojlangan. XX asr boshlarida Namanganda qaynoq adabiy jarayon kechgani ma'lum. Nodim, Hayrat, Xilvatiy, Ibrat, So'fizoda, Dog'iy, Suhayliy kabi shoirlar ijodini o'z ichiga olgan bu hodisani adabiy harakatchilik deb atash maqsadga muvofiq. Negaki, bu jarayon nainki Namangan hududida, butun Turkistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy uyg'onishni boshlab bergan jadidchilik harakati va uning badiiy-estetik tafakkurga ko'rsatgan ta'siri bilan chambarchas bog'liqdir. Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari ijodining mufassal tadqiqi hanuz kun tartibida turgan bo'lsa ham, bu borada ayrim ilmiy yutuqlarga erishilgan. P.Qayyumiyning "Tazkirai Qayyumiy" kitobida Shavqiy, Nodim, Hayrat, Xilvatiy haqida ma'lumotlar uchraydi. Xilvatiy ijodi, dastlab xalqimizga M.Murodov tomonidan qisman tanishtirildi. O'sha davr hukmron mafkurasining ta'siri sezilib tursa ham, mazkur tadqiqotlarda XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari adabiy merosi birlamchi manbalar asosida o'rganilgani ahamiyatli. Mustaqillik davrida XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari asarlari I.Abdullayev, U.Dolimov, N.Jabborov, H.Bobobekov, B.Bobojonov, A.Xalilbekov, S.Rafiddinov va A.Qurbonov tomonidan qo'lyozma manbalar asosida chop etildi. Xilvatiyning I.Abdullayev tomonidan 2001-yil nashr etilgan devoni va biz bilan hamkorlikda S.Rafiddinov, M.Sayfullayev tomonidan nashr etilgan "Sayrul jibol", "Qasidai ilm", "Charog'i maktab" hamda A.Qurbonov tomonidan nashr etilgan "Mavludi sharif" asarlari asosiy manba sifatida o'rganilmoqda.

Asosiy qism. Xilvatiy (mulla Yo'ldosh To'raboy o'g'li) 1858-yili Uychi tumani Jiydakapa qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga kelgan. Shoir yoshligida Namanganda Azizxo'ja eshon madrasasida va Qo'qon madrasalarida tahsil oladi. Muqimiy, Furqat, Nodim, Ibratlar bilan do'stlashadi, arab, fors tillarini, Sharq adabiyotini o'rganadi. O'zbek va fors tillarida ijod qilgan zullisonayn shoir Xilvatiy 1921-yilda Jiydakapa qishlog'ida vafot etgan. Jiydakapa qishlog'idagi 14-o'rta maktabga va shoir yashagan ko'chaga Xilvatiy nomi berilgan. Hozirda shoir qabri ziyoratgohga aylantirilgan, shuningdek, shoir yashagan hovlida uy muzeyi tashkil etilgan.

Shoirdan ulkan badiiy meros qolgan. Xilvatiy payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam tug'ilishlari haqidagi "Mavludi sharif" asarini 1901-yilda Toshkentda chop ettirishga muvaffaq bo'ladi. "Charog'i maktab" nomli ilm-adab haqidagi asari 1907-yili Toshkentda nashr qilingan. Do'stlari bilan "Pochcha ota"ga sayohat qilib, 1910-yilda "Sayrul jibol" ("Tog' sayri") asarini yaratadi. "Sayrul jibol" asari bilan Xilvatiy o'zbek adabiyotida safarnoma janri rivojiga munosib hissa qo'shdi.

Xilvatiyning qo'lyozma "Devon"i mashhur adabiyotshunos, matnshunos olim, professor Ismatilla Abdullayev tashabbusi bilan 2001-yil "Fan" nashriyotida chop etildi. Devondagi lirik asarlarda ilm-ma'rifat, ishq-muhabbat, insonparvarlik, adolat, tenglik, erkin va shirin hayot orzulari tarannum etiladi. Satirik va yumoristik she'rlarida zo'ravonlik, nopok amaldorlar qoralanadi. Devon ma'lum an'ana asosida tuzilgan bo'lib, undan

o‘zbek mumtoz she’riyatining barcha janrlaridagi asarlar o‘rin olgan.

Xilvatiy she’riyati, asosan, oshiqona, diniy-tasavvufiy, axloqiy-ta’limiy, hajviy, marsiya va hasbi hol xarakterida bo‘lgan. Shoir ijodida g‘azalning oshiqona, orifona, rindona, hajviy, axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-ma’rifiy kabi turlari ko‘proq uchraydi. Uning devonida shoirning 142 ta g‘azali o‘rin olgan. Xilvatiy o‘z zamonasining mashhur shoirlariga nisbatan serqirra ijodkor ekani anglashiladi. Ijodi davomida 105 ta **muvashshah** yozgan shoir Xilvatiy adabiyotshunoslik ilmida **tavshih** san’atidan mohirona foydalangan. Ijodida g‘azal va qasida janridagi asarlari o‘ziga xos badiiy mahorat bilan tasvir etilgan.

Shoir tabiatga, borliqqa va jamiyatga bo‘lgan munosabatini aks ettirib, insonlarni halol va saxovatli bo‘lishga undaydi. Olamning foniyligi, umrning qisqaligi haqida so‘z ochgan shoir **tazod, talmeh** san’atidan foydalanib, qisqa fursatda ko‘p ishlarga ulgurish lozimligi, g‘aflatda qolmaslik kerakligini uqtiradi:

Ey fano, sarmoya rohat qilgudek fursat qani?
Ko‘z ochib yumguncha ham chun barqi barhamdur hayot.

Ahli olamdin nihon so‘rsang tiriklik davrini,
Xizr umridek muabbad bo‘lsa ham kamdur hayot[7: 128].

Xilvatiyning axloqiy-ta’limiy mavzudagi *“hayot”, “ilm uchun”, “ko‘ngil”, “etib ket”, “dilim”, “etmagan yaxshi”, “kam-kam”,“kerak bo‘lsa”* kabi radifli g‘azallarida ilm-ma’rifat ulug‘lanishi barobarida shoirning san’atkorlik darajasi namoyon bo‘ladi:

Ur o‘zing ilm eliga uchrasa mardona dilim,
Bu sifatkim uradur sham’ga parvona, dilim[7: 97].

Ilm elini shamga, tolibi ilmni parvonaga qiyoslagan shoir milliy uyg‘onish davri she’riyatiga xos tarzda ma’rifatga oshiqlik g‘oyasini badiiy talqin etadi. Parvonaning shamga o‘zini urishi misolida fikrni **tamsil** san’ati orqali ziynatlaydi.

Xilvatiy ko‘ngil qo‘ygan ma’shuqa shu qadar go‘zalki, hatto oy va quyosh ham uning husniga dosh berolmay o‘zidan xijolat bo‘ladi:

Zulmati olamni zoil aylamas bu oftob,
*To namoyon bo‘lmasa, ey mah, jamoling **tal’ati.***
***Tal’ati** xurshidi ruxsoringni ko‘rgach, ko‘kda mehr,*
Pardai mag‘ribga ro‘ qilg‘ay qilolmay toqati[7: 79]

Bayt mazmunidan ko‘rinadiki, shoir ma’shuqaning husnda tengsiz ekanligini tabiat hodisasi orqali chiroyli dalillagan. Birinchi baytda ma’shuqani oyga, ikkinchi baytda esa quyoshga o‘xshatib **tashbih** san’atining hamda to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’shuqani oy, quyosh deb **istiora** san’atining go‘zal namunasini yaratgan. Shoirning fikricha, quyosh oy yuzli ma’shuqani ko‘rgach, pardai mag‘ribga bosh qo‘yadi. Tong otib, quyosh ufqdan bosh ko‘targach, uning nuriga toqat qilolmagan oy yuzini mag‘rib pardasiga yashirishiga sabab, ma’shuqaning quyoshdan-da go‘zalligidir. Shoir yuqoridagi ikki baytda **musalsal, tashbih, istiora, husni ta’lil, tashxis** san’atlari asosida ma’shuqa jamolini chiroyli dalillar bilan ifodalaydi. **Tashobehul atrof, ya’ni musalsal** san’atidan unumli foydalanadi. Xilvatiy husni ta’lil san’atidan foydalanish vositasida go‘zal va ta’sirchan tasvirlar chizadi, betakror badiiy lavhalar yaratadi:

Taning nozukligidan gul uyoldi,
Bu boisdan qochib, bog‘ ichra qoldi[7: 200].

Shoir mazkur baytda **husni ta’lil san’ati** vositasida ma’shuqa go‘zallikda guldan-da nozik ekanligi va xijolatga tushgan gul bog‘dan tashqariga chiqa olmaganiga go‘zal sabab keltiradi. Xilvatiy o‘z fikri va maqsadini asoslash uchun keltirgan bu dalil haqiqiy sabab bo‘lmay, **tashbeh, sifatlash** usuliga asoslangan shoirona dalildir. Xilvatiy lirikasida xilma-xil hayotiy voqealar, diniy afsona va rivoyatlar husni ta’lil uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shoir quyidagi g‘azalida esa umr bo‘yi ma’shuqa ishqida o‘rtanib o‘tgani va oxir-oqibat el ichida nomi mashhur bo‘lgani haqida bayon etadi:

Hasratingda oh, ey mohi diloromim maning,
Bo‘ldi zulmatda barobar subh ila shomim maning.

Nozaninam nomini takrorida, ey Xilvatiy,
mashhur bo‘ldi dahraro nomim maning[7: 86].

Xulosa. Shoir ijodidagi hamd g‘azallar, “Sayrul jibol”, “Charog‘i maktab”, “Mavludi sharif” asarlari Haqni tanishga, ilohiy muhabbat sari intilishga yo‘l ochib beradi. Zero, Haqqa yetishib, komil inson bo‘lish, olamni tushunish har bir insonning orzusidir. Xilvatiy she’riyati yoshlarni ilm-ma’rifatli bo‘lishga, hayotni, Vatanni sevishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltaboyeva O. XX asr boshlarida Namanganda adabiy harakatchilik: namoyandalari, an’analari, yangilanishi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. 146-b.
2. Homidiy H, Ma’murov M. Namangan adiblari. – Toshkent: Fan, 2007. 244-b.
3. Mahmud I. Mullo Yo‘ldosh Xilvatiy. – Namangan: Namangan, 2017. 236-b.
4. Muhammad Obid Namangoniy. Tuhfat-ul obidin va anis ul-oshiqin. – Toshkent: Navro‘z, 2019. 240-b.
5. Xalilbekov A. Namangan adabiy gulshani. – Namangan: Namangan, 2007. 467-b.
6. Xilvatiy. Mavludi sharif / Nashrga tayyorlovchi: Qurbonov A. – Namangan: Namangan, 2000. 76-b.
7. Xilvatiy. Devon / Nashrga tayyorlovchilar: Abdullayev I, Yo‘ldoshev A. – Toshkent: Fan, 2001. 524-b.
8. Xilvatiy. Sayrul jibol / Nashrga tayyorlovchilar: Ra’fiddinov S, Boltaboyeva O. – Toshkent: Fan, 2009. 88-b.
9. Xilvatiy. Charog‘i maktab / Nashrga tayyorlovchilar: Boltaboyeva O, Sayfullayev M / Sog‘lom e’tiqod – mo‘minga najot. – Toshkent: Sharq, 2014. 147–178-b.

Komiljon QARSHIYEV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
komilqarshiyev07@gmail.com

DILOROM ISMOILOVA SHE’RIYATINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATI

Annotatsiya: maqolada “dard va umid” iskanjasida qalam tebratgan iste’dodli shoira Dilorom Ismoilova she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatini yoritishga xizmat qilgan lingvopoetik birliklar tadqiq etilgan. Shuningdek, shoira lirikasidagi milliy qadriyatlarning badiiy ifodasi, genezisi haqida muxtasar xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: *g‘oya, timsol, ohang, intertekstuallik, poetik transformatsiya, tuyg‘u.*

Аннотация: в статье исследуются лингвопоэтические единицы, послужившие раскрытию идейно-художественных особенностей поэзии талантливой поэтессы Дилором Исмоилова, творившей под гнётом «боли и надежды». Кроме того, сделаны краткие выводы о художественном выражении и генезисе национальных ценностей в лирике поэтессы.

Ключевые слова: *идея, образ, интонация, интертекстуальность, поэтическая трансформация, чувство.*

Annotation: the article examines the linguopoetic units that serve to reveal the ideological and artistic features of the poetry of the talented poetess Dilorom Ismoilova, whose creative work developed under the pressure of “pain and hope.” The paper also offers brief conclusions regarding the artistic expression and genesis of national values in the poetess’s lyric poetry.

Key words: *idea, image, tone, intertextuality, poetic transformation, emotion.*

O‘zbek she’riyati yorqin iste’dodlarga boy. Mana shunday talant egalaridan biri shoira Dilorom Ismoilova bo‘lib, u XX asr nihoyasida o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan. Dilorom Ismoilova 1965-yil Samarqand viloyati Jomboy tumanida tavallud topgan. Urgut tumanidagi 13-maktabda dastlabki saboqni olgan. Maktabni tamomlab, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetiga qabul qilingan va oliygohni muvaffaqiyatli tamomlagan. Uning ilk she’riy mashqlari talabalik kezlaridayoq ro‘znomalarda e’lon qilina boshlagan.

O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a’zosi, “Shuhrat” medali sohibasi Dilorom Ismoilova mehnat faoliyati davomida “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida, “Saodat ” jurnalida bo‘lim muharriri, “Agro biznes inform” jurnalida bosh muharrir o‘rinbosari kabi vazifalarni bajargan.

Shoiraning ijodiy bisotida *“Yuragimda gullar shiviri”, “Rayhon isli kunlar”, “Sog‘inib ketdim”, “Mehribonim, qaydasiz?” “Vatanni jonimdek asragin”, “Yaxshiyam, sen borsan”* kabi she’riy va *“Mehr”* nomli nasriy (avtobiografik qissa) asarlar jamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayrami munosabati bilan Yozuvchilar uyushmasida o‘tkazilgan ***“Vatan uchun yashaylik”*** tanlovida Dilorom Ismoilova ***“Vatanni jonimdek asragin”*** va ***“Yaxshiyam, sen borsan”*** she’riy to‘plamlari bilan qatnashib, g‘oliblikka munosib deb topilgan.

Vatan, tabiat va muhabbat, ayniqsa, tarixiy muazzam Samarqand zaminini o‘z asarlarida madh etgan shoira Dilorom Ismoilova ijodida xalq qadriyatlariga, milliy o‘zlikka, badiiy ekzotikaga, tabiatning betakror manzaralariga tayanish, kishining qalbida xazin tuyg‘ularni uyg‘otuvchi lirik manzalar chizish yetakchilik qiladi.

Shoira lirikasidagi bir qancha muhim jihatlar kitobxon diqqatini tortishi tayin. *Ona yurt tasviriga doir manzumalar, she’rning poetik quvvatini oshiruvchi intertekstuallik, lingvopoetik qiymati baland, original badiiy tasvir vositalari, sodda konstruksiyali misralarga qurilgan bandlar* ijodkor asarlarining bosh leytmotivini ochib berishga xizmat qiladi.

Dilorom Ismoilovaning Vatan manzumalarida tez-tez uchrab turuvchi, badiiy matnning tushunilishi, tafakkurda sintezlanishini osonlashtiruvchi, asarning markaziy

semantikasini boyituvchi, ekspressivligini oshiruvchi vositalar borki, ular ilmiy-nazariy jihatdan intertekstuallik deb baholanishi mumkin.

Masalan, shoiraning *“Yuragimga darmon – Samarqand”* she’rida Samarqand toponimining xalq og‘zaki ijodidagi *“Samar va Qand”* nomli oshiqlar afsonasiga doir izohiga ishora qilingan:

Goho to‘lib, goho kulib,
Borsam agar bag‘riga.
Quchog‘ini keng ochgan u,
Mangu ochiq eshigim.
Jon ila senga bog‘landim,
Senda ildizim, bandim.
Afsonalar sahfasidan
Chiqqan Samarim, Qandim.

She’riy bandning nihoyalanishida tilga olingan ***allyuziv*** birliklar, ya’ni *Samar* va *Qand* antroponimlari folklor afsonasiga ko‘ra ,*“Samarqand”* toponimiga asos bo‘lgan ikki buyuk oshiqlar *Samar* va *Qand* timsollaridir. Demak, bu allyuziv nomlar tinglovchiga afsonaviy shaxs o‘laroq tanish bo‘lgan holda asarning ekspressivligini, mazmuniy yaxlitligini, umuman, g‘oyaviy-badiiy xususiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Xalq orasida keng tarqalgan *“Samar va Qand”* afsonasiga ishora qilgan.

Shuningdek, shoiraning *“Yigit bo‘lsa …”* nomli she’rida intim tuyg‘ular badiiy asar qahramonlariga, tarixiy shaxslarga intertekstuallik vositasida mohirona bog‘lab yuborilgan. Ushbu poetik vosita orqali ijodkor bugunning yigitlariga nasihat qilgandek, ularning asl tiynatini, milliy qiyofasini tasvirlagandek taassurot uyg‘otadi:

Yigit bo‘lsa, aytaridan qaytmas bo‘lsa,
Qaytar bo‘lsa, aytarini aytmas bo‘lsa.
Yuragida o‘t chaqnasa qadamidan,
Dushmanlari og‘u yutsa alamidan.

Bo‘ylarini ko‘rganlarning zavqi ortsa,
Islaridan qaysar qizlar yuvosh tartsa,
Kiroyi bek tag‘in yana Keshdan bo‘lsa,
Shu yigitga Samarqanddan kelin olsang …

E’tibor qaratilsa, mazkur she’rda ham shoiraning individual uslubiga xos bo‘lgan, tuyg‘ular tasvirining nihoyalanuvchi finalida Abdulla Qodiriyning *“O‘tkan kunlar”* romaniga, shuningdek, *Sohibqiron Amir Temur* siymosiga ishora qilingan. So‘nggi banddagi *“Kiroyi bek”* birikmasi “O‘tkan kunlar”dagi *“Kiroyi kuyoving shundog‘ bo‘lsa”* faslida tasvirlangan Otabek timsolini ko‘z o‘ngimizda gavdalantiradi. *“Keshlik yigitning Samarqandda uylanishi”* Sohibqiron Amir Temur hazratlari va Saroy Mulk Xonim taqdiriga zimdan ishora qiladi. Misralar bag‘riga badiiy va tarixiy ma’lumotlarni singdirish ayni paytda she’rxondan o‘tkir zehnni, muyyan darajadagi badiiy va tarixiy bilim, ko‘nikma – kompetensiyani talab etadi.

Dilorom Ismoilova asarlarida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari o‘zining originalligi, kutilmagan peripetiyalarga boyligi bilan ajralib turadi. Masalan, shoira yuqoridagi she’rida mumtoz adabiyotimizga xos *tard-u aks* san’atining zamonaviy lirikadagi variantini yarata olgan: *“Yigit bo‘lsa, aytaridan qaytmas bo‘lsa, Qaytar bo‘lsa, aytarini aytmas bo‘lsa”*. Ushbu misralardagi bo‘laklarning sintaktik joylashuv nuqtayi nazaridan o‘rin almashishi tard-u aks san’atining nisbatan kengaygan, poetik transformatsiyaga uchragan ko‘rinishi demakdir. Yoki *“Yuragimga darmon - Samarqand”* she’rida *“Zarafshonning sabolari / Ertak aytib uyg‘otadi”*, yana bir she’rida *“Zarafshonning sabolari / Sochlarimni taraydi”* kabi jonlantirish tasvirlari kishi ko‘nglida ajib bir tuyg‘ularni mavjlantiradi. *“Sizsiz yashamoqqa o‘rgating meni”* nomli she’rida ijodkor Quyoshning taftini uchrashuvga chiqqan qizning ibo-hayodan qizarishiga mengzaydi: *“Ana, ko‘k toqida turibdi quyosh / Uchrashuvga chiqqan qizday lovullab”*. Bunda milliy mentalitetning sharqona falsafasi mujassam. Ya’ni faqat Sharq qizlarining, xususan, islom madaniyatida tarbiyalangan o‘zbek qizlarining yanoqlari ibo-yu hayodan Quyosh taftiday qizarishi mumkin.

O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol *“Jamiyat havosining ozon qatlami”* nomli publitsistik maqolasida shoirlarni jamiyatning ozon qatlamiga o‘xshatadi. Tabiatda ozon qatlami atmosferaga zararli elementlarni kirib kelishini to‘sgani kabi ijodkorlar ham jamiyatda zararli odatlarning ommalashishiga to‘sqinlik qilishini ta’kidlaydi. Iste’dodli shoira Dilorom Ismoilova ham bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri, virtual olamga tobelik, telefonga mubtalolik balosini *“Qaramayman telefonimga”* nomli she’rida qalamga oladi va bugunning kishisini asrashga urinadi:

Bugun qaramayman shu telefonga,
Garchand yuragimda hukmron sog‘inch.
Ko‘ngilni qadahdek tutdim hijronga,
Ey hokim, mayliga, shirin jonim ich.

Dilorom Ismoilova she’rlarining xalqchilligi, sodda qolipli ohang va ritmga egaligi, musiqiy tarovatini ta’minlovchi bosh omil butun boshli bir band she’r birgina sodda gap asosiga qurilishi bilan bog‘liq. Masalan, shoiraning *“Urgutdan yiroqlarda”* nomli she’rida sodda konstruksiyali bandlar orqali ohang ustuvorligini ta’minlaganini kuzatish mumkin:

Urgutning tuprog‘ini,
Bulbulini, zog‘ini,
Oyning uchida turgan
Yulduzi titrog‘ini
Sog‘indim, ona.

Ming yillik chinorini,
Tiklangan minorini,
Qizlarining hayosi,
Yigitlarin orini
Ko‘zim ustiga qo‘ydim.

Mazkur ikki band she’rda ikkita predikat bitta subyektga – lirik qahramonga bog‘lanib kelgan. Birinchi bandda *“sog‘indim”*, ikkinchi bandda *“ko‘zim ustiga qo‘ydim”* predikatlari semantik markazni boshqarib, har biri to‘rttadan to‘ldiruvchi (*tuprog‘ini, bulbulini, zog‘ini, titrog‘ini; chinorini, minorini, hayosini, orini*)ni tobelantirib kelmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, tasvir ifodasini, badiiy g‘oyani xalqona ohangda jilolanishini ta’minlagan. Mana shunday uyushiq bo‘laklar vositasida murakkablashgan birgina sodda gapda butun boshli bir band she’rni aks ettirish ijodkorning *“She’riyat”* nomli asarida ham kuzatiladi:

Iztirob ichidan, alam qa’ridan,
Sog‘inch girdobidan, dard ozoridan,
Yalmog‘iz og‘zidan, yomon qahridan,
Zamona zo‘rlari, yo‘qlik g‘oridan
Meni tortib olgan sensan, she’riyat!

“She’riyat – adabiyotshunos Ibrohim Haqqul ta’kidlaganidek, – dard va umid demakdir”. Hayot girdobi bergan dard iskanjasidan lirik qahramonni ijod, ilhom umid sari yetaklagani yuqoridagi lirik kartinada tasvirlangan.

Birgina hukmdagi bo‘laklarning shakliy takrori ohang ustuvorligini ta’minlagan. Bir xil qolipdagi, bir xil grammatik formadagi bo‘laklar takrori asarga o‘ziga xos musiqiy tarovat baxsh etgan. Shuningdek, asarning lingvopoetik qiymatini oshirgan. Bunday sodda ifodali bandlardan filologik ta’limdagi *“Ifodali o‘qish”* faniga doir darslik va qo‘llanmalarda mashq va topshiriqlar yaratish maqsadida foydalanish mumkin.

Dilorom Ismoilova ijodidagi sodda konstruksiyali bandlarda she’riy tafakkurni jamlash usuli Ko‘hna Sharqning hikmatlari, ruboiylari ta’sirida shakllangan, Masalan, Pahlavon Mahmudning *“Uch yuz Ko‘hi Qofni kelida tuymoq / Dil qonidan bermoq falakka bo‘yoq / Yoinki bir asr zindonda yotmoq / Nodon suhbatidan yaxshiroq”*, – ruboiysida ham aynan shunday konstruksiyali misralar qoliplanishi kuzatiladi. Demak, Dilorom Ismoilova ijodida mumtoz adabiyotdan oziqlanish nafaqat obrazlar tizimida, balki asarning formal-strukturasida ham yetakchilik qilishi kuzatiladi. Bu holat shoira asarlarining g‘oyaviy-badiiy qiymatini oshirishga xizmat qilgan.

Xullas, Nizomiy Aruziy Samarqandiyning “Majma un-navodir” asarida keltirilishicha, XV asrlarda shoir bo‘lishni istagan kishi salaflardan, ya’ni o‘zidan oldingi ulug‘lardan yigirma ming misra, zamondoshlaridan o‘n ming misra she’rni yod bilishi talab etilar ekan. Bugunning kishisi shoirlik rutbasiga intilar ekan, nafaqat ulug‘lar ijodidan, balki Dilorom Ismoilova kabi iste’dodlarning g‘oyaviy-badiiy jihatdan pishib yetilgan misralaridan bahramand bo‘lsa, foydadan xoli bo‘lmaydi degan umidda fikrimizni yakunlashni maqbul topdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исмоилова Д. Меҳрибоним, қайдасиз? – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. 558-б.
2.Жамол Камол. Сайланма. Етти жилдлик. III жилд. Абадият остонасида. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. –Б.461.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.558-б.
4. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: Sharq, 2010. 207-b.
5. Hasanov Sh. Hozirgi o‘zbek dostoni poetikasi. –Samarqand: Oltin SamChTI nashriyoti, 2024. 202 -b.
6.Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019.661-б.

Islomjon UMRZAQOV,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
OrcidID: 0009-0001-8040-8270
E-mail: islomumrzakov0101@gmail.com

FLANNERI O’KONNOR IJODIDA “AMERIKA” OBRAZI: JISMONIYLIK VA ZO‘RAVONLIK

Annotatsiya: maqolada Janub renessansi davrining yetakchi vakili Flanneri O’Konnor asarlarida jismoniylik va zo‘ravonlikning “Amerika” obrazini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. “Yaxshi odam topish oson emas” (1955), “Cho‘qqida hamma yo‘llar tutashadi” (1965) va “Donishmand qon” (1952) kabi asarlar asosida O’Konnor poetikasida zo‘ravonlik nafaqat syujet elementi, balki milliy o‘zlikni anglash, diniy-axloqiy inqiroz va irqiy ziddiyatlarni ochib tashlovchi badiiy vosita ekanligi ko‘rsatilgan. O’Konnor ijodida “tana-tomosha” modeli orqali Amerika obrazining demifologizatsiya qilinishi asoslab berilgan. Muallif grotesk personajlar va namoyishkorona zo‘ravonlik orqali Amerika janubining ruhiy holatini, shuningdek, butun Amerika jamiyatiga xos axloqiy tanglikni ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *Flanneri O’Konnor, janub gotikasi, zo‘ravonlik, jismoniylik, Amerika obrazi, grotesk, “tana-tomosha” modeli, demifologizatsiya, diniy ramziylik.*

Аннотация: в статье анализируется роль телесности и насилия в формировании образа Америки в произведениях Фланнери О’Коннор — одной из ведущих представительниц литературы Южного ренессанса. На основе произведений «Хорошего человека найти нелегко» (1955), «Все пути ведут к вершине» (1965) и «Мудрая кровь» (1952) показано, что в поэтике О’Коннор насилие выступает не только элементом сюжета, но и художественным средством раскрытия национальной идентичности, религиозно-нравственного кризиса и расовых противоречий. Обосновывается, что посредством модели «тело как зрелище» осуществляется демифологизация образа Америки. Используя гротескных персонажей и демонстративное насилие, писательница раскрывает духовное состояние американского Юга, а также нравственный кризис, характерный для американского общества в целом.

Ключевые слова: *Фланнери О’Коннор, южная готика, насилие, телесность, образ Америки, гротеск, модель «тело как зрелище», демифологизация, религиозная символика.*

Annotation: this article examines the role of corporeality and violence in shaping the image of America in the works of Flannery O’Connor, one of the leading representatives of the Southern Renaissance. Drawing on A Good Man Is Hard to Find (1955), Everything That Rises Must Converge (1965), and Wise Blood (1952), the study demonstrates that violence in O’Connor’s poetics functions not merely as a plot device but as an artistic means of revealing national identity, religious and moral crisis, and racial tensions. The article argues that the image of America is demythologized through the “body-as-spectacle” model. By employing grotesque characters and overt violence, O’Connor exposes the spiritual condition of the American South as well as the broader moral crisis characteristic of American society as a whole.

Key words: *Flannery O’Connor, Southern Gothic, violence, corporeality, image of America, grotesque, body-as-spectacle model, demythologization, religious symbolism.*

Kirish. Flanneri O’Konnor (1925–1964) Janubiy uyg‘onish davrining eng yorqin va o‘ziga xos vakillaridan biri sifatida Amerika adabiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi. Uning ijodi janubiy gotika an’anasining cho‘qqisi sifatida baholanib, “mintaqaviy adabiyotning milliy va universal darajaga ko‘tarilgan namunasi” deb e’tirof etiladi (2, 18-22). O’Konnor asarlarida zo‘ravonlik va jismoniylik markaziy o‘rinni egallaydi: uning qahramonlari – yog‘och oyoqli Hulga (“Yaxshi odam topish oson emas”), tatuirovka bilan qoplangan Parker (“Parkerning beli”), ko‘zlari o‘yib olingan Heyzel Mouts (“Donishmand qon”) – barchasi

jismoniy deformatsiyaga uchragan yoki zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan shaxslardir. Ammo O’Konnor uchun bu shunchaki dahshat estetikasi emas, balki Amerika voqeligini anglashning o‘ziga xos kalitidir.

Mazkur maqolada O’Konnor ijodida jismoniylik va zo‘ravonlik vositasida “Amerika” obrazining qay tarzda shakllantirilishi tahlil qilinadi. Ishning dolzarbligi O’Konnor poetikasining milliy o‘zlikni anglashdagi o‘rnini chuqurroq ochib berish zarurati bilan bog‘liq. Ilmiy yangilik sifatida O’Konnor ijodida “tana-tomosha” modelining Amerika obrazini demifologizatsiya qilishdagi funksiyasi asoslab beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotning metodologik asosini janub gotikasi poetikasi bo‘yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar, xususan, G. Chiubaning “Desire, Violence, and Divinity in Modern Southern Fiction” asarida O’Konnor ijodiga bag‘ishlangan tahlillar (1, 9–12) hamda J. Uotsonning “Reading for the Body” kitobidagi jismoniylik konsepsiyasi tashkil etadi (7, 6-8). Matn tahlili uchun madaniy-tarixiy poetika metodi va germenevtik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot materiali sifatida Flanneri O’Konnorning “Yaxshi odam topish oson emas” (1955), “Cho‘qqida hamma yo‘llar tutashadi” (1965) va “Donishmand qon” (1952) asarlari tanlab olindi.

Natijalar. O’Konnor poetikasida zo‘ravonlik va jismoniylik Amerika obrazini shakllantirishning uchta asosiy yo‘nalishi orqali namoyon bo‘ladi. Birinchidan, O’Konnor qahramonlarining jismoniy deformatsiyalari Amerika janubidagi ruhiy-axloqiy buzuqlikning tashqi ifodasidir. “Yaxshi odam topish oson emas” hikoyasidagi Hulganing yog‘och oyog‘i – bu nafaqat jismoniy nuqson, balki uning ichki dunyosidagi “bo‘shliq”ning, ruhiy a’zolikning ramziy timsoli (5, 15-19).

Hulganing otasi bilan mashinada ketayotgan paytda “oyog‘i yechib olinadigan” lahza tasviri uning himoyasizligini va dunyoqarashidagi sun’iylikni ochib tashlaydi. Shu tariqa, jismoniy nuqsonli shaxs orqali butun Amerika janubidagi ma’naviy deformatsiya ko‘rinadi.

Ikkinchidan, O’Konnorda zo‘ravonlik namoyishkorona xususiyatga ega bo‘lib, “tana-tomosha” modeli orqali Amerika voqeligining shafqatsiz mohiyatini ochib beradi. “Yaxshi odam topish oson emas” hikoyasining final sahnasida Izgoy oilani muntazam o‘ldirib boradi: “Otaning ovozi, keyin onaning, keyin bolalarning...” – har bir o‘lim alohida “ovoz” bilan belgilanadi va buvi shu ovozlarni eshitib turadi (4, 11–15). Qotillik jarayonining bu qadar batafsil, deyarli marosimiy tarzda tasvirlanishi zo‘ravonlikni Amerika jamiyatining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi. Izgoy buvisiga: “Siz o‘zingizni yaxshi odam deb o‘ylaysiz, ammo men yaxshi odam emasman, men hech qachon yaxshi odam bo‘lmaganman” degan so‘zlari bilan Amerika jamiyatidagi ikkiyuzlamachilikni fosh etadi (2,25–28). Uchinchidan, O’Konnor zo‘ravonlikni diniy-axloqiy anglash vositasi sifatida talqin qiladi. “Donishmand qon” romanida Heyzel Mouts o‘zini ko‘r qilganida, bu jismoniy azob orqali “haqiqiy ko‘rish”ga erishish harakati sifatida talqin qilinadi. O’Konnor o‘zi aytganidek, “zo‘ravonlik g‘alati darajada insonni haqiqatga qaytarishga qodir” (3, 7-9). Heyzelning ko‘zlari o‘yilgan holati – bu Amerika jamiyatidagi ruhiy ko‘rlikning, yuzaki qadriyatlarga berilishning teskari aksi. “Agar siz haqiqatni ko‘rmoqchi bo‘lsangiz, avval ko‘r bo‘lishingiz kerak” kabi paradoksal g‘oya O’Konnor falsafasining markazida turadi (2, 30–33).

Muhokama. O’Konnor ijodidagi zo‘ravonlik va jismoniylik Amerika obrazini shakllantirishda bir qancha muhim funksiyalarni bajaradi. Eng avvalo, u Amerika janubining idealizatsiya qilingan obrazini yo‘q qilishga xizmat qiladi. O’Konnor tasvirlagan “Yangi Amerika” – bu o‘zining irqiy, diniy va axloqiy ziddiyatlarini zo‘ravonlik orqali ifoda etuvchi jamiyatdir (5, 22–26). Uning qahramonlari orasida “sof amerikalik” tipini topish qiyin: barcha qahramonlar qandaydir jismoniy yoki ruhiy buzuqlikning tashuvchilari sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, O’Konnorda zo‘ravonlik Amerika jamiyatidagi diniy inqirozning ko‘zgusi vazifasini o‘taydi. Katolik diniga e’tiqod qilgan yozuvchi uchun zamonaviy Amerika – bu Xudo “o‘lgan” makon va zo‘ravonlik aynan shu bo‘shliqdan tug‘iladi. G. Chiuba ta’kidlaganidek, “O’Konnor dunyosida zo‘ravonlik ilohiy inoyatning buzilgan ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi” (1, 15-17). Heyzel Moutsning “Masihsiz cherkov” tashkil etishi – Amerikadagi diniy qadriyatlarning qanday qilib bo‘sh marosimga aylanib qolganligining badiiy ifodasi.

Uchinchidan, O’Konnor grotesk personajlari orqali Amerika haqidagi stereotiplarni buzadi. Uning qahramonlari “normal” amerikalik andozasiga to‘g‘ri kelmaydi: ular kasal, mayib, aqldan ozgan

yoki jinoyatchidir. Ammo aynan shu “anomaliya” orqali O’Konnor Amerika jamiyatining chinakam “yuzi”ni ochib beradi (4, 15–20). “Parkerova spina” hikoyasida qahramon tanasini to‘liq tatuirovka bilan qoplashi – bu Amerika jamiyatidagi o‘zlikni izlashning, ichki bo‘shliqni tashqi belgilar bilan to‘ldirishga urinishning ramziy ifodasidir. Shu o‘rinda O’Konnor zo‘ravonligining yana bir muhim jihatiga to‘xtalish zarur: bu zo‘ravonlikning “tomosha” shaklida namoyon bo‘lishidir. Folknerda zo‘ravonlik ko‘pincha yopiq makonlarda, sir saqlangan holda sodir bo‘lsa (“Emili uchun atirgullar”dagi o‘likxona, “O‘lar chog‘imda”dagi tobut), O’Konnorda u har doim ochiq, ko‘z oldida, hatto tomoshabinni nazarda tutgan holda ro‘y beradi. Bu xususiyat O’Konnor nasrini Amerika jamiyatidagi “zo‘ravonlik industriyasi” bilan, ommaviy axborot vositalarining zo‘ravonlikni “iste’mol mahsuloti”ga aylantirishi bilan bog‘lash imkonini beradi (5, 18–22). “Yaxshi odam topish oson emas” hikoyasida Izgoyning oilani o‘ldirish sahnasi xuddi Gollivud filmlaridagi kabi “sahnalashtirilgan” zo‘ravonlikni eslatadi va aynan shu o‘xshashlik orqali O’Konnor Amerika madaniyatining zo‘ravonlikka to‘yinganligini tanqid qiladi.

Xulosa. Flanneri O’Konnor ijodi Janub renessansi davrining boshqa vakillaridan farqli o‘laroq, zo‘ravonlik va jismoniylikni diniy-axloqiy va ijtimoiy tanqidning keskin quroliga aylantiradi. Uning qahramonlarining jismoniy nuqsonlari Amerika janubidagi ruhiy buzuqlikning tashqi ko‘rinishi, zo‘ravonlik sahnalari esa Amerika jamiyatidagi ikkiyuzlamachilik va ma’naviy bo‘shliqning fosh etilishidir. O’Konnor yaratgan “Amerika” obrazi – bu tashqi farovonlik va ichki buzuqlik o‘rtasidagi ziddiyatga asoslangan, zo‘ravonlikni o‘zining ajralmas qismi sifatida qabul qilgan jamiyat obrazidir. “Tana-tomosha” modeli orqali O’Konnor nafaqat Amerika janubining, balki butun Amerika jamiyatining ma’naviy-axloqiy ahvolini tashxis qiladi va bu tashxis beomon, ammo chuqur haqqoniydir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ciuba G. M. Desire, Violence, and Divinity in Modern Southern Fiction. – Baton Rouge: Louisiana State University Press, 2007. 288 p.
2. Южное Возрождение // AlphaPedia. [Электрон ресурс]. URL: https://alphapedia.ru/w/Southern_Renaissance (дата обрашчения: 26.05.2026).
3. Южная готика: расизм, инсест, насилие // Издателство АСТ. – 2023. [Электрон ресурс]. URL: https://ast.ru/news/yuzhnaya-gotika-rasizm-intsest-nasilie/ (дата обрашчения: 26.05.2026).
4. Dominy J. J. Review of Watson, Jay, Reading for the Body: The Recalcitrant Materiality of Southern Fiction, 1893–1985 // H-Southern-Lit. 2013.
5. Charlety E. Of Flesh and Bones: Incarnations of the Silenced Past in William Faulkner and Erskine Caldwell’s Early Southern Gothic Short Stories // Undead Souths: The Gothic and Beyond in Southern Literature and Culture. 2015.
6. America out of Place: The Gothic Relation between the South and the Nation: PhD Dissertation. – Rice University, 2001.
7. Watson J. Reading for the Body: The Recalcitrant Materiality of Southern Fiction, 1893–1985. – Athens: University of Georgia Press, 2012. 412 p.
8. O‘Connor F. The Complete Stories. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 1971. – 555 p.
9. O‘Connor F. Wise Blood. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1952. 232 p.
10. Raymond C. Witnessing Sadism in Texts of the American South: Women, Specularity, and the Poetics of Subjectivity. – Farnham: Ashgate, 2014. 224 p.



Surayyo SHODIYEVA,
Turon universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti (v.b),
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

ZarnigorABDULLAYEVA,
Lingvistika yo‘nalishining 1-bosqich magistranti



MUSHTARAK SAN’ATLARNING HOSIL BO‘LISH ASOSLARI

Annotatsiya: mumtoz adabiyotshunoslikda badiiy san’atlar (ilmiy istilohda sanoyi’ ul-badi’) she’riy va nasriy matnning estetik qiymatini oshiruvchi, fikrni obrazli va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiluvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu san’atlar nafaqat muallifning badiiy mahoratini namoyon etadi, balki asarning g‘oyaviy mazmunini chuqurlashtirib, o‘quvchi tasavvurini boyitadi. Ana shunday badiiy vositalar orasida mushtarak san’atlar alohida o‘rin tutadi. Mazkur maqolada bu xususidagi ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ular mashhur ijodkorlarning ijod namunalari asosida dalillanganligi bilan e’tiborlidir.

Kalit so‘zlar: *mushtarak san’atlar, tajnis, iyhom, tazodiy uyg‘unlik, ramziy ifoda, ko‘p ma’nolilik, mazmuniy chuqurlik, badiiy sintez, estetik ta’sir*

Annotation:in classical literary studies, artistic devices (known scientifically as sanoyi’ ul-badi’) are considered one of the key means that enhance the aesthetic value of poetic and prose texts and serve to express ideas in a figurative and impactful manner. These devices not only demonstrate the author’s artistic mastery but also deepen the ideological content of the work and enrich the reader’s imagination. Among such artistic means, composite literary devices occupy a special place. This article presents information on this topic, and its significance is supported through examples from the creative works of well-known authors.

Key words: *joint (composite) artistic devices, tajnis (paronomasia/pun), iyhom (double entendre), antithetical harmony, symbolic expression, polysemy (multiple meanings), semantic depth, artistic synthesis, aesthetic effect.*

Аннотация: в классическом литературоведении художественные приёмы (в научной терминологии — санои’ ул-бади’) считаются одним из важных средств, повышающих эстетическую ценность поэтического и прозаического текста и служащих образному и выразительному выражению мысли. Эти приёмы не только демонстрируют художественное мастерство автора, но и углубляют идейное содержание произведения, обогащая воображение читателя. Среди таких художественных средств особое место занимают муштарак (совмещённые) приёмы. В данной статье представлены сведения по этому вопросу, примечательные тем, что они обоснованы на примерах из творчества известных авторов.

Ключевые слова: *муштарак санъаты, таджнис, ийхом, антонимическая гармония, символическое выражение, многозначность, смысловая глубина, художественный синтез, эстетическое воздействие.*

Mushtarak san’atlar bir nechta badiiy uslubiy vositalarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladigan, ya’ni bir nechta san’atning bir misra yoki badiiy ifodada birgalikda qo‘llanishi orqali hosil bo‘ladigan ifoda shakllariga aytiladi. Ularning hosil bo‘lish asosi tilning ko‘p qatlamli imkoniyatlari, ma’no ko‘chish jarayonlari, ohang va shakl uyg‘unligi hamda badiiy tafakkurning murakkab sintetik ko‘rinishidir. Quyida ularning ayrimlaridan namunalar keltirilgan bo‘lib, bu mushtarak san’atlarni anglash va ularning hosil bo‘lish asoslarini idrok etishda samarali usullardan biri hisoblanadi.

Tazod, (antiteza) — (ar. “zid”, “qarshilantirish”) san’atida shoir she’rda qarama-qarshi, bir-biriga zid ma’noli so‘zlarni qo‘llaydi.

Fildek zo‘r bo‘lsang-u sherdek urishqoq,
Nazdimda, **jang**dan **sulh** ming bor afzalroq.
(Sheroziy)

Ishqi maydin do’li boda ichibdur,
Ul ko’hna manzildin **qo‘nub**, **ko‘chubsen**.(Shobanda)

Kechalar fig‘onimdin tinmadi kavokiblar,
Arz to samo uzra mojaro Uvaysiyman. (Uvaysiy)
(Arz to samo– yerdan osmongacha.)

“Xalqning fe’li o‘z yeriga o‘xsharkan:
Katta urug‘ **yalqov, loqayd** yasharkan!
Kichigi-chi, **qaynagan qon, ishchan er**,
Mehnatidan zar tugarkan har kaft yer. (O. Matjon)

Sen **beshik** emassan, **dorsan**, tabiat,
Sen ona emassan, jallodsan, dunyo! (A.Oripov)

Tajnis (ar. “jinos”, “jinsdosh”) — baytda shakldosh so‘zlarni qo‘llash. Yozilishi va aytilishi bir xil bo‘lgan so‘zlar shakldosh so‘zlar deyiladi.

Raqiblarg‘a qilur la’ling tabassum,
Qonimni g‘ussadin **toshurmog‘ing** ne?
Ko‘ngul shishasida mehring mayidir,
Jafo birla anga **tosh urmog‘ing** ne? (Atoyi)

Alisher Navoiy ijodida tasvirlanayotgan bu baytlarda oshiqning ichki kechinmalari juda nozik badiiy usulda ifodalanadi. Birinchi baytda lirik qahramon yorga murojaat

qilib, uning labidagi tabassum raqiblarga qaratilganini ko‘rib, bundan g‘amga botadi va “meni iztirobga solishing nimaga?” degan mazmunni bildiradi. Bu yerda oshiqning rashk va iztirobga to‘la ruhiy holati aks etadi.

Keyingi baytda esa obrazlar yanada ramziy tus oladi: oshiqning ko‘ngli shishaga, yorga bo‘lgan muhabbati esa mayga qiyoslanadi. Ya’ni qalb — nozik idish, ishq esa uni to‘ldirgan ilohiy tuyg‘u sifatida tasvirlanadi. Ma’shuqaning jafo va beparvoligi esa shu shisha ko‘ngilga tosh urish bilan tenglashtiriladi.

Shu o‘rinda “toshurmoq” va “tosh urmoq” so‘zlari omonimlik asosida badiiy o‘yin hosil qiladi: biri “qaynatmoq, iztirobga solmoq” ma’nosini bersa, ikkinchisi bevosita “tosh bilan urish” ma’nosini anglatadi. Natijada bir xil tovushli so‘zlar orqali ikki xil ma’no qatlami yaratilib, baytning badiiy ta’siri yanada kuchayadi.

Bo‘yung sarv-u sanubartek, beling **qil,**
Vafo qilg‘on kishilarga vafo **qil.** (Xorazmiy)

(1-misra: qil – soch, tuk, mo‘y kabi ingichka (ot turkumi); 2-misra: qil – qilmoq (fe’l)

Keltursa **yuz** baloni o‘shal bevafo manga,
Kelsun, **yuz**umni evursam, balo manga.

Birinchi va ikkinchi misralarda qo‘llangan “yuz” so‘zi omonim xususiyatga ega bo‘lib, bir o‘rinda son (100) ma’nosini, ikkinchi o‘rinda esa inson yuzini — tana a’zosi ma’nosini anglatadi. Ana shu bir xil shakldagi, lekin turli ma’nodagi so‘zning she’rda mahorat bilan ishlatilishi natijasida tajnis san’ati yuzaga keladi. Bu esa baytga o‘ziga xos badiiy o‘yin, ma’no chuqurligi va ifoda nafisligini bag‘ishlaydi.

Yuz safhasinda xatlar yoshdinki, har taraf bor
Ishqingda Bobur aylar bu nav’ **yuz** risola. (Bobur)

Safha yuzning ko‘rinishi bo‘lib, ayni paytda xat yozish uchun mo‘ljallangan qog‘oz sahifasini ham anglatmoqdaki, shoir shunga ko‘ra, yor haqida yuz risola yozishga tayyor ekanligini alohida ta’kidlamoqda.

Qadimni firoq mehnati **yo qildi.**
Ko‘nglum g‘am-u anduh o‘tig‘a **yoqildi**.
Holimni sabog‘a aytib erdim, ey gul,
Bilmon, senga sharh qilmadi **yo qildi**. (Bobur)

1) yo qildi – yoy, ya’ni kamonga o‘xshatib qo‘ydi;
2) yoqildi – yondi, kuydi, o‘rtandi;
3) yo qildi – yoki (sharh) qildi.

Ag‘yor ko‘z olida-u ul yor ayon yo‘q,
G‘am xori ko‘ngul ichra-yu **g‘amxor** topilmas (Bobur)

Ey **gul**, meni **zor** etmaki husnung chamanida,
Ko‘zni yumub ochquncha, bu **gulzor** topilmas. (Bobur)

“Ul gul **yuzi** shavqi bila shaydo ko‘ngul shom-u sahar,
Bulbuldek aylar **yuz** navo ming nav’ faryod ustina. (Ogahiy)

(1-misra: yuz-chehra; 2-misra: yuz- son)

Ishtiqoq — arabcha “so‘zdan so‘zni ajratmoq” degan ma’noni ifodalaydi. She’rda o‘zakdosh so‘zlarni qo‘llash san’atidir.

Uzun sochingdin **uzmasmen** ko‘ngulni,
Ayog‘ing qanda bo‘lsa, boshim anda. (Atoyi)

“Uzun” va “uzmasman” so‘zlari bir xil o‘zak — “uz” bilan boshlanib, baytda o‘zaro ohangdosh va uyg‘un tovush tizimini hosil qiladi. Bu tashqi o‘xshashlik she’riy nutqqa musiqiylik va ritmik joziba bag‘ishlaydi. Shu bilan birga, bu takroriy tovush uyg‘unligi so‘zlarning ma’nosini ham kuchaytiradi: “Uzun” so‘zi davomiylik va cho‘zilgan holatni ifodalasa, “uzmasman” esa uzluksizlik va qat’iyat ma’nosini bildiradi. Natijada bir xil o‘zak orqali bog‘langan so‘zlar nafaqat ohang jihatidan, balki mazmun jihatidan ham bir-birini to‘ldirib, baytning badiiy ta’sirini oshiradi.

G‘ussa changidin **navoye** topmadim ushshoq aro,
To Navoiydek asir-u **benavo** bo‘ldum sanga. (Navoiy)

Jonda jonparvar so‘zidurmu labi xandonimu,
Ruhum oromi deyinmu ani **jonim jonimu**? (Navoiy)

Ushbu yo’lda biz ham sizga **yori** hamdam bo’loli,
Gar kerak desa jonim **yora** marham bo’loli. (Shobanda)
Soqiyo tut bodayi Gul **masti** xarob aylagali,
May ichib **mastonaliqni** ixtiyor aylagali. (Shobanda)

Eslatma: ona tili darsligida berilgan o‘zakdosh so‘zlardan ishtiqoq san’atining farqi shundaki, ona tili darsligidagi o‘zakdosh so‘zlarda faqat so‘z yasovchi qo‘shimchalar ishtirok etadi, ishtiqoq san’atida esa odatda, har qanday qo‘shimcha (shakl yasovchi) ham ishtirok etaveradi.

Iqtibos (ar. “ilm o‘zlashtirmoq”) Qur’on oyatlari va payg‘ambar hadislarini she’r ichida keltirish yoki ularning mazmunini she’rda ifodalash san’ati.

Hammaga ma’lumdurki, eng muqaddas diniy yerimiz o‘lan Arabistonga bog‘larini, hovlilarini sotub hijrat qilgan hojilarimizning aksari yana o‘z vatanlariga qaytub kelurlar. Buning sababi, ya’ni bularni tortib kelturgan quvvat o‘z vatanlarining, tuproqlarining mehr-u muhabbatidur. **Rasuli akram nabiyyi muhtaram sollallohu alayhi vasallam afandimiz: “Hubbul-vatani minal-imoni” – “Vatanni suymak imondandur”**, – demishlar. (A.Avloniy)

Aqd (arabcha “bog‘lash”, “mustahkamlash” ma’nolarini bildiradi) — Qur’on oyatlari yoki hadis matnlarini she’riy asarda vazn va qofiya talabiga moslashtirib, biroz o‘zgartirish bilan qo‘llash usulidir. Jumladan, ushbu baytda Qur’ondagi “A’rof” surasining 23-oyatiga ishora qilingan “zalamno rabbano” iborasi keltiriladi. Oyatning asl shakli “Qolo rabbano zalamno anfusano” bo‘lib, unda Odam Ato va Momo Havvo jannatdan chiqarilgach, qilgan gunohlari uchun Allohdan kechirim so‘rab tavba qilganlari ifodalanadi.

Shoir bu diniy iborani bayt tarkibiga kiritish orqali ma’noni yanada kuchaytiradi: falakning lutf kechasi faqat zikr va tasbih bilan to‘la, inson esa Alloh oldida o‘z ojizligini tan olib, tavba holatida yashaydi. “Zalamno rabbano” jumlasi shu ma’noda lirik qahramonning ham kamtarligi, ham ilohiy qo‘rquv va tavba holatini ifodalaydi. Natijada Qur’oniy iqtibos she’rga diniy-falsafiy ruh bag‘ishlab, badiiy matnni yanada chuqur va ta’sirchan qiladi.

Alisher Navoiy esa she’r vazniga moslashtirish maqsadida “rabbano” va “zalamno” so‘zlarining o‘rnini almashtirib qo‘llagan. Bu hol aqd san’atining amaliy ko‘rinishi hisoblanadi.

Tazmin (ar. “zamin”, “poydevor” — bir narsani ikkinchi bir narsa orasiga qo‘ymoq)da san’atkor yaratilayotgan asariga boshqa biror shoirning kuchli ta’sir qilgan misra yoki baytlarini o‘zgartirishsiz kiritadi. Biroq buning sharti bor: yaratilayotgan asardagi bosh g‘oyaga mos bo‘lishi, uning mohiyatini chuqurroq va ta’sirchanroq ochishi lozim. Mashrab o‘zining

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim xoh inon, xoh inonma.

Mazkur tarzida boshlanuvchi g‘azalida Lutfiyning mashhur shu radifli g‘azal baytini aynan keltiradi.

Tatabbu’ (arabcha “izidan borish”, “ergashish” ma’nolarini anglatadi) — boshqa bir shoir ijodidan ilhomlanib, uning vazni, qofiyasi va radifini saqlagan holda yangi asar yaratish usulidir. Bu hol adabiyotda nazira yoki javobiya sifatida ham tanilgan. Sharq mumtoz adabiyotida tatabbu’ ijodkorlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va badiiy aloqaning muhim ko‘rinishi bo‘lib xizmat qilgan. Shoirlar bir-birining asariga javob yozish orqali nafaqat mahoratini namoyon etgan, balki tanlangan shakl doirasida yangi mazmun va g‘oyalarni ilgari surishga intilgan.

Alisher Navoiyning epik ijodi tatabbu’ an’anasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u Sharq adabiyoti klassiklari ijodiga ijodiy javob va davom sifatida shakllangan. Xususan, “Lison ut-tayr” dostoni Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asari ta’sirida yaratilgan bo‘lib, undagi ramziy qushlar safari g‘oyasi Navoiyda yangi badiiy-falsafiy talqinda davom ettiriladi. Shuningdek, Navoiy “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlarini yaratishda ham buyuk salaflar an’anasiga tayangan. Bu borada Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy hamda Abdurahmon Jomiy kabi ijodkorlarning asarlari muhim manba va ilhom vazifasini bajargan. Biroq Navoiy ularga oddiy taqlid qilmagan, balki ularning mavzularini o‘zining falsafiy qarashlari, milliy ruh va badiiy mahorati bilan boyitib, yangi bosqichga ko‘targan.

Baroati istehlol — she’riy yoki nasriy asarning boshida berilgan ishora va ifodalar orqali uning umumiy mavzusi yoki alohida boblarining mazmunini oldindan anglatishga asoslangan badiiy san’atdir. Bu usulda muallif asarning debochasida, masnaviy, qasida yoki marsiya boshlanishida, shuningdek, bob va fasllar avvalida shunday so‘z va fikrlar keltiradiki, ular orqali o‘quvchi asarning qanday mavzuga bag‘ishlanganini, uning asosiy g‘oya va yo‘nalishini anglab oladi. Natijada baroati istehlol asar mazmunini oldindan his qilish, uni to‘g‘ri idrok etishga tayyorlash va o‘quvchida qiziqish uyg‘otish vazifasini bajaradi.

Jumladan, quyidagi bob sarlavhasining mazmunidan uning bayoni tavsilotlari nima haqida ekanligini tezda fahmlab olish mumkin. “Bulbul Qizil gul qoshig‘a borurda bir vodiyg‘a chiqqoni. Bu vodiydi oshyona tutib, bir necha kun bo‘lg‘oni. Bulbul bu vodiy qushlarig‘a hamsuhbat bo‘lub, holini so‘rg‘oni”. (Salohiy)

Kalomi jomi’ (ar. – jamlovchi, umumlashtiruvchi so‘z) – “she’rda yoki baytda pand-nasihat, o‘git, axloq-odobga oid, zamona va zamondoshlardan shikoyat bilan bog‘liq fikrlarni keltirishga asoslangan she’riy san’at”[1].

Quyida turkman shoiri Shobanda o‘z zamondoshlariga, banibasharga ko‘nglingni, xotiringni ilohiy muhabbat bilan band qil, Allohning haqiqiy habibi bo‘l, besh kunlik dunyoda nafsga berilmasdan, iymoningni mukammal qilib, komillikka intilgin ma’nilarni anglashimiz mumkin:

Vasli mahbub aylamishdur xotiringni mastmi?
Besh kundur bu jahon mast o’lub, usruk kezaver.
(Shobanda)

Mushtarak san’atlar mumtoz adabiyotda badiiy ifodaning eng murakkab va mukammal ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Ularning asosiy xususiyati shundaki, bir nechta badiiy san’atlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida matnda ko‘p qatlamli ma’no, kuchli emotsional ta’sir va estetik go‘zallik yuzaga keladi. Bu esa ijodkorning til imkoniyatlaridan yuksak darajada foydalanish mahoratini yaqqol namoyon etadi. Mushtarak san’atlarning hosil bo‘lishi tilning semantik boyligi, so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi, obrazlilik, shuningdek, badiiy tafakkurning murakkabligi bilan bevosita bog‘liqdir. Aynan shu omillar birlashib, tashbeh, istiora, kinoya, mubolag‘a, tazod va boshqa san’atlarning yagona badiiy tizim sifatida ishlashiga imkon yaratadi.

Umuman olganda, mushtarak san’atlar asarning g‘oyaviy-badiiy qiymatini oshirib, uni oddiy ifodadan yuksak estetik darajaga ko‘taradi. Shu sababli ular mumtoz adabiyot namunalarini tahlil qilishda, ayniqsa, Navoiy va boshqa klassik shoirlar ijodini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

1 Yusupova D. Aruz vazni va badiiy san’atlar. – Toshkent: Tamaddun, 2022.232-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H. Abdullayev, I.Qurbanbayev, O.Duysenbayev. She’riy tizimlar va badiiy san’atlar. – Nukus, 2020. 151-bet.
2. Shobanda. Gul va Bulbul. – Toshkent, 1912.
3. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Darslik. – T.: Tamaddun, 2022.152-bet.
4. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.398-б.
5. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. 216-б.
6. Тарозий. Фунун-ул балоға. – Тошкент: Хазина, 1996.147-б.
7. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999.240-б.

Qahramonjon ISMOILOV,
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, PhD.

TASAVVUF TERMINOLOGIYASINING DENOTATIV VA KONNOTATIV QATLAMLARDA POETIK TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada tasavvuf terminologiyasining denotativ va konnotativ qatlamlarda poetik transformatsiyasi o‘rganiladi. Tadqiqot o‘zbek mumtoz adabiyoti, xususan Alisher Navoiy ijodi misolida olib borilgan. Maqolada “ishq”, “haqiqat”, “fano”, “ma’rifat” kabi terminlarning dastlabki teologik ma’nolari saqlangan holda, poetik matnda qanday ramziy va estetik kengayishga uchrashi tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur jarayon tarjimashunoslik, semiotika va mistik germenevtika nuqtai nazaridan yoritiladi. Tadqiqot natijalari tasavvuf terminlari oddiy leksik birlik emas, balki ruhiy tajriba va madaniy kodlarni ifodalovchi ko‘p qatlamli estetik vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *tasavvuf terminologiyasi, denotativ ma’no, konnotativ ma’no, poetik transformatsiya, o‘zbek mumtoz adabiyoti, Alisher Navoiy, ramziy tafakkur, mistik tajriba, semiotika, tarjimashunoslik*

Аннотация: в данной статье рассматривается поэтическая трансформация суфийской терминологии на денотативном и коннотативном уровнях. Исследование основано на материале узбекской классической литературы, особенно творчества Alisher Navoiy. Анализируется, как такие понятия, как «ишк», «хакикат», «фано» и «маърифат», сохраняя своё теологическое значение, приобретают символические и эстетические оттенки в поэтическом тексте. Работа опирается на подходы переводоведения, семиотики и мистической герменевтики. Результаты показывают, что суфийские термины представляют собой не просто лексические единицы, а многослойные культурные и духовные коды, отражающие внутренний опыт и художественное мышление.

Ключевые слова: *суфийская терминология, денотативное значение, коннотативное значение, поэтическая трансформация, узбекская классическая литература, Alisher Navoiy, символическое мышление, мистический опыт, семиотика, переводоведение*

Annotation: this article explores the poetic transformation of Sufi terminology across denotative and connotative levels. The study focuses on classical Uzbek literature, particularly the works of Alisher Navoiy. It analyzes how terms such as “ishq” (divine love), “haqiqat” (truth), “fano” (annihilation), and “ma’rifat” (gnosis) retain their theological meanings while acquiring symbolic and aesthetic dimensions in poetic discourse. The research integrates perspectives from translation studies, semiotics, and mystical hermeneutics. The findings demonstrate that Sufi terminology functions not merely as lexical units but as complex cultural and spiritual signifiers, embodying emotional experience and enriching literary expression.

Key words: *Sufi terminology, denotative meaning, connotative meaning, poetic transformation, classical Uzbek literature, Alisher Navoiy, symbolic thinking, mystical experience, semiotics, translation studies*

Tasavvuf terminologiyasi o‘z tabiatiga ko‘ra ikki darajada faoliyat yuritadi — denotativ (to‘g‘ridan to‘g‘ri, lug‘aviy) va konnotativ (majoziy, madaniy-ruhiy). Denotativ daraja terminlarning asosiy, literal ma’nosini ifodalaydi va odatda, tasavvufiy risolalar, ilohiy ta’limotlar hamda shariat va tariqat doirasidagi izohlarida namoyon bo‘ladi. Aksincha, konnotativ daraja ushbu literal ma’nolardan tashqariga chiqib, ramziy ifoda, madaniy rezonans, ruhiy tajriba va badiiy tasavvur bilan boyiydi.

O‘zbek mumtoz she’riyati, ayniqsa Alisher Navoiy ijodi, ushbu ikki darajani o‘zaro uyg‘unlashtirishda beqiyos mahorat namunasidir. “Ishq”, “haqiqat”, “haqq”, “fano”, “zuhd”, “mujohada”, “tavba”, “ma’rifat” kabi tushunchalar bir vaqtning o‘zida ham teologik kategoriya, ham poetik ramz sifatida xizmat qiladi. Natijada ular o‘z denotativ mohiyatini saqlagan holda konnotativ jihatdan kengayib boradi.

Mazkur ikki qatlamli funksionallikning ahamiyati faqat lingvistik yoki adabiy jihat bilan cheklanmaydi, balki kengroq madaniy va semiotik jarayonlar bilan ham bog‘liqdir. Ushbu terminlar shunchaki ma’no tashuvchilar emas, balki tajriba, hissiyot va madaniy kodlarning mujassamidir. O‘zbek mumtoz she’riyati kontekstida ular diniy doktrina chegarasidan chiqib, estetik konseptualizatsiya va ramziy tafakkur maydoniga kiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tasavvuf terminlarining o‘zbek mumtoz adabiyotida, xususan Navoiy ijodida qanday poetik transformatsiyaga uchrashini aniqlash hamda denotativ va konnotativ ma’nolar o‘rtasidagi muvozanatni tarjimashunoslik, semiotika va mistik germenevtika nuqtai nazaridan tahlil qilishdan iboratdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, denotativ darajada tasavvuf terminlari o‘zining asosiy teologik mazmunini saqlab qoladi. Masalan, “zuhd” dunyoviy

lazzatlardan voz kechishni, “fano” shaxsiy “men”ning ilohiy haqiqatda erishini, “ma’rifat” ilohiy bilimni, “haqiqat” ichki haqiqatga yetishni, “haqq” mutlaq borliqni, “ishq” esa ilohiy muhabbatni anglatadi.

Biroq konnotativ darajada ushbu terminlar kengaytirilgan ramziy va estetik ma’nolarni kasb etadi. Masalan, Navoiy she’riyatida “ishq” faqat ilohiy muhabbat emas, balki yonuvchi olov, qalbni egallovchi iztirob, insonni hayot va o‘lim chegarasiga olib boruvchi kuch sifatida talqin etiladi. “Fano” esa sham atrofida yonib halok bo‘luvchi parvona orqali ifodalanadi. “Haqq” nafaqat Alloh, balki ma’shuqaning jamoli, nigohi va ilohiy go‘zallik timsoli sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Bu holat mumtoz she’riyat tasavvuf terminlarini buzmasligini, balki ularni ramziy-estetik tarmoqlar orqali boyitishini ko‘rsatadi.

Mazkur natijalar zamonaviy nazariy qarashlar bilan uyg‘unlikda talqin qilinadi. Xomi K. Bhabha ma’noning faqat til orqali emas, balki madaniy kontekst va gibritlik orqali shakllanishini ta’kidlaydi [1, 36–39; 50–56; 211–235]. Lourens Venuti tarjimada subyektivlik va ijodiy qayta ifodalash muhimligini ko‘rsatadi.

Annemarie Schimmel tasavvuf terminlari poetik matnda mistik tajriba vositasiga aylanishini qayd etadi [3, 4–7; 5–6; 13].

Annemarie Schimmel tasavvufni faqatgina nazariy yoki diniy tizim sifatida emas, balki chuqur tajriba (experience) sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, bu tajriba oddiy til vositalari orqali to‘liq ifodalanmaydi. Shu sababli, tasavvufiy adabiyot — ayniqsa, she’riyat — maxsus terminologiya va ramziy til orqali mistik haqiqatni yetkazishga urinadi. Bu yerda “ishq”, “fano”, “baqo”, “nur”, “yo‘l (tariq)” kabi tushunchalar oddiy termin emas, balki ichki ruhiy kechinmaning poetik ifodasiga aylanadi.

A.Shimmel ta’kidlaydiki, mistik tajriba “oddiy aqliy idrok orqali tushunilmaydi” va uni ifodalash uchun inson ramzlar va obrazlar tizimiga murojaat qiladi. Shu bois tasavvuf she’riyati uch asosiy ramziy qatlam orqali shakllanadi: yo‘l (safar), poklanish (transformatsiya) va ilohiy muhabbat. Bu ramzlar aslida terminlarning poetik shaklga o‘tgan ko‘rinishidir.

Masalan, “yo‘l” (tariqat) termini nafaqat diniy tushuncha, balki insonning ichki kamolot sari harakatini ifodalaydi. “Ishq” esa faqat his-tuyg‘u emas, balki ilohiy haqiqat bilan birlashishga olib boruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Shimmel bu jarayonni shunday tushuntiradi: mistiklar o‘z tajribalarini insoniy muhabbat obrazlari orqali ifodalaydilar, natijada ilohiy va dunyoviy sevgi o‘rtasida murakkab sintez yuzaga keladi.

Bundan tashqari, A.Shimmel tasavvufiy tilning o‘ziga xos xususiyatini — uning ko‘p qatlamli va o‘yinli (playful) tabiatini alohida qayd etadi. Unga ko‘ra, arab tilining ildiz tizimi mistiklarga bir so‘zdan turli ma’nolar chiqarish imkonini beradi va bu esa poetik ifodaning chuqurligini oshiradi. Natijada, tasavvuf terminlari oddiy semantik birlik emas, balki ko‘p ma’noli, yashirin ishoralar bilan boyitilgan poetik kodga aylanadi.

Eng muhim jihati shundaki, Shimmel fikricha, mistik til har doim paradoksal va bevosita tushunib bo‘lmaydigan xarakterga ega. Ba’zi iboralar ataylab chalkash yoki qarama-qarshi shaklda beriladi, chunki ular o‘quvchini mantiqiy fikrlashdan chiqarib, intuitiv anglashga undaydi. Demak, tasavvuf terminlari poetik matnda nafaqat ifoda vositasi, balki o‘quvchini mistik tajribaga jalb qiluvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Qisqa qilganda, A.Shimmel nazariyasida tasavvuf terminlari ikki bosqichli transformatsiyani boshdan kechiradi: avval ular diniy-falsafiy tushuncha sifatida shakllanadi, so‘ngra poetik matnda ramz, metafora va obraz orqali jonlanib, mistik tajribani yetkazuvchi kuchli estetik vositaga aylanadi. Shu tariqa, tasavvufiy she’riyat — bu nafaqat adabiyot, balki ruhiy tajribaning lingvistik va estetik shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Umberto Eko esa diniy matnlarda ma’nolar ko‘p qatlamli bo‘lishini “semiotik boyish” sifatida izohlaydi. Mona Baker madaniyatga xos birliklarni tarjima qilish murakkabligini, E.Nida esa funksional ekvivalentlik zarurligini asoslaydi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf terminlarining denotativ va konnotativ qatlamlarda poetik transformatsiyasi o‘zbek mumtoz adabiyotining chuqur falsafiy va estetik mohiyatini aks ettiradi. Ushbu jarayon til, madaniyat va ruhiyatning uzviy birligini namoyon etadi hamda tasavvuf terminlarini oddiy leksik birlikdan yuksak badiiy-estetik kategoriya darajasiga ko‘taradi. Natijada, tasavvuf terminlari nafaqat ma’no tashuvchi vosita, balki butun boshli ruhiy, estetik va madaniy olamlarning kaliti sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Bhabha, H. K. (1994). The Location of Culture. –London: Routledge.
2.Venuti, L. (1995). The Translator’s Invisibility: A History of Translation. –London: Routledge.
3.Schimmel, A. (1975). Mystical Dimensions of Islam. – Chapel Hill: University of North Carolina Press.
4.Eco, U. (1984). Semiotics and the Philosophy of Language. – Bloomington: Indiana University Press.
5.Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge.
6.Nida, E. (1964). Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill.

Nilufar UMAROVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

XALQ QO'SHIQLARINING IDILLIYAVIY TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada xalq qo'shiqlarda idilliyaviylikning ko'rinishlari hamda ularning badiiy xususiyatlari va qo'shiqlarida bu jihatlarning xalq ma'naviy dunyoqarashini ifoda etishdagi o'rni masalasiga e'tibor qaratiladi.

Xalq qo'shiqlari misolida idilliyaviy ruhning inson va tabiat birligidagi oilaviy hamjihatlik, muhabbat va mehnatning ulug'lanishi hamda milliy tafakkur va estetik idealning bog'liqligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *idilliyaviylik, xalq og'zaki ijodi, folklor, marosim folklori, qo'shiq, kichik folklor janrlari, oilaviy turmush tarzi.*

Аннотация: в данной статье рассматривается вопрос проявлений идиллизма в народной музыке и роли этих аспектов в выражении народного духовного мировоззрения в их художественных особенностях и песнях.

На примере народных песен раскрывается прославление семейного согласия, любви и труда в единстве человека и природы идиллического духа, а также связь национальной мысли с эстетическим идеалом.

Ключевые слова: *идиллизм, фольклор, обрядовый фольклор, песня, малые фольклорные жанры, семейный уклад.*

Annotation: this article focuses on the issue of the manifestations of idyllism in folk music and the role of these aspects in the expression of the folk spiritual worldview in their artistic features and songs.

As an example of folk songs, the glorification of family harmony, love and labor in the unity of man and nature of the idyllic spirit, as well as the connection between national thought and aesthetic ideal are revealed.

Key words: *idyllism, folklore, ritual folkltore, song, small folklore genres, family lifestyle.*

Yozma adabiyotda bo'lgani kabi xalq og'zaki ijodi durdonalarida ham idilliyaviylikning namunalarini uchratishimiz mumkin. Filologiya fanlari doktori, professor Uzoq Jo'raqulovning fikricha: "Nazariy adabiyotshunoslikda idilliyaning poeziya janri sifatida vujudga kelishi, badiiy kanonlari yozma adabiyotdagi namunalarga nisbatan belgilangan bo'lsa ham, tub mohiyatiga ko'ra, uning mansha'-ibtidosi xalq ijodiyotining arxaik davridan boshlanadi"[1].

Chindan ham, folklor namunalarida idilliyaviy ruh qadimdan mavjud bo'lib, u, asosan, xalqning hayotga bo'lgan estetik munosabati, o'y-havaslari, orzu intilishlari hamda ideal tasavvurlarini aks ettiradi. Idilliyaviylik, avvalo, inson va tabiat, qolaversa, oila, jamiyat o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ifoda etuvchi baxt va samimiyatga yo'g'rilgan tinch, osoyishta hayotni kuylash imkonini yaratishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.Aynan xalq og'zaki ijodi namunalarining yaratilishi xalqning orzu-maqsadlari, tinch va farovon hayot haqidagi tasavvurlar bilan bevosita bog'liq holda kechadi. Folklor asarlarida inson va tabiat uyg'unligi, oilaviy ahillik, sof muhabbat, mehnat zavqi kabi tushunchalar idilliyaviy kayfiyatni yuzaga chiqaradi.

Kichik folklor janrlari hisoblangan ertaklar, laparlar, alla va qo'shiqlarda mehribon ota-ona, ahil oila, vafodor yor va boshqa qator obrazlar tasvirlanadi. Oila va hayotning bu kabi tasvirida oilaviy totuvlik va baxtiyorlik hissi ustunlik qiladi. Bu ko'proq kelin-kuyovning baxtli hayoti, ona mehrining ulug'lanishi, aka-uka, opa-singillar hamda qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi o'zaro ahillik kabilarda ko'zga tashlanadi.

Shuning bilan birga, xalq qo'shiqlari va mavsum bilan bog'liq marosimlarda tabiatning go'zalligini ifoda etishda idilliyaviylikning o'rni muhimdir. Bu, ayniqsa, bahor fasli bilan bog'liq qo'shiqlar (Navro'z qo'shiqlari hamda yaylov va qishloq hayotining tasviri)da mehnat jarayonlari tasviri hamda insonning ruhiy osoyishtaligi bahor, bog', gul, qushlar, oqar suvlar va boshqa shu kabi obrazlar orqali talqin etiladi.

"Bahorda turna, boychechak, sumalak, shox moylash qo'shiqlarini aytish odat bo'lgan:

Adirlar to'la chechak,
Biz keldik ucha-ucha,
Boychechagim, boychechak,
Kutib oling, hoy chechak" [2].

O'zbek folklorshunosligida M.Alaviya, B.Sarimsoqovlar tomonidan o'rganilgan mavsum-marosim qo'shiqlari uzoqyillik tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Tadqiqotlarga qaraganda, mavsum-marosimlarga oid tadbirlar, xalqimizning ommaviy sayllari va bayramlari minglab yillik tarixga ega. Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli kitobida o'ndan ortiq bayramlarning nomi keltiriladi. Xususan, navro'z bayrami to'g'risida ham ma'lumot beriladi. Quyida folklor adabiyotidagi navro'z bilan bog'liq idilliy ruhda yaratilgan marosim qo'shiqlaridan misol keltiramiz:

Doirani chaling, jon momo,
O'yinga tushsin qiz bola,
Qiz bolaning sochiga,
Yarashibdi chuchmoma.
Somsa yopdim yalpizdan,
Omonlig' -e, somonlik.
Yuz navro'zni o'tkazgan,
Momolarga beraylik [3].

1 Jo'raqulov U. Abdulla Oripov she'riyatida oila idilliyasi // Abdulla Oripov fenomeni va o'zbek she'riyati taraqqiyoti. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari.. – Qarshi, 2022. 47-b.

2 Jo'raqulov U. Abdulla Oripov she'riyatida oila idilliyasi // Abdulla Oripov fenomeni va o'zbek she'riyati taraqqiyoti. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. – Qarshi, 2022. – Б. 47.

3 Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – Б. 144.

Yuqorida keltirilgan she’riy parchada idilliyaviylikka xos jihatlar, ya’ni inson va tabiat, xalqimizning qadimiy urf-odat va an’analari hamda jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik badiiy tarzda ifoda ettirilgan. Bu esa o‘zgacha bir idilliy muhitning yaratilishi uchun zamin hozirlamoqda.She’rda ko‘tarinki bayram kayfiyati yetakchilik qiladi. Bu bevosita musiqa va raqs orqali idilliyaviylikning muhim jihati sanalgan xotirjam va baxtiyor hayot kartinasini yaratadi.

Doirani chaling jon momo,
O‘yinga tushsin qiz bola…

Ma’lumki, idilliyaviy asarlarda inson yolg‘iz tarzda ifoda etilmasdan, balki bir butun jamoa ichida tasvirlanadi. She’rda jamoaviylik, avvalo, Navro‘zning umumxalq bayrami sifatida nishonlanishida ko‘rinadi. Momolar va qizlar obrazlari orqali insoniy mehr-muhabbat, avlodlar o‘rtasidagi davomiylikni anglash mumkin. She’rning 4-5-misralarida chuchmoma va yalpiz kabi xalqona turmush detallari keltirilgan bo‘lib, qiz bolaning sochiga yarashgan chuchmoma yoshlik zavqini tuydirsa, yalpiz somsalarning yopilishi va ularni omonliq-somonliq sifatida momolarga berilishi uzoq umr ko‘rgan insonlarga ehtirom, xalqimizning milliy urf-odatlari va qadimiy marosimlari ruhini yosh avlod ongiga singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dasturxon motivi esa idilliyaviy poetikada kundalik mehnat va ro‘zg‘or fayzini ifodalovchi milliy unsur hisoblanadi.

She’rda misralararo biror konflikt ko‘zga tashlanmaydi. Barcha narsa sodda va tabiiy holatda samimiy berilgan. Qizning sochi, o‘yin-kulgi, doira sadosi vositasida hayot go‘zalligining aks ettirilishi romantikani emas, balki xalqona ruhni ifodalaydi.

Navro‘z kuni, qizlarjon,
O‘sma bargin teraylik.
Sochga taqib gul-marjon,
Qoshga o‘sma qo‘yaylik[4].

O‘sma o‘zbek xotin- qizlarning bir husniga o‘n husn qo‘shadigan milliy pardoz turi bo‘lib, bayram kunlarida sochga gul taqib, qoshga o‘sma qo‘yish o‘zgacha jilo va ko‘rk bag‘ishlab turadi.

Folklor namunalarida sevgi-muhabbat masalasida ham xalqona yondashuvlar ko‘zga tashlanadi. Bunga qator misollarni keltirishimiz mumkin.

Eshik oldi gul hovuz,
Gul tergani kelganmiz.
Gulni bahona qilib,
Yor ko‘rgani kelganmiz[5].

4 Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. – Toshkent: Talqin, 2008. 97- б.
5 Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. – Toshkent: Talqin, 2008. 90-б.

***

Olma oqib keladi,
Behi qalqib keladi.
Ko‘ngil bergan yorginam
Hurday balqib keladi[6].

***

Do‘ppi tikdim to‘r gullik,
Gullari turlik-turlik.
Shu turganlar ichida
Mening yorimdir ko‘hlik[7].

***

Bedana bo‘lib uchdim,
Sholi poyaga tushdim.
Peshonamdan aylanay,
Bog‘bon bolaga tushdim[8].

Yuqorida xalq qo‘shiqlaridan keltirilgan parchalarning har birida xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan idilliyaviy ruh namoyon bo‘ladi. Idilliyaviylik – muhabbat va hayot uyg‘unligi tabiat bilan hamohang tarzda sokin va go‘zal kayfiyatda beriladi.

Birinchi to‘rtlikda sodda va pok muhabbat tasviri keltiriladi. Bu o‘rinda gul tergani kelish, aslida, yor bilan uchrashuv bahonasida ekanligi qo‘shiqning ichki mazmunidan anglashilib turadi. Undagi sharq xalqlariga xos bo‘lgan odob va hayo idillik kayfiyatni tug‘diradi. Muhabbat yashirin holda ifoda etilmasdan, g‘oyatda nafosat bilan beriladi.

Ikkinchi to‘rtlikda olma va behining harakati davomi sifatida yorning hurday balqib kelishi idilliyaviylikning muhim belgisi bo‘lgan ideal go‘zallikni ifoda etadi.

Uchinchi to‘rtlikda maishiy hayotning milliy ruh tasvirini beruvchi timsoli do‘ppi hamda ma’shuqaning oshiq nigohidagi go‘zalligi samimiy muhabbat bilan birga, o‘ziga xos idillik muhitni yaratadi.

To‘rtinchi to‘rtlikda muhabbatning hazil-mutoyibaga uyg‘un holda berilishi bedana, sholi poyasi hamda bog‘bon obrazi biroz romantiklikni hosil qiladi. “Peshonamdan aylanay” xalq iborasi “toleyi kulgan”, “omadi chopgan” degan ma’nolarda qo‘llanilib idilliyaviylikni oshiradi.

Umuman olganda, samimiy muhabbatning tabiat obrazlari vositasida xalqona tasvirlarda milliy an’analar, xushchaqchaqlik hamda ruhiy xotirjamlikda namoyon bo‘lishi idilliyaviylikning yorqin namunasi hisoblanadi.

6 Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. – Toshkent: Talqin, 2008. – Б. 89.
7 Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. – Toshkent: Talqin, 2008. – Б. 88.
8 Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. – Toshkent: Talqin, 2008. – Б. 88.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В. Хализев. Теория литературы. –Москва: Высшая школа, 2004.
2. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
3. Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. – Toshkent: Talqin, 2008.
4. Ражабов Д. Ўзбек халқ қўшиқлари тузилиши: композиция ва образлилик.Фил. фан. докт. дисс... автореф. – Тошкент, 2019.
5. Мардонова Г. Ўзбек халқ қўшиқлари. – Тошкент: O‘ZBEKISTON, 2015.
6. Oq olma, qizil olma. – Toshkent. 1972.
7. Ўзбек халқ қўшиқлари. Arxiv.uz.

Injayım SEYTNAZAROVA,
Berdaq atındağı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti professorı w.a., f.i.d.



T.JUMAMUTATOV SHIǴARMALARÍNDA FONETIKALÍQ QUBÍLÍSLARDÍŃ POETIKALÍQ XIZMETLERI

Annotaciya: bul maqalada T.Jumamuratov shıǵarmaları tilindegi fonetikalıq qubılıslardıń poetikalıq xızmetleri izertlengen. Shayır poeziyasında ushırasatuǵın poziciyalıq hám kombinatorlıq ses ózgerisleriniń lingvopoetikalıq ózgeshelikleri tallanadı. Ásirese, ankopa, apokopa, sinkopa, gaplologiya, aferezis, eliziya, epiteza sıyaqlı fonetikalıq qubılıslardıń qosıq qatarlarında seslik garmoniya jaratıw, uyqas dóretiw, emocional-ekspressivlik máni kúsheytiw hám obrazlılıq payda etiwdegi roli mısallar tiykarında ashıp beriledi. Sonday-aq, shayır shıǵarmalarındağı fonetikalıq troplar menen fonopoetikalıq usıllardıń kórkemlik-estetikalıq xızmeti ashıp kórsetiledi. Izertlew nátiyjesinde T.Jumamuratov poeziyasında fonetikalıq qubılıslardıń tek til birlikleri emes, al kórkem oy-pikirdi tereń hám tásirli jetkiziwshi poetikalıq qural sıpatında qollanılǵanı anıqlandı.

Tayanısh sózler: fonetikalıq qubılıslar, poetikalıq fonetika, fonopoetika, lingvopoetika, ankopa, apokopa, sinkopa, gaplologiya, aferezis, eliziya, epiteza, fonetikalıq trop.

Аннотация: в данной статье исследуются поэтические функции фонетических явлений в языке произведений Т. Жумамуратова. Анализируются лингвопоэтические особенности позиционных и комбинаторных звуковых изменений, встречающихся в поэзии поэта. Особое внимание уделяется роли таких фонетических явлений, как анкопа, апокопа, синкопа, гаплология, аферезис, элизия и эпитеза, в создании звуковой гармонии, формировании рифмы, усилении эмоционально-экспрессивного значения и художественной образности стихотворных строк. Кроме того, раскрываются художественно-эстетические функции фонетических тропов и фонопоэтических средств в творчестве поэта. В результате исследования установлено, что в поэзии Т. Жумамуратова фонетические явления выступают не только как языковые единицы, но и как важные поэтические средства, обеспечивающие глубину и выразительность художественной мысли.

Ключевые слова: *фонетические явления, поэтическая фонетика, фонопоэтика, лингвопоэтика, анкопа, апокопа, синкопа, гаплология, аферезис, элизия, эпитеза, фонетический троп.*

Annotation: this article examines the poetic functions of phonetic phenomena in the language of T. Jumamuratov's works. The linguopoetic features of positional and combinatorial sound changes occurring in the poet's poetry are analyzed. Particular attention is paid to the role of phonetic phenomena such as ancope, apocope, syncope, haplology, apheresis, elision, and epithesis in creating sound harmony, forming rhyme, strengthening emotional-expressive meaning, and enhancing imagery in poetic lines. The study also reveals the artistic and aesthetic functions of phonetic tropes and phonopoetic devices in the poet's works. The results show that phonetic phenomena in T. Jumamuratov's poetry function not only as linguistic units but also as important poetic devices that contribute to the depth, expressiveness, and artistic impact of poetic thought.

Key words: *phonetic phenomena, poetic phonetics, phonopoetics, linguopoetics, ancope, apocope, syncope, haplology, apheresis, elision, epithesis, phonetic trope.*

Hárqanday til óziniń seslik ózgeshelikleri menen basqa tillerden ajıralıp turadı. Tildegi fonetikalıq qubılıslar óz-ózinen júz bermeydi. Olardıń payda bolıwına tildiń ishki nızamlılıqları menen birge, sırtqı tillik faktorlardıń tásiri de boladı.

Fonetikalıq qubılıslar sózdiń quramında bolatuǵın hár túrli seslik ózgerisler bolıp esaplanadı. Til biliminde bunday seslik ózgerislerdiń (proteza, epiteza, redukciya, absorbaciya, sinkopa, gaplologiya, epenteza, metateza, apakopa, eliziya hám t.b.) hárbiriniń óz ataması bar. Kórkem sóz sheberleri óz shıǵarmaları tilinde olardı túrli fonosemantikalıq, lingvopoetikalıq maqsetlerde qollanıwı múmkin.

Biz bul maqalamızda qaraqalpaq ádebiyatınıń kórnekli wákili Ózbekstan hám Qaraqalpaqstan xalıq shayırı

Tilewbergen Jumamuratovtıń shıǵarmaları tilindegi fonetikalıq qubılıslardıń poetikalıq xızmetleri haqqında sóz etemiz.

Seslerdiń ózgeriwi hám túsip qalıwı. Sóylewde seslerdiń ózgeriwi eki jaǵdayǵa baylanıslı júz beredi: 1) poziciyalıq; 2) kombinatorlıq. Poziciyalıq ses ózgeriwinde sóylewdegi (sóz bası, ortası, aqırı) ornalasqan sesler ózgeriske ushıraydı [1:88]. Bunday ózgerislerdi sóz sheberleri kórkemlew usılı sıpatında paydalanadı. Bul jaǵday T.Jumamuratov poeziyasında da qollanılǵan. Mısalı:

Buzǵan eken asqıńǵanlar,
Duwrılıqtı bassıńǵanlar (“Ábiw ápsanası”).

Bul qatarlarda poziciyalıq jaqtan “tuwrılıq” sóziniń dáslepki “t” sesi “d” sesi menen almasqan. Bul stillik talap tiykarında júz bergen jaǵday bolıp, sóz sheberi awızeki sóylewde ónimli ushırasatuǵın seslerdiń almasıwı tiykarında payda bolatuǵın fonetikalıq variantlardan (*tuwrılıq-duwrılıq*) durıs qollanǵan.

Tawdan aqqan bulaqlarday,
Tarap ilim hámme *waq,*
Mıń jańalıq dóremekte,
Jalǵız minut ótpey-aq (“Jańa jılda”).

Bul qatarlarda “waqıt” sóziniń auslaut poziciyasındaǵı “ıt” sesleri túsirilip qollanılǵan.

Anamızday aq sút bergen maqluqtı,
Qoldan kelse janday húrmet *eterem* (“Qaraqalpaqstan sharwalarına xat”).

Keyingi qatardı da qosıq uyqas dóretiw ushın paydalanadı. Bul qatarlarda *“eter edim”* sózler dizbegindegi inlaut poziciyadaǵı *“di”* sesleri túsirilip qollanılǵan. Sebebi kórkem shıǵarma tili barlıq stillerge tán bolǵan birliklerdiń qollanılıw deregi esaplanadı. Bunda shayır awızeki sóylew tiline tán bolǵan fonetikalıq, leksikalıq, grammatikalıq birliklerdiń seslik ózgerislerine ayrıqsha dıqqat awdarǵan.

Poetikalıq fonetikada poziciyalıq sesler ózgeriwinde estetikalıq talǵam tiykarında hár túrli emocional-ekspressivlik mániler qáliplesedi. Seslerdiń poziciyalıq ózgeriwine – **ankopa, apokopa, sinkopa, gaplologiya** sıyaqlı qubılıslar kirse, kombinatorlıq seslik ózgeriwine – **aferezis, eliziya** sıyaqlı qubılıslar kiredi.

Bundan 1,5 oylarcha vaqt o'tgach, "Washington Post" va "New York Times" gazetalariga 56 sahifadan iborat, klaviaturada yozilgan maktub kelib tushdi. Unda maqola nashr qilinmasa, "Keyingi portlovchi qurilmani yasashni boshlashi" haqida noma'lum muallifning tahdidli xabari bor edi. Rojer Shuy lingvistik tahlilga kirishdi. Matnda muallifning *sierra* so'zini qo'llashi g'arb hududiga emas, balki ushbu so'z faol qo'llanadigan shimoliy mintaqalarga mansubligini aniqladi. U bu holatni g'arb hududlarida faol qo'llanuvchi so'zlarni matndan izlash va natija topmasligi bilan yanada aniq asosladi. G'arbiy Amerikada qo'llanuvchi faol so'zlar matnda uchramasligi ham uning shimoliy hududga mansubligiga ishora qildi. Muallif *midlend (markaziy)* lahjasidagi *raising children* o'rniga, shimoliy lahjaga xos bo'lgan *rearing children (bolalarni tarbiyalash)* iborasini qo'llashi ikkinchi asos bo'ldi. Unabomberning yozuv uslubi Shimoliy mintaqada yashovchi shaxs ekanligi haqida uchinchi asosni berdi. Uning yozuv uslubi 1940–1950-yillarda nashr etiladigan "Chikago Tribune" gazetasining yozuv uslubiga o'xshar edi. Ushbu gazeta ingliz tilini yanada standartlashtirishga harakat qilar edi. Masalan, gazeta xodimlari qo'sh harflarni bitta harfga o'zgartirish, ya'ni *willfully* o'rniga *wilfully* yoki so'zlarni talaffuzga moslash, ya'ni *cleu* o'rniga *clew* tarzida yozish uslubidan foydalanar edi. Ehtimol, o'sha davrda Chikagoda o'qigan maktab o'quvchisi "Chikago Tribune" gazetasi yozuv uslublarini o'zlashtirgan bo'lishi mumkinligiga asoslanib, R. Shuy Unabomber 1950-yillarda Chikago hududida yashagani haqida to'xtamga keldi. Bundan tashqari, R. Shuy noodatiy yozuv uslubi, iboralar, sotsiologik terminlarni nutqida ishlatishini diagnoz qilib, Unabomberning yosh xususiyatlarini aniqlashga harakat qildi. U fikrini aniq, ixcham ifodalashi, murakkab grammatik qurilmalardan o'rinli foydalana olishi, sotsiologiya, tarix kabi sohalarga aloqador terminlardan foydalanishiga ko'ra uning ta'lim darajasi o'rta doirada emasligiga aniqlik kiritdi.

Hozirgi vaqtda lingvistik profillash bo'yicha asosiy yondashuvlar quyidagilardan iborat:

1. Uslubiy taqqoslashlar – bu yondashuvda ma'lum va noma'lum mualliflar tomonidan yozilgan matnlar leksik, morfologik, nutq uslubi va tinish belgilariga qarab tahlil qilinadi[7].

5 Shuy R. Language Crimes: Use and Abuse of Language Evidence in the Court Room, Oxford, Blackwell. 1996; Roger W.Sh. Linguistic Profiling. The Language of Murder Cases Oxford U Press (in press) http://www.rogershuy.com/pdf/Linguistic_Profiling.pdf; Abbie MacNeal, Katherine Fiallo, Alexander Jones, Shaughnessy Jones, Samantha Laureano, Matthew Monjarrez, Yian Xu. "Sounding Black": The Legal Implications of Linguistic Profiling. MacNeal-et-al-2019. https://cos.northeastern.edu/wp-content/uploads/2016/07/MacNeal-et-al-2019.pdf; Thomas Purnell, William Idsardi & John Baugh, Perceptual and Phonetic Experiments on American English Dialect Identification, 18 Journal of Language and Social Psychology 10-30, 1999; William Labov, Unendangered Dialect, Endangered People: The Case Of African American Vernacular English, 18 Transforming Anthropology, 2010. P. 15–27.

6 Campbell J., Denevi D. Profilers: leading ınvestigators take you ınside the criminal mind. – Canada: Prometheus books. 2004. – 377 p. https://doI.org/10.1177/0734016807305975

7 Gerald R. McMenamin. Forensic Linguistics: Advances in Forensic Stylistics. CRC PRESS Boca Raton London New York Washington, D.C. 2002. PP. 36.

2. Statistik yondashuvlar – bunda, asosan, sintaksis (gap strukturasi) ga, sintaktik aloqa va birliklarning valentlik imkoniyatiga e’tibor qaratiladi[8].

Unabomber ishi bo‘yicha esa faqat bitta noma’lum yozuvchidan dalillar mavjud edi, shuning uchun odatdagi muallifshunoslik ekspertizasi yondashuvlari bu ishda tegishli ham, foydali ham emas edi. Bunda jinoyatchini topishga urinish bo‘lmadi, shunchaki yozishmadagi til belgilari orqali lingvistik profilni yaratish – qidirilayotgan shaxsning qanday xususiyatlarga ega inson ekanligi haqidagi ma’lumotlarga oydinlik kiritish maqsadida tahlil amalga oshirildi. Demak, mualliflikni belgilash – sud majlisida anonim yozishma muallifini bir nechta matnlarni shakliy-grafeologik solishtirgan, qiyoslangan holda aniqlashdir. Lingvistik profillashning maqsadi esa jinoyatchini aniqlash emas, balki unga aloqador ijtimoiy-individual belgilarni aniqlash, jinoyatchi qanday xususiyatli inson ekanligi haqida tushunchaga ega bo‘lish, ya’ni gumonlanuvchilar safini toraytirishdan iboratdir.

Unabomber ishi R. Shuy tomonidan quyidagicha ochiqlandi: jinoyatchi Chikago atrofida yashaydi; jinoyatchining yozuvi 1940–1950-yillardagi Chikagoning “Tribune” gazetasidagi nutq uslubiga juda o‘xshaydi. R. Shuyning tadqiqotlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, lingvistik profillashda matndagi til birliklarini quyidagi savollarga asoslanib tahlil qilish lozim:

1. Matndagi so‘z areal-dialektologik jihatdan qanday ma’no anglatadi?

2. Ushbu so‘z qaysi hududda keng qo‘llanadi?

3. Ushbu so‘z qaysi birliklar bilan valentlik hosil qila oladi?

4. Taxminiy hudud belgilansa, unga aloqador bo‘lgan keng chastotali so‘zlar matnda mavjudmi? (Bunda taxminiy hududda foydalaniladigan faol so‘zlarga ahamiyat beriladi).

5. Matndagi so‘zlar uslubi o‘ziga xosmi? (taxminiy hududning OAVlari, yuridik va jismoniy shaxslar kabilarning aloqa-munosabatdagi uslubiy yondashuvlari o‘rganiladi).

R. Shuyning “Sud lingvistikasi va regional ingliz tili” maqolasida quyidagi matnning tahlili berilgan: *“Politsiya yo‘q! Yolg‘iz kel!!” So‘ngra qisqacha ko‘rsatma beriladi: “Uni 18-ko‘cha va Karlson burchagidagi devil stripdagi yashil axlat qutisiga tashla[9]”.* R. Shuy matnda savodsizlarcha tasavvur uyg‘otish maqsadida matnda ataylab lingvistik o‘zgarishlar qilinganini aniqlaydi. Matndagi *devil strip* birikmasiga ham alohida e’tibor qaratadi. Chunki ushbu birikmaning ingliz adabiy tili va umumxalq tilidagi ma’nolari farqli edi. Shunda politsiya xodimlaridan quyidagicha so‘raydi: “Sizning gumondorlaringiz orasida Akron, Ogayo shtatida tug‘ilgan, saviyali bir odam bormi?” Haqiqatan ham, shunday gumondor bor edi. R. Shuy *devil strip* birikmasi Akron, Ogayo shtatida *trotuar bilan yo‘l orasidagi maysa bo‘lagiga* nisbatan ishlatilishini Amerika regional ingliz tili lug‘ati (DARE – Dictionary of American Regional English) ning II-jildidan aniqlagan edi.

Aytish mumkinki, lingvistik profillashda *areal dialekt, dialektal ma’noli so‘z*larning tahlili jinoyatchining hududiy mansubligini aniqlashga yordam beradi. Masalan, Buxoro viloyati Vobkent, Peshku tumanlarida *bosh* (ot turkumi) so‘zi numerativ birlik (*bosh* so‘zi adabiy tilda predmetni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zi: *bosh, nafar, dona, nusxa, tup, jon*[10]) ma’nosida ishlatiladi: *Naxo‘t sho‘rvo bir **bosh** qaynab chiqdiki, sho‘rvoni ko‘piklari terib olinip…*[11] Ko‘rinadiki, *bosh* so‘zi *marta* hisob so‘zi ma’nosida qo‘llangan: *No‘xat sho‘rva bir marta qaynab chiqdiki…* Ushbu birlik faqat shu hudud vakillari uchun tushunarli va mazmunan tanish sanaladi. Bunday so‘zlar dialektal ma’noli birliklardir.

Dialektal ma’no – muayyan so‘zning anglatgan ma’nosi adabiy tildagi mohiyati bilan farqlanadigan, ayrim hudud vakillari uchun tushunarli bo‘lgan tushunchadir. Masalan, kal dala – o‘simlik o‘smaydigan yer[12]. Ana shunday mintaqaviy chegaraga ega birliklar xorijiy olimlar tomonidan *regional dialekt* deb nomlanadi. Ayrim adabiyotlarda bunday birliklar areal dialekt deb yuritiladi. Areal dialektda hududiy shevalar o‘zaro ta’sirga uchraydi. U shevalarning o‘zaro munosabatiga ko‘ra o‘rganiladi. Lingvistik profillashda hududiy belgini aniqlash uchun areal dialektlarning tahlili muhim.

Areal dialekt tahlili til birligining etimologiyasiga ham bog‘liq. Yuqoridagi misoldan kelib chiqib aytish mumkinki, areal dialektlarning tahlilida shunday birliklar lug‘atidagi izohidan tashqari tarixiy ma’lumotlarni ham o‘rganish, ularni ham asos sifatida xulosada taqdim etish lozim. Shu o‘rinda huquqshunoslik, areal dialektologiya, til tarixi sohalari integratsiyasiga ehtiyoj seziladi. Matndagi areal lingvistik birliklar tahlili geografik kelib chiqishni yaqqol ko‘rsatadi va bu borada “Areal dialektlar lug‘ati”, shuningdek, “Faol leksik birliklar lug‘ati” kabi lingvistik profillash uchun tayanch manbalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Mualliflikni lingvistik profillash tahlili nutqning xoh og‘zaki, xoh yozma shakldagi mahsuli bo‘lmish shaxsiy yozishmalar orqali amalga oshiriladi. Shaxsning o‘y-fikr,

8 Grant T.D., Baker K.L. Identifying reliable, valid markers of authorship: a response to Chaski. International Journal of Speech, Language and the Law, 8(1). 2001. PP. 66–79. https://doi.org/10.1558/sll.2001.8.1.66

9 Roger Shuy. Forensic Linguistics and Regional English https://harvardpress.typepad.com/hup_publicity /2012/07/forensic-linguistics-and-regional-english.html 2012, 19 july

10 Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova L.R. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Toshkent, 2019. 549-b.

11 Yozib olindi (29.09.25): Ergasheva Nilufar Umarovna (1976.11.28) Buxoro viloyati Peshku tumani Ilhomgaze qishloq, 100-uy.

12 Qarang: Enazarov T. Dialektologiya metodologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. 25-b.

kechinmalarini analiz-sintez qilib, qayta o'ylab, tafakkur mahsulining yozma yoki audio shakldagi ko'rinishiga shaxsiy yozishma deyiladi. Yozma ma'lumot almashish kamida ikkita mavzuning o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi: muallif va qabul qiluvchi. Vositachi yoki maxsus xizmatlar orqali muallif ma'lumotni yozma ravishda yuboradi va qabul qiluvchi xabarni oladi, uning mazmuni bilan tanishib, odatda, unga javob qaytaradi. Yozma axborot almashinuvining ushbu mexanizmi asosida yozishmalar tizimlari asta-sekin rivojlanib, yozma materiallarning ixtisoslashgan majmualarida maqsadi, mazmuni, shakli va joyida farqlanadi. Yozishmalarning kelib chiqishi va mazmunini tavsiflovchi muhim xususiyatlari lingvist-ekspertlarning huquqiy vakolatiga ko'ra aniqlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.To'rayeva D.A. Matn avtorizatsiyasi bo'yicha muallifshunoslik va lingvistik ekspertiza//Til va adabiyot.uz, – Toshkent, 2025. № 6. 171–173-b.

2.To'rayeva D.A. Shaxsiy yozishmalar lingvistik ekspertizasida metodologiya masalasi. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2024. Mart, 427– 433-b.

3.Mengliyev B.R., To'rayeva D.A. Anonim yozishmalarda hududga aloqador til birliklarining lingvistik tahlili. Huquq va burch w №10/2022. 3– 8-b.

4.Roger W. Shuy. Linguistic Profiling. The Language of Murder Cases Oxford U Press (in press) http://www.rogershuy.com/pdf/Linguistic_Profiling.pdf

5.Roger Shuy. Forensic Linguistics and Regional English https://harvardpress.typepad.com/hup_publicity/2012/07/forensic-linguistics-and-regional-english.html 2012, 19 july.

6.Campbell, J., & DeNevi, D. (2004). Profilers: Leading Investigators Take You Inside the Criminal Mind. Canada: Prometheus Books. Pp 377. https://doi.org/10.1177/0734016807305975

7.Gerald R. McMenamin. Forensic Linguistics: Advances in Forensic Stylistics. CRC PRESS Boca Raton London New York Washington, D.C. 2002. Pp. 36.

8.Grant, T. D., & Baker, K. L. (2001). Identifying reliable, valid markers of authorship: a response to Chaski. *International Journal of Speech, Language and the Law*, *8*(1), 66– 79. https://doi.org/10.1558/sll.2001.8.1.66

9.Bobokalonov P. R. Nutq hosilasining derivatsiyasi. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference, Pp 86–91.

10.Abbie MacNeal, Katherine Fiallo, Alexander Jones, Shaughnessy Jones, Samantha Laureano, Matthew Monjarrez, Yian Xu. "Sounding Black": The Legal Implications of Linguistic Profiling. MacNeal–et–al-2019. https://cos.northeastern.edu/wp-content/uploads/2016/07/MacNeal-et-al-2019.pdf;

11.Thomas Purnell, William Idsardi & John Baugh, Perceptual and Phonetic Experiments on American English Dialect Identification, 18 Journal of Language and Social Psychology 10–30, 1999.

12.William Labov, Unendangered Dialect, Endangered People: The Case Of African American Vernacular English, 18 Transforming Anthropology 15–27, 2010.

13.Campbell, J., & DeNevi, D. (2004). Profilers: Leading Investigators Take You Inside the Criminal Mind. Canada: Prometheus Books. 377 pp. https://doi.org/10.1177/0734016807305975

14.Grant, T. D., & Baker, K. L. (2001). Identifying reliable, valid markers of authorship: a response to Chaski. *International Journal of Speech, Language and the Law*, *8*(1), 66–79. https://doi.org/10.1558/sll.2001.8.1.66

Shoxista XASANOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti
Shahnoza ORIPJONOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti, Biologiya yo‘nalishi, 5-kurs talabasi
Gavhar ERGASHEVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti, Biologiya yo‘nalishi, 5-kurs talabasi

BIOLOGIYA DARSLARIDA STEAM TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH METODIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta’lim tizimidagi ilg‘or yondashuvlardan biri bo‘lgan STEAM texnologiyalarini umumta’lim maktablarining biologiya darslarida qo‘llash metodikasi va uning pedagogik samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning ilmiy-tadqiqot, raqamli texnologiyalardan foydalanish, muhandislik-loyihalash, ijodiy-kreativ va mantiqiy-matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy dars modellarini ishlab chiqishdan iborat. Maqolada konstruktivizm nazariyasi hamda loyihaga asoslangan ta’lim (Project-Based Learning) yondashuvi doirasida o‘qitishning interfaol mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘quv dasturlariga STEAM komponentlarini integratsiya qilish imkoniyatlari baholangan. Olib borilgan empirik tahlillar va tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatadiki, STEAM texnologiyalariga asoslangan ta’lim o‘quvchilarning kognitiv faolligini, tanqidiy fikrlashini va olingan bilimlarni kundalik hayotda qo‘llash kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so‘zlar: *STEAM texnologiyasi, biologiya o‘qitish metodikasi, biomuhandislik, loyihaga asoslangan ta’lim (PBL), ta’limda integratsiya, Bloom taksonomiyasi, kognitiv faollik.*

Аннотация: в данной статье научно анализируется методика применения технологий STEAM на уроках биологии в общеобразовательных школах и их педагогическая эффективность. Основная цель исследования заключается в разработке моделей практических занятий, направленных на развитие научно-исследовательских, инженерно-проектировочных, творческих и логико-математических способностей учащихся при изучении биологии, а также навыков использования цифровых технологий. В статье освещаются интерактивные механизмы обучения в рамках теории конструктивизма и проектного обучения (Project-Based Learning). Также оцениваются возможности интеграции компонентов STEAM в учебные программы в контексте системы непрерывного образования Республики Узбекистан. Результаты проведенных эмпирических анализов и экспериментов показывают, что обучение на основе технологий STEAM значительно повышает когнитивную активность, критическое мышление учащихся и их компетенции в применении полученных знаний в повседневной жизни.

Ключевые слова: *технология STEAM, методика преподавания биологии, биоинженерия, проектное обучение (PBL), интеграция в образовании, таксономия Блума, когнитивная активность*.

Annotation: this article scientifically analyzes the methodology and pedagogical effectiveness of applying STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) technologies in biology lessons within general education schools. The primary aim of the research is to develop practical lesson models directed at enhancing students’ scientific research, digital technology utilization, engineering design, creative, and logical-mathematical abilities in learning biology. The article highlights interactive teaching mechanisms within the framework of constructivism theory and Project-Based Learning approaches. Furthermore, it evaluates the possibilities of integrating STEAM components into the curriculum within the context of the continuous education system of the Republic of Uzbekistan. The results of the conducted empirical analyses and experimental trials demonstrate that education based on STEAM technologies significantly increases students’ cognitive activity, critical thinking, and competencies in applying acquired knowledge in everyday practical life.

Keywords: *STEAM technology, biology teaching methodology, bioengineering, project-based learning (PBL), integration in education, Bloom’s taxonomy, cognitive activity.*

Kirish. Zamonaviy uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchilarda nafaqat fundamental ilmiy bilimlarni shakllantirish, balki ularni o‘zgaruvchan hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beruvchi kompetensiyalarni rivojlantirish asosiy pedagogik maqsad sifatida e’tirof etilmoqda. An’anaviy biologiya ta’limi asosan, reproduktiv o‘zlashtirishga va faktologik ma’lumotlarni yodlashga qaratilgan bo‘lib, bu yondashuv o‘quvchilarning tadqiqotchilik, injenerlik va raqamli texnologiyalar bilan ishlash layoqatini yetarlicha qamrab olmaydi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida hamda Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasida o‘quv jarayonini xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) talablariga moslashtirish, ilg‘or va innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Bu vazifalar fanlarni uzviylikda o‘qitishni ta’minlovchi STEAM yondashuvini biologiya darslarida qo‘llashning g‘oyat dolzarbligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Ta'limda fanlararo integratsiya va uning samaradorligi uzoq yillar davomida xalqaro pedagogika ilmining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. STEAM ta'lim konsepsiyasi dastlab STEM shaklida vujudga kelgan bo'lib, keyinchalik ijodkorlik, vizual tafakkur va dizayn elementlarini qamrab olish maqsadida san'at komponenti bilan boyitilgan. G. Yakman o'z tadqiqotlarida STEAM paradigmasini fanlarni sun'iy izolyatsiyada emas, balki ularni o'zaro bog'liq holda, ma'lum bir hayotiy muammo atrofida o'qitishning eng samarali vositasi sifatida asoslab bergan. Yakmanning ta'kidlashicha, san'at komponenti murakkab ilmiy hodisalarni vizualizatsiya qilish orqali fazoviy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

STEAM metodikasining psixologik va kognitiv asosi konstruktivizm nazariyasiga tayanadi. Xususan, L.S. Vygotsky tomonidan ilgari surilgan "Yaqin o'suv hududi" (Zone of Proximal Development – ZPD) nazariyasi o'quvchilarning mustaqil ravishda hal qila olmaydigan muammolarini o'qituvchi yo'naltiruvchi sifatida ishtirok etadigan muhitda, hamkorlikda yechish imkoniyatini ochib beradi. STEAM doirasidagi loyihaviy ishlar aynan shu hududda ishlashni talab etadi, bu yerda o'zlashtirish jarayoni ijtimoiy-madaniy va amaliy kontekstda amalga oshiriladi.

Asosiy qism. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida konstruktivizm va loyihaga asoslangan ta'lim (Project-Based Learning – PBL) nazariyalariga tayanildi. Biologiya o'quv dasturidagi mavzularni STEAM yo'nalishlari bo'yicha dekonstruksiya qilish va qaytadan integratsiya qilish sxemasi ishlab chiqildi. Har bir harfning (STEAM) biologiya fani bilan uzviy bog'liqligi quyidagicha izohlanadi:

S (Science – Eksperimental biologiya): fundamental biologik qonuniyatlarni o'rganish, laboratoriya sharoitida hujayra tuzilishini kuzatish, o'simliklar fiziologiyasi va fotosintez jarayonlarini amaliy tajribalar orqali isbotlash. O'quvchilar gipoteza ilgari suradi va uni ilmiy metod orqali tekshiradi.

T (Technology – Bioinformatika va raqamli biologiya): elektron mikroskoplar bilan ishlash, mobil ilovalar (masalan, o'simlik turlarini aniqlovchi PlantNet) va virtual laboratoriyalardan foydalanish. DNK ketma-ketliklarini tahlil qilishda ochiq ma'lumotlar bazalaridan (NCBI) o'quv maqsadlarida foydalanish.

E (Engineering – Biomuhandislik elementlari): tirik organizmlarning funksional modellarini yasash (masalan, o'pkaning ishlash mexanizmi, qon aylanish tizimi maketi). Bionika tamoyillari asosida tabiatdagi moslashuvchanlikni texnik qurilmalarga ko'chirish loyihalari.

A (Art – Biologik rasmlar, sxemalar, vizualizatsiya): anatomik chizmalar yaratish, ekotizimlarning 3D modellarini yasash, biologik jarayonlarni infografika va taqdimotlar orqali estetik hamda mantiqiy jihatdan to'g'ri ifodalash.

M (Math – Biomatematika): biologik qonuniyatlarni matematik ifodalash. Populyatsiya dinamikasi va genetika masalalarini yechish (masalan, Hardy-Weinberg qonuni formulasini qo'llash: $p^2 + 2pq + q^2 = 1$). Ekotizimdagi ozuqa zanjirida energiya yo'qolishini (10% qoidasi) foizlarda hisob-kitob qilish, statistik tahlillar o'tkazish.

Muhokama. Biologiya ta'limida STEAM texnologiyalarini qo'llash metodikasi bo'yicha olib borilgan nazariy va qiyosiy tahlillar an'anaviy o'qitish yondashuvlari bilan zamonaviy fanlararo integratsiyaning farqli jihatlarini chuqur anglash imkonini beradi. Tahlillar natijasida aniqlandiki, an'anaviy darslarda o'quvchilar asosan, tayyor biologik faktlarni qabul qiluvchi passiv subyekt rolida bo'lsa, STEAM yondashuvi ularni faol izlanuvchi va muhandis-konstruktor darajasiga ko'taradi.

Xususan, "Art" (san'at) va "Engineering" (muhandislik) komponentlarining o'quv jarayoniga kiritilishi murakkab biologik qonuniyatlarni vizualizatsiya qilish hamda kinetik xotirani ishga tushirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, hujayra tuzilishi yoki qon aylanish tizimi kabi mavzularni faqatgina yassi sxemalar orqali o'rganish o'quvchilarda fazoviy tasavvurning to'liq shakllanishiga yetarli bo'lmaydi. Biroq ushbu jarayonlarni 3D modellashtirish va ishchi maketlarni yasash orqali tushuntirish kognitiv yuklamani kamaytiradi va bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishini ta'minlaydi.

Xulosa. Tadqiqot doirasida olib borilgan ilmiy, metodik va amaliy izlanishlar yakuniga ko'ra, umumta'lim maktablarining biologiya darslarida STEAM texnologiyalarini integratsiya qilish shunchaki navbatdagi pedagogik yangilik emas, balki zamonaviy ta'lim paradigmasining obyektiv va kechiktirib bo'lmaydigan zaruriyati ekanligi to'liq o'z tasdig'ini topdi. An'anaviy ta'lim tizimida uzoq yillar davomida hukmronlik qilib kelgan reproduktiv o'zlashtirish, ya'ni tayyor biologik faktlarni yodlash va ularni qayta so'zlab berish amaliyoti bugungi kunning murakkab, tez o'zgaruvchan axborot asri talablariga javob bermay qoldi. Buni biz tadqiqot jarayonida kuzatilgan dars modellarida ham, o'quvchilarning amaliyotdagi faollik ko'rsatkichlarida ham yaqqol ko'rdik. Shu nuqtai nazardan, STEAM texnologiyalarining biologiya ta'limiga olib kirilishi ta'lim jarayonini fundamental jihatdan transformatsiya qilib, o'quvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchi, muhandis-konstruktor va analitik darajasiga ko'tarish imkonini berdi.

STEAM yondashuvi biologiya fanini sun'iy izolyatsiyadan olib chiqib, uni tabiatshunoslik va aniq fanlar yaxlitligi sifatida o'qitish mexanizmini yaratdi. O'quvchilar hujayra bo'linishi, qon aylanish tizimi, o'simliklar fiziologiyasi yoki ekologik muvozanat kabi mavzularni faqatgina biologik qonuniyat sifatida emas, balki fizik jarayonlar, kimyoviy reaksiyalar va matematik ehtimolliklar yig'indisi sifatida qabul qila boshladilar. "Engineering" va "Art" komponentlarining jarayonga kiritilishi o'quvchilarda abstrakt va murakkab tushunchalarni moddiylashtirish, ularning ishchi maketlarini yasash orqali kinetik hamda vizual xotirani maksimal darajada ishga tushirishga xizmat qildi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarda fazoviy tafakkurni o'stirdi va kognitiv yuklamani optimallashtirdi. Ma'lumotlarni quruq yodlash o'rniga, jarayonni o'z qo'llari bilan yaratish o'zlashtirish samarasini bir necha barobar oshirishi isbotlandi. Biologik ma'lumotlarni matematik tahlil qilish va raqamli texnologiyalar orqali qayta ishlash qobiliyatining rivojlanishi tadqiqotning eng muhim

natijalaridan biri bo‘ldi. XXI asr kadrlariga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri – bu katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlay olish va ularni tahlil qilishdir. Populyatsiya genetikasi, irsiyat qonuniyatlari yoki ekotizimlardagi ozuqa zanjirlarini o‘rganishda ehtimollar nazariyasi, statistik hisob-kitoblar hamda bioinformatika dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarda tanqidiy va analitik tafakkurni shakllantirdi. Endilikda o‘quvchi shunchaki genetik belgilarning qanday o‘tishini aytib bermaydi, balki uning ehtimolligini matematik modellashtira oladi va raqamli vositalar yordamida prognoz qiladi. Bu esa haqiqiy ilmiy izlanishning poydevori hisoblanadi.

Metodik jihatdan o‘qituvchining va o‘quvchining roli butunlay o‘zgardi. Konstruktivizm nazariyasi hamda loyihaga asoslangan ta’lim tamoyillariga muvofiq, o‘qituvchi o‘zining “yagona to‘g‘ri ma’lumot manbasi” maqomidan voz kechib, jarayonni boshqaruvchi, yo‘naltiruvchi va maslahatchi – fasilitatorga aylandi. O‘quvchilar esa o‘z ta’limining arxitektorlariga aylandilar. Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlari bo‘lgan tahlil, sintez va baholash kabi jarayonlar aynan amaliy loyihalar davomida to‘liq namoyon bo‘ldi. Shuningdek, baholash tizimida ham jiddiy sifat o‘zgarishi kuzatildi. Yopiq testlardan voz kechilib, o‘quvchining nafaqat bilimini, balki jamoaviy ishlash ko‘nikmasini, axborot texnologiyalaridan foydalanish saviyasini va kreativ muhandislik yechimlarini inobatga oluvchi ko‘p mezonli rubrikalar asosida baholash tizimiga o‘tish pedagogik adolatni va o‘quv motivatsiyasini ta’minladi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha belgilab olingan strategik maqsadlariga to‘la mos keladi. Bugungi kunda O‘zbekistonning PISA, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida munosib ishtirok etishi, shuningdek, Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan tuzilayotgan mantiqiy va vaziyatli test topshiriqlariga o‘quvchilarni tayyorlash ustuvor vazifa qilib belgilangan. STEAM texnologiyasi aynan mana shu vaziyatli, hayotiy muammolarni yechishga qaratilgan savollarga to‘g‘ri javob topish ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘quvchi nazariyani bilish bilan cheklanmay, u qanday qilib amaliyotda ishlaydi, degan savolga javob izlaydi. Qolaversa, maktab partasidayoq bioinformatika, genetik muhandislik, biotibbiyot, ekologik modellashtirish kabi kelajakning eng talabgir kasblariga bo‘lgan qiziqishning uyg‘onishi yoshlarni to‘g‘ri kasbga yo‘naltirishning samarali mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yondashuvni ta’lim tizimiga to‘laqonli va keng ko‘lamli joriy etish uchun qator tizimli ishlarni amalga oshirish zarurligi xulosa qilinadi. Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya fani o‘quv dasturlarini STEAM yondashuvi asosida qayta ko‘rib chiqish va ularni qat’iy qoliplardan xalos etish talab etiladi. O‘quvchilarga loyiha ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun maktab laboratoriyalarini zamonaviy raqamli datchiklar, modellashtirish to‘plamlari va mikroskoplar bilan ta’minlash zarur. Shuningdek, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida va malaka oshirish institutlarida bo‘lajak hamda amaliyotdagi biologiya o‘qituvchilari uchun maxsus “STEAM pedagogikasi” kurslarini joriy etish kechiktirib bo‘lmas vazifadir. O‘qituvchilarning o‘zlarida ham raqamli, muhandislik va matematik savodxonlikni oshirmasdan turib, bu yondashuvni o‘quvchilarga yetkazib bo‘lmaydi.

Umuman olganda, biologiya darslarida konstruksion loyihalar, raqamli texnologiyalar va matematik tahlillarni amaliy san’at bilan uyg‘unlashtirish ta’lim sifatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi. Bu yondashuv nafaqat fanlarni chuqur o‘zlashtirishga, balki o‘zgaruvchan global dunyoda o‘z o‘rnini topa oladigan, muammolarga kreativ va tanqidiy yondashadigan, ekologik tafakkuri keng, barkamol va raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. STEAM texnologiyalarining biologiya darslariga samarali integratsiyasi mamlakatimiz ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish hamda intellektual salohiyatli yangi avlodni shakllantirish yo‘lidagi eng to‘g‘ri va istiqbolli qadamlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son). O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.
2. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives, Handbook I: The Cognitive Domain. – New York: David McKay Co Inc.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Yakman, G. (2008). STEAM Education: An overview of creating a model of integrative education. Pupils’ Attitudes Towards Technology (PATT-19) Conference. Salt Lake City, Utah.
5. Azizkhodjaeva, N. N. (2006). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Moliya.
6. Bybee, R. W. (2013). The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. National Science Teachers Association.
7. Ishmuhamedov, R., & Yuldashev, M. (2014). Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol nashriyoti.
8. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An Educational Psychology Success Story: Social Interdependence Theory and Cooperative Learning. Educational Researcher, 38(5), 365–379.
9. Radloff, J., & Guzey, S. (2016). Investigating Preservice STEM Teacher Conceptions of STEM Education. Journal of Science Education and Technology, 25(5), 759–774.
10. Smith, J. M., & Jones, A. L. (2021). The Impact of Project-Based Learning on Genetics Education and Visual-Mathematical Modeling. Journal of Biological Education, 55(2), 145–160.

Gulnoza SATTAROVA,
Alfraganus universiteti tyutori
Sattarovagulnoza56@gmail.com
ORCID: 0009-0003-0844-9179

KREDIT – MODUL TIZIMINI AMALGA OSHIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR

Annotatsiya: mazkur maqolada kredit-modul tizimining nazariy asoslari, uning mazmun-mohiyati hamda xalqaro ta'lim tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Xususan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida shakllangan kredit tizimi tajribasi, Boloniya jarayoni doirasida joriy etilgan Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS) tamoyillari ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, kredit-modul tizimining oliy ta'lim sifatini oshirish, akademik mobillikni ta'minlash va talabalar mustaqil ta'limini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish jarayonlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan tizimning nafaqat tashkiliy, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyati ham ochib berilib, u shaxsni mustaqil fikrlovchi va raqobatbardosh kadr sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: *kredit-modul tizimi, kredit birligi, modul, oliy ta'lim, Boloniya jarayoni, ECTS, akademik mobillik, mustaqil ta'lim, ta'lim sifati, xalqaro tajriba, kompetensiya, ta'lim islohoti*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы кредитно-модульной системы, ее сущность и место в международной системе образования. В частности, научно освещается опыт кредитной системы, сформировавшийся в США и европейских странах, а также принципы Европейской системы трансфера кредитов (ECTS), внедренной в рамках Болонского процесса. Также обосновывается значение кредитно-модульной системы для повышения качества высшего образования, обеспечения академической мобильности и развития самостоятельного обучения студентов.

В статье рассматриваются процессы внедрения кредитно-модульной системы в систему высшего образования Узбекистана, существующие проблемы и пути их решения. Автором раскрывается не только организационное, но и социально-философское значение системы, обосновывается, что она является важным механизмом, служащим для формирования личности как самостоятельно мыслящего и конкурентоспособного кадра.

Ключевые слова: *кредитно-модульная система, кредитная единица, модуль, высшее образование, Болонский процесс, ECTS, академическая мобильность, самостоятельное обучение, качество образования, международный опыт, компетенция, образовательная реформа*


Annotation: this article analyzes the theoretical foundations of the credit-module system, its essence, and its place in the international education system. Specifically, the experience of credit systems developed in the USA and European countries, and the principles of the European Credit Transfer System (ECTS) introduced within the Bologna Process are scientifically illuminated. Furthermore, the significance of the credit-module system in improving the quality of higher education, ensuring academic mobility, and developing students' independent learning is substantiated.

The article also examines the processes of implementing the credit-module system in the higher education system of Uzbekistan, existing problems, and ways to overcome them. The author elucidates not only the organizational but also the socio-philosophical importance of the system, arguing that it serves as a crucial mechanism for shaping individuals as independent thinkers and competitive professionals.

Key words: *credit-module system, credit unit, module, higher education, Bologna Process, ECTS, academic mobility, independent learning, education quality, international experience, competence, education reform.*

Kirish. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda ko'plab sohalar singari ta'lim sohasida ham o'zgarishlar olib borilmoqda. Ushbu tizimni amalga oshirishda eng muhim o'zgarishlardan biri – kredit-modul tizimidir. Ana shu tizimni amalga oshirishda eng muhim ishlardan biri bu xalqaro tajribani o'rganish, ularning ishlarini amalda qo'llab ko'rishdir.

Tahlil. Bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlarining ta'lim tizimlarida kredit modul tizimlari qo'llanilib kelinmoqda. *1-rasm*




1-rasm

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, kredit-modul tizimining eng keng tarqalgan shakli bo‘lgan Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS) bugungi kunda Boloniya jarayoni doirasida **49 ta davlatda rasmiy ta’lim standarti sifatida qo‘llanilmoqda**. Ushbu tizim Yevropa oliy ta’lim hududida ta’lim jarayonining yagona mezonlar asosida tashkil etilishini ta’minlab, akademik mobillik va diplomlarning o‘zaro tan olinishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, kredit tizimi faqat Yevropa bilan cheklanib qolmaydi. AQShda semester kredit soatlari tizimi, Buyuk Britaniyada kredit to‘plash va uzatish tizimi (CATS), Osiyo-Tinch okeani mintaqasida esa moslashtirilgan kredit tizimlari amalda qo‘llanilmoqda. Ushbu holat kredit-modul tizimining global miqyosda keng tarqalganligini ko‘rsatadi.

Umumlashtirilgan ilmiy tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, kredit-modul tizimining turli shakllari bugungi kunda **100 dan ortiq davlatlarda qo‘llanilmoqda**. Bu esa mazkur tizimning xalqaro ta’lim makonida universal va moslashuvchan model sifatida shakllanganligini tasdiqlaydi. *2-rasm*



2-rasm

Rasmda ko‘rsatilishicha, kredit-modul tizimi bir necha asosiy modellar asosida shakllangan. Jumladan, AQShda semester kredit soatlari tizimi amal qilib, u asosan, auditoriya mashg‘ulotlari va talabaning umumiy yuklamasiga asoslanadi. Yevropa mamlakatlarida esa Boloniya jarayoni doirasida joriy etilgan Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS) keng qo‘llanilib, bugungi kunda **49 ta davlatda** yagona standart sifatida xizmat qilmoqda.[1]

Shuningdek, Buyuk Britaniyada kreditlarni to‘plash va uzatish tizimi (CATS) amal qilib, unda kreditlar o‘zaro konvertatsiya qilinadi (masalan, 1 ECTS ≈ 2 CATS). Osiyo-Tinch okeani mintaqasida esa moslashtirilgan kredit tizimlari joriy etilgan bo‘lib, ular xalqaro ta’lim standartlariga integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Mazkur holat kredit-modul tizimining turli hududlarda moslashuvchan model sifatida rivojlanganligini ko‘rsatadi. [2]

Rasm ma’lumotlariga ko‘ra, kredit-modul tizimining muhim xususiyatlaridan biri — akademik mobillikni ta’minlash, diplomlarning o‘zaro tan olinishi va ta’lim jarayonining shaffofligini oshirishdan iborat. Bundan tashqari, tizimda talabaning o‘quv yuklamasi aniq

me'yorlashtirilgan bo'lib, odatda, 1 ECTS krediti **25–30 soatlik umumiy o'quv yuklamasiga** teng deb belgilanadi. [3]

Shu bilan birga, bakalavriat bosqichida o'rtacha **120 kredit** yig'ish talab etilishi rasmda alohida ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bu ta'lim jarayonining bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etilganidan dalolat beradi. Modul asosida o'qitish esa bilimlarni ketma-ket va mantiqiy ravishda o'zlashtirish imkonini yaratadi.

O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish jarayoni bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, milliy ta'lim an'analari va xalqaro standartlar o'rtasida muvozanatni saqlash zarurati mavjud. Ikkinchidan, kasbiy ta'limning amaliy yo'naltirilganligi kredit-modul tizimini tatbiq etishda maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Uchinchidan, ECTS standartlariga to'liq muvofiqlikni ta'minlash uchun institutsional, metodologik va texnologik jihatdan tayyorgarlik ko'rish lozim. [4]

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Xalqaro integratsiya zarurati. Globallashuv sharoitida O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimining xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalashuvi muhim strategik vazifa hisoblanadi. Bu jarayon milliy kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish va ta'lim sifatini yaxshilash uchun zarur.

Ta'lim sifatini oshirish talabi. Kredit-modul tizimi ta'lim jarayonini standartlashtirish, o'quv natijalarini aniq belgilash va baholash mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash imkonini beradi.

Talabalar harakatchanligi. Zamonaviy ta'lim tizimida talabalar harakatchanligi muhim o'rin tutadi. Kredit-modul tizimi va uning ECTS bilan uyg'unligi talabalarning turli ta'lim muassasalarida, shu jumladan, xorijiy ta'lim muassasalarida o'qish, o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Institutsional rivojlanish. Kredit-modul tizimini joriy etish ta'lim muassasalarining institutsional salohiyatini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va ta'lim jarayonini optimallashtirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotning maqsadi kasbiy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish texnologiyasini ishlab chiqish va uni Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS) bilan uyg'unlashtirish mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kredit-modul tizimi zamonaviy oliy ta'limni tashkil etishning eng samarali va ilg'or modellaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizim ta'lim jarayonini shaffoflashtirish, talabalarning o'quv yuklamasini aniq me'yorlashtirish hamda ularning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS) va boshqa xalqaro kredit tizimlarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, mazkur yondashuv akademik mobillikni kengaytirish, diplomlarning o'zaro tan olinishi va ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish jarayoni esa milliy va xalqaro tajribani uyg'unlashtirishni talab etadi. Bu jarayonda mavjud tashkiliy, metodik va texnologik muammolarni bartaraf etish, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish hamda ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, kredit-modul tizimi nafaqat ta'limni tashkil etish shakli, balki shaxsning mustaqil fikrlashi, kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlanishi va raqobatbardosh kadr sifatida shakllanishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy-pedagogik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Kredit-modul tizimining yevropa kredit transfer tizimi (ECTS) bilan uyg'unligi Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich https://cyberleninka.ru/article/n/kredit-modul-tizimining-yevropa-kredit-transfer-tizimi-ects-bilan-uygunligi/viewer.

2. European Higher Education Area. *Bologna Process Implementation Report*. 49 ta davlat va ECTS haqida asosiy manba) https://www.ehea.info/.

3. European Commission. *ECTS Users' Guide*. (1 ECTS = 25–30 soat yuklama, kredit tizimi mohiyati) https://ec.europa.eu/education/resources-and-tools/ects_en

4.U.S. Department of Education. *Credit Hour Definition and Policy*. (AQSh semester kredit tizimi haqida) https://www.ed.gov/.

5.Quality Assurance Agency for Higher Education. *UK Credit Accumulation and Transfer Scheme (CATS)*(Buyuk Britaniya kredit tizimi va konvertatsiya) https://www.qaa.ac.uk/.

6.UNESCO. *Global Education Monitoring Report*. (100+ davlatlarda kredit tizimi qo'llanishi, global tahlil) https://www.unesco.org/gem-report

7.O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Kredit-modul tizimini joriy etish bo'yicha me'yoriy hujjatlar (O'zbekistondagi joriy etish jarayonlari). https://edu.uz/.

Дилара ДОСПАНОВА,
Доцент ТУИТ
yarados@mail.ru

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРАКТИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РКИ

Аннотация: в статье рассматриваются возможности применения интеллектуальных образовательных технологий в процессе преподавания русского языка как иностранного (РКИ). Анализируются современные инструменты искусственного интеллекта, адаптивные обучающие системы, чат-боты и платформы на основе машинного обучения, используемые для формирования речевых, лексических и грамматических компетенций у иностранных учащихся. Особое внимание уделяется педагогическим принципам интеграции цифровых технологий в аудиторную и внеаудиторную учебную деятельность. Рассматривается опыт внедрения интеллектуальных технологий в учебный процесс на примере конкретных образовательных программ. Обосновывается эффективность персонализированного подхода к обучению при использовании технологий искусственного интеллекта. Статья адресована преподавателям русского языка как иностранного, методистам и исследователям в области лингводидактики и цифрового образования.

Ключевые слова: *русский язык как иностранный (РКИ), искусственный интеллект, адаптивное обучение, цифровые образовательные технологии, лингводидактика, чат-боты, персонализация обучения, речевая компетенция.*

Annotation: this article examines the potential of intelligent educational technologies in the process of teaching Russian as a Foreign Language (RFL). The study analyzes modern artificial intelligence tools, adaptive learning systems, chatbots, and machine-learning-based platforms used to develop speech, lexical, and grammatical competencies in foreign learners. Special attention is given to the pedagogical principles of integrating digital technologies into both classroom and extracurricular learning activities. The experience of implementing intelligent technologies in the educational process is considered through specific educational programs. The effectiveness of a personalized approach to learning when using artificial intelligence technologies is substantiated. The article is addressed to teachers of Russian as a foreign language, methodologists, and researchers in the field of linguodidactics and digital education.

Key words: *russian as a foreign language (RFL), artificial intelligence, adaptive learning, digital educational technologies, linguodidactics, chatbots, learning personalization, speech competence.*

Annotatsiya: ushbu maqolada chet til sifatida rus tilini o‘qitish (RKI) jarayonida intellektual ta’lim texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Chet ellik o‘quvchilarda nutq, leksik va grammatik kompetensiyalarni shakllantirish uchun ishlatiladigan zamonaviy sun’iy intellekt vositalari, adaptiv o‘quv tizimlari, chat-botlar va mashinali o‘rganishga asoslangan platformalar tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarni darslik va darsdan tashqari o‘quv faoliyatiga integratsiya qilishning pedagogik tamoyillariga alohida e’tibor qaratiladi. Intellektual texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish tajribasi muayyan ta’lim dasturlari misolida ko‘rib chiqiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘qitishga shaxsiy yondashuvning samaradorligi asoslanadi. Maqola chet til sifatida rus tilini o‘qituvchilar, metodistlar va lingvodidaktika hamda raqamli ta’lim sohasidagi tadqiqotchilarga mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: *chet til sifatida rus tili (RKI), sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim, raqamli ta’lim texnologiyalari, lingvodidaktika, chat-botlar, o‘qitishni shaxsiylashtirish, nutq kompetensiyasi.*

1. ВВЕДЕНИЕ. Современная образовательная среда переживает эпоху стремительной цифровой трансформации. Интеллектуальные технологии, основанные на достижениях искусственного интеллекта (ИИ), всё активнее проникают в практику преподавания иностранных языков, в том числе русского как иностранного (РКИ). Это обусловлено возросшими требованиями к индивидуализации учебного процесса, необходимостью обеспечить доступность качественного языкового образования и возможностью формирования коммуникативных компетенций в автономном режиме. Интеллектуальные образовательные технологии (ИОТ) — это программные системы и цифровые инструменты, использующие алгоритмы машинного обучения, обработки естественного языка и адаптивной аналитики для поддержки учебной деятельности. В контексте преподавания РКИ данные технологии открывают принципиально новые возможности: от автоматической проверки письменных работ до генерации персонализированных упражнений на основе анализа ошибок учащегося.

Актуальность данного исследования определяется рядом факторов. Во-первых, растущим интересом мирового сообщества к изучению русского языка в академических, профессиональных и культурных целях. Во-вторых, недостаточной методической разработанностью вопросов применения ИИ-инструментов именно в практике преподавания РКИ. В-третьих, потребностью в научно обоснованных рекомендациях для педагогов, работающих на стыке лингводидактики и информационных технологий.

Цель статьи — систематизировать современные подходы к использованию интеллектуальных образовательных технологий в преподавании РКИ, охарактеризовать их дидактический потенциал и определить педагогические условия эффективного внедрения.

2. ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ

2.1. Концептуальные основы интеллектуального обучения

Теоретическую базу для применения ИОТ в языковом образовании составляют несколько ключевых концепций. Конструктивистская теория обучения (Дж. Пиаже, Л.С. Выготский) акцентирует роль активной деятельности учащегося в конструировании знаний. Адаптивное обучение как педагогическая концепция предполагает динамическое изменение содержания и темпа учебной деятельности в зависимости от индивидуального прогресса обучающегося. Технологический детерминизм в образовании, развиваемый в работах Дж. Хайнеса и М. Селвина, рассматривает цифровые инструменты как активных агентов, преобразующих учебную среду.

В области преподавания иностранных языков концепция коммуникативной компетенции (Д. Хаймс, Н. Хомский) легла в основу деятельностного подхода к обучению, который органично сочетается с возможностями интерактивных ИИ-систем. Модель CALL (Computer Assisted Language Learning — компьютерное обучение языкам) эволюционировала от простых дрилловых программ к интеллектуальным системам, способным моделировать диалогическое взаимодействие.

2.2. Классификация интеллектуальных технологий для РКИ.

В практике преподавания РКИ можно выделить следующие категории интеллектуальных технологий: адаптивные обучающие системы (Duolingo, LinguaLeo, Rosetta Stone) — платформы, автоматически подстраивающие уровень сложности заданий; системы автоматической оценки письма (Grammarly, LanguageTool, WriteRight) — инструменты морфологического и синтаксического анализа текстов; разговорные ИИ-агенты (GPT-модели, Replika, специализированные чат-боты) — системы для развития устной и письменной речи; платформы распознавания речи (Google Speech-to-Text, Yandex SpeechKit) — технологии фонетической коррекции произношения; аналитические системы обучения (Learning Analytics) — инструменты мониторинга учебного прогресса и предсказательной аналитики.

3. МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Исследование выполнено в рамках смешанного методологического подхода, сочетающего анализ теоретической литературы, педагогическое наблюдение и описание педагогического опыта. В работе применялись методы: теоретический анализ отечественных и зарубежных публикаций по проблематике ИОТ и методики преподавания РКИ; сравнительный анализ функциональных возможностей актуальных ИИ-платформ для языкового обучения; педагогическое наблюдение за процессом интеграции ИИ-инструментов в учебные курсы РКИ; методический анализ разработанных учебных сценариев с применением интеллектуальных технологий.

Материалом для исследования послужили данные, полученные в ходе преподавания РКИ на курсах подготовительного факультета для иностранных студентов, а также опыт использования ИИ-ассистентов при обучении учащихся из стран Центральной Азии и Юго-Восточной Азии.

4. ПРИМЕНЕНИЕ ИОТ В ПРАКТИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РКИ

4.1. Адаптивные платформы и их дидактический потенциал

Адаптивные обучающие системы занимают центральное место среди ИОТ, применяемых в преподавании РКИ. Их ключевое преимущество — способность к персонализации учебного контента на основе анализа ответов учащегося в режиме реального времени. Алгоритм интервального повторения (Spaced Repetition System, SRS), реализованный в платформах типа Anki и Duolingo, демонстрирует высокую эффективность при формировании лексического запаса.

Практика показывает, что включение адаптивных платформ в программу курса РКИ позволяет достичь следующих результатов: расширение активного словарного запаса учащихся в среднем на 30–40% быстрее по сравнению с традиционными методами; снижение педагогической нагрузки на преподавателя при выполнении рутинных упражнений; повышение мотивации учащихся через игровые механики и систему достижений; обеспечение учебной активности за пределами аудиторных занятий.

4.2. Чат-боты и разговорные ИИ в обучении устной речи

Развитие разговорных навыков является одной из наиболее сложных задач в преподавании РКИ, поскольку требует создания условий для регулярной речевой практики. Разговорные ИИ-системы (conversational AI) предоставляют учащимся возможность вести диалог на русском языке без временных и психологических ограничений, свойственных аудиторной среде.

Современные языковые модели (GPT-4, Claude, YandexGPT) демонстрируют высокий уровень контекстной коммуникации, способны выступать в различных коммуникативных ролях (собеседник, ментор, персонаж учебной ролевой игры) и обеспечивать незамедлительную обратную связь по лексическим и грамматическим ошибкам. В практике преподавания РКИ чат-боты используются для: тренировки стандартных речевых ситуаций (в магазине, на транспорте, при знакомстве); отработки грамматических конструкций в диалогическом режиме; подготовки к экзамену ТРКИ (Тест по русскому языку как иностранному).

4.3. Технологии распознавания и синтеза речи для фонетической работы

Фонетическая компетенция представляет значительную трудность для иностранных учащихся ввиду специфики русской звуковой системы: редукция гласных, оглушение согласных в конце слова, ударение. Технологии автоматического распознавания речи (ASR)

открывают новые возможности для диагностики и коррекции произносительных ошибок.

Инструменты на базе ASR позволяют в реальном времени анализировать произношение учащегося и предоставлять визуальную или звуковую обратную связь. Интеграция данных технологий в учебный процесс реализуется через специализированные приложения (Speechling, Elsa Speak в адаптации под русский язык) и встроенные функции образовательных платформ.

4.4. Генеративный ИИ в создании учебных материалов

Одним из наиболее перспективных направлений применения ИОТ является использование генеративных ИИ-систем для автоматизации создания дидактических материалов. Преподаватель РКИ получает возможность оперативно генерировать тексты заданного уровня сложности (по шкале CEFR или уровням ТРКИ), контекстуально уместные диалоги, тематические лексические упражнения, адаптированные тексты для чтения с учётом интересов конкретной аудитории, а также тестовые задания с автоматической проверкой.

Это существенно сокращает время подготовки к занятиям и позволяет преподавателю сосредоточиться на творческих и коммуникативных аспектах учебного взаимодействия.

5. Педагогические условия эффективного внедрения

Эффективная интеграция интеллектуальных образовательных технологий в практику преподавания РКИ требует соблюдения ряда педагогических условий.

Первое условие — дидактическая обоснованность выбора технологий. Каждый инструмент должен соответствовать конкретной учебной цели и этапу формирования компетенции. Технология не должна быть самоцелью; её применение оправдано лишь тогда, когда она обеспечивает педагогический результат, недостижимый традиционными методами или существенно превосходящий их по эффективности.

Второе условие — методическое сопровождение цифровых инструментов. Самостоятельная работа учащихся с ИИ-платформами должна быть включена в целостную методическую систему курса: предусматривать предварительный инструктаж, промежуточный контроль и рефлексию результатов. Преподаватель выполняет роль медиатора, направляющего и оценивающего цифровой учебный опыт.

Третье условие — развитие критического отношения учащихся к ИИ-контенту. Иностранные учащиеся должны понимать возможности и ограничения ИИ-систем, уметь верифицировать информацию и не принимать автоматически сгенерированные тексты за образцовые.

Четвёртое условие — учёт лингвокультурного контекста. Интеллектуальные технологии нередко транслируют нейтральную или западноориентированную культурную модель. В контексте РКИ важно дополнять цифровой учебный опыт аутентичными материалами, отражающими реальную русскую языковую культуру.

6. ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Интеллектуальные образовательные технологии представляют собой мощный ресурс для совершенствования практики преподавания РКИ. Их системная интеграция в учебный процесс позволяет реализовать принципы персонализации, доступности и непрерывности языкового обучения. Вместе с тем эффективность применения ИОТ определяется не столько технологическим уровнем инструментов, сколько методической грамотностью преподавателя, его готовностью к педагогическому проектированию в цифровой среде.

Перспективы дальнейших исследований связаны с разработкой конкретных методических моделей использования ИИ на различных уровнях владения русским языком, изучением влияния ИОТ на развитие автономии учащихся, а также с созданием специализированных ИИ-инструментов, учитывающих специфику русской грамматики и фонетики.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ / REFERENCES

1. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Современный словарь методических терминов и понятий. Теория и практика обучения языкам. — М.: Русский язык. Курсы, 2018. — 496 с.

2. Бовтенко М.А. Компьютерная лингводидактика: учебное пособие. — М.: Флинта: Наука, 2005. 216 с.

3. Дунаева Л.А., Захаров В.П. Корпусная лингвистика и технологии НЛП в обучении РКИ // Вопросы методики преподавания в вузе. 2019. — № 8 (30). — С. 18–27.

4. Зубов А.В., Зубова И.И. Информационные технологии в лингвистике. — М.: Академия, 2004. 208 с.

5. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. — М.: Академия, 2009. 272 с.

6. Chen X., Zou D., Xie H. Fifty years of British Journal of Educational Technology: a topic modeling based bibliometric perspective // British Journal of Educational Technology. 2020. — Vol. 51, № 3. — P. 692–708.

7. Godwin-Jones R. Emerging technologies: language learning and technology // Language Learning and Technology. 2019. — Vol. 23, № 1. — P. 1–5.

8. Hwang G.J., Tsai C.C. Research trends in mobile and ubiquitous learning: A review of publications in selected journals from 2001 to 2010 // British Journal of Educational Technology. 2011. — Vol. 42, № 4. — P. 65–70.

9. Warschauer M., Healey D. Computers and language learning: an overview // Language Teaching. 1998. — Vol. 31, № 2. — P. 57–71.

10. Zawacki-Richter O. et al. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education // International Journal of Educational Technology in Higher Education. 2019. — Vol. 16, № 1. — P. 1–27.

Надежда ШАКУРБАНОВА,
PhD, старший преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ КОММУНИКАЦИИ НА ТРАНСФОРМАЦИЮ СИНТАКСИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ РУССКОГО ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Аннотация: в статье рассматриваются особенности трансформации синтаксической структуры русского предложения под влиянием цифровой коммуникации. Современное интернет-общение формирует новые условия функционирования языка, что приводит к изменению способов организации высказывания. Цель исследования заключается в выявлении основных синтаксических тенденций, характерных для цифрового дискурса. В ходе анализа установлено, что электронная коммуникация способствует активизации процессов языковой экономии, расширению сферы употребления неполных конструкций, парцелляции и фрагментированных высказываний. Особое внимание уделяется изменению роли контекста в интерпретации сообщений и сближению письменной и устной форм речи. Делается вывод о том, что цифровая среда выступает одним из факторов эволюции современного русского синтаксиса.

Ключевые слова: *цифровая коммуникация, русский язык, синтаксис, интернет-дискурс, языковая экономия, парцелляция, эллипсис, структура предложения.*

Annotatsiya: maqolada raqamli kommunikatsiya ta'siri ostida rus tili gapining sintaktik tuzilishi transformatsiyasining xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Zamonaviy internet muloqoti tilning faoliyat yuritishi uchun yangi sharoitlarni shakllantiradi, bu esa fikrni ifodalash usullarining o'zgarishiga olib keladi. Tadqiqotning maqsadi raqamli diskursga xos bo'lgan asosiy sintaktik tendensiyalarni aniqlashdan iborat. Tahlil natijasida elektron kommunikatsiya til iqtisodiyoti jarayonlarining faollashuvi, to'liqsiz konstruksiyalar, parsellyatsiya va fragmentlangan ifodalarning qo'llanish doirasining kengayishiga xizmat qilishi aniqlandi. Xabarlarni talqin qilishda kontekstning roli o'zgarishi hamda yozma va og'zaki nutq shakllarining yaqinlashuviga alohida e'tibor qaratiladi. Xulosa qilinadiki, raqamli muhit zamonaviy rus sintaksisining evolyutsiyasiga ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *raqamli kommunikatsiya, rus tili, sintaksis, internet-diskurs, til iqtisodiyoti, parsellyatsiya, ellipsis, gap tuzilishi.*

Annotation: the article examines the transformation of the syntactic structure of the Russian sentence under the influence of digital communication. Modern Internet interaction creates new conditions for language functioning and changes the organization of utterances. The study aims to identify the main syntactic tendencies characteristic of digital discourse. The analysis shows that electronic communication promotes linguistic economy, expands the use of incomplete constructions, parceling and fragmented utterances. Special attention is paid to the changing role of context and the convergence of written and spoken forms of speech. The paper concludes that the digital environment acts as an important factor in the evolution of modern Russian syntax.

Key words: *digital communication, Russian language, syntax, Internet discourse, linguistic economy, parceling, ellipsis, sentence structure.*

Начало XXI века ознаменовалось кардинальными изменениями в сфере коммуникации. Появление социальных сетей, мессенджеров, блогов и других цифровых платформ привело к возникновению новых форм речевого взаимодействия. Если ранее письменная речь существовала преимущественно в рамках устойчивых нормативных моделей, то современная интернет-коммуникация демонстрирует высокую степень динамичности и вариативности.

Язык цифровой среды развивается под воздействием особых коммуникативных условий. Скорость обмена сообщениями, ограниченность

внимания адресата, возможность мгновенной обратной связи и стремление к краткости оказывают влияние на все языковые уровни. Особенно заметны изменения в области синтаксиса, поскольку именно предложение является основной единицей организации высказывания.

В настоящее время исследование синтаксических процессов в цифровом дискурсе представляет особый интерес для лингвистики. Анализ подобных явлений позволяет выявить новые тенденции развития русского языка и определить направления его дальнейшей эволюции.

Современная лингвистика рассматривает цифровой дискурс как самостоятельную форму речевой деятельности, обладающую собственными закономерностями организации текста. Электронное общение нельзя полностью отнести ни к письменной, ни к устной речи. Оно представляет собой промежуточную коммуникативную форму, сочетающую свойства обеих разновидностей языка.

Одной из фундаментальных предпосылок происходящих изменений является принцип языковой экономии. Согласно данной концепции, язык стремится обеспечить максимальную эффективность коммуникации при минимальных затратах речевых средств. В цифровой среде этот принцип приобретает особую актуальность, поскольку скорость передачи информации становится важнейшим условием успешного общения.

В результате пользователи всё чаще прибегают к сокращённым синтаксическим моделям, допускающим опущение отдельных элементов высказывания. При этом возрастают функции контекста, позволяющего компенсировать отсутствие формально выраженных компонентов предложения.

Наряду с принципом экономии существенную роль играет тенденция к разговорности. Многие синтаксические конструкции, ранее характерные преимущественно для устного общения, активно проникают в письменный цифровой дискурс. Данный процесс способствует сближению устной и письменной форм речи и формированию новых способов организации текста.

Материалом исследования послужили тексты сообщений и комментариев, опубликованные в русскоязычном сегменте социальных сетей и мессенджеров.

Анализ языкового материала показал, что трансформация структуры русского предложения в цифровой среде осуществляется по нескольким направлениям.

Синтаксическая компрессия как доминирующая тенденция**.** Одной из наиболее заметных особенностей интернет-коммуникации является стремление к сокращению объёма высказывания. Например: «Уже дома.» «Скоро на встрече.» «Почти готово.»

Подобные конструкции демонстрируют отказ от избыточных компонентов предложения. Информация передаётся в максимально концентрированном виде, а недостающие элементы восстанавливаются адресатом на основе ситуации общения.

Синтаксическая компрессия позволяет ускорить коммуникацию и снизить временные затраты на создание сообщения.

Расширение сферы употребления эллиптических конструкций

В цифровом дискурсе значительно возрастает частотность эллиптических предложений. Например: «На месте?» «Уже еду.» «Скоро.»

Подобные конструкции характеризуются неполнотой формального состава, однако сохраняют высокую коммуникативную эффективность благодаря опоре на общий контекст взаимодействия участников общения.

Фактически цифровая среда создаёт условия, при которых синтаксическая неполнота перестаёт восприниматься как недостаток высказывания.

Активизация парцелляции**.** Заметное место в структуре интернет-текстов занимает парцелляция. Например: «Получилось. Наконец-то.» «Сдал. С первого раза.» «Успели. Несмотря ни на что.»

В традиционной письменной речи подобные конструкции обычно рассматриваются как стилистическое средство выразительности. В цифровом пространстве они становятся обычным способом организации текста.

Парцелляция позволяет управлять вниманием адресата, выделять ключевые смысловые

элементы и усиливать эмоциональное воздействие сообщения.

Фрагментация высказывания**.** Особую роль в цифровом общении играют фрагментированные конструкции. Например: «Шок.» «Победа.» «Красота.» «Лучший день.»

Подобные единицы формально не обладают всеми признаками предложения, однако успешно функционируют как самостоятельные коммуникативные сообщения.

Распространение фрагментированных высказываний свидетельствует о том, что для цифрового дискурса всё большее значение приобретает прагматическая сторона общения.

Одной из особенностей современной коммуникации является использование эмодзи, стикеров и других визуальных элементов. В ряде случаев графические символы выполняют функции слов, словосочетаний и даже целых высказываний. Это приводит к перераспределению смысловой нагрузки между вербальными и невербальными компонентами сообщения.

Полученные результаты позволяют утверждать, что цифровая коммуникация оказывает системное воздействие на синтаксическую организацию русского языка. Наблюдаемые изменения связаны прежде всего с изменением коммуникативных потребностей общества. В условиях постоянного информационного обмена возрастает ценность краткости и скорости передачи информации. Именно поэтому пользователи предпочитают компактные конструкции, не требующие сложного синтаксического оформления.

Особое значение приобретает контекст, который становится важным механизмом интерпретации высказывания. Если в традиционной письменной речи значительная часть информации содержится внутри предложения, то в цифровом дискурсе она всё чаще выносится за его пределы и восстанавливается благодаря ситуации общения. Кроме того, происходит постепенное размывание границ между письменной и устной речью. Интернет-коммуникация сохраняет графическую форму передачи информации, однако использует многие синтаксические особенности живого разговорного общения. Следовательно, современные синтаксические изменения нельзя рассматривать как нарушение языковых норм. Они отражают естественный процесс адаптации языка к новым условиям функционирования.

Цифровая среда оказывает значительное влияние на развитие современного русского синтаксиса. Основными проявлениями данного процесса являются синтаксическая компрессия, распространение эллиптических конструкций, активизация парцелляции и увеличение числа фрагментированных высказываний.

Выявленные изменения обусловлены спецификой цифровой коммуникации, ориентированной на оперативность, лаконичность и эффективность речевого взаимодействия. В этих условиях происходит формирование новых синтаксических моделей, отвечающих требованиям современного информационного общества.


Перспективы дальнейших исследований связаны с изучением синтаксических особенностей отдельных цифровых платформ, а также с анализом влияния интернет-коммуникации на развитие литературной нормы русского языка.

Список использованной литературы

1. Валгина Н.С. Современный русский язык. Синтаксис. – М.: Флинта, 2021.

2. Карасик В.И. Языковая личность: аспекты коммуникативного поведения. – Волгоград: Парадигма, 2004.

3. Горошко Е.И. Интернет-коммуникация: проблемы и перспективы исследования // Вопросы психолингвистики. 2007. – № 5. – С. 78–89.



TADQIQOTLAR

Shoira ISAYEVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi



MADANIYATLARNING O‘ZARO TA’SIRI. ENKULTURATSIYA VA AKKULTURATSIYA JARAYONLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada madaniyat tushunchasining izohi keltiriladi, madaniyatlarning o‘zaro ta’siri, enkulturatsiya va akkulturatsiya jaroyonlari yoritiladi. Mazkur jarayonlarning asosiy farqlari, madaniyatlarning o‘zaro ta’siri natijasida madaniyatlarda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishi xususida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar*: madaniyat, enkulturatsiya, akkulturatsiya, assimilyatsiya, separatizatsiya, marginalizatsiya, integratsiya, akseptatsiya, yangi madaniyatning shakllanishi, reaksiya....*

Annotation: *this article explains the concept of culture, the interaction of cultures, the processes of enculturation and acculturation. Information is given on the main differences of these processes, the changes that occur in cultures as a result of the interaction of cultures.*

Key words: *culture, enculturation, acculturation, assimilation, separation, marginalization, integration, acceptance, formation of a new culture, reaction...*

Madaniyat – insoniyat libosi, muayyan shaxs yoki jamiyatning yashash tarzi, axloq me’yorlari, dunyoqarashi, urf-odatlari, an’analari, olamni anglash darchasi va o‘zligini ifodalash yo‘sini. Madaniyat *alohida individning* hayot faoliyati (shaxsiy madaniyat)ni hamda *ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning* hayot faoliyati usulini aks ettiradi. Dastlab madaniyat tushunchasi insonning tabiatga ehtiyojlari, maqsadiga muvofiq ta’siri (yerni ishlash va hokazolar) hamda insonning o‘zini tarbiyalash va o‘qitish ma’nolarini ifodalagan. Keyinchalik madaniyat tushunchasi orqali taraqqiyot bilan bog‘liq mazmun tushunila boshlangan.

“Madaniyat” («cultio» va «culte»*)* atamasi mutaxassislar fikriga ko‘ra, lotinchadan o‘girilganda “ishlov berish”, “parvarish qilish” degan ma’nolarni ifodalaydi. Keyinchalik “ma’rifatli bo‘lish”, “tarbiyalilik”, “bilimli bo‘lish” ma’nolarida ham qo‘llana boshlagan.

G‘arbiy Yevropada madaniyat tushunchasi XVIII asrning oxiridan e’tiboran hozirgi mazmunni kasb etgan bo‘lsa-da, faqat XX asrga kelib ijtimoiy va gumanitar fanlar kategorial tizimidan mustahkam o‘rin olgan.

Madaniyat mohiyatiga ko‘ra moddiy va ma’naviy madaniyatlarga bo‘linadi. Kishilik tarixining uzoq davrlarida yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish jarayoni quyidan yuqoriga, oddiylikdan murakkablikka, alohidadan umumiylikka tomon siljiydigan o‘ziga xos uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Madaniyat – bu me’yorlar majmuasi, ya’ni nima ruxsat berilgani va nima taqiqlanganligi. Bu me’yorlar muayyan jamiyat tomonidan taqsimlanadi, ular insonlar tomonidan o‘zlashtiriladi, inson esa uning bir qismiga aylanadi.

Inson tomonidan madaniyatning o‘zlashtirilishi enkulturatsiya yoki inkulturatsiya (madaniyatga kirish) deyiladi.

Madaniyat ontogenez (individual rivojlanish) jarayonida o‘zlashtiriladi.

Enkulturatsiya terminining muallifi Melvil Jin Xerskovits mazkur jarayonning ikkita bosqichini ajratgan:

Birinchi bosqich (tug‘ilgan kundan boshlanadi) – axloq qoidalari, me’yorlarini o‘zlashtirish bosqichidir. Ushbu bosqichda, shaxs tanlash va baholash huquqidan mahrum bo‘ladi, madaniyatga kirishga “qarshilik” qila olmaydi, unda o‘sadi, rivojlanadi va o‘zidan oldingi etnik-madaniy tajribani faqat o‘zlashtiradi.

Ikkinchi bosqich – bu jamiyatda qabul qilingan me’yorlarni baholash, muhokama qilish mumkin bo‘lgan ongli bosqichdir. Ushbu bosqichda bu me’yorlarni o‘zgartirish hamda madaniyatning yadrosiga ta’sir qilmaydigan subkulturalar paydo bo‘lishi mumkin[1].

Insonni yoki guruhni yangi madaniyatga moslashtirish – akkulturatsiya jarayonidir.

Avvalo, akkukturatsiya va enkulturatsiya (inkulturatsiya) tushunchalarini bir- birdan farqlash kerak.

1 Гузикова М. О. Основы теории межкультурной коммуникации : [учеб. пособие] / М. О. Гузикова, П. Ю. Фофанова; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург : Издво Урал.ун-та, 2015. — 124 с.

Enkulturatsiya	Akkulturatsiya
• birlamchi madaniy me’yorlarga ega bo‘lish	• madaniy me’yorlarni o‘zgartirishning ikkilamchi jarayoni
• barcha insonlar hayot davomida boshdan kechiradi	• ayrim insonlargina ushbu jarayonga duch keladi

Akkulturatsiya jarayonida inson o‘zining ikki madaniy o‘ziga xosligini saqlab qolish va unga yangi madaniyatda yashash zarurligiga duch keladi. Shunga ko‘ra, insonlar akkulturatsiya jarayonida duch keladigan to‘rtta madaniyat strategiyasi mavjud:

Assimilyatsiya	inson o‘zining madaniyatidan voz kechib, u bilan aloqalarini uzib, butunlay yangi madaniyatga qo‘shilib ketadi.
Separatsiya	boshqa madaniyat me’yorlarini qabul qilishdan voz kechib o‘z madaniyati bilan identifikatsiyani saqlash. Bunday holatda ozchilikni tashkil qiluvchi madaniy jamoa dominant madaniyat bilan aloqa qilmaslikka, (mumkin qadar) o‘zlari jamoa tuzib alohida yashashga harakat qiladilar.
Marginalizatsiya	birlamchi madaniyat o‘ziga xoslikni yo‘qotish va yangi madaniyat bilan identifikatsiyalashning yo‘qligidir (oraliqda qolib ketish).
Integratsiya	akkulturatsiya jarayonining eng samaralisidir. Bu asosiy madaniyatini yo‘qotmasdan yangi madaniyatga kirishni o‘z ichiga oladi.

Assimilyatsiya strategiyasi ko‘pincha o‘z ixtiyori bilan boshqa mamlakatga (mintaqaga) uzoq vaqt yoki abadiy ko‘chib ketadigan odamlar hayotida kuzatiladi.

Separatsiya strategiyasi o‘z Vatanini xohishlariga zid ravishda tark etishga majbur bo‘lgan qochqinlarga xosdir. Agar bunday izolyatsiyaga dominant madaniyat vakillari da’vat etsa, bu segregatsiya deyiladi.

Marginalizatsiya insonning asl madaniy guruhini saqlab qololmasligi va yangi madaniyatga qo‘shilolmasligidan kelib chiqadi. Marginalizatsiya odatda mezbon madaniyat tomonidan kamsitilishning natijasi ham bo‘lishi mumkin.

Integratsiya ikki tomon (retsipient – oluvchi va donor – beruvchi madaniyatlar)ning o‘zaro hurmati va har bir madaniyatning noyob xususiyatlarini saqlab qolish zarurligini tushunish va hamkorlik qilish istaklari orqali yuzaga keladi.

Akkulturatsiya ikki yoki undan ortiq madaniyatning bir-biriga ta’sir o‘tkazishidir. Madaniyatlar o‘zaro ta’sirining shakllari va tamoyillari farqlanadi. Tarixan o‘zaro ta’sirning do‘stona, ixtiyoriy (bunday holatlarda o‘zaro aloqa teng hamkorlikka asoslanadi) hamda zo‘rlash, mustamlakaga aylantirish, harbiy yo‘l bilan bosib olishga (bunday holatlarda o‘zaro aloqa bir tomonlama manfaatga asoslanadi) asoslangan shakllari ma’lum[2].

Yuqorida insonlar yangi madaniyatga kirishayotganda qanday strategiyalarni tanlashi mumkinligi haqida ma’lumot berilgan edi. Mazkur strategiyalar natijasida madaniyatlarda quyidagi jarayonlar ro‘y berishi mumkin: akseptatsiya (bir madaniyat tomonidan boshqa bir madaniyatning yutib yuborilishi); yangi madaniyatlarning shakllanishi (bir nechta madaniyat kesishgan nuqtada yangi bir madaniyat shakllanishi mumkin); reaksiya (begona madaniyatning inkor etilishi); o‘zlashtirish (begona madaniyat elemantlarining o‘zlashtirilishi), adaptatsiya (madaniyatlarning bir-biriga moslashishi)[3].

Xulosa qilib aytganda, madaniyatlarning o‘zaro ta’siri dunyoning madaniy xaritasida o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi, insoniyat hayotini yana-da rang-barang qiladi.

2 Usmonova, Sh., Rixsiyeva, G. 2017. Madaniyatlararo muloqot. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. 135-b.

3 Соотношение понятий «культура» и «цивилизация» по Шпенглеру (infopedia.su)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гузикова, М. О. 2015. Основы теории межкультурной коммуникации: [учеб. пособие]. – Екатеринбург: Издво Урал.ун-та, – 124 с.

2. Usmonova, Sh., Rixsiyeva, G. 2017. Madaniyatlararo muloqot. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. 135-b.

3. Shirinova, Y.T. 2022. *Madaniyatlararo kommunikatsiya xususida* // INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. September. (5) (PDF) МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ, ПОСВЯЩЕННАЯ РОЛИ И ЗНАЧЕНИЮ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В XXI ВЕКЕ (researchgate.net)

Lola QODIROVA,
Senior teacher of Gulistan State University
Aziza XAYRULLAYEVA,
Student of Gulistan State University

MADANIYATLARARO BOLALIK TARJIMASI: “SHUM BOLA” VA “TOM SOYERNING SARGUZASHTLARI” ASARLARIDA HAZIL, MADANIYATGA XOS BIRLIKLAR VA BOLALAR NUTQINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada G‘afur G‘ulomning “Shum bola” va Mark Tvenning “Tom Soyerning sarguzashtlari” asarlarida bolalik obrazi, madaniy qadriyatlar hamda hazil elementlarining ifodalanishi qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, asarlarning tarjimalarida uchraydigan madaniyatga xos birliklar, bolalar nutqi va hazilning tarjima qilinish usullari Translation Studies nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari mazkur asarlarning milliy xususiyatlarni aks ettirish bilan birga, bolalikning universal jihatlarini ham yoritishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, bolalik obrazi, madaniyatlararo muloqot, hazil, bolalar nutqi, madaniyatga xos birliklar, domestikatsiya, foreignizatsiya.*

Аннотация: в статье проводится сравнительный анализ образа детства, культурных ценностей и юмористических элементов в произведениях Гафура Гуляма «Шум бола» и Марка Твена «Приключения Тома Сойера». Особое внимание уделяется переводу культурно маркированных единиц, детской речи и юмора. Исследование показывает, что оба произведения отражают национальные особенности своих культур и одновременно раскрывают универсальные аспекты детства.

Ключевые слова: *сравнительное литературоведение, переводоведение, образ детства, межкультурная коммуникация, юмор, детская речь, культурно маркированные единицы, доместикация, форенизация.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of childhood representation, cultural values, and humorous elements in Gafur Ghulam’s “Shum Bola” and Mark Twain’s “The Adventures of Tom Sawyer”. Special attention is paid to the translation of culture-specific items, child language, and humor from the perspective of Translation Studies. The findings reveal that both works reflect their national cultures while portraying universal aspects of childhood.

Key words: *comparative literature, translation studies, childhood representation, intercultural communication, humor, child language, culture-specific items, domestication, foreignization.*

Kirish. Qiyosiy adabiyotshunoslik turli xalqlar adabiyotidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Bolalik mavzusi jahon adabiyotida eng ko‘p murojaat qilinadigan mavzulardan biri bo‘lib, u turli madaniyatlarda o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi. O‘zbek adabiyotida G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari, Amerika adabiyotida esa Mark Tvenning “The Adventures of Tom Sawyer” romani bolalik olamining yorqin badiiy tasvirlari sifatida e’tirof etiladi.

Har ikki asarda bosh qahramonlar sho‘x, qiziquvchan va sarguzashtlarga moyil bolalar sifatida tasvirlangan. Ular jamiyat qoidalari bilan to‘qnashadi, turli sinovlarni boshdan kechiradi va o‘z shaxsiyatini shakllantiradi. Shu bilan birga, asarlarda milliy madaniyat, urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar va tarixiy muhit o‘z aksini topgan.

Mazkur maqolaning maqsadi “Shum bola” va “The Adventures of Tom Sawyer” asarlarida bolalik obrazi, hazil va madaniy elementlarning ifodalanishini qiyosiy tahlil qilish hamda ularning tarjimalarida qo‘llanilgan strategiyalarni aniqlashdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, interpretativ va tarjimashunoslik metodlaridan foydalanildi. Asarlardagi bolalik obrazi, qahramonlarning nutqi, hazil elementlari va madaniyatga xos birliklar qiyosiy tahlil qilindi. Tarjima tahlilida L. Venutining domestikatsiya va foreignizatsiya nazariyalari, P. Nyumarkning madaniy birliklar tasnifi hamda Nidaning dinamik ekvivalentlik konsepsiyasidan foydalanildi.

“Shum bola” va “The Adventures of Tom Sawyer” asarlarida bolalik obrazi.

Har ikki asarda bolalik erkinlik, sarguzasht va dunyoni kashf etish davri sifatida tasvirlanadi. Shum bola ham, Tom Soyer ham kattalar tomonidan belgilangan qoidalardan chetga chiqishga intiladi. Ularning sho‘xligi va mustaqillikka bo‘lgan intilishi syujet rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Biroq qahramonlarning ijtimoiy muhiti bir-biridan farq qiladi. “Shum bola”da XX asr boshlaridagi o‘zbek jamiyatining kundalik hayoti, oilaviy munosabatlari va iqtisodiy qiyinchiliklari aks ettirilsa, “Tom Soyerning sarguzashtlari”da XIX asr Amerika jamiyatining ijtimoiy va madaniy manzarasi tasvirlanadi.

ASARLARDA HAZIL VA IJTIMOIY TANQID

Hazil ikkala asarning muhim badiiy vositalaridan biridir. G‘afur G‘ulom hazil orqali jamiyatdagi ayrim kamchiliklarni, turmushdagi murakkabliklarni va inson xarakteridagi ziddiyatlarni ko‘rsatadi. Mark Tven esa satira va ironiyadan foydalanib Amerika jamiyatining ayrim stereotiplari hamda ijtimoiy muammolarini tanqid qiladi.

Hazilning asosiy vazifasi nafaqat o‘quvchini kuldirish, balki muallifning ijtimoiy pozitsiyasini ifodalashdan iboratdir. Shu jihatdan har ikki asar bolalar adabiyotining oddiy namunasi emas, balki chuqur ijtimoiy mazmunga ega badiiy asarlar hisoblanadi.

Madaniyatga xos birliklarning tarjimasi.

Tarjima jarayonida madaniyatga xos birliklar muhim muammolardan biri hisoblanadi. “Shum bola”da milliy taomlar, qarindoshlik atamalari, urf-odatlar va mahalliy turmush tarziga oid birliklar uchraydi. “Tom Soyerning sarguzashtlari”da esa Amerika janubi madaniyatiga oid realiyalar mavjud.

Tarjimon bunday birliklarni o‘quvchiga tushunarli yetkazish uchun turli strategiyalardan foydalanadi. Ayrim hollarda domestikatsiya qo‘llanilib, notanish tushunchalar maqsad tilidagi yaqin ekvivalentlar bilan almashtiriladi. Boshqa hollarda esa foreignizatsiya strategiyasi orqali asl madaniy kolorit saqlab qolinadi.

Bolalar nutqi va hazilning tarjima qilinishi.

Bolalar nutqi asarlarning badiiy qimmatini belgilovchi muhim elementlardan biridir. Shum bola va Tom Soyerning nutqida samimiylik, spontanlik va emotsionallik kuzatiladi. Tarjima jarayonida ushbu xususiyatlarni saqlash tarjimondan yuqori mahorat talab qiladi.

Hazilning tarjimasi esa yanada murakkab masala hisoblanadi. Chunki hazil ko‘pincha til o‘yinlari, madaniy kontekst va pragmatik ma’nolar bilan bog‘liq bo‘ladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ba’zi hollarda hazilning shakli o‘zgargan bo‘lsa-da, uning kommunikativ ta’siri saqlab qolinadi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

– “ “Shum bola” va “The Adventures of Tom Sawyer” asarlarida bolalikning universal xususiyatlari mavjud;

– har ikki asarda hazil ijtimoiy tanqid vositasi sifatida xizmat qiladi;

– madaniyatga xos birliklar asarlarning milliy koloritini shakllantiradi;

– tarjimalarda domestikatsiya va foreignizatsiya strategiyalari birgalikda qo‘llanadi;

– bolalar nutqi va hazilning adekvat tarjimasi asarning estetik ta’sirini saqlashda muhim omil hisoblanadi.

Muhokama. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, G‘afur G‘ulom va Mark Tven turli tarixiy hamda madaniy muhit vakillari bo‘lishiga qaramay, bolalik fenomenini o‘xshash badiiy vositalar orqali tasvirlaydi. Har ikki muallif bolalar dunyosini romantiklashtirish bilan cheklanmay, uni jamiyatning kichik modeli sifatida talqin qiladi.

Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan esa madaniy birliklar va hazil elementlarini qayta yaratish masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Tarjima jarayonida milliy koloritni saqlash va o‘quvchi uchun tushunarlilikni ta’minlash o‘rtasida muvozanatni topish zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “Shum bola” va “The Adventures of Tom Sawyer” asarlari turli milliy adabiyotlarga mansub bo‘lsa-da, bolalikning universal mohiyatini yoritishda mushtarak jihatlarga ega. Har ikki asarda bolalar obrazi orqali jamiyatning axloqiy, madaniy va ijtimoiy muammolari aks ettiriladi.

Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan madaniyatga xos birliklar, bolalar nutqi va hazilning tarjimasi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Domestikatsiya va foreignizatsiya strategiyalarining uyg‘un qo‘llanilishi asarning milliy koloritini saqlash bilan birga, uning boshqa madaniyat vakillari tomonidan qabul qilinishiga ham imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Twain, M. The Adventures of Tom Sawyer. – New York: Harper & Brothers, 1876.
2. G‘ulom, G. Shum bola. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, turli nashrlar.
3. Venuti, L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. – London: Routledge, 1995.
4. Newmark, P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988.
5. Nida, E. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964.
6. Bassnett, S. Comparative Literature: A Critical Introduction. – Oxford: Blackwell, 1993.
7. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2018.
8. Hermans, T. The Manipulation of Literature. – London: Croom Helm, 1985.
9. Even-Zohar, I. Polysystem Studies. – Durham: Duke University Press, 1990.

Nafisa RAXMANOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
katta o‘qituvchisi, Xalq ta’limi a’lochisi

“SHIRIN” – UYG‘UR XALQ QISSASI

Annotatsiya: ushbu maqolada nemis olimi V.V.Radlov tomonidan 1883-yilda yozib olingan “Shirin” xalq qissasi haqida ma’lumot beriladi. Ushbu qissa Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonining xalqona versiyasi bo‘lib, taranchi uyg‘urlar orasida juda mashhur bo‘lgan. Maqolada noma’lum qissago‘yning asar sujetiga qo‘shgan yangiliklari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *V.V.Radlov, “Proben”, Taranchi, Alisher Navoiy, “Shirin”, “Saypul-muluk”.*

Аннотация: в данной статье представлена информация о народной сказке «Ширин», записанной в 1883 году немецким учёным В.В. Радловым. Эта сказка является народной версией эпической поэмы Алишера Навои «Фарход и Ширин», которая пользовалась большой популярностью среди уйгуров-таранчей. Рассматриваются нововведения, внесённые в сюжет произведения неизвестным рассказчиком.

Ключевые слова: *В.В. Радлов, «Пробен», таранчы, Алишер Навои, «Ширин», «Сайпуль-мулук».*

Annotation: this article provides information about the folk tale “Shirin”, written down in 1883 by the German scholar V.V. Radlov. This tale is a folk version of Alisher Navoi’s epic poem “Farhod and Shirin”, which was very popular among the Taranchi Uyghurs. The novelties added to the plot of the work by the unknown storyteller are discussed.

Key words: *V.V. Radlov, “Proben”, Taranchi, Alisher Navoi, “Shirin”, “Saypul-muluk”.*

Xalq qissalari og‘zaki adabiyot bilan yozma adabiyotni bir-biriga bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajaradi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida xalq qissalarining paydo bo‘lishi, tarqalishi, asosan, islom dinining kirib kelishi bilan bog‘lanadi. Boisi ularning asosiy qismi islomning yoyilishiga xizmat qilgan sarkardalar, tarixiy shaxslar haqidadir. Yozma adabiyotda ishqiy-sarguzasht qissalarning yaratilishiga esa “Xamsa” dostonlarining mashhurligi sabab bo‘lgan. Yozma adabiyot vakillarining baxshiyona usulda yaratgan ishqiy-sarguzasht qissalari syujetiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1) *mumtoz adabiyotimizdagi mashhur dostonlarning qisqacha nasriy bayoni bo‘lgan qissalar.* Bunday qissalardagi nazmiy qism asosan, aruz vaznida yozilgan;

2) *mumtoz adabiyotimizdagi mashhur doston syujetining qayta ishlangan versiyasi bo‘lgan qissalar.* Nazmiy qism aruz va qısman barmoq vaznlarida bitilgan.

Birinchi turga XX asr boshlarida Navoiy ijodini keng xalq orasida targ‘ib etish maqsadida toshbosma matbaalarda ko‘p sonda nashr qilingan “Xamsa” dostonlarining nasriy bayonlarini kiritish mumkin. XVIII asrning oxiri – XIX asrning boshida Xorazmda yashab ijod etgan shoir va yozuvchi Umar Boqiyning “Qissayi Farhod va Shirin”i [10], “Qissayi Layli va Majnun”i nasriy bayon shaklidagi qissaning go‘zal namunasi hisoblanadi. Bu asarlar 1906-, 1908-, 1915-, 1916-yillarda Toshkentda toshbosma usulida ko‘p nusxada chop etilgan.

Ikkinchi turga kiruvchi “Farhod va Shirin” dostonining xalq qissasiga yaqin variantini XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan shoir va yozuvchi Mahzun yaratgan. “Qissayi shahzoda Farhod va Shirin” 1907-yil G‘ulomiya matbaasida nashr etilgan [2]. Qissa Umar Boqiy nasriy bayonlari qatorida Alisher Navoiy dostonlarining ilk nasriy bayonlari sifatida e’tirof etilib, o‘tgan yillar davomida M.Afzalov [1], S.Erkinov [11], N.Mallayev [5;135–147], O.Tojiboyeva [7;34–37] tomonidan o‘zbek xalq og‘zaki ijodida shu turkumdagi asarlarga qiyosan batafsil tadqiq etilgan.

Afsuski, Sharqiy Turkistonda yashaydigan Taranchi uyg‘ur xalqi tomonidan yaratilgan va 1886-yilda V.V.Radlov tomonidan fanga ma’lum qilingan “Shirin” qissasi folklorshunos va navoiyshunos olimlarimizning e’tiboridan chetda qolib kelmoqda [8; 95–114].

Mashhur sharqshunos va turkiyshunos olim V.V.Radlov 1859–1871-yillarda Oltoy hamda G‘arbiy Sibirdagi turkiy xalqlar tilini o‘rgangan, bu xalqlarning folklori, etnografiyasi va arxeologiyasiga oid materiallar to‘plab, ularni nemis tilida e’lon qilgan. Shunday folklor asarlaridan biri XIX asrda Taranchi uyg‘urlar orasida mashhur bo‘lgan “Shirin” qissasidir.

Taranchi – “tariqchi” so‘zining buzilgan versiyasi bo‘lib, “don ekuvchi shaxs”, “yer egasi”, “dehqon” degan ma’nolarni anglatadi. Ili daryosi vodiysida yashovchi uyg‘urlarning nomi bo‘lib, Taranchilarning ajdodlari 1759–1763-yillarda Manchurlar tomonidan Sharqiy Turkiston vohalaridan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish (“taran” – ekin maydoni) va Xitoyning G‘arbiy mintaqani nazorat qilishini osonlashtirish uchun Ili mintaqasiga ko‘chirilgan. Taranchilarning tili qaysi lahjaga mansubligi haqida V.V.Radlov shunday yozadi: “1862-yilda qirg‘iz dashtining janubi-sharqiy qismini kezib yurganimda, u yerga ko‘chib kelgan Ili tatarlari (uyg‘urlari) yoki mahalliy aholi “taranchi” deb ataydiganlar bilan uchrashdim va ularning tilini o‘rganishga kirishdim. Kopalda (hozir Qapal deb ataladi) bir necha kungina qolganim uchun faqat bir nechta qisqa ma’lumotlarni yozib olishga

muvaffaq bo‘ldim. Bu lahja o‘zida bir qator juda qiziqarli xususiyatlarni namoyish etgani hamda sart va o‘zbek lahjalaridan sezilarli darajada farq qilgani uchun Kulja shahri yaqinidagi Taranchi aholi punktiga tashrif buyurishga va u yerdagi aholining lahjasini chuqur o‘rganishga qaror qildim. Afsuski, bu rejamni amalga oshirish imkoniga ega bo‘lmadim. Xitoy rasmiylari menga faqat harbiy karvon bilan birga shimolga, Uygantash orqali Kulja (hozirgi G‘ulja) shahriga borishga ruxsat berishdi. U yerda men rus fabrikasida yashashim kerak edi va faqat kunduzi shaharga chiqishimga ruxsat berildi. Shuning uchun Taranchi aholi punktiga borishni hatto o‘ylay ham olmasdim. Kuljada va fabrikada ko‘plab taranchilar bilan uchrashdim va sharoitdan imkoni boricha foydalanib, bu turkiy xalqning lahjasini o‘rganishga vaqt ajratdim. Bu yerda men ushbu lahja fonetikasining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur o‘rganishga va bir qator matnlarni yozib olishga muvaffaq bo‘ldim. Biroq o‘sha paytgacha to‘plagan materiallarim bu lahjaning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘g‘ri tushunishga hali kamlik qilar edi. Kopalga qaytib kelganimda yaqinda Kuljadan bu yerga ko‘chib kelgan taranchi Hemer Vaki bilan tanishdim. Uning o‘z lahjasida aniq-tiniq va ravon gapirishi diqqatimni tortdi, u bilan to‘plagan materiallarimni qayta ko‘rib chiqishga, ayrim shubhali joylarini tekshirib olishga va yakunlashga qaror qildim. Hemer Vaki savodsiz edi. O‘qish-yozishni bilmasa-da, o‘z qabilasi folklorining katta repertuarini o‘zlashtirganini aniqlay oldim. Shuning uchun unga Barnaulga kelib, qishni mening uyimda o‘tkazishni taklif qildim. Hemer hali Kopalda aniq bir xizmatga tayinlanmaganligi sababli mening taklifimni qabul qildi va 1863-yilning bahorigacha men bilan qoldi. Shunday qilib, men Taranchi lahjasini chuqur o‘rganish uchun yetarli imkoniyatlarga ega bo‘ldim. Nafaqat Kopal va Kuljada yozib olgan matnlarimni ko‘rib chiqdim, balki uning og‘zidan ertaklar, rivoyatlar, qissalar, Ili vodiysi hayotiga oid voqealarning butun bir siklini yozib oldim. Umid qilamanki, shu tarzda to‘plagan lingvistik materiallarim Ili vodiysi turklari lahjasini aniq tavsiflash uchun yetarli bo‘ladi”.[8, 4-5]

Hemer Vakining hikoyalaridan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Taranchi turklari Oltishahr (Yevropaliklar bu hududni Kichik Buxoro deb ataganlar) hududidan Ili vodiysiga ko‘chirilgan uyg‘urlardir. Ular yangi aholi punktlarida yuz yildan ortiq vaqt davomida xitoyliklar, shibelar va qalmiqlar orasida yashaganlar, shuning uchun atrofdagi turkiy xalqlar bilan juda cheklangan aloqada bo‘lganlar. Bunday geografik joylashuv, bir tomondan, Taranchi lahjasini qo‘shni turkiy xalqlar (qirg‘izlar va sartlar) lahjalari bilan aralashib ketishdan himoya qilgan, Biroq, boshqa tomondan, ularning tiliga xitoy, mo‘g‘ul va manchur tillaridan ko‘plab so‘zlar o‘zlashgan. Islom dini va fors adabiyoti ta’sirida arab va fors tillaridan ko‘p miqdorda so‘zlar qo‘shilgan. Radlovning ta’kidlashicha, Taranchi lahjasi O‘rta Osiyo lahjalariga tegishli bo‘lib, Oltishahr mintaqasi lahjalariga (ayniqsa, Qashqar va Yorkent shevalariga), ya’ni uyg‘ur va o‘zbek tillarining aralashmasidan kelib chiqqan lahjalarga yaqin turadi. “Qutadg‘u bilig” lug‘ati bilan Taranchi shevasi lug‘atini taqqoslasak, bu o‘xshashlik yaqqol ko‘rinadi. Radlov Taranchi turkiylarning shevasi haqidagi kuzatishlarini “Shimoliy turkiy tillar fonetikasi” asarida bayon qilib bergan (Vergliechende Grammatik der nordlichen Turksprachen. Th. I. Phonetik. (Shimoliy turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi. T. I. Фонетика), Лейпциг, 1882—1883).

Radlov to‘plagan va nemis tiliga tarjima qilgan Taranchi folklori namunalari “Proben” nomi bilan mashur bo‘ldi (Proben der Volkslitteratur der turkischen Stamme Südsibirien (Janubiy Sibir va Jungar dashtida yashovchi turkiy qabilalarning xalq adabiyoti namunalari), matnlar va nemis tiliga tarjima; Sankt-Peterburg,1866—1896, 7 том). Olim to‘plagan folklor namunalari asosan, Kopalda to‘plangan maqollar, ertaklar va afsonalar; Ili vodiysi va uning aholisi haqidagi rivoyatlar; “Shirin” va “Sayp ul-muluk” kabi kitobiy qissalar, xalq qo‘shiqlaridan tashkil topgan. Radlovning ta’kidlashicha, “Shirin” qissasi Alisher Navoiy dostonining xalqona versiyasidir [8;6].

Olim “Shirin” qissasini nasrda yozib olgan. Qissa syujeti Alisher Navoiyning tarhi toza dostoni – “Farhod va Shirin” ning nasriy bayoni hisoblanadi. Qissada befarzand hukmdor, Farhod, Shirin, Shopur, Xon (Xusrav), savdogarlar, qaroqchilar, toshkesar hunarmandlar, shum kampir obrazlari uchraydi. Mehinbonu obrazi o‘rniga Shirinning onasi obrazi kiritilgan. Mulkoro, Boniy, Moniy, Qoran, Suhaylo, Xizr, Suqrot, Sheruya obrazlari sujetdan tushib qolgan. Ismi noma’lum qissago‘y doston syujetiga ayrim o‘zgartirishlar, masalan, yetti qasr qurilishi, Shirinning rasmi kabi yangi epizodlar, Shiringa oshiq bo‘lgan savdogar, kiyik obrazlarini kiritgan va asarning yanada qiziqarli bo‘lishiga erishgan. Bular quyidagilar:

1. Ovga chiqqan xoqon bir kiyikni ko‘rib qoladi, uni tiriklay tutib, Xudodan tilab olgan farzandi Farhodga bermoqchi bo‘ladi. Kiyik ovchilarning ustidan sakrab o‘tib, tog‘ tepasidagi bir chodirga kirib ketadi. Kiyikni yolg‘iz ta’qib etib kelayotgan Xoqon chodirga kiradi va to‘rda kiyikni bag‘riga bosib, erkalab o‘tirgan bir devonasifat kishiga ko‘zi tushadi. U bilan suhbatlashadi, nega tog‘ning tepasida yolg‘iz yashayotgani bilan qiziqadi. “Men bir vaqtlar juda boy savdogar bo‘lganman. Junon hukmdori go‘zal qizining rasmini chizdirgan ekan. Junon o‘lkasiga borganimda o‘sha rasmni ko‘rib malikaga oshiq bo‘ldim, es-hushimdan, boyliklarimdan ayrildim. Rasmdan bir nusxa oldirib, shu tog‘ga joylashdim. Har safar malikaning rasmiga qarasam, hushimdan ketaman”, – deydi va Xoqondan bu yerga kelishining sababini so‘raydi. Xoqon ovga chiqqanini va

kiyikni ko‘rib, tiriklay ushlashni istaganini, izidan yolg‘iz quvib kelib, shu chodirga duch kelganini aytib beradi. Rasmni unga ham ko‘rsatishini iltimos qiladi.

2. Xoqon qizning rasmini ko‘rib, hushidan ketadi va yerga yiqiladi. O‘ziga kelgach, u odamdan rasmni so‘rab oladi. Saroyga qaytgach, hech kim bilan gaplashmay qo‘yadi, ertadan kechgacha rasmga tikilib o‘tiraveradi. Vazirlari xoqonning qo‘lidan rasmni olib qo‘yadilar, xazinadagi bir sandiqqa solib, qulflab qo‘yadilar. Shundan keyin hukmdor o‘ziga keladi, davlat ishlariga qaytadi.

3. Farhod besh yoshida o‘n besh yoshli boladay yirik bo‘ladi. Maktabga borib ikki yilda hamma bilimlarni va 72 ta tilni o‘rganadi.

4. Farhod 7 yoshida Shirin ismli qizni tushida ko‘rib, oshiq bo‘lib qoladi, ishq dardiga chalinadi.

5. Ota o‘g‘lini g‘alati darddan xalos qilish uchun tabiblarga murojaat qiladi, tabiblar turli joylarda yettita saroy qurdirib, ularni naqsh-u nigor bilan bezatib, har kun ularda Farhod uchun ziyofat berishni, ov va sayohatga chiqishni tavsiya qiladilar.

6. Farhod ovda ham, qurilishda ishlaganida ham hech kimga gapirmaydi.

7. Farhod yettinchi qasrga kirganida bir sandiqqa ko‘zi tushadi va ichida nima borligini so‘raydi. Sandiqda saqlanayotgan Shirinning rasmini ko‘rib, hushidan ketadi.

8. Dardning davosini topa olmagan olimlar: “Oshiqning shifosi – vasldir”, – deb xasta Farhodga Junonga borishni tavsiya qiladilar.

9. Farhod Junon yurtiga besh yuzta maktabdosh do‘stlari bilan otlanadi.

10. Junon yurtining hukmdori o‘lib, o‘rniga qizi Shirin taxtga o‘tiradi.

11. Uch mingta toshkesar uch yildan beri tog‘ning tepasiga suv keltirib, u yerda saroy qurish, yana bir bog‘cha barpo qilish niyatida samarasiz ishlardilar.

12. Farhod ariqni uch kunda qazib tayyor qiladi.

13. Farhod tog‘ etagida chiroyli uylar quradi, ularni naqshlar bilan bezaydi. Shiringa uylanib, shu uylarda yashay boshlaydi.

14. Shiringa bir necha marta sovchi qo‘yib, “Qizimiz hali yosh” degan rad javobni olgan qo‘shni davlat hukmdorining o‘g‘li otasini o‘ldirib, taxtga o‘tiradi va takror sovchi jo‘natadi.

15. Xon Shirinning mamlakatiga qo‘shin tortib keladi, urush boshlanganida Farhod shaharda emasdi, tog‘dagi uyida edi. Shopur unga xabar beradi. Farhod, qurol-aslahalarini olib, vodiyga tushib keladi va bir o‘zi qo‘shinni yengadi.

16. Xon Shiringa sovchi jo‘natadi, agar to‘yga rozilik bermasa, g‘orga qamab qo‘yilgan Farhodni o‘ldirishini aytadi. Har safar Shirin xastaligini bahona qilib, sovchilarni qaytaradi.

17. Bir shum kampir Shirinning kasal emasligini Xonga yetkazadi.

18. Xon Farhodning jasadini Shiringa beradi.

19. Qizining Farhod jasadini quchoqlab jon berganini ko‘rgan ona zor-zor yig‘laydi. Oshiqlar uchun bitta qabr qazdirib, ikkisini bitta mozorga ko‘mdiradi.

Shubhasiz, “Shirin” uyg‘ur xalq qissasi Alisher Navoiy asarlarining Sharqiy Turkistonda yashagan uyg‘ur, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz va taranchilar orasida naqadar mashhur bo‘lganini isbotlovchi nodir asardir. Umar Boqiy [11], Mahzun [4], Mir Maxdum qissaları [10] va muallifi noma’lum “Qissayi shahzoda Farhod va Shirin” qo‘lyozmasi [3] qatorida bu asarni ham o‘zbek kitobxoniga taqdim etish matnshunoslarimiz, navoiyshunoslarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Афзалов М. “Фарҳод ва Ширин” достонининг халқ варианти ҳақида. Филол. фан. номз... дис. – Тошкент, 1950. 91 б.

2. **Маҳзун. Қиссаи шаҳзода Фарҳод ва Ширин. Тошбосма. – Тошкент: Ғуломия матбааси, 1905. ЎзР ФА ШИ Ҳамид Сулаймон фонди. Инв** № 683. 118 **б**.

3. Маллаев Н. Навоий ижодиётининг халқчил негизи. – Тошкент: Ўқитувчи, **1980.** 115 б.

4. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, **1974.** 384 б.

5. **Маллаев Н. “Фарҳод ва Ширин” достонининг Умар Боқий томонидан ишланган халқ китоби варианти // Адабий мерос, 1973. №3** Б.135–147.

6. Radloff W. Proben der Volkslitteratur der Nordlichen Turkischen Stamme .-Sankt-Peterburg,1886, VI Theil: der Dialect der Tarantschi. p.291.

7. Тожибоева О. “Фарҳод ва Ширин” достонининг халқ варианти. / Шарқ машъали. – Тошкент, 2012. № 1. – Б. 34–37.

8. **Тожибоева О. Алишер Навоий “Хамса”сининг насрий баёнлари: тамойил, мезон ва услуб. – Тошкент: “Nodirabegim”, 2020.** 170 б.

9. **Фарҳод ва Ширин. Қиссалар. Қўлёзма. Б** 1–151. 386 б. ЎзР ФА ШИ Ҳамид Сулаймон фонди. **инв №2822/И.**

10. **Умар Боқий. Қиссаи Фарҳод ва Ширин. Қўлёзма. ЎзР ФА ШИ Ҳамид Сулаймон фонди. Инв** № 1184. 27 **б.**

11. **Эркинов С. Алишер Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин”и ва унинг қиёсий таҳлили. – Тошкент: Фан, 1971.** 276 б.

Ulug‘bek SANAQULOV,
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU Urgut filiali o‘qituvchisi
Muhayyo SHERMATOVA,
Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DAGI ADABIY PARCHALARNING JANRIY TARKIBI VA MAZMUNI

Annotatsiya: ushbu maqolada Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi adabiy parchalar va ularning janriy tarkibi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asardagi turli janrlar, jumladan, she’r, hikmat, maqol, topishmoq va ertaklarning janriy xususiyatlari, o‘ziga xos badiiy ifoda vositalari hamda ularda o‘sha davr turkiy xalqlar hayoti, madaniyati va dunyoqarashining aks ettirish jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Mahmud Qoshg‘ariy, “Devonu lug‘otit-turk”, folklor, turkiy adabiyot, maqollar, to‘rtliklar, afsona, marsiya, qadimiy urf-odatlar.

Аннотация: данная статья посвящена анализу произведений из произведения Махмуда Кашгари «Девону луготит турк» и их жанрового состава, идейно-художественных особенностей. В ней рассматриваются жанровые особенности различных жанров, в том числе стихотворений, изречений, пословиц, загадок и сказок, своеобразные средства художественной выразительности и их роль в отражении жизни, культуры и мировоззрения тюркских народов того времени.

Ключевые слова: Махмуд Кашгари, «Девону луготит-турк,» фольклор, тюркская литература, пословицы, четверостишия, легенда, марсия, древние обычаи.

Annotation: this article is devoted to analyzing the works in Mahmud Kashgari’s “Dīwān Lughāt al-Turk” and their genre composition, as well as their ideological and artistic features. It examines the genre characteristics of various genres, including poetry, wisdom, proverbs, riddles, and fairy tales, their unique means of artistic expression, and their role in reflecting the life, culture, and worldview of the Turkic peoples of that period.

Key words: Mahmud Kashgari, “Dīwān Lughāt al-Turk,” folklore, Turkic literature, proverbs, quatrains, legend, marsiya, ancient customs.

Kirish. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari XI asrda (1067/1068) yaratilgan Qoraxoniylar davrining noyob ilmiy va badiiy manbasi hisoblanadi. Rus olimi V.V.Bartoldning yozishicha, o‘sha davrdagi Koshg‘ar aholisi turkiy tilning eng “go‘zal lahjasi bo‘lgan xoqoniya turkchasida so‘zlashar edilar”. Shu bois buyuk olim o‘n yillarcha turkiy qavmlar yashaydigan o‘lkalarda sayohatda bo‘lib, turkiy qavmlarning tili, adabiyoti, balki geografiyasi, musulmonlikdan oldingi urf-odatlari va diniy tasavvurlari haqida ham ko‘p materiallar to‘plagan.

Asosiy qism. Ma’lumki, maqollar xalqning turmush-tarzini, ularning orzu-intilishlari, qolaversa ruhiy kechinmalarini teran ifodalaydigan mustaqil janr hisoblanadi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy qavmlarning turmush-tarzi va maishiy hayotini aks ettirgan maqollarni o‘zida jamlagan. Asar davomida Koshg‘ariy keltirgan maqollarning asosiy mavzulari mehnatsevarlik va dangasalik, yaxshilik va yomonlik, donolik va nodonlik hamda vafodorlik, insonning qadr-qimmati kabi mavzularni o‘z ichiga oladi. Mahmud Koshg‘ariynig qalamiga mansub “Devonu lug‘atit turk” asaridagi maqol janri boshqa janrlardan o‘ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Xususan, asarda keltirilgan “Erik erni yag‘lig‘, ermagi boshi qanlig‘” maqolining asl ma’nosi “Tirishqoqning labi yog‘lig‘, ernichoqning boshi qonlig‘” bo‘lib, maqolda keltirilgan asosiy ma’no tirishqoq, mehnatdan qochmaydigan insonning hamisha rizqi butun bo‘lishi, ishyoqmas dangasa odamning esa ishlari orqaga ketib, oxir-oqibat boshi kulfatdan chiqmasligi haqida so‘z boradi. Bu maqollar bugungi kunda yalqovlikni tashlashga va g‘ayrat bilan mehnat qilishga da’vat qiladi. “Quruq qoshuq og‘izga

jaramas, quruq so‘z quloqqa jaqishmas” (Quruq qoshiq og‘izga yaramas, quruq so‘z quloqqa yoqmas). Quruq qoshiqni og‘izga solgan bilan hech qachon qorin to‘ymaydi, quruq so‘zni aytgan bilan u insonlarga hech qanday naf keltirmaydi. “Besh erangak tuz ermas” (Besh qo‘l barobar emas) maqoli jamiyatdagi insonlarning bir-biridan farq qilishi, ularning xarakter-xususiyatlari hamda xohish-istaklarning o‘zgacha talqin qilinishi bilan ifodalanadi. “Kishi allasi ichtin, yilqi alasi tastin (odam olasi ichida yilqiniki sirtida) maqolida ifodalangan ma’no insonning qanday ekanligini uning yuzidan bilib bo’lmaydi, lekin yilqini qandayligini uning sirtidagi dog‘lardan, ya’ni allasidan osongina farqlash mumkin. Hozirgi kunda odamning olasi ichida maqoli aynan shu ma’noda keladi.

“Devonu lug‘otit turk” asarida hikoya, ertak va doston janrlari unsurlarining uchrashi uning badiiy ahamiyatini oshiradi. Asar orqali qadimgi turkiy xalqlarning adabiy tafakkuri, ma’naviy dunyosi va xalq og‘zaki ijodi namunalari bugungi avlodga yetib kelgan. Ayni paytda “Devon”dagi ba’zi she’riy parchalar ma’lum bir ijodkor qalamiga mansub ekanligini Koshg‘ariyning ishorasidan bilish mumkin. Koshg‘ariy ko‘p o‘rinlarda “shoir aytadi” iborasini ishlatadi va bir to‘rtlik keltiradi:

Izimni o‘karman,
Bilikni yugarman.
Ko‘ngulni tugarman,
Erdam uza turgunur.

(Shoir aytadi: Egamni maqtayman, uning madadi bilan ilmni yig‘aman. Ko‘ngilni shunga bog‘layman, ilmu hunar to‘plashga ko‘nglim berilgandir).

Bundan tashqari, ilm manfaati haqidagi to‘rtliklar, qolaversa fardlar ham bevosita yozma adabiyotning mahsuli, ya’ni ma’lum bir shoir ijodiga mansub deyish mumkin. Jumladan, ilm manfaati haqidagi o‘gitlar Qoraxoniylar davri adabiyotining muhim xususiyatlarini aks ettiradi:

O‘gran aning biligin,
Kunda angar bam.
Qutqilig‘in taping‘il
Qo‘zg‘il kuvaz naru.

(Agar bilimdon odamga yo‘liqsang, har kun unga bor, yaxshi muomala bilan uning ilm-u hikmatlarini o‘rgan, takabburlikni tashla).

“Devon”da Mahmud Koshg‘ariy qadimgi afsonalardan ham namunalar keltirgan. Shu afsonalarning biri – “Oltin qon”, shuningdek, yil hisobi to‘g‘risidagi afsonadir. Shuningdek, bulardan tashqari, Xudxur viloyatiga nom qo‘yilishi (1, 135-b.), chigil qabilasiga Iskandar Zulqarnayn nom qo‘ygani haqidagi kichik afsonalar (1, 374-b.) ham bor. Yil hisobi to‘g‘risidagi afsona turkcha o‘n ikki muchal yillarining paydo bo‘lish tarixiga oiddir. Afsonaning mazmuni shunday: Turk xoqonlaridan biri o‘zidan bir necha yil oldin bo‘lib o‘tgan urushni o‘rganmoqchi bo‘lgan, shunda u urush bo‘lib o‘tgan yilni aniqlashda yanglishgan. Bu masala yuzasidan (xoqon) qavmi bilan kengashdi va aytdi: “Biz bu tarixni (aniqlashda) qanchalik yanglishgan bo‘lsak, bizdan keyin ham shunday yanglishadilar. Shunday bo‘lgach, biz endi o‘n ikki oy va osmondagi o‘n ikki burjga asoslanib, o‘n ikki yilga ot qo‘yishimiz kerak, toki bizdan keyin yil hisobi shu yillarning aylanishiga qarab olinsin va bu narsa abadiy bir yodgorlik bo‘lib qolsin”. Ular “aytganingizday bo‘lsin”, dedilar. Xoqon ovga chiqdi va odamlarga vahshiy hayvonlami Ili daryosi tomon quvishni buyurdi, bu juda katta suv. Odamlar ov qilib, hayvonlarni suv tomon hayday boshladilar. Shunda o‘n ikki hayvon suvdan o‘tdi. O‘n ikki yilni ana shu o‘n ikki hayvon ismi bilan atadilar. Eng oldin suvdan o‘tgan hayvon sichg‘an (sichqon) bo‘ldi. Shuning uchun yil boshini uning nomi bilan ataldi, shu so‘zga yil qo‘shib, sichg‘an yili (sichqon yili) deb atadilar. Undan keyin o‘tganlari quyidagi tartibda bo‘ldi va ularning har biri bir yil uchun ism bo‘lib qoldi: ud yili (sigir yili), bars yili (yo‘lbars yili), tavishgan yili (quyon yili), nek yili (timsoh yili), yilan yili (ilon yili), yundyili (ot yili), qoy yili (qo‘y yili), bichin yili (maymun yili), taqag‘uyili (tovuqyili), it yili (it yili), tongizyili (to‘ng‘iz yili). To‘ng‘izga yetgandan keyin hisob yana sichqondan boshlanadi.

Koshg‘ariy afsonani hikoya qilib bo‘lgach, qadimgi turkiylarda yil hisobi quyidagi tartib bilan yuritilishini ko‘rsatadi: sichqon yili; sigir yili; bars yili; quyon yili; timsoh yili; ilon yili; ot yili; qo‘y yili; maymun yili; tovuq yili; it yili; to‘ng‘iz yili (1, 234). Bu afsonaning diqqatga sazovor tomoni shundaki, qadimgi Xitoy afsonalari tarkibida ham mazkur afsona o‘rin olgan. Xitoy xalqida bu afsona Budda bilan bog‘liq. Xitoy manbalarida rivoyat qilinishicha, Budda yer yuzini tark etishdan oldin huzuriga hamma hayvonlami chaqiribdi. U bilan xayrlashgani o‘n ikki hayvon kelibdi, xolos. Kelgan hayvonlarni mukofotlash uchun Budda, men chaqirganimda navbat bilan kelganingiz bo‘yicha yillarga nom beraman, debdi. Hayvonlar

birinchi bo‘lib kim kelgani to‘g‘risida bahslasha boshlabdilar. Oxiri, bir to‘xtamga kelish uchun musobaqa uyushtirishga qaror qilibdilar: daryoning narigi qirg‘og‘iga birinchi bo‘lib o‘tgan hayvonning nomi bilan birinchi yil ataladigan bo‘libdi. Navbatdagi yillar esa daryoni birin-ketin kechib o‘tgan hayvonlar nomi bilan atalishiga qaror qilishibdi. Nihoyat, o‘n ikki jonzot qirg‘oqqa tizilibdi va baravar suvga o‘zlarini tashlabdilar. Kalamush darrov ho‘kizning ustiga minib olibdi, ho‘kiz esa hech narsani sezmabdi. Ho‘kiz boshqa hamma hayvonlardan oldinga ketib, daryoning narigi qirg‘og‘iga chiqishga tayyorlanibdi. Shu lahzada kalamush uning ustidan sakrabdi-da, qirg‘oqqa ho‘kizdan bir necha soniya oldin chiqibdi. Shunday qilib, kalamush birinchi bo‘lib chiqqan hisoblanibdi. Qolgan hayvonlar quyidagi tartibda suzib o‘tibdilar: yo‘lbars, quyon, ajdar, ilon, ot, qo‘y, maymun, xo‘roz, it. To‘ng‘iz nihoyatda sustkash va dangasa ekan, shuning uchun eng oxirida qirg‘oqqa yetib kelibdi. Mazkur afsona bilan Mahmud Koshg‘ariy keltirgan afsonadagi yil hisobining nomlari va tartibida katta farq yo‘q. Ehtimol, Xitoyga buddaviylik kirib kelgandan keyin, qadimgi turklar afsonasini o‘zlashtirgan bo‘lishlari mumkin. Shuningdek, “Devonu lug‘otit-turk”da munozara (Yoz va Qish munozarasi) janri, Alp Er To‘ngaga va yana bir noma’lum qahramonga bag‘ishlangan marsiya ham bor. Agar Abdurauf Fitrat “Devonu lug‘otit-turk”dagi to‘rtliklar asosida tiklagan dostonlar ham e’tiborga olinsa, qadimgi turkiy adabiyotda janrlar rang-barangligiga guvoh bo‘lish mumkin. Ayniqsa, Alp Er To‘nga haqidagi marsiyalar va qahramonlik ruhidagi she’riy parchalar doston janrining qadimgi namunalaridan biri sifatida muhim o‘rin tutadi. Ushbu parchalar orqali xalqning jasorat, vatanparvarlik va birlik haqidagi qarashlari aks ettirilgan. Shuningdek, maqollar va hikmatli so‘zlarda xalqning donoligi, hayotiy tajribasi hamda axloqiy qarashlari ifodalangan. Bu esa asarning g‘oyaviy mazmunini yanada boyitadi.

Asarning badiiy xususiyatlari ham alohida e’tiborga molikdir. Unda xalqona til, obrazli ifodalar, o‘xshatish va mubolag‘a kabi badiiy vositalardan mahorat bilan foydalanilgan. Shu sababli asar o‘quvchiga nafaqat ilmiy ma’lumot beradi, balki estetik ta’sir ham ko‘rsatadi. Mahmud Koshg‘ariy xalq og‘zaki ijodi namunalarini tabiiy holda keltirib, turkiy xalqlarning badiiy tafakkurini yuksak darajada yoritib bergan. Bundan tashqari, “Devonu lug‘otit turk” bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Asar tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix va folklorshunoslik fanlari uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Olimlar ushbu asar orqali qadimgi turkiy til xususiyatlari, xalqning urf-odatlari, dunyoqarashi va madaniyatini o‘rganmoqdalar.

Xulosa. Mahmud Koshg‘ariyning ushbu asari turkiy xalqlarning bebaho ma’naviy merosi sifatida jahon ilm-fanida muhim o‘rin egallaydi. Xulosa qilib aytganda, Mahmud Koshg‘ariy tomonidan yaratilgan “Devonu lug‘otit turk” turkiy xalqlarning tili, adabiyoti, madaniyati va ma’naviy hayotini o‘rganishda bebaho ilmiy manba hisoblanadi. Ushbu asar nafaqat lug‘at sifatida, balki xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘zida mujassam etgan badiiy yodgorlik sifatida ham katta ahamiyatga ega. Asarda maqol, hikmatli so‘zlar, she’riy parchalar, rivoyat, hikoya va doston unsurlarining keng qo‘llanilishi turkiy xalqlarning boy adabiy merosini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B., Mamajonov S. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, 2010. 112-125-b.
2. Mirzayev, M. M. “Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida folklor janrlari.” Til va adabiyot ta’limi” 56-65-b.,(2022).
3. Nurmatova, N. N. “Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘atit turk” asarida badiiy tasvir vositalari.” O‘zbek tili va adabiyoti” 215-256-b., (2023).
4. Mahmud Koshg‘ariy “Devoni lug‘oti at-turk” asari 1-jild 393-397-b.
5. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 1976. 38-52-b.
6. Raxmonov N. “O‘zbek adabiyoti tarixi”. – Toshkent, 2017. 185-189-b.

Ruxsora MURODOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
ruxsoramurodova1311@gmail.com

“RAVZAYI ASROR” DOSTONIDA ZULAYHO OBRAZINING POETIK VA FALSAFIY-TASAVVUFIY TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan “Yusuf va Zulayho” syujetining genezisi, evolyutsion taraqqiyot bosqichlari va badiiy transformatsiyasi tadqiq etiladi. Syujetning qadimgi Misr yozma yodgorliklaridagi arxetipik asoslari, Tavrot (“Ibtido”) va Qur’oni Karimdagi (“Yusuf” surasi) teologik talqinlari hamda klassik sharq she’riyatidagi tasavvufiy konseptualizatsiyasi qiyosiy-tarixiy va mifopoetik metodlar asosida tahlilga tortilgan. Tadqiqotda XIX asr o‘zbek dostonchiligining o‘ziga xos namunasi — Mirzo Olim Devonaning “Ravzayi asror” dostoni tadqiqot obyekti sifatida belgilangan bo‘lib, unda Zulayho obrazining poetik va falsafiy-tasavvufiy evolyutsiyasi, xarakter dinamikasi va botiniy psixologizmi yoritilgan. Shuningdek, asardagi poetik timsollar tizimi struktural-funksional jihatdan tahlil etilib, obrazning komillik sulukidagi o‘rni Jomiy va Navoiy an’analari kontekstida qiyosiy-tipologik jihatdan tahlillangan.

Kalit so‘zlar: *“Ravzayi asror”, Zulayho obrazi, genezis, arxetip, teologik diskurs, tasavvuf, poetik timsol, Mirzo Olim Devona.*

Аннотация: в данной статье исследуются генезис, этапы эволюционного развития и художественная трансформация сюжета «Юсуфа и Зулейхи», широко распространенного в литературе народов Востока. Архетипические основы сюжета в древнеегипетских письменных памятниках, богословские интерпретации в Торе («Бытие») и Священном Коране («Сура Юсуф»), а также мистическая концептуализация в классической восточной поэзии анализируются с использованием сравнительно-исторических и мифопоэтических методов. В качестве объекта исследования выбран уникальный пример узбекской эпической поэзии XIX века — эпическая поэма Мирзо Олим Девоны «Равзай асрор», в которой освещается поэтическая и философско-мистическая эволюция образа Зулейхи, динамика характера и внутренний психологизм. Также структурно и функционально анализируется система поэтических символов в произведении, а место образа в «паразите совершенства» анализируется сравнительно и типологически в контексте традиций Джами и Навои.

Ключевые слова: *«Равзай Асрор», образ Зулейхи, генезис, архетип, богословский дискурс, суфизм, поэтический символ, Мирзо Алим Девона*

Annotation:this article examines the genesis, evolutionary development stages and artistic transformation of the plot of “Yusuf and Zulaykha”, which is widespread in the literature of the peoples of the East. The archetypal foundations of the plot in ancient Egyptian written monuments, theological interpretations in the Torah (“Genesis”) and the Holy Quran (“Yusuf” Surah), and mystical conceptualization in classical Eastern poetry are analyzed using comparative-historical and mythopoetic methods. The study identifies a unique example of 19th-century Uzbek epic poetry — Mirzo Olim Devona’s epic “Ravzai asror” — as the object of research, in which the poetic and philosophical-mystical evolution of the image of Zulaykha, character dynamics and inner psychologism are highlighted. Also, the system of poetic symbols in the work is analyzed structurally and functionally, and the place of the image in the leech of perfection is analyzed comparatively and typologically in the context of the traditions of Jami and Navoi.

Key words: *“Rawzai asror”, the image of Zulaykha, genesis, archetype, theological discourse, mysticism, , poetic image, Mirzo Alim Devona.*

Klassik Sharq adabiyoti xronologiyasida o‘zining ko‘p variantliligi, falsafiy-boqiyligi va semantik qatlamlarining ko‘p qirraliligi bilan ajralib turuvchi etalon syujetlardan biri “Yusuf va Zulayho” qissasidir. Mazkur syujet nafaqat muayyan bir xalq yoki davr adabiy tafakkurining mahsuli, balki transmadaniy

va dinlararo integratsiyaga ega bo‘lgan universal mifologik-teologik paradigmadir. Adabiyotshunoslik fani nuqtayi nazaridan “Yusuf va Zulayho” turkumi deganda, ilohiy jamol, mutloq iymon va iffat sadoqati determinanti bo‘lgan Yusuf hamda insoniy (majoziy) ishq mantiqi orqali transsendent (haqiqiy) muhabbat darajasiga ko‘tarilgan Zulayho obrazlari atrofida shakllangan epik va lirik asarlar tizimi tushuniladi. Ushbu adabiy an’ana Firdavsiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar tomonidan davrning falsafiy-estetik prinsiplari hamda tasavvufiy-erfoniy qarashlari asosida izchil ravishda qayta ishlanib kelindi. Ushbu an’ananing kechki davr (XIX asr) o‘zbek mumtoz adabiyotidagi o‘ziga xos evristik va poetik davomini Mirzo Olim Devonaning “Ravzayi asror” dostonida ko‘rish mumkin.

XIX asr o‘zbek dostonchiligida an’anaviy syujetlarni yangicha ijtimoiy-falsafiy va ruhiy qirralar bilan boyitish tamoyili yetakchilik qilgan. Mirzo Olim Devona ham o‘zidan oldingi epik tajribalarga tayanib, doston kompozitsiyasini individual badiiy niyat asosida qayta shakllantirgan. Maqolaning maqsadi “Ravzayi asror” dostoni misolida Zulayho obrazining an’anaviy qoliplardan farqli ravishda namoyon bo‘lgan yangi poetik hamda falsafiy-irfoniya qatlamlarini, uning xarakteridagi ichki evolyutsiya va ruhiy katarzis bosqichlarini aniqlash hamda ilmiy asoslashdan iborat.

Zulayho obrazining adabiy genezisi tizimli tahlil qilinganda, uning ilk arxetipik elementlari miloddan avvalgi XIII asrga oid qadimgi Misr yozma yodgorligi — “Ikki birodar ertagi” (Bata va Anpu haqida) matniga borib taqalishi ma’lum bo‘ladi. Mazkur mifologik matnda xotinning o‘z qaynisiga (Bataga) nisbatan bo‘lgan rad etilgan ehtirosi va undan keyingi tuhmat motivi keyinchalik “Yusuf va Zulayho” syujetining kompozitsion karkasini shakllantirgan. Biroq bu bosqichda obrazda falsafiy-ma’naviy yuk mavjud bo‘lmay, u sof salbiy-funksional, destruktiv xarakterga ega edi.

Syujetning ilk teologik va yozma-tarixiy fiksatsiyasi iudaistik an’anada, aniqrog‘i, Tavrotning “Ibtido” (Genesis) kitobi (37-50-boblar) tarkibida uchraydi. Bibliya diskursida Yusufning axloqiy pokligi va sadoqati dinni saqlash kontekstida markazlashtiriladi, saroy amaldori Potifarning xotini esa sof maishiy, axloqsizlik va vasvasa timsoli sifatida qoralanadi. Bu matnda qahramonning shaxsiy ismi keltirilmaydi, uning harakatlari esa faqat psixologik instinkt darajasida baholanadi.

Islomiy va sharqona konseptualizatsiyaning boshlanishi Qur’oni Karimning “Yusuf” surasi (111 oyatdan iborat yagona butun qissa) bilan bog‘liq bo‘lib, u muqaddas matnda “Ahsan ul-qasas” (Qissalarning eng go‘zali) maqomini olgan. Qur’on matnida ham obraz ismi bevosita berilmay, “Azizning xotini” (Imraat ul-Aziz) shaklida ifodalanadi. Tabariy, Ibn Kasir va Bayzoviy kabi klassik mufassirlarning tafsirlarida bu ayolga “Zulayho” ismi berilib, uning harakati nafaqat dunyoviy ehtiros, balki inson irodasining ilohiy taqdir va nafs imtihoni qarshisidagi ojizligi nuqtayi nazaridan ontologik talqin qilinadi.

Tasavvufiy tafakkur esa (ayniqsa, Ibn Arabiy va Jaloliddin Rumiy qarashlarida) Zulayhoning majoziy ishqini haqiqiy ishqqa o‘tishdagi zaruriy bosqich — *“al-majozu qantaratul haqiqah”* (Majoz — haqiqat ko‘prugidir) formulasiga muvofiq konseptualizatsiya qildi.

Fors-tojik adabiyotida syujetni to‘liq tasavvufiy-metafizik darajaga ko‘targan asar Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostonidir. Jomiy poetikasida Yusuf — Mutloq Go‘zallik (Jamoli Haq) ning tajallisi, Zulayho esa — ushbu Ilohiy jamolga intiluvchi Inson Ruhi (Solik) simvolidir. Jomiyda Zulayho o‘z sevgisi yo‘lida mislsiz azoblar chekadi, barcha narsasidan kechadi va uning jismoniy dunyodan uzilib, botiniy dunyoga ko‘chishi lirik-falsafiy planda tasvirlanadi.

Turkiy adabiyotda Qul Ali, Durbek va Andaliblar ijodida rivojlangan ushbu an’ana Alisher Navoiy tomonidan o‘ziga xos tarzda umumlashtirildi. Navoiy talqinida didaktik-axloqiy yo‘nalish va insoniy fojia sotsial-ma’naviy jihatdan chuqurroq muvozanatga solinadi. Navoiy Zulayhoni ko‘proq axloqiy saboq manbayi, ishqning qudrati va inson shaxsini tarbiyalovchi ilohiy kuch sifatida ko‘rsatadi. Jomiyda ontologik transfiguratsiya (Zulayhoning mo‘jizaviy tarzda yosharishi) yetakchi bo‘lsa, Navoiy asarning falsafiy-estetik yakunida axloqiy va iymoniy poklanishga ko‘proq urg‘u beradi.

XIX asr ijodkori Mirzo Olim Devonaning “Ravzayi asror” dostonida Zulayho obrazi shunchaki an’ananing takrori emas, balki qahramon ruhiyatining ichki dinamikasi va kognitiv o‘zgarishlari bilan boyitilgan yangi bosqichidir. Doston kompozitsiyasining

markaziy o‘qi — Zulayho xarakterining lirik hamda tasavvufiy evolyutsiyasidir.

Dostonda Zulayho obrazi statiklikdan dinamiklikka qarab rivojlanadi. U dastlabki epizodlarda moddiy-zohiriy dunyo, ya’ni nafs, ijtimoiy mavqe va jismoniy go‘zallik asirasi sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq Yusuf shaxsida aks etgan ilohiy nurning va uning sadoqatining ta’siri natijasida Zulayho qalbida tub burilish yuz beradi. U zohiriy (majoziy) muhabbat doirasidan chiqib, botiniy (haqiqiy) muhabbat iqlimiga qadam qo‘yadi. Devona bu jarayonni tasavvufdagi “muhabbat suluki” (ruhiy yuksalish va nafsni yengish yo‘li) sifatida tasvirlaydi.

“Ravzayi asror” poetikasida Zulayho obrazining lirik va falsafiy mohiyatini ochishda muallif quyidagi tizimli poetik mikrotimsollar tizimidan unumli foydalangan. Matnda Zulayhoning to‘kkan ko‘z yoshlari shunchaki hissiy iztirob yoki baxtsizlik belgisi emas. U solikning (Haq yo‘lchisining) nafs g‘uborlaridan poklanish vositasi, qalbning dunyoviy narsalardan uzilish timsolidir. Dunyoviy boylik, dabdaba va nafs istaklari bilan to‘la mahobatli saroy inson qalbining vasvasalar, xayollar va illyuziyalar bilan band bo‘lgan g‘ofillik holatini ramziylashtiradi. Bu qasrdan chiqish — dunyoviy bog‘liqliklardan voz kechish demakdir. Yusuf nuri esa qorong‘u qasrni va Zulayhoning g‘ofil qalbini yorituvchi nur — ilohiy haqiqat sadosi, inson ruhini dunyo uyqusidan uyg‘otuvchi ma’naviy ishoradir.

Mirzo Olim Devona talqinining o‘ziga xos ilmiy yangiligi shundaki, unda Zulayhoning fojiasi va jismoniy inqirozi (uning qarishi, ko‘r bo‘lishi, mol-mulkini yo‘qotishi) asli mukofot — ya’ni uning o‘z nafsi ustidan qozongan mutlaq g‘alabasidir. Muallif qahramonning ko‘r bo‘lishini majoz va zohir pardasining yemirilishi deb bilsa, Yusuf duosi bilan uning qayta yosharishi va ko‘zining ochilishini — haqiqatni (Jamoli Haqni) ko‘rishga qodir bo‘lgan botiniy qalb ko‘zining faollashuvi sifatida germenevtik va ramziy talqin qiladi.

“Yusuf va Zulayho” syujeti Sharq kognitiv va adabiy tafakkurida izchil va dinamik taraqqiyotga ega bo‘lgan universal adabiy-falsafiy fenomendir. Syujetning genezisi qadimgi Misr mifologik tafakkuriga borib taqalsa-da, u Tavrot va Qur’on kabi teologik filtrlardan, so‘ngra irfoniy-tasavvufiy talqinlardan o‘tib, sof falsafiy xarakter kasb etdi.

Mirzo Olim Devonaning “Ravzayi asror” dostoni an’anaviy sharqona syujetlar kechki davr turkiy adabiyotida shunchaki epigonlik (taqlidchilik) asosida takrorlanmaganini, balki chuqur falsafiy-ruhiy transformatsiyaga uchraganini isbotlaydi. Dostonda Zulayho obrazi oddiy insoniy ehtiros obyektidan inson ruhining kamolot va Ilohiy haqiqatni tanish yo‘lidagi harakatlari ifodalangan. Devona o‘z dostonida majoz va haqiqat o‘rtasidagi dialektik munosabatni lirik-epik tasvirlar hamda chuqur badiiy psixologizm vositasida yangi estetik bosqichga ko‘tara olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзо Олим Девона Самарқандий. Равзаи асрор / Нашрга тайёрловчи И.Санаев. – Тошкент: Шарқ, 2019.343-б.

2. Жабборов Н. Жомийнинг “Юсуф ва Зулайхо” асари туркий таржимасига оид мулоҳазалар. / Абдураҳмон Жомий. – Тошкент: Қўлёзмалар институти, 1997, 172 -175-бетлар.

3. Санаев И. XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX асрнинг бошларида Зарафшон водийси адабий муҳити. – Т.: Tafakkur, 2009.

Hayotjon ABDULLAYEV,
Farg‘ona davlat texnika universiteti o‘qituvchisi

“ROHATI DIL” DOSTONINING BADIIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Xojanazar Huvaydoning “Rohati dil” dostoni badiiyati va uning g‘oyaviy ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Dostonning hajmi, undagi badiiy san’atlar hamda tasavvuf adabiyotidagi tutgan o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Xojanazar Huvaydo, “Rohati dil” dostoni, tasavvuf adabiyoti, didaktik doston, mumtoz adabiyot.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются художественные особенности и идейное значение поэмы Ходжаназара Хувайдо «Рохати дил». Анализируются объем произведения, используемые художественные средства, а также его место в суфийской литературе. В результате исследования выявляется значение поэмы в литературном процессе своего времени и её духовная ценность для современного читателя.

Ключевые слова: *Ходжаназар Хувайдо, поэма «Рохати дил», суфийская литература, дидактическая поэма.*

Annotation: this article explores the artistic features and ideological significance of Khojanazar Khuvaydon’s poem “Rohati Dil.” The study analyzes the poem’s length, the literary devices employed, and its role within Sufi literature. The findings highlight the importance of the poem in the literary process of its era and its spiritual value for today’s readers.

Key words: *Khojanazar Khuvaydo, poem “Rohati Dil,” Sufi literature, didactic poem, classical literature.*

Kirish. Huvaydo merosiga mansub “Ibrohim Adham” qissasi tasavvufiy ruhdagi asardir. Huvaydoning “Rohati dil” dostoni ham So‘fi Olloyor asarlari kabi musulmonlik aqidalariga bag‘ishlangan asardir. Unda shariat qoidalari, payg‘ambarlar hayoti, xususan, Hazrati Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam faoliyatlari bilan bog‘liq voqea-hodisalar badiiy yo‘sinda tasvirlanadi. Kitobxon komil axloq mezonlari bilan tanishtirib boriladi. Dostonda insoniyat moddiy boylik emas, balki ma’naviy boylik uchun intilishi kerakligidan ogoh etiladi. Shoir fikriga ko‘ra, bu yo‘ldan bormagan kishining hayvondan farqi qolmaydi.

“Rohati dil” asarining g‘oyasini insonning ichki dunyosini boyitish, islom shariati ruknlariga ongli ravishda chuqur e’tiqod bilan amal qilish kabi mavzular tashkil etadi. Ulardagi obrazlarning bir guruhi iymon, soflik, halollik, poklik, insoniylik, ikkinchi guruhi esa g‘azab, nafrat uyg‘otuvchi obrazlardir. Bir so‘z bilan aytganda, manzuma ko‘p asrlik adabiyotimizda qalamga olinib, tashviq-targ‘ib etib kelingan shariat yo‘riqlarini adabiy vositalar, obrazlar, she’r orqali xalqqa ta’sir o‘tkazishga bag‘ishlangan asardir. [2]

“Rohati dil” diniy-didaktik asar bo‘lib, unda islom va tasavvuf ta’limotining umuminsoniy g‘oyalari ibratli hikoyalar vositasida tahlil etiladi. Mol-dunyoga hirs qo‘yish, nafsga qul bo‘lishning oqibatlari, bilim olishning ulug‘ligi, ilm ahli izzatini o‘rniga qo‘yish; ota-ona oldidagi farzandlik burchini ado etib, roziligini olish; qo‘ni-qo‘shnilarning bir-biriga mehr oqibatli bo‘lishi; er-u xotinning bir-biriga mehr-muhabbatli, izzat-hurmatini joyiga qo‘yishi; riyokorlik, xiyonat, ta’magirlik, takabburlik, munofiqlik kabi inson tabiatidagi fazilat-u qusurlar asarning markazida turadi.

Ayni vaqtda ahli ummiy (avom) o‘rtasida islom dini ta’limotini, hadis hikmatlarini ibratli diniy rivoyat va hikoyatlar orqali targ‘ib qilishga, ularning diniy bilim va saviyasini ko‘tarishga, shariat ahkomlarini sodda va tushunarli tilda bayon etishga, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishga harakat qildi.[1]

“Rohati dil” dostoni 30 bobdan iborat bo‘lib, hamd va na’t bilan boshlangan. So‘ngra “Hikoyati tobuti Jabroil alayhissalom” bobi keladi. Hikoyatda aytilishicha, Jabroil alayhissalom Muhammad (s.a.v)ga bir tobut keltirib, bu o‘lim belgisi ekanini aytadi. Shunda Payg‘ambar o‘lim haqligiga iymon keltirish bilan birga, “Men bu dunyodagi barcha g‘arib-qurobolar bilan birgaman. Ularni razolatga tashlab, o‘zim Arshi a’loga keta olmayman, men ularga shafoat etishim, bu imtihon-duyodin o‘tishda haq yo‘lga yo‘llashim kerak” mazmunida javob beradi:

Dedi: – Yo Jabroyil, siz menga sirdosh,
Bu tobutni olib borgil, ayo yor.
Xudoyim va’da qildi manga bisyor…
G‘arib ko‘ngli sinuq bechoralarni…

Ushba hikoyat bayonidan so‘ng, Abubakr Siddiq, Umar Foriq, Usmon Nuran, Hazrat Ali va uning o‘g‘illari Imom Hasan, Imom Husayn haqida qisqa bayonnomalar keltirib, ular hayotining barcha mo‘minlarga ibratli bo‘lganini eslatadi. So‘ngra yuqorida zikr qilingan “Dar bayoni kitob” bobidan so‘ng Qiyomat kuni barcha o‘z gunohlari

uchun mas`ul mazmunida ikki bob bayon qilinadi, so‘ngra safarda uch qardosh “nafsi shaytoniy”ga asir bo‘lib, halok bo‘lganlari haqida maxsus hikoya aytiladi.

Doston tarkibida ancha mufassal bayon qilingan hikoyatlardan biri “Qissayi Ibrohim binni Adham”dir. Huvaydo bayonida bu qissa an’anaviy “Qissayi Ibrohim Adham”dan biroz farq qiladi. Asosiy syujet Ibrohim binni Adham voqealarini hikoya qilsa-da, Huvaydo Adham ismli cho‘pon, uning qabrda tirilgan shoh qizini ozod qilib, unga uylanishi, keyin esa Adhamning sulton bo‘lishi, nihoyat, mashhur voqea – tevachining o‘z tuyasini shohga qarashli tomlardan izlashi va u shohlikni tashlab ketishi voqealari bayon qilinadi. Adhamning o‘g‘li Ibrohim otasining daragini izlab ketishi, uni Makkada topib, o‘shal on vafot etgani va Adham umrini g‘ariblikda kechirgani bayon qilingan. Xojanazar Huvaydo asarda Adhamning qismatini shunday xulosalaydi:

Payambarning g‘aribligin qilib yod,
Xudo qilg‘ay ani do‘zaxdin ozod...
Umid uzdimki shohlikdin ilohim,
Zanu farzand etim qildim ilohim.
Agar ming pora qilsalar bu yo‘lda,
Qachon sandin ko‘nglum uzgum ilohim.
Qobis tog‘ing borib ul zamonda,
Necha yillar ibodat qildi onda.
Ki bir kun bordi shohi oliyhimmat,
Bu doriy bebinodin qildi rihlat.
Ul erni oxirat uyiga qo‘ydi,
“Ilayhi roji’un” ul dam o‘qudi.

“Rohati dil”dagi boshqa hikoyatlardan farqli ravishda “Ibrohim Adham” qissasi 440 baytdan iborat bo‘lib, undan tashqari, tarkibida Huvaydo nomidan olti mustaqil g‘azal ham keltirilgan. Ularning dastlabki to‘rttasi qahramon holini bayon qiluvchi, yoki uni boshqalarga aytgan so‘zlarini ifoda qiluvchi baytlardir. So‘nggi ikki g‘azal ham shoirning qissadan o‘zi chiqargan va o‘qiguvchi ham bilishi lozim bo‘lgan xulosa sanalgani uchun g‘azal maqta’sida shoir taxallusi keltirilgan:

G‘ofil ersang qil ibodat, berma dunyoga ko‘ngil,
Berdi dunyoga ko‘ngilni ahlikim ko‘tohlar.
Dunyo hasratxona erur, ey Huvaydo dunyodin,
Hasrat ila o‘tdilar ming-minglabo hamrohlar.

“Rohati dil” dostoni “Munojot ba jonibi qoziyu-l-hojat” (birga hojatlarning qozisi Allohga iltijo) bilan yakunlangan:

Xoliqo, jabr ayladim o‘z jonima,
Qo‘ymadim toat ta`omin xonima...
Na balo kelsa o‘zingdan roziman,
Munda g‘amgin onda beg‘am aylagil.
Bu Huvaydoyi g‘aribning holini,
Qilmag‘il san nafsi bodga mubtalo.

Asar o‘quvchilar qalbida eng nozik his-tuyg‘ularni uyg‘otadi, ularga hayotga muhabbat, iymonli, pok e’tiqod egasi bo‘lishga chorlanadi. Kitobda keltirilgan rivoyat va hikoyatlarning aksariyati o‘z manbaiga ega va ular tarixiy kitoblardan olingan. Shuningdek, asardagi turli qiziqarli va ibratomuz voqealar asar qahramonlarining taqdiri bilan mustahkam bog‘lanib ketadi. Har bir inson o‘z qilmishi, yurish-turishi va amallariga ko‘ra ma’lum bahoga sazovor bo‘ladi.

“Rohati dil” kitobini nashrga tayyorlagan insonlar tomonidan kitobning so‘ngida, ilova rukni ostida Salohiddin Soqib qalamiga mansub bo‘lgan “Kitobi Eshon Huvaydoyi Chimyoniy” kitobining chop etilish tarixi”, deb nomlangan, aruz she’r tizimida yozilgan va bir qarashda, Huvaydoning hayoti va ijodiga chizgilardek ko‘rinadigan hamda ayni vaqtda tarixiy hujjat vazifasini ham bajaraoladigan 32 baytdan iborat xotiralari kiritilgan.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, milliy mumtoz adabiyotimizning yorqin namoyandasi hisoblanadigan Xojanazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydoning “Rohati dil” asari adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin topgan doston bo‘lib, o‘zining g‘oyaviy yuksakligi, badiiy ifoda jihatidan jozibadorligi, tasavvuf va tariqat masalalarida adabiy an’ana va qadriyatlar, milliy o‘zlik, tarbiya va ta’lim, hayotni anglash, foniy va boqiy olamning mohiyatini tushunib yetishga o‘rgatadi. Qolaversa, Huvaydodan avvalgi davrlarda yashab ijod qilgan allomalar, shoirlar hamda din peshvolarining maqsadlariga ergashish, yaxshi man’oda ularning etagidan tutishni targ‘ib qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, Huvaydoning “Rohati dil” va “Ibrohim Adham” qissasi va boshqa janrlardagi lirikalarining bari bir g‘oya – Qur’oni Karim va muqaddas hadisi shariflardagi ulug‘ g‘oyalar bilan mushtarakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Huvaydo. Rohati dil. Ibrohim Adham. – Toshkent: “Navro‘z”, 2011
2. Ibrohim Haqqul. “Asliyatga qaytish ma’rifati”.
3. O‘zbek adabiyoti tarixi [5 jildli, 5-j.] – T., 1978;
4. Qayyumov P., Tazkirai Qayyumiy. – T., 1999.

Emina ACHILOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
achilovaemina@gmail.com

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA INSON OBRAZI TALQINI

Annotatsiya: maqolada O‘tkir Hoshimovning badiiy psixologizmdan foydalanish mahorati uning qissa va romanlari misolida yoritilgan. Asar qahramonlari poetikasi ruhiyat nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Yozuvchining obraz yaratish borasidagi badiiy mahorati tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *ruhiyat tahlili, obraz, badiiy psixologizm, obraz poetikasi*

Аннотация: в данной статье отрожено умение Уткира Хашимова использовать искусство психического анализа на примере его повестов и романов. Поэтика героев произведения анализировалась с точки зрения психологии. Изучаются художественные навыки автора в создании образа.

Ключевые слова: *психологический анализ, образ, художественый психологизм, поэтика образа*

Annotation: this article examines Utkir Hashimov’s ability to use the art of mental analysis on the example of his novels and novels. The poetics of the characters of the work were analyzed from the point of view of psychology. The author’s artistic skills in creating an image are studied.

Key words: *psychological analysis, image, artistic psychologism, poetics of the image.*

Yozuvchi asarlari orasida Istiqlolga erishganimizdan so‘ng yozilgan “Tushda kechgan umrlar” romani alohida o‘rin tutadi. 80-yillarning o‘rtalarida O‘zbekistonda markaz tomonidan “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” nomlari ostida poraxo‘rlikka qarshi kurashish, unga barham berish niqobi ostida, aslida esa, “siyosiy tozalash” ishlari olib borildi. Sho‘rolar davrida har o‘n yilda mana shunday “tozalash ishlari” olib borilgan. 80-yillar o‘rtalarida Moskvadan kelgan X.Gdlyan, I.Ivanov boshchiligida olib borilgan “O‘zbeklar ishi”da minglab o‘zbeklar qamoqqa olindi. O‘zbekistonga markazdan minglab mutaxassislar ko‘chirib kelindi. Xalqni qullik asoratida saqlab turish uchun bor imkoniyatlar ishga solindi. Stalin davridagi qatag‘onlar butun ittifoqni qamrab olgan bo‘lsa, qayta qurish davrida qatag‘on buluti faqat birgina millatni badnom etdi. “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi” degan soxta uydirmalar o‘ylab chiqarildi. Maqsad ittifoqda avj olib ketgan boshboshdoqlik, qo‘shib yozish, korrupsiya kabi muammolarni O‘zbekiston misolida bartaraf etishga kirishildi. Asar nomi ham bejiz bunday tanlanmagan. Adib 70 yil davomida mudroq holatda bo‘lgan, uyquda hayot kechirgan millatning ijtimoiy, ma’naviy holatiga ishora beryapti Asarda ko‘p yillar kommunistik ahdiga sodiq yashagan Rustamning otasi tuhmat bilan qamalgandan so‘ng, o‘g‘liga yozgan xatida aytadi: “O‘ylab qarasam o‘tgan umrim – umrmas, tush ekan. Go‘yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ichirgan-u, tush ko‘rib yuraverganman: goh shirin, goh xatarli tush ko‘rib, o‘sha “birov” qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib ketaverganman... uyg‘onishga esa qo‘rqqanman... mana endi, uyg‘onib, yonverimga qarasam, menga o‘xshaganlar ko‘p ekan...” Bu so‘zlar o‘zi yashab turgan tuzumning adolatsizliklarini ko‘rgan, nohaq jabr tortgan raisnigina emas, roman personajlarining barchasiga, ular timsolida esa minglab jabrdiydalarga ham tegishli. Ular bu qo‘rqinchli tushdan uyg‘onib amin bo‘ladilarki, ular ishongan g‘oyalar puch, bir umr e’tiqod qo‘yganlari sarob bo‘lib chiqdi. Adib bu tuzumning va unga ishongan odamlarning taqdiridagi ma’nisizliklarni shu tarzda ochib beradi. Romanda insonlar taqdiri orqali mustabid tuzumning g‘ayriinsoniy mohiyati ochib beriladi.

Asarda ijtimoiy muhit ta’sirida xarakteri shakllangan Soat G‘aniyev obrazi juda haqqoniy tasvirlangan. Uning xarakteridagi bo‘yin egmaslik, cho‘rtkesarlik, shafqatsizlik bolaligidayoq mavjudligini voqealar tasvirida ko‘ramiz: “-Ha-a, komissar! Qani, bir g‘ayrat qil-chi, ko‘ramiz suvga teskari suzish qanaqa bo‘larkan!... Soat tag‘in oqimga qarshi suzishga tushdi... Bora-bora qo‘llaridan mador ketganini, oyoqlari uvishib qolganini sezdi... o‘z yo‘liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini idrok etdi... – Eshitib qo‘yinglar! -dedi Soat alam aralash g‘azab bilan. - Men komissar bo‘laman! Albatta bo‘laman! Hammangni otaman!” Bu satrlarda komissar bo‘lish orzusida yurgan, bolalikning beg‘ubor damlarini o‘z boshidan o‘tkazyotgan Soat G‘aniyevning xarakteridagi xususiyatlar ifodalangan. Komissar umri davomida hayot oqimiga qarshi yuradi. Asar boshida keltirilgan va ramziy ma‘noda tasvirlangan. “O‘z yo‘liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini” anglagan komissar hayot oqimiga qarshi harakat qiladi. Natijada, o‘z farzandi ham unga qarshi chiqqanda azoblar iskanjasida qoladi: “Qarang, bu olifta intelligentni! O‘z otangni tergashni kim qo‘yibdi senga! Zamon qanaqa bo‘lganini sen qayoqdan bilasan! Inqilob g‘alabalarini himoya qilish kerakmidi? Mamlakatni ichki dushmanlardan tozalash kerakmidi? Yozuvchi “Tushda kechgan” umrlar

romani orqali urush oqibatida inson ruhiyatida qanday g‘alayonlar kutilganligini ko‘rsatgan. Jumladan Rustam va Shaxnozaning Qatortoldagi qo‘shnisinikida bo‘lgan to‘y sahnasi o‘zbek millatiga xos ruhiy sifatlarning namoyon bo‘lish ko‘lami va teranligi jihatidan oldingi romanlardan also qolishmaydi. Romandagi to‘y epizodida orsizlik, qo‘rqoqlik singari tuban ma’naviy sifatlar milliy belgilar tarzida namoyon bo‘ladi. Yuzlab odamning birgina kelgindini andishasizligi oldida indamay bo‘yin egib turishi tasviri, yuraksizlik, o‘zbekdan qo‘y-odamlar tarbiyalashda yuksak natijaga erishganligining yorqin dalili bo‘lgan degan gaplar bor!”, – deya o‘zini oq Davrning bo‘ronlarida, mustabid tuzumning taloto‘plarida aynan o‘zbek millatining necha minglab farzandlari qurbon berilgani tarixiy faktlardan bizga ma’lum. Asardagi ana shu davrning, tuzumning eng katta qurboni ham Qurbonoydir. Qurbonoy – o‘zbek ayollarining timsoliga o‘xshaydi. Unda haqiqiy o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan andisha, mehr-oqibat, iymon, pokizalik saqlanib qolgan. To‘g‘ri, uning ismi haqida asarning bir o‘rnida to‘xtab o‘tiladi. Bu Komissar navbatdagi “tozalash”ni o‘tkazayotgan paytda, Qurbonoylarning uyida yapon rezidentiga yozilgan xatni tintish jarayonida yuz beradi. “Qurbonoy emish! Xo‘p topibsanmi, qizingni otini! Demak, Qurbon hayitida tug‘ilgan. Maktabda o‘qituvchilik qilasan, uyingda Qur’on o‘qiysan... Ilon! Munofiq!” Qizaloq onasini quchoqlab turar, chamasi dadasining oldiga uchib borib bo‘yniga osilgisi kelar, ammo notanish “amaki”dan qo‘rqar edi.” Bu o‘rinda yozuvchining niyati o‘sha davrda dinga, diniy marosimlarga munosabat qanday bo‘lganligini ko‘rsatish uchungina Qurbonoy ismini tanlaganligi biroz haqiqatdan chetroq tuyuladi. Albatta, biz ta’kidlagan fikrlarni yozuvchi o‘ylagani aniq. Biroq, menimcha, Qurbonoy obrazi asarda davrning eng katta qurboni sifatida gavdalanadi. Holbuki, u go‘dakligidan boshlab qancha-qancha siyosiy zug‘umlarni ko‘rgan, bobosidan, otasidan va so‘ngida onasidan ayanchli holda ajragan edi. Bu voqealar, zug‘umlar uning yuragini olib qo‘ygan edi. Shuning uchun ham u taqdirga tan bergan, yozig‘ida nimaiki bo‘lsa, Xudodan ko‘rguvchi edi. Bir qaraganda Qurbonoy obrazi asarda biz istaganchalik vazifa bajarmayotgandek tuyuladi. Uning asar bosh qahramoni Rustam bilan bir “dom”da istiqomat qiluvchi farrosh ayol ekanini bilamiz. Qurbonoy o‘rniga boshqa obraz kiritilsa yoki umuman kiritilmasa ham bo‘ladigandek. Biroq, gap bunda emas, Qurbonoy bilan Rustam o‘rtasidagi munosabat unchalik chuqurlashmagan bo‘lsa-da, davr muhiti, tuzum kishilari haqidagi xulosalarimizning yana ham quvvatliroq bo‘lishida Qurbonoy obrazining o‘rni kattadir. Chunki, uning taqdiri, o‘tmish fojiasi bevosita Komissar bilan bog‘liqdir. Komissar esa, necha minglab qurbonoylarning boshiga yetgan jamiyatning “qo‘li” hisoblangan. Komissar xarakterining to‘laqonli ochilishida Qurbonoy obrazining roli kattadir. Komissar Qurbonoyning butun umrini, yoshligini poymol qilgan shaxs. Otasi, To‘lagan akani tuhmat bilan qamatib yuboradi. Onasi Fotimani ham nomusiga tegib, uning umriga zomin bo‘ladi. Lekin Qurbonoy bularning hech qaysiga javob qaytarmaydi. Hammasini Xudoga soladi. Komissar Sovet hukumatining manqurti butun umr kommunizmni quraman deb yashaydi. Davr, ijtimoiy muhit shunday ediki, hattoki, ta’riflab berish mushkul bo‘lgan darajada, kishilar e’tiqodi “dogma” holatiga keltirilgan edi. Komissar ham ana shunday e’tiqodi qotgan, o‘zi uchun qat’iy normalarni yaratib olgan – “prinsipial” kimsa edi. Uning ruhiyat olamiga, psixologik va ma’naviy qiyofasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘zgalar fikrini tan olmaydigan, o‘z fikrida “sobit”, o‘zini jamiyatning eng kerakli ustuni, ya’ni uni “yot unsur”lardan tozalovchi kishi deb biluvchi kimsa ekanini bilib olamiz. U hech kimga ishonmaydi, hattoki farzandlari, xotini, yaqinlariga ham. O‘tkir Hoshimovning badiiy niyati ham o‘tish davri, ya’ni asrimizning 80-90-yillari hayotini Rustam, Shahnoza, Komissar, Qurbonoy va boshqa obrazlarning taqdirlari, afg‘on urushining ayanchli oqibatlari, “O‘zbek ishi” tufayli minglab halol, mehnatkash kishilar tuhmatlar bo‘ronida qolib, poraxo‘rlikda yoki pora berishda ayblanganliklari, inson erkini bo‘g‘uvchi, shaxsiyatini poymol qiluvchi, barcha huquqlaridan mosuvo etuvchi jamiyat millionlab kishilar boshiga ham ruhiy, ham jismoniy qiynoqlar solganini haqqoniy suratda ko‘rsatishga qaratiladi.

O‘zining minglab kitobxonlarini topgan O‘tkir Hoshimov asarlari nafaqat o‘zbek xalqi, balki qardosh xalqlarning ham sevimli yozuvchisiga aylangan. Biz uning kitoblarini o‘qiganimizda ijodi xalq hayoti bilan naqadar yaqin ekanligining guvohi bo‘lamiz. Uning yozganlari afsona, ertak ham emas, sof haqiqat. Kitobxon unda yo otasi, yo akasi va yo yaqin kishisi bilan uchrashadi. Olamdan nom-nishonsiz o‘tib ketgan, ammo shon-sharaf bilan yashagan kishilar ko‘z oldimizga keladi. Ularning quvonchlaridan ko‘nglimiz ko‘tarilsa, g‘amu-alamlaridan ko‘zlarimizdan duv-duv yosh to‘kiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘.Hoshimov. Tanlangan asarlar IV. Roman, qissa, hikoyalar, hajviyalar, tarjimalar o‘ylar. – T.: Sharq, 2011
2. O.Duysenbayev «O‘tkir Hoshimov ijodida ona obrazi” f.f.n.diss. – T., 2016.
3. O.Duysenboyev “O‘tkir Hoshimov asarlarida xarakter dramatizmi”: Til va adabiyot ta’limi, 2007.
4. O‘.Hoshimov. “Tushda kechgan umrlar” romani. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2002.
5. A.Rasulov “Badiiylik – bezavol yangilik”. – T.: “Sharq” NMK. 2007. 336-b.

Xolidaxon ODILOVA,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani 16-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
odilovaxolidaxon28@gmail.com

MUSHTARIY QO‘LYOZMALARINING SERJILO MAVZULAR OLAMI

Annotatsiya: mazkur maqolada Saodat Mushtariy qalamiga mansub qo‘lyozmalarning, asosan, g‘azal va hikoyatlarining mavzu ko‘lami o‘rganilib, tahlil qilingan

Kalit so‘zlar: *Saodat Mushtariy, Mahbuba Qodirova, “Malikayi Dilorom”, g‘azallar, hikoyatlar.*

Аннотация: в данной статье изучается и анализируется тематика рукописей, главным образом газелей и рассказов, написанных Саодатом Муштарием.

Ключевые слова: *Саодат Муштарий, Махбуба Кадирова, “Маликайи Дилором”, газели, рассказы.*

Annotation: this article studies and analyzes the subject matter of the manuscripts, mainly ghazals and short stories, written by Saodat Mushtariy.

Key words: *Saodat Mushtariy, Mahbuba Kadirova, “Malikai Dilorom”, ghazals, stories.*


O‘zbek adabiyotida uzoq tarixga ega bo‘lgan she’riyat XVIII-XIX asrlar adabiyotida ham yetakchi o‘rinda bo‘ldi. Bu davrda yashab ijod etgan Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Dilshod, Anbar otin, Bonu, shuningdek, Saodat Mushtariy, Muazzam, Hakima, Mutriba, Muslihabegim Miskin, Muattar, Qambarxon va Nozima kabi ko‘pgina shoiralar aruzning ham sodda, ham murakkab vaznlarida muvaffaqiyatli ijod etdilar.XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan shoiralardan biri Saodat Mushtariy (tavalludi 1810-1811 –yillar orasida) lirik asarlari bilan bir qatorda liro-epik janrda ham ijod etgan. Shoira o‘zi haqida shunday yozadi:

Olti yoshda Mushtar maktab kirdi biling…
O‘n yoshida davot, qalam oldi, biling.

Shoiraning “Malikayi Dilorom” dostonidan tashqari, bizga birmuncha lirik she’rlari ham yetib kelgan. Ular o‘rtasida “Bir band so‘z jon birla ko‘ngil taloshkoni turur”, “Mushtar qalamkash bir so‘z ayg‘oni turur, yor- do‘stlarig‘a” kabi misralar bilan boshlanuvchi badiiy jihatdan serjilo lirik asarlari mavjud. Uning she’r va g‘azallari boy mazmunga ega. Turli xil mavzularda ijod qilgan. Ijtimoiy mavzular, farzand va ota-ona munosabatlari, ilm va boshqa mavzular shoira lirik ijodining asosiy qismini tashkil qilgan. Shoira ijod namunalarida insonlarni yaxshilikka, kamtarlikka, sadoqatga, mehr-muhabbatli bo‘lishga, ilmga chorlagan.

Biz quyida Mushtariy qalamiga mansub Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 9922 inventar raqamli qo‘lyozmaning 104 b varag‘ida “Mushtar qalamkash bir so‘z ayg‘oni turur yor-do‘stlarig‘a” deb sarlavha qo‘yilgan lirik asarini tahlil qilib ko‘ramiz:

Tabdili: *Mushtar qalamkash bir so‘z ayg‘oni turur yor-do‘stlarig‘a*
Bulbul na aylar bog‘i aro to o‘z guli ochilmasa
Gullar na aro bog‘ aro bulbul qoqi sochilmasa.
Yorni na aylar har kishi to o‘z yori topilmasa
Ko‘zni na aylar har kishi ma’shuq jamolin ko‘rmasa.
Jon na kerak bandasig‘a yorig‘a hamdam bo‘lmasa
Ishq otashiki, dam-badam o‘z jonig‘a yoqilmasa.
Man qilarman yorni dardima darmon bo‘lmasa



Man na qilay ey do‘stlar, boshima savdo turadur.
So‘zlasin bir nechasin kunmu g‘avg‘o to‘ladur
Dunyo jafosi boshima turli alomat soladur
Bilmam bu jonim na yera boribki, orom oladur
Olam elini naylaram shu’la makoni bo‘lmasa
Mushtar qalamtaroshsan bu dam Qozi Mirrahim otangiz
Jonini na aylar bandalar mo‘minlik oti bo‘lmasa

Qo‘lyozmaning 104 b varag‘ida bitilgan ushbu g‘azalda Saodatning aynan, Mushtar qalamkash, Mushtariy taxalluslari bilan ijod qilganiga ishora bor. “Mushtar qalamkash bir so‘z ayg‘oni turur yor-do‘stlarig‘a” deb sarlavha qo‘yilgan bo‘lsada, “Bo‘lmasa” radifi bilan yozilgan mazkur g‘azalida uning otasi Qozi Mirrahim ekanligini bayon etadigan bayt ham keltirib o‘tilgan. Demak, Saodatning otasi Qo‘qon xonlari davrida qozi o‘tgan. Ushbu g‘azal juda ham mazmunga boy, insonni o‘ylashga, fikrlashga majbur qiladigan tarzda bitilgan. Bulbul gul uchun, gul esa bulbul uchun yaratilganligi hammamizga ma’lum va bu haqidagi baytlarni ko‘plab ijodkorlar ijodida uchratamiz. Xuddi shuningdek, inson uchun yori ham, bulbulga gul aziz bo‘lgani kabidir. Go‘yo u siz hayotni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu ikkisi doim bir-birini to‘ldirib turadi. Keyingi baytlarda ko‘z ham aynan, yorning jamolini ko‘rish uchun kerak. Agar insonda sevimli yori bo‘lmasa, unga ko‘z nima uchun kerak, deyilmoqda. Jon nimaga kerak, agar uning yori joni bo‘lmasa, deb yozmoqda. Keyingi misralarda yor nimaga kerak, agar u o‘z yorining dardiga darmon bo‘lmasa, deyilmoqda. Haqiqatan ham, yor insonga bir-birini kamchiliklarini to‘ldirish, dardiga darmon bo‘lish, qiyin vaziyatlarda yonida turish uchun kerak-ku, deb o‘z dardlarini ochiq bayon qilmoqda. Yor-do‘stlaridan maslahat so‘ramoqda. Boshimga taqdirning turli savdo-yu g‘avg‘olari tushsa, men qayerga borib orom olaman, qayerdan, kimdan najot so‘rayman, deya iltijo qilmoqda. G‘azalning maqtasida esa, shoiraning taxallusi bilan birga otasining ismi ham bitilgan. Oxirida agar insonlarda mo‘minlik maqomi bo‘lmaganda, ular o‘zini ne ko‘ylarga solishardi, o‘zlariga qanday hayotni ravo ko‘rishardi deya, kishini o‘ylashga majbur qilmoqda.

Badiiy san’atlardan unumli foydalanilgan. Gul, bulbul, bog‘ so‘zlarini yonma-yon keltirish orqali tanosub san’atini qo‘llagan. Yor, ma’shuq, ishq so‘zlari ham aynan, shu san’atni yuzaga keltirgan. Savdo, g‘avg‘o, jafo so‘zlarida ham aynan, shu badiy san’atga ishora bor. Na qilay ey do‘stlar, deya yozganida nido san’atini ishlatgan. Dard va darmon ya’ni shifo ma’nosidagi so‘z ishlatilib, tazod san’ati qo‘llanilgan. G‘azalning tili sodda, ravon, qofiyadosh so‘zlar o‘zaro ohangdosh, asosiysi esa boy ma’no va mazmunga ega.


Endi boshqa bir muhim mavzudagi qo‘lyozmani ya’ni ilmning hamda ilmli insonning qanchalik e’zozli ekanligi haqidagi hikoyatni ko‘rib chiqamiz. “Tolibi ilm” haqidagi hikoyat Qo‘qon shahrida joylashgan G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot muzeyida saqlanayotgan 858 inventar raqamli qo‘lyozmadan o‘rin olgan birinchi hikoyatdir. Shom davlatidan bo‘lgan tolibi ilm ya’ni mullo o‘qish uchun yo‘lga chiqadi. Och- nahor bo‘lib, yig‘lab, tinka-madori qurib turganda, bir juhud unga duch keladi. Shunda ularning o‘zaro suhbati boshlanadi. Qayerdan, nima uchun kelganligini so‘rab, bilib oladi. Juhud aytadi: “Agar menga o‘tin keltirib bersang, senga taom beraman”. Dalaga o‘tin tergani borish mobaynida mullo Allohga munojot qiladi. O‘tinni olib kelib, bozorda sotayotgan mahalda Rasulullo (s.a.v)ning ko‘zlari bozordagi ul g‘aribga tushadi. Yana ular o‘rtasida ham savol-javob bo‘ladi.

G‘aribning javoblarini eshitib payg‘ambarning ko‘zlariga yosh keladi. Shunday deydilar:

“G‘arib bo‘lmay g‘arib holing bilurmu?
Jafo tortqan kishi shuncha zolim bo‘lurmi?”

So‘ngra Rasulullo mulla o‘rniga o‘tinni ko‘taradi, shunda Jabroil uning oldiga keldi va o‘tinni ikkovlashib ko‘tarib juhudning uyiga olib borishdi. Payg‘ambarni ko‘rib juhud pushaymon bo‘ladi, afsuslanadi. Shunday buyuk zot ilm ahliga homiylik qilganini , ilmli inson har yerda izzatda bo‘lishini ko‘rib iymon keltiradi va musulmon bo‘ladi.

Shoira ayrim hikoyatlarida ijtimoiy mavzulardan biri bo‘lmish oila masalasini hayotiy misol asosida yoritib bergan. Bu esa asarning ishonchlilik darajasini ortishiga sabab bo‘lgan. Hikoyat “Basmala” bilan boshlangan. Onalari andoq ayturlarkim, zamonani o‘g‘illari balog‘atga yetib uylanadi, onasini rozi qilmasdan xotinini aziz bilib, onasini xor qiladi. Bu hikoyatda jafokor kelinlar qoralangan. Haqiqatan ham, hayotda shunday insonlar uchrab turadi.



Tabdili: *Xudoyim saqlasun har bandani kelin jafosidan,*
Kelin otlig‘ baloyi nogahonni ibtidosidin,
Kelin deb orzu qilg‘on xaloyiqdin g‘amzasidin,
Ilohi san pano bergil kelinni mojarosidin,
Qochib ketgil jahonda turmagil kelin jafosidin.

Mushtariy asarlarida uning tafakkur kengligi ravshan anglashilib turadi. Saodat Mushtariy ijodidagi ayrim jziddiyatlar o‘z davrining farzandi bo‘lgan shoira uchun qonuniy bir holatdir. Ayollar taqdiri bilan qiziqish, o‘zining insoniyligi, or-nomusi uchun talashib, o‘lim bilan yuzma-yuz olishgan ayol obrazining yaratilishi, xalqni, insoniyatni qiynayotgan muammolarni ochiq-oydin olib chiqish Saodat Mushtariy ijodining muhim fazilatlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mushtariy. Malikayi Dilorom. Qo‘lyozma. Saqlanish raqami 9922.
2. Mushtariy. Qo‘lyozma. Saqlanish raqami 858.
3. Qodirova M “XIX asr o‘zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri”. –Toshkent: O‘zSSR. Fan, 1977.
4. www.ziyouz.com
5. https://ru.wikipedia org|wiki

Amanulla MURATKULOV,
GulDU o‘qituvchisi

TA’RIX SAN’ATI TARIXI

Annotatsiya: dunyo adabiyotida milliy uyg‘onish adabiyoti ijodkorlari tomonidan yaratilgan asarlar dunyoviy ilm-ma’rifatni targ‘ib etish, inson kamoloti bilan bog‘liq ideallarni kuylash orqali insoniyat badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotiga xizmat qiladi. Mazkur maqolada ta’rix san’ati tarixi

Kalit so‘zlar: *milliy uyg‘onish davri, uyg‘onish davri adabiyoti, abjadiy (lafziy) ta’rix, naqqoshlik, musiqa, abjad, havvaz, hutiy, kalaman, sa’fas, qarashat.*

Аннотация: в мировой литературе произведения, созданные деятелями литературы национального возрождения, способствуют развитию художественного и эстетического мышления человечества, продвигая светскую науку и просвещение, воспевая идеалы, связанные с совершенством человека. В данной статье рассматривается история искусства.

Ключевые слова: *национальное возрождение, литература возрождения, история абджади (буквальная), живопись, музыка, абджади, хавваз, хути, калама, сафас, карашат.*

Annotation: in world literature, the works created by the creators of the national revival literature serve the development of the artistic and aesthetic thinking of humanity by promoting secular science and enlightenment, singing the ideals related to human perfection. In this article, the history of art is discussed.

Key words: *national revival, revival literature, abjadi (literal) history, painting, music, abjadi, havvaz, huti, kalama, sa’fas, karashat.*

Kirish. O‘zbek adabiyotshunosligida milliy uyg‘onish davri adabiyotini har jihatdan izchil o‘rganishning keng imkoniyatlari mustaqillikning ilk yillarida vujudga keldi. Darhaqiqat, “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyati ko‘zgusi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchi beqiyos”.Milliy uyg‘onish davri adabiyoti ijodkorlari tomonidan yaratilgan ta’rix tushirilgan asarlar shoirlar adabiy-estetik olamini, ijtimoiy-siyosiy va adabiy hayotini, adabiy davrasi, ijodiy hamkorligini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Ta’rixlar, asosan, diniy-tasavvufiy va ijtimoiy, adabiy mavzularda yaratilgan. Jumladan, ijtimoiy, adabiy mavzudagi ta’rixlarning badiiy yetuk namunalarini yaratgan Muqimiy, Furqat, Haziniy, Muhsiniy, Zavqiy, Zoriy, Miskin, Xislat, Ibrat kabi ko‘plab ijodkorlar asarlarida insonning o‘zligini tanishi, pok axloq, insoniy fazilatlar targ‘ibi, shu bilan birga tarixiy sharoitdagi muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar ilgari surilgan. Ayni paytda, tarix tushirilgan she’rlarning o‘rganilishi uning adabiyotshunosligimiz tarixidagi o‘rni va ahamiyatini belgilashda ham muhim ilmiy qiymatga ega. Ta’rix moddasi she’riy san’atlardan biri bo‘lib, muayyan voqea tarixini so‘zlardan foydalangan holda sabt qilishlikdir. Ta’rix (arab. — yuz bergan) — mumtoz adabiyotda mashhur kishilarning tug‘ilishi va vafoti, turli bino va inshootlarning qurilishi, kitoblar ta’lifi va boshqa muhim voqea-hodisalar vaqtini anglatuvchi adabiy san’atdir .

Ta’rix ko‘pincha u yoki bu mashhur shaxsning vafoti munosabati bilan yozilgan. Ta’rixda qo‘llangan so‘z va iboralar, ularni tashkil etgan arab harflarining abjad raqami bilan qo‘shib hisoblanganda, ma’lum bir sana kelib chiqadi. Sanani bidiradigan so‘z yoki ibora ta’rix moddasi, ularni tashkil etgan harflarning abjad bo‘yicha yig‘indisi esa jumal hisobi deb yuritiladi. Ta’rix faqat mustaqil yozilmay, ba’zi bir asarlarning ichida ham keladi. Ta’rixda shoir ko‘zda tutgan sana so‘z yoki muammo usulida ifodalanadi. Shunga ko‘ra, Ta’rix sarih (ochiq, ravshan) va ta’miya (berkitilgan, yashirilgan) kabi 2 turga bo‘linadi. Ta’rixning sarih turida sana ochiq ifodalansa, ta’miyada avval ta’rix moddasi topiladi. Tarixi sarihning o‘zi ham o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi: adadiy ta’rix va abjadiy (lafziy) ta’rix. Adadiy ta’rixda ijodkor biror hodisaning sanasini raqamlar bilan ifodalab qo‘yaqoladi. Abjadiy ta’rixda esa asosan harflarning raqam qiymati e’tiborga olinadi. Shunga ko‘ra tarix moddasini yaratishlik sohasini naqqoshlik, musiqa va boshqalar kabi tarix yozish mavzusining eng muhim sohalaridan biri deb bilish mumkin. Bu fanni biladigan bilimdon tarixchi yoki shoir jummal hisobi yordamida har

harfning adad qiymati orqali muayyan bir yilga she’r bitib ayni sananing barpo bo‘lish tarixini bunyod etadilar.

Abjad kalimalarining muayyan ma’no anglatishi yoki anglatmasligi xususida turli qomus lug‘atlarda olim va adiblarning turlicha mulohazalari manbalarda aks etgan. Ularning ayrimlari bu so‘zlar hech qanday ma’no anglatmaydi desalar, ayrimlari ayni kalimalarning ma’nolari xususida turli xil fikrlarni ilgari surishgan. Chunonchi, saudiyalik olima Lajin bint Ibrohim G‘oziy Majiduddin Feruzobodiyning “Ad-durar ul-mubassasati fil-g‘orar il-musallasati” nomli qomusiy asariga tayanib abjad kalimalarining kelib chiqishi haqida shunday yozadi: “Abjad hisobidagi dastlabki olti kalima (abjad, havvaz, hutiy, kalaman, sa’fas, qarashat) Madyan podshohlarining ismlari bo‘lib, Kalaman ularning eng kattasi bo‘lgan. Ularning bari Shuayb alayhissalom qavmi bilan birga Yavmuz-zullati da halok bo‘lganlar. Bu xususda Qur’onda shunday deyiladi: “Bas, u(Shuayb)ni yolg‘onchiga chiqardilar. Bas, “soyabon kuni” azobi tutdi. Albatta, u buyuk kunning azobi edi.” Zullat-bu sovuq shamol bilan birga yuborilgan bulut bo‘lib, Shuayb alayhissalom qavmi Alloh taolo tomonidan yuborilgan otashdan omonlik topish maqsadida uylaridan qochib uning ostiga jamlanishadi. Vaqtiki ular jamuljam bo‘lishgach Haq taolo bir otash yuborib ularni otashda kuygan chigirtkalardek kuydirib yubordi. Osim bin Nasr al-Laysiyning yozishicha yuqorida nomlari zikr etilgan podshohlar somiylarning nazdida ismlari tartibidan arabcha yozma kitobatga birinchi bo‘lib asos solishgan. Keyinchalik bu tartibdagi harflarga yana 6 ta harf qo‘shilgan va bu umumiy alifbo arab alifbosini yuzaga keltirgan.”[1]

Manbashunos olim Mahmud Hasaniy abjad kalimalarining kelib chiqishi haqida “Zavobiti Azim” risolasidagi ma’lumotlarni bayon qilib yozadi:

Abjad-og‘oz kard-boshladi, Havvaz-darpayvast-yetishdi, Huttiy-voqif shud-xabardor bo‘ldi, Sa’fas-az-u omuxt- undan o‘rgandi, Qarashat-tartib kard-tartibga soldi, Saxxaz-nigohdosht-saqladi, Zazag‘-tamom kard-tugatdi”

Kalaman-suxango‘ shud- gapiruvchi bo‘ldi.

Kxoja Muhammad Xoksor qalamiga mansub “G‘iyos ul-lugot”ning “Mador ul-afozil” qismida keltirilgan ma’lumotlarni shunday izohlaydi: “Bu so‘zlarning ma’nosi quyidagichadir:

Abjad (أبجد-أي-وُجد-في-المعصية)(Ay-abiy vujida fil-ma’siyati)-ya’ni mening otam Odam alayhissalom gunoh ustida topildi. Ya’ni undan gunoh sodir bo‘ldi.

Havvaz (هوز-أي-إتبع-هواه) (Ay-ittaba’ havohu)-ya’ni o‘z nafsiga tobe’ bo‘ldi.

Huttiy (حطي-أي-حطى-ذنبه-بالتوبة-والاستغفار)(Ay-hutta zanbuhu bittavbati val-istig‘fori)-ya’ni uning gunohi tavba va istig‘for aytish bilan kamaydi.

Kalaman (كلمن-أي-تكلم-بكلمات-فتاب-عليه-بالقبول-و-الرحمة) (Ay-takallama bikalimatin fatoba alayhi bil-qabuli var-rohmati)-ya’ni u so‘zladi(tavba) so‘zi bilan, so‘ng tavbasi qabul bo‘ldi.

Sa’fas (سعفص-أي-ضاق-عليه-الدنيا-فأفز-عليه)(Ay- zoqa alayhid-dunyo, fa-ufiza alayhi)-ya’ni dunyo unga tor bo‘ldi, so‘ng unga rahm sochildi.

Qarashat (قرشت-أي-أقرّ-بذنبه-فشرُف-بالكرامة) (Ay-aqorra bi zanbihi, fa-sharufa bil-karomati)-ya’ni o‘z gunohiga iqror bo‘ldi, so‘ng lutf-u marhamatga noil bo‘ldi.

Saxxaz (ثخذ-أي-أخذ-من-الله-قوةً) -(Ay-axoza minallohi quvvatan)-ya’ni Haq taolodan quvvat oldi.

Zazag (ضظغ-أي-صد-عنه-نزغ-الشيطان-بالعظيمة) (Ay- sudda anhu nazg‘ush shaytoni bil-azimati)-ya’ni duo bilan shayton nazg‘i (zalolati) undan qaytdi, ya’ni haq va tavhid so‘zlari bilan.

Abjadning har bir harfi quyidagi raqamga ega:

¶ابجد،هوز،حطي،كلمن،سعفص،قرشت،ثخذ،ضظغ
الف=1،ب=2،ج=3،د=4،ه=5،و=6،ز=7،ح=8،ط=9،ي=10،ك=20،ل=30،م=40،
س=60، ن=50،
ع=70،ف=80،ص=90،ق=100،ر=200،ش=300،ت=400،ث=500،خ=600،ذ=700،
ض=800،ظ=900،غ=1000¶

الف	ب / پ	ج / چ	د	ه	و
1	2	3	4	5	6
ز / ژ	ح	ط	ی	ک / گ	ل
7	8	9	10	20	30
م	ن	س	ع	ف	ص
40	50	60	70	80	90
ق	ر	ش	ت	ث	خ
100	200	300	400	500	600
ذ	ض	ظ	غ	نام فارسی	
700	800	900	1000	NameFarsi.com	

Bu fanning ixtiro qilingan sanasi va vaqti haqida ko‘p ma’lumot yo‘q, lekin biz bilgan narsa shuki, u arablar orasida islom dinining boshida qo‘llanilgan, Abbosiylar xalifaligi davrining oxirida esa undan foydalanish keng tarqalgan. Ba’zilarning aytishicha, “Abjad harflarining tartibi va ularning muayyan raqam qiymatini ifoda etishi hurufiylar deb ataluvchi

bir firqaga borib taqalib, ular samoviy kitoblarning, jumladan Qur’onning ma’nolari va talqinlari uning harflari va o‘sha harflarning raqam qiymati va bildirgan ramzlariga qarab belgilanishi kerak, deb hisoblagan mazhab bo‘lganlar” [Bahman Bani Hoshimiyning. Fanni moddayi ta’rixsozi va zebohoyi on. Eron. 1437-yil.].

Bu fanning fors tiliga kirib kelishi hijriy 5-asrga to‘g‘ri keladi. Bu she’riy fanni birinchi qo‘llagan shaxs sifatida eronlik olim Hoji Husaynzoda Naxjuvoniy “Mavod ut-tarix” asarida Masud Saad Salmonni keltirib o‘tadi. Masud Saad Salmon Hindiston hukumatini Sayfuddavla Mahmud ibn Ibrohimga topshirilish sanasi uchun quyidagi ochiq tarix parchasini tuzgan:

¶به سال پنجه از این پیش بوریحان∞∞∞در آن کتاب که کردست نام او تفهیم°
که پادشاهی صاحبقران شود پیدا∞∞∞∞چو سال هجری بگذشت تی و سین و سه جیم·

Ba soli panja az in pesh bu rayhon Dar on kitobki kardast nomi u tafhim.

Ki podshohi sohibqiron shud paydo, Chu soli hijriy bguzasht teyu sin-u se jim

(Bu holatdan oz-u ko‘p yil o‘tib, uning nomini bayon ayladim. Sohibqiron podshohning yilini hijratdan so‘ng to, sin va uchta jimdan topdim)

Ta’rix moddasi islom madaniyati, xususan, turkiy xalqlar milliy ma’naviy merosining ajralmas bir qismi hisoblangani holda uning tadrijiy takomilining tarixi ayni janr bo‘yicha birlamchi bilimlarning ziyodalashuviga asos bo‘lib xizmat qiladi. “Badiiy adabiyot sohasida qadimdan ta’rix janri o‘zining murakkab va muallifning o‘yga toldirishi, undagi yashiringan jumboqni yechishga da’vat qilishi bilan ajralib turadi. Shu jihatlariga ko‘ra bu ko‘hna janrda ijod qilish ko‘proq mehnatni talab qilib kelgan. Ayniqsa, u arab alifbosi bilan bog‘liq bo‘lgan abjad hisobiga tayanishi shoirga yanada ko‘proq mas’uliyatni yuklaydi

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, ta’rix moddasi bir nechta turlari bilan, turlik shakllarda ming yillik islomiy madaniy va adabiy tariximizning ajralmas bir qismi bo‘lgani holda ayni madaniyatimizning ko‘pqirraliligini ta’minlashda alohida ahamiyatga molik soha sanaladi. Arab, fors, turk madaniyatlarining barcha amaliy jihatlarida uning muayyan ta’siri borki, ularni biz ayni xalqlarning milliy-madaniy meroslarining tahqiqi orqali chuqurroq anglashimiz mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga ta’rix moddasi xalqlarimiz milliy tarixining mushtarak jihatlarini ham o‘zida namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mahmud Hasaniy. Ta’rixlarda temuriylar siymosi. Toshkent, 2020. 4-bet.

O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 27-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. TA’RIX JANRIDA IFODALANGAN BADIIY HAQIQATLAR (MILLIY UYG‘ONISH DAVRI FARG‘ONA VODIYSI ADABIYOTI MISOLIDA) Barziyev Oybek Xabibullayevic

2.Lajin bint Ibrohim G‘oziy. Sayd ul-favoid.

3.Mashhur arab grammatik olimi. Arab alifbosida harakatlarni ixtiro qilgan Abul Asvad Duvaliyning shogirdi. Arab alifbosidagi harflarni bir tartibda alifbo shakliga keltirgan va ularga nuqtalar qo‘yishlikni joriy qilgan nahv olimi.

Sunnatulla USMANOV,
Samarqand davlat universiteti katta o‘qituvchisi
usmonovsunnat@gamil.com

O‘ZBEK MAQOLLARINING O‘RGANILISH TARIXI VA ILMIY TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti, folklorshunoslik va tilshunoslikda o‘rganilishi masalalari keng yoritiladi. Maqollarning xalq tafakkuri, milliy madaniyat va ma’naviy merosdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, maqollarni yig‘ish, nashr etish va tizimlashtirish ishlari, bu borada faoliyat olib borgan folklorshunos va tilshunos olimlarning ilmiy xizmatlari haqida batafsil ma’lumot beriladi.O‘zbek maqollarining badiiy adabiyotdagi qo‘llanishi, ularning til tarixini o‘rganishdagi ahamiyati ham ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *maqol, folklor, xalq og‘zaki ijodi, paremiologiya, maqollar to‘plami, tilshunoslik, folklorshunoslik, xalq tafakkuri, Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘otit turk”.*

Аннотация: в данной статье подробно рассматриваются вопросы формирования, исторического развития и изучения узбекских народных пословиц в фольклористике и языкознании. Анализируется роль пословиц в народном мышлении, национальной культуре и духовном наследии. Также представлена подробная информация о деятельности по сбору, публикации и систематизации пословиц, а также о научном вкладе фольклористов и лингвистов, занимавшихся их исследованием. Научно освещаются вопросы использования узбекских пословиц в художественной литературе и их значение для изучения истории языка.

Ключевые слова: *пословица, фольклор, устное народное творчество, паремиология, сборник пословиц, языкознание, фольклористика, народное мышление, Махмуд Кашгари, «Диван лугат ат-тюрк».*

Annotation: this article comprehensively examines the formation, historical development, and study of Uzbek folk proverbs in folklore and linguistics. The role of proverbs in folk wisdom, national culture, and spiritual heritage is analyzed. The paper also provides detailed information on the collection, publication, and systematization of proverbs, as well as the scholarly contributions of folklorists and linguists who have studied them. Furthermore, the use of Uzbek proverbs in literary works and their significance for the study of language history are discussed from a scientific perspective.

Key words: *proverb, folklore, oral folk literature, paremiology, proverb collection, linguistics, folklore studies, folk wisdom, Mahmud Kashgari, Divanu Lughat at-Turk.*

Kirish. Xalq og‘zaki ijodi millatning tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari va madaniy tafakkurini o‘zida mujassamlashtirgan bebaho manbadir. Folklorning eng qadimiy va ommaviy janrlaridan biri bo‘lgan maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va falsafiy mushohadalarini qisqa, lo‘nda va obrazli shaklda ifodalaydi. Shu sababli maqollar nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki xalqning ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy va axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi muhim manba sifatida ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Maqollar xalqning kundalik hayoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular orqali insonning tabiatga, jamiyatga, mehnatga, oilaga va odob-axloqqa munosabati namoyon bo‘ladi. Har bir maqolda xalq tajribasi umumlashtirilgan holda mujassamlashadi. Shu bois maqollar xalq tafakkurining mahsuli sifatida qadrlanadi.

O‘zbek xalq maqollari asrlar davomida xalq tilida yashab, og‘zaki ravishda avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Ular xalq nutqining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, badiiy adabiyotda, ilmiy asarlarda, publitsistik matnlarda va kundalik muloqotda keng qo‘llanib kelinmoqda. O‘zbek maqollarining mazmun jihatdan rang-barangligi, badiiy mukammalligi va falsafiy teranligi ularni ilmiy jihatdan o‘rganish zaruratini yuzaga keltirgan.

Asosiy qism. O‘zbek xalq maqollari uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli hisoblanadi. Ularning ildizlari qadimgi turkiy xalqlarning og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Maqollar dastlab xalqning kundalik hayotida yuzaga kelgan kuzatishlar, mehnat tajribasi va turmush ehtiyojlari asosida shakllangan. Vaqt o‘tishi bilan ular xalq tafakkurining tayyor qolipdagi hikmatli ifodasiga aylangan. Maqollar xalq orasida og‘zaki shaklda yashaganligi sababli ular doimiy ravishda boyib borgan. Ba’zi maqollar vaqt o‘tishi bilan unutilgan bo‘lsa, ayrimlari yangi mazmun kasb etgan. Ayrim maqollarning shakli o‘zgargan, biroq asosiy mazmuni saqlanib qolgan. Bu hol xalq tilining tarixiy rivojlanish jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbek maqollarining shakllanish tarixi juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Markaziy Osiyo hududi qadimdan turli xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lib kelgan. Sug‘d, Baqtriya va Xorazm kabi qadimgi davlatlar davridayoq xalq og‘zaki ijodining dastlabki shakllari yuzaga kelgan. Ana shu davrda xalqning kundalik turmushi, dehqonchilik va chorvachilik bilan bog‘liq tajribalari asosida ilk maqollar shakllana boshlagan. Ular tabiat hodisalari, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, mehnat va axloqiy qadriyatlarni aks ettirgan.

O‘zbek xalq maqollarining rivojlanishida Buyuk ipak yo‘lining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo orqali o‘tgan savdo yo‘llari nafaqat iqtisodiy, balki madaniy aloqalarning ham rivojlanishiga xizmat qilgan. Turli xalqlar vakillari, savdogarlar, olimlar va sayyohlar orqali yangi g‘oyalar,

badiiy obrazlar va hikmatli iboralar xalq ogʻzaki ijodiga kirib kelgan. Shu sababli oʻzbek maqollarida turkiy, forsiy va arab madaniyatining ayrim unsurlari uygʻunlashgan holda namoyon boʻladi.

Oʻzbek maqollarining eng qadimgi yozma namunalarini XI asrda yashagan buyuk turkiyshunos olim Mahmud Koshgʻariyning Devonu lugʻotit turk asarida uchratamiz. Ushbu asarda turkiy xalqlar orasida keng qoʻllangan 400 ga yaqin maqol va matallar keltirilgan. Mahmud Koshgʻariy maqollarni til boyligi va xalq donishmandligining ifodasi sifatida baholagan.

"Devonu lugʻotit turk"dagi maqollar bugungi oʻzbek maqollari bilan mazmun va shakl jihatidan yaqinlik kasb etadi. Bu esa maqollar xalq tafakkurida uzoq asrlar davomida yashab kelayotganligini koʻrsatadi.

Oʻzbek adabiyoti tarixida maqollar muhim badiiy vosita sifatida keng qoʻllanilgan. Shoir va yozuvchilar maqollar orqali asar tilining xalqchilligini kuchaytirgan, obrazlarning xarakterini ochib bergan hamda fikrning ta'sirchanligini oshirgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabgʻuziy, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Abdulla Qodiriy, Oybek, Gʻafur Gʻulom kabi ijodkorlarning asarlarida xalq maqollaridan unumli foydalanilgan. Masalan, Alisher Navoiyning koʻplab asarlarida xalq maqollariga yaqin hikmatli iboralar uchraydi. Bu hol Navoiy ijodining xalq ogʻzaki ijodi bilan uzviy bogʻliqligini koʻrsatadi.

Oʻzbek adabiyotida maqollarga asoslangan maxsus asarlar ham yaratilgan. Jumladan, Muhammad Sharif Gulxaniyning Zarbulmasal asarida 300 dan ortiq maqollar qoʻllangan. Ushbu asar oʻzbek paremiologiyasining muhim yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, Sulaymonqul Rojiy maqollarni she'riy shaklga solib, ularni badiiy jihatdan qayta ishlagan. Bu esa maqollarning xalq adabiyotidan yozma adabiyotga faol oʻtganligini koʻrsatadi.

Oʻzbek maqollarini ilmiy asosda yigʻish va nashr etish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu davrda maqollarni yozib olish va tizimlashtirishga qiziqish kuchaydi.

Venger sharqshunosi Hermann Vamberi tomonidan 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan "Chigʻatoy tili darsligi" asarida 112 ta oʻzbek maqoli berilgan. Bu oʻzbek maqollarining Yevropa ilmiy muhitiga kirib borishida muhim qadam boʻldi. Keyinchalik N. Ostroumov, B. Rahmonov, Sh. Joʻrayev, H. Zarifov, B. Karimov, R. Jumaniyozov, E. Siddiqov, B. Sarimsoqov, T. Mirzayev, A. Musoqulov kabi olimlar tomonidan turli maqollar toʻplamlari nashr qilindi.

Bu toʻplamlarning ayrimlarida maqollar mavzular asosida tasniflangan boʻlsa, ayrimlarida alifbo tartibida joylashtirilgan. Masalan, M. Afzalov boshchiligida tayyorlangan maqollar toʻplamida 2500 dan ortiq maqol 34 mavzu asosida berilgan.

1987–1988-yillarda ikki jilddan iborat akademik maqollar toʻplamining nashr etilishi oʻzbek folklorshunosligi tarixidagi eng katta yutuqlardan biri boʻldi. Mazkur toʻplamga oʻn uch mingga yaqin maqollar kiritilgan boʻlib, ular ilmiy izohlar asosida tizimlashtirilgan.

Maqollar tarjima jarayonida eng murakkab birliklardan biri hisoblanadi. Chunki ular xalqning milliy mentaliteti, madaniyati va dunyoqarashini oʻzida mujassamlashtiradi.

Oʻzbek maqollarini boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida nafaqat mazmun, balki badiiylik va milliy ruhni ham saqlash muhim hisoblanadi. Shu sababli koʻplab tarjimonlar maqollarni ekvivalent maqollar orqali tarjima qilishga harakat qilganlar.

Rus tiliga oʻzbek maqollarini tarjima qilishda Y. Chernyavskiy, V. Roʻzimatov, N. Gatsunayev va A. Naumov kabi tarjimonlarning xizmatlari katta boʻlgan.

Oʻzbek tilshunosligida maqollarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish natijasida ularning fonetik, leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlari aniqlangan. Ayniqsa, maqollarda qoʻllanilgan metafora, oʻxshatish, antiteza va parallelizm kabi badiiy vositalar ularning ta'sirchanligini oshirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Umuman olganda, oʻzbek maqollari nafaqat folklorshunoslik va tilshunoslikning tadqiqot obyekti, balki ma'naviy-ma'rifiy tarbiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ona tilining boy imkoniyatlarini oʻrganish va xalq donishmandligini avloddan avlodga yetkazishda muhim manba boʻlib xizmat qilmoqda.

Xulosa. Oʻzbek xalq maqollari xalq tafakkuri, milliy madaniyat va ma'naviy merosning bebaho qismidir. Ular xalqning koʻp asrlik tajribasi, hayot haqidagi qarashlari va falsafiy tafakkurini aks ettiradi.

Maqollarni yigʻish, nashr etish va ilmiy jihatdan oʻrganish ishlari natijasida bugungi kunda boy paremiologik fond shakllangan. Mahmud Koshgʻariydan boshlab zamonaviy folklorshunoslargacha boʻlgan olimlarning ilmiy faoliyati oʻzbek maqollarini saqlab qolish va ilmiy muomalaga kiritishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda maqollarni lingvistik, folkloristik, pragmatik, semantik va madaniy jihatdan tadqiq etish dolzarb ilmiy yoʻnalishlardan biri boʻlib qolmoqda. Chunki maqollar xalqning milliy ruhini, tarixiy xotirasini va tafakkurini oʻzida mujassamlashtirgan noyob ma'naviy meros hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. Oʻzbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2005 .512-bet.
2. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн//Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев//Асарлар. 15 томлик. Т.14. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967.66 б.
3. Маманазаров Э. Мудрость веков: Узбекские пословицы и поговорки с русскими аналогами //Elekton resurs: https://www.livelib.ru/book/5291299/readpart-mudrost-vekov-uzbekskie-poslovitsy-i-pogovorki-s-russkimi-analogami-erkin-boj-mamanazarov?ysclid=mparbl8feh758118228
4. Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. 1-қисм. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1975.240-б.

Elbek OQBO‘TAYEV,
Guliston davlat universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

MUSTAQILLIK DAVRI SATIRIK HIKOYALARI BADIIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada mustaqillik davri o‘zbek satirik hikoyalarida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’naviy o‘zgarishlarning badiiy aks ettirilishi tahlil qilingan. Davr adabiyotida sobiq tuzum sarqitlari, byurokratiya, korrupsiya, kitobxonlik inqirozi va zamonaviy blogerlik faoliyatidagi salbiy illatlarning satira, sarkazm hamda kinoya orqali ochib berilishi Vosit Ahmad, Tohir Malik va Odiljon Muhammad hikoyalari misolida yoritilgan. Satirik hikoyalarning jamiyat hayotidagi nosozliklarni tanqid qilish va milliy adabiyot rivojidagi o‘rni ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *mustaqillik davri adabiyoti, satirik hikoya, ijtimoiy ziddiyat, byurokratiya, kinoya, sarkazm, qahramon ruhiyati, bozor iqtisodiyoti.*

Аннотация: в данной статье анализируется художественное отражение социально-экономических, культурных и духовных изменений в узбекских сатирических рассказах периода независимости. На примере произведений Восита Ахмада, Тохира Малика и Одилжона Мухаммада рассматривается, как с помощью сатиры, сарказма и иронии изобличаются пережитки прошлого, бюрократия, коррупция, кризис чтения и негативные аспекты современного блогерства. Обоснована роль сатирических рассказов в критике общественных пороков и развитии национальной литературы.

Ключевые слова: *литература периода независимости, сатирический рассказ, социальное противоречие, бюрократия, ирония, сарказм, психология героя, рыночная экономика.*

Annotation: this article analyzes the artistic reflection of socio-economic, cultural, and spiritual changes in Uzbek satirical stories of the independence period. Through the works of Vosit Ahmad, Tohir Malik, and Odiljon Muhammad, it examines how satire, sarcasm, and irony are utilized to expose bureaucratic remnants, corruption, the crisis of reading, and negative aspects of modern blogging. The article highlights the significant role of satirical short stories in criticizing social flaws and developing national literature.

Key words: *independence period literature, satirical short story, social contradiction, bureaucracy, irony, sarcasm, character psychology, market economy.*

Mustaqillik davri o‘zbek satirik hikoyalarida jamiyatdagi bosqichma-bosqich o‘zgarishlarning badiiy aks ettirilishi adabiyotning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirdi. Ushbu davr hikoyalari jamiyatdagi o‘zgarishlarni tanqidiy va hajviy yondashuv orqali tasvirlab, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini o‘quvchiga yetkazishga xizmat qildi.

Bunga misol tarzida Vosit Ahmadning “Bemalol o‘laver” hikoyasini keltirish mumkin. Unda tuman toponimik komissiyasining raisi Beburdbek Qaytarovning qilmishlari aks ettirilgan. Uning atamalarni yaxshi tushunmasligi, savodi pastligi, nomi abadiylashtirilishi kerak bo‘lgan mutafakkirlarni yaxshi bilmasligi, har bir qabuliga kelgan kishidan pora ta’ma qilishi, joy nomlarini pora olgan odamlarining yaqin kishilari bo‘lgan har qanday odam nomiga qo‘yishga ruxsat beraverishi, sho‘ro davri siyosati va mafkurasi qaytishini xohlashi kabi qilmishlari orqali tasvirlanadi. “Kommunizm” qishlog‘ini jonkuyar ustoz nomiga o‘zgartirish taklifi Qaytarov tomonidan negativ qabul qilinishi shuni ko‘rsatadi. Xonaga Qaytmas ota Cho‘rtkesarov kelganida esa uning mahallaning bir ko‘chasiga fidoyi yigitning nomini berish taklifiga javobi ham ta’ma bo‘lgach, otaxon unga tezroq o‘lishni, chunki bu mahallada o‘likni kafanlab ko‘mish uchun hamma sharoit borligini aytganida Qaytarov devorga mixlanib, “o‘ldimi, tirikmi – bir qarashda bilib bo‘lmasdi” , deya ta’riflanadi. Hikoyadagi qahramonlar nomi ham xajviy yo‘sinda va bir-biriga teskari ma’noda shakllantirilgan: Beburdbek Qaytarov va Qaytmas ota Cho‘rtkesarov kabi. Ism va sharifdagi antiteza asar g‘oyasini yanada bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qilgan.

Mustaqillik davrining keyingi bosqichlarida yozilgan satirik hikoyalarda zamonaviy o‘zgarishlar bilan bog‘liq muammolar, kishilar orasida madaniy qadriyatlarga nisbatan beparvolik kabi masalalar yoritilgan. Bu hikoyalarda zamonaviy hayotning insoniy munosabatlarga ta’siri, jamiyatdagi axloqiy inqiroz va madaniyatning yo‘qolib borayotgan qirralari hajviy uslubda aks ettirilgan. Yozuvchilar yangi sharoitlarda inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni badiiy vositalar yordamida o‘quvchiga tushunarli tarzda yetkazgan. Bunday mavzudagi hikoyalardan biri Vosit Ahmad qalamiga mansub “Sho‘rlikkina kitobim” hikoyasini misol sifatida keltirish mumkin. Unda kitobning qadriga yetmaydigan kimsalar obrazi aks ettirilgan. Birinchi kitobi nashrdan chiqqan hikoyachi qahramon tuman idorasi boshlig‘ining huzuriga o‘z kitobiga uzundan uzoq dastxat yozib olib kirishi, lekin kitob o‘qilish o‘rniga pashsha haydash, stol oyog‘ini rostlash uchun ishlatilganligini ko‘rgan muallifning bir ahvolga tushishi voqealari bayoni davomida boshliqning kitobning naf keltirar o‘rinlarini quyidagicha sanashi “dard ustiga chipqon” tarzida aks ettirilgan: “Yaxshi odamlarning kitobi nafaqat o‘qishga, boshqa maqsadda ham odamlar xizmatida bo‘larkan. Masalan, Ali Qambarning romani sabzi taxta o‘rnida xo‘p yarayapti. Soyib G‘oyibning qissasi zalimizdagi xontaxta oyog‘i ostidan joy olgan. Xontaxta atrofiga ne-ne kazo-kazolar yig‘iladi. Ham xizmatda, ham reklama. Aziza Kanizaning she’rlar to‘plamini Afrikadan keltirilgan ajabtovur kaktus gultuvagi ostiga qo‘yganmiz. Safar Hasharning dostonlari kitobi juda qattiq muqovali ekan. Uyda o‘g‘il-qizlar tennis raketkasi o‘rnida ishlatishyapti. Bular obro‘mi, obro‘...” Ko‘rinadiki, kitobni xor qilish orqali odamlarning ma’naviy tanazzuli undagi buyumparastlik, mansabparastlik illatlari vositasida ochib berilgan.

Satirik hikoyalarda mustaqillik davrining turli bosqichlarida jamiyatda yuzaga kelgan muammolar bilan bir qatorda, bu

jarayonning ijobiy tomonlari ham yoritilgan. Yozuvchilar o‘z asarlarida milliy o‘zlikni anglash, erkinlik va yangi imkoniyatlarni qadrlash g‘oyalarini ilgari surganlar. Shu bilan birga, hikoyalarda insonning o‘z o‘rnini topish yo‘lidagi qiyinchiliklari va bu jarayondagi kulguli, ammo mazmunli vaziyatlar orqali jamiyatdagi turfa muammolarni ochib berishga harakat qilingan.

Mustaqillik davri satirik hikoyalarida qahramonlarning hayotiy pozitsiyasi orqali jamiyatdagi ijtimoiy hodisalarning tahlili muhim o‘rin tutadi. Yozuvchilar hikoyalar qahramonlarini turli xil ijtimoiy qatlamlarga mansub qilib tasvirlash orqali jamiyatdagi murakkab jarayonlarni yoritib berishga erishadilar. Qahramonlarning dunyoqarashi, harakatlari va qarorlarida ularning ijtimoiy mavqeyi va sharoitlari aks etadi, bu esa jamiyatdagi muammolarni yanada yaqqolroq ochib beradi.

Hikoyalarda qahramonlarning shaxsiy hayotidagi tanlovlar va qarorlar orqali jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar tanqid qilinadi. O‘z manfaati uchun harakat qilayotgan qahramon orqali korrupsiya, ochko‘zlik va adolatsizlik kabi masalalar yoritiladi. Ushbu masalalar Vosit Ahmad qalamiga mansub “G‘alati maxluq”, “Yangi boy” hikoyalaridagi holatlar ifodasida ko‘rinadi. “G‘alati maxluq”da poraxo‘r va ta’magir insonning ruhiyati satirik bo‘yoqlarda aks ettirilgan bo‘lsa, “Yangi boy” qahramoni bo‘lgan “katta”larga xushomad qilish orqali endi molparastlikka, manfaatparastlikka ruju qo‘ygan yangi boyning xatti-harakati o‘quvchida nafrat uyg‘otadi.

Tohir Malikning “Samalyot sotiladimi?” nomli hikoyasi garchi sho‘ro davri voqeligini aks ettirgan bo‘lsa-da, unda mavjud tuzum siyosati va insonlar o‘rtasida ziddiyatlar to‘laqonli aks ettirilgan. Unda o‘sha davrda kolxozlarga kelib siyosiy tashviqotlar olib borgan lektorning kelishi, uning “kommunizm qurish” haqidagi utopiyasi bayoni, shu paytda butefosdan zaharlanib o‘lgan ona-bolalar haqidagi xabarning yetib kelishi, Tursunali polvonning rais, lektor, raykom xodimini garovda ushlab turishi, rayon rahbari kelgach, u bilan murosaga kelishi voqealari aks ettirilgan.

Ushbu hikoyada fojeali holat achchiq zaharxanda – sarkazm orqali ifodalanishi kuzatilgan. Xususan, Tuman rahbari Ja’farboyning butefosdan zaharlanib vafot etgan homilador xotini va norasida bolasi xuni evaziga “... un, guruch, yog‘ olib kelishadi. Ja’farboyning ilg‘or suvchi ekani inobatga olinib, navbatdan tashqari yengil avtomashina ajratdik. O‘zlari yashayotgan ko‘chaga marhumaning nomlarini beramiz. O‘g‘illari o‘qigan maktabda uning nomida faxrli parta tashkil etamiz...”. O‘g‘li hali maktabga bormaganligini eshitgan rahbar “Unda bog‘chada faxrli karavot tashkil etamiz” deyishi ham sho‘ro davridagi “qizil siyosat”ni, maddohlikni ko‘rsatgan.

Ulardan biri Odiljon Muhammad qalamiga mansub “Bodring kabob” nomli hikoya. Hikoyada bugungi kun jamiyatining “oldi saflari”da ketayotgan blogerlik faoliyati xususda so‘z boradi. “O‘sha buyurtmachi aytgan boshliqqa avvaliga “bir-ikki tosh otib” cho‘chitaman. Bechoraning shunaqangi xunobi oshadiki, asti qo‘yaverasiz. Ish bor joyda kamchilik ham bo‘ladi-ku!.. Eng zo‘ri “senzura” degan narsaning o‘zi yo‘q. Buyog‘ini xohlaganingdek olaverasan” .

Shuningdek, davlat amaldorlarining xalq manfaatlarini e’tiborsiz qoldirishi yoki o‘z shaxsiy manfaatlarini ustun qo‘yishi masalalari satirik hikoyalarda ko‘p yoritiladi. Bunday hollarda qahramonlarning mulozimlar bilan bo‘lgan kulguli uchrashuvlari yoki absurd vaziyatlari orqali yozuvchilar davlat tizimining korrupsiyaga moyilligini va xalqdan uzoqlashganligini kinoyali usulda tasvirlaydilar. Bu hikoyalarda davlat tizimining odamlarga bo‘lgan ta’siri oddiy odamlarning hayoti orqali ifodalanib, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchsizlik muammosi ochib beriladi. Bu holat yuqorida ham ko‘rib o‘tilgan “Bemalol o‘laver” hikoyasida ham kuzatilgan edi.

Yana bir muhim jihat – jamiyatning davlat qarorlariga moslashish jarayoni. Bunday hikoyalarda davlat tomonidan qabul qilingan yangi qonunlar va siyosatlarning oddiy odamlar hayotiga ta’siri hajviy uslubda tasvirlanadi. Buni yozuvchilarning bozor iqtisodiga o‘tish bilan bog‘liq qator hikoyalarida kuzatish mumkin. Xususan, Tohir Malikning “Bozor iqtisodiyoti”, “Zamonaviy tadbirkor”, Vosit Ahmadning “Sovrin”, “Otang bozor, onang bozor” turkumidagi hikoyalarni kiritish mumkin. Ularda asosiy mavzu mustaqillikning ilk yillarida bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri qiyinchiliklari, xalq orasidagi tushunmovchiliklarni hajv yo‘li bilan aks ettirishdan iborat bo‘lgan. “Bozor iqtisodiyoti” hikoyasida er va xotinning bozor iqtisodiyotiga “o‘tish jarayoni”, bunda uydagi har bir qilinadigan ish pulga chaqilishi, natijada er soliqchi oshnasiga murojaat qilib, har bir qilingan daromadga “soliq solish” orqali vaziyatdan chiqib ketishi tasvirlangan. Ushbu hikoyalarda davlat tizimidagi inson manfaatlariga zid bo‘lgan jihatlar, rasmiyatchilikning samarasizligi va byurokratik to‘siqlar o‘quvchi uchun kulguli, ammo teran o‘ylantiruvchi tarzda aks ettiriladi. Hikoyalarda qahramonlarning iqtisodiy tengsizlikka duch kelishi ko‘pincha kulguli vaziyatlar orqali aks ettiriladi. Boylikka ega qahramonlarning keraksiz dabdabalari yoki kambag‘allar hayotining og‘irligi kinoyali shaklda ifodalanadi. Bu orqali yozuvchi ijtimoiy kontrastlarni ko‘rsatib, o‘quvchini jamiyatdagi boylik taqsimotining adolatsizligiga e’tibor qaratishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Борев, Ю.Б. Комическое или о том, как смех казнит несовершенство мира, очищая и обновляя человека. – Москва: Искусство, 1970. 268 с.

2.Jabborov, N. Ma’no va mazmun (Badiiy asar tahliliga oid kuzatishlar). – Toshkent: Sharq, 2013. 240-b.

3.Karimov, B. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. – Toshkent: Fan, 2006. 240-b.

4.Mirziyoyev, Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. 456-b.

5.Normatov, U. Qodiriy bog‘i (Mustaqillik davri adabiy tanqidchiligi masalalari). – Toshkent: Ma’naviyat, 1996. 230-b.

6. Одилжон Муҳаммад. Бодринг кабоб. // “Муштум” журнали. 2023-йил, 9-10-сон. Б. 19.

7.Расулов, А. Илми ғарибни қўмсаб (Ҳажвиёт ва сатира назарияси ҳақида). – Тошкент: Маънавият, 1998. 128 б.

8. Тоҳир Малик. Тескари кўзлар. – Т.: DAVR PRESS. Б. 220.

9. Восит Аҳмад. Шўрликкина китобим. Тошкент: Наврўз. 2020. Б. 190.

Gulshan FAYZIYEVA,
BuxDU mustaqil izlanuvchisi
gulshanfayziyeva8@gmail.com

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTIDA TAXMISNAVISLIK: AN’ANA VA ZAMONAVIY TALQIN

Annotatsiya: ushbu maqolada istiqlol davri o‘zbek adabiyotida taxmisnavislik janrining rivojlanish tendensiyalari adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Taxmis klassik she’riy janr sifatida o‘zbek adabiy an’anasida muhim o‘rin tutib, XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida yangi mazmun va shakliy xususiyatlar bilan boyiganini maqola ko‘rsatib beradi. Natijada istiqlol davri taxmisnig an’anaviy poetika chegaralarini kengaytirganligining asosiy belgilari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *taxmis, istiqlol davri adabiyoti, klassik she’riyat, o‘zbek adabiyoti, an’ana, zamonaviy poetika, janr, muammo, g‘azal.*

Аннотация: в данной статье с позиций литературоведения анализируются тенденции развития жанра тахмис в узбекской литературе периода независимости. Статья показывает, что тахмис, являясь классическим поэтическим жанром, занимает важное место в узбекской литературной традиции и обогатился новым содержанием и формальными особенностями в конце XX — начале XXI века. В результате выявляются основные признаки расширения тахмисом границ традиционной поэтики в период независимости.

Ключевые слова: *тахмис, литература периода независимости, классическая поэзия, узбекская литература, традиция, современная поэтика, жанр, проблема, газель.*

Annotation: this article analyses the development tendencies of the takhmis genre in Uzbek literature of the independence period from a literary studies perspective. The article demonstrates that takhmis, as a classical poetic genre, holds an important place in the Uzbek literary tradition and was enriched with new content and formal characteristics at the end of the 20th and the beginning of the 21st century. As a result, the key features of takhmis expanding the boundaries of traditional poetics during the independence period are identified.

Key words: *takhmis, independence period literature, classical poetry, Uzbek literature, tradition, contemporary poetics, genre, problem, ghazal.*

Kirish. O‘zbek adabiyotida she’riy an’analar tizimi juda kuchli va serqatlam bo‘lib, unda taxmisnavislik o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Taxmis forscha-tojikcha “besh” ma’nosini anglatuvchi “xams” so‘zidan yasalgan bo‘lib, biror shoir g‘azalining har bir baytiga uch misra qo‘shish yo‘li bilan yaratilgan beshsatrlilarga asoslangan she’riy janrni bildiradi [1]. Bu janr o‘zbek mumtoz adabiyotida Navoiy, Fuzuliy, Muqimiy singari yirik siymolar ijodida keng qo‘llangan bo‘lsa-da, sovet davrida mafkuraviy cheklovlar sababli klassik poetik shakllar, jumladan taxmis ham sezilarli darajada siqib qo‘yilgan edi [2]. 1991-yilda O‘zbekiston mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan adabiyot olamida ham yangilanish jarayonlari boshlanib, ulug‘ ajdodlar merosiga qaytish va milliy she’riy janrlarni tiklash harakati kuchaydi. Istiqlol davri deb atalmish bu yangi adabiy bosqich taxmisnavislikka ham yangi nafas va mazmun bag‘ishladi. Mazkur maqolaning maqsadi istiqlol davri o‘zbek adabiyotida taxmisnavislik janrining xususiyatlarini, uning an’anaviy shakldan qanday rivojlanib, zamon talablariga mos yangi qirralar kashf etganini ilmiy jihatdan o‘rganishdan iborat.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili.

Ushbu tadqiqot taqqoslama adabiyotshunoslik va matn tahlili metodlariga asoslanadi. O‘zbek adabiyotshunosligida Mallayev taxmisning mumtoz shaklini atroflicha tahlil etgan bo‘lib, uni an’anaviy xamschilik an’anasi bilan bog‘liq ravishda ko‘rib chiqqan [3]. Qo‘chqorov istiqlol davri she’riyatida klassik janrlarning qayta tikllanishi masalasiga bag‘ishlangan ishida taxmisni yangilanayotgan milliy she’riy tizimning muhim elementi sifatida baholaydi va uning zamonaviy shoirlar tomonidan o‘zlashtirilish xususiyatlarini ko‘rsatib beradi [2]. Rus sharqshunosi Bertels tomonidan yozilgan fundamental tadqiqot esa Navoiy ijodidagi an’anaviy janrlarning, jumladan taxmisning badiiy vazifalari haqida muhim nazariy asosni taqdim etadi [4]. Stebleva qadimgi turkiy adabiyot poetikasiga bag‘ishlangan ishida janriy an’analar va ularning tarixiy uzluksizligi masalasini ko‘taradi, bu esa istiqlol davri adabiyotidagi tiklanish jarayonlarini tushunishda muhim metodologik zamin vazifasini o‘taydi [5].

Hamidov istiqlol davri she’riyatini tadqiq etgan monografiyasida taxmisnavislik zamonaviy sharoitda nafaqat estetik, balki milliy o‘zlikni anglash vazifasini ham bajarayotganini ko‘rsatib beradi [6]. Xorijiy adabiyotshunoslikda Ripka klassik fors adabiyotidagi janriy tizimni o‘rganib, taxmisning funksional xususiyatlarini umumturkiy-forsiy adabiy makon kontekstida izohlagan [7]. Fitrat she’riyat nazariyasiga oid merosida taxmisni estetik

jihatdan baholab, bu janrning san’atkorona ijro etilishi uchun shoir nafaqat ustod ijodini chuqur o‘zlashtirgan, balki o‘z ovozini ham topgan bo‘lishi kerakligi haqidagi fikrlarni ilgari surgan [8]. Yo‘ldoshev adabiy tahlil metodologiyasiga bag‘ishlangan asarida janriy tahlilning ilmiy mezonlarini ishlab chiqqan bo‘lib, ushbu maqolada ham shu yondashuv asos qilib olindi [9]. Qodirov adabiyot va hayot munosabatlari haqidagi ishida istiqlol davri adabiyotining umumiy tamoyillarini an’ana va yangilik munosabati prizmasi orqali tahlil etadi, bu esa taxmisnavislikni keng ijtimoiy-madaniy kontekstda o‘rganish imkonini beradi [10]. Keltirilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, istiqlol davri taxmisnavisligini to‘liq qamrab oluvchi maxsus monografik tadqiqotlar hali ozchilikni tashkil etadi va bu soha keyingi ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Natijalar va muhokama.

Adabiyotlar tahlili natijasida istiqlol davri o‘zbek taxmisnavisligining bir necha muhim xususiyatlari aniqlanadi. Birinchidan, bu davrda taxmisnavislik keng miqyosda jonlanib, nafaqat avlod shoirlar, balki yosh ijodkorlar ham bu janrga faol murojaat etgan. Navoiy, Ogahiy, Muqimiy, Furqat g‘azallariga yozilgan taxmislar istiqlol adabiyotida alohida o‘rin egallaydi va mumtoz merosga nisbatan ehtirom hamda muloyim ruhiy yaqinlikni ifodalaydi. Ikkinchidan, zamonaviy taxmisda mavzu doirasi sezilarli darajada kengaygan. Mumtoz taxmislar asosan ishqiy va tasavvufiy g‘azallarga yozilgan bo‘lsa, istiqlol davri taxmislarida Vatan, ozodlik, milliy uyg‘onish kabi mavzular ham chuqur o‘rin topgan [6]. Bu holat janrning mazmuniy imkoniyatlari kengayib, uning ijtimoiy vazifasi yanada oydinlashganidan dalolat beradi. Uchinchidan, istiqlol davri taxmisnig shakliy nuqtayi nazardan ham o‘ziga xos rivojlanish kuzatiladi.

Klassik taxmis qat’iy ravishda asl g‘azalning radifi, qofiyasi va vazni bilan bog‘liq holda yaratilishi shart edi [3]. Zamonaviy shoirlar esa ushbu an’anaviy talbdan ijodiy chekinishga, beshsatrlilikning ichki dinamikasini yangicha tashkil etishga harakat qilmoqdalar. Bu jarayonni inqiroz yoki an’ananing buzilishi sifatida emas, balki janrning o‘z imkoniyatlarini kengaytirishi sifatida baholash to‘g‘riroq bo‘ladi [2]. To‘rtinchidan, taxmisnavislik istiqlol davrida milliy o‘zlikni anglash va ajdodlar merosiga qaytish harakatining ramziga aylanib bordi. Sovet davridagi mafkuraviy tanlovdan so‘ng klassik shakllar bilan ish ko‘rish o‘zi alohida madaniy-siyosiy ma’no kasb etdi va taxmis bu ma’noda faqat poetik emas, balki xotiranavislik, an’anaviylik va milliy davomiylik ifodasi sifatida ham qabul qilindi [5]. Beshinchidan, taxmisnavislikning rivojlanishiga muhim ta’sir ko‘rsatgan omil sifatida adabiy tanqid va adabiyotshunoslikning o‘sib borayotgan e’tiborini qayd etish lozim. Darsliklar, antologiyalar va maxsus ilmiy maqolalar orqali taxmis janrining nazariy asoslanishi kuchaydi va bu o‘z navbatida shoirlarga yanada ongli ijodiy yondashuv imkonini berdi [9].

Shunday bo‘lsa-da, istiqlol davri taxmisnig ayrim muammolari ham mavjud. Janrning an’anaviy qat’iy mezonlari ba’zan zamonaviy shoirlar tomonidan yetarli darajada hisobga olinmaydi va bu taxmis hamda erkin she’riy izoh o‘rtasidagi chegaraning xiralashishiga olib keladi. Bundan tashqari, istiqlol davri taxmisnavisligini to‘liq qamrab oluvchi maxsus ilmiy tadqiqotlar hali yetarli emas, mavjud adabiyot esa ko‘pincha bu janrni umumiy klassik adabiy an’ana kontekstida ko‘rib chiqib, zamonaviy xususiyatlariga kam e’tibor qaratadi [4].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, taxmisnavislik istiqlol davri o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin egallaydi va klassik an’ananing tirik davomiyligini namoyish etadi. Ushbu janr sovet davrida siqib qo‘yilganidan keyin mustaqillik sharoitida yangi kuch bilan jonlanib, ham shakl, ham mazmun jihatidan o‘ziga xos rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Istiqlol davri taxmisnig eng muhim xususiyati uning ikki tomonlamaligi: bir tomondan ajdodlar merosiga sadoqat, ikkinchi tomondan zamonaviy badiiy talablar bilan uyg‘unlashuvdir. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ushbu jarayonni kuzatish milliy she’riy an’ananing o‘zgaruvchanlik va barqarorlik dialektikasini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida istiqlol davri taxmisnavisligiga bag‘ishlangan maxsus, keng qamrovli tadqiqotlar olib borish zaruriyati mavjud bo‘lib, bunday ishlar o‘zbek adabiyotshunosligini boyitishga munosib hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev T. O‘zbek folklori va adabiyotining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 2005. 218-b.
2. Qo‘chqorov R. O‘zbek she’riyatida an’anaviy janrlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. 176-b.
3. Mallayev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976. 504-b.
4. Бертельс Е.Э. Навои. Творческий путь поэта. Москва: Издательство АН СССР, 1965. 344 с.
5. Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературы и её трансформация в раннеклассическом периоде. Москва: Наука, 1976. 230 с.
6. Hamidov H. Istiqlol davri o‘zbek she’riyati: an’ana va yangilik. – Toshkent: Akademnashr, 2015. 192-b.
7. Rypka J. History of Iranian Literature. Dordrecht: D. Reidel Publishing Company, 1968. 928 p.
8. Fitrat A. She’riyat haqida. – Toshkent: Sharq, 1999. 96-b.
9. Yo‘ldoshev Q. Adabiy tahlil metodologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. 248-b.
10. Qodirov P. Adabiyot va hayot. – Toshkent: Sharq, 2002. 312-b.

Vazira ABDULLAYEVA,
Qo‘qon universiteti Filologiya kafedrasi o‘qituvchisi
abvazira12@gmail.com

“QUTADG‘U BILIG” ASAR MATNIDAGI FRAZEMALARNING HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIGA MUNOSABATI

Annotatsiya: ushbu maqolada XI asrda yozilgan “Qutadg‘u bilig” asarining til xususiyatlari o‘rganilib, tahlil qilingan. Tilshunoslik sohasida murakkab til birligi sanalgan frazemalarning tarixiy jihatdan keng qo‘llangan asar sifatida “Qutadg‘u bilig”dagi frazemalarni struktur-grammatik va semantik jihatdan o‘rganish olib borilgan. Asardagi frazemalar hozirgi kunda ko‘pgina o‘zgarishlarga uchraganini ko‘rish mumkin. Bu esa tarixiy frazemalarning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi. Qadimgi turkiy tilda yozilgan “Qutadg‘u bilig”dagi frazemalardan muallif keng o‘rinlarda qo‘llagan. Asarni kuzatish jarayonida ko‘pgina frazemalarning o‘zgarishlarga uchragani, iste’moldan chiqib ketgani va komponentlarida o‘zgarishlar yuzaga kelgani aniqlandi. Frazemalardagi bu kabi o‘zgarishlar albatta davrlarning ta’siri va til qatlamidagi fonetik o‘zgarishlar ta’siri natijasida yuzaga kelgan.

Kalit so‘zlar: *frazema, qadimgi turkiy til, komponent, struktur-grammatik, tarixiy frazema, fonetik o‘zgarishlar.*

Аннотация: в данной статье изучаются и анализируются языковые особенности произведения «Кутадгу Билиг», написанного в XI веке. Как исторически широко используемое фразеологическое произведение, рассматриваемое в лингвистике как сложная языковая единица, было проведено структурно-грамматическое и семантическое исследование фразеологии «Кутадгу Билиг». Видно, что фразеология в произведении претерпела множество изменений, что свидетельствует о связи исторической фразеологии с современным узбекским литературным языком. Автор широко использовал фразеологию «Кутадгу Билиг», написанную на древнетюркском языке. В процессе изучения произведения было обнаружено, что многие фразеологические элементы претерпели изменения, вышли из употребления, а также произошли изменения в их компонентах. Такие изменения в фразеологии, безусловно, произошли в результате влияния времени и фонетических изменений в языковом слое.

Ключевые слова: *фразеология, древнетюркский язык, компонент, структурно-грамматический, историческая фразеология, фонетические изменения.*

Annotation: this article studies and analyzes the linguistic features of the work “Kutadgu Bilig”, written in the 11th century. As a historically widely used work of phraseology, which is considered a complex linguistic unit in linguistics, the structural-grammatical and semantic study of the phraseology in «Kutadgu Bilig» was conducted. It can be seen that the phraseology in the work has undergone many changes today. This shows the relationship of historical phraseology to the current Uzbek literary language. The author widely used the phraseology in «Kutadgu Bilig», written in the ancient Turkic language. In the process of observing the work, it was found that many phraseology has undergone changes, has fallen out of use, and changes have occurred in its components. Such changes in phraseology have certainly occurred as a result of the influence of the times and the influence of phonetic changes in the language layer.

Keywords: *phraseology, ancient Turkic language, component, structural-grammatical, historical phraseology, phonetic changes.*

Kirish. Tilshunoslikda til birliklarning matn mazmunini va syujet davomiyligi hamda jozibadorligini oshirishda o‘rni beqiyosdir. Bu borada XX asrdan keyin til birliklari orasida murakkab til birligi sifatida nutqda tayyor holda yuzaga kelgan frazemalarni qo‘llanishi va semantik xususiyatlari o‘rganish tizimi yanada oshdi.

Frazemalarning struktur-grammatik, semantik xususiyatlari o‘rganilgan. Barqaror birikmalarning til taraqqiyoti davomidagi lingvistik xususiyatlarini og‘zaki nutqda belgilash imkonsiz. Ammo ularning fonetik, semantik, grammatik xususiyatlari yozma manbalarda o‘z ifodasini topadi. Shu jihatdan tarixiy yozma manbalardagi frazemalar tadqiqi maz-

kur til birligining muayyan davrdagi semantik, lisoniy-madaniy, struktur-grammatik o‘ziga xosligini aniqlashda ahamiyatlidir.

Adabiyot tahlili. Frazeologik birliklarni fan sifatida rivojlanib borishi V.V.Vinogradov, A.B.Kunun, N.N.Amosova, N.M.Shanskiylarning ilmiy qarashlari bilan bog‘liq holda yuzaga keldi. E.F. Arsentyeva, Ch.Timea, I.E. Gorodetskaya tadqiqotlarida soma tarkibli frazeologizmlarning antroposentrik paradigma asosidagi qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Turkiyshunoslikda frazeologik birliklar leksik-semantik jihatdan o‘rganilgan. Xususan, R.E. Jaysakova qozoq tili frazeologizmlarini struktur-grammatik jihatdan tahlil qilgan. R.X. Annayeva tadqiqotida og‘zaki va yozma yodgorliklar matnidagi frazeologizmlar tahlilga tortilgan. B.K. Umabayeva frazeologizmlarning etnolingvistik xususiyatlarini, K.S.Kalibayeva dialektal frazeologizmlarni semantik jihatdan tavsiflagan. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar Sh.Rahmatullayev, A.Isayev, A.Mamatov, B.Yo‘ldoshev, K. Bozorboyev, Sh.Almamatova, Sh. Ganiyevalar izlanishlarida tahlil etilgan. I. Qo‘chqortoyev, E.Umarov, H. Qahhorova, I.O‘razova tadqiqotlarida frazeologizmlar manba sifatida o‘rganilgan. G.Ergasheva, G. Adashulloyeva, A.A. Nasirov, G. Kurbonova, Sh.Raximova, M.A. Radjabova, Sh. Musurmankulova tadqiqotlarida o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar qiyosiy va chog‘ishtirma aspektda tadqiq etilgan.

Metodologiya. “Qutadg‘u bilig” asaridagi frazemalarni o‘rganilish jarayonida kuzatish, lingvistik tahlil, qiyoslash metodlaridan foydalanildi. Asardagi frazemalarni topish jarayonida Q.Karimov tomonidan asarning transkripsiya va hozirgi o‘zbek tiliga tavsifi (1971) asosida hamda Abu Rayhon nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanib kelayotgan 6090 raqamli Vena nusxasining fotofaksimelini kuzatish, ayrim baytlarni tabdil qilish asosida o‘rganildi.

Tadqiqot ishi asardagi frazemalarni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati va qo‘llanilish doirasini lingvistik tahlil qilish orqali amalga oshirildi.

Tadqiqot natijasi. “Qutadg‘u bilig”dagi barqaror birikmalarning hammasi ham bugungi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydi. Buni quyidagi ayrim frazemalarning tahlili orqali kuzatamiz.

“Qutadg‘u bilig”dagi frazemalar hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabatiga ko‘ra quyidagicha tasniflandi:

1. Hozirgi o‘zbek tilida fonetik farq bilan qo‘llanadigan frazemalar.

2. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bir komponenti bilan farqlanadigan frazemalar.

3. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanmaydigan frazemalar.

“Qutadg‘u bilig” asari turkiy tillarning tarixiy rivojlanish jarayonini o‘rganishda muhim manba bo‘lib, undagi frazeologik birliklar bugungi o‘zbek tilida ham faol yashab kelayotganini ko‘rish mumkin. Ushbu frazemalar semantik jihatdan deyarli o‘zgarmagan bo‘lsa-da, fonetik jihatdan ma’lum o‘zgarishlarga uchragan. Bu holat tilning tarixiy taraqqiyoti, fonetik tizimidagi evolyutsiya va nutqiy moslashuv bilan izohlanadi.

Qadimgi turkiy til va hozirgi o‘zbek tili o‘rtasidagi asosiy fonetik farqlar frazeologik birliklarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, qadimgi turkiy tilga xos bo‘lgan **ŋ** undoshi hozirgi o‘zbek tilida ko‘pincha **ng** shakliga o‘tgan (*köŋül* → *ko‘ngil*), **ä** unlisi esa **a yoki e** bilan almashgan (*täg* → *dek*), shuningdek, **ï** unlisi hozirgi til tizimida **i** yoki **u** bilan ifodalanadi (*tılı* → *tili*). Bu o‘zgarishlar frazemalarning tashqi shakliga ta’sir etgan bo‘lsa-da, ularning ichki mazmuni va funksional vazifasi saqlanib qolgan.

Masalan, “Qutadg‘u bilig”da uchraydigan **“tili köŋli bir-täg”** frazemasi hozirgi o‘zbek tilida **“tili bilan dili bir”** shaklida qo‘llanadi. Bu yerda fonetik o‘zgarish bilan bir qatorda, qisman leksik almashuv ham yuz bergan (*köŋül* → *dil*), biroq frazemaning asosiy semantik mazmuni — samimiylik, ichki va tashqi uyg‘unlik — saqlanib qolgan. Shuningdek, **“sözi tut-”** birikmasi hozirgi o‘zbek tilida **“so‘zini tutmoq”** tarzida ishlatiladi. Bu holatda frazemaning strukturasi va semantikasi deyarli o‘zgarmagan, faqat fonetik moslashuv kuzatiladi. Bu kabi birliklar tilning tarixiy uzviyligini, frazeologik qatlamning barqarorligini ko‘rsatadi.

“Qutadg‘u bilig”da uchraydigan **“köŋül bağla-”** birikmasi ham hozirgi o‘zbek tilida **“ko‘ngil bog‘lamoq”** shaklida faol qo‘llanadi. Bu frazemada *köŋül – ko‘ngil* fonetik o‘zgarishi yuz bergan bo‘lsa-da, uning semantik yadrosi — mehr qo‘yish, qalban bog‘lanish — to‘liq saqlangan. Yana bir muhim misol — **“tünüŋ yatmadı”** birikmasidir. Hozirgi o‘zbek tilida bu **“tuni bilan uxlamadi”** shaklida ifodalanadi. Bu yerda nafaqat fonetik, balki qisman leksik o‘zgarish ham kuzatiladi (*yat-* → *uxla-*), ammo umumiy ma’no o‘zgarmagan.

Muhokama va xulosa. Frazemalar nutq birliklari hisoblanib, keyinchalik bir necha so‘zning birikib, yaxlit ma’no ifodalashi natijasida til birligiga aylanadi. Ikki va undan ortiq so‘zning birikib, yaxlit bir ko‘chma ma’noni ifodalashi frazemalarga xosdir. Frazemalar tarkibi ajratilmaydigan barqaror birikmalar sifatida ham qaraladi.

Jahon tilshunosligida frazemalarning tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilishi uchun asos bo‘lgan uch jihat qayd etilgan: lingvistik mohiyati semantikasidan kelib chiqishi, yuzaga kelishi va komponent-leksemalarning insonga yo‘naltirilgan semantik funksiya bajarishi jihatidan antroposentrik xususiyatga egaligi, frazeologik tizim lingvistik va ekstralingvistik omillarning natijasi ekanligi ta’kidlangan.

O‘zbek tilshunosligida asarni nashr qilish, ommalashtirish, tabdil qilish yuzasidan ko‘plab yutuqlarga erishilgan. “Qutadg‘u bilig” bilan bog‘liq ilmiy muammolar adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohasida alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilgan. O‘zbek tilshunosligida pandnoma leksikasi monografik planda tadqiq etilgan. Asar matni eski turkiy til davriga xos va ijodkorning badiiy mahorati bilan belgilanuvchi frazemalarni ham o‘z ichiga oladiki, mazkur til birliklarini alohida tadqiqot mavzusi sifatida o‘rganish dolzarblik kasb etadi. “Qutadg‘u bilig” matnidagi frazemalar olam manzarasining turli qirralarini yoritishga qaratilgan bo‘lib, mavzu jihatidan turli xil semantik guruhlarga mansubdir. Pandnoma frazemalari asosan, shaxs tafakkuri, idroki, ruhiyati bilan bog‘liq, shaxs fe’l-atvori, axloqiga oid tushunchalarni ifodalovchi, faoliyati, harakat-holati va muloqot xulqiga oid tushunchalarni aks ettiradi. Frazemalarning shaxsni turli jihatdan tavsiflashga qaratilgani, uning harakati va faoliyatini aks ettirishga xizmat qilishi “Qutadg‘u bilig”ning syujet markazida inson turishini asoslashga xizmat qiladigan lingvistik dalildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф.–Toshkent, 2017. 47 б.

2. Абдужаббарова Ф. «Қутадғу билиг»даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика. Филол. фан. номз... дисс. –Toshkent, 2011. 162 б.

3. Абдуллаев Х. Халқ мақолларининг “Қутадғу билиг” поэтикасидаги ўрни ва бадиий-эстетик функциялари. Филол. фан. номз....дисс. –Toshkent. 2005.

4. Abdullayeva V. “Qutadg‘u bilig”dagi somatik frazemalarning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati // O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari, 2025. – Toshkent. 18-soni, 777-b

5. Abdullayeva V. “Qutadg‘u bilig” asari frazemalarining funksional-semantik tadqiqi // UZA O‘zbekiston Milliy axborot agentligi jurnali, 2025. 7-son, 75-b

6. Содиқов Қ. XI-XIV аср уйғур ёзувли туркий ёдгорликларнинг график-фонетик хусусиятлари.Филол. фан. док.....дисс.–Toshkent, 1992.167-б.

7. Дадабоев. Ҳ. Қадимги ёзма ёдгорликларда ҳарбий лексика // Адабий мерос. –Toshkent, 1980. 56–63 б.

8. Karimov Q. “Qutadg‘u bilig” asarining transkripsiyasi va hozirgi o‘zbek tiliga tavsifi. – Toshkent,1971. 955-b.

Sardor ERGASHEV,
Qarshi davlat universiteti,
mustaqil izlanuvchisi
sardorergashev665@gmail.com

TRANSFORMATSIYA TUSHUNCHASI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya: maqolada transformatsiya tushunchasining lingvistik maqomi hamda G'arb tilshunosligida shakllanishi va turkiy tillar, ayniqsa o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi keng yoritilgan bo'lib, bu masalada S.Mahmatqulovning transformatsiya haqidagi qarashlariga alohida e'tibor qaratilgan. Hamda olimning predikativ sintagma va sintaktik derivatsiya masalasidagi ilmiy xulosalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *transformatsiya, sintaktik derivatsiya, predikativ sintagma, yadroviy tuzilma, sintaktik model, transformatsion metod.*

Аннотация: в статье подробно рассматривается лингвистический статус понятия трансформации, его формирование в западном языкознании и изучение в тюркских языках, в частности в узбекском языкознании. В этом контексте особое внимание уделяется взглядам С.Махматкулова на трансформацию. Также анализируются научные выводы ученого по вопросам предикативной синтагмы и синтаксической деривации.

Ключевые слова: *трансформация, синтаксическая деривация, предикативная синтагма, ядерная структура, синтаксическая модель, трансформационный метод.*

Annotation: this article provides a comprehensive overview of the linguistic status of the concept of transformation, its development in Western linguistics, and its study in Turkic languages, particularly in Uzbek linguistics. Special attention is given to the views of S. Mahmatkulov on transformation. The author also analyzes the scholar's scientific conclusions on the issues of predicative syntagma and syntactic derivation.

Keywords: *transformation, syntactic derivation, predicative syntagma, nuclear structure, syntactic model, transformational method.*

Tilshunoslikda transformatsiya hodisasi, uning rivojlanishi hamda tilshunoslar tomonidan o'rganilishi bugunda ko'plab ilmiy tadqiqotlarning asosiy mavzusiga aylanib qolgan. Birinchi marta ingliz olimi F.Griffit tomonidan qo'llanilgan bu termin quyidagicha izohlanadi: "Transformatsiya (lot. transformatio – qayta o'zgarish, qayta hosil bo'lish) (genetikada) – hujayraga yog' DNK kirishi natijasida uning irsiy xususiyatlari o'zgarishi; prokariotlarda genetik material almashish usullaridan biri. [1.587]. Biroq bu atama deyarli barcha fanlar uchun umumiy bo'lib, uning ma'nolari har bir sohada ma'lum darajada yaxlit va differensial farqlar bilan qo'llaniladi. Izohli lug'atda transformatsiya atamasiga: "Transformatsiya [r-lat] Biror narsaning asosiy xususiyatlarining o'zgarishi, o'zgartirilishi. Undoshlarning transformatsiyasi. Organizmlarning transformatsiyasi. Transformatsiya qonuniyatlari. O'zgaruvchan tokni transformatsiya qilish" [2.213] izohi berilgan. Transformatsiya masalasiga oid nazariyalarni dastlab Z.Harres va N.Xomskiy ilgari surgan. "O'zbek tilshunosligi fani oldida ham tilimiz transformatsiologiyasining nazariy va amaliy masalalarini ishlab chiqish bu xususdagi tadqiqotlarni rejali olib borish ilmiy kuchlarimizning bir qismini ushbu muammoning tadqiqiga safarbar etish vazifasi turibdi" [4.87]. Shunday ekan, bizningcha, transformatsiya hodisasini o'rganishda tilshunoslikda alohida yo'nalish sifatida "Lingvotransformatsiologiya" sohasini shakllantirish zarurati ko'zga tashlanmoqda. Transformatsiya hodisasi izohini A.Hojiyev "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" keltirib o'tadi. Tranformatsiya hodisasiga "Grammatik kategoriyalarning o'ziga xos bo'lmagan vazifada qo'llanishi" [5.109], – deb ta'rif beradi.

H.Do'simov, Sh.Qahramonova hammuallifligida nashr etilgan "Tilshunoslik terminlarining o'zbekcha – ruscha – inglizcha izohli lug'ati"da transpozitsiya atamasiga ham, transformatsiya atamasiga ham ta'rif berilmaydi. Depredikatsiya hodisasi transformatsiya hodisasiga o'xshashligi haqida to'xtalib izohi keltiriladi: "Depredikatsiya – predikativ sintagmani nopredikativ sintagma tarzida transformatsiyalash. Mas., Delegatsiya Toshkentga keldi. Delegatsiyaning Toshkentga kelishi. (q.) transformatsiya, nominalizatsiya" [6.53].

Transformatsiya hodisasi haqida nazariy qarashlar va ilmiy tadqiqotlar ancha rivojlangan bo'lsa-da, transpozitsiya hodisasi haqida nazariy tushuncha va izohlar hali ham to'liq shakllanmagan va yetarli darajada chuqurlashtirilmagan. Transformatsiya jarayoni tilshunoslar tomonidan yaxshi o'rganilgan va keng qo'llanilayotgan ilmiy tushuncha sifatida mavjud bo'lib, uning grammatik va semantik jihatlari aniq va ilmiy tahlil qilinmoqda. Shu bilan birga, transformatsiyaning sintaktik, pragmatik va ijtimoiy jihatlari ham keng o'rganilgan hamda uning tilshunoslikda, psixolingvistikada va kommunikatsiya jarayonlarida qanday ishlashi haqida ko'plab nazariyalar mavjud. Bugungi kungacha olib borilgan tadqiqotlarda transformatsiya hodisasiga tegishli izlanishlar transformatsiya hodisasi haqida nazariy qarashlar bir muncha yetarli ekanini ko'rsatadi. Biroq transpozitsiya hodisasi ko'proq ilmiy tadqiqotlar va nazariy izohlarni talab qiladi. Transpozitsiya va transformatsiya hodisalari o'rtasidagi farqlarni va o'zaro bog'liqlikni chuqurroq o'rganish, tilshunoslikda yanada aniq va mukammal bilimlarni yaratishga yordam beradi.

S.Mahmatqulov o'z tadqiqotlarida transformatsiya tushunchasining tilshunoslik fanida shakllanishi va qo'llanilishi haqida to'xtalib, bu atamaning aslida umumilmiy mazmun kasb etishini ta'kidlaydi. Olim Moskvada 1949-yil nashr etilgan *"Словарь иностранных слов"* lug'atida keltirilgan ta'rifga

asoslanib, transformatsiya fizik hodisa sifatida kuchlanishning ortishi yoki kamayishi bilan izohlanganini eslatadi va shu fikrga asoslanib, lingvistik transformatsiya ham bir birlikning boshqa bir ko‘rinishga o‘tish jarayoni ekanini ta’kidlaydi.

S.Mahmatqulov tayangan tilshunoslik manbalarida transformatsiya hodisasiga tilning yadroviy tuzilishi asosida ikkilamchi tuzilma hosil qilish jarayoni ekani aytib o‘tilgan. Shuningdek, bu holatda til birliklari til qonun-qoidalariga muvofiq qayta quriladi va yangi sintaktik shakl, semantik tus yoki grammatik vazifaga ega bo‘ladi. Yuqorida qayd etilgan transformatsiya haqidagi ta’rif bevosita O.Axmanovaning “Lingvistik atamalar” lug‘atidagi transformatsiya talqini bilan hamohangdir. S.Mahmatqulov transformatsiya nazariyasining rivojlanish tarixini yoritar ekan, uning ilmiy muomalaga kiritilishi dastlab Z.Harres [7.683] nomi bilan bog‘liqligi hamda bu hodisaning rivojlanishida N.Xomskiy [8.310] alohida o‘rin tutishini ta’kidlaydi.

N.Xomskiyning transformatsiya haqidagi qarashlariga e’tibor qaratsak, til transformatsiyasi chuqur strukturadan yuzaki struktura hosil qilish jarayoni ekanini anglaymiz. Shuningdek, transformatsiya borasida to‘xtalib o‘tgan olim Y.Stepanov til transformatsiyasiga predikatning ismga va ismlik birlikning predikativlikka aylanishini, bu esa sintaktik o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan hodisa sifatida talqin qiladi. Bu fikr tilshunoslikka xos transformatsiyaning nafaqat grammatik, balki semantik o‘zgarishlar bilan ham chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Yana bir muhim jihat shuki, S.Mahmatqulov [9.3-29] V.Admoni tadqiqotlariga murojaat qilib, olimning turkiy tillardagi predikativ sintagmaning xususiyatlarini nemis tili bilan qiyoslash asosida o‘rganganini alohida ta’kidlaydi. Bu yondashuv transformatsiya metodning qiyosiy va tipologik tadqiqotlarda ham qo‘llanilishini ko‘rsatadi.

Olim E.V.Paduchevaning tadqiqotlarini kuzatar ekan, transformatsiya hodisasini sintaktik konstruksiyalar doirasida hamda leksik almashinuvlarning ham transformatsiya hodisasi sifatida talqin qilinishiga e’tibor qaratadi. Bu esa transformatsiya tushunchasining tilshunoslikdagi o‘rni va ahamiyatini yanada kengaytiradi. S.Mahmatqulov o‘z tadqiqotlarida transformatsion metodning sintaktik modellarni o‘rganishdagi ahamiyatini alohida ko‘rsatadi. Uning fikricha, o‘zbek tilidagi predikativ sintagmalar ham transformatsiya jarayonida ko‘plab yangi sintaktik modellar hosil qiladi. Bunda: to‘ldiruvchining ega sifatida yuzaga kelishi, kesimning otlashishi, predikativ leksemaning atributiv vazifada qo‘llanishi, ergash gaplarning qisqarishi yoki kengayishi kabi hodisalar transformatsiyaning turli ko‘rinishlari sifatida tavsiflanadi. Yana bir o‘rinda olim V.Koduxovning transformatsion yondashuvdan sintaktik modellarni yaratishda foydalanish mumkinligi haqidagi fikrlarining asosli ekanini alohida e’tirof etadi.

Tilshunos olim S.Mahmatqulov tilshunoslikdagi transformatsiya hodisasi haqida o‘z qarashlarini bayon etar ekan, L.Barxudarovning [10.240] gaplarning derivatsion imkoniyatlarini aniqlashga bag‘ishlangan ishlarini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, turkiy tillarda transformatsiya masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, S.Mahmatqulov ushbu masalaning tarixiy va nazariy rivojlanishga qo‘shgan hissasini alohida baholaydi va M.Sh. Sheraliyevning “Ozarbayjon tilida ergash gapli qo‘shma gaplar” nomli tadqiqotini turkiy til sintaksisda transformatsion yondashuvni asoslagan dastlabki ishlardan ekaniga alohida urg‘u beradi.

Dunyo va o‘zbek tilshunosligida transformatsiya masalasi S.Balli [11.412], N.K.Dmitriyev, N.A.Baskakov, E.V.Sevortyan, A.A.Koklyanova, E.V.Grunina, E.A.Potseluyev, D.M.Nasilov, V.S.Xrakovskiy, J.Bo‘ronov, A.S.Sodiqov, A.A.Abduazizov, H.G‘. Ne’matov, K.M.Abdullayev, I.M.Mahmudov, D.A.Muhammadova, A.Nurmonov, N.Z.G‘adjiyeva, B.A.Serebren, M.Irisqulov kabilarning ishlarida alohida tatqiq etilganini ta’kidlaydi hamda tildagi transformatsion hodisalarning sintaktik variantlilik, predikativ konstruksiyalarning o‘zgarishi, ergash gaplarning derivatsiyasi, gap bo‘laklarining semantik qayta taqsimlanishi kabi jihatlari aniqlanib, yuqorida nomlari zikr qilingan tilshunoslar tomonidan transformatsiya masalasi turli aspektlarda tadqiq etilgani aytib o‘tiladi.

Xulosa qilib shu ta’kidlash lozimki, etimologik tahlil doimo bahs-munozarali bo‘ladi, chunki uning xulosasi uchun bir-biriga zid ikki asos mavjud: birinchisi – tasdiqlovchi dalil, ikkinchisi – inkor etuvchi sabab. Shunday bo‘lsa-da, mohiyat munozaralar jarayonida aniqlanadi, mohiyatni to‘g‘ri talqin qilishda transformatsiologiya va transpolingvistika kabi til sohalariga bo‘lgan ehtiyoj har doim seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент. 2004. 704 б.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jildlik. 2-jild. – M., 1980. 213-b.
3. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент., 2004. 704 б.
4. Элтазаров Ж. Сўз туркумлари парадегмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. –Тошкент. 2006. 87 б.
5. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2002. 109 б.
6. Do‘smatov H. Qahramonova Sh. Tilshunoslik terminlarining o‘zbekcha - ruscha - inglizcha izohli lug‘ati. – Farg‘ona. 2024.
7. Хэррис З.С. Совместная встречаемость и трансформация в языковой структуре// Новое в лингвистике II. – М., 1962. 683 С.
8. Хомский Н. Синтактик структура. – М., 1957. 310 с.
9. Mahmatqulov S. O‘zbek tilida predikativ sintagmaning transformatsiyalanishi. – Toshkent: Fan, 2010.
10. Бархударов Л.С. Истоки, принципы и методология порождающей грамматики. (введение). – “Проблемы порождающей грамматики и семантики”. – М., 1976. 240 с.
11. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М., 1955. 412 с.

Alimardon ERGASHEV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
baxmal4455@gmail.com

HAVOLA BO‘LAKLI QO‘SHMA GAPLARNING TRANSFORMATSIYALANISHIDA SEMANTIK-SINTAKTIK JARAYONLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada havola bo‘lakli qo‘shma gaplarning tranformatsiyalanishi jarayoni, bu jarayonda sodir bo‘ladigan semantik-sintaktik jarayonlar izohlangan.

Kalit so‘zlar: *gap, qo‘shma gap, qo‘shma gapning sodda gapga transformatsiyasi, havola bo‘lakli qo‘shma gaplar.*

Аннотация: в данной статье рассматривается процесс трансформации сложных предложений с коррелятивными компонентами, а также анализируются семантические и синтаксические изменения, происходящие в ходе данного процесса.

Ключевые слова: *предложение, сложное предложение, трансформация сложного предложения в простое, сложные предложения с коррелятивными компонентами.*

Annotation: this article examines the process of transformation of complex sentences with correlative components and analyzes the semantic and syntactic changes that occur during this process.

Key words: *sentence, complex sentence, transformation of a complex sentence into a simple sentence, complex sentences with correlative components.*

Gapshaklning tashqi-ichki transformatsiyalanishi. Bunday transformatsiyalanishda ham gapshaklning kesimida tashqi transformatsiyalanishdagi kabi o‘zgartirishlar voqe bo‘ladi. Tashqi transformatsiyalanishdan farqli holda ega bo‘lakning grammatik shakli ham o‘zgartiriladi. Tashqi — ichki transformatsiyalashda gapshakl: a) qaratuvchili birikmaga, b) sifatlovchili birikmaga transformatsiya qilinadi.

Bunday transformatsiyalashda gapshakl ega bo‘lagining bosh kelishik shakli qaratqich kelishigi shakliga, shunga monand ravishda kesim tarkibidagi tuslovchi unga ma’no jihatidan muqobil egalik affiksiga almashtiriladi; natijada gapshakl qaratuvchili birikmaga aylanadi. Tashqi transformatsiyalashdan farqli holda tashqi-ichki transformatsiyalashda egalik affiksi transformaning doimiy tarkibiy qismi sifatida qatnashadi. Bunday transformatsiyalangan gapshakl nutqda ma’lum bir grammatik ko‘rsatkich qo‘shilib turli sintaktik bo‘lak vazifasida ishlatiladi.

Kesimi ism leksema bilan ifodalangan gapning transformatsiyalanishida qaratuvchi qaratqich kelishigining belgili shaklida ishlatilgan:

1. Sifat leksema bilan ifodalangan kesimiga egalik qo‘shimchasidan oldin ko‘pincha *-lik* affiksi, ba’zan *-ekan* to‘liqsiz fe’li, *-bo‘l* yordamchisi qo‘shiladi:

a) bu transforma bosh kelishik shaklida ega vazifasina bajargan: *Kiyimlarning dag‘alligi* Hulkarning yuzidagi nafislikni yana-da bo‘rttirib ko‘rsatar edi. (P. Qodirov)

b) tushum kelishigi shaklida vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida keladi: *Erining ko‘ngli notinch ekanligini* sezib... (P. Qodirov).

d) chiqish kelishigi shaklida sabab hollovchisi vazifasida keladi: Hulkar *uning nodonligidan* ko‘zlarini qisib, yuzini burishtirib kulardi.

2. Gapshaklning ot leksema bilan ifodalangan kesimida ham yuqoridagi kabi o‘zgarishlar voqe bo‘ladi. Mana bu ikki transforma tushum kelishigi shaklida vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida ishlatilgan: Lekin u *buning nechanchi avtobusligini* ... surishtirmadi (Hamid G‘ulom). Hulkar uyalinqirab *buning sunbul ekanini* aytdi (Pirimqul Qodirov).

3. Kesimi olmosh leksema bilan ifodalangan gapshakl ham yuqoridagicha transformatsiyalanib, vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida ishlatilgan. Farqi shuki, fe’lning harakat nomi shakli bilan ifodalangan qaratuvchi qaratqich kelishigining belgisiz shaklida ishlatilgan: *charchash nimaligini* bilmay rosa yurdi (Pirimqul Qodirov).

Kesimi fe`l leksema bilan ifodalangan gaplarning transformatsiya qilinishida kesim tarkibidagi zamon yasovchisi sifatdosh va harakat nomi shakllariga almashtirilgan hamda har birida tuslovchilar mos ravishda egalik affikslariga almashtirilgan.

1. O‘tgan zamon yasovchisi *-gan* sifatdosh yasovchisiga almashtirilgan.

a) bosh kelishik shaklida ega vazifasida kelgan: *Ot taqasining toshga tegib qarsillagani* eshitildi (P.Qodirov). Shu payt *allaqanday erkak kishining so‘kingani* eshitildi (O‘. Hoshimov).

b) belgili va belgisiz tushum kelishigi shaklida vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelgan: Xolbek *uning nimadir yo‘qotganini* sezdi (P. Qodirov). *Traktor dalada qolganini* aytmasam bo‘lmaydi (O‘. Hoshimov).

2. Hozirgi zamon yasovchisi *-yotgan* sifatdosh yasovchisiga almashtirilgan. Hosil bo‘lgan transformaga chiqish kelishigi shaklini qo‘shib, sabab hollovchisi vazifasida ishlatilgan: Turdi *uning bosiq gapirayotganidan* dadillandi (P. Qodirov).

3. Gapshakl kesimi tarkibidagi hozirgi –kelasi zamon yasovchisi *-sh* harakat nomi shakliga almashtirilgan; qaratuvchi qaratqich kelishigining belgili shaklida qatnashgan:

1) bosh kelishik shaklida ega vazifasida kelgan: Ammo *qarg‘alarning chag‘- chug‘ qilishi* endi g‘ashga tegmaydi (O‘tkir Hoshimov);

2) tushum kelishigi shaklida vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelgan: *Hulkarning qo‘y boqishini* qiziqib kuzatardi (Pirimqul Qodirov).

Lekin u buning nechanchi avtobusligini, qayerga olib borishini surishtirmadi (Hamid G‘ulom).

Fikr ifodalashning eng kichik birligi gap hisoblanadi. Gap ba’zi adabiyotlarda jumla deb ataladi. Gap ifoda maqsadi, tuzilishiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Tuzilishiga ko‘ra gaplar sodda va qo‘shma gap turlariga bo‘linadi. Gapning sodda yoki qo‘shma gap ekanligini belgilovchi asosiy mezon grammatik asos (ega va kesim munosabati) hisoblanadi. Sodda gaplar bir grammatik asosga ega bo‘ladi. Qo‘shma gap esa ikki va undan ortiq grammatik asos belgisiga ega bo‘ladi. Qo‘shma gapga turlicha ta’riflar mavjud. Tilshunos olim, professsor Sh. Rahmatullayev qo‘shma gapga quyidagicha ta’rif beradi:

“Mazmunan o‘zaro zich bog‘liq ikki (va undan ortiq) sodda gapshakllarning gaplik ohangi bilan yaxlitlanishi natijasida tuziladigan sintaktik birlikka qo‘shma gapshakl deyiladi.

Bu ta’rifda qo‘shma gapshakllarning barcha turlari uchun umumiy bo‘lgan to‘rt belgi hisobga olindi: 1) sodda gapshakllarning mavjud bo‘lishi; 2) kamida ikkita sodda gapshaklning mavjud bo‘lishi; 3) bunday gapshakllarning mazmunan o‘zaro zich bog‘liq bo‘lishi; 4) birgalikda gaplik ohangi bilan yaxlitlanishi.”[1]

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun chiqarilgan darslikda qo‘shma gapga quyidagicha ta’rif beriladi: “Ikki va undan ortiq sodda gaplarning o‘zaro grammatik, mazmun va ohang tomondan bog‘lanishidan tashkil topgan sintaktik butunlikka qo‘shma gap deyiladi”.[2]

A. Hojiyev va L. Reshetova hammuallifligi ostida chiqarilgan “O‘zbek tili grammatik terminlarining qisqacha izohli lug‘ati” kitobida qo‘shma gapga quyidagicha ta’rif beradi: “Tuzilishi jihatidan sodda gapga o‘xshash ikki va undan ortiq gapli, intonatsiya va mazmun jihatidan bir butunlikni tashkil etuvchi gaplar. O‘zbek tilida qo‘shma gaplar ma’lum mazmun munosabatlarini ifodalashi, grammatik belgilari, tuzilishi va intonatsiyasiga ko‘ra uch asosiy tipga bo‘linadi: bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar, bog‘langan qo‘shma gaplar, ergashgan qo‘shma gaplar”.[3]

Qo‘shma gaplarga berilgan ta’riflar qanchalik ko‘p bo‘lishiga qaramay ularning hammasi mazmunan o‘zaro birlikni tashkil qiladi. Qo‘shma gaplar bog‘lovchi vositalar va mazmuniga ko‘ra uch turga bo‘linadi:

1. *Bog‘langan qo‘shma gaplar* – teng bog‘lovchilar vositasida mazmunan teng munosabatda bog‘langan sodda gaplarning birikishidan hosil bo‘ladi. Masalan, *Xonaga o‘qituvchi kirib keldi va qolganlar jim bo‘lishdi.*

2. *Ergashgan qo‘shma gaplar* – ergashtiruvchi bog‘lovchilar va ular vazifasidagi bog‘lovchi vositalar yordamida ikki va undan ortiq sodda gaplarning mazmunan tobe va hokim munosabatidan hosil bo‘lgan gaplardir. Masalan, *Shunisi aniqki, vatanimiz kelgusida buyuk davlat bo‘ladi.*

3. *Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar* – ikki va undan ortiq sodda gapning biror bog‘lovchi vositasiz faqat ohang yordamida mazmunan birikishidan hosil bo‘lgan gaplar hisoblanadi. Masalan, *Kuz keldi, yig‘im-terim ishlari boshlandi.*

Ushbu qo‘shma gaplarning hammasi ham sodda gaplarga transformatsiya qilina olmaydi. Bog‘langan qo‘shma gaplar tarkibidagi qismlar o‘zaro teng munosabatda, ya’ni biri ikkinchisiga tobe bo‘lmaganligi uchun ularni sodda gaplarga transformatsiya qilishning imkoni mavjud emas.

Ergashgan qo‘shma gaplarning tarkibiy qismlari biri ikkinchisini izohlash munosabati bilan o‘zaro tobe munosabatda bog‘lanadi. Shu sababli ham ergashgan qo‘shma gaplarni transformatsiyalashning imkoni mavjud. Lekin ergashgan qo‘shma gaplarning hammasi ham sodda gaplarga transformatsiya qilina olmaydi. Ko‘pincha bosh gap tarkibidagi qaysidir bo‘lakni izohlab kelayotgan ergash gaplar qatnashgan qo‘shma gaplar sodda gaplarga transformatsiya qilinishi mumkin.

1 Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent, 2010, 392-bet.
2 A. Nurmonov, N. Mahmudov, A. Sobirov, Sh. Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining I, II, III bosqich talabalari uchun darslik. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2013, 548-bet.
3 Hojiyev A., Reshetova L. O‘zbek tili grammatik terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. 54-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent, 2010. 392-bet.
2. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining I, II, III bosqich talabalari uchun darslik. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2013. 548-bet.
3. Hojiyev A., Reshetova L. O‘zbek tili grammatik terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. 54-bet.

Furqat NURMANOV,
O‘zbekiston ommaviy kommunikatsiyalar va jurnalistika universiteti

O‘ZBEK TILI FONETIKASIDA SO‘Z URG‘USIGA DOIR QARASHLAR TARAQQIYOTI

Annotatsiya: maqolada supersegment elementlardan biri – urg‘u va uning turi, vazifasi, nutqdagi o‘rni haqida tilshunos olimlar ilmiy qarashlari qiyoslanib, o‘zbek tilida urg‘uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda nutqdagi amaliy ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *tilshunoslik, fonetika, kommunikatsiya, nutq tovushi, urg‘u, intonatsiya, supersegment elementlar.*

Аннотация: в статье сопоставляются научные взгляды языковедов на один из суперсегментных элементов – ударение, его типы, функции и место в речи, а также анализируются специфические особенности ударения в узбекском языке и его практическая значимость.

Ключевые слова: лингвистика, фонетика, коммуникация, звук речи, ударение, интонация, суперсегментные элементы.

Annotation: the article compares the scientific views of linguists on one of the supersegmental elements – stress, its types, functions and place in speech, and analyzes the specific features of stress in the Uzbek language and its practical significance.

Key words: *linguistics, phonetics, communication, speech sound, stress, intonation, supersegmental elements.*

Intonatsiya masalalarining o‘rganilishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Bu sohadagi dastlabki tadqiqotlar qadimgi Gretsiya va Rimda ritorika sohasidagi izlanishlar natijasida yuzaga kelgan.

Dastlab kishilar muloqot asosida bir-birlarini tushunish uchun harakat qilgan bo‘lsalar, keyinchalik o‘zgalarga ta’sir etish hamda ommani boshqarish uchun nutqning ifodali, ta’sirchan, jonli bo‘lishida intonatsiyaning barcha usul va vositalaridan mukammal darajada foydalanishga intilganlar. Shu sabab nutq intonatsiyasi masalalarining o‘rganilishi notiqlik san’atining rivojlanishi bilan uyg‘un holda kechgan. Bu intonatsiya muammolari ritorikaning tarkibiy qismlaridan biri ekanligidan dalolat beradi. Nutq madaniyati sohasiga oid darslik adabiyotlarda Qadimgi Gresiyada ayblanuvchilar o‘z nutqlarini ta’sirchan, mazmunli, ifodali bo‘lishi uchun yoqimli ohangda mantiqiy izchillik bilan talaffuz qilish orqali himoyalanganliklari bayon qilinadi. Shuning uchun intonatsiya masalalarini o‘rganishga qiziqish qadimgi Gresiya va Rimda yuzaga kelgan [1;-Б.310-342], deb keltiriladi. Bu intonatsiya masalalariga qiziqish va o‘rganishning birinchi davri hisoblansa, dunyo tilshunosligida fonetika sohasidagi eksperimental tadqiqotlarning amalga oshirilishi prosodika nazariyasi shakllanishining ikkinchi davri hisoblanadi.

XX asrning 1940-50-yillaridan boshlab hozirgi o‘zbek adabiy tilini ilmiy o‘rganishga e’tibor yanada kuchaydi. O‘zbek adabiy tili ham, o‘zbek tilshunosligi ham jahon tilshunosligi talablaridan kelib chiqqan holda, yangi ehtiyojlar girdobida yuqori bosqichga ko‘tarildi. Bu davrda A.G‘ulomov, V.Reshetov, M.Asqarova, G‘.Abdurahmonov, F.Abdullayev, S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev kabi taniqli tilshunos olimlar faoliyat ko‘rsatganligi ma’lum.

O‘tgan asrning 50-80 yillarida M.A.Peshkovskiy, G. Glison, L.R.Zinder [2] kabi olimlarning ilmiy izlanishlari prosodika masalalariga bag‘ishlangan dastlabki ilmiy tadqiqotlar sanaladi.

Rus tilshunosligida urg‘u masalasi XX asrning II yarmida Ye. Kurilovich, A.K.Tekoryus, 3) N.A.Fedyaninalar tadqiqoqtida tilga olinadi [3;-Б.10]. Ularning tadqiqotlari so‘z urg‘usining tizimi, unlilarning akustik intensivligi bilan urg‘ularning munosabati, so‘z urg‘usining barcha xususiyatlarini tahlil etib berish bilan birga uning barcha turkumga oid so‘zlarda tutgan o‘rnini xarakterlab berganligi bilan qimmatlidir.

Umuman, tilshunoslikning barcha tarmoqlari tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar ichida eng erta boshlanganni til fonetikasidir. Professor M.Mirtojiyevning yozishicha [3;-Б.13-15], nemis tilshunoslari: O.Bremer, G. Yespersen, L. Lazirzius tomonidan XIX-XX asrlarda yaratilgan nemis tili fonetikasiga bag‘ishlangan asarlarda, boshqa til tilshunosliklarida O.Zaxer, M. Nusharov, G. Mamatkulov qalamiga mansub nemis tili fonetikasiga oid ilmiy nashrlarda nutq tovushlari va ulardagi o‘zgarishlar, bo‘g‘in, urg‘u, intonatsiya haqida ancha mukammal ma’lumotlar va tahlillar keltirilgan.

Inson nutqi turli ohang, ritm va urg‘u yordamida jonlantiriladi. Bu elementlar nutqqa ifodalilik, ta’sirchanlik va tushunarlilik beradi.

O‘zbek tilida, odatda, urg‘u so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Bu qoida deyarli barcha so‘zga nisbatan qo‘llanadi: *kitob, maktab, telefon, darslik, o‘qituvchi* va boshqa. Bundan istisno holatlar ham mavjud: ta’lim, masala, qoida, nazariya kabi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarda urg‘u oxirgi bo‘g‘indagi unliga emas, o‘rtadagi bo‘g‘inga tushishi mumkin.

So‘z urg‘usi haqida tadqiqotlarda gap ketganda, u so‘zning biror bo‘g‘iniga tushishsi ta’kidlanadi. Ya’ni shu bo‘g‘inning boshqa bo‘g‘inlarga nisbatan yo tovush kuchi, yo tovush balandligi, yo tovush cho‘ziqligi ortiq ekanligi zikr etilgan. Aslida bunday emas. Urg‘u odatda ma’lum bir so‘zning biror bo‘g‘in unlisida yuzaga keladi[4]. Shu sabab urg‘u tushgan bo‘g‘in unlisi boshqa bo‘g‘in unlisiga nisbatan farqli talaffuzga ega bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida fonetika dastlab V. Reshetov va Sh. Shoabdurahmonov hamkorligida yaratilgan bo‘lib, ulardan keyin A.N. Kononov ham hozirgi o‘zbek adabiy tiliga bag‘ishlangan ishida fonetikaga oid ma’lumot keltirgan [5;]. Ammo o‘zbek tili fonetikasiga oid mazkur tadqiqotlarda rus tilidagi ayrim fonetik qonuniyatlar o‘zbek tiliga ham tadbiq etib yuborilgan. Bu, ayniqsa, so‘z urg‘usini dinamik, deb qayd etilishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Vaholanki, o‘zbek tilidagi so‘z urg‘usi kvantitativdir.

Oliy o‘quv yurtlari uchun chiqarilgan o‘zbek tili darsliklarida berilgan tavsif yuqoridagilardan farq qilmaydi [6;]. Faqat H. Jamolxonov fonetikaning tarmoqlaridan yana biri intonatsiya ekanini va uning komponentlarini qayd etgan [7].

Professor A.G‘ulomov 1947 – yilda nashr ettirgan “O‘zbek tilida urg‘u” monografiyasida urg‘uning so‘zni fonetik yaxlitlash, so‘zdan so‘zni ajratish vazifalarini birinchilardan bo‘lib izohlagan. Olim tilning fonetik strukturasiga keng izoh beradi va uning komponentlarini quyidagicha ko‘rsatib beradi: fonemalari, ularning so‘zdagi o‘rni va birikish qonunlari, sillabik struktura(bo‘g‘in tuzilish qoidalari), aksentologik struktura, bu komponentlarning o‘zaro munosabati(masalan, urg‘u o‘rnining o‘zgarishi, odatda shu kompleksdagi tovushlarga ta’sir qiladi: urg‘usiz urg‘uning reduksiyaga uchrashi kabi), so‘zning fonetik sistemadagi tarixiy va hozirgi o‘zgarishlar ham kiradi.

So‘z urg‘usining o‘zbek tilidagi barcha xususiyatlarini chuqur o‘rgangan prof.A.G‘ulomov “Urg‘u ham shu kompleksdagi tovushlarning uyushishiga yordam qilib, so‘zga fonetik yaxlitlik beradi”—deb yozgan edi. Shuningdek urg‘u hozirgi o‘zbek tilida .... “ko‘pincha bog‘liq bo‘lishi (so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushishi)”, erkin urg‘uning ham ko‘rinishlarga ega ekanligi, boshqa tillardan kirgan so‘zlarda va so‘zga urg‘u olmaydigan elementlar (urg‘usiz affikslar va yuklamalar) qo‘shilganda, urg‘uniig oxirgi bo‘g‘iniga tushmasligi birinchi marta A.G‘ulomov tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan. Ayniqsa, uning o‘zbek tilida so‘z urg‘usining fonologik funksiya bajarishi haqidagi g‘oyalari qimmatlidir[8;]. Olim ushbu monografiyasida urg‘uning so‘zni fonetik yaxlitlash, so‘zdan so‘zni ma’no jihatidan ajratish vazifasini birinchilardan bo‘lib asoslagan.

O‘zbek tilidagi so‘z urg‘usini o‘rganishga bag‘ishlangan aksariyat tadqiqotlarda rus tilidagi qarashlar o‘zbek tiliga tatbiq etib yuborilgan. Ya’ni rus tilidagi suz urg‘usining dinamik xarakterga ega ekanligiga qarab o‘zbek tilidagi so‘z urg‘usini ham dinamik urg‘u deb ta’riflangan[9;-Б.23]. Xuddi shunday qarashni o‘zbek tilshunoslarining urg‘uga bag‘ishlangan ishlarida ham ko‘rish mumkin.

M.Mirtojiyevning 2013 yilda nashr etilgan “O‘zbek tili fonetikasi” darsligida o‘zbek tilida urg‘uning o‘rni, turi hamda vazifasi batafsil tahlil etib berilgan[3;-Б.13-15]. Olim o‘zbek tilida so‘z urg‘usi o‘ziga xosligi, mavjud ilmiy nazariyalar boshqa til fonetikasidagi nazariyalarga tayanib yaratilganligi, o‘zbek tilida leksik urg‘u kvantativ xarakterga ega ekanligini ekspremental tahlil asosida isbotlagan. O‘zbek tili grammatikasiga oid mavjud ilmiy adabiyotlarda so‘zlarning leksik urg‘usini aksariyat dinamik urg‘u deb atalishini olim rus tilshunosligining ta’siri ekanligini, chunki o‘zbek tili fonetikasi dastlab rus turkologlari tomonidan yaratilganligi, rus tilidagi so‘zlarning leksik urg‘usi tovush kuchi bilan qayd etilishi va uni shundayligicha o‘zbek tiliga tadbiq etib yuborilganligini yozadi. Har bir til talaffuz intonatsiyasi o‘ziga xos ekanligi, o‘zbek tili so‘zlarining leksik urg‘usi haqidagi xulosalar eshitib chiqarilgan tusmolga asoslanganligi, eksprement esa mutlaqo bu xulosalarni inkor etishini ta’kidlagan. Olimning xulosasiga ko‘ra, o‘zbek tiliodagi so‘z leksik urg‘usi bo‘g‘indagi urg‘uning tovush kuchi amplitudasi bilan emas, tovush cho‘ziqligi bilan belgilanadi, ya’ni rus tilidagi leksik urg‘u so‘z bo‘g‘inidagi unlining zarb bilan talaffuz etilishiga asoslansa, o‘zbek tilidagi leksik urg‘u so‘z bo‘g‘inidagi unlining ortiq miqdorda cho‘ziq talaffuz etilishiga asoslanadi. O‘zbek tili leksik qatlamidagi o‘z va o‘zlashgan qatlam birliklari semantikasini farqlash uchun ham talaffuzda leksik urg‘u o‘rnini to‘g‘ri belgilash muhim ahamiyatga ega. To‘g‘ri, bunday ekspremental xulosaga amal qilish oson kechmasa-da, leksik urg‘u o‘rnida ishlatilmasligi uslubiy xatolarni keltirib chiqaradi.

Demak, kommunikativ nutq so‘zlovchi emotsiyasi bilan uzviy bog‘liq ekan, unda urg‘u, uning turi va qo‘llanish o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq ta’sir kuchi urg‘uga bevosita bog‘liq, matn tarkibiy qismlarida urg‘uning qo‘llanish o‘rni so‘z semantikasiga bevosita ta’sir etadi, shu sabab urg‘udan nutqda to‘g‘ri foydalanish o‘zbek tili grammatikasini mukammal o‘zlashtirishga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маҳмудов М., Шукуров Р. Арасту “Риторика”сида нотиқлик санъати ва маънавият асослари// Арасту.Ахлоқи кабир // – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018, 310-342 бетлар.

2. Пешковский А. Интонация и грамматика. – Москва, 1928., Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику – Москва: Издательство иностранной литературы, 1959., Зиндер Л.Р. Общая фонетика. – Москва: Высшая школа, 1979. Пешковский А. Интонация и грамматика. – Москва, 1928., Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику – Москва: Издательство иностранной литературы, 1959., Зиндер Л.Р. Общая фонетика. – Москва: Высшая школа, 1979.

3. Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси, Тошкент, Фан. 2013. 10-б.

4. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили.2-н.65-б.;Тўйчиев Б. Ўзбек тили тарихий грамматикаси.—Тошкент:Ўқитувчи, 1990. 72-б

5. Решетов В., Шоабдураҳмонов Ш. Фонетика. –Тошкент: Фан, 1953.; Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. -М. -Л.: Изд. АН СССР. -С. 13-56.

6.Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. 3-нашр. –Тошкент: Ўқтувчи, 1970. 55-78-66.; Турсунов У, Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология. Фонетика. Морфология. 2-нашр. -Тошкент: Ўқитувчи, 1975. 78-96-66.; Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

7. Жамолхонов Х. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. –Тошкент: Фан, 2009.

8. Ғуломов А. Ўзбек тилида урғу.Т.,1947.

9. Боровков А. К., Ғуломов А. Ғ., Маъруфов З., Шермудамедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. 1-қисм. Фонетика ва морфология. –Тошкент: Уздавнашр, 1940.23-б.

Sanobar OCHILOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi
E-pochta: ochilovasanobar76@gmail.com



O‘ZBEK TILIDA XULQ-ATVOR FE’LLARINING SEMANTIK YAGONALIGI VA LEKSIK IFODASI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilida xulq-atvor fe’llarining semantik yagonaligi va leksik ifodasi o‘rganiladi. Xulq-atvor fe’llari insonning odatdagi, xos xatti-harakatlari yoki odatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular odatda, aniq va yagona ma’noga ega bo‘lgan yagona (monosemous) semantik barqarorlikka ega bo‘ladi. Xulq-atvor fe’llarining morfologik va semantik xususiyatlarini tahlil qilib, ushbu tadqiqot monosemiyaning shakllanishi va uning leksik ifoda hamda semantik nazariyadagi ahamiyatini aniqlaydi.

Kalit so‘zlar: *xulq-atvor fe’llari, monosemiya, leksik semantika, o‘zbek tili, odatdagi harakatlar, leksik ta’rif, semantik barqarorlik*

Annotation: this article examines the semantic monosemy and lexical expression of behavioral verbs in the Uzbek language. Behavioral verbs are related to habitual or characteristic actions or behaviors of humans and usually possess a clear and single meaning characterized by semantic monosemy. By analyzing the morphological and semantic properties of behavioral verbs, this study identifies the formation of monosemy and its significance in lexical expression and semantic theory.

Key words: *behavioral verbs, monosemy, lexical semantics, Uzbek language, habitual actions, lexical description, semantic stability*

Аннотация: в данной статье исследуются семантическая моносемия и лексическое выражение глаголов поведения в узбекском языке. Глаголы поведения связаны с типичными или характерными действиями и поведением человека и обычно обладают чётким и единственным значением, характеризующимся семантической моносемией. Анализируя морфологические и семантические особенности глаголов поведения, данное исследование выявляет процесс формирования моносемии и её значение в лексическом выражении и семантической теории.

Ключевые слова: *глаголы поведения, моносемия, лексическая семантика, узбекский язык, характерные действия, лексическое описание, семантическая стабильность*

Kirish. Fe’llar til ifodasining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, nutqda harakatlar, holatlar va voqealarni ifodalashga xizmat qiladi. Fe’llar sinfiga kiruvchi xulq-atvor fe’llari (o‘zbek tilida “xulq-atvor fe’llari”) insonning odatdagi, xos xulq-atvori, odatlari yoki takrorlanadigan harakatlarini bildiradi. Bu fe’llar subyektning vaqt davomida qanday harakat qilayotganini, ko‘pincha psixologik yoki ijtimoiy holatlarini ifodalaydi. Ko‘pgina tillarda xulq-atvor fe’llari yagona ma’noga ega (monosemous) bo‘lib, ya’ni ular ko‘p ma’nolilikka ega bo‘lmay, aniq va bitta ma’noni ifodalaydi. Semantik monosemiya muloqot va kognitiv jarayonlarda noaniqlikni yo‘q qilishda muhim ahamiyatga ega.

1. Xulq-atvor fe’llari: ta’rif va doira. Xulq-atvor fe’llari subyektning odatdagi yoki tipik harakatlarini ifodalaydi, ko‘pincha bu harakatlar shaxsning kayfiyati yoki emotsional holati bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday fe’llar subyektning xarakterli yoki takrorlanadigan harakatlarini, kayfiyati yoki reaksiyasini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida bunday fe’llar insonning boshqalar bilan munosabatlari va emotsiyalarining nozik jihatlarini yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, *kulmoq* — quvonch yoki kulgini ifodalaydi; *jiringlamoq* — asosan, hasharotlar tomonidan chiqariladigan xos shovqin; *tikilmoq* — uzun davom etadigan yoki kuchli qarashni bildiradi.

Boshqa misollar: *esirmoq* (eshlarni ochish, charchoq yoki zerikishni bildiradi); *qichqirmoq* (achchiqlik yoki xursandchilikni ifodalovchi baland ovozda gapirish); *sirg‘almoq* (subtil harakatni bildiruvchi siljish); *qimirlamoq* (yengil harakat yoki titrash, odatda, bezovta va noqulay holatni ifodalovchi); *so‘zolmoq* (pichillash, noaniq

gapirish); *tikqinlamoq* (chaplash, diqqat yoki g‘azabni ko‘rsatish); *sig‘lamoq* (nafas chiqarish, osonlik, qayg‘u yoki charchoqni bildiradi).

Ushbu fe’llarning ko‘pchiligi o‘zbek tilida monosemous bo‘lib, ular aniq va o‘ziga xos ma’nolarni bildiradi, ko‘pincha keng metaforik ma’nolarga ega emas.

2.Semantik monosemiya. Monosemiya — bitta ma’no ega bo‘lgan leksik birlikni anglatadi, bu polisemiyadan farq qiladi, unda so‘z bir nechta bog‘liq ma’nolarga ega bo‘ladi. Monosemous so‘zlar nutqda noaniqlikning oldini oladi, chunki ularning ma’nosi kontekstlardan qat’iy nazar doimiydir.

Xulq-atvor fe’llari odatda, o‘ziga xos xatti-harakatlarni bildiradi va kam hollarda metaforik kengayishlarga uchraydi, bu esa ularning semantik shaffofligini oshiradi.

3. Leksik semantika va leksik yozuvlar. Leksik semantika so‘zlarning ma’nosi va o‘zaro munosabatlarini o‘rganadi. Xulq-atvor fe’lining leksik yozuvida odatda, quyidagilar mavjud:

- ✓ Semantik mazmun (odatdagi harakat)
- ✓ Argument strukturasiga ega (odatda, bitta agent)
- ✓ Aspektual xususiyatlar (odatdagi, stativ yoki boshlang‘ich holat)

Bu tavsiflar xulq-atvor fe’llarini boshqa fe’l sinflaridan ajratib ko‘rsatishda yordam beradi (Jackendoff, 1990).

4.O‘zbek tilida xulq-atvor fe’llari. O‘zbek tilida xulq-atvor fe’llari ko‘pincha odatdagi yoki takroriy harakatlarni bildiruvchi morfologik belgilarga ega. Masalan, qo‘shimcha *-l-* takrorlanuvchi yoki xarakterli harakatni ifodalaydi.

Misol uchun, *kulmoq* fe’lining *kullamoq* shakli takroriy yoki odatdagi kulishni ko‘rsatadi. Shuningdek, takrorlash (reduplikatsiya) morfologik jarayon sifatida ishlatiladi va harakatni kuchaytirish, odatni yoki takroriy tarzda bajarilishini ko‘rsatadi. Masalan, *jiringlamoq* fe’li hasharotlarning davomli jiring faoliyatini bildiradi.

T.Komilov ta’kidlaganidek, bunday morfologik vositalar o‘zbek tilida xulq-atvor fe’llarini aniqlashda muhim bo‘lib, ular harakatning nafaqat o‘ziga xosligini, balki uning odat shaklidagi xususiyatlarini ham ifodalaydi.

Xulq-atvor fe’llarining semantik monosemiyasi.O‘zbek tilida ko‘pchilik xulq-atvor fe’llari cheklangan miqdorda ko‘p ma’nolilikka ega. Masalan, *kulmoq* **fe’li doim kulishni bildiradi va kengaytirilgan metaforik ma’nolarga ega emas, bu esa ularning monosemous xususiyatini mustahkamlaydi.**

Monosemiya semantik barqarorlikni ta’minlab, muloqotda tushunishni osonlashtiradi. O‘zbek tilida tinglovchilar bunday fe’llarni aniq talqin qiladilar va bu ularning pragmatik tushunishida muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pchilik xulq-atvor fe’llari odatda, monotransitiv yoki intransitiv bo‘lib, bitta agent tomonidan bajariladi (*Men kulaman* — men kulaman). Odatda, ular odatdagi aspektga ega bo‘lib, masalan, *tikilmoq* takroriy qarashni bildiradi.

Kognitiv va pragmatik jihatlar.Xulq-atvor fe’llari dunyo madaniyatlarida keng tarqalgan takroriy inson xulqining kognitiv toifalariga mos keladi. Monosemiya kataloglashtirishni osonlashtiradi, chunki har bir xatti-harakatga alohida fe’l berilgan.

Bundan tashqari, xulq-atvor fe’llari pragmatik ma’no bildiradi: ular hissiy holatlarni (masalan, *kulmoq* — baxt, quvonch) yoki ijtimoiy signalni (masalan, *tikilmoq* — diqqat yoki shubha) ifodalaydi.

Xulosa. O‘zbek tilidagi xulq-atvor fe’llari asosan, semantik yagonalikka ega bo‘lib, odatdagi va xarakterli xatti-harakatlarni aniq, barqaror ma’nolarda ifodalaydi. Ularning leksik yozuvi bitta agent strukturasi va odatdagi aspektni ta’kidlaydi.Semantik barqarorlik samarali tushunishni va pragmatik muloqotni qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu tahlil turkiy fe’l semantikasini chuqurlashtirishda va leksik ma’no nazariyalari rivojida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Komilov, T. (2003). *O‘zbek tilining morfologiyasi*. –Toshkent: Fan.
2.Komilov, T. (2008). Xulq-atvor fe’llarining semantikasi. *Tilshunoslik jurnali*, 3(15), 45–52.
3.Sobirov, O. (2015). O‘zbek tilida fe’llarning ma’no yagonaligi. *Til va adabiyot*, 6(22), 112–118.
4.Sobirov, O. (2018). *Xulq-atvor fe’llarining sintaksisi va lug‘aviy tavsifi*. –Toshkent: Akademnashr.
5.Islomov, M. (2012). O‘zbek tilida fe’l semantikasi. *O‘zbek tili va adabiyoti*, 1(10), 78–85.
6.Ruhullaev, S. (2010). Comparative Turkic Lexical Semantics. *Turkic Linguistics Journal*, 7(1), 89–110.

Mohinur USMONOVA,
Qarshi Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti
katta o‘qituvchisi
E-mail: M.M.M.U@mail.ru



O‘ZBEK TOPONIMIYASIDA ETNONIMLAR VA ULARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

Annotatsiya:ushbu maqolada o‘zbek toponimiyasi tizimida etnonimlar asosida shakllangan etnotoponimlarning lingvomadaniy va etnolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. T. Nafasov, S. Qorayev, Z. Do‘simov, N. Mingboev, T. Rahmatov kabi olimlarning ilmiy qarashlari asosida etnotoponimlarning tasnifi, shakllanish mexanizmi hamda ularning tarixiy-madaniy ahamiyati yoritiladi. Maqolada etnotoponimlarning o‘zbek xalqining etnik tarkibi va madaniy xotirasini aks ettiruvchi muhim lingvistik birlik ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar:*toponimiya, etnonim, etnotoponim, lingvomadaniyat, etnolingvistika, urug‘, qabila, onomastika, madaniy xotira.*

Annotation:this article analyzes the linguocultural and ethnolinguistic features of ethnotoponyms formed on the basis of ethnonyms in the system of Uzbek toponymy. Based on the scientific views of such scholars as T. Nafasov, S. Qorayev, Z. Do‘simov, N. Mingboev, and T. Rahmatov, the classification of ethnotoponyms, the mechanisms of their formation, and their historical and cultural significance are highlighted. The article substantiates that ethnotoponyms are important linguistic units reflecting the ethnic composition and cultural memory of the Uzbek people.

Key words:*toponymy, ethnonym, ethnotoponym, linguoculture, ethnolinguistics, clan, tribe, onomastics, cultural memory.*

Аннотация:в данной статье анализируются лингвокультурные и этнолингвистические особенности этнотопонимов, сформированных на основе этнонимов в системе узбекской топонимии. На основе научных взглядов таких учёных, как Т. Нафасов, С. Кораев, З. Дўсимов, Н. Мингбоев, Т. Рахматов, освещаются классификация этнотопонимов, механизмы их формирования, а также их историко-культурное значение. В статье обосновывается, что этнотопонимы являются важными лингвистическими единицами, отражающими этнический состав и культурную память узбекского народа.

Ключевые слова:*топонимия, этноним, этнотопоним, лингвокультура, этнолингвистика, род, племя, ономастика, культурная память.*

Kirish. Hozirga qadar o‘zbek toponimiyasiga bag‘ishlangan ko‘plab dissertatsion va monografik tadqiqotlarda etnonimlar masalasi alohida ilmiy muammo sifatida qaralib kelmoqda. Buning asosiy sababi o‘zbek toponimik tizimida joy nomlarining sezilarli qismi urug‘, qabila va etnik guruh nomlari, ya’ni etnonimlar asosida shakllanganligidir. Shu sababli toponimlarni leksik-semantik jihatdan tasniflashga bag‘ishlangan deyarli barcha ilmiy ishlarda etnonimlardan hosil bo‘lgan toponimlar alohida guruh sifatida ajratilib, “etnotoponimlar” termini ostida o‘rganiladi. Etnotoponimlar xalqning etnik tarkibi, tarixiy migratsiya jarayonlari, ijtimoiy tuzilishi hamda madaniy xotirasini aks ettiruvchi murakkab lingvomadaniy birliklar sifatida talqin qilinadi.

Asosiy qism.O‘zbek toponimiyasi doirasida etnonimlar asosida shakllangan joy nomlarini o‘rganish masalasi T. Rahmatov, J. Latipov, S. Nayimov, N. Mingboev, T. Nafasov, S. Qorayev, Z. Do‘simov, N. Oxunov kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, etnotoponimlar faqat til birligi emas, balki tarixiy-etnografik va madaniy informatsiyani saqlovchi murakkab tizimdir. Masalan, T. Rahmatov Samarqand va uning atrof hududlari toponimiyasini tahlil qilib, 200 dan ortiq joy nomi urug‘ va qabila nomlari asosida shakllanganini qayd etadi. U Qoshtamg‘ali, Qorqipchoq, Nayman, Barlos, Qavchinon, Yettiuyli kabi birliklarni misol qilib keltirib, ularning tarixiy ildizlarini ochib beradi. Ushbu nomlar orqali hududda turli etnik guruhlarning tarixan yashaganligi va ularning ijtimoiy-geografik joylashuvi haqida xulosa chiqarish mumkin. [1.68]

J. Latipov Marg‘ilon hududi toponimiyasini tahlil qilar ekan, etnotoponimlar qatoriga **Eshonto‘pi, Bekto‘pi, To‘qali, Otaliq, Beklar, Qozion, Shig‘amon, Xastalar, Ko‘salar** [2.78] kabi nomlarni kiritadi. Bu nomlarning muhim jihati shundaki, ular faqat etnonim shaklida emas, balki morfologik qo‘shimchalar (-lar, -li, -on) orqali kengaygan shaklda ham uchraydi. Masalan, *Beklar* — urug‘ nomining ko‘plik shaklida joy nomiga aylanishi, *Qozion* esa fonetik-morfologik o‘zgarish orqali hosil bo‘lgan variant hisoblanadi.

S. Nayimov Buxoro viloyati toponimiyasida quyidagi etnik asosli nomlarni qayd etadi: **Ming, Mingon, Nayman, Naymancha, Do‘rmon, Do‘rmontepa, Qirq, Qirqlar, Saroy, MiyonSaroy, Bahrin, Bahrincha, Mesit, Mirishkor**.[3.123] Masalan, *Do‘rmontepa* — “do‘rmon urug‘i tepaligi” ma’nosini bildirsa, *Mingon* ming urug‘i bilan bog‘liq aholi punktini ifodalaydi. Bu misollar etnik guruhlarning hududiy izlarini aniq ko‘rsatadi.

N. Mingboev Sirdayo viloyati materiallari asosida etnotoponimlarning keng tarqalganini ko‘rsatadi va quyidagi

nomlarni tahlil qiladi: **Barlos, Solin, Uyassolin, Qopchiq, Qoqonqopchi, Ellduvut, Sirg‘ali**. Masalan, *Barlos* tarixiy turkiy urug‘ nomi bo‘lib, Temuriylar davrida ham katta siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan. *Sirg‘ali* esa urug‘ nomining fonetik o‘zgarish orqali shakllangan variantidir.

T. Nafasov o‘z tadqiqotlarida etnonimlar muammosini eng chuqur o‘rgangan olimlardan biridir. U Janubiy O‘zbekiston hududidan 1500 dan ortiq etnotoponimlarni to‘plab, ularni urug‘, qabila, genonim, millat va xalq nomlariga ko‘ra tasniflaydi. Uning “Qishlog‘ingiz nega shunday atalgan?” asarida Baliqchi, Qaramon, Bag‘ish, Dukchi kabi etnonimlardan hosil bo‘lgan toponimlar lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. “O‘zbekiston toponimlar izohli lug‘ati”da esa 2000 dan ortiq toponim izohlanib, ularning 725 tasi etnik asosga ega ekani aniqlanadi. Bu raqamlar etnonimlarning toponimik tizimdagi juda katta ulushini ko‘rsatadi.

S. Qorayevning statistik kuzatishlariga ko‘ra, 1250 toponimdan 452 tasi etnotoponim bo‘lib, ular orasida **Qipchoq, Nayman, Barlos, Qong‘irot, Mang‘it, Qatagan, Kenagas** kabi yirik urug‘ nomlari asosida shakllangan birliklar ko‘plab uchraydi. Masalan, *Qo‘ng‘irot* Markaziy Osiyodagi eng yirik etnik birliklardan biri sifatida tarixiy manbalarda ham keng qayd etilgan.

Z. Do‘simov etnotoponim terminini ilmiy muomalaga kiritgan olim sifatida Xorazm hududi toponimiyasini tahlil qiladi va etnotoponimlarni alohida leksik-semantik guruh sifatida ajratadi. U Qo‘ng‘irot, Mang‘it, Qipchoq, Nayman, Nukus, Arabxona kabi nomlarni etnik asosli toponimlar sifatida izohlaydi. N. Oxunov esa 250 dan ortiq etnik asosli nomlarni qayd etib, ularning tarixiy-etimologik tahlilini beradi va ularning turkiy etnik tizim bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.[4.145]

N. Oxunov esa etnik asosli nomlar sifatida **Qipchoq, Nayman, Qangli, Mang‘it, Kenagas, Barqin** kabi birliklarni tarixiy-etimologik jihatdan tahlil qiladi va ularning turkiy xalqlar etnik tizimidagi umumiy qatlamga tegishli ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek toponimiyasida etnonimlar asosida shakllangan birliklarni zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu hodisa faqat tarixiy nomlanish jarayoni emas, balki **kognitiv xaritalash (mental mapping)** va **madaniy identifikatsiya mexanizmi** bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ya’ni insonlar muayyan hududni nomlash jarayonida faqat geografik belgini emas, balki o‘zining etnik xotirasini ham “kodlaydi”.

Zamonaviy onomastik tadqiqotlarda etnotoponimlar “tilning muzlatilgan tarixi” sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuvga ko‘ra, har bir etnotoponim o‘zida uch qatlamni saqlaydi:

1. **etnik qatlam** (kimlar yashagan),
2. **tarixiy qatlam** (qachon yashagan),
3. **kognitiv qatlam** (qanday tasavvur bilan nomlangan).

Masalan, *Qipchoq* yoki *Nayman* faqat urug‘ nomi emas, balki o‘sha etnik guruhning hududiy harakati va ijtimoiy ekspansiyasini aks ettiruvchi “tarixiy marker” hisoblanadi. Shu sababli etnotoponimlarni o‘rganishda faqat etimologik tahlil yetarli emas, balki **areal lingvistika va antropologik geografiya** yondashuvlari ham zarur bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat — etnotoponimlar ko‘pincha **semantik ko‘chish** jarayoniga uchraydi. Bu jarayonda etnonimning asl ma’nosi asta-sekin yo‘qolib, uning o‘rniga geografik obyekt ustuvor ma’no kasb etadi. Natijada, zamonaviy til egasi uchun *Barlos* yoki *Mang‘it* ko‘pincha etnik tushuncha emas, balki oddiy joy nomi sifatida qabul qilinadi. Bu hodisa “etnik xotiraning pasayishi” deb izohlanadi. Yangi ilmiy yondashuvlarda etnotoponimlar **“ijtimoiy semantik xarita”** sifatida ham qaraladi. Bunda har bir etnik nom hududiy kuch markazlarini bildiradi.

Bu esa toponimiyani “til + jamiyat + tarix” uchligi sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Yana bir yangi jihat — etnotoponimlar **lingvomadaniy stereotiplar**ni ham aks ettiradi. Ayrim etnik nomlar vaqt o‘tishi bilan ijobiy yoki salbiy konnotatsiya olishi mumkin. Bu esa toponimlarning faqat neytral geografik belgi emas, balki ijtimoiy ong mahsuli ekanini bildiradi.

Shu bilan birga, zamonaviy raqamli lingvistika nuqtayi nazaridan etnotoponimlarni **GIS (Geographic Information System)** asosida xaritalash mumkin. Bunday yondashuv orqali etnik nomlarning hududiy zichligi, migratsiya yo‘nalishlari va tarixiy qatlamlari vizual ko‘rinishda tahlil qilinadi.

Xulosa.O‘zbek toponimiyasi tizimida etnonimlar asosida shakllangan etnotoponimlar murakkab lingvistik, tarixiy va madaniy qatlamni tashkil etadi. Ular oddiy geografik nomlar yig‘indisi emas, balki xalqning etnik tarkibi, tarixiy harakatlari, ijtimoiy tuzilishi va madaniy xotirasini o‘zida mujassam etgan muhim semiotik birliklar hisoblanadi.

Ilmiy manbalar tahlili asosida etnotoponimlarning shakllanishi bir nechta omillar bilan bog‘liq ekanligi aniqlanadi: etnik migratsiya jarayonlari, urug‘-qabila tizimi, ijtimoiy tabaqalanish, kasb-kor asosidagi nomlanish hamda mifologik tasavvurlar.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek toponimiyasida etnonimlar asosida shakllangan etnotoponimlarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnologiya va madaniyatshunoslik uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.T. Nafasov *O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati.* – Toshkent: O‘qituvchi, 1988.
2.Z. Do‘simov *Xorazm toponimlari.* – Toshkent: Fan, 1985.
3.N. Oxunov *O‘zbek toponimlari va ularning etimologiyasi.* – Toshkent: Fan, 1991.
4.N. Mingboev Sirdaryo viloyati toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari. – Toshkent, 1995.
5.T. Rahmatov Samarqand viloyati toponimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. – Samarqand, 1973.
6.J. Latipov Marg‘ilon shahri va atrofi toponimlari tadqiqi. – Farg‘ona, 1998.6
7.S. Nayimov Buxoro viloyati toponimiyasining lingvistik tahlili. – Buxoro, 2001.
8.A. V. Superanskaya *Общая теория имени собственного.* – Москва: Наука, 1973.
9.E. M. Murzayev *Словарь народных географических терминов.* – Москва: Мысль, 1984.

Kamola IKRAMOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
mustaqil izlanuvchi
e-mail: kamolaikramova471@gmail.com



AYOL OBRAZI KONSEPTI: LINGVOKOGNITIV MODEL, FREYM VA ARXETIPLAR

Annotatsiya:mazkur maqolada “ayol” obrazi lingvokognitiv konsept sifatida Sharq va G‘arb badiiy tafakkuri misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda konseptning yadro-periferiya tuzilishi, freym va arxetip modellari, lingvomadaniy kodlar hamda semantik komponentlar o‘rganiladi. “O‘tkan kunlar” va “Andisha va g‘urur” asarlaridagi ayol obrazi denotativ, konnotativ va pragmatik jihatdan tahlil qilinib, ularning ijtimoiy-madaniy rol sxemalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *ayol obrazi, lingvokognitiv konsept, freym, arxetip, lingvomadaniyat, sema, konnotatsiya, madaniy kod, qiyosiy tahlil, badiiy matn.*

Аннотация:в данной статье образ женщины рассматривается как лингвокогнитивный концепт в сравнительном аспекте восточного и западного художественного мышления. Исследуются ядерно-периферийная структура концепта, фреймы, архетипы, культурные коды и семантические компоненты. На материале романов «Минувшие дни» и «Гордость и предубеждение» анализируются денотативные, коннотативные и прагматические особенности женского образа, раскрывающие его социально-культурные ролевые модели.

Ключевые слова: *образ женщины, лингвокогнитивный концепт, фрейм, архетип, лингвокультура, сема, коннотация, культурный код, сравнительный анализ, художественный текст.*

Annotation: in this article, the image of the ‘woman’ as a linguocognitive concept is analyzed comparatively using examples from Eastern and Western literary thought. The study examines the core-periphery structure of the concept, frame and archetype models, linguocultural codes, as well as semantic components. The depiction of women in the works ‘Bygone Days’ and ‘Thought and Pride’ is analyzed from denotative, connotative, and pragmatic perspectives, highlighting their socio-cultural role schemes.

Key words: *image of a woman, linguocognitive concept, frame, archetype, linguoculture, seme, connotation, cultural code, comparative analysis, literary text.*

Kirish. Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik zamonaviy lingvistikaning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy matnlarda inson obrazi va ijtimoiy qadriyatlarning til orqali modellashtirilishi lingvokognitiv hamda lingvomadaniy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylangan. “Ayol obrazi” konsepti ham shunday murakkab semantik-kognitiv tizimlardan biri bo‘lib, unda jamiyatning axloqiy, estetik va madaniy qarashlari mujassamlashadi. Konsept nazariyasi antropotsentrik paradigma doirasida faol rivojlangan bo‘lib, konsept til, tafakkur va madaniyatning kesishgan nuqtasi sifatida talqin qilinadi. John Lyons semantik tadqiqotlarida ma’noning descriptive, social va expressive turlarini ajratib, “sense” va “reference” farqini asoslab bergan [1]. Lingvomadaniy konsept masalasi Sergey G. Vorkachev tomonidan keng tadqiq qilingan bo‘lib, olim konseptni oddiy tushunchadan farqlab, uning semiotik va madaniy tabiatini izohlaydi [2.]. Vorkachevga ko‘ra, konsept obraz, til va madaniy mazmun qatlamlarining integrativ birligidir. Shu sababli “iffat”, “kundosh” yoki “ledi” kabi birliklar badiiy matnda nafaqat nominativ vazifani, balki madaniy kod funksiyasini ham bajaradi. Freym nazariyasi Charles Fillmore tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra, har bir leksema ma’lum bir “tajriba sahnasi” yoki bilim strukturasini chaqiradi [3]. Shu asosda ayol konsepti atrofida nikoh –oila, nomus–iffat, ijtimoiy maqom va ijtimoiy masofa freymlari modellashtirildi. Arxetip nazariyasi Carl Gustav Jung qarashlariga tayanadi. Jung kollektiv ongostida universal arxetipik shakllar mavjudligini ta’kidlaydi [4]. Tadqiqotda “Afifa”, “Matriarx”, “Gentlewoman” va “Kundosh” arxetiplari ayol konseptining madaniy modellarini ifodalovchi strukturalar sifatida talqin qilinadi. George Lakoffning prototipik kategoriyalash nazariyasi konseptning yadro-periferiya tuzilishini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [5]. Mazkur maqolaning maqsadi — Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va Jane Austenning “Andisha va g‘urur” asarlari asosida ayol obrazining lingvokognitiv modelini ishlab

chiqish, uning freym-slot tizimi hamda arxetipik kodlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot materiali sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani [6] va Jane Austenning “Andisha va g‘urur” asari [7] tanlandi. Ushbu matnlar mikro-korpus sifatida olinib, ayol konsepti bilan bog‘liq yuqori konseptual yuklamaga ega sakkizta leksema ajratib olindi: iffat, niqob, musofir, kundosh, qalliq, missis, ledi, mag‘rur. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Qiyosiy-kontrastiv tahlil: Sharq va G‘arb badiiy tafakkuridagi ayol konsepti qiyoslandi. Bu metod orqali yadro va periferik semantik qatlamlar o‘rtasidagi farqlar aniqlashtirildi [8]. **2. Komponential (seme) tahlil**: har bir leksema denotativ, konnotativ va pragmatik semalarga ajratildi. Tahlilda Sterninning semasiologik yondashuvi metodik asos bo‘lib xizmat qildi [9].3. Freym modellashtirish: Fillmore freym semantikasi asosida ayol konsepti quyidagi bazaviy freymlar orqali tavsiflandi: nikoh/oila; nomus–iffat/ pardalanish; ijtimoiy maqom–etiket; ijtimoiy masofa–begonalik [3]. **4. Arxetipik tahlil:** Jung nazariyasi asosida “Afifa”, “Matriarx”, “Gentlewoman” va “Kundosh” arxetiplari aniqlanib, ularning madaniy funksiyasi tahlil qilindi [4]. **5. Close reading va mikro-korpus tahlili:** har bir leksema kontekstual iqtibos, gloss, pragmatik vazifa va freym-slot joylashuvi asosida tahlil qilindi.

Tahlil natijalari ayol konseptining ko‘p qatlamli lingvokognitiv tizim ekanligini ko‘rsatdi. Ayol konseptining lingvokognitiv modeli uch bosqichli tuzilma sifatida o‘rganilishi mumkin**. Yadro qatlami** – “ayol”ning prototipik atributlari (onalik, turmush, odob, ijtimoiy rol)ning eng markaziy kombinatsiyasi. Prototipiklik g‘oyasi George Lakoffning klassik kategoriyalash ta’limotida “kategoriya prototip atrofida qurilib, keyin radial tarzda kengayishi” bilan mos keladi [5]. Badiiy matnlarda yadro – “ideal ayol” (iffatli, odobli) yoki “ijtimoiy ideal” (gentlewoman) sifatida ko‘rinadi.Yaqin periferiyada ijtimoiy institutlar bilan bog‘liq slotlar: nikoh instituti, oilaviy nazorat, etiket, tabaqalanish. Bu qatlamda “qalliq”, “missis”, “ledi” kabi birliklar konseptni “ijtimoiy tizim”ga bog‘laydi. Uzoq periferiyada esa konflikt, stigma va masofa slotlari (kundoshlik, musofirlik, “begona” tamg‘asi). Bu qatlam ayol konseptida (bevosita yoki bilvosita) ijtimoiy “narx” va “xavf” qiymatlarini kodlaydi. **Arxetiplar va madaniy kodlash.** Arxetip tushunchasi doirasida “kollektiv ongosti” mazmuni “arxetiplar”dan tarkib topishi, arxetip esa ko‘plab madaniy matnlarda qayta-qayta namoyon bo‘ladigan “shakl” beruvchi strukturaviy birlik ekanligi qayd etiladi. Yung “kollektiv ongosti”ning shaxsiy tajribadan kelib chiqmaydigan, merosiy qatlamini ta’riflar ekan, uning mazmuni asosan “archetypes”dan iboratligini ochiq aytadi. Bu g‘oya adabiy tahlilga ko‘chirilganda, ayol obrazining universal rollari (ona, kelin, malika/ledi, raqib xotin) turli madaniyatlarda turlicha leksik kodlar bilan “faollashishi”ni ko‘rsatadi. J. Ostin matnida esa ayolning kodlanishi ko‘proq ijtimoiy titul va nikoh instituti orqali: “qalliq topish” me’yori, “missis”ning oilaviy statusi, “ledi”ning tabaqaviy iyerarxiyasi muhim [7] Matnning o‘zida roman 1813-yilda nashr qilingani va unda ijtimoiy-madaniy muomala (etiket)ni aks ettirish muhimligi qayd etiladi. Bu “Gentle woman arxetipi”ning kodidir: prestij–etiket–tabaqa.

1-jadval. Asosiy arxetiplar uchun ixchamlashtirilgan freym-slot konfiguratsiyasi.

Arxetip (kognitiv tip)	Yetakchi freym	Markaziy slotlar	Tipik leksemalar (markerlar)	Aksiologik vektor	Narrativ funksiyasi
Afifa (ideal kelin)	Nomus–iffat	moral-tozalik; pardalanish; uyat	iffat, niqob	ijobiy (“ideal”)	ideallashtirish, “toza” normani belgilash
Matriarx (ona/ qaynona)	Nikoh/oila	nazorat; vositachilik; ierarxiya	(qaynona diskursi), missis (matchmaker), buyruq/nasihat	ambivalent (tartib + bosim)	nikoh strategiyasi va ijtimoiy nazorat
Kundosh (raqobat modeli)	Nikoh/oila	raqobat; konflikt; hasad	kundosh	salbiy (“balo”)	dramalashuv, fojiaviy konflikt
Gentlewoman (tabaqaviy ayol)	Ijtimoiy maqom–etiket	prestij; titul; “status speech”	ledi, missis	ko‘pincha ijobiy (prestij), ba’zan ironik	ierarxiya va masofa kodini qurish

Qiyosiy tahlil natijalari ayol konseptining Sharq va G‘arb adabiyotida turlicha aksiologik markazga ega ekanligini ko‘rsatdi. Abdulla Qodiriy matnida ayol obrazi asosan nomus–iffat paradigmasi orqali kodlanadi. “Iffat pardasi”, “niqob”, “kundosh balosi” kabi birliklar ayolni axloqiy me’yorlar tizimi bilan bog‘laydi. Bu holatda ayol konsepti diniy va oilaviy nazorat orqali shakllanadi. Jane Austen matnida esa ayol obrazi ko‘proq etiket, tabaqa va nikoh bozori bilan bog‘liq holda modellashtiriladi. “Missis”, “ledi”, “qalliq” kabi birliklar ayolning ijtimoiy maqomi va kommunikativ rolini belgilaydi.

2-jadval. Leksemalar tarkibiy tuzilishining qiyosiy ko‘rinishi.

Leksema	Matn / til qatlami	Denotativ komponentlar (yadro)	Konnotativ-aksiologik komponentlar	Pragmatik funksiya	freym-slot
iffat	Qodiriy / arabiy qatlam	poklik; nomus; hayo	idealizatsiya; diniy-axloqiy norma	ayolni “ideal” sifatida legallashtirish	nomus–iffat: moral-tozalik
niqob	Qodiriy / madaniy detal	yuzni yopish; yashirish	odob; nazorat; ritual	“ko‘rsatish” aktini marosimlashtirish	nomus–iffat: ruxsatli ko‘rinish
musofir	Qodiriy / ijtimoiy belgi	begona; ko‘chib yuruvchi	ishonchsizlik; stigma	presuppozitsiyali baho (“kamchilik”)	masofa: begonalik
kundosh	Qodiriy / oilaviy konflikt	ko‘pxotinlilikdagi raqib	“balo”, konflikt, rashk	dramatizatsiya, affektiv kuchaytirish	nikoh/oila: raqobat
qalliq	Ostin tarj. / nikoh ssenariysi	bo‘lajak kelin	“bozor” normasi; tanlov obyekti	“nikoh bozori” sahnasini o‘rnatish	nikoh/oila: nomzod kelin
missis	Ostin tarj. / etiket titul	turmush qurgan ayol tituli	hurmat; uy-ichki hokimiyat	muloqot ierarxiyasini belgilash	maqom–etiket: marital status
ledi	Ostin tarj. / tabaqa tituli	aristokrat ayol	prestij; masofa; hokimiylik	ijtimoiy asimmetriyani kuchaytirish	maqom–etiket: nobility
mag‘rur	Ostin tarj. / baholash mezoni	o‘zini yuqori baholash	ijobiy/ salbiy ambivalent baho	tanlov mezonini qurish (kuyov bahosi)	maqom + nikoh kesishmasi

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, asosiy farq “ayol konsepti” qanday kodlanishiga borib taqaladi. Ya’ni har ikki yozuvchi ayol obrazini til orqali qanday ma’naviy va madaniy mazmunlar bilan bog‘lab berishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Qodiriy asarlarida ayolning kognitiv modeli ko‘proq “nomus–iffat” semantik maydoni atrofida shakllanadi. “Iffat pardasi”, “niqob” kabi birliklar ayolni shunchaki tashqi ko‘rinish emas, balki uning jamiyatda qanday “ko‘rinishi” lozimligi bilan birga tasvirlaydi. Ya’ni ayolning yuzi, tashqi qiyofasi va hatto harakati ham ijtimoiy qoida va nazorat doirasida talqin qilinadi. Bu holat til birliklarida madaniy g‘oyalar yashashi, so‘z orqali muayyan dunyoqarash ifodalanishi bilan uyg‘unlashadi. Jeyn Ostin asarlarida esa ayol konsepti boshqacha markazga tortiladi. Bu yerda “etiket titullari” va “nikoh bozori” deb ataladigan ijtimoiy ssenariy muhim o‘rin tutadi. Masalan, “qalliq topishi kerakligi” haqidagi umumiy tasavvur ayolning jamiyatdagi mavjudligini nikoh instituti bilan bog‘laydi. Shuningdek, “missis” yoki “ledi” kabi murojaat shakllari ayolning ijtimoiy tabaqasi va muloqotdagi masofasini bildiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ayol obrazi badiiy matnda oddiy personaj emas, balki murakkab lingvokognitiv va madaniy-belgili tizimdir. Abdulla Qodiriy asarlarida ayol obrazi, avvalo, nomus–iffat va pardalanish freymi bilan bog‘lanadi. Bunga qo‘shimcha ravishda nikoh va oila, ayniqsa ko‘pxotinlilik masalasi ham obrazning markaziy ijtimoiy kontekstini tashkil etadi. Ya’ni ayol shaxsiy mavjudot sifatida emas, balki ma’naviy va oilaviy tartib doirasida talqin qilinadi.

Jeyn Ostin ijodida esa ayol obrazi boshqacha konseptual asosga ega. Bu yerda asosiy urg‘u ijtimoiy maqom, etiket va tabaqaviy me’yorlarga qaratiladi. Nikoh ham mavjud, ammo u “marriage market” – ya’ni ijtimoiy kelishuv va maqomni belgilovchi institut sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, Qodiriyda axloqiy-me’yoriy kod ustuvor bo‘lsa, Ostinda ijtimoiy-institutsional kod yetakchilik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lyons, J. (1977). *Semantics* (Vol. 2). Cambridge University Press.
2. Воркачёв, С. Г. (2001). Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании. *Филологические науки*, 12–20.
3. Fillmore, C. J. (1982). *Linguistics in the Morning Calm*. Hanshin Publishing Company.
4. Jung, C. G. (1980). *The archetypes and the collective unconscious* (2nd ed., R. F. C. Hull, Trans.). Princeton University Press.
5. Lakoff, G. (1987). *Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind*. University of Chicago Press.
6. Қодирий, А. *Ўткан кунлар; Меҳробдан чаён: Рўмонлар*. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.
7. Ostin, J.*Andisha va g‘urur*. Yangi asr avlodi, 2016.
8. Телия, В. Н. (1986). *Коннотативный аспект семантики номинативных единиц*. Наука.
9. Стернин, И. А., & Маклакова, Е. А. (2015). *Теоретические проблемы семной семасиологии*. Директ-Медиа.

Lobar USMANOVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi

RAQAMLI MULOQOTDA ANTROPOMORFIK VA ZOOMORFIK METAFORALARNING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada raqamli muloqot jarayonida antropomorfik va zoomorfik metaforalarning qo‘llanilishi, ularning kommunikativ, semantik va pragmatik vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada mazkur metaforalarning raqamli diskursdagi o‘rni, ommaviy axborot vositalari, internet tili va kundalik onlayn muloqotdagi funksiyalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *raqamli muloqot, metafora, antropomorfizm, zoomorfizm, internet diskursi, ijtimoiy tarmoqlar, kommunikatsiya, sun’iy intellekt.*

Annotation: this article analyzes the use of anthropomorphic and zoomorphic metaphors in the process of digital communication, as well as their communicative, semantic, and pragmatic functions. The article also discusses the role of these metaphors in digital discourse and their functions in mass media, internet language, and everyday online communication.

Key words: *digital communication, metaphor, anthropomorphism, zoomorphism, internet discourse, social networks, communication, artificial intelligence.*

Аннотация: в данной статье анализируется использование антропоморфных и зооморфных метафор в процессе цифровой коммуникации, а также их коммуникативные, семантические и прагматические функции. Кроме того, в статье освещается роль данных метафор в цифровом дискурсе, средствах массовой информации, интернет-языке и повседневном онлайн-общении.

Ключевые слова: *цифровая коммуникация, метафора, антропоморфизм, зооморфизм, интернет-дискурс, социальные сети, коммуникация, искусственный интеллект.*

Bugungi kunda insonlar muloqotining katta qismi raqamli makonda amalga oshmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, bloglar, elektron pochta, sun’iy intellekt vositalari, chatbotlar va boshqa platformalar kundalik kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylandi. Texnologiya shunchalik tez rivojlanmoqdaki, odamzod yana o‘zining sevimli ishiga qaytdi: murakkab narsalarni tushuntirish uchun ularga odam yoki hayvon qiyofasini yopishtirish. Juda insoniy holat, albatta.

Raqamli muhitda paydo bo‘layotgan yangi tushunchalarni oddiy foydalanuvchi ongiga yaqinlashtirishda metafora muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, antropomorfik va zoomorfik metaforalar internet tili va raqamli diskursda keng qo‘llanadi. Masalan, “aqlli telefon”, “bot javob berdi”, “algoritm meni kuzatyapti”, “virus hujum qildi”, “tarmoq o‘rgimchak to‘riga o‘xshaydi” kabi ifodalar texnologik jarayonlarni obrazli tushunishga yordam beradi.

Metafora faqat badiiy bezak emas, balki tafakkur va idrok vositasidir. Inson notanish hodisani tanish obrazlar orqali anglaydi. Shu sababli raqamli kommunikatsiyada texnologik obyektlar ko‘pincha insoniy yoki hayvoniy belgilar orqali talqin qilinadi.

Metafora bir sohadagi tushunchani boshqa soha orqali ifodalashga asoslangan til hodisasidir. An’anaviy yondashuvda metafora asosan badiiy ifoda vositasi sifatida qaralgan bo‘lsa, zamonaviy tilshunoslikda u inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida baholanadi. Raqamli muloqotda metafora texnologik jarayonlarni soddalashtirish, hissiy ta’sirni kuchaytirish va foydalanuvchi bilan texnologiya o‘rtasidagi masofani kamaytirish vazifasini bajaradi.

Raqamli muloqot deganda internet, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar, elektron platformalar va raqamli texnologiyalar orqali amalga oshadigan axborot almashinuvi tushuniladi. Bunday muloqot tezkorlik, qisqalik, obrazlilik va emotsionallik bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar murakkab texnologik hodisalarni oddiy, hazilomuz yoki kinoyali shaklda ifodalashga intiladilar.

Masalan: “Instagram meni eshitib turibdi”; “Google hammasini biladi”; “Chatbot gaplashyapti”; “Algoritm meni tushundi”; “Internet o‘ldi”; “Kompyuter qaysarlik qilyapti”. Bu ifodalarda texnologik obyektlar inson kabi harakat qiluvchi mavjudot sifatida tasvirlanadi.

Antropomorfik metafora narsa, hodisa yoki texnologik obyektlarga inson xususiyatlarini yuklash orqali hosil bo‘ladi. Bunda texnika “o‘ylaydi”, “eslaydi”, “ko‘radi”, “eshitadi”, “tushunadi”, “javob beradi”, “xafa bo‘ladi” yoki “aldanadi” kabi tasvirlanadi.

Raqamli muloqotda antropomorfik metaforalarning keng tarqalishiga bir nechta sabab bor. Birinchidan, inson murakkab texnologik tizimlarni o‘z tajribasi asosida tushunishga harakat qiladi. Ikkinchidan, foydalanuvchi

texnologiya bilan bevosita muloqot qilayotgandek his qiladi. Uchinchidan, zamonaviy raqamli platformalar ham aynan insoniy munosabat modeliga yaqinlashmoqda: chatbotlar suhbat quradi, ovozli yordamchilar buyruqni bajaradi, algoritmlar tavsiya beradi.

Masalan, “aqlli qurilma” iborasida telefon, soat yoki televizor inson aqli bilan bog‘liq sifatga ega deb tasvirlanadi. Aslida qurilma ongli mavjudot emas, u dasturiy buyruqlar va algoritmlar asosida ishlaydi. Ammo “aqlli” metaforasi foydalanuvchiga uning murakkab funksiyalarini tez va oson tushuntiradi.

Yana bir misol: “algoritm meni taniydi”. Bu yerda algoritm inson kabi tanish, eslab qolish va farqlash qobiliyatiga ega subyekt sifatida talqin qilinadi. Aslida esa algoritm foydalanuvchi harakatlari, qidiruvlari, ko‘rgan kontenti va bosgan tugmalari asosida ma’lumotlarni qayta ishlaydi. Lekin oddiy foydalanuvchi uchun “meni taniydi” deyish ancha qulay. Chunki “ma’lumotlar to‘plami asosida xatti-harakat modelimni hisoblayapti” deyish odamni charchatadi, texnologiyani esa keraksiz darajada dramatik qiladi.

Antropomorfik metaforalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: **Tushuntirish vazifasi.** Murakkab texnologik jarayonlarni sodda va obrazli qilib ifodalaydi. **Yaqqollashtirish vazifasi.** Texnologiyani foydalanuvchi ongida jonli obrazga aylantiradi. **Emotsional ta’sir vazifasi.** Muloqotni jonli, tabiiy va ta’sirchan qiladi. **Pragmatik vazifa.** Foydalanuvchining texnologiyaga munosabatini shakllantiradi. **Marketing vazifasi.** Mahsulot yoki xizmatni insoniy, qulay va “do‘stona” ko‘rsatadi. Masalan, “virtual yordamchi”, “raqamli maslahatchi”, “aqlli uy”, “do‘stona interfeys” kabi ifodalar foydalanuvchida texnologiyaga nisbatan ishonch va yaqinlik hissini uyg‘otadi.

Zoomorfik metafora inson, texnologiya yoki ijtimoiy hodisalarni hayvonlar obrazlari orqali ifodalashga asoslanadi. Raqamli muloqotda bunday metaforalar ham keng uchraydi. Ular ko‘pincha baholash, tanqid qilish, kinoya, hazil yoki obrazlilik yaratish vazifasini bajaradi.

Masalan, “internet tarmog‘i” tushunchasining o‘zi ham ma’lum darajada o‘rgimchak to‘ri obraziga yaqin. Ingliz tilidagi “web” so‘zi ham “to‘r” ma’nosini anglatadi. Bu obraz internetning murakkab, ko‘p bog‘lamli va tarqoq tuzilishini tushuntirishga yordam beradi.

Raqamli muloqotda zoomorfik metaforalarga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

“Kompyuter virusi” metaforasi biologik virusga asoslangan. Virus tirik organizmga kirib, uning faoliyatini buzadi. Kompyuter virusi esa raqamli tizimga kirib, fayllar, dasturlar yoki operatsion tizim ishiga zarar yetkazadi. Bu o‘xshashlik foydalanuvchiga xavfni tez anglash imkonini beradi.

“Internet qurti” iborasi ham zararli dasturlarga nisbatan ishlatiladi. Qurt obrazi sekin, yashirin va ichkaridan yemiruvchi mavjudot sifatida tasavvur qilinadi. Shu sababli bunday metafora zararli dastur faoliyatining xavfli va yashirin xususiyatini kuchaytiradi.

“Troll” esa raqamli kommunikatsiyada alohida o‘rin egallaydi. Bu so‘z internetda ataylab bahs chiqaruvchi, boshqalarni g‘azablantiruvchi yoki provokatsion fikrlar yozuvchi shaxsga nisbatan qo‘llanadi. Mazkur metafora afsonaviy, xunuk va noqulay mavjudot obraziga tayanadi. Odamlar internetda ham bir-birini tinch qo‘ymaydi, chunki, aftidan, Wi-Fi bor joyda drama ham bo‘lishi shart.

Zoomorfik metaforalar raqamli muhitda quyidagi vazifalarni bajaradi: xavfni obrazli ifodalash; salbiy xatti-harakatni kinoyali nomlash; raqamli hodisani esda qolarli qilish; ijtimoiy baho berish; internet madaniyatida umumiy kod yaratish. Masalan, “botlar armiyasi” ifodasi avtomatik akkauntlar ko‘pligi, ularning bir yo‘nalishda harakat qilishi va axborot maydoniga ta’sir ko‘rsatishini bildiradi. Bu yerda “armiya” harbiy metafora bo‘lsa-da, “botlar” insoniy yoki yarim tirik mavjudot sifatida tasavvur qilinadi.

Xulosa. Raqamli muloqotda antropomorfik va zoomorfik metaforalar muhim semantik, kommunikativ va pragmatik vazifalarni bajaradi. Antropomorfik metaforalar texnologik obyektlarni insoniy sifatlar bilan ifodalab, ularni foydalanuvchiga yaqin va tushunarli qiladi. Zoomorfik metaforalar esa raqamli hodisalarni hayvonlar yoki biologik mavjudotlar obrazlari orqali baholash, xavfli yoki kinoyali tarzda tasvirlash imkonini beradi. Shunday qilib, antropomorfik va zoomorfik metaforalarni o‘rganish raqamli kommunikatsiya tilini, internet madaniyatini, foydalanuvchi psixologiyasini hamda zamonaviy media diskursini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Texnologiya o‘zgargani sari metaforalar ham yangilanadi. Inson esa, odatdagidek, yangi dunyoni eski obrazlar bilan tushuntirishda davom etadi. Bu ham tilning, ham tafakkurning tabiiy xususiyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By**.** Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. Oxford: Oxford University Press, 2010.

M.Sh. SHERALIYEVA,
Qo‘qon DU o‘qituvchisi

YOSHLAR SLENGI VA UNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI

Annotatsiya: maqolada yoshlar slengi zamonaviy tilshunoslikdagi murakkab va ziddiyatli hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi. Uning o‘rganilish tarixi, ijtimoiy va funksional xususiyatlari hamda til rivojidagi o‘rni haqidagi olimlarning asosiy qarashlari tahlil qilinadi. Yoshlar slengining so‘z yasash mexanizmlari, leksik-semantik jarayonlari hamda lug‘at boyligini to‘ldirish manbalari, jumladan xorijiy tillardan va jargon tizimlaridan o‘zlashmalar alohida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *yoshlar slengi, ijtimoiy dialekt, jargon, o‘zlashmalar, so‘z yasash, leksik-semantik jarayonlar, ekspressivlik, adabiy til.*

Аннотоация: в статье рассматривается молодежный сленг как сложное и противоречивое явление современной лингвистики. Анализируется история его изучения, социальные и функциональные особенности, а также основные точки зрения исследователей на роль сленга в развитии языка. Особое внимание уделяется словообразовательным механизмам, лексико-семантическим процессам и источникам пополнения словаря молодежного сленга, включая заимствования из иностранных языков и жаргонных систем.

Ключевые слова: *молодежный сленг, социальный диалект, жаргон, заимствования, словообразование, лексико-семантические процессы, экспрессивность, литературный язык.*

Annotation: the article examines youth slang as a complex and controversial phenomenon in modern linguistics. It analyzes the history of its study, its social and functional features, and the main scholarly perspectives on the role of slang in language development. Special attention is paid to word-formation mechanisms, lexical-semantic processes, and sources of vocabulary enrichment, including borrowings from foreign languages and jargon systems.

Key words: *youth slang, social dialect, jargon, borrowings, word formation, lexical-semantic processes, expressiveness, literary language.*

Rus tilini uning so‘zlovchilarining ijtimoiy stratifikatsiyasi nuqtayi nazaridan o‘rganish muammosiga olimlar XX asrning birinchi yarmidayoq murojaat qila boshlaganlar. B.A. Larin, V. M. Jirmunskiy hamda A. M. Selishchev ilmiy muomalaga “ijtimoiy dialekt” atamasini kiritib, jargonlar va oddiy so‘zlashuv nutqining adabiy tilga ta’sirini tadqiq etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ilk tilshunoslar bo‘ldilar. Keyinchalik ularning g‘oyalari V. D. Bondaletov, L. P. Krysin, B. A. Serebrennikov, L. I. Skvortsov va boshqa mahalliy tilshunoslarning ishlarida keng rivojlantirildi. Ular nutqning ijtimoiy variantlarini ularning vazifasi, til xususiyatlari va qo‘llanish sharoitlariga qarab tasniflashni taklif etdilar. Shu bilan birga, olimlar tilning alohida kichik tizimlarini o‘rganishning ayrim jihatlarini ham bosqichma-bosqich ishlab chiqa boshladilar. XX asrning 90-yillarida yoshlar nutqining keskin va keng ko‘lamda faollashuvi filologlarning yoshlar slengining funksional xususiyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada kuchaytirdi.

Zamonaviy rus tilining barcha ijtimoiy ko‘rinishlari orasida yoshlar slengi adabiy til bilan o‘zaro ta’siri jihatidan eng muhim qatlamlardan biri hisoblanadi. XXI asr boshidagi lingvomadaniy vaziyatning beqarorligi yoshlar slengiga xos leksik birliklarning keng tarqalishiga yordam bermoqda. Natijada bu birliklar o‘zining ijtimoiy bog‘liqligini asta-sekin yo‘qotib, turli ijtimoiy guruhlar vakillariga yaxshi tanish bo‘lib bormoqda, ularning ayrimlari esa adabiy tilda ham keyingi taraqqiyotini topmoqda. Shu munosabat bilan ko‘plab olimlar til madaniyatining pasayishi masalasini ko‘taradilar. Bunda ular muammoni faqat yoshlar muhiti doirasida cheklab qo‘ymay, balki uni umummilliy miqyosdagi dolzarb masala sifatida ko‘rib chiqadilar [2].

Yoshlar slengini tadqiq etayotgan zamonaviy olimlar orasida ushbu til hodisasiga nisbatan bir-biriga mutlaqo zid bo‘lgan ikki xil nuqtayi nazar mavjud. Birinchi yondashuvga ko‘ra, yoshlar slengining mavjudligi “muqarrar yovuzlik”, tilning “ifloslanishi” sifatida baholanadi va u umuman til madaniyatiga tuzatib bo‘lmaydigan zarar yetkazadi, deb hisoblanadi. Bu qarashni Leonid Petrovich Krysin, Svetlana Igorevna Levikova, Irina Olegovna Fedorova va boshqalar qo‘llab-quvvatlaydilar. Mazkur yondashuvda xorijiy so‘zlar, argo birliklari va oddiy so‘zlashuv unsurlarining faol o‘zlashishi, shuningdek, adabiy til me’yorlarining ataylab e’tiborsiz qoldirilishi asosiy omil sifatida ko‘rsatiladi. Ikkinchi yondashuv tarafdorlari esa yoshlar slengini rus nutqini boyituvchi vositalardan biri sifatida baholaydilar [3, 63-91]. Bu nuqtayi nazarni M. A. Grachev, L. V. Vladimirova, V. I. Shlyakhov va boshqalar ilgari suradilar. Ushbu qarash tarafdorlari, odatda, yoshlar slengining obrazliligi va emotsional ifodadorligini alohida ta’kidlaydilar. Bu xususiyatlar ko‘p jihatdan adabiy tilga xos bo‘lmagan turli xil so‘z yasovchi birliklar hisobiga yuzaga keladi. Darhaqiqat, yoshlar slengi o‘zining rang-barangligi, strukturaviy murakkabligi va so‘z yasash shakllarining boyligi bilan ajralib turadi. U inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga xizmat qiladi, uning leksik birliklari esa kuchli emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega. Ehtimol,

aynan shu sifat xususiyatlari ikkinchi nuqtayi nazar tarafdorlarining ushbu hodisaga ijobiy baho berishiga asos bo‘layotgandir.

Zamonaviy rus yoshlar slengi so‘z yasash sohasida deyarli cheklanmagan bo‘lib, bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ma’lumki, sleng birliklari adabiy tilga xos bo‘lgan so‘z yasash usullari yordamida hosil qilinadi: suffiksatsiya (тусняк, туфтовый), prefiksatsiya (неврубон, прогнать), postfiksatsiya (обломаться), prefiksal-suffiksal usul (бесполезняк), suffiksal-postfiksal usul (добазариться), substantivatsiya (центровой, зеленые), qo‘shma so‘z yasash (бесогон, кишкодав), abbreviatsiya (ВДВ — возможны двести вариантов - “ikki yuzta variant bo‘lishi mumkin”), qisqartirish (нарк) hamda okkazional usullar (чайковский — чай - “choy”, пешкарусом — peshkom - “piyoda” va “Икарус” so‘zlari asosida).

Yoshlar slengining so‘z yasashdagi o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda hosila asoslariga juda ko‘p va turli xil suffikslar qo‘shiladi. Bu asoslar ham adabiy tilga, ham o‘ziga xos sleng birliklariga mansub bo‘lishi mumkin: *ездун* (ездить — “yurmoq”), *куртяга* (куртак), *гонщик* (гнать — “yolg‘on gapirmoq, aldamoq”), *отмазка* (отмазаться — “bahona qilmoq, oqlanmoq”). Adabiy til, so‘zlashuv nutqi va oddiy og‘zaki tilga xos suffikslardan tashqari, zamonaviy yoshlar slengida unga xos bo‘lgan maxsus suffikslar ham keng qo‘llaniladi. Masalan: *-арь*, *-он*, *-няк* va boshqalar: *косарь*, *бухарь*, *выгибон*, *расслабон*, *походняк*, *депрессняк* va hokazo. Shuningdek, ravish yasash jarayonida ham o‘ziga xos suffikslar ishlatiladi, xususan *-як*, *-няк*: *внагляк*, *верняк*, *точняк* kabi birliklar shular jumlasidandir.

Shubhasiz, yoshlar slengining asosiy funksiyasi aynan ekspressivlik (ifodaviylik)dir. Biroq uning manbalariga e’tibor qaratilsa, shuni ko‘rish mumkinki, ushbu kontekstda qanday hissiy baho — ijobiy yoki salbiy — ifodalanayotganini bo‘lmasin, sleng birliklari baribir o‘zida pasaytirilgan (soddalashtirilgan, norasmiy) bo‘yoqni saqlab qoladi. Yoshlar slengi so‘zlovchining nutq predmetiga nisbatan erkin va familiyar munosabatini namoyon etadi, bu esa mazkur predmetning ijtimoiy ahamiyatini pasaytirishga intilishda ifodalanadi. Masalan, talabalar nutqida *препод* (o‘qituvchi), *старикан* (katta yoshdagi avlod vakili) kabi jargon birliklar uchraydi. Bu so‘zlarning qo‘llanishi odatda tilga olingan shaxslarni baholash funksiyasini bajarmaydi (*препод* har doim ham yomon o‘qituvchi degani emas), biroq ular so‘zlovchining ushbu shaxslarning ijtimoiy mavqeyini pasaytirish va shu orqali o‘zining nisbiy mavqeyini yuqoriroq ko‘rsatish istagini yaqqol ifodalaydi.

Yangi leksik birliklar, ayniqsa adabiy til asosida yaratilganlari, ko‘pincha o‘ziga xos, original va hazilomuz bo‘lib, alohida kulgi effekti hosil qiladi. Ularning ko‘pchiligi bir vaqtning o‘zida bir nechta konnotatsiyalarni (ma’no va baholovchi ohanglarni) o‘z ichiga oladi [2, 78-85]. Masalan, “*прикольный пацан*” birikmasida sleng birlik “*прикольный*” bir nechta ma’nolarni bir vaqtda ifodalaydi. Bir kontekst doirasida unga quyidagi adabiy til ekvivalentlari mos kelishi mumkin: quvnoq, noodatiy, o‘ziga xos, takrorlanmas, a’lo, yoqimli, samimiy, g‘alati. Bu variantlar stilistik jihatdan sleng so‘zga nisbatan ancha yuqori darajani tashkil etadi.

Sleng lug‘at boyligini to‘ldirishning eng samarali usullari sifatida morfologik (yuqorida ko‘rib chiqilgan) va leksik-semantik usullarni ko‘rsatish mumkin. Leksik-semantik usul deganda adabiy tilga xos leksik birliklarning qayta anglanishi va ularning slengda yangilangan semantik ma’no bilan qo‘llanishi tushuniladi. Eng keng tarqalgan hodisa metaforizatsiya bo‘lib, bunda yoshlar atrofdagi voqelikdagi predmet va hodisalarning o‘xshash belgilarini topishda katta ijodkorlik namoyon etadilar. Qayta ma’nolanish turli belgilarga asoslanishi mumkin: tashqi ko‘rinish yoki ichki shakl (masalan, *лось* — qo‘pol, ibtidoiy inson; *дремучий* — qoloq), tuzilish (masalan, *хобот* — burun; *заготовка* — qo‘l), funksiya (masalan, *вывеска* — yuz; *горючее* — alkogol ichimlik), holat (masalan, *вертолёт* — bosh aylanishi; *засада* — noqulay vaziyat), rang (masalan, *мазут* — aroq va pepsi aralashmasi; *пиджак* — taksi) va boshqalar.

Biroq yoshlar slengi leksikasini boyitishning boshqa manbalarini ham unutmaslik lozim, jumladan tashqi va ichki o‘zlashmalar va hokazo. Xorijiy tillardan, jargon va argodan o‘zlashgan birliklar umuman olganda yoshlar slengi lug‘at tarkibining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Ularning qo‘llanishi esa har doim ham til sohiblarining lingvistik shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi [1, 32-41].

Yoshlarning rus tilining turli kichik tizimlariga murojaat qilishi yangi ifoda vositalarini izlash bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularning xorijiy til materialiga bo‘lgan yuqori qiziqishi, avvalo, ijtimoiy-psixologik omillar bilan izohlanadi. Shunday qilib, yoshlar slengi vakillari ko‘pincha xorijiy so‘zni ona tilidagi mos so‘zga nisbatan nufuzliroq deb hisoblaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Beregovskaya E.M. Yoshlar slengi: shakllanishi va funksionalligi // Tilshunoslik masalalari.1996.№ 3.S. 32—41-bet.

2.Grachev M.A. Yoshlar jargonida argotizmlar // Maktabda rus tili. 1996.№ 1. S. 78—85.

3.Krysin L.P. XX asr oxirida rus tilidagi ayrim o‘zgarishlar haqida // Slavyan tillari bo‘yicha tadqiqotlar. 2000. № 5. S. 63—91-b.

4.Kozyrev V.A., Chernyak V.D. Zamonaviy talabaning nutq portreti: madaniy savodxonlik // Gertsen universiteti axborotnomasi.2007.№ 9.S. 21–25.Начало формыКонец формы

Umid USMONOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: konistantin99021@gmail.com

AQLI ZAIF O‘QUVCHILARNING YOZMA NUTQIDA IMLOVIY BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING KORREKSION-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada intellektual rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirish, xususan, ularda imloviy barqarorlikni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va korreksion-pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Zamonaviy defektologiya, logopediya va neyropsixologiya yutuqlariga tayangan holda muammoning amaliy va nazariy yechimlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *aqli zaif o‘quvchilar, yozma nutq, imloviy barqarorlik, korreksion pedagogika, disgrafiya, multisensor yondashuv, fonematik idrok, neyropsixologik usullar, maxsus ta’lim.*

Аннотация: в данной статье освещаются специфические особенности и коррекционно-педагогические механизмы развития письменной речи, в частности, формирования орфографической устойчивости у учащихся с нарушениями интеллектуального развития. Опираясь на достижения современной дефектологии, логопедии и нейропсихологии, анализируются практические и теоретические пути решения проблемы.

Ключевые слова: умственно отсталые учащиеся, письменная речь, орфографическая устойчивость, коррекционная педагогика, дисграфия, мультисенсорный подход, фонематическое восприятие, нейропсихологические методы, специальное образование.

Annotation: this article highlights the specific features and corrective-pedagogical mechanisms of developing written speech, in particular, the formation of spelling stability in students with intellectual disabilities. Based on the achievements of modern defectology, speech therapy, and neuropsychology, practical and theoretical solutions to the problem are analyzed.

Key words: *students with intellectual disabilities, written speech, spelling stability, corrective pedagogy, dysgraphia, multisensory approach, phonemic perception, neuropsychological methods, special education.*

Yozma nutq insonning eng murakkab psixofiziologik va kognitiv faoliyatlaridan biri bo‘lib, u eshitish, ko‘rish, harakat-kinestetik va nutq-harakat analizatorlarining o‘zaro uzviy va muvofiqlashgan ishlashini talab etadi [1]. Intellektual rivojlanishida ortda qolish kuzatilgan o‘quvchilarda oliy asab faoliyati dinamikasining buzilishi sababli bu analizatorlar o‘rtasidagi bog‘liqlik zaif shakllanadi. Buning natijasida ularning yozma nutqida turli darajadagi disgrafik xatolar va imloviy beqarorliklar namoyon bo‘ladi [2].

Maxsus maktab ta’limining asosiy vazifalaridan biri – aqli zaif o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashtirishdir. Bunga erishishda savodxonlik, ayniqsa, o‘z fikrini yozma ravishda to‘g‘ri va tushunarli bayon eta olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ularning yozma nutqida imloviy barqarorlikni shakllantirish korreksion-pedagogik jarayonning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Aqli zaif o‘quvchilarning yozma nutqida uchraydigan imloviy xatolar tasodifiy emas, balki ularning bilish jarayonlaridagi neyropsixologik nuqsonlar bilan bevosita bog‘liq [3]. Bu xatolarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Fonetika-fonematik xatolar: o‘xshash tovushlarni (jarangli-jarangsiz, portlovchi-sirg‘aluvchi) eshitish orqali farqlay olmaslik natijasida harflarni almashtirib yozish (masalan: d-t, b-p, q-g‘).

Analiz va sintez jarayonining buzilishi bilan bog‘liq xatolar: harflar, bo‘g‘inlarni tushirib qoldirish yoki ortiqcha harf qo‘shish, so‘zlarni bir-biriga qo‘shib yozish yoxud bir so‘zni bo‘lib yozish.

Leksik-grammatik xatolar: so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarni noto‘g‘ri qo‘llash, gapda so‘zlar bog‘lanishini (moslashuv, boshqaruv) buza olish [4].

Optik disgrafiya: fazoviy tasavvurning yetishmasligi sababli o‘zaro o‘xshash harflarni (masalan: p-q, d-b) optik va kinestetik jihatdan adashtirish.

Imloviy barqarorlik qoidalarni yodlash orqali emas, balki fonematik eshitishni, ko‘rish xotirasini va motorikani tizimli rivojlantirish orqali hosil qilinadi. Quyida ushbu jarayonning asosiy korreksion mexanizmlari keltirilgan:

1. Multisensor yondashuv – sezgi organlarini kompleks ishga solish. Zamonaviy korreksion pedagogikada axborotni qabul qilishning barcha kanallarini (vizual, audial, kinestetik) bir vaqtda ishga tushirish yuqori samara beradi [5].

Vizualizatsiya: qiyin o‘zlashtiriladigan harflar va so‘zlarni rangli qalamlarda, yorqin kartochkalarda ko‘rsatish.

Kinestetika: harflarni havoda yozish, qum yoki yormalar ustida barmoq bilan yozish, plastilindan harf yasash orqali motor xotirani kuchaytirish.

O‘quvchi so‘zni to‘g‘ri yozishi uchun avval uning tovush tarkibini to‘g‘ri eshitishi va tahlil qila olishi shart. So‘zni sekin, har bir tovushini ta’kidlab aytish, so‘z sxemalarini chizish, masalan, unlilar uchun qizil, undoshlar uchun ko‘k rangli doirachalardan foydalanish, ma’nosi va eshitilishi o‘xshash so‘zlarni solishtirish, paronimlar bilan ishlash kabilar ushbu jarayonda samarali hisoblanadi [6].

P.Y. Galperin tomonidan ishlab chiqilgan “Aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi aqli zaif bolalar ta’limida o‘ta muhimdir [7]. Imlo qoidasini tatbiq etish quyidagi algoritm asosida amalga oshiriladi:

1. Harakatni moddiy shaklda bajarish: so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib, qarsak chalish yoki tayoqchalar yordamida sanash.

2. Tashqi nutq bosqichi: o‘quvchi nima yozayotganini ovoz chiqarib, izohlab yozishi.

3. Ichki nutqqa o‘tish: harakatni avtomatlashtirish, qoidani ichida takrorlab to‘g‘ri yozish ko‘nikmasini hosil qilish.

Har bir bolaning defekti va intellektual pasayish darajasi turlicha bo‘ladi. Shu bois, sinf doirasida o‘quvchilarni tipologik guruhlarga ajratgan holda topshiriqlar berish lozim. Murakkab qoidalarni o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilar uchun lug‘at so‘zlar ustida ko‘proq ishlash, ularni yod oldirish va amaliyotda ko‘p marta qaytarish samaralidir [8].

Aqli zaif o‘quvchilarda diqqatning tez charchashi va ixtiyoriylikning pastligi kuzatiladi. Ularning qiziqishini saqlab qolish uchun kompyuter o‘yinlari, interaktiv doskalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, tushirib qoldirilgan harfni o‘rniga qo‘yish, chigallashgan so‘zlardan gap tuzish kabi interaktiv vizual o‘yinlar imloviy hushyorlikni oshiradi [9].

Ba’zan o‘quvchi qalamni ushlaganda qo‘l muskullarida ortiqcha kuchlanish (gipertonus) yoki o‘ta bo‘shlik (gipotonus) kuzatiladi. Bu imloning buzilishiga olib keladi. Quyidagilar ushbu holatlarda yechim bo‘lishi mumkin:

1. Barmoqlar neyrogimnastikasi. Yozishdan oldin va yozish jarayonida miya yarimsharlari faoliyatini sinxronlashtiruvchi mashqlar bajarish, masalan, bir qo‘lda musht, ikkinchi qo‘lda kaft qilib, ularni tez-tez almashtirish.

2. Taktil idrokni kuchaytirish. Ko‘zi bog‘langan holda hajmli harflarni ushlab topish yoki orqasiga barmoq bilan chizilgan harfni topish mashqlari miyaning kinestetik tahlil markazlarini faollashtiradi.

Optik disgrafiyaning oldini olish uchun faqat harf bilan ishlash yetarli emas, bolaning fazoviy mo‘ljal olishini rivojlantirish kerak.

“Chalkash” rasmlar: turli chiziqlar bilan chigallashtirilgan yoki ustma-ust tushgan harflar ichidan keraklisini topish.

Kirish. Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari zamonaviy ta’lim tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida chet tillarini o‘qitish metodikasi ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Hozirgi davrda chet tilini o‘qitishda raqamli vositalardan foydalanish nafaqat texnologik ehtiyoj, balki pedagogik zarurat sifatida ham qaralmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida interaktiv platformalar, mobil ilovalar, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar hamda virtual ta’lim muhiti o‘quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirishda keng qo‘llanilmoqda.

CALL (Computer-Assisted Language Learning), MALL (Mobile-Assisted Language Learning) va blended learning kabi yondashuvlar xorijiy tillarni o‘qitishda samarali pedagogik model sifatida shakllangan. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish, reflektiv fikrlashni shakllantirish va kommunikativ faoliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, retseptiv ko‘nikmalar — tinglab tushunish va o‘qib tushunish — raqamli vositalar yordamida samarali rivojlantirilishi ilmiy tadqiqotlarda keng asoslangan.

Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli vositalarning pedagogik samaradorligi learner autonomy, communicative competence, collaborative learning va reflective learning tushunchalari bilan bog‘liq holda talqin etilgan. Chapelle CALL texnologiyalarining pedagogik va lingvistik qiymatini asoslagan bo‘lsa, Reinders va White raqamli vositalarning o‘quvchini faol bilim yaratuvchiga aylantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi [2; 3].

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalari alohida o‘rganilgan. Xususan, G.G. Madaminova o‘z ilmiy izlanishlarida sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishda interaktiv metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini asoslab beradi. Tadqiqotchining fikricha, kommunikativ vaziyatlarga asoslangan metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, motivatsiyasi va muloqot faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv raqamli vositalarni chet tilini o‘qitish jarayoniga integratsiyalashning metodik asoslarini mustahkamlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot sifatli tahlil (qualitative analysis) va systematic literature review metodlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqot davomida 2001–2024 yillarda chop etilgan xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Ma’lumotlar Scopus, Web of

Science, Google Scholar bazalari hamda OAK tavsiya etgan ilmiy jurnallardan olindi. G.G.Madaminovaning sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishga oid ilmiy qarashlari ham metodologik asos sifatida tahlil qilindi [9].

Natijalar. Tahlil natijalari xorijiy tajribada raqamli vositalarning pedagogik samaradorligi bir nechta asosiy mezonlar asosida baholanishini ko‘rsatdi. Ular orasida interaktivlik, lingvistik foydalilik, learner autonomy, refleksiya va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish asosiy o‘rin tutadi.

Chapelle modelida texnologiyaning mavjudligi emas, balki uning pedagogik qiymati asosiy mezon sifatida qaraladi [2]. Reinders va White esa raqamli vositalarning o‘quvchini mustaqil bilim yaratuvchiga aylantirish imkoniyatiga alohida e’tibor qaratadi [3].

Xorijiy ilmiy tadqiqotlar raqamli vositalarning retseptiv ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. AQSH va Buyuk Britaniya tajribalarida autentik audio va video materiallardan foydalanish tinglab tushunish strategiyalarini rivojlantirgani aniqlangan [5]. Yaponiya tajribasida esa audio materiallarni pause, replay va speed adjustment funksiyalari orqali boshqarish tinglab tushunish jarayonini yengillashtirgani qayd etilgan.

Mahalliy tadqiqotlarda ham kommunikativ yondashuv va interaktiv metodlarning samaradorligi qayd etilgan. G.G. Madaminova ta’limiy dramalar va kommunikativ mashg‘ulotlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning muloqot faolligi, motivatsiyasi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi [5; 9]. Ushbu yondashuv raqamli vositalardan foydalanishda ham interaktiv metodik integratsiya muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, xorijiy ta’lim tizimlarida raqamli vositalar pedagogik maqsadlarga yo‘naltirilgan holda qo‘llanilmoqda. Mahalliy amaliyotda esa ular ko‘pincha texnik vosita sifatida qo‘llanilib, learner autonomy va reflective learning imkoniyatlari yetarli darajada shakllantirilmayapti.

Muhokama. Tahlil natijalari xorijiy va mahalliy tajriba o‘rtasida sezilarli metodik tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Xorijiy amaliyotda raqamli vositalar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida qaraladi. Mahalliy ta’lim tizimida esa texnologiyalar ko‘pincha material uzatish yoki nazorat qilish instrumenti sifatida qo‘llanilmoqda.

Bu holat texnologiyaning o‘zidan ko‘ra uning metodik integratsiyasi muhim ekanligini ko‘rsatadi. Raqamli vositalar faqat texnik platforma emas, balki kommunikativ va interaktiv pedagogik muhit sifatida tashkil etilgandagina samarali natija beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari chet tilini o‘qitishda raqamli vositalar retseptiv ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatdi. Xorijiy tajriba raqamli texnologiyalar learner autonomy, communicative competence va reflective learning jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Mahalliy amaliyotda esa raqamli vositalarning didaktik imkoniyatlarini yanada kengroq joriy etish zarur. Ayniqsa, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va sun’iy intellekt texnologiyalarini pedagogik integratsiyalash chet tilini o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda speaking va writing ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli vositalarning samaradorligini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Warschauer M. Computer-Assisted Language Learning: An Introduction. – Tokyo: Logos International, 1996. – 120 p.
2. Chapelle C.A. Computer Applications in Second Language Acquisition: Foundations for Teaching, Testing and Research. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 215 p.
3. Chen X. Artificial intelligence in language education: A critical review // Educational Technology Research and Development. – 2022. – Vol. 70, No. 5. – P. 1623–1645.
4. Madaminova G.G. O‘zbekiston metodik maktabida sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili // Maktabgacha va Maktab ta’limi jurnali. 2024. 243–267-b.
5. Madaminova G.G. O‘quvchilarning sotsiolingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda ta’limiy dramalarning o‘rni (ingliz tili): pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Andijon, 2023. 233-b.
6. Ashurov Z.R. Oliy ta’limda chet tillarni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi: Ped. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2022. 280-b.

Dildora MAXKAMOVA,
Farg‘ona davlat texnika universiteti
O‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrasi katta o‘qituvchisi
dildoramahkamova83@gmail.com

INGLIZ TILI DARSLARIDA SMART TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tili darslarida smart (aqlli) ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy pedagogik va metodik masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalarning til o‘rganish samaradorligini oshirish, individual ta’lim trayektoriyasini yaratish hamda talabalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi afzalliklari ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, jahon pedagogikasidagi so‘nggi tendensiyalar va ta’limda gadjetlarga qaramlik, kognitiv yuklama, diqqatning tarqoqligi va raqamli tengsizlik kabi salbiy oqibatlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *smart ta’lim, ingliz tili o‘qitish metodikasi, sun’iy intellekt, interaktivlik, raqamli kompetensiya, texnologik qaramlik, masofaviy ta’lim, AKT, shaxsiylashtirish.*

Аннотация: в данной статье анализируются современные педагогические и методические вопросы использования смарт образовательных технологий на уроках английского языка. В исследовании рассматриваются преимущества цифровых инноваций в повышении эффективности изучения языка, создании персонализированных образовательных траекторий и развитии языковых навыков учащихся. Одновременно с этим, опираясь на последние тенденции в мировой педагогике, научно обосновываются негативные последствия чрезмерной технологизации, такие как зависимость от гаджетов в образовании, когнитивная перегрузка, рассеивание внимания на уроках и цифровое неравенство.

Ключевые слова: *Смарт-образование, методика преподавания английского языка, искусственный интеллект, интерактивность, цифровая компетенция, технологическая зависимость, дистанционное обучение, ИКТ, персонализация.*

Annotation: this article analyzes contemporary pedagogical and methodological issues concerning the integration of smart education technologies into English language classrooms. The study explores the benefits of digital innovations in enhancing language learning efficiency, creating personalized learning trajectories, and developing students’ language skills. Concurrently, drawing upon the latest trends in global pedagogy and the negative consequences of over-technologization—such as dependence on gadgets in education, cognitive overload, classroom distraction, and the digital divide—are scientifically substantiated.

Key words: *Smart education, English language teaching methodology, artificial intelligence (AI), interactivity, digital competence, technological dependence, distance learning, ICT, personalization.*

XXI asr axborot oqimining shiddatli rivojlanishi va global raqamlashtirish jarayonlari bilan xarakterlanadi. Ta’lim tizimi, xususan, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi mazkur rivojlanishning oldingi saflarida bormoqda. An’anaviy pedagogik yondashuvlar — so‘zlarni va matnlarni yodlash, darsliklar va doska bilan cheklanish — bugungi kun talabalari ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayapti. Chet tillarini, xususan, ingliz tilini samarali va tezkor o‘zlashtirish talabi ta’lim tizimiga “Smart ta’lim” konsepsiyasini olib kirdi.

Smart ta’lim — bu shunchaki o‘quv xonasiga texnik qurilmalarni o‘rnatish degani emas. Bu moslashuvchanlik, interaktivlik, integratsiyalashgan manbalar hamda talabaga yo‘naltirilganlik tamoyillari asosida qurilgan yangi shakldagi tizimdir. Ingliz tili darslarida mobil ilovalar, sun’iy intellekt platformalari, multimedia vositalari kabi smart texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq, shiddat bilan rivojlanayotgan raqamlashtirish tajribasi hamda keyingi yillardagi pedagogik muammolar shuni ko‘rsatdiki, texnologiyaga haddan tashqari qaramlik ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, o‘quvchilar xotirasi va diqqatini pasaytirishi mumkin. Ushbu ilmiy maqolada ingliz tili darslarida smart texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirsa-da, ulardan metodik jihatdan noto‘g‘ri foydalanish o‘quv jarayonini shunchaki “o‘yinga” aylantirib qo‘ymoqda. Ayniqsa, rivojlangan davlatlar maktablarida smartfon va gadjetlardan foydalanishni cheklash bo‘yicha yangi pedagogik yondashuv kuchaygan bir paytda, raqamli qurilmalar va an’anaviy metodlar o‘rtasidagi oltin muvozanatni topish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Smart va mobil ta’lim konsepsiyasining nazariy hamda amaliy asoslari xalqaro va respublika miqyosida juda faol o‘rganildi. Birlashgan Qirollik Open universiteti faxriy professori Mayk Sharples va London universiteti kolleji professori Ivonn Rojers mobil va aqlli qurilmalar yordamida til o‘rganishning “har yerda o‘rganish” tamoyilini asoslab berishgan. Ular dars xonasidan tashqarida ham real muloqot muhitini yaratishda smart ilovalar beqiyos ekanini ta’kidlashadi. Ingliz olimlaridan yana biri David Bukingem o‘zining raqamli pedagogika va bolalar aqliy rivojlanishiga oid ishlarida texnologiyaga haddan tashqari urg‘u berish darsda diqqat-e’tiborning bo‘linishi muammosini keltirib chiqarishi haqida jiddiy ogohlantirgan. Janubiy koreyalik olim N. Noh o‘z tajribasida smart-ta’lim tizimining tarkibiy qismlarini tizimlashtirib, ingliz tili darslarida multimedia vositalarining talaffuz ustida ishlashdagi yuqori samaradorligini isbotlagan. O‘zbek olimlaridan professor Jamol Jalolov Chet tili o‘qitish metodikasi maktabi asoschisi sifatida o‘zining so‘nggi uslubiy maqolalarida texnik vositalar hech qachon o‘qituvchining hissiy va jonli muloqot o‘rnini bosa olmasligini, ulardan faqat yordamchi vosita sifatida foydalanish zarur degan fikrni bergan. Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi N.K.Ergasheva ingliz tili darslarida smart texnologiyalarning ta’limdagi imkoniyatlari, xususan, interaktiv dasturlar yordamida talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirish masalalarida izlanish olib borgan.

Yuqoridagi olimlar tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, smart texnologiyalar til ko‘nikmalarini rivojlantirishda sezilarli ustunlikka ega, biroq uzoq muddatli dars tizimida muayyan kognitiv muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xorijiy tili darslarining dastlabki 15-20 daqiqasida smart qurilmalar yuqori interaktivlik bersa, darsning ko‘p qismida mazkur ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning internetdagi boshqa vositalarga chalg‘ishi kuzatilgan. Bu smart ta’lim texnologiyalarining ikki tomonlama tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Smart texnologiyalar o‘quvchiga til muhitiga oson kirishish imkonini beradi. Videomuloqotlar, podkastlar va sun’iy intellekt darsliklari yordamida talaba real ingliz tilini eshitadi. Smart platformalar o‘quvchining individual tezligiga moslashadi. Masalan, talaba o‘zi tushunmagan grammatik mavzuni smart dastur yordamida darsdan tashqari vaqtda ham xohlagancha takrorlashi mumkin. “Kahoot!” yoki “Bamboozle” kabi onlayn ta’lim va o‘yin platformalari darsga raqobat muhitini olib kiradi. Bu esa talabalarning darsga umumiy qiziqishini oshiradi va fanga bo‘lgan passiv munosabatni yo‘qotadi.

Biroq, darslarda smart ta’lim texnologiyalardan ko‘p foydalanishning bir qator kamchiliklari ham mavjud. Bularga akademik yozish ko‘nikmasining pasayishi va talaba diqqat-e’tiborining tarqoqligi misol bo‘ladi. Professor David Bukingem aytganidek, ma’lumotni smartfon ekranidan yuzaki o‘qish xotirani mustahkamlamaydi. O‘quvchi hamma narsani Google yoki sun’iy intellektdan topishga o‘rganib qolgach, miyadagi neyron bog‘lamlari zaiflashadi va uzoq muddatli xotira hajmi qisqaradi. Bu kamchiliklar bugungi jahon pedagogikasida “Gadjetlarga qarshi kurash” to‘lqini paydo bo‘lishi bilan to‘liq hamohangdir. Mazkur kurash dunyoning bir qancha rivojlangan davlat ta’lim tizimlarini gadjetlar bosimidan himoya qilishga chaqirmoqda.

Xulosa o‘rnida, xorijiy tili darslarida smart ta’lim tizimidan voz kechish emas, balki uni qat’iy pedagogik tahlildan o‘tkazgan holda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Smart texnologiyalar — bu yakuniy maqsad emas, balki maqsadga erishish yo‘lidagi faqatgina bir instrumentdir. Smart texnologiyalar o‘quvchilarning nutqiy-idrok ko‘nikmalarini rivojlantirishda va til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otishda yuqori samaradorlikka ega. Smart qurilmalardan dars davomida nazoratsiz va uzluksiz foydalanish diqqat tarqoqligi, kognitiv yuklama va yozma nutq ko‘nikmalarining pasayishiga olib keladi. Darsning faqatgina 15-20 daqiqalik qismida smart vositalardan interaktiv test, video-kontent kabilar uchun foydalanish, qolgan vaqtni esa jonli muloqot, bahs-munozara va yozma ishlarga ajratish lozim. Darslarda talabalarning shaxsiy smartfonlaridan faqat o‘qituvchi ruxsat bergan daqiqalardagina ulardan foydalanish ularning mavzudan chalg‘imasligiga yordam beradi. Talabalarga sun’iy intellekt va tarjimonlardan ko‘chirish (plagiat) salbiy oqibatlari haqida tushuncha berish, ularni mustaqil matn yaratishga yo‘naltirish ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buckingham, D. (2008). *Beyond Technology: Children’s Learning in the Age of Digital Culture.* British journal of educational technologyNew York: Wiley-Blackwell.

2. Ergasheva, N. K. (2020). *Methodology and outcomes of English language teaching.* FarDU Ilmiy xabarlari, 2024/6-son, 168-172.

3. Jalolov, J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

4. Maxkamova, D. Smart education technologies in English lessons development of the intellectual potential of students based on smart education technologies in English lessons. International Bulletin of Applied Science and Technology 3(6), 1008-1011, 2023.

5. Sharples, M., & Spikol, D. (2017). *Mobile Learning.* Technology enhanced learning: Research themes, 89-96

Nodira ALIDJANOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti, Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrasi o‘qituvchisi

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA AKADEMIK LUG‘ATNING O‘RNI

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada ingliz tilini o‘qitishda akademik lug‘atning o‘rni, ahamiyati va uni o‘rgatishning zamonaviy usullari yoritilgan. Akademik lug‘at ilmiy va akademik matnlarda keng qo‘llaniladigan so‘z va iboralar tizimi sifatida tavsiflanadi hamda u o‘quvchilarning ilmiy fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va rasmiy uslubda fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi muhim vosita sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *akademik lug‘at, Academic Word List, ingliz tilini o‘qitish, akademik yozuv, kollokatsiya, sun’iy intellekt, ilmiy uslub.*

Аннотация: в данной научной статье рассматриваются роль, значение и современные методы преподавания академической лексики в процессе обучения английскому языку. Академическая лексика характеризуется как система слов и выражений, широко используемых в научных и академических текстах, а также рассматривается как важное средство развития у обучающихся навыков научного мышления, анализа, формулирования выводов и выражения мыслей в официально-научном стиле.

Ключевые слова: *академическая лексика, Список академической лексики, обучение английскому языку, академическое письмо, коллокация, искусственный интеллект, научный стиль.*

Annotation: this article discusses the role, importance, and modern methods of teaching academic vocabulary in English language education. Academic vocabulary is defined as a system of words and expressions widely used in scientific and academic texts and is considered an essential tool for developing students’ academic thinking, analytical skills, ability to draw conclusions, and formal style of expression.

Key words: *academic vocabulary, Academic Word List, English language teaching, academic writing, collocations, artificial intelligence, scientific style.*

Akademik lug‘at (academic vocabulary) – bu ilmiy va akademik matnlarda keng qo‘llaniladigan, fikrni aniq, mantiqiy va rasmiy uslubda ifodalashga xizmat qiladigan so‘z va iboralar tizimidir[1]. U umumiy so‘z boyligidan farqli ravishda, asosan ilmiy tadqiqotlar, o‘quv jarayoni, tahlil qilish, muhokama yuritish va xulosa chiqarish kabi akademik faoliyatlarda ishlatiladi[2]. Akademik lug‘at nafaqat alohida so‘zlarni, balki barqaror birikmalar, terminologik ifodalar va kollokatsiyalarni ham o‘z ichiga oladi[3].

Akademik lug‘at (academic vocabulary) ingliz tilini o‘qitish jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, u ilmiy va akademik matnlarda keng qo‘llaniladigan so‘zlar, iboralar hamda barqaror birikmalar majmuasini o‘z ichiga oladi[4]. Akademik lug‘at nafaqat talabalarning umumiy til kompetensiyasini rivojlantiradi, balki ularning ilmiy fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va o‘z fikrini rasmiy uslubda ifodalash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Shu sababli ingliz tilini o‘qitishda akademik lug‘atni o‘rgatish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi[5].

Tadqiqotchilar akademik lug‘atni barcha fan sohalarida uchraydigan va ilmiy muloqotda faol qo‘llaniladigan leksik birliklar tizimi sifatida izohlaydilar. Masalan, “Learning Vocabulary in Another Language”da akademik lug‘at “sub-technical vocabulary” yoki “scientific vocabulary” deb ataladi, va u akademik muvaffaqiyat uchun zarur bo‘lgan leksik qatlam sifatida tavsiflanadi[6]. “Academic Vocabulary in Learner Writing” da esa akademik lug‘at ilmiy matnlarni tashkil etish va akademik diskursni shakllantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi[7].

Ingliz tilini o‘qitishda akademik lug‘atning ahamiyati ayniqsa oliy ta’lim bosqichida yaqqol namoyon bo‘ladi. Talabalar ilmiy maqolalar o‘qish, referat yozish, taqdimot qilish va tadqiqot ishlari olib borish jarayonida ko‘plab akademik birliklarga duch keladilar. Akademik lug‘atni yaxshi egallagan o‘quvchilar matnlarni tezroq tushunadi, murakkab fikrlarni aniq ifodalay oladi va ilmiy yozuvda kamroq xatolarga yo‘l qo‘yadi. Shu bois akademik lug‘atni rivojlantirish o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi[8].

Akademik lug‘atning yana bir muhim jihati – uning formal uslubga xosligidir. Kundalik nutqda ishlatiladigan oddiy so‘zlardan farqli ravishda, akademik birliklar rasmiy, aniq va mantiqiy fikrni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *oddiy **“show”** fe’li o‘rniga akademik matnlarda **“demonstrate”** yoki*

1 Coxhead, A. (2000). A new academic word list. TESOL Quarterly, 34(2), 213–238. https://doi.org/10.2307/3587951
2 Nation, I. S. P. (2013). Learning vocabulary in another language (2nd ed.). Cambridge University Press.
3 Oxford University Press. (n.d.). Academic Word List. Oxford Learner’s Dictionaries. Retrieved May 11, 2026, from https://www.oxfordlearnersdictionaries.com
4 McCarthy, M., & O’Dell, F. (2016). Academic vocabulary in use (2nd ed.). Cambridge University Press.
5 Nation, I. S. P. (2013). Learning vocabulary in another language (2nd ed.). Cambridge University Press.
6 Nation, I. S. P. (2013). Learning vocabulary in another language (2nd ed.). Cambridge University Press.
7 Paquot, M. (2010). Academic vocabulary in learner writing: From extraction to analysis. Continuum International Publishing Group.
8 Swales, J. M., & Feak, C. B. (2012). Academic writing for graduate students (3rd ed.). University of Michigan Press.

"indicate", "get" *o'rniga esa* ***"obtain"*** *yoki* ***"acquire"*** kabi birliklar ishlatiladi[9]. Bunday so'zlar ilmiy uslubning rasmiyligini oshiradi va matnni akademik standartlarga moslashtiradi. Shu kabi akademik so'zlarni ishlatish, tildan foydalanuvchilarning naqadar shu til bo'yicha chuqur bilimga ega ekanligini ko'rsatib turadi.

Bundan tashqari, akademik lug'at kollokatsion xarakterga ega bo'lib, so'zlar ko'pincha ma'lum birikmalar shaklida qo'llaniladi. Masalan, *"conduct research", "draw conclusions", "provide evidence", "carry out analysis", "according to research findings"* kabi birikmalar ilmiy matnlarda juda faol uchraydi. Ushbu birliklardan to'g'ri foydalanish o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini tabiiy, professional va ilmiy uslubga mos holga keltiradi. Shu sababli ingliz tilini o'qitishda nafaqat alohida so'zlarni, balki akademik kollokatsiyalarni ham o'rgatish muhim hisoblanadi[10].

Academic Word List (AWL) ingliz tilini akademik maqsadlarda o'qitish sohasidagi eng ko'zga ko'rinarli leksik manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu manba Yangi Zelandiyalik tilshunos taqdqiqotchi Averil Coxhead tomonidan yaratilgan bo'lib, ilk bor 2000-yilda "A New Academic Word List" deb nomlangan ilmiy maqolada taqdim etilgan. Academic Word List turli fan sohalariga oid akademik matnlarni tahlil qilish asosida yaratilgan bo'lib, u ilmiy adabiyotlarda eng ko'p uchraydigan va umumakademik xususiyatga ega bo'lgan 570 ta so'z oilasini o'z ichiga oladi. Bunday so'zlar tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar, iqtisodiyot, huquq, ta'lim va boshqa ko'plab yo'nalishlarda keng qo'llanilib keladi. Academic Word List (AWL)ning asosiy maqsadi shuki, u ingliz tilini o'rganuvchilarga ilmiy mavzudagi matnlarni tushunish, akademik yozuv yaratish hamda rasmiy uslubda fikr bildirishda yordam berishdan iborat. Mazkur ro'yxatdagi ***"analyze", "concept", "establish", "indicate", "method", "significant", "theory"*** kabi birliklar ilmiy maqolalar, tadqiqot ishlari va akademik nutqda keng miqyosda qo'llaniladi. Shu sababli AWL ingliz tilini akademik maqsadlarda o'qitish (English for Academic Purposes — EAP) dasturlarida eng ko'p ishlatiladigan resurslardan biri hisoblanadi. Ko'pgina ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, AWL asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar til o'rganuvchilarning akademik matnlarni tushunish darajasini oshiradi, ilmiy tildagi yozuv sifatini yaxshilaydi va ularning akademik muloqot ko'nikmalarini yaxshi rivojlantiradi. Akademik lug'atni muntazam o'rganish natijasida o'rganuvchilar murakkab ilmiy matnlarni tezroq anglaydi, o'z fikrlarini aniqroq ifodalaydi hamda yozma ishlarda rasmiy va professional uslubdan osongina foydalana oladi.

Tilni o'qitish va o'rganish jarayonida ham o'qituvchilar, ham o'rganuvchilar lug'at boyligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Ko'plab hollarda til o'qitish jarayoni asosan oson o'zlashtiriladigan va tez-tez qo'llaniladigan faol lug'at birliklariga qaratiladi. Bu esa tilni yuzaki darajada tushunishga olib kelishi hamda undan murakkabroq vaziyatlarda foydalanishda qiyinchiliklar va noqulay holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, ilmiy maqola yozishda faqat oddiy va kundalik so'zlardan foydalanish uning akademik qiymati va ahamiyatini pasaytiradi. Aksincha, akademik lug'atdan o'rinli va samarali foydalanish ilmiy ish sifatini oshiradi hamda mukammal va professional yozma matn yaratishga yordam beradi.

Hozirgi texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda til o'rganish va o'qitish uchun barcha zarur va qulay sharoitlar mavjud. Buning eng yorqin misollaridan biri Sun'iy intellekt (SI) hisoblanadi. Sun'iy intellekt til o'rganish sohasida o'rganuvchilarga misli ko'rilmagan qulaylik va imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Akademik lug'atni o'rganishda ham SI dasturlaridan samarali foydalanish mumkin. Ular yordamida akademik so'zlar ro'yxatini oson topish, ularning qo'llanilishiga oid ko'plab misollar olish hamda shaxsiy akademik lug'at bazasini shakllantirish imkoniyati mavjud.

Xulosa qilib aytganda, akademik lug'at ingliz tilini o'qitishda muhim o'rin egallaydi. U til o'rganuvchilarning ilmiy fikrlashini rivojlantiradi, akademik yozuv va nutq ko'nikmalarini shakllantiradi hamda xalqaro ilmiy muloqotda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkonini beradi. Shuning uchun, ingliz tilini o'qitish jarayonida akademik lug'atni tizimli va uzluksiz ravishda o'rgatish zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

9 McCarthy, M., & O'Dell, F. (2016). Academic vocabulary in use (2nd ed.). Cambridge University Press.

10 Ackermann, K., & Chen, Y.-H. (2013). Developing the Academic Collocation List (ACL): A corpus-driven and expert-judged approach. Journal of English for Academic Purposes, 12(4), 235–247. https://doi.org/10.1016/j.jeap.2013.08.002

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ackermann, K., & Chen, Y.-H. (2013). Developing the Academic Collocation List (ACL): A corpus-driven and expert-judged approach. *Journal of English for Academic Purposes, 12*(4), 235–247. https://doi.org/10.1016/j.jeap.2013.08.002

2. Alidjanova, N. M. (2025). *Benefits of artificial intelligence (AI) in language teaching*. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 4*(11), 166–170. http://multidiciplinaryjournal.com/index.php/mm/article/view/803

3. Coxhead, A. (2000). A new academic word list. *TESOL Quarterly, 34*(2), 213–238. https://doi.org/10.2307/3587951

4. McCarthy, M., & O'Dell, F. (2016). *Academic vocabulary in use* (2nd ed.). Cambridge University Press.

5. Nation, I. S. P. (2013). *Learning vocabulary in another language* (2nd ed.). Cambridge University Press.

6. Oxford University Press. (n.d.). *Academic Word List*. Oxford Learner's Dictionaries. Retrieved May 11, 2026, from https://www.oxfordlearnersdictionaries.com

7. Paquot, M. (2010). *Academic vocabulary in learner writing: From extraction to analysis*. Continuum International Publishing Group.

8. Swales, J. M., & Feak, C. B. (2012). *Academic writing for graduate students* (3rd ed.). University of Michigan Press.

Saboxat MUHIDDINOVA,
Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi
sabomuhiddinova73@mail.ru

TALABALARDA SOFT SKILLS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarning soft skills kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik asoslari tahlil qilingan. Ingliz tili mashg'ulotlarida kommunikativ, hamkorlikka asoslangan va loyiha faoliyatiga yo'naltirilgan yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida talabalar tanqidiy fikrlash, muloqot, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish va liderlik kabi ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, ingliz tili, soft skills, kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, loyiha metodi, raqamli texnologiyalar.*

Аннотация:в статье рассматриваются методические основы развития soft skills компетенций студентов посредством обучения английскому языку в цифровой образовательной среде. Освещается роль коммуникативного подхода, проектного обучения и цифровых технологий в формировании навыков общения, критического мышления, командной работы и лидерства. Анализируются возможности современных цифровых платформ для повышения эффективности обучения иностранному языку и развития гибких навыков студентов.

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, английский язык, soft skills, коммуникативная компетенция, критическое мышление, командная работа, цифровые технологии.*

Annotation: this article analyzes the methodological foundations of developing students' soft skills through English language teaching in a digital learning environment. The study highlights the importance of communicative approaches, project-based learning, and digital technologies in fostering communication, critical thinking, teamwork, leadership, and problem-solving skills. The opportunities provided by modern digital platforms for enhancing language learning and soft skills development are also examined.

Key words: *digital learning environment, English language teaching, soft skills, communication skills, critical thinking, teamwork, project-based learning, digital technologies.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida nafaqat kasbiy bilimlarni egallash, balki talabalarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamlashtirish va xalqaro mehnat bozorining o'zgaruvchan talablari mutaxassislardan yuqori darajadagi kommunikativ, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarni talab etmoqda. Shu sababli soft skills kompetensiyalarini rivojlantirish oliy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida nafaqat lingvistik bilimlarni, balki muloqot madaniyati, jamoaviy hamkorlik va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni ham rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhitida tashkil etilgan ingliz tili mashg'ulotlari talabalarni mustaqil ta'lim olishga, axborotni tahlil qilishga va samarali muloqot qilishga o'rgatadi. Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida ingliz tilini o'qitish orqali talabalarda soft skills kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik asoslari va samarali pedagogik yondashuvlari tahlil qilinadi.

Metodologiya. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, ingliz tilini o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy raqamli platformalar va interaktiv texnologiyalarning soft skills rivojlanishiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim modeli va konstruktivistik ta'lim nazariyasi tashkil etdi. Talabalarning muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarining shakllanishi raqamli ta'lim vositalari yordamida tahlil qilindi.

Bugungi kunda ish beruvchilar tomonidan aynan ushbu kompetensiyalar yuqori baholanmoqda. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonida soft skills rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Raqamli ta'lim muhiti talabalar uchun interaktiv va moslashuvchan o'quv jarayonini yaratadi. Moodle, Goo-

gle Classroom, Microsoft Teams, Zoom va boshqa platformalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Raqamli vositalar quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: onlayn hamkorlikni tashkil etish; virtual muhokamalar va debatlar o'tkazish; loyiha asosida ta'limni amalga oshirish; xalqaro muloqot muhitini yaratish; mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

Bunday muhitda talabalar nafaqat til ko'nikmalarini, balki kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradilar.

Ingliz tilini o'qitishda soft skillsni rivojlantirish metodlari.

Kommunikativ yondashuv. Kommunikativ metod talabalarni real hayotiy vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanishga yo'naltiradi. Dialoglar, debatlar va guruh muhokamalari muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda o'z fikrini erkin ifodalashga o'rgatadi.

Loyiha asosida o'qitish. Project-Based Learning (PBL) texnologiyasi talabalarni jamoaviy faoliyatga jalb etadi. Loyiha ustida ishlash jarayonida talabalar vazifalarni taqsimlash, muammolarni hal qilish va natijalarni taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Hamkorlikda o'qitish. Collaborative Learning yondashuvi orqali talabalar kichik guruhlarda ishlaydi, fikr almashadi va umumiy maqsadga erishishga harakat qiladi. Bu esa jamoada ishlash va liderlik kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Raqamli taqdimotlar va multimedia. Canva, PowerPoint, Prezi va boshqa vositalardan foydalanish talabalarning ijodkorligi va taqdimot qilish mahoratini oshiradi. Shuningdek, ularning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini shakllantiradi.

Onlayn debat va munozaralar. Raqamli platformalarda tashkil etilgan debatlar tanqidiy fikrlash, argumentatsiya va muloqot madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim muhitida ingliz tilini o'qitish talabalar soft skills kompetensiyalarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, interaktiv platformalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalar o'rtasida samarali hamkorlikni kuchaytiradi, muloqot faolligini oshiradi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, loyiha va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar talabalarning liderlik, tashabbuskorlik hamda mas'uliyat hissini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Muhokama. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini o'qitish jarayoni soft skills kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qulay pedagogik maydon hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhiti ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi. Biroq ayrim hollarda texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi hamda o'qituvchilarning innovatsion metodlardan foydalanish tajribasining cheklanganligi muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shu sababli pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini oshirish, zamonaviy ta'lim platformalaridan samarali foydalanish bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish muhim hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim muhitida ingliz tilini o'qitish talabalarning lingvistik kompetensiyalari bilan bir qatorda soft skills kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Kommunikativ yondashuv, loyiha asosida o'qitish, hamkorlikdagi faoliyat va raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarda muloqot, tanqidiy fikrlash, liderlik va muammolarni hal qilish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantiradi. Shuningdek, raqamli vositalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi talabalarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda soft skills kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion metodikalarni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J. J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
2. Richards J. C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge University Press, 2006.
3. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London: Pearson Education, 2015.
4. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – Pearson Education, 2007.
5. Trilling B., Fadel C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. – San Francisco: Jossey-Bass, 2009.
6. Partnership for 21st Century Learning (P21). Framework for 21st Century Learning. – Washington DC, 2019.
7. Garrison D. R. E-Learning in the 21st Century. – New York: Routledge, 2017.
8. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. – Athabasca University Press, 2008.
9. Passov E. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – Москва, 1991.
10. Galskova N. D. Теория обучения иностранным языкам. – Москва: Академия, 2004.

Rustambek O‘RINOV,
Farg‘ona davlat universiteti Ingliz tili o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
E-mail: muxsin.shark@gmail.com

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirishda qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar, jumladan, podcast, vlog, infografika, sun’iy intellekt vositalari hamda virtual va kengaytirilgan voqelik texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari raqamli vositalar, tanqidiy fikrlash va kommunikativ ko‘nikmalarni uyg‘un rivojlantirishga asoslangan integrativ yondashuv mediakompetentlikni shakllantirishning eng samarali usuli ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *mediakompetentlik, innovatsion texnologiyalar, ingliz tili o‘qituvchisi, raqamli savodxonlik.*

Annotation: this article analyzes innovative technologies used to develop the media competence of future English language teachers, including podcasts, vlogs, infographics, artificial intelligence tools, and virtual and augmented reality technologies. The research findings indicate that an integrative approach combining digital tools, critical thinking, and communicative skills is the most effective way to foster media competence.

Key words: *media competence, innovative technologies, English language teacher, digital literacy, media education.*

Аннотация: в данной статье анализируются инновационные технологии, применяемые для развития медиакомпетентности будущих учителей английского языка, включая подкасты, влоги, инфографику, инструменты искусственного интеллекта, а также технологии виртуальной и дополненной реальности. Результаты исследования показывают, что интегративный подход, основанный на сочетании цифровых технологий, критического мышления и коммуникативных навыков, является наиболее эффективным способом формирования медиакомпетентности.

Ключевые слова: *медиакомпетентность, инновационные технологии, учитель английского языка, цифровая грамотность, медиаобразование.*

1. Kirish. Zamonaviy axborot jamiyatida mediakompetentlik – raqamli muhitda erkin yo‘nalish olish, media matnlarni tanqidiy tahlil qilish va professional maqsadlarda media kontentini yaratish qobiliyati – bo‘lajak pedagoglarga qo‘yiladigan talablar tizimida alohida o‘rin egallay boshladi. Ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati esa media bilan chambarchas bog‘liq, chunki zamonaviy til o‘qitish metodikasi autentik media materiallar, onlayn platformalar va raqamli resurslardan keng foydalanishni nazarda tutadi [1].

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida mediakompetentlik rivojlantirish masalasi yetarlicha o‘rganilmagan. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar media vositalarini iste’mol qilishda faol bo‘lsa-da, ularni pedagogik maqsadlarda professional darajada ishlatish va tanqidiy baholash qobiliyati ko‘pincha past darajada qolmoqda [2].

Ushbu maqolaning maqsadi – bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirishda qo‘llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni tizimli tahlil qilish va ularni amalga oshirishning samarali modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot quyidagi savollarga javob berishga yo‘naltirilgan:

1. Mediakompetentlikning tarkibiy modeli qanday ko‘rinishda bo‘lishi kerak?

2. Qaysi innovatsion texnologiyalar bu kompetentlikni rivojlantirishda eng samarali hisoblanadi?

3. Ushbu texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning qanday modeli tavsiya etilishi mumkin?

2. Adabiyotlar sharhi. Mediakompetentlik nazariyasi Buckingham ishlarida o‘zining tizimli asosini olgan: u mediakompetentlikni to‘rt komponent orqali tavsiflagan – representation (tasvirlash), language (til), production (ishlab chiqarish) va audience (auditoriya). Keyingi yillarda bu modelga tanqidiy fikrlash va raqamli fuqarolik tushunchalari qo‘shildi [3].

Jenkins va boshqalar «participatory culture» (ishtirokiy madaniyat) konsepsiyasini taklif etdi, unda media savodxonligi faqat iste’mol qilishni emas, balki kontentni yaratish va taqsimlashni ham o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv ingliz tili ta’limida media loyihalar orqali til va mediakompetentlikni birgalikda rivojlantirish imkonini beradi [4].

3. Metodologiya. Tadqiqot chog‘ida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil (media ta’lim va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha adabiyotlarni tizimlashtirish), kontent-tahlil (mavjud o‘quv dasturlarini mediakompetentlik talablari nuqtayi nazaridan baholash), ekspert so‘rovi (pedagogika oliy ta’lim muassasalarining 15 nafar professori va ingliz tili metodistlari bilan intervyu), hamda pilot eksperiment (uch semestr davomida 60 nafar talaba ishtirokida innovatsion texnologiyalar asosidagi modul sinovdan o‘tkazildi).

Talabalarning mediakompetentligi darajasi Ferrés va Piscitelli [3] tomonidan ishlab chiqilgan va keyinchalik moslashtirilgan «Media Competence Assessment Scale» (MCAS) vositasi yordamida baholandi. Eksperiment guruhida innovatsion texnologiyalar (podcast, VR, AI vositalar) qo‘llanilgan bo‘lsa, nazorat guruhida an’anaviy yondashuv saqlab qolindi.

4. Natijalar va muhokama. 4.1. Mediakompetentlikning tarkibiy modeli

Tadqiqot natijalari asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun mediakompetentlikning besh komponentli modeli taklif etildi:

(1) Tanqidiy media tahlili – media matnlarni mualliflik nuqtayi nazari, auditoriya, maqsad va ta’sir mexanizmlari jihatidan baholash qobiliyati.

(2) Raqamli kontentni yaratish – audio, video, matnli va vizual materiallar ishlab chiqish hamda tahrirlash ko‘nikmalari.

(3) Media axborotni tanlash va baholash – ishonchli manbalarni aniqlash, ma’lumotlarni tekshirish va dezinformatsiyani tanib olish.

4.2. Innovatsion texnologiyalar va ularning samaradorligi

Tadqiqot davomida quyidagi innovatsion texnologiyalar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirishda samarali ekanligi tasdiqlandi:

Podcast yaratish texnologiyasi. Talabalar Anchor va Audacity kabi vositalar yordamida ingliz tilida pedagogik podcast epizodlari tayyorladilar. Bu faoliyat bir vaqtning o‘zida og‘zaki nutq, media ishlab chiqarish va auditoriyani ko‘zda tutish kompetentliklarini rivojlantirdi. Pilot eksperimenta ko‘ra, podcast loyihalarida qatnashgan talabalarning og’zaki nutq fluency ko‘rsatkichi 23% ga oshdi.

4.3. Integrativ modelning natijalari

Uch semestrlik pilot eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalar integratsiya qilingan eksperiment guruhi talabalari MCAS bo‘yicha o‘rtacha 34.7% yuqori natija ko‘rsatdi ($p < 0.05$). Ayniqsa «media kontentni yaratish» ($F = 18.4$, $p = 0.001$) va «tanqidiy tahlil» ($F = 14.2$, $p = 0.003$) ko‘rsatkichlari bo‘yicha farq statistik jihatdan muhim bo‘ldi.

5. XULOSA. Ushbu tadqiqot bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning beqiyos ahamiyatini isbotladi. Podcast yaratish, AI vositalar, virtual voqelik va video-loyihalarni o‘z ichiga olgan integrativ model nafaqat mediakompetentlik ko‘rsatkichlarini oshiradi, balki til malakalarini ham parallel tarzda rivojlantiradi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalariga quyidagi amaliy tavsiyalar beriladi: (1) ingliz tili ta’limi dasturlariga mediakompetentlik modulini alohida fan sifatida kiritish; (2) o‘qituvchilarni raqamli pedagogik vositalar bo‘yicha muntazam malaka oshirish; (3) mediakompetentlikni baholashning standartlashtirilgan mezonlarini ishlab chiqish; (4) talabalar media loyihalarini joylashtirish uchun institutsional raqamli platforma yaratish.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun AI asosidagi moslashtirilgan o‘quv tizimlari va meta-versa muhitlarining mediakompetentlik rivojlantirishdagi imkoniyatlarini o‘rganish muhim yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buckingham, D. (2003). Media education: Literacy, learning and contemporary culture. Polity Press.
2. Buckingham, D. (2019). The media education manifesto. Polity Press.
3. Ferrés, J., & Piscitelli, A. (2012). Media competence: Articulating a proposal. Comunicar, 38(19), 75–82. https://doi.org/10.3916/C38-2012-02-08
4. Hobbs, R. (2020). Media literacy in action: Questioning the media. Rowman & Littlefield.
5. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning. Center for Curriculum Redesign.
6. Jenkins, H., Purushotma, R., Weigel, M., Clinton, K., & Robison, A. J. (2009). Confronting the challenges of participatory culture: Media education for the 21st century. MIT Press.
7. Lan, Y.-J. (2020). Immersion into foreign language learning through virtual reality innovation: Prospects and challenges. Journal of Educational Technology & Society, 23(1), 1–14.
8. Livingstone, S. (2018). Media literacy – everyone’s favourite solution to the problems of regulation. Media Policy Brief 12. London School of Economics and Political Science.
9. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence unleashed: An argument for AI in education. Pearson.

Xushnudabonu ZIYAYEVA,
Qo‘qon davlat universiteti, rus tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: khushnudabonu@gmail.com



BO‘LAJAK RUS TILI O‘QITUVCHILARIDA PROFESSIONAL NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada bo‘lajak rus tili o‘qituvchilarida professional nutq madaniyatini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kompetensiyaviy va diskursiv yondashuvlar asosida kommunikativ strategiyalar hamda pedagogik diskurs kompetensiyalarining o‘rni yoritilgan. Natijada mikroo‘qitish, tahririy amaliyot va refleksiv yondashuv professional nutq sifatini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi asoslandi.

Kalit so‘zlar: *professional nutq madaniyati, rus tili o‘qituvchisi, pedagogik diskurs, nutq me’yorlari, kommunikativ strategiya, refleksiya, rubrikali baholash.*

Аннотация: в статье рассматриваются педагогические механизмы формирования профессиональной речевой культуры у будущих учителей русского языка. На основе компетентностного и дискурсивного подходов раскрывается роль коммуникативных стратегий и педагогического дискурса. Результаты исследования показывают эффективность микрообучения, редакторской практики и рефлексивного подхода в развитии качества профессиональной речи.

Ключевые слова: *профессиональная культура речи; учитель русского языка; педагогический дискурс; речевые нормы; коммуникативная стратегия; рефлексия; рубрикаторное оценивание.*

Annotation: this article examines pedagogical mechanisms for developing professional speech culture among future Russian language teachers. The study highlights the role of communicative strategies and pedagogical discourse based on competency-based and discourse-oriented approaches. The results confirm the effectiveness of microteaching, editorial practice, and reflective approaches in improving professional speech quality.

Key words: *professional speech culture; pre-service Russian language teacher; pedagogical discourse; speech norms; communicative strategies; reflection; rubric-based assessment.*

Kirish. Professional nutq madaniyati bo‘lajak rus tili o‘qituvchisining muhim kasbiy sifati bo‘lib, u til me’yorlariga rioya qilish, pedagogik vaziyatga mos kommunikativ strategiyalarni tanlash va samarali muloqot olib borish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu sifatning shakllanishi normativ bilimlar, diskursiv ko‘nikmalar hamda refleksiv nazoratning uyg‘unlashuvi bilan bog‘liq.

Pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ayrim talabalarda og‘zaki nutqning mantiqiyligi, terminologik aniqlik va pedagogik etiket bilan bog‘liq muammolar uchraydi. Bu esa professional nutq madaniyatini rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Ayniqsa, mikroo‘qitish, tahririy mashqlar va refleksiv monitoring kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi [1], [2].

Mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak rus tili o‘qituvchilarida professional nutq madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot davomida normativ-tilshunoslik, pragmatik-diskursiv va refleksiv-metakommunikativ bloklarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi [3], [4].

Asosiy qism.

Tadqiqot materiali sifatida pedagogika yo‘nalishidagi rus tili ta’limi kurslarida qo‘llaniladigan dars ishlanmalari, talabalar og‘zaki chiqishlarining audio yozuvlari, yozma tahrir topshiriqlari va mikroo‘qitish protokollari tanlandi. Mazkur material «professional nutq madaniyati» tushunchasini faqat

nazariy emas, balki real pedagogik diskurs birligi sifatida ko‘rishga imkon beradi, chunki unda me’yoriy, pragmatik va refleksiv komponentlar izchil kuzatiladi.

Mexanizmni ochish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosiy ramka bo‘lib xizmat qildi, chunki unda natija o‘lchab bo‘ladigan ko‘nikmalar orqali ifodalanadi; diskursiv yondashuv esa nutqning janr va vaziyatga bog‘liqligini tahlil qilishga imkon berdi. Masalan, «tushuntirish», «ko‘rsatma berish», «baholash» kabi pedagogik nutq janrlari bo‘yicha alohida rubrikalar tuzilib, ularda leksik aniqlik, sintaktik ixchamlik va etik strategiyalar birgalikda baholandi. Ma’lumotlarning ishonchliligini oshirish uchun bir xil nutq namunasi ikki baholovchi tomonidan ko‘rilib, farqlar muvofiqlashtirildi [6].

Metodlar majmuasiga kontent-tahlil, diagnostik test, kuzatuv, eksperimental o‘qitish elementlari va korrelyatsion tahlilning soddalashtirilgan ko‘rinishi kiritildi. Kontent-tahlil professional nutq madaniyatining me’yoriy qatlamini aniqlashda ishlatildi, ya’ni fonetik-orfoepik xatolar, leksik kollokatsiya buzilishi, grammatik moslashuv xatolari va uslubiy nomuvofiqliklar kodlandi. Mexanizm sifatida bu kodlash «xato xaritasi»ni hosil qilib, keyingi treninglar uchun individual yo‘l xaritasini beradi. Raqamli natijadorlikni o‘lchash uchun pretest va posttestda bir xil tipdagi 20 ta vazifadan iborat diagnostika qo‘llanib, to‘g‘ri bajarish ulushi foizda hisoblandi va rubrika ballari bilan solishtirildi [2], [7].

Tadqiqot dizayni doirasida shakllantiruvchi modul uch bosqichda qurildi: me’yoriy stabilizatsiya, diskursiy ssenariylashtirish va refleksiv konsolidatsiya. Me’yoriy bosqichda talabalarga tahrir amaliyoti berildi, bunda matnlar «qoidani bilish»dan «qoidani qo‘llash»ga o‘tishni ta’minlaydi va mexanizm avtomatlashtirish orqali ishlaydi. Diskursiy bosqichda mikroo‘qitish, ya’ni 7–10 daqiqalik dars bo‘laklarini o‘tkazish va qayta tahlil qilish tashkil etildi. Refleksiv bosqichda audio-video materiallar asosida o‘z nutqiga metatil izoh berish, ya’ni «nega shunday dedim, qanday ta’sir qildi, qaysi variant samaraliroq» tarzidagi tahlil yozildi [3].

Tadqiqot natijasida professional nutq madaniyatini shakllantirish mexanizmlari uch blokli model ko‘rinishida aniqlashtirildi va har bir blok uchun o‘lchab bo‘ladigan indikatorlar tizimi ishlab chiqildi. Normativ-tilshunoslik blokida indikatorlar sifatida orfoepik to‘g‘rilik, terminologik aniqlik, sintaktik me’yoriylik va uslubiy moslik belgilandi. Pragmatik-diskursiv blokda indikatorlar pedagogik janrga moslik, muloqot strategiyalarining xilma-xilligi, auditoriya bilan interaktiv bog‘lanish va izchil argumentatsiya orqali ifodalandi. Refleksiv-metakommunikativ blokda indikatorlar o‘z nutqini tahlil qilish chuqurligi, xatoni sabab bilan bog‘lash, alternativ variant taklif qilish va nutqiy rivojlanish rejasini tuzishdan iborat bo‘ldi.

Raqamli ko‘rsatkich sifatida rubrika bo‘yicha umumiy ballning o‘sishi normativ indikatorlarda o‘rtacha 12–18 foiz, pragmatik indikatorlarda 15–22 foiz, refleksiv indikatorlarda 20–28 foiz diapazonida kuzatildi. Bu bloklararo farq refleksiya treningining yuqori «qo‘shilgan qiymat» berishini anglatadi. Refleksiv ko‘nikma tezroq o‘sishi uning metakognitiv tabiati bilan bog‘liq bo‘lib, talaba o‘z xatosini ko‘ra boshlagach, boshqa bloklarda ham o‘zgarishlar tezlashadi.

Modelning amaliy natijalarini tizimlashtirish uchun quyidagi jadval ishlab chiqildi. Unda mexanizmlar, metodik vositalar hamda o‘lchov indikatorlari o‘rtasidagi moslik ko‘rsatilgan:

Mexanizmlar	Metodik vositalar	Indikatorlar	O‘lchov mezoni
Normativ-tilshunoslik bloki	Tahririy amaliyot, orfoepik trening	Orfoepik to‘g‘rilik, grammatik me’yoriylik, terminologik aniqlik	0–3 ball, maksimal 9 ball
Pragmatik-diskursiv bloki	Mikroo‘qitish, rol o‘yinlari	Janrga moslik, interaktiv aloqa, izchil argumentatsiya	0–3 ball, maksimal 9 ball
Refleksiv-metakommunikativ bloki	Audio-video tahlil, rubrikali o‘zini baholash	Xatoni sabab bilan bog‘lash, alternativ variantlar, rivojlanish rejasi	0–3 ball, maksimal 9 ball

Tadqiqot natijalari professional nutq madaniyatini shakllantirish faqat til me’yorlarini o‘rgatish bilan cheklanmasligini ko‘rsatdi. Ushbu jarayon normativ bilimlar, diskursiv moslashuv va refleksiv nazoratning o‘zaro uyg‘unligi asosida rivojlanadi. Ayniqsa, refleksiv yondashuv talabalarning o‘z nutqini tahlil

qilish va kommunikativ xatolarni bartaraf etishida muhim ahamiyat kasb etdi [1], [6].

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda samaraliroq hisoblanadi. Mikroo‘qitish, rol o‘yinlari va diskursiv mashqlar orqali talabalar pedagogik muloqotning turli janrlariga mos nutq strategiyalarini shakllantirdi. Baholash va rag‘batlantirish bilan bog‘liq pedagogik nutq vaziyatlarida pragmatik kompetensiyaning rivojlanishi ayniqsa yaqqol kuzatildi [3], [5].

Tadqiqot davomida refleksiv-metakommunikativ blokning samaradorligi yuqori ekanligi aniqlandi. Audio-video tahlil va rubrikali baholash asosida talabalar o‘z nutqidagi kamchiliklarni aniqlash hamda ularni tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shu bilan birga, turli talabalarning kommunikativ tajribasi bir xil emasligi va baholashdagi subyektivlik natijalarga ta’sir qilishi mumkin. Kelgusida uzoq muddatli monitoring va raqamli baholash tizimlari asosida tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq [7].

Xulosa. Bo‘lajak rus tili o‘qituvchilarida professional nutq madaniyatini shakllantirish mexanizmlari uch qatlamli tizim sifatida asoslandi: normativ-tilshunoslik, pragmatik-diskursiv va refleksiv-metakommunikativ bloklar birgalikda ishlaganda natija barqaror bo‘ladi. Normativ blok til me’yorlarini avtomatlashtirish orqali nutqning to‘g‘riligi va aniqligini ta’minlaydi, pragmatik-diskursiv blok esa pedagogik vaziyat va janr talablariga mos kommunikativ strategiyalarni tanlashni rivojlantiradi.

Refleksiv-metakommunikativ blok audio-video tahlil va rubrikali o‘zini baholash orqali xatoni anglash, sababini tushuntirish va takomillashtirish rejasini tuzishni kuchaytiradi, shu bilan boshqa bloklardagi o‘sishni ham tezlashtiradi. Kompleks model mikroo‘qitish, tahririy amaliyot va ssenariyli mashg‘ulotlarni integratsiya qilgani sababli nutq sifati indikatorlarida sezilarli ijobiy dinamika kuzatiladi.

Natijalar rus tili o‘qituvchisini tayyorlashda me’yoriy tayyorgarlikni pedagogik diskurs janrlari va refleksiv monitoring bilan uzviy bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi. Kelgusida modelning uzoq muddatli ta’siri, turli o‘quv kontekstlarida transferi hamda baholashning yanada obyektiv ko‘rsatkichlari asosida takomillashtirish istiqbollari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khushnudabonu, Z. (2022). Methods and techniques for enhancing the intercultural communication activities of students in the study of a foreign language. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(09), 29-31.

2. Ziyaeva, K. (2023). Communicative methods of teaching the Russian language. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 11, pp. 8-11).

3. Ziyaeva, K. (2024). Fundamentals of linguistics in the methodology of teaching Russian as a foreign language. Science and innovation, 3(B5), 200-204.

4. Ziyayeva, X. (2022). TRIZ in reading a literary text (In the example of the work «Kys» by T· Tolstaya).

5. Ziyayeva, X. (2023). Opisanie protsessa provedeniya zanyatiy s primeneniem interaktivnix texnologiy v obuchenii russkomu yaziku.

6. Ziyayeva, X. (2023). Studying the vocabulary and phraseology of the Russian language at the national school.

7. Ziyayeva, X. I. Q. (2024). O‘zbekistonda bo‘lajak rus tili o‘qituvchilarini o‘qitish sharoitida nutq ko‘nikmalarini shakllantirish xususiyatlari. Academic research in educational sciences, (1), 168-172.

8. Зияева, Х. (2022). Методы и приемы активизации межкультурной коммуникативной деятельности учащихся при изучении иностранного языка. In Современная наука, общество, образование: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 262-264).

9. Зияева, Х. И. К. (2023). Речевая ситуация и учебная речевая ситуация. Academic research in educational sciences, 4(KSPI Conference 1), 261-264.

Shaxzodahon RAXMONOVA,
QDU stajyor o‘qituvchisi

O‘YIN TEXNOLOGIYALARI — RUS TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA DIAGNOSTIKA VA BAHOLASH VOSITASI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘yin metodlarini tanlash asoslari, o‘yin turlarining tasnifi hamda o‘yin faoliyatining motivatsiya va ta’lim natijalariga ta’sir etuvchi psixologik-pedagogik jihatlari tahliliga asosiy e’tibor qaratilgan. Ishda ta’lim jarayonida o‘yin shakllaridan muvaffaqiyatli foydalanish misollari keltirilgan hamda bunday yondashuvlarning samaradorligini baholash usullari taklif etilgan. Tadqiqotning maqsadi — o‘zbek maktabining 5-sinfida rus tili darslarida o‘yin texnologiyalarini diagnostika vositasi va baholash tizimi sifatida amaliy qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat. Tadqiqot natijalari didaktik o‘yinlarning o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishi, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishi hamda bilimlarni samarali nazorat qilish imkonini berishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *rus tili xorijiy til sifatida, o‘yin texnologiyalari, didaktik o‘yin, chet tilli o‘quvchilar, bilimlarni nazorat qilish, baholash, kommunikativ ko‘nikma*.

Аннотация: в данной статье рассматриваются основы выбора игровых методов, классификация игровых технологий, а также психолого-педагогические аспекты влияния игровой деятельности на мотивацию и результаты обучения. В работе приведены примеры успешного применения игровых форм в образовательном процессе и предложены методы оценки эффективности подобных подходов. Цель исследования заключается в изучении возможностей практического применения игровых технологий как средства диагностики и системы оценивания на уроках русского языка в 5 классе узбекской школы. Результаты исследования показали, что дидактические игры способствуют повышению мотивации учащихся, развитию коммуникативных навыков и эффективному контролю знаний.

Ключевые слова: *русский язык как иностранный, игровые технологии, дидактическая игра, иноязычные учащиеся, контроль знаний, оценивание, коммуникативные навыки.*

Annotation: this article examines the principles of selecting game-based teaching methods, the classification of educational games, and the psychological and pedagogical aspects of the influence of gaming activities on students’ motivation and learning outcomes. The paper provides examples of the successful use of game technologies in the educational process and suggests methods for evaluating their effectiveness. The purpose of the study is to explore the practical application of game technologies as a diagnostic and assessment tool in Russian language lessons for the 5th grade of Uzbek schools. The results of the study demonstrate that didactic games increase students’ motivation, develop communicative competence, and improve the effectiveness of knowledge assessment.

Keywords: *russian as a foreign language, game technologies, didactic game, foreign language learners, knowledge assessment, evaluation, communicative skills.*

Chet tillarini o‘rganish muammosi ta’lim amaliyotida doimo dolzarb bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy maktab sharoitida o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshiruvchi, mustaqillik va kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi samarali diagnostika va bilim nazorati usullarini izlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday usullardan biri — o‘quvchilarning bilishga qiziqishini va bilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan didaktik o‘yindir [2, 154-bet]. Didaktik o‘yin o‘quv-tarbiyaviy vazifalar o‘yin vaziyatida hal qilinadigan o‘qitish usuli sifatida ta’riflanadi [1, 47-bet].

Chet tillarni o‘qitish sohasida o‘yin texnologiyalarining didaktik xususiyatlarini o‘rganishga E.I. Passov, P.I. Pidkasistiy, L.S. Kryuchkova, L.N. Fedotova va boshqa olimlar katta hissa qo‘shganlar. Chet tilli o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan o‘quv o‘yinlari tasnifining tahlili ilmiy adabiyotlarda ularning tipologiyasi bo‘yicha yagona qarash mavjud emasligini ko‘rsatadi. Ayrim ishlarda o‘yin turlari rus tilining o‘rganilayotgan bo‘limlariga qarab, boshqalarida esa shakllantirilayotgan kompetensiyalarga qarab ajratiladi. Tadqiqotimiz doirasida “Rus tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish” nomli maqolada taqdim etilgan tasnif eng maqsadga muvofiq deb topildi. Unda didaktik o‘yinlarning quyidagi turlari ajratilgan:

shakliga ko‘ra (mashq, musobaqa, sayohat);
ishtirokchilar soniga ko‘ra (juftlik, guruhli, jamoaviy);
syujet mavjudligiga ko‘ra (rolli, rolli bo‘lmagan);
til darajalari nuqtai nazaridan (fonetik, leksik, grammatik);
kommunikativ;
didaktik materiallardan foydalanishiga ko‘ra (predmetlar, lingvomadaniy materiallar, audio va videomateriallar, stol o‘yinlari) [3, 3-bet].

O‘yin texnologiyalari bolalarni ta’lim jarayoniga faol jalb etib, uni zerikarli mashg‘ulotdan qiziqarli o‘yinga aylantiradi. Bu ayniqsa, rus tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda muhimdir, chunki bunda nafaqat grammatik strukturalar va leksikani o‘zlashtirish, balki kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish va rus tilida erkin hamda to‘g‘ri fikr bildirish qobiliyatini shakllantirish zarur. RKI (rus tili xorijiy til sifatida) mashg‘ulotlarida bilimlarni

baholash uchun didaktik o‘yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘plab o‘quvchilar bilim tekshiruvi vaqtida stressni boshdan kechiradilar, shu sababli ushbu jarayonni qiziqarliroq qilish taklif etiladi. Bu nafaqat bilim darajasini aniqlash, balki fanga qiziqishni oshirish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga ham yordam beradi.

Bilimlarni nazorat qilish bosqichida didaktik o‘yinlardan foydalanish rus tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, bolalarning psixologik va til resurslarini faollashtiradi, o‘rganilgan materialni tizimlashtirishga yordam beradi, mashg‘ulotlarga qiziqishni oshiradi hamda o‘qishga ijobiy motivatsiyani mustahkamlaydi. Muhimi shundaki, o‘yin diagnostikasi nafaqat an’anaviy darslarda, balki sinfdan tashqari tadbirlarda ham amalga oshirilishi mumkin. Bu esa uni pedagogik amaliyot uchun universal vositaga aylantiradi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va jozibador qilish bilan birga, o‘quv materialining o‘zlashtirilishini hamda har bir o‘quvchining individual yutuqlarini aniqroq baholash imkonini beradi.

Shu munosabat bilan tadqiqotimiz doirasida rus tilini ona tili bo‘lmagan til sifatida o‘qitish sharoitlariga moslashtirilgan o‘yin topshiriqlari ishlab chiqildi. Quyida keltirilgan didaktik o‘yin materiali o‘zbek maktabining 5-sinfida “Rus turmushi. An’analar” mavzusi bo‘yicha bilimlarni nazorat qilish va baholash jarayonida ishlab chiqilib, amaliyotda sinovdan o‘tkazilgan.

Bilimlarni tekshirish uchun o‘quvchilarga “Rus izbasining jihozlari” nomli pazl-o‘yin taklif etiladi. O‘quvchilar jamoalarga bo‘linadi va ikki turdagi pazllarni oladilar: birinchisida maishiy buyumlar (sochiq — rushnik, samovar, ko‘za — krinka, ushlagich — uhvat va boshqalar) tasvirlangan bo‘lsa, ikkinchisida ularning vazifalari tavsifi beriladi (suv qaynatish uchun metall idish; sut saqlash uchun sopol idish; pechga og‘ir qozon va tuvaklarni qo‘yish hamda olish uchun ishlatiladigan temir asbob va boshqalar). O‘quvchilarning vazifasi — barcha elementlarni ularning maishiy vazifalariga mos ravishda to‘g‘ri yig‘ishdan iborat.

Ta’kidlash joizki, barcha guruhlar ushbu topshiriqni bajardilar, farq faqat bajarish tezligida bo‘ldi. Shu sababli ballar ham bajarish vaqti asosida taqsimlandi. Ushbu didaktik o‘yin topshiriqlarni bajarishda tashabbuskorlikni, javoblarning vazifa shartlariga mosligini, olingan bilimlarni moslashuvchan qo‘llashni hamda materialning o‘zlashtirilish darajasini baholash imkonini beradi.

Keyingi bosqichda “Rus izbasini yig‘” o‘yini o‘tkazildi. Har bir o‘quvchiga bo‘sh rus izbasining rasmi va izba jihozlari tasvirlangan rasmlar to‘plami beriladi: pech, skameykalar, sandiqlar, polati, ikonalar, savatcha, pech kovlagichi, uhvat va boshqalar. O‘yinning vazifasi — barcha elementlarni to‘g‘ri joylashtirib, rus izbasi ichki ko‘rinishini tiklash edi. Topshiriq individual xarakterga ega bo‘lgani sababli ayrim o‘quvchilarda qiyinchiliklar yuzaga keldi. Ushbu topshiriqni o‘quvchilarning 95 foizi muvaffaqiyatli bajardi. Eng katta qiyinchilik “qizil burchak”ni ikonalar bilan bezashda kuzatildi, chunki u doimo pechning diagonal qarshisida, janubi-sharq tomonda joylashadi.

Shuningdek, har bir o‘quvchi izbaning har bir elementi ma’nosini hamda ularning joylashuv usullarini lokativ xarakterdagi nutq konstruksiyalaridan foydalanib tushuntirsa, qo‘shimcha ball olishi mumkin edi: “…ning o‘ng tomonida”, “…ustida joylashgan”, “…yonida joylashgan” va hokazo. Shunday qilib, ushbu topshiriq so‘z va iboralarning fonetik jihatdan to‘g‘ri talaffuzini, grammatik konstruksiyalarni to‘g‘ri qo‘llashni hamda kommunikativ ko‘nikmalarni baholash imkonini beradi.

Keyingi “Kelishiklar ustasi” o‘yinida o‘quvchilarga maishiy buyumlar haqida tugallanmagan gaplar yozilgan kartochkalar taklif etildi. Ular mos so‘zni to‘g‘ri kelishik shaklida qo‘llashlari kerak edi: “yog‘och stol ustida sutli … turibdi”; “cho‘yan qozonni pechdan … yordamida olish kerak, aks holda kuyib qolish mumkin”; “kechqurun uy egalari asal bilan katta mis … dan choy ichadilar” va hokazo. Bundan tashqari, o‘qituvchi doskada yordam uchun quyidagi so‘zlarni yozadi: samovar, uhvat va boshqalar. Ushbu topshiriqni bajarish sifati 84 foizni tashkil etdi. Eng ko‘p xatolar birinchi gapda kuzatildi: ayrim o‘quvchilar “krinka” so‘zini tushum kelishigi shakli sifatida qabul qilib, uning gapdagi ega vazifasiga e’tibor bermadilar. Ushbu topshiriqda rus tilining grammatik va orfografik me’yorlariga rioya etilishi baholandi.

Shunday qilib, o‘zbek maktablarining 5-sinfida rus tili darslarida ta’lim natijalarini diagnostika qilish va tahlil etish uchun o‘yin metodikalarini tanlash muhim metodologik asosga ega. O‘yinlardan foydalanish o‘quv materialini chuqurroq o‘zlashtirishga, kommunikativ va jamoaviy ko‘nikmalarni rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. O‘yin texnikalari sinfda ishonch va o‘zaro tushunish muhitini yaratib, har bir o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarini aniqroq baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, o‘yin shakllari qulay emotsional fon yaratadi, nazorat tadbirlari oldidagi xavotirni kamaytiradi hamda bolalarda ijobiy o‘z-o‘zini baholashni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘yin diagnostikasi an’anaviy darslarda ham, qo‘shimcha tadbirlarda ham qo‘llanishi mumkinligini alohida ta’kidlash lozim. Bu esa ushbu metodni pedagogik amaliyotdagi universal vositaga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Novikov M.A. Rus tili darslarida didaktik o‘yinlar. – Sankt-Peterburg: Piter, 2005. 95-b.

2. Rylshikova T.V. Boshlang‘ich sinflarda rus tili darslarida didaktik o‘yinlar yordamida o‘quvchilarning bilish va tafakkur faoliyatini faollashtirish // “Bola til va ta’lim makonida” mavzusidagi idoralararo veb-konferensiya materiallari to‘plami. – Yelets: I.A. Bunin nomidagi YeDU, 2015. 153–155-betlar.

3. Shestakova E.V., Isayeva L.R., Ulyanova E.P. RKI o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish // Zamonaviy pedagogik ta’lim. 2021. №5

Sholpan PIRNIYAZOVA,
Ajiniyoz nomidagi NDPI Boshlang'ich ta'lim kaferdasi o'qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BILISHGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning nazariy-metodik va lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish masalalari tadqiq etiladi. Muallif kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning faolligini oshirishda til birliklarining o'rni va ularni o'qitishning zamonaviy konseptual yondashuvlarini tahlil qiladi.

Tayanch so'zlar: *lingvodidaktika, boshlang'ich ta'lim, bilish qiziqishi, kognitiv faollik, metodik tizim, antropotsentrik yondashuv, nazariy modellashtirish.*

Аннотация: в данной статье исследуются вопросы совершенствования теоретико-методических и лингводидактических основ формирования познавательных интересов учащихся в обучении родному языку в начальных классах. Автор анализирует роль языковых единиц в повышении активности учащихся младшего школьного возраста и современные концептуальные подходы к их обучению.

Ключевые слова: *лингводидактика, начальное образование, познавательный интерес, когнитивная активность, методическая система, антропоцентрический подход, теоретическое моделирование.*

Annotation: this article explores the issues of improving the theoretical-methodological and linguodidactic foundations of forming students' cognitive interests in teaching the mother tongue in primary grades. The author analyzes the role of linguistic units in increasing the activity of primary school students and modern conceptual approaches to their education.

Key words: *linguodidactics, primary education, cognitive interest, cognitive activity, methodological system, anthropocentric approach, theoretical modeling.*

O'zbek xalqi juda qadim zamonlardayoq ilm-fanga katta e'tibor bilan qaragan va uni rivojlantirishga harakat qilgan. Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Ulug'bek va boshqa ko'plab allomalar ilm-fanni dunyoga tanitganlar. Ilm-ma'rifatga beqiyos hurmat bilan qaragan xalqimiz qanday qiyinchilik va to'siqlar bo'lmasin o'z farzandlarining savodli bo'lishini orzu qilganlar [1]. Farzandlarini yoshligidanoq maktabga o'qishga berganlar. Maktabdor domlalar o'z usullari va tajribalariga asoslanib bolalarga saboq berganlar. Demak, O'zbekistonda o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan va ular rivojlanib borgan. Bu jarayon silliq kechgani yo'q. Ba'zi xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o'rgatishga asos bo'ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning haqiqiy tomoni, uning g'oyaviy yo'nalishi va badiiy ifodaliligi o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi [2]. Keyingi yillarda maktab ona tili darsliklari va o'qituvchilar uchun nashr qilingan qo'llanmalar materiali mazmuniga qo'yilgan talablar anchagina ortdi. Materialning asosiy mezoni matn va alohida gaplarning bilimni boyituvchi qimmati, leksik-uslubiy aniqligi, mavzu jihatdan xilma-xilligi, hayotning turli tomonlari bilan bog'lanishi, matnlarning g'oyaviy-mavzuviy yo'naltirilganligi, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligi hisoblanadi [4].

Ta'lim – bu keng tushunchaga ega bo'lib, bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishni anglatadi. Hozirgi zamonda ta'lim o'z mazmuni bilan o'quvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga, ularga milliy qadriyatlarimizga asoslangan ta'lim berishni ham talab etmoqda [1]. Dunyo madaniyati va ta'lim-tarbiya berishning ilg'or tajribalaridan samarali foydalangan holda tarbiyalangan, bola shaxsini rivojlantirgan, uni mustaqil muloqot qilishga yo'naltirgan, ilmiy bilimga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish zarur.

Ona tilini o'rganish natijasida o'quvchilar o'z fikrlarini grammatik jihatdan to'g'ri, metodik jihatdan ravshan, mazmunli ifoda eta oladigan va imloviy jihatdan to'g'ri yoza oladigan bo'lishiga erishadi [5]. Ushbu o'qitish fanning predmeti sifatida ona tilining o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida kamol toptirishga yo'naltirilgan umumiy o'rta ta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllanishida ularning maktab ta'limiga tayyorgarligi ham

muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Ta’lim jarayoni samaradorligini yuqori darajaga ko‘tarish, komil inson shaxsi rivojlanishini ta’minlash vazifasini amalga oshirish bolaning maktab ta’limiga tayyorgarligini qanchalik to‘g‘ri e’tiborga olishga bog‘liq [2].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili darslarida bilishga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish lingvodidaktikaning fundamental muammolaridan biri bo‘lib, u ta’lim oluvchining nutqiy-mantiqiy tafakkurini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir [5]. Zamonaviy ta’lim paradigmasida ona tili fanini o‘qitish faqatgina grammatik qoidalarni o‘zlashtirish emas, balki tilni ijtimoiy muloqot va intellektual faoliyat quroli sifatida anglashni taqozo etadi. Lingvodidaktik asoslarni takomillashtirish jarayoni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va psixofiziologik imkoniyatlarini inobatga olgan holda, o‘quv materialining mazmunini didaktik transformatsiya qilishni talab etadi [3]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarda bilish faolligi asosan hissiy idrok etish va o‘yin elementlari orqali namoyon bo‘ladi, biroq tizimli bilim berishda ushbu qiziqishni ilmiy-nazariy asoslangan metodik usullar bilan boyitish lozim.

Ona tili darslarida lingvodidaktik yondashuvni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri — bu ta’lim mazmunini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etishdir. O‘quvchi til birliklarini, xususan, morfologik va sintaktik hodisalarni tayyor qoliplar ko‘rinishida emas, balki tahliliy va qiyosiy amallar natijasida o‘zi uchun “kashf etishi” lozim [6]. Bunda lingvistik tahlil metodlarining soddalashtirilgan shakllari, so‘zning ichki qurilishini tadqiq etishga qaratilgan ijodiy topshiriqlar va tilning estetik vazifasini yorituvchi matnlar ustida ishlash o‘quvchining ichki motivatsiyasini barqarorlashtiradi. Bilishga qiziqishni shakllantirishda, shuningdek, fanlararo bog‘lanish, ya’ni ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining integratsiyasi muhim o‘rin tutadi [2]. Bu jarayonda matnning lisoniy tahlili orqali o‘quvchining so‘z boyligini oshirish va unda tilning boy imkoniyatlariga nisbatan hayrat hissini uyg‘otish metodik jihatdan samarali natija beradi. Shuningdek, lingvodidaktik modelni takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vizualizatsiya vositalaridan maqsadli foydalanish, dars jarayonini interfaol muloqot maydoniga aylantirish lozim. O‘quvchining bilish faolligi uning darsdagi subyektiv mavqeyi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, metodik usullar o‘quvchini passiv tinglovchidan faol izlanuvchiga aylantirishga xizmat qilishi zarur [6].

Tizimli yondashuv shuni tasdiqlaydiki, ona tili darslarida lingvistik hodisalarni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lab tushuntirish, o‘quvchining nutqiy kompetensiyasini shakllantirish bilan bir qatorda, uning dunyoqarashini kengaytirishga va ona tiliga bo‘lgan milliy g‘urur tuyg‘usining rivojlanishiga zamin yaratadi [1]. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning bilishga qiziqishini shakllantirishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish jarayoni tilni o‘qitishning an’anaviy shakllaridan kognitiv-motivatsion modelga o‘tishni taqozo etadi. Bu tizimning fundamental asosi o‘quvchini shunchaki tayyor axborotni qabul qiluvchi emas, balki til hodisalarini mustaqil tahlil qiluvchi va muloqot ehtiyojini sezuvchi faol subyektga aylantirishdir [5]. Zamonaviy lingvodidaktika, shuningdek, o‘quvchilarda til estetikasi va nutqiy madaniyatni shakllantirishni ustuvor vazifa qilib qo‘yadi. Boshlang‘ich sinflarda so‘zning ohangi, ma’no jozibasi va uning tasviriy imkoniyatlarini ko‘rsatib berish orqali bolada tilga nisbatan hissiy bog‘liqlik yaratiladi [4]. Bu jarayonning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish darsliklardagi mashqlar tizimini “ijodiy laboratoriya” ko‘rinishiga keltirishni, o‘quvchining lug‘at boyligini faollashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va psixolingvistik usullardan unumli foydalanishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning bilishga qiziqishini shakllantirishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish — bu ta’limni shunchaki ma’lumot uzatishdan intellektual rivojlantirish bosqichiga olib chiqish demakdir. Mazkur jarayonning muvaffaqiyati til hodisalarini o‘quvchining kognitiv rivojlanishi va kundalik muloqot ehtiyojlari bilan qanchalik uyg‘unlashtirilganiga bog‘liq [2]. Bunda ona tili fanini o‘qitish faqat grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, bolaning dunyoqarashini kengaytiruvchi, mantiqiy fikrlashini o‘stiruvchi va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaruvchi yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 488-b.
2. Jumayev M. E., Yuldasheva M. Y., Mingbayeva B. U., Mamatova G. A., Levkina M. F. Boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM, 2017.
3. Pirniyazova A. Q., Pirniyazov Q., Bekniyazov Q. Baslawısh klaslarda ana tilin oqıtıw metodikası. – Toshkent, 2017. – 280 b.
4. Qosimova Q. 2-sinflarda ona tili darslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1998.
5. Raxmatullaeva L. I. Metodika prepodavaniya rodnogo yazıka. – Toshkent: Moliya-Iqtisod, 2007.
6. Utemuratov B. Baslawısh klaslarda ana tilin oqıtıw metodları. – Nukus: Qoraqalpog‘iston, 2017. – 54 b.

Gulsora XUSAYNOVA,
Namangan davlat universiteti doktoranti (PhD talabasi)
E-mail: gulsora9409@gmail.com



IRVIN SHOU VA ABDULLA QAHHORNING URUSH DAVRI HIKOYALARIDA URUSHGA QARSHI KAYFIYAT

Annotatsiya: maqola Irvin Shouning “Act of Faith” (1946) va Abdulla Qahhorning urush davri hikoyalarini qiyosiy tahlil qiladi. Ikkala muallif ham oddiy insonga — qahramonga emas — axloqiy guvoh sifatida murojaat qiladi. Tahlil turli siyosiy muhitlarda — Amerika liberalizmi va Sovet o‘zbek adabiy tizimida — yaratilgan asarlarda umumbashariy gumanizmning universal xususiyatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *qiyosiy adabiyot, urush adabiyoti, Irvin Shou, Abdulla Qahhor, tinch aholi ongi, umumbashariy gumanizm.*

Аннотация: статья посвящена сравнительному анализу рассказа Ирвина Шоу "Акт веры" (1946) и военной прозы Абдуллы Каххара. Оба автора изображают рядового человека как нравственного свидетеля войны. Сопоставление выявляет универсальные темы гражданского сознания и антивоенных настроений в произведениях, созданных в принципиально разных политических условиях, обнаруживая транснациональный гуманистический пафос обоих писателей.

Ключевые слова: *сравнительная литература, литература о войне, Ирвин Шоу, Абдулла Каххар, гражданское сознание, транснациональный гуманизм.*

Annotation: this article comparatively analyses Irwin Shaw’s “Act of Faith” (1946) and Abdulla Qahhor’s war-period prose. Both authors position the ordinary person — not the hero — as moral witness to war. The comparison reveals universal themes of civilian consciousness and anti-war sentiment across radically different political environments, demonstrating a shared transnational humanist ethics.

Key words: *comparative literature, war literature, Irwin Shaw, Abdulla Qahhor, civilian consciousness, transnational humanism.*

Ikkinchi Jahon urushi (1939–1945) dunyo adabiyotida misli ko‘rilmagan hissiy va axloqiy izlarni qoldirdi. G‘arb va Sharq yozuvchilari urushning insoniyatga yetkazgan azob-uqubatlarini ifodalashning yangi usullarini izladilar. Bu jarayonda alohida o‘rin tutgan ikkita nom — Amerikalik Irvin Shou (1913–1984) va o‘zbek klassigi Abdulla Qahhor (1907–1968) — bir-biridan geografik, siyosiy va madaniy jihatdan uzoq bo‘lgan muhitlarda ijod qilgan bo‘lsalar-da, ularning urush tasvirida hayratlanarli yaqinlik mavjud.

Irvin Shouning 1946-yilda nashr etilgan “Act of Faith” hikoyasi urushdan qaytayotgan uch Amerikalik askarning kichik bir sahnasini markazga oladi. Hikoya oddiy askarning axloqiy majburiyat daqiqasini — do‘stlari bilan birga kurashgan inson sifatida o‘zligini namoyon etish qarorini — harorat bilan ifodalaydi [7: 45–48]. Abdulla Qahhor esa urush yillarida yozgan hikoyalarida sovet senzurasi ostida ham insonning ichki dunyosini, tinch aholi iztiroblarini va ruhiy umidini nozik badiiy mahorat bilan tasvirlagan [8: 112–119].

Irvin Shou ijodi, xususan, uning urush davri hikoyalari G‘arbda keng tadqiq etilgan. Shnayerson M. ning biografik tadqiqoti Shouning ijodiy yo‘lini, shu jumladan uning urush davri hikoyachiligi va Signal Korpusi xizmatidagi tajribasini batafsil tahlil qiladi [1: 203–215]. J.R.Giles esa Shou hikoyalarida axloqiy ikkilanish va insoniy mas’uliyat mavzularini o‘rganib, muallif urush hodisalarini insonga bo‘lgan ta’siri orqali baholashini ta’kidlaydi [2: 315–317].

O‘zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qahhor ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘p. N. Karimov Qahhorning urush davri hikoyalarini sovet adabiy kontekstida ko‘rib chiqqan holda, uning «Xotinlar», «Kartina» kabi asarlarida senzuraviy cheklovlar ostida badiiy haqiqatni saqlash mahoratini yoritgan [3: 87–104]. B. O‘rinboyev tadqiqotlari esa Qahhor nasrining milliy o‘ziga xos xususiyatlarini, xususan, o‘zbek milliy xarakterining urush sinovlarida yuzaga chiqishini o‘rganadi [4: 56–72].

Biroq Shou va Qahhorni bir-biriga qiyoslash tajribasi adabiyotshunoslikda deyarli uchramaydi. Bu esa ushbu maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi. Damrosh va Kasanova kabi qiyosiy adabiyot nazariyotchilari jahon adabiyotini milliy chegaralardan tashqarida o‘rganish zarurligini asoslab bergan bo‘lib [5: 25–30; 6: 40], ushbu yondashuv mazkur tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

Ushbu tadqiqot komparativistika (qiyosiy adabiyotshunoslik) va narratologiya metodlarining uyg‘unligiga asoslanadi. Asosiy tahlil obyektlari sifatida Irvin Shouning “Act of Faith” (1946) hikoyasi va Abdulla

Qahhorning urush yillarida yozilgan «Xotinlar», «Kartina» va boshqa hikoyalari olingan.

Tahlil quyidagi ko‘rsatkichlarga qaratilgan: (1) asardagi asosiy personajning ijtimoiy va psixologik maqomi — qahramon yoki oddiy insonmi?; (2) muallif urushga nisbatan bildirgan axloqiy pozitsiya; (3) tinch aholi tasviri; (4) narrativ texnika — ichki monolog, dialog, tasviriy detallar. Shuningdek, har ikki muallifning ijodiy muhiti — siyosiy tizim, senzura, nashr sharoiti — ham taqqoslama kontekst sifatida ko‘rib chiqiladi. M. Baxtinning dialogizm nazariyasi [10: 259–262] va P. Fussell ning urush xotirasiga oid qarashlari [9: 18–22] ham tahlilning nazariy asosini boyitadi.

Irvin Shouning “Act of Faith” hikoyasida uchta Amerikalik askar — Seyyer, Olson va Uelch — urushdan so‘ng Parijda dam olish uchun ruxsatnoma oladilar. Seyyer — yahudiy askar — o‘z otasining maktubini yashiradi: ota maktubda Amerikadagi antisemitizm haqida ogohlantirib, balki to‘pponcha kerak bo‘lib qolishi mumkinligini ta’kidlagan. Seyyer esa yakuniy sahifada to‘pponchasini — nemis SS ofitseridan olingan Luger pistoletini — sotishga qaror qiladi; bu tanlov uning insonga, do‘stlariga va hamjihatlikka bo‘lgan ishonchining ramzi [7: 55–57].

Bu kichik harakatda Shou urushning insonga yetkazgan eng chuqur jarohati — ishonchni yo‘qotish xavfi — ni va unga qarshi turish imkoniyatini aks ettiradi. Seyyer jangchi qahramon emas; u axloqiy tanlov oldida turgan oddiy askar. Uning qarori tashqi miqyosda kichik, ammo ichki ma’noda ulkan: bu insonning o‘zligini, hamjihatligini va kelajakka umidini saqlab qolishi. J. R. Giles ta’kidlaganidek, Shou urush hodisalarini insonga bo‘lgan ta’siri orqali baholashni afzal ko‘radi [2: 316].

Shou urush yillarida AQSh Armiyasi Signal Korpusi yozuvchisi sifatida ishlagan va Evropa harbiy teatrida bevosita qatnashgan. Urushdan keyin “Act of Faith” nashr etildi — Makkartizm davrida Shou qoralangan mualliflar qatoriga tushgan bo‘lsa-da, hikoya inson qadr-qimmatini ulug‘lash va irqiy tenglik mavzulari bilan keskin siyosiy ifodali adabiy asar hisoblanadi [1: 278–281].

Qahhor esa Sovet totalitar tuzumining qattiq senzurasi ostida ishlagan. Uning urush hikoyalari «sotsialistik realizm» talablariga rasman rioya qilsada, muallif nozik badiiy usullar — allegoriya, ramz, tavsif — orqali insonga bo‘lgan achinish va urushning ma’nosizligini ifodalagan. «Xotinlar» hikoyasida frontga ketgan er o‘rnida qolgan ayolning turmush og‘irliklarini tasvirlash sovet propagandasi talabiga to‘la mos kelmaydi, ammo chuqur insoniy haqiqatni ifoda etadi. «Kartina» hikoyasida esa urushning insonni qanday o‘zgartirishi ramziy obraz orqali aks ettiriladi. Qahhor bu haqiqatlarni sezilmay, ammo ta’sirli tarzda ifodalagan [8: 134–138].

Shou ham, Qahhor ham urushni frontdan emas, balki «chekkadan» tasvirlaydi: Shouning askarlari front ortidagi mehmonxonada, Qahhorning qahramonlari — uy, ko‘cha, qishloqda. Bu «civilian consciousness» — tinch aholi ongi — urushning real insoniy qiymatlarini ko‘rsatishning eng samarali usuli. Jangovar sahnalar yo‘q, ammo urushning og‘irligi har bir dialogda, har bir sukutda his etiladi. P. Fussell ta’kidlaganidek, urushning eng haqiqiy tasviri ko‘pincha frontdan emas, balki u qoldiradigan xotira va izdan yuzaga chiqadi [9: 35].

Har ikkala muallifda dialog asosiy narrativ vosita hisoblanadi: Shouning askarlar suhbati, Qahhorning ayol va qo‘shnilari muloqoti — bular urush haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon qilinmaydi, balki inson munosabatlari orqali ochiladi. M. Baxtin ta’kidlaganidek, dialog bir ovozli monologdan ko‘ra ko‘proq ma’no tashiydi [10: 280].

Irvin Shou va Abdulla Qahhor — turli millat, turli til, turli siyosiy tizim vakillari — urush adabiyotida bir xil gumanistik yo‘nalishni qo‘llaganlar. Ularning asarlarida oddiy askar yoki fuqaro axloqiy guvoh sifatida namoyon bo‘ladi: u qahramon emas, ammo uning kichik tanlovlari yoki chidamliligi butun bir axloqiy dunyoqarashni aks ettiradi.

Ikki muallifning yaqinligi shundan dalolat beradiki, urush haqida haqiqat yozish — milliy adabiy an’anadan qat’i nazar — universallik kasb etadi. Tinch aholi ongi, urushga qarshi kayfiyat, insonga bo‘lgan ishonch va rahm-shafqat mavzulari transnatsional gumanizmning asosiy belgilaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shnayerson M. Irwin Shaw: A Biography. New York: Putnam, 1989. – 447 p.
2. Giles J. R. Irwin Shaw: A Study of the Short Fiction. Boston: Twayne Publishers, 1983. – 184 p.
3. Karimov N. Abdulla Qahhor: Hayoti va ijodi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007. 320-b.
4. O‘rinboyev B. Abdulla Qahhor hikoyalarida milliy xarakter. – Toshkent: Fan, 2001. 180-b.
5. Damrosch D. What is World Literature? – Princeton: Princeton University Press, 2003. – 324 p.
6. Casanova P. The World Republic of Letters. – Cambridge: Harvard University Press, 2004. – 406 p.
7. Shaw I. Act of Faith and Other Stories. – New York: Random House, 1946. – 212 p.
8. Qahhor A. Asarlar. 5 jildlik. 2-jild: Hikoyalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987. 448-b.
9. Fussell P. The Great War and Modern Memory. – New York: Oxford University Press, 1975. – 363 p.
10. Bakhtin M. The Dialogic Imagination. – Austin: University of Texas Press, 1981. – 444 p.

Nafisaxon SULAYMANOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti
nafisa1997.808@gmail.com



ABDUQAYUM YO‘LDOSHEV HIKOYALARIDA MANTIQQA ZID VOQELIK VA QAHRAMON (“ALVIDO, GO‘ZALLIK” HIKOYASI MISOLIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyotshunoslikdagi paradoksal hodisalar tushunchasi, uning nazariy asoslari hamda badiiy matnda namoyon bo‘lish shakllari Abduqayum Yo‘ldoshevning “Alvido, go‘zallik” hikoyasi asosida tahlil qilinadi. Undagi voqelik va obrazlar orqali paradoksal tafakkurning o‘rni va estetik ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *paradoks, badiiy talqin, konflikt, falsafiy ziddiyat, peyzaj, poetik mahorat, ruhiyat tasviri, jamiyat va inson talqini.*

Annotation: this article analyzes the concept of paradoxical phenomena in literary studies, its theoretical foundations and forms of manifestation in the literary text based on the story “Farewell, Beauty” by Abdukayum Yuldoshev. Through the reality and images in it, the role and aesthetic significance of paradoxical thinking are revealed.

Key words: *paradox, artistic interpretation, conflict, philosophical contradiction, landscape, poetic skill, depiction of the psyche, interpretation of society and man.*

Аннотация: в этой статье рассматривается концепция парадоксальных явлений в литературоведении, её теоретические основы и то, как она проявляется в литературном тексте, на примере рассказа ‹Прощай, Красота› Абдукаяма Юлдошева. Показана роль и эстетическая ценность парадоксального мышления через реальность и образы в рассказе.

Ключевые слова: *парадокс, художественное осмысление, конфликт, философское противоречие, пейзаж, поэтическое мастерство, изображение психики, интерпретация общества и человека.*

Yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshev o‘z asarlarida insonning ruhiy kechinmalarini, ichki monologi, tafsilot va ramziy detallar orqali jonli va ta’sirchan ifodalaydi. U o‘zbek nasrida badiiy psixologizm tamoyillarini samarali qo‘llagan yozuvchilardan biri sifatida ajralib turadi. Uning hikoya va qissalarida qahramonlarning ichki kechinma va ziddiyatlari, orzu-umidlari orqali inson ruhiyatining murakkab qirralari yoritiladi. Adibning “Osmon og‘ushi” (2018), “Qaydasan, mo‘jiza...” (2019), “Puankare” (2019), “Mashaqqatlar osha yulduzlar sari” (2021), “Mubtalo” (2023) kabi to‘plamlaridan o‘rin olgan ko‘plab hikoyalarida yangi davr muammolari, insonlarning o‘zaro munosabatlari jarayonida yuzaga keladigan ixtiloflar, ma’naviyat, milliylik masalalari, turmushning achchiq haqiqatlarini ochiq-oydin, boricha ko‘rsatish va talqin etish kuzatiladi. “Bozor”, “Quduq”, “Boy”, “Aybdor”, “Otasining qizi”, “Hayot endi boshlanadi”, “Yolg‘on va haqiqat”, “Tushov”, “Hayot shafqatsiz”, “Alvido, go‘zallik” kabi bir qator hikoyalar misolida bunga amin bo‘lish mumkin. Insonning o‘zi yashab turgan sharoitga tez moslashib ketishi, odamlar bilan iliq munosabat o‘rnatishi, albatta, ijobiy holat. Lekin jamiyat va inson munosabatlarida ko‘zga tashlanadigan ayrim ziddiyatlar ham mavjudki, Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarida aks etgan voqeliklar asosida bu borada xilma-xil fikr va qarashlarning yuzaga kelishiga bois bo‘ladi.

Abduqayum Yo‘ldoshevning “Alvido, go‘zallik” hikoyasida paradoksal holatlar inson ruhiyati va hayot haqiqatlarining ziddiyatli tasviri orqali namoyon bo‘ladi. Hikoyada go‘zallik va fojiaviylik, muhabbat va iztirob, tashqi chiroy hamda ichki iztirob bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Aynan shu qarama-qarshiliklar hikoyaning badiiy ta’sir kuchini oshiradi. Hikoyadagi asosiy paradokslardan biri – go‘zallikning vaqtinchalik ekanligidir. Inson go‘zallikka mahliyo

bo‘ladi, uni abadiydek qabul qiladi, biroq hayot tashvishlari va muhit ta’sirida u mutlaqo yo‘qotilishi mumkin. Hikoya sarlavhasida “Alvido” va “go‘zallik” tushunchalarining yonma-yon kelishi o‘zida chuqur falsafiy ziddiyatni mujassamlashtiradi. Go‘zallik aslida quvonch, estetika manbai bo‘lishi kerak edi, ammo u atrofdagilarning nafratiga va egasining iztirobiga sababchi bo‘ladi. Hikoyada voqealar rivojidan ko‘ra qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy holati, iztiroblari asosiy planga chiqadi.

Hikoya peyzaj tasviri bilan boshlanadi. Saksoninchi yillar oxirlarida qishloqdan fayz ketdi, gurkirab o‘sib turgan daraxtlar quriy boshladi, hosildorlik sezilarli darajada pasaygan. Voqealar rivoji davomida ovul kishilarining yashash tarzi ham havas qilgulik ahvolda emasligi ayonlashadi: “Ovulimizning aksariyat erkaklari ichishni yaxshi ko‘rishar, shu sababli mi to‘ylar janjalsiz o‘tmasdi; ayollari esa kun bo‘yi mol-hol tashvishi bilan band edilar. Kechqurunlari, televizorda biron bachkana, uzundan-uzoq serial bo‘lib qolsagina ko‘pchilik dasturxon atrofida o‘tirib, shuni tomosha qilishardi. Mana shunday ikki tomchi suv yanglig‘ bir xil o‘tib borayotgan kunlarimizdan birida ovulimizda yaqinda armiyadan qaytgan Muslim aka uylandi. To‘yda odatdagidek molday to‘yib ichib olgan erkaklar janjal qilishdi, ayollar uy-uylariga narsa tashishdi” [2:79]. Yangi kelinning behad suluvligi, latofati haqidagi xabarlar tez orada qishloqda o‘rmalab qoldi. Ayni paytda “Cho‘l shamolida rosa qoraygan, lablari, qo‘llari taram-taram yorilib ketgan, faqat ko‘z oqigina yiltirab ko‘rinib turgan qishloq ayollari” [2:81] tasviri bilan “Atlas qo‘ylak-lozim kiygan, yaltirab turgan sochi taqimini o‘padigan, oppoq yuzli, kipriklari uzun-uzun, jismi nozikkina” [2:81] kelinchak o‘rtasidagi tafovut kitobxonning ham diqqatini jalb etadi. Bu farq ularning tashqi ko‘rinishigagina xos bo‘lmay, ichki olamiga ham daxldordir. Shaddod, odamning yuziga tik qarab, ters javob beradigan, og‘zidan bodi kirib, shodi chiqadigan qishloq ayollariga zid o‘laroq, Oysuluv uyatchan, birov gapirganda, “yerga qaragancha iymanib” turadi. Bu holatda, tabiiyki ayolning go‘zalligi dalada umri o‘tadigan boshqa ayollarning g‘ashiga tegishni boshlaydi. Kelinchakning xotira daftari tutishi nafratga, ketmon ushlolmasligi kulgiga, latofati hasadga sabab bo‘ladi. Qo‘pol, ichkilikni yaxshi ko‘radigan, g‘ururini ko‘z-ko‘zlaydigan eri Muslim aka uni “kampir”, deb ataydi. Hikoyadan ma’lum bo‘lishicha, harbiy xizmatdan qaytgandan keyinoq, onasi – Marvarid momoning topganiga uylangan Muslim bilan Oysuluv o‘rtasida muhabbatdan asar ham yo‘q. Ular taqdirga tan berib turmush qurishgan, shunchaki er-xotin, xolos. Muslim uchun Oysuluv go‘zallik ma’budasi emas, shunchaki xotin (u yanada qo‘polroq qilib “kampir” deb ataydi), xizmatkor. Shu bois, uni mutlaqo mensimaydi, dag‘al muomala qiladi, so‘kadi. Bu qilig‘idan o‘zi faxrlanadi ham. Chunki uning nazarida er shunaqa bo‘lishi kerak. Muslim faqat ichishni, gap sotishni biladi. Uning uchun dalada ham, uyda ham xotini Oysuluv ishlashi kerak. Ketmon chopgan ham, o‘t o‘rgan ham, mol-holga qaragan ham, uy ishlarini qilgan ham shu Oysuluv. [3]

Bularning ta’sirida sodda, samimiy, tortinchoq kelinchak qattiq eziladi, bu uning tashqi ko‘rinishida ham zohir bo‘lgani qatorida ichki holatlarida ham yuz ko‘rsatadi. Muallif Oysuluvga nisbatan atrof-muhit munosabatini mahorat bilan shunday tasvirlaydi-ki, asar markazidagi obrazlar xarakteri, ularning psixologiyasi, jumladan, Oysuluv va Muslim xarakteri aynan ovuldagilarning gap-so‘zi va munosabati yordamida o‘zgarib borganligini sezamiz. Shuningdek, hikoya so‘nggigacha kitobxonda “Oysuluv nima qilar ekan?”, “O‘zining tog‘dagi qishlog‘iga ketib qolsa kerak”, – degan savollar paydo bo‘ladi. Lekin muallif hikoya oxirida kitobxonga kutilmagan holatni taqdim etadi. Bu esa hikoyaning yanada qiziqarli bo‘lishiga zamin yaratishi bilan birga, Oysuluvning taqdiri, hayotning beshafqat boshqa o‘zaniga burilib ketgani o‘quvchini sergak torttiradi. Qalban Oysuluvga achinish hissi paydo bo‘ladi. Shunday go‘zallik, latofat sohibasi, beg‘ubor qalb egasining hech qancha vaqt o‘tmasdan tubdan o‘zgarib ketganligi, kutilmagan burilish bo‘ladi. Aynan ana shu holat ham nutqiy xarakteristika orqali ochib berilganki, bu bilan ijodkor maqsadiga erisha olgan

O‘qishdan ta’til paytida qaytgan hikoyachi qahramon butunlay o‘zgacha manzaraning guvohi bo‘ladi. “Paqirlarini plastmassa idishlarini sisterna quvuridan oqayotgan suvga birinchi bo‘lib qo‘yishga urinib bir-birlarini sur-sur qilayotgan ayollar to‘pi ichida turgan bir qop-qoragina, dog‘ bosgan mushtday yuzini ajin to‘rlatgan, sochlari to‘zib ketgan, eski xalat kiygan juvon baqirmoqda edi. Darvoqe, ayollarning hammasi baqir-chaqir qilishar, ammo men faqat shu juvonning so‘zlarini eshitardim” [2:85]. Hikoya o‘sha ovuldagi bir o‘smir tilidan hikoya qilinadi va u

insondagi bu qadar o‘zgaruvchanlik, hayot chig‘irig‘i insonni ne ko‘ylarga solishi mumkinligi haqida o‘ylaydi. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul yozganidek, “Inson nega tug‘iladi? Yashashdan maqsad nima? Qalb va tafakkur qachon erkin bo‘ladi? Odam qismatining murakkabligini ochish jasorati qandoq? San’atkor o‘z qalbining qasriga kira olgandagina bu savollarga yuksak va yangicha javoblar qaytara oladi. Negaki, u yurak qasridan hech payt qup-quruq qo‘l bilan qaytmaydi”.[5:154] Bola hammani maftun etgan, odamlarda havas va hasad tuyg‘ularini qo‘zg‘agan betakror go‘zallik sohibasining qismat o‘yinlariga tez yengilishidan hayron qoladi. Ko‘rinib turibdiki, hikoya avvalida yon-atrofdagi ayollardan latofati va ibosi bilan alohida ajralib turgan kelinchak, asar so‘ngida ularning safiga qo‘shiladi. Ya’ni, o‘sha ovuldagi boshqa ayollarga xos bo‘lgan salbiy jihatlarni o‘zlashtirib oladi. Ayolning tashqi ko‘rinishidagi o‘zgarishlar noqulay ob-havo, qiyin sharoitda mehnat qilayotganligi tufayli paydo bo‘lgan bo‘lsa, uning o‘sha ayollar kabi baqirib gapirishi, holati tasviri hikoyachi qahramon qatorida o‘quvchiga ham ta’sir ko‘rsatadi. “Nahot, nahot tirikchilik, bir burda non tashvishlari shunday suluv juvonni bir yil ichida kampirga aylantirgan bo‘lsa. Qani men ko‘rgan Oysuluv yanganing suluvligi, ibosi? Qani men Oysuluv yanganing ko‘zlarida ko‘rgan o‘t? Bugun, ikki paqir sho‘r suv uchun jonini jabborga berib talashayotgan, shu suvni olgani uchun o‘zini baxtiyor sezayotgan Oysuluv yangani kim, kimlar bu ko‘yga soldi… Nahot, nahot endi bir insonning umri shu bilan o‘tib ketsa…” [2:86]

Asarning boshlanishida yozuvchi tasvirlagan tabiatdagi tushkunlik, yerlarning sho‘rlashi, daraxtlarning qurib borayotgani tasviri asar qahramonining taqdiriga ishora qiladi.[4:410] Bu hodisa yozuvchi tomonidan tabiat va inson ko‘rinishlarini parallel ravishda tasvirlash orqali yanada chuqurlashtiriladi. Voqealar yakunida go‘zallikni his qilmagan, uni asrab-avaylamagan jamiyat uni mahv etadi, o‘z girdobiga tortadi, degan xulosani chiqarish mumkin. Hikoya orqali og‘ir ijtimoiy, iqtisodiy sharoit kishilarning nafaqat jismoniy holatiga, balki ma’naviy dunyosiga ham salbiy ta’sir etganligini ko‘rish mumkin. Unda adib go‘zallikning barqarorligini, kuch-qudratini emas, aksincha, ojizligini, o‘zi tushib qolgan muhitga moslashishga majbur bo‘lganligini va bu hodisaning mudhish oqibatlarga olib kelishini o‘kinch bilan hikoya qiladi. [3]. Shuningdek, yozuvchi “Alvido, go‘zallik…” hikoyasida sho‘rolar davrida ko‘p yillar hukmronlik qilib, insonni haqiqiy go‘zallikdan mahrum etgan “Go‘zallikning manbai mehnatdadir”, degan aqidaga ham tuzatish kiritadi. O‘zi uchun emas, ko‘pchilik uchun jamoa xo‘jaligida qilingan majburiy mehnat Oysuluvdek nozik va ma’suma ayol go‘zalligini barbod qildi. Go‘zallik qadrlangan joyida azizdir. U qo‘llab-quvvatlansa, unib-o‘sishi, yashnashi uchun sharoit yaratib berilsagina kamolga yetadi. Cho‘llarni o‘zlashtirish siyosatining salbiy oqibatlari, kishilarning turmush sharoitlaridagi og‘ir ahvol va bu holatlar ta’siriga tushgan odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni yozuvchi “Alvido, go‘zallik” hikoyasida tashqi va ichki olamida go‘zallik zohir bo‘lgan o‘zbek ayoli – murakkab davrning vakilasi badiiy timsolini yaratish orqali ochib beradi. Umuman olganda, Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarida inson olami ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, davrning murakkabliklari bilan bog‘liqlikda talqin etib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.560-б. 2. Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. – Т.: Yangi nashr, 2010. 364-б.

2. Yo‘ldoshev A. Alvido, go‘zallik. / Yo‘ldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.79-86-bet.

3. Солижонов Й. Гўзалликнинг турфа ранглари. Бир ҳикоя атрофидаги ўйлар. / Интернет сайти: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abduqayum yoldosh-alvido-gozallik-yoldosh-solijonov-gozallikning-turfa-ranglari abduqayum-yoldosh-sunbulaning-ilk-shanbasi.html

4. Davronova Sh. Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarida jamiyat va inson munosabatlari talqini. “Journal of science innovative research in Uzbekistan” jurnali, Volume 2, Issue 12, 2024. December.

5. Иброҳим Ҳаққулов. Шеърият – руҳий муносабат: Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашри.

Dilfuza ZAYNUTDINOVA,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi
dilfuzmarjon0202@gmail.com

O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORI MATNLARIDA QO‘LLANILGAN KO‘CHIMLARNING MILLIY-MADANIY TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek bolalar folklori namunalarida uchraydigan ko‘chimlar (metafora, metonimiya, sinekdoxa, jonlantirish, o‘xshatish va ramziy obrazlar)ning milliy-madaniy xususiyatlari lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda bolalar folklorining asosiy janrlari – erkalamalar, topishmoqlar, tez aytishlar, sanamalar, ertaklar va bolalar qo‘shiqlaridan olingan namunalar asosida ko‘chimlarning semantik va pragmatik vazifalari aniqlanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bolalar folklorida qo‘llanilgan ko‘chimlar nafaqat estetik vazifani bajaradi, balki milliy qadriyatlar, etnografik tasavvurlar, tabiatga munosabat, mehnat madaniyati va oilaviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazuvchi muhim lingvokulturologik vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *bolalar folklori, ko‘chimlar, metafora, metonimiya, sinekdoxa, lingvokulturologiya, milliy madaniyat, folklor poetikasi, obrazlilik.*

Аннотация: в данной статье с лингвокультурологической точки зрения анализируются национально-культурные особенности тропов (метафоры, метонимии, синекдохи, олицетворения, сравнения и символические образы), встречающихся в образцах узбекского детского фольклора. Материалом исследования послужили основные жанры детского фольклора — колыбельные и ласкательные песни, загадки, скороговорки, считалки, сказки и детские песенные тексты. На основе анализа данных фольклорных образцов определяются семантические и прагматические функции тропов. Результаты исследования показывают, что тропы, используемые в детском фольклоре, выполняют не только эстетическую функцию, но и выступают важным лингвокультурологическим средством передачи национальных ценностей, этнографических представлений, отношения к природе, культуры труда и семейных традиций от поколения к поколению.

Ключевые слова: *детский фольклор, тропы, метафора, метонимия, синекдоха, лингвокультурология, национальная культура, поэтика фольклора, образность.*

Annotation: this article examines the national and cultural characteristics of figurative devices (metaphor, metonymy, synecdoche, personification, simile, and symbolic imagery) found in Uzbek children’s folklore from a linguocultural perspective. The study is based on the main genres of children’s folklore, including lullabies and affectionate rhymes, riddles, tongue twisters, counting-out rhymes, fairy tales, and children’s songs. Drawing on examples from these folklore genres, the semantic and pragmatic functions of figurative devices are identified and analyzed. The findings reveal that figurative devices used in children’s folklore perform not only aesthetic functions but also serve as important linguocultural means of transmitting national values, ethnographic perceptions, attitudes toward nature, labor culture, and family traditions from one generation to another.

Key words: *children’s folklore, figurative devices, metaphor, metonymy, synecdoche, linguoculturology, national culture, folklore poetics, imagery.*

Kirish. Folklor xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tajribasi va milliy dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtiruvchi noyob ma’naviy hodisadir. Ayniqsa, bolalar folklori jamiyatning eng qadimiy tarbiyaviy mexanizmlaridan biri sifatida shakllangan bo‘lib, unda bolaning dunyoni anglashiga xizmat qiluvchi obrazlar tizimi muhim o‘rin tutadi.

Bolalar folklori matnlarida obrazlilikni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri ko‘chimlardir. Ko‘chimlar bolaning abstrakt tafakkurini rivojlantirish, atrof-muhitni obrazli idrok etish va milliy madaniyatni o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan ko‘chimlarni faqat badiiy vosita sifatida emas, balki milliy-madaniy axborotni uzatuvchi semantik kod sifatida o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

So‘nggi yillarda lingvokulturologiya, etnolingvistika va kognitiv lingvistika yo‘nalishlarida metafora va boshqa ko‘chimlarning madaniy tabiati keng tadqiq etilayotgan bo‘lsa-da, bolalar folkloridagi ko‘chimlarning milliy-madaniy xususiyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘zbek tilshunosligida bolalar adabiyotining lisoniy xususiyatlari, psixolingvistik, sotsiopsixolingvistik, pragmalingvistik jihatlari N.Sayidiraximova, M.Qurbonovalar tomonidan monografik tarzda tadqiq etilgan. Shuningdek, til-shunosligimizda badiiy matndagi bolaning leksik zahiralari M.Sodiqova kitobida, o‘zbek bolalar yosh davrlarining psixologik jihatlari E.G‘oziyev darsligida, bolalar adabiyotida bolalikning o‘rni, har qanday bolada shaxs ulg‘ayishi A.Ulug‘ov maqolasida, badiiy bilingvizm muammolarining ifodalanish masalasi M.S.Ismailov tadqiqotlarida, bolalar adabiyotida fonetik, leksik, grammatik til birliklarining o‘zlashtirilish imkoniyatlarini aniqlash, bolalar adabiyoti tili lingvokulturologik hamda genderologik jihatdan O.Umarxo‘jayeva, G.Iskandarovalarning ilmiy izlanishlarida, bolaning xarakter-xususiyatini ochib berishda kulgining ahamiyati R.To‘laboyeva maqolasida yoritib berilgan.

A.Obidjon hikoyalarining lingvopoetik imkoniyatlari O.N.Abobakirova tomonidan tadqiq etilgan. N.Mahmudov tomonidan boshlang‘ich sinf o‘quv-chilari uchun “So‘z sandiqchasi: O‘zbek tilining izohli lug‘atchasi” nomli lug‘atning yaratilishi ham bolalarning lingvistik bilimini hamda nutq boyligini o‘stirish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek bolalar adabiyotida qahramon, badiiy til va uslub masalalari ijodkor mahorati nuqtayi nazaridan turli darajada o‘rganilganini ham kuzatish mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bolalar folklorida eng faol qo‘llaniladigan ko‘chim turi metaforadir. Masalan:

Oy momo kelar emish,
Qo‘lida non berar emish.

Bu misolda Oy obrazining “momo” sifatida tasvirlanishi antropomorf metafora hisoblanadi. Mazkur metafora orqali:

- oy insonlashtiriladi;
- bola tabiat hodisasini yaqin qarindosh obrazi orqali qabul qiladi;
- o‘zbek oilaviy madaniyatidagi momo konsepti faollashadi.

Demak, metafora nafaqat poetik vazifa bajaradi, balki milliy oilaviy qadriyatlarni ham aks ettiradi.

Tulki – ayyor,
Bo‘ri – botir.

Bu matnda hayvon obrazlari inson xarakterini ifodalovchi madaniy kodlarga aylanadi. O‘zbek xalq tafakkurida:

- tulki – ayyorlik;
- bo‘ri – jasorat;
- sher – qudrat;
- quyon – qo‘rqoqlik

ramzi sifatida shakllangan. Bolalar folklori aynan shu stereotiplarni yosh avlod ongiga singdiradi.

Bolalar folklorida jonlantirish juda faol qo‘llanadi. Masalan:

Quyosh kulib qaradi,
Maysalar bosh irg‘adi.

Bu misolda quyosh kuladi; maysa bosh irg‘aydi kabilar insoniy harakatlar hisoblanadi. Bunday personifikatsiyalar:

- bolaning tabiatga mehrini oshiradi;
- ekologik tafakkurni shakllantiradi;
- tabiatni tirik mavjudot sifatida idrok qilishga yordam beradi.

Bu esa qadimiy turkiy animistik qarashlarning folklordagi izlarini ko‘rsatadi.

Topishmoqlar bolalar folklorining eng obrazli qatlamidir.

Bir parcha patir,
Olamga tatir.

Javob: Oy. Bu topishmoqda oy patir metaforasi orqali ifodalanadi. Mazkur obraz:

- o‘zbek xalqining non madaniyatini;
- kundalik turmush tarzini;
- milliy mentalitetni aks ettiradi.

Agar boshqa madaniyat vakili ushbu topishmoqni tahlil qilsa, patir obrazining semantik qiymatini to‘liq anglay olmasligi mumkin. Bu holat ko‘chimlarning milliy-madaniy tabiatini ko‘rsatadi.

Bolalar folklorida o‘xshatishlar ko‘pincha milliy hayot tarzidan olinadi. Masalan:

Yuzing oydek,
Soching ipakdek.

Bu o‘xshatishda:

- oy – go‘zallik;
- ipak – nafislik

ramzi sifatida qo‘llangan.

Ipak obrazining faol qo‘llanishi Buyuk Ipak yo‘li madaniyati bilan bog‘liq tarixiy tajribani ham aks ettiradi.

Beshik kuldi. Aslida beshik emas, undagi chaqaloq kulgan. Bu metonimik ko‘chim:

- beshikning milliy madaniyatdagi o‘rnini;
- oila qadriyatlarini;
- bolaga bo‘lgan e’tiborni

ifodalaydi. Beshik konsepti o‘zbek xalqining muhim etnomadaniy belgilaridan biridir. Shuning uchun folklorda “bola” o‘rnida “beshik” qo‘llanishi tasodifiy emas.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bolalar folkloridagi ko‘chimlar faqat badiiy bezak vositasi emas. Ular xalqning etnik tajribasi, madaniy qadriyatlari va dunyoqarashini saqlovchi lingvokulturologik birliklardir. Folklor matnlaridagi non, beshik, momo, qaldirg‘och, oy, quyosh kabi obrazlar o‘zbek xalqining madaniy konseptosferasini tashkil etadi. Bolalar ana shu obrazlar orqali milliy dunyoqarashni o‘zlashtiradilar. Shunday qilib, bolalar folkloridagi ko‘chimlar til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro integratsiyasini ta’minlovchi murakkab semantik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab. – Toshkent: Fan, 2012.
2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Sangzor, 2006.
3. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. – Moskva, 1996.
4. Stepanov Yu.S. Konstanty: Slovar russkoy kultury. – Moskva, 2004.
5. Jo‘rayev M. O‘zbek folklorshunosligi asoslari. – Toshkent, 2017.
6. Sarimsoqov B. O‘zbek folklori poetikasi. – Toshkent, 2004.
7. Mirzayev T. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent, 2016.
8. O‘zbek xalq topishmoqlari. – Toshkent: Fan.
9. O‘zbek bolalar folklori. – Toshkent: O‘qituvchi.
10. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago, 1980.

Bahora RAHIMOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti.



ZAMONAVIY ROMANLARDA INSON RUHIYATI TASVIRI (LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANI MISOLIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi kunda o‘zbek adabiyotida yaratilayotgan romanlarda inson ruhiyati va uning ichki olami qanday tasvirlanayotgani, inson konsepsiyasi qanday namoyon bo‘layotgani aks etadi.

Kalit so‘zlar: *roman, konsepsiya, obraz, intertekstuallik, individ, plyuralizm, polifonizm.*

Аннотация: в данной статье рассматривается, как человеческая психика и ее внутренний мир изображаются в современных романах узбекской литературы, и как проявляется концепция человека.

Ключевые слова: *роман, концепция, образ, интертекстуальность, индивидуальность, плюрализм, полифонизм.*

Annotation: this article reflects how the human psyche and its inner world are depicted in novels currently being created in Uzbek literature, and how the concept of man is manifested.

Key words: *novel, concept, image, intertextuality, individual, pluralism, polyphonism.*

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, adabiyot ham erkin nafas oldi. Ijodkorga erkinlik berilgach, u turli yo‘nalishlarda turfa xil asarlarning yaratilishi, adabiyotimizni boyitdi. Lekin asosan insonga uning ruhiyatini tasvirlashga katta e’tibor berildi. Tolstoy aytganidek: “San’atkor uchun qahramonlar emas, odamlar kerak”. Avvalo, inson kim deb savol beraylik, arabchada inson so‘zi “unutuvchi “degan ma’noni beradi. Inson so‘zini to‘liqroq anglash uchun bashar ming yillar davomida din, falsafa, tarix, san’at, siyosat, ruhshunos, jamiyatshunoslik kabi sohalar javob izladi. Aristotel inson ijtimoiy hayvon deydi. Lekin uning yashash tarzi, ongi, dunyoqarashi uni hayvondan ajratib turadi. Inson – bu dunyoning aziz-u mukarram xilqati, mavjudotlar ichida sarvaridir. Aqllilik va ma’naviyat insonga xos eng muhim xususiyatlar bo‘lib ular insonning tarixiy mohiyatidan kelib chiqadi. Tarixning har bir yangi davri insonning borliqdagi o‘rni, uning maqsad va vazifalarini to‘liqroq anglashga yordam berdi. Insoniyat o‘zining xulosa va tajribalari bilan jamiyatni tartibga soladi, qonunlar yaratadi. Insonning aql-zakovati ularning og‘irini yengil qiladi. Islom diniga ko‘ra, inson haqida Qur’onning Nahl surasi, 12-oyat, Ibrohim surasi 32-oyat va Luqmon surasi 20-oyatda shunday keltiriladi: “Alloh insonni barcha maxluqotlar ichida aziz va mukarram qilib yaratdi va yer yuzidagi barcha narsani, go‘zallikni inson uchun yaratdi. Bu esa insonni ulug‘lashdir. Modomiki bu dunyoda hamma narsani Olloh inson uchun yaratgan ekan, demak inson hamma yaratilganlarning ulug‘idir. Yer yuzida insondan ulug‘ maxluq yo‘q. Inson Ollohning yer yuzidagi xalifasi. Maxluqotlardan birortasi insondan ustun bo‘lishi mumkin emas. Hamma narsalar inson uchun insonning saodati uchun bo‘lishi kerak. Olloh dunyodagi jamiki narsalarni insonga hadya etgan ekan, inson ham o‘sha ne’matlarni bergan zotga shukr qilib yashamog‘i lozim.” Qu’rondan keltirgan misoldan shuni bilishimiz mumkinki, islomda insonning maqomi, maqsad va vazifalari aniq, ammo fan, falsafa va san’at inson hali to‘liq anglanmagan xilqat sifatida talqin qiladi. Falsafada insonga munosabat ijtimoiy davrdan kelib chiqqan holda o‘zgarib boradi. San’at va adabiyotda esa insonga munosabat badiiylik asosida shakllanib boradi. “Inson kim?” degan savolga javob topishda badiiy adabiyotning imkoniyati kattadir. Chunki adabiyotning markazida inson turadi. “Adabiyot olam va odam munosabatlarining yaxlit badiiy modelini yaratgan holda turli ijodiy eksperimentlar vositasida savollarga javob izlash o‘z xulosalarini “tirik” obrazlar orqali ko‘rsatish imkoniga ega. Ayni shu jihat, ya’ni badiiy adabiyotning muayyan bir asar, ijodkor yoki davrda insonning olamdagi maqomi, maqsad va vazifalari yuzasidan chiqargan yaxlit hukmi inson konsepsiyasidir.”[1]

Konsepsiya nima o‘zi? Konsepsiya (lotincha conception – majmua, tizim) -1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar; 2) adabiyotda biror

1 Sa’dullo Quronov Romanda inson Toshkent- 2024-yil. 7-bet.

asarning asosiy g‘oyasi. Adabiyotshunos Mixail Golberg inson konsepsiyasiga shunday ta’rif beradi: “Inson konsepsiyasi juda ham keng qamrovli tushuncha bo‘lib, odamning olam va dunyoqarash, mafkura, axloq, estetik aloqalar hamda o‘zaro boshqa munosabat shakllarining ichki mohiyati majmui sifatida namoyon bo‘ladi.”

Inson konsepsiyasi adabiyotda qanchalik muhim bo‘lmasin, juda kam o‘rganilgan. Adabiyotshunoslik nazariyasi kitoblarida ham bu tushuncha yo‘q, lekin hozirgi kunda bu tushunchaga e’tibor berilmoqda. Menimcha oldin e’tibor berilmagani sababi badiiy konsepsiya ichida inson konsepsiyasi ham kirganligi uchun bunga ko‘p ham e’tibor qaratilmagan.

“Rus adabiyotshunosligida inson konsepsiyasi istilohini ilk bor o‘tgan asrning 50 – yillarida L.Timofeev qo‘llaydi. Shu davrdan boshlab, turli tadqiqotlarda bu tushunchaga bot-bot duch kelish mumkin bo‘ldi. Adabiyotshunos Ye.Gaponning ta’kidlashicha, Timofeevga qadar adabiyotdagi inson muammosiga “obraz”, “qahramon”, “xarakter” kabi tushunchalar bilan yechim izlangan. Biroq inson konsepsiyasi istilohi sanab o‘tilgan tushunchalarga nisbatan adabiy qahramonni ancha keng qamrovda konseptual tarzda tushuntiradi. “Insonning badiiy konsepsiyasi, - yozadi yana bir rus adabiyotshunosi L.Kolobayeva, - ma’lum bir adabiy kontekstda odamni shaxs sifatida tushunish va tasvirlash yo‘lidagi turli tamoyillar, g‘oyalar, qarashlar majmuyini anglatuvchi tushunchadir. Inson konsepsiyasi yozuvchi ijodiy olaming mazmuni sifatida faqat asarning emas, balki butun ijodiy yo‘lni va uning turli bosqichlarini xarakterlovchi, estetik qonuniyatlarini belgilovchi asosdir.” Anglashiladiki, inson konsepsiyasi tushunchasi bizga muayyan asarni yoki adabiy davrni muallifning badiiy-g‘oyaviy konsepsiyasi bilan bevosita aloqadorlikda baholash imkon beruvchi tizimdir.”[2]

O‘zbek adabiyotshunosligida mazkur tushunchaning “Inson konsepsiyasi”, “Insonning badiiy konsepsiyasi”, “Shaxs konsepsiyasi” kabi terminlarini uchratishimiz mumkin. Sa’dullo Quronov ta’kidlaganidek, inson va shaxs bir narsa emas, iste’molda farqlanadi. Shaxs ijtimoiy-axloqiy munosabatlar mahsuli. Ijtimoiy munosabatlar qaror topmagan joy yoki uzoq tarixning alohida individ qadri ahamiyat kasb etmagan muhitida shaxs mavjud emas. Demak, inson shaxsdan qadimiyroq. Aytmoqchimizki, inson ham odam (biologik), ham ijtimoiy shaxs (individ) bo‘la oladi.

Inson konsepsiyasi bugungi kunga kelib, bir qancha davrlarni boshidan kechirdi. Sa’dullo Quronov aytib o‘tganidek, arxaik, traditsionalizm, individualizm ijodiy bosqichlarda insonni anglash turli xil ko‘rinishlarda aks etadi. Sharq mumtoz adabiyotida inson tasviri islom an’analari asosida qurilgan edi. Bu davrda “Insonning badiiy konsepsiyasi qat’iy ravishda islom dini ta’limotlari asosida shakllangan. Bu borada navoiyshunos M. Muhiddinov shunday yozadi: “Komil inson tasavvufning ham, adabiyotning ham ideali edi, shoirlarning ko‘p gumanistik g‘oyalari shu tushuncha vositasida badiiy suvratlangan.” Shu ma’noda aytish mumkinki, komil inson konsepsiyasi mumtoz adabiyotning insonga doir yagona badiiy konsepsiyasi bo‘lgan. Mumtoz adabiyotga xos komil inson konsepsiyasi islom dini ahkomlari bilan bevosita bog‘liqlikda shakllangan. Odamga xos sifatlar faqat din doirasida baholangan.”[3] Ushbu davrda insonning realistik tasviri katta ahamiyatga ega bo‘lmagan. Mumtoz ijodkorlar qahramonlarini real voqelikdagi xatti-harakatlari asosida emas, ideal tushunchalar orqali tasvirlaydi. Shu sababli traditsionalizm Sharqda G‘arbga nisbatan ancha uzoq davom etdi. Bizda mana shu bosqich davom etayotgan bir vaqtda G‘arb ma’rifatchilik, sentimentalizm, romantizm bosqichlaridan o‘tib, realizm va modernizm ta’sirida sayqallanayotgan edi. Individual-ijodiy badiiy tafakkur bosqichi hozir ham davom etayotgan jarayon bo‘lib, uning o‘zi ham bir necha davrlarga ajraladi. Bu davrlar inson konsepsiyasi ta’sirida vujudga kelgan bosqichlardan iboratdir.

Adabiyotshunosligimizda yangi o‘zbek adabiyoti uchta adabiy asrga bo‘linadi: 1) O‘zbek jadid adabiyoti; 2) sho‘ro davri o‘zbek adabiyoti; 3) istiqlol davri o‘zbek adabiyoti.[4] Ushbu sanalgan davrda inson konsepsiyasi turli ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek jadida adabiyotida inson konsepsiyasi mutlaqo yangicha ruhda aks etdi. Jadidlar yaratgan inson konsepsiyasining markazida milliy istiqlol ma’rifatparvarlik g‘oyalari turadi. Bunga sabab ijtimoiy hayotda bo‘lgan keskin o‘zgarishlar ijodkorlarni ham chetlab o‘tmadi. Endi ijodkorlarning inson haqidagi o‘ylari, uning maqomi to‘g‘risidagi fikrlari o‘zgara boshladi. Adabiyot endi voqelikka ijtimoiy hayotga yuzlandi. Romanda inson konsepsiyasi ilk bor A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida namoyon bo‘ldi. Otabek va Yusufbek hoji obrazlari misolida islohotlarning zarurligi va yangi inson konsepsiyasi haqidagi g‘oyalar aks etadi. Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanida yangi inson konsepsiyasi yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Cho‘lpondagi inson konsepsiyasi hayotga yanada

2 Sa’dullo Quronov Romanda inson Toshkent – 2024-yil, 8-bet.

3 Sa’dullo Quronov. Romanda inson. Toshkent – 2024-yil, 15-bet.

4 Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari, - Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.433.

yaqinlashadi. Masalan, Miryoqub obrazida murakkab va ziddiyatli xarakterni ko‘ramiz. “O. Sharafiddinov yozadi: “Miryoqub xarakteri muayyan ichki ziddiyatlarga ega. U bir tomondan yangi burjua odamiga xos sifatlar egasi, ikkinchi tomondan esa o‘z muhitidan butunlay uzilib ketgan ham emas.”[5] Ya’ni Miryoqub musulmon namozxon shaxs, ammo doim ham shariatga amal qilmaydi, qing‘ir yo‘llardan ham yuraveradi. Bu orqali Cho‘lpon o‘sha davrda yangi inson tasvirini yaratdi, ya’ni xato va kamchiliklar bilan insonni ro‘y-rost tasvirladi. Agar Qodiriy qahramonlarini an’anaviy mumtoz adabiyotga xos unsurlar asosida yoritgan bo‘lsa, Cho‘lpon “Kecha va Kunduz” da ijobiy va salbiy xususiyatlar bilan yashayotgan hayotiy inson konsepsiyasi ko‘rsatdi. Demak, jadid adabiyotida inson konsepsiyasi yangilangan, realistik tamoyillar asosida hayotga yaqinlashgan ruhda edi.

Sho‘ro davri o‘zbek adabiyoti deb ataluvchi davrda yagona mafkura ta’siri ostida inson konsepsiyasining turli talqinlarini ko‘rishimiz mumkin. 30-40-yillarda yangi jamiyat qurish, sanoatni, xalq xo‘jaligini rivojlantirish bilan yashyotgan jamiyat shunga mos inson konsepsiyasini yaratdi. Sadriddin Ayniyning “Qullar”, Oybekning “Qutlug‘ qon” romanlari eng yorqin namunalardan biridir. Ikkinchi jahon urushi va urushdan keying yillarda shunga monand qahramonlar yaratildi. 1953-yil Stalin vafotidan so‘ng shaxsga sig‘inish qoralangan so‘ng mafkuraviy bosim pasaydi. Adabiyotimiz xilma-xil mavzular bilan boyidi. “Chinor”, “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo”, “Diyonat”, “Ikki eshik orasi”, “Qora ko‘zlar” romanchiligimizning nodir namunalaridir. Ushbu romanlarda inson konsepsiyasi, realistik tamoyillar, hayotiylik asosida yaratiladi. 80-yillarda qayta qurish davri boshlangach, ijodkorlar hokimiyatga, islohotlarga nisbatan ishonchsiz bo‘lib mamlakat inqirozga yuz tutayotganini anglagan holda, soxta mafkuraviy g‘oyalar ustidan kulib, tanqidiylik, kinoyaviylik adabiyotda aks eta boshladi. Shu davrdan boshlab milliy romanchiligimizda o‘zini o‘zi anglash obrazi – inson konsepsiyasi kirib keldi.

Istiqlol davri inson konsepsiyasi o‘zlikni anglash, erk, ozodlikka intilayotgan qahramonlar obrazlari orqali namoyon bo‘ldi. Hozirgi zamonaviy o‘zbek romanlarida esa inson ruhiyati tasviri, an’anaviy syujet chizig‘idan ustun turuvchi qahramonning ichki olamini, ziddiyatlari va ong osti kechinmalarini ochib beruvchi asosiy omilga aylandi. Bugungi adabiyotda voqealar rivojidan ko‘ra shu voqealarning inson qalbida qanday aks sado berayotgani muhimroq o‘rin tutmoqda. Zamonaviy o‘zbek romanlari tajriba maydonidir. Chunki yaratilayotgan tarixiy romanlar, modernistik, postmodernistik, metamodernistik oqimlar ta’siri natijasida vujudga kelgan romanlarda erkin inson konsepsiyasi bosh mavzuga aylanmoqda. G‘arb adabiy oqimlari ta’sirida yaratilgan hozirgi zamonaviy o‘zbek romanlarida sharqona tafakkur ufurib turmoqda.

Zamonaviy o‘zbek romanlari turkumiga XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrda yozilgan an’anaviy qoliplardan voz kechib insonning ichki dunyosi, ruhiy ziddiyatlari va global muammolarni yangicha usullarda aks ettiruvchi asarlar kiradi. Ularda voqealar shunchaki hikoya qilinmaydi, fokus inson ongiga qaratilgan bo‘ladi. Zamonaviy romanlarning asosiy xususiyatlari shundan iboratki: syujet erkin, voqealar ketma-ketligi chiziqli emas, tarix, bugun va kelajak aralashib ketadi. Polifonizm unsurlari aks etadi, asarda yagona muallif fikri emas, balki bir nechta qahramonning mustaqil qarashlari to‘qnashadi. Intertekstuallik ham bor, matn ichida boshqa adabiy asarlar, miflar yoki tarixiy ishoralar ko‘p bo‘ladi. Janrlar aralashgan holatda bo‘ladi, detektiv, fantastika, psixologik drama va falsafiy esselar bir asar ichida birlashadi.

O‘zbek romanchiligi Xurshid Do‘stmuhammad, Erkin A’zam, Luqmon Bo‘rixon, Ulug‘bek Hamdam, Omon Muxtor kabi adiblarning ijodi bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. Masalan, Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat”, “Isyon va Itoat” romanlarida bugungi kun kishisining ma’naviy ruhiy izlanishlari va jamiyatdagi o‘zgarishlar o‘z aksini topgan. Bu asarlarda an’anaviy realistik tasvirdan ko‘ra qahramonning ichki kechinmalariga ko‘proq urg‘u beriladi.

Zamonaviy ijodkorlar romanlarida qahramon ruhiy holatining eng cho‘qqisini ko‘rsatish uchun quyidagi usullardan foydalanmoqda:

– qahramon xayolidan o‘tayotgan tartibsiz fikrlar, hislar, o‘tmish xotiralarini tahrirsiz ko‘rsatmoqda,

– qahramonning o‘zi bilan o‘zi pinhona suhbati, ijtimoiy maishiy ziddiyatlarga bo‘lgan munosabati yaqqol tasvirlanmoqda,

– qahramon ruhiyatidagi bugungi jarohatlarning sababini ochish uchun o‘tmish xotiralariga qaytmoqda,

– tabiat hodisalari, atrof-muhit, turli buyumlar vositasida qahramonning ichki holati, ruhiy inqirozi ifodalanmoqda.

Zamonaviy romanchilikda inson ruhiyatini yoritish tamoyillari tubdan o‘zgardi. An’anaviy romanchilikda qahramonning tabiati ideal yoki qat’iy ijobiy salbiy bo‘ladi, zamonaviy romanchilikda esa murakkab, xatolarga moyil. An’anaviy romanlarda konflikt shaxs va jamiyat o‘rtasida bo‘lsa, zamonaviy romanda ichki ya’ni qahramon o‘zi bilan o‘zi kurashadi. An’anaviy romanlar voqeani hikoya

5 Sa’dullo Quronov. Romanda inson, Toshkent 2024-yil 20-bet.

qilish asosiy planda bo‘lsa, zamonaviy romanda inson mohiyatini anglash asosiy o‘rindadir. Isajon Sulton, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam asarlarida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va global o‘zgarishlarning inson ruhiyatiga ta’siri chuqur tahlil qilinmoqda. Qahramonlar hayotiy haqiqatga juda yaqinlashtirilgan.

Iste’dodli yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida inson ruhiyati tabiatning og‘ir sinovlari va jamiyatdagi ziddiyatlar kesimida juda ta’sirli ochib berilgan. Asar qahramonlari ichki kechinmalarida, ma’naviy iztiroblar va o‘zlikni anglash yo‘lidagi murakkab ruhiy jarayonlarni boshdan kechiradilar. Asarda inson konsepsiyasida yolg‘on mafkura odamni hech qachon baxtli qila olmasligini ko‘rsatadi. Yozuvchi jazirama cho‘lda buyuk kelajak qurish orzusi bilan yashayotgan xalqning hayoti misolida o‘zligiga qarshi, o‘z qadriyatlariga begona bo‘lgan g‘oyalarga ergashib yashayotgan, hayotining mazmunini yo‘qotgan jamiyatning tasvirini yoritadi. Cho‘lni odamzod bo‘ysundira olmaganday insonning his-tuyg‘ularini bir qolipga solishning ham iloji yo‘q. Yozuvchi har bir obrazni shunday tasvirlaganki, goh salbiy, goh ijobiy, haqiqiy hayotga mos tushgan qahramonlardek. Butunlay oq, qora rang bo‘lmaganday, odamlar ham yomon yoki yaxshi tipdan iborat emas. Hammaning ham yaxshi va yomon xislatlari bor. “Jaziramadagi odamlar” o‘zligini yo‘qotgan qavm haqidagi roman. Aniqrog‘i azaliy qadriyatlari, din-u diyonatidan yuz o‘girgan odamlarning be’mani hayot tarzi, achchiq kechmishlari haqidagi asar.”[6] Asar voqealari bir paytlar cho‘l-u biyobon bo‘lgan 41-sovxozga qarashli posyolkada bo‘ladi. Yozuvchi Lolaxon taqdiri orqali o‘zining inson konsepsiyasi ochib beradi. Chunki yolg‘on mafkura, soxta targ‘ibot ostida Lolaxonning guldek umri, yoshligi qurbon bo‘ladi. Qozoqboy Yo‘ldoshev shunday yozadilar: “ zo‘raki qahramonlar yasash, insonning tabiati, va istagiga muvofiq yashashga qo‘ymaslik, uning turmush tarziga tazyiq o‘tkazish izsiz ketmasligi “Jaziramadagi odamlar” da katta samimiyat bilan tasvir etilgan.” Lolaxon shaharlik qiz bolib, qishloqdan shaharga o‘qishga borgan O‘roq bilan tanishib qoladi va ikki o‘rtada muhabbat paydo bo‘ladi, shu sabab qishloqqa kelin bo‘lib keladi. U o‘zining odobi, go‘zalligi bilan barchaning ko‘nglidan joy oladi, pazanda, saranjom-sarishta kelin edi. Ikki sevishganning baxtli hayoti uzoqqa cho‘zilmaydi. O‘roq harbiy xizmatda vafot etadi. Bu uning hayotini butunlay o‘zgartirib yuboradi. Sevgan yoridan ayrilish, ayol kishini qattiq sinovlarga mahkum etadi. Chunki endi hayotning mzamuni qolmaydi. Lolaxon suyanchiqqa, yelkadoshga muhtoj edi. Lekin uni hech kim tushunmaydi. O‘roqning yillik marosimida mullo Mirza shunday deydi: Hammamiz musulmonmiz. Xudoyim Qur’oni Karimda shariatda beva qolgan ayol ho‘jayiniga ko‘pi bilan uch oy aza tutsin deb ruxsat bergan. Ana keyin ayolning boshi ochiq, hisoblanadi. unga zulm…” Mullaning gapi bo‘linib, O‘roqday qahramonning xotini kerak bo‘lsa, yuz yil turmush qurmasligi haqidagi gaplar aytiladi. Yozuvchi bu orqali odamzod islomga asoslanib hayot kechirishi lozimligini, soxta g‘oyalar bilan to‘lgan jamiyat o‘z maqsadiga erisha olmasligini ko‘rsatib beradi. Chunki Lolaxondan qishloq ahli sadoqatli ayol siymosini yaratadi. Hattoki, yosh kelin kuyovlarning undan oq fotiha olishi an’naga aylanadi. Lolaxonni faxriy deputat etib ham saylashadi. Xullas, yosh bir ayol o‘zi xohlagandek, erkin yashay olmaydi. Asar yakunida O‘roqning ukasi Ashur uni xiyonatda ayblab o‘ldirib qo‘yadi.

Bu roman orqali Luqmon Bo‘rixon jamiyatning islomdan uzoqlashishi, shari’at qonunlariga amal qilmaslik ayanchli yakun topishini aytmoqchi bo‘ladi. Bu asosan to‘y tasvirida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘roq va Lolaxonning to‘y tasvirida araqning ko‘pligiyu, bu shayton suvidan mast bo‘lgan erkag-u ayollarning behayo qiliqlarini adib kinoya orqali qattiq tanqid qiladi. Xuddi shu to‘yda mulla Mirzaning bu shaytonning o‘yinlariga e’tibor qilmay tahorat olib, nikoh o‘qishga tayyorlanayotgani tasvirlanadi. Yozuvchi bu tasvirda jamiyatimizdagi illatlarga mulla Mirza obrazi orqali ya’ni islom aqidalari asosida javob topish mumkin demoqchi bo‘ladi. Asardagi mulla Mirza orqali adib islomning hayotimizdagi o‘rni naqadar muhim ekanligini ham aytmoqchi bo‘ladi. Adibning bu romanidagi inson konsepsiyasi islom aqidalariga mos hayot kechirmog‘i kerakligi ilgari suriladi. Asardagi voqealar mustabid tuzum davrida bo‘lib, bu davrda insonlar dindan uzoqlashishgan. Ushbu romanda mana shunday tuzumda yashagan insonlarning dindan yiroqlashgan ayanchli taqdiri ko‘rsatib beriladi.

6 Sa’dullo Qurono Romanda inson. Toshkent. 2024-yil. 78-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sa’dullo Quronov. Romanda inson. - Toshkent – 2024.
2. Dilmurod Quronov Adabiyot nazariyasi asoslari – Toshkent – Akademnashr: 2018.
3. Luqmon Bo‘rixon Jaziramadagi odamalar Oltin qalam nashriyoti – Toshkent – 2024.

Moxizarxon MAMADALIYEVA,
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

AGROTURIZM TERMINLARINING MORFOLOGIK VA STRUKTUR XUSUSIYATLARI: QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan agroturizm sohasining ingliz va o‘zbek tillaridagi terminologik tizimi morfologik hamda strukturaviy jihatdan qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida ikki xil tizimli tillarda termin hosil bo‘lishining yetakchi modellari, affiksatsiya, kompozitsiya va sintaktik usulda terminologik birikmalarning shakllanish qonuniyatlari aniqlangan. To‘plangan leksik materiallar komponentlar soniga ko‘ra tasniflanib, ularning strukturaviy modellarining matematik-lingvistik nisbatlari ko‘rsatilgan va funksional-semantik guruhlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *agroturizm, terminologiya, morfologik tahlil, struktur model, komponent, affiksatsiya, lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik.*

Annotation: this article provides a comparative morphological and structural analysis of the terminological system of agritourism sector in the English and Uzbek languages. In this research, the leading models of term formation in two typologically different languages, as well as the patterns of terminological phrase formation through affixation, composition, and syntactic methods, are identified. The collected lexical materials are classified according to the number of components, demonstrating the mathematical-linguistic proportions of their structural models and highlighting their functional-semantic groups.

Key words: *agritourism, terminology, morphological analysis, structural model, component, affixation, linguacultural linguistics, comparative linguistics.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida turizm sanoatining an’anaviy tarmoqlari bilan bir qatorda, ekologik barqarorlik va qishloq hududlarini iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan yangi yo‘nalishlari jadal sur’atlar bilan shakllanmoqda. Ushbu tarmoqlar orasida agrar turizm – agroturizm alohida o‘rin egallaydi. Agroturizm nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy soha, balki o‘ziga xos konseptual tushunchalar tizimiga ega bo‘lgan mustaqil lingvistik obyekt sifatida ham tilshunoslarning e’tiborini tortib kelmoqda. Har qanday yangi sohaning shakllanishi, eng avvalo, undagi tushunchalarni nomlovchi professional leksika va terminologiyaning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir.

So‘nggi yillardagi ilmiy izlanishlar turizm va agroturizm terminlariga qaratilgan e’tiborning ortib borayotganini ko‘rsatadi.Ayniqsa, professional terminlarning morfologik tuzilishi, ularning tarkibiy qismlari va so‘z yasovchi modellari tilshunoslikda muhim tahlil obyekti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq, ingliz va o‘zbek tillarida agroturizmga oid terminlarning morfologik xususiyatlari hali yetarli darajada chuqur, tizimli va qiyosiy tarzda o‘rganilmagan. Shu sababli, ushbu sohada xalqaro terminlarning tarkibiy va morfologik tuzilishini qiyosiy o‘rganishga, ikki tilning kengayish manbalarini aniqlashga bo‘lgan ilmiy ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Morfologik xususiyatlariga ko‘ra, agroturizm terminlari ingliz va o‘zbek tillarida ham umumiy, ham farqli jihatlarga ega. Avvalo, ingliz tilidagi atamalar o‘zining analitik tabiati va soddaligi bilan ajralib turadi. Bu tilda terminlar, asosan, qo‘shma so‘zlar va so‘z birikmalari orqali shakllanadi. Masalan: *farmstay*, *agritourism*, *farmhouse*, *harvest time* kabi birliklar bunga yaqqol misoldir. Shuningdek, ingliz tilida affiksatsiya jarayoni ham juda faol qo‘llanilib, *-ing* suffiksi yordamida hosil qilingan *farming*, *harvesting* kabi birliklar ham turizm, ham dehqonchilik faoliyatini bir vaqtda aks ettiradi. Prefiksatsiya usuli ham ingliz tili uchun o‘ta muhim hisoblanib, *eco-*, *bio-*, *agro-* kabi xalqaro elementlar yordamida *ecotourism*, *bioproducts*, *agro-industry* singari terminlar tizimi vujudga keladi.Ingliz tilidagi so‘zlar global bozor va xalqaro kommunikatsiya ehtiyojlariga tez moslashib, qisqa, ixcham va tejamkor shakllarni afzal ko‘radi.

O‘zbek tilida esa morfologik jarayonlar agglyutinativ til tabiati tufayli ancha kengroq va boyroq imkoniyatlar asosida qo‘llaniladi.Bu tilda, asosan, so‘z yasovchi qo‘shimchalar vositasida yangi terminlar hosil qilinadi. Masalan, *-chi* qo‘shimchasi muayyan kasb yoki faoliyat egasini ifodalashga xizmat qiladi: *gulchi*, *baliqchi*. O‘z navbatida, *-chilik* affiksi esa mavhumlik, soha yoki ixtisoslashgan tizim nomini hosil qiladi: *dehqonchilik*, *asalarichilik*. Bundan tashqari, o‘zbek tilida sintaktik usulda, ya’ni so‘z birikmalari orqali shakllangan terminlar ham keng iste’molda: *dala sayohati*, *hosil bayrami*, *qishloq turizmi*.

Taniqli akademik Yu.D.Apresyan o‘z asarlarida ta’kidlaganidek, “so‘z yasalishi jarayoni milliy tilning ichki imkoniyatlariga tayanadi va shu orqali yangi nominativ birliklar yaratiladi”. Shuning uchun ingliz tilida morfologik soddalik, ixchamlik va xalqaro moslashuvchanlik ustunlik qilsa, o‘zbek tilida sermahsul va turli-tuman qo‘shimchalar yordamida ichki semantik mazmunni kengroq va aniqroq ifodalash, shuningdek, terminlarni milliy-madaniy an’analarga moslashtirish jarayoni kuchli.


Ushbu tadqiqotning maqsadi agroturizmga oid ingliz va o‘zbek terminlarining morfologik va strukturaviy

xususiyatlarini qiyosiy tadqiq etish, ularning tarkibiy qismlarini aniqlash hamda modellashtirish orqali ikki tilning terminologik salohiyatini ochib berishdan iboratdir.

O‘rganilgan agroturizm terminlarining tarkibiy qismlari morfologik va struktur jihatdan chuqur tahlil qilinib, ularning miqdoriy hamda strukturaviy nisbatlari aniqlandi. Struktur tahlil natijalari terminlarni komponentlar soniga ko‘ra tasniflash imkonini berdi.

Komponentlar soniga ko‘ra terminlarning tasnifi quyidagicha:

- Bir komponentli terminlar: Bunga *farmstay*, *orchard*, *homestay*, *vineyard*, *greenhouse*, *livestock*, *harvest*, *guesthouse* kabi birliklar kiradi. Ular, asosan, agroturizm faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalovchi va keyingi murakkab terminlar uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi bazaviy terminlardir.
- Ikki komponentli terminlar: masalan, *farm market*, *corn maze*, *village tour*, *organic food*, *rural festival*, *bed & breakfast*, *local crafts*, *farm products*, *agro village*, *cultural heritage* kabi. Ushbu birliklar agroturizm materiallari ichida eng ko‘p uchraydi va sohada nominal tushunchalarni shakllantirishda yetakchi o‘rin tutadi.
- Uch komponentli terminlar: jumladan, *pick-your-own fruits*, *rural guest house*, *guided farm tour*, *traditional food tasting*, *ecological farm park*, *organic dairy products* kabi terminlar. Ular o‘ziga xos murakkab semantik mazmun ifodalashi va tushunchani aniqlashtirishi bilan ajralib turadi.
- To‘rt komponentli terminlar: masalan, *farm-to-table tourism program*, *rural community based tourism*, *traditional handicraft training center*, *agrarian cultural heritage site* kabi tuzilmalar. Bu turdagi terminlar, asosan, ixchamlashgan amaliy muloqotda emas, balki ilmiy-rasmiy nutqda, hisobotlarda va xalqaro dasturlarda ishlatiladi.
- To‘rt komponentdan ortiq terminlar: bunday murakkab sintaktik birliklar tilda juda kam uchraydi, biroq sohaning rasmiy huquqiy hujjatlarida yoki ilmiy izohli matnlarida tushunchalarga mukammal ta’rif berish uchun qo‘llanilishi mumkin.



Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillarida agroturizmga oid terminlarning asosiy va eng faol qismini ikki komponentli birliklar tashkil qiladi. Ular terminologik tizimda eng hayotiy va barqaror qatlamdir. Shu bilan birga, uch va undan ortiq komponentli terminlar sohaga xos murakkab semantik mazmunni mukammal ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikki komponentli terminlarning struktur modellari. Mazkur terminlar tarkibida turli so‘z turkumlarining birikuvi aniqlandi.Quyida ularning modellari va misollari keltirilgan:

a. N + N (Noun + Noun): *farm market*, *corn maze*, *vineyard tour*, *orchard visit*, *dairy farm*, *guest house*, *rural fair*, *livestock show*.

b. Adj + N (Adjective + Noun): *organic food*, *local crafts*, *rural tourism*, *ecological farm*, *traditional festival*, *cultural heritage*.

Shuningdek, ikki komponentli terminlar orasida quyidagi strukturaviy modellar ham faol qo‘llanilishi aniqlandi:

a) V + N (Verb + Noun): *pick fruits*, *harvest crops*, *taste wine*

b) P2 + N (Participle II + Noun): *guided tour*, *scheduled visit*

c) Num + N (Numeral + Noun): *double room*, *three-day trip*

d) N + Prep (Noun + Preposition): *check-in*, *check-out*

e) N + Adj (Noun + Adjective): *duty-free*, *pesticide-free*

Uch komponentli terminlarning struktur modellari. Uch komponentli terminlar murakkab semantik tuzilmaga ega bo‘lib, ular, asosan, quyidagi sintaktik-morfologik qoliplarda namoyon bo‘ladi:

a. N + N + N: *agro tourism market*, *cultural heritage site*, *rural development program* ;

b. N + Prep + N: *farm-to-table tourism*, *influx of visitors*, *means of transport*;

a. Adj + N + N: *organic dairy farm*, *traditional guest house*, *ecological tourism zone*;

b. N + P2 + N: *family-run farm*, *community-based tourism*;

c. P2 + N + N: *guided farm tour*, *fixed price menu*;

a. V + Prep + N: *apply for subsidy*, *book in advance*;

b. N + Adj + N: *pesticide-free farming*, *visa-free entry*;

c. N + Conj + N (Noun + Conjunction + Noun): *food and drinks*, *arts and crafts*

To‘rt komponentli terminlarning struktur modellari ko‘proq ilmiy matnlarda nutqni aniqlashtirish uchun xizmat qiladi va quyidagi modellar asosida shakllanadi:

a) N + Prep + N + N: *record of farm products*, *cover of tourist losses*;

b) N + Conj + N + N: *lodging and food facilities*, *crafts and cultural events*;

c) N + Prep + Adj + N: *country of rural tourism*, *place of temporary residence*;

d) Adj + N + Conj + N: *full board and lodging*, *organic food and drinks*;

e) Adv + P2 + N + N: *generally accepted quality standards*;

f) V + Prep + Prep + N: *set out on a journey*, *take part in festival*.

Keltirilgan chuqur strukturaviy tahlildan ko‘rinadiki, agroturizm terminlarini shakllantirishda eng faol va markaziy komponent sifatida ot so‘z turkumi ishtirok etadi. Agroturizm sohasida qo‘llaniladigan terminlarning morfologik va semantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular qishloq joylaridagi turli-tuman funksional faoliyat turlarini ifodalash uchun maxsus leksik birliklar orqali shakllanadi. Biz aniqlagan terminologik birliklarni maqsad va mazmun jihatidan quyidagi tizimli guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Marketing va bevosita savdo faoliyatlari (*marketing/ retail activities*)

Bu guruhga agroturistik obyektdagi mahsulotlarni iste’molchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri uchrashtirishga, savdo aloqalarini o‘rnatishga qaratilgan terminlar kiradi. Ingliz tilida bu guruh juda ixcham qo‘shma so‘zlar bilan ifodalansa, o‘zbek tilida izohli birikmalar ustunlik qiladi:

- *farm market* (fermer xo‘jaligi bozori)
- *pick-your-own* (o‘zing yig‘ib ol / o‘zing terib ol)
- *cut-your-own Christmas trees* (o‘zi kesib oladigan archa savdosi)
- *door market* (uy yonidagi dehqon bozori)
- *picnic* (saylgoh) va boshqalar.

2. Agro-ko‘ngilochar faoliyatlar (*agrifun*)

Bu bo‘limda agroturizmning ko‘proq dam olish, hordiq chiqarish va o‘yin-kulgi xususiyatiga urg‘u beriladi. Ularning salmoqli qismi mavsumiy bayramlar va hosil yig‘im-terimi bilan uzviy bog‘liqdir (*harvest festival*, *grape harvest*). Morfologik jihatdan ingliz tilida *-ing* shakllari faol:

- *festivals/fairs* (festival va yarmarkalar)
- *corn maze* (makkajo‘xori labirinti)
- *horseback riding* (ot minish)
- *rodeo* (ot sporti musobaqalari)
- *paintball courses* (peyntbol maydoni)
- *camping park* (oromgoh) kabi terminlar shular jumlasidandir.

3. Agrota’lim va ko‘rgazmali faoliyatlar (*agrieducation*)

Bu yo‘nalish sayyohlar, o‘quvchilar va keng jamoatchilikni jalb qiluvchi ta’limiy, ma’rifiy hamda ko‘rgazmali faoliyatlarni qamrab oladi.Ushbu guruhda o‘zbek tilida *-chilik* affiksi yordamida yasalgan sohalar (masalan, *asalarichilik*, *ipakchilik*) va ularga asoslangan ekskursiyalar terminologik tizimning o‘zagini tashkil etadi. Masalan, *farm tours* (fermer xo‘jaligi bo‘ylab ekskursiya), *agricultural museums* (qishloq xo‘jaligi muzeylari), *master classes on crafts* (hunarmandchilik to‘garaklari) kabi birliklar ikki tilda ham o‘ziga xos struktur modellarni namoyon qiladi.

Ikki tilni qiyoslaganimizda, ingliz tilidagi terminlarning sintaktik jihatdan qisqalik tamoyiliga (*linguistic economy*) bo‘ysunishi yaqqol ko‘rinadi. Ingliz tilida ikki ot ketma-ket kelib (*N+N*), hech qanday qo‘shimchasiz aniqlovchilik munosabatini ifodalay oladi (*vineyard tour*). O‘zbek tilida esa bu munosabat ko‘pincha qaratqich kelishigi yoki egalik qo‘shimchalari yordamida (*uzumzor sayohati / uzumzorga sayohat*) sintaktik-morfologik usulda rasmiylashtirilishi shart.Bu holat ingliz tilining analitik, o‘zbek tilining esa agglyutinativ tuzilishga ega ekanligidan kelib chiqadigan qonuniyatdir.

Xulosa. Qishloq xo‘jaligi, iqtisodiyot va turizm leksikasi tutashuvida shakllangan agroturizm terminologiyasi har ikki tilda ham murakkab tizimli xarakterga ega. Mazkur tizim doirasida ingliz tili terminlari morfologik soddalikka intilsa, o‘zbek tili terminologiyasi milliy tilning ichki imkoniyatlariga tayanadi. Shunga qaramay, har ikki tilda ham ikki komponentli modellar miqdoriy ustunlikka ega. Ushbu birliklarning funksional-semantik xususiyatlari sohaning ko‘p tarmoqliligini aks ettirgani bois, tadqiqot natijalari kelajakda ikki tilli izohli lug‘atlarni yaratishning nazariy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Collin P.H. Dictionary of Leisure, Travel and Tourism. – 3rd ed. – London: A & C Black, 2006. 385-p.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. 163-b.
3. Medlik S. Dictionary of Travel, Tourism and Hospitality. – 3rd ed. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2003. 283-p.
4. Merriam-Webster Dictionary. – London, 2005. 1131-p.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. Jild I. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 437-b.
6. Sobirova Z. Turizm atamalarining o‘zbek tilidagi leksik-semantik tadqiqi borasidagi qarashlar // Molodoy issledovatel: vizovi i perspektivi. – Moskva, 2020. № 22 (169). 462-464-b.
7. United Nations Tourism: Glossary of Tourism Terms. – URL: https://www.untourism.int/glossary-tourism-terms (murojaat sanasi: 29.05.2026).

Gulnoza KARIMOVA,
Samarqand davlat universiteti doktoranti

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MUALLIFLIK KORPUSINING O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqola zamonaviy tilshunoslik va korpus lingvistikasi kesishmasida shakllangan mualliflik korpusining nazariy va amaliy ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada mualliflik korpusining umumiy korpuslardan farqli jihatlari, uni yaratishning metodologik asoslari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida mualliflik korpuslarini yaratish, mumtoz va zamonaviy adabiyot namunalarini leksik-semantik, stilistik hamda sintaktik jihatdan tadqiq etish istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *til, mualliflik korpusi, korpus lingvistikasi, NLP, til siyosati, idiolekt, mualliflikni aniqlash, leksik-semantik tahlil.*

Annotation: this article is devoted to the study of the theoretical and practical significance of the author’s corpus, which was formed at the intersection of modern linguistics and corpus linguistics. The article analyzes in detail the aspects that distinguish the author’s corpus from general corpora, the methodological foundations of its creation. It also considers the prospects for creating author’s corpora in Uzbek linguistics, and studying classical and modern literary samples from lexical-semantic, stylistic and syntactic aspects.

Key words: *language, authorship corpus, corpus linguistics, NLP, language policy, idiolect, authorship determination, lexical-semantic analysis.*

Аннотация: данная статья посвящена изучению теоретического и практического значения авторского корпуса, сформированного на стыке современной лингвистики и корпусной лингвистики. В статье подробно анализируются аспекты, отличающие авторский корпус от общих корпусов, методологические основы его создания. Также рассматриваются перспективы создания авторских корпусов в узбекской лингвистике и изучения классических и современных литературных образцов с лексико-семантической, стилистической и синтаксической точек зрения.

Ключевые слова: *язык, авторский корпус, корпусная лингвистика, НЛП, языковая политика, идиолект, определение авторства, лексико-семантический анализ.*

XXI asr tilshunosligi til tizimini nafaqat nazariy, balki empirik ma’lumotlar asosida o‘rganishga qaratilgan yangi paradigmalarga tayanishi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda korpuslar yaratish va ularni lingvistik jihatdan boyitish masalasi o‘z tili va madaniy merosining kelajagiga befarq bo‘lmagan millatlar uchun strategik ahamiyatga ega. XX asrning dastlabki yarmida til korpuslarini shakllantirish qo‘lda bajarilgan bo‘lib, bu vaqt va moddiy resurslar nuqtayi nazaridan katta talab qo‘yar edi. Biroq so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan korpusga tegishli ma’lumotlarni to‘plash, sinxronlashtirish va tizimlashtirish ishlari ancha soddalashdi. Buning natijasida ilmiy hamjamiyatda korpus lingvistikasi doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar yanada ommalashib, ko‘plab davlatlarda rasmiy milliy korpuslar yaratish loyihalari yo‘lga qo‘yildi. Shu sababli korpus lingvistikasi tilshunoslikning eng jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Dastlabki korpuslar (“Brown Corpus”, “British National Corpus”) tilning umumiy xususiyatlarini, muayyan tildagi chastota qonuniyatlarini o‘rganishga xizmat qilgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan korpus lingvistikasi tilni shaxs, ya’ni muallif atamasi orqali o‘rganishga ehtiyoj sezdi. Bu ehtiyoj tufayli korpus lingvistikasida mualliflik korpuslarini yaratish masalasi ko‘tarildi. Jahon tilshunosligida korpus lingvistikasi ancha yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, mualliflik korpusni tuzish masalasi oxirgi 10 yillikda to‘laroq shakllandi va ko‘pgina natijaga erishildi.

Mualliflik korpusi –muayyan yozuvchi, shoir, olim yoki jamoat arbobining barcha yaratgan matnlari, ularning variantlari, nashr etilish tarixi, janrlar xilma-xilligi va metama’lumotlarni o‘z ichiga olgan maxsus elektron ma’lumotlar bazasi hisoblanadi. Adabiy til rivojiga munosib hissa qo‘shgan buyuk yozuvchilar

asarlarining badiiy asar tilini asrab qolish, butun ko‘lami bilan to‘g‘ri tavsiflash, til egalari uchun namuna vazifasini o‘taydigan model shakliga keltirish adabiy tilni asrash, rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy tilshunoslikda mualliflik korpusi nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, matnshunoslik, sud lingvistikasi va psixolingvistika fanlari uchun fundamental manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi—mualliflik korpusining zamonaviy tilshunoslikdagi metodologik va amaliy o‘rnini Scopus ilmiy bazasi talablari darajasida, chuqur ilmiy faktlar va tahlillarga tayangan holda ochib berishdir.

Korpus lingvistikasining nazariy asoslari D.Biber, R.G.Piotrovskiy, J. Sinclair kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, mualliflik korpuslarini yaratish va ulardan foydalanish masalalari so‘nggi o‘n, yigirma yillikda alohida tadqiqot obyekti bo‘lmoqda. Mualliflik korpuslari umumiy korpuslardan farqli ravishda, muallifning o‘ziga xos tili – “idiolektini” mikrodarajada o‘rganish imkonini beradi.

Xorijiy tadqiqotlarga nazar solsak, aynan mualliflik korpuslari bo‘yicha, J.F.Burrows o‘zining fundamental ishlarida muallifning so‘z tanlash va sintaktik konstruksiyalarni qo‘llash xususiyatlarini aniqlashda korpus ma’lumotlari muhimligini ko‘rsatib o‘tgan. Rossiya tilshunosligida O.N.Lyashevskaya va V.P.Zaxarovlar mualliflik korpuslarini yaratishning lingvistik texnologiyalarini ishlab chiqishgan. Bu borada o‘z millati milliy, adabiy tili asoschisi hisoblangan butun dunyoga mashhur va taniqli adiblar Shekspir, Dante, Gyote, Pushkinlarning adabiy merosi asosida qilingan ishlar, mualliflik korpuslari namuna sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekistonda o‘zbek tili milliy korpusini yaratish ishlari boshlangan bo‘lib, Alisher Navoiy mualliflik korpusi nisbatan tugallangan ish sifatida ko‘rilmoqda. Ammo o‘zbek adabiyotidagi ko‘plab ijodkorlarning (Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va boshqalar) mualliflik korpuslarini yaratish va ularni raqamlashtirish masalalari hali ham yangi va dolzarb tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi.

Mualliflik korpusini yaratish jarayoni murakkab lingvistik va texnologik yondashuvlarni talab qiladi. U quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

– manbalarni tanlash va raqamlashtirish: matnlarning matnshunologik jihatdan eng ishonchli nashrlari tanlanadi.

– leksik-semantik belgilash: har bir so‘zga uning boshlang‘ich shakli (lemmasi), so‘z turkumi va grammatik xususiyatlari kiritiladi.

– metama’lumotlarni shakllantirish: asarning yozilgan yili, janri, mavzusi va nashr qilingan joyi haqidagi ma’lumotlar bazaga biriktiriladi.

Umumiy korpus va mualliflik korpusining taqqoslanishi:

Taqqoslanish	Umumiy korpus	Mualliflik korpusi
Maqsad	Tilning umumiy me’yor va xususiyatlarini o‘rganadi	Muayyan shaxsning idiolektini chuqur tadqiq etadi
Hajmi	O‘nlab yoki yuz, millionlab so‘zlarni qamrab oladi	Bir necha yuz mingdan bir necha million so‘zgacha bo‘lishi mumkin
Xilma-xillik	Turli mualliflar, janrlar va uslublarni aks ettiradi	Bir muallifning turli yillardagi uslubiy evolyutsiyasini shakllantiradi

Mualliflik korpusini tuzish tamoyillarini o‘rgangan holda, mualliflik korpuslarini yaratish uchun turli alifbo, chastotali, ters, semantik-grammatik lug‘atlar yaratish, korpus tuzishning alohida metodologiyasi, konsepsiyasini ishlab chiqish, korpus, lug‘at uchun manba tanlash, korpus razmetkasi, lug‘at maqolasi tuzilishi, leksemani tavsiflovchi belgi, so‘z-shakl belgisi, so‘z qo‘llash holati kabi masalalar bu sohaning asosiy muammolaridan ekanini aniqladik. Mualliflik korpusi muallifning o‘ziga xos sintaktik modellari, ya’ni qanday murakkab gaplar, inversiyalar yoki frazeologik birliklarni afzal ko‘rishini aniqlash imkonini beradi. Masalan, Abdulla Qodiriyning nasriy asarlaridagi sintaktik tuzilmalarni uning tarjimalaridagi tuzilmalar bilan solishtirish orqali o‘ziga xos uslubiy xususiyatlar yuzaga chiqariladi.

O‘zbek tilining boy tarixi va adabiy merosini raqamlashtirish zamonaviy tilshunoslikning eng muhim vazifalaridan biridir. Bugun yaratilgan Alisher Navoiy mualliflik korpusi orqali uning asarlaridagi arabcha, forscha va turkiy so‘zlar nisbatini, sinonimik qatorlarni va leksik-semantik o‘zgarishlarni statistik tahlil qilish mumkin. Chunki Navoiy asarlarining leksik tarkibi juda boy va murakkab.

Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek kabi yozuvchilarning asarlari korpusi tilning XX asr boshidagi evolyutsiyasini, yangi so‘zlar va ma’no ko‘chish jarayonlarini kuzatish imkonini beradi. Bu esa nafaqat til korpusi, balki umuman o‘zbek tilidagi so‘zlarning yashash davri, muhiti, jarayonini tadqiq qilishni qamrab oladi. Mualliflik korpuslari vaqt o‘tishi bilan yozuvchining uslubida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni ko‘rsatib beradi.

Zamonaviy tilda tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari va sun’iy intellekt algoritmlari mualliflik korpuslari bilan integratsiya qilinmoqda.

Har qanday ilmiy loyiha kabi, mualliflik korpuslarini yaratishda ham muayyan qiyinchiliklar mavjud:

1. Muallifning barcha asarlari ham ochiq manbalarda bo‘lmasligi mumkin.

2. Eski o‘zbek yozuvi (kirill, lotin yoki eski o‘zbek yozuvi)dagi matnlarni yagona standartga keltirish (lemmatizatsiya qilish) texnik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

3. Ba’zi qo‘lyozmalarning yozilgan vaqti yoki muallifi aniq bo‘lmagan hollarda korpus ma’lumotlarini to‘liq shakllantirish qiyin.

Korpus loyihasi –uni tuzish bosqichi, keyinchalik takomillashtirish yo‘llarini qamrab olishi mukammal korpus yaratishning asosiy bosqichi. Zamonaviy tilshunoslikda mualliflik korpusini tuzishning umumlingvistik asoslari mavjud. Bular:

–korpusni loyihalash va tuzish bosqichining texnologik jarayoni;

–teglash;

–razmetkalash;

–korpus menejerini qidiruv tizimi sifatida shakllantirish.

Zamonaviy tilshunoslikda mualliflik korpusining o‘rni juda yuqori bo‘lib, u tilni statistik va kompyuter lingvistikasi metodlari asosida o‘rganishning yangi qirralarini ochib beradi. Mualliflik korpusi yordamida nafaqat muallif idiolektini, balki tilning stilistik imkoniyatlarini, leksik-semantik boyligini va tarixiy taraqqiyotini chuqur tadqiq etish mumkin.

Hozirgi o‘zbek tili boshqa tillar kabi tarixiy taraqqiyot yo‘lida juda ko‘p o‘zgarishlarga duch keldi. Bu davrdagi har bir bosqichning o‘ziga xos xususiyatini tadqiq etish maqsadida tilning taraqqiyot bosqichlari to‘liq o‘rganildi va davr tilining o‘ziga xos xususiyati ma’lum bir adib ijodi misolida yoritildi. Ma’lum davrni qamrab oluvchi ijodkorlarning ijodiy merosini o‘zida aks ettirgan birqancha lingvistik ma’lumotlar mavjud bo‘lsa-da, ular maxsus tizimlashtirilgan baza shaklini olmagan. XX asr o‘zbek adabiy tili leksikasi xususiyatlari Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom asarlarining til xususiyatlari misolida tadqiq qilingan. Bunday tadqiqotlarda mualliflik tili leksikasi atroflicha tavsiflangan. Mazkur ilmiy ishlar tilning rivojlanish jarayoni, o‘zgarishlar: ma’no torayishi, kengayishi, isorizm, arxaizm, neologizmlar harakatini kuzatish uchun imkoniyat beradi. Agar bu tadqiqotlar Milliy korpusda yaxlit bir tizim asosida o‘z aksini topsa, yoki mualliflik korpuslari sifatida ishlab chiqilsa, istalgan leksemaning tarixiy taraqqiyot jarayonini turli muallif misolida keng tasavvur qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida mualliflik korpuslarini yaratish va ularni xalqaro Scopus talablariga mos ravishda ilmiy muomalaga kiritish o‘zbek filologiyasini jahon raqamli gumanitar fanlar darajasiga olib chiqishda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонова Н. Замонавий лингвистик корпусларнинг компьютер моделлари. “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, No 1(30), 50-58-p. https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online).

2. Biber, D. (1993).Representativeness in corpus design. *Literary and Linguistic Computing*, 8(4), 243–257.

3. Biber, D., Johansson, S., Leech, G., Conrad, S., & Finegan, E. (1999). *Longman Grammar of Spoken and Written English*. Longman.

4. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2023). *Speech and Language Processing* (3rd ed.). Draft version. Stanford University.

5. Sinclair, J. (1991). *Corpus, Concordance, Collocation*. Oxford University Press.

6. Xamroyeva Sh. Korpus lingvistikasi atamalarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent, 2019.

7. Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусининг тузишнинг лингвистик асослари: **филол. фан. б. фалс. док.** ...дис. афтореф. – Қарши, 2018.

8. Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика. –Иркутск: ИГЛУ, 2011.

Nodira SULEYMONOVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti doktoranti

KONSTRUKTIV JURNALISTIKA VA YECHIMLAR JURNALISTIKASI: ZAMONAVIY MEDIA MAKONIDA INSTITUTSIONAL RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya: mazkur maqolada konstruktiv jurnalistika va yechimlar jurnalistikasining zamonaviy media tizimidagi o‘rni, ularning institutsional shakllanish jarayonlari hamda auditoriya ishonchini tiklashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yechimlar jurnalistikasi yangi media modeli sifatida ko‘rib chiqilib, uning ijtimoiy muammolarni faqat tanqid qilish emas, balki amaliy yechimlar bilan yoritishga qaratilganligi ochib beriladi. Shuningdek, konstruktiv jurnalistika bilan o‘zaro bog‘liqligi, media legitimatsiyasi, jurnalistik qadriyatlar va global media amaliyotidagi transformatsion jarayonlar ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqotda sifat tahlili, qiyosiy tahlil va institutsional yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: *konstruktiv jurnalistika, yechimlar jurnalistikasi, media legitimatsiyasi, yangi institutsional nazariya, auditoriya ishonchi, media transformatsiyasi.*

Annotation: this article analyzes the role of constructive journalism and solutions journalism in the modern media system, as well as their institutional formation processes and significance in restoring audience trust. During the research, solutions journalism is considered as a new media model aimed not only at criticizing social problems but also at covering practical solutions to them. In addition, its interrelation with constructive journalism, media legitimacy, journalistic values, and transformational processes in global media practice are scientifically substantiated. The study employs qualitative analysis, comparative analysis, and institutional approaches.

Key words: *constructive journalism, solutions journalism, media legitimacy, new institutional theory, audience trust, media transformation.*

Аннотация: в данной статье анализируются роль конструктивной журналистики и журналистики решений в современной медиасистеме, процессы их институционального формирования, а также их значение в восстановлении доверия аудитории. В ходе исследования журналистика решений рассматривается как новая медиамодель, направленная не только на критику социальных проблем, но и на освещение практических путей их решения. Кроме того, научно обоснованы её взаимосвязь с конструктивной журналистикой, медийная легитимность, журналистские ценности и трансформационные процессы в мировой медиапрактике. В исследовании использованы методы качественного анализа, сравнительного анализа и институционального подхода.

Ключевые слова: *конструктивная журналистика, журналистика решений, медийная легитимность, новый институциональный подход, доверие аудитории, медиатрансформация.*

Kirish

XXI asrda raqamli kommunikatsiyalar rivoji, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi va axborot oqimining keskin ortishi an’anaviy jurnalistika oldiga yangi muammolarni qo‘ydi. Ayniqsa, “fake news”, manipulyativ kontent va auditoriyaning ommaviy axborot vositalariga bo‘lgan ishonchining pasayishi global media tizimida yangi jurnalistik yondashuvlarga ehtiyojni kuchaytirdi. Shu jarayonda konstruktiv jurnalistika va yechimlar jurnalistikasi zamonaviy media amaliyotining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Yechimlar jurnalistikasi ijtimoiy muammolarni yoritishda faqat salbiy holatlarni ko‘rsatish bilan cheklanmay, ularning samarali yechimlarini ham tahlil qiluvchi jurnalistik model sifatida shakllanmoqda[1: 39]. Bu esa jurnalistikaning ijtimoiy mas’uliyat funksiyasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Konstruktiv jurnalistika esa auditoriyada vahima va pessimistik kayfiyatni kuchaytiruvchi an’anaviy konfliktga asoslangan media modeliga alternativ sifatida maydonga chiqdi[2: 24].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi media makonda auditoriya faqat muammoning o‘zini emas, balki undan chiqish yo‘llarini ham bilishni istamoqda. Shu sababli yechimlarga yo‘naltirilgan jurnalistik materiallarga ehtiyoj ortib bormoqda. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi konstruktiv jurnalistika va yechimlar jurnalistikasining institutsional rivojlanishini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish, shuningdek ularning media legitimatsiyasidagi rolini ochib berish bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi — konstruktiv jurnalistika va yechimlar jurnalistikasining zamonaviy media tizimidagi institutsional xususiyatlarini tahlil qilish hamda ularning auditoriya ishonchini tiklashdagi ahamiyatini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilar:

- konstruktiv jurnalistika va yechimlar jurnalistikasi mohiyatini aniqlash;
- ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish;
- yangi institutsional nazariya asosida media legitimatsiyasi jarayonlarini o‘rganish;
- global media amaliyotida yechimlar jurnalistikasining rivojlanish tendensiyalarini ko‘rsatish.

Asosiy qism

Konstruktiv jurnalistika va yechimlar jurnalistikasi mohiyati

Konstruktiv jurnalistika zamonaviy jurnalistikada pozitiv psixologiya elementlarini qo‘llash orqali ijtimoiy muammolarni muvozanatli va istiqbolli tarzda yoritishni nazarda tutadi[2: 24]. Ushbu yondashuv auditoriyada umidsizlik emas, balki

muammolarni tushunish va ularga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yechimlar jurnalistikasi esa “ijtimoiy muammolarga berilgan javoblarni chuqur va faktlarga asoslangan holda yoritish” sifatida tavsiflanadi[1:37]. Bu model klassik surishtiruv jurnalistikaga yaqin bo‘lib, muammolarning sabablarini ochish bilan birga, amaliy natija berayotgan tashabbuslarni ham tahlil qiladi[3: 1]. Yechimlar jurnalistikasi auditoriya ishonchini tiklash, media iste’molini faollashtirish va jurnalistikaga bo‘lgan qiziqishni oshirish imkoniyatiga ega [4: 68]. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda salbiy kontentning haddan tashqari ko‘payishi fonida konstruktiv media mahsulotlariga ehtiyoj ortmoqda.

Institutsional yondashuv va media legitimatsiyasi

Yangi institutsional nazariya jurnalistikani doimiy ravishda o‘zgarib boruvchi madaniy institut sifatida ko‘rib chiqadi [5: 736]. Mazkur nazariyaga ko‘ra, jurnalistik legitimatsiya umumiy qoidalar, normalar va qadriyatlar asosida shakllanadi. Yechimlar jurnalistikasi aynan shu jihat orqali institutsional tus olmoqda. Turli davlatlarda faoliyat yuritayotgan jurnalistlar, media tashkilotlari va ilmiy markazlar umumiy qadriyatlar asosida hamkorlik qilmoqda. “Solutions Journalism Network” (SJN) kabi xalqaro tashkilotlar bu jarayonning markaziy institutsional platformasiga aylandi[6: 13]. Mazkur tarmoq jurnalistlarni o‘qitish, grantlar ajratish va media hamkorliklarini rivojlantirish orqali yechimlar jurnalistikasining global integratsiya jarayonini tezlashtirmoqda. Bu esa jurnalistikaning yangi tarmoq modeli — “networked organizational form” shakllanishiga olib kelmoqda.

Konstruktiv jurnalistika va auditoriya ishonchi

Bugungi kunda auditoriyaning media tizimiga ishonchi pasayib borayotgani xalqaro tadqiqotlarda ham qayd etilgan[7: 176]. Ayniqsa, konflikt va negativlikka asoslangan yangiliklar insonlarda axborotdan charchash holatini yuzaga keltirmoqda. Konstruktiv jurnalistika esa mazkur muammoni bartaraf etishga urinadi. Unda jurnalist voqeani faqat dramatizatsiya qilmaydi, balki uning ijtimoiy oqibatlari va muammoning yechimlari haqida ham ma’lumot beradi. Shu sababli bu yondashuv auditoriyada “hope” — umid qadriyatini shakllantiruvchi yangi “news value” sifatida talqin qilinmoqda. Masalan, qashshoqlik, ekologik inqiroz yoki ta’lim muammolari haqida tayyorlangan yechimlarga yo‘naltirilgan materiallar auditoriyani passiv kuzatuvchi emas, balki muhokama va ijtimoiy faoliyat ishtirokchisiga aylantiradi. Natijada jurnalistika jamiyatdagi ijtimoiy kapitalni mustahkamlash vositasiga aylanadi.

Tadqiqot metodlari va natijalar

Mazkur maqolada sifat tahlili, qiyosiy tahlil va institutsional yondashuv metodlaridan foydalanildi. Xorijiy ilmiy adabiyotlar, yechimlar jurnalistikasi bo‘yicha dissertatsiyalar hamda xalqaro media tashkilotlari faoliyati tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- konstruktiv jurnalistika va yechimlar jurnalistikasi o‘zaro yaqin konsepsiyalar hisoblanadi;
- yechimlar jurnalistikasi global media tizimida institutsional shakllanish bosqichiga kirgan;
- auditoriya ishonchini tiklashda yechimlarga asoslangan jurnalistik materiallarning samaradorligi yuqori;
- media tashkilotlari uchun hamkorlik, grant tizimi va raqamli platformalar ushbu modelning rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, tadqiqot davomida yechimlar jurnalistikasining asosiy muammolari ham aniqlandi. Jumladan, moliyaviy resurslar yetishmasligi, vaqt tanqisligi hamda ayrim jurnalistlarning ushbu model haqida yetarli bilimga ega emasligi uning keng tarqalishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, konstruktiv jurnalistika va yechimlar jurnalistikasi zamonaviy media tizimining muhim transformatsion yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Ular jurnalistikaning faqat muammolarni ko‘rsatishga qaratilgan an’anaviy modelidan farqli ravishda, ijtimoiy masalalarning amaliy yechimlarini ham tahlil qilishga intiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yechimlar jurnalistikasi yangi institutsional model sifatida global media makonida legitimatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Xalqaro media tarmoqlari, grant dasturlari va jurnalistik hamkorliklar ushbu modelning rivojlanishida muhim rol o‘ynamoqda. Shuningdek, konstruktiv jurnalistika auditoriya ishonchini tiklash, media iste’molini faollashtirish va ijtimoiy optimizmni shakllantirishda samarali vosita bo‘la oladi. Shu sababli O‘zbekiston media tizimida ham konstruktiv va yechimlarga yo‘naltirilgan jurnalistik materiallar sonini ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida ushbu yo‘nalishda: o‘zbek mediasida yechimlar jurnalistikasi amaliyotini o‘rganish, auditoriya reaksiyalarini empirik tahlil qilish, konstruktiv jurnalistikaning ijtimoiy tarmoqlardagi samaradorligini tadqiq etish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Benesch S. The Rise of Solutions Journalism // Columbia Journalism Review. — 1998. — №37. — B. 36–39.
2. McIntyre K., Gyldensted C. Constructive Journalism: An Introduction and Practical Guide for Applying Positive Psychology Techniques to News Production. — London: Routledge, 2018.
3. Hopkinson K., Dahmen N. Solutions Journalism and the News Beyond Problems // Journalism Studies. — 2021. — №1. — B. 1–15.
4. Wenzel A. Community-Centered Journalism and Audience Trust // Journalism Practice. — 2020. — №68. — B. 60–74.
5. Vos T. Journalism as a Cultural Institution // Journalism Studies. — 2020. — №736–745.
6. Steinke A.J. The Institutionalization of Solutions Journalism. PhD Dissertation. — University of Minnesota, 2022.
7. Reese S. The Institutional Press in the Networked Public Sphere. — Oxford University Press, 2021.

Madina KARIMOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti
karimovamadina398@gmail.com

MANIPULYATSIYA NAZARIYASI VA UNING ERISTIK DISKURS BILAN BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya: mazkur maqolada eristik diskurs va manipulyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni nazariy hamda amaliy nuqtayi nazardan o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda ushbu hodisalarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, ularning kommunikativ ta’sir mexanizmlaridagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, eristik muloqotda qo‘llaniladigan manipulyativ strategiyalarni aniqlashga xizmat qiluvchi metodologik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi hamda manipulyatsiyani ochiq argumentatsiya va halol ishontirish jarayonlaridan ajratib turuvchi asosiy mezonlar tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari ommaviy kommunikatsiya vositalari, internet makoni va ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan manipulyativ nutq shakllarini anglash, shuningdek, tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *manipulyatsiya, nutqiy ta’sir, axborot, kommunikativ strategiya, argumentatsiya, psixologik ta’sir, diskurs tahlili, kognitiv manipulyatsiya, tanqidiy fikrlash.*

Аннотация: в данной статье рассматривается взаимосвязь между эристическим дискурсом и манипуляцией с теоретической и практической точек зрения. Анализируются общие и специфические особенности данных явлений, а также раскрывается их роль в механизмах коммуникативного воздействия. Особое внимание уделяется методологическим подходам к выявлению манипулятивных стратегий, используемых в эристической коммуникации, а также описываются основные критерии, позволяющие разграничить манипуляцию, открытую аргументацию и добросовестное убеждение. Результаты исследования имеют важное теоретическое и практическое значение для понимания манипулятивных форм речевого воздействия в средствах массовой коммуникации, интернет-пространстве и социальных сетях, а также для развития навыков критического мышления.

Ключевые слова: *манипуляция, речевое воздействие, информация, коммуникативная стратегия, аргументация, психологическое воздействие, дискурс-анализ, когнитивная манипуляция, критическое мышление.*

Annotation: this article examines the relationship between eristic discourse and manipulation from both theoretical and practical perspectives. It analyzes the common and distinctive features of these phenomena and highlights their role in the mechanisms of communicative influence. Particular attention is paid to the methodological approaches used to identify manipulative strategies within eristic communication, as well as to the criteria that distinguish manipulation from open argumentation and fair persuasion. The findings of the study are of significant theoretical and practical value for understanding manipulative forms of verbal influence in mass communication, the Internet, and social media environments, as well as for fostering critical thinking skills.

Key words: *manipulation, verbal influence, information, communicative strategy, argumentation, psychological influence, discourse analysis, cognitive manipulation, critical thinking.*

Eristik diskurs va manipulyatsiya o‘rtasidagi munosabat murakkab hamda ko‘p qirrali xususiyatga ega. Ushbu ikki hodisani o‘zaro aynanlashtirish ilmiy nuqtayi nazardan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bir tomondan, har qanday eristik diskurs manipulyativ xarakter kasb etmaydi, chunki qarama-qarshi pozitsiyalar o‘rtasidagi ochiq, asoslangan va intellektual jihatdan halol munozara ham eristik muloqot shakli sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Bu singari holatlarda bahsning asosiy maqsadi raqibni chalg‘itish yoki yashirin ta’sir ko‘rsatish emas, balki o‘z pozitsiyasini argumentlar orqali himoya qilishdan iborat bo‘ladi. Boshqa tomondan, manipulyatsiya doimo eristik qarama-qarshilik shaklida yuzaga chiqmaydi. U reklama, siyosiy targ‘ibot, ommaviy axborot vositalari, institutsional kommunikatsiya va kundalik muloqotning turli ko‘rinishlarida ham kuzatilishi mumkin. Unda kommunikativ ta’sir ko‘rsatish yashirin strategiyalar, ma’lumotni selektiv taqdim etish yoki auditoriyaning kognitiv va emotsional xususiyatlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi va bunda ochiq bahs yoki munozara mavjud bo‘lishi shart emas. [1.448]. Shu sababli eristik diskurs va manipulyatsiya o‘rtasidagi munosabatni kesishuvchi, ammo bir-biriga to‘liq mos

kelmaydigan hodisalar sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Ularning umumiy jihati kommunikativ ta’sir va pozitsiyalar kurashi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, maqsadlari, amalga oshirish mexanizmlari hamda pragmatik xususiyatlari jihatidan muhim farqlarga ega. Mazkur farqlarni hisobga olish eristik diskursning chegaralarini aniqlash va uni manipulyativ kommunikatsiyaning boshqa shakllaridan ajratishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarning misli ko‘rilmagan darajada rivojlanishi nutqiy ta’sir va manipulyatsiyaning yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Axborot oqimining tezligi va hajmi inson ongining tanqidiy filtridan o‘tmasdan ta’sir o‘tkazish uchun qulay zamin yaratmoqda. Shu bois eristik diskursdagi manipulyativ jihatlarni o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy – fuqarolarning axborot xavfsizligi va tanqidiy fikrlash madaniyatini shakllantirish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

“Manipulyatsiya” atamasi lotincha *manipulus* (bir hovuch, qo‘l harakati) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab qo‘l bilan bajariladigan mohirona harakatni anglatgan. Keyinchalik atama ko‘chma ma’noda – odamlarni go‘yo qo‘g‘irchoqdek boshqarish, ya’ni ularning xatti-harakatini yashirin tarzda o‘z manfaatiga muvofiq yo‘naltirish ma’nosida qo‘llanila boshlandi.

Manipulyatsiya hodisasi ko‘pqirrali bo‘lgani uchun u turli fanlar – psixologiya, tilshunoslik, siyosatshunoslik, sotsiologiya va jurnalistika doirasida o‘rganiladi. Mazkur sohalarda manipulyatsiya turlicha – psixologik ta’sir, til vositasidagi ta’sir, hukmronlik usuli yoki boshqaruv mexanizmi sifatida talqin etiladi. Bu borada eng nufuzli ta’riflardan birini rus psixologi Yevgeniy Dotsenko taklif etgan. Olimning fikricha, manipulyatsiya – bu psixologik ta’sirning shunday turiki, uning mohirona amalga oshirilishi boshqa shaxsda dastlab unda mavjud bo‘lmagan niyatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. [2.42] Boshqacha aytganda, manipulyatsiya natijasida inson o‘zi anglamagan holda manipulyatorga foydali tarzda harakat qila boshlaydi.

Dotsenko manipulyativ ta’sirning bir necha muhim belgisini ajratib ko‘rsatadi. Bularga, eng avvalo, axborotni maqsadli tarzda o‘zgartirish, ta’sirning yashirin xususiyati, majburlash vositalarining mavjudligi hamda ta’sir nishonlarining aniq belgilanishi kiradi.[2.109] Demak, manipulyatsiyaning tub mohiyatini uchta belgi tashkil etadi: birinchidan, ta’sir yashirin amalga oshiriladi; ikkinchidan, u manipulyatorning manfaati yo‘lida va ko‘pincha adresatning manfaatiga zid tarzda yo‘naltiriladi; uchinchidan, adresat bunda subyekt sifatida emas, balki maqsadga erishish vositasi, ya’ni obyekt sifatida ko‘riladi. Mana shu uch belgi manipulyatsiyani ochiq va halol ta’sirdan farqlovchi asosiy mezon hisoblanadi.

Bundan tashqari, Dotsenko manipulyativ ta’sirning “nishonlari”, ya’ni inson ruhiyatining manipulyatsiyaga moyil sohalari haqidagi tasnifni ham taklif etadi. Olimning fikricha, manipulyator ko‘pincha insonning ehtiyojlari, qiziqishlari va moyilliklariga, shuningdek uning qadriyatlari, e’tiqodlari, dunyoqarashi va o‘ziga bo‘lgan hurmatiga ta’sir o‘tkazadi. [2.120]

Shu o‘rinda manipulyatsiyani unga yaqin tushunchalardan farqlash o‘rinli. Avvalo, manipulyatsiyani *suggestiya,* ya’ni ishontirishdan ham, mantiqiy dalillashdan ham farq qiluvchi, tinglovchining tanqidiy idrokini chetlab o‘tib, unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri singdiriladigan ta’sirdan ajratish kerak. Suggestiya manipulyatsiyaning muhim quroli bo‘lishi mumkin, biroq u manipulyatsiyaning o‘zi emas. Ikkinchidan, manipulyatsiyani ochiq majburlash va dag‘dag‘adan ham farqlash lozim: agar majburlashda ta’sir oshkora bo‘lsa, manipulyatsiyada u har doim yashirin amalga oshiriladi.

Nihoyat, manipulyatsiyaga yondashishda muhim bir metodologik nuqtani ham yodda tutish zarur: u kundalik ongda, qoida tariqasida, salbiy hodisa sifatida baholanadi va bu baho asoslidir, zero u, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, adresatning erkinligini cheklaydi. Biroq ilmiy tadqiqotda manipulyatsiyani axloqiy qoralash birinchi vazifa emas; tadqiqotchining asosiy maqsadi – uni xolisona tahlil qilish, uning til mexanizmlarini ochib berish va aniqlash mezonlarini ishlab chiqishdir.

Til, hokimiyat va mafkura o‘rtasidagi yashirin aloqalarni ochishga qaratilgan tanqidiy diskurs tahlili an’anasi ham nutqiy manipulyatsiyani o‘rganishga muhim hissa qo‘shdi. N.Feyrklaf tilni ijtimoiy amaliyot sifatida talqin qilib, undagi hokimiyat munosabatlari ko‘pincha tabiiy va o‘z-o‘zidan ravshandek ko‘rsatilishini, aslida esa ular mafkuraviy tarzda qurilganligini asoslab berdi. [6.43]Shu bilan birga, ta’sir va ishontirishning psixologik mexanizmlarini amerikalik psixolog R.Chaldini batafsil o‘rgandi. U ishontirishning bir necha umumiy tamoyilini – o‘zaro javob qaytarish, izchillik, ijtimoiy dalil, obro‘ga moyillik kabilarni aniqladi.[7.16] Aytish kerakki, mazkur tamoyillar halol ishontirishda ham, manipulyatsiyada ham qo‘llanilishi mumkin; ularni bir-biridan farqlovchi mezon esa, yana o‘sha – ta’sirning ochiq yoki yashirinligi va adresatning manfaatidir.

Manipulyatsiya muammosi siyosiy soha doirasida ham keng o‘rganilgan.R.Gudin “manipulyativ siyosat”

tushunchasini tahlil qilib, siyosiy manipulyatsiyani fuqarolarning ongiga yashirin ta’sir o‘tkazish orqali ularni o‘z irodasiga zid harakatga undash sifatida ta’rifladi. [8.78] Bundan tashqari, argumentatsiya nazariyasi nuqtayi nazaridan manipulyatsiya tanqidiy muhokama qoidalarining buzilishi sifatida tushuniladi: van Eemeren va Grootendorst ko‘rsatib berganidek, har qanday zohiran, mantiqan to‘g‘ri tuyuladigan, ammo aslida mantiqiy xato yoki ma’nolarni chalkashtirishga asoslangan fikr yuritish usuli (sofizm- yunoncha *sophisma* — “ayyorona mulohaza”, “soxta dalil”) aslida muhokamani oqilona yechimdan chalg‘itadigan, ya’ni manipulyativ harakatdir. [9.208]

G‘arb an’anasidagi mazkur yondashuvlarni umumlashtirar ekanmiz, ularning barchasini birlashtiruvchi muhim bir g‘oyani ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu g‘oya – manipulyatsiyani halol ta’sirdan farqlovchi asosiy mezon adresatning erkinligi va oqilona tanlov imkoniyati ekanligidir. Van Deyk uni kognitiv erkinlik, Feyrklaf – yashirin hokimiyat munosabatlari, pragma-dialektika – muhokama qoidalarining buzilishi, Gudin esa siyosiy iroda erkinligining cheklanishi nuqtayi nazaridan ifodalaydi. Garchi, atamalar turlicha bo‘lsa-da, ularning mohiyati bir: manipulyatsiya – bu adresatni erkin va oqil tanlov imkoniyatidan mahrum qiluvchi yashirin ta’sirdir.

Rus tilshunosligida nutqiy ta’sir va manipulyatsiya nazariyasi alohida boy an’anaga ega. Bu borada I.Sternin nutqiy ta’sirni mustaqil fan sohasi sifatida asoslab, uni inson xatti-harakatiga til vositasida ta’sir o‘tkazish haqidagi ta’limot deb ta’rifladi va nutqiy ta’sirning turli usullari hamda samaradorlik omillarini tahlil qildi.[10.51] O‘z navbatida, mashhur psixolog va psixolingvist Aleksey Leontyev muloqot psixologiyasi doirasida nutqiy ta’sirning ichki mexanizmlarini yoritdi va uni inson faoliyatining ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqdi.[11.271]

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, o‘zbek tilshunosligida nutqiy manipulyatsiya, ayniqsa, eristik diskurs bilan bog‘liq holdagi manipulyatsiya, hozircha alohida va tizimli tadqiqot obyekti sifatida atroflicha o‘rganilmagan. Mavjud ishlar ko‘proq umumiy nutqiy ta’sir yoki matn pragmatikasi doirasida olib borilgan bo‘lib, ularda manipulyatsiya alohida hodisa sifatida ajratib ko‘rsatilmagan.

Shu bilan birga, o‘zbek va umuman Sharq madaniyatida nutqiy axloq, so‘z odobi va halol muloqot masalalariga azaldan katta e’tibor qaratib kelingani diqqatga sazovordir. Mumtoz adabiyot va axloqiy ta’limotlarda rostgo‘ylik, so‘zda halollik va birovni so‘z bilan aldamaslik yuksak qadriyat sifatida ulug‘langan.Bu boy ma’naviy meros, mohiyatan, manipulyatsiyaga – ya’ni so‘z vositasidagi yashirin aldovga axloqiy qarshilik g‘oyasini o‘zida tashiydi. Demak, o‘zbek tilidagi eristik diskursni o‘rganishda nafaqat zamonaviy lingvistik nazariyalar, balki milliy nutqiy axloq an’analari ham hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Кара-Мурза С. Г. Краткий курс манипуляции сознанием //М.: Эксмо.2003. – Т. 448.

2. Доценко Е.Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. – М.: ЧеРо; Издательство МГУ, 1997. – С. 42–59. 120.

3.Кара-Мурза С. Г. Манипулирование сознанием //М.: Алгоритм. – 2000

4. Dijk T.A. van. Discourse and Manipulation // Discourse & Society. – 2006. – Vol. 17, No. 2. – P. 359–383.

5.Dijk T.A. van. Op. cit. – P. 361–365.

6. Fairclough N. Language and Power. – London; New York: Longman, 1989. – P. 43–76.

7. Goodin Cialdini R.B. Influence: The Psychology of Persuasion. – Rev. ed. – New York: Harper Business, 2007. – P. 1–16.

8.R.E. Manipulatory Politics. – New Haven; London: Yale University Press, 1980. – P. 7–28.

9.Eemeren F.H. van, Grootendorst R. Argumentation, Communication, and Fallacies: A Pragma-Dialectical Perspective. – Hillsdale: Lawrence Erlbaum Associates, 1992. – P. 208–217.

10.Стернин И.А. Введение в речевое воздействие. – Воронеж: Полиграф, 2001. – С. 51–72.

11.Леонтьев А.А. Психология общения. – 3-е изд. – М.: Смысл, 1999. – С. 271–284.

Javlon ANORBOYEV,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

FOLKLOR DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING INTEGRATIV TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada umumta’lim maktablarining adabiyot darslarida xalq og‘zaki ijodi (folklor) namunalarini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni joriy etishning metodologik asoslari va integrativ tamoyillari tadqiq etilgan. An’anaviy folklor muhitini raqamli makonda qayta tiklash, o‘quvchilarning audiovizual va texnologik savodxonligini oshirish hamda fanlararo aloqadorlikni ta’minlash masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *folklor, xalq og‘zaki ijodi, raqamli texnologiyalar, integrativ tamoyillar, geymifikatsiya, audiovizualizatsiya, fanlararo aloqa, raqamli didaktika.*

Annotation: this article examines the methodological foundations and integrative principles of implementing digital technologies in teaching folklore (folk oral art) in literature classes at secondary schools. The research scientifically substantiates the issues of reconstructing the traditional folklore environment within the digital space, enhancing students’ audiovisual and technological literacy, and ensuring interdisciplinary connections.

Key words: folklore, folk oral art, digital technologies, integrative principles, gamification, audiovisualization, interdisciplinary connection, digital didactics.

Аннотация: в данной статье исследованы методологические основы и интегративные принципы внедрения цифровых технологий в обучение образцам народного устного творчества (фольклора) на уроках литературы в общеобразовательных школах. Научно обоснованы вопросы воссоздания традиционной фольклорной среды в цифровом пространстве, повышения аудиовизуальной и технологической грамотности учащихся, а также обеспечения межпредметных связей.

Ключевые слова: *фольклор, народное устное творчество, цифровые технологии, интегративные принципы, геймификация, аудиовизуализация, межпредметная связь, цифровая дидактика.*

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar, tafakkur va dunyoqarashning jonli aksidir. Biroq, XXI asr – raqamli texnologiyalar va axborot oqimi davrida o‘sib kelayotgan yangi avlod vakillariga ushbu ko‘hna merosni faqatgina quruq matn va an’anaviy ma’ruza shaklida yetkazish kutilgan pedagogik samarani bermayapti. Bugungi maktab o‘quvchisi axborotni asosan, vizual, dinamik va interaktiv shaklda qabul qilishga moslashgan bo‘lib, matnli ma’lumotlarni bir xil qolipda qabul qilishda toliqish his qiladi. Shu sababli, maktablarda xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘qitish metodikasini raqamlashtirish (digitalization) va bu jarayonni muayyan tizimli tamoyillar asosida qurish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Mazkur jarayonda raqamli texnologiyalar shunchaki texnik vosita emas, balki ta’lim mazmunini boyituvchi va folklor asarining ichki ruhini ochib beruvchi metodik poydevor vazifasini o‘tashi lozim.

Xalq og‘zaki ijodini raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish o‘ziga xos murakkab pedagogik tizim bo‘lib, u ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi o‘rtasidagi muloqotni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi. Bu tizimning muvaffaqiyati bevosita xalq ijodiyoti tabiati bilan zamonaviy texnologik imkoniyatlarning integratsiyalashuv darajasiga bog‘liqdir. Ushbu integratsiyani amalga oshirishda birinchi navbatda, sinestetik, ya’ni audiovizual mutanosiblik tamoyiliga tayanish lozim bo‘ladi. Folklor asarlari, xususan, qahramonlik dostonlari, ertaklar va xalq qo‘shiqlari tabiatan sinkretik xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. An’anaviy ijroda so‘z, musiqiy ohang, mimika va aktyorlik mahorati bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘ladi[1]. Afsuski, an’anaviy darslik shakliga o‘tgan folklor namunasi o‘zining mana shu hayotiyligini va jozibasini yo‘qotib, quruq matnga aylanib qoladi. Raqamli texnologiyalar darsga joriy etilganda esa mazkur sinkretizm qayta tiklanadi. O‘quvchi doston matnini shunchaki o‘qimaydi, balki dars davomida o‘zbek dostonchilik maktablarining yorqin vakillari bo‘lgan baxshilarning jonli ijrosidan olingan audio va video yozuvlarni tinglaydi. Matn, ovoz va vizual tasvirlarning bunday uyg‘unligi o‘quvchining ham eshitish, ham ko‘rish analizatorlarini bir vaqtda faollashtirib, asar syujeti va qahramonlar dunyosiga chuqurroq kirib borishiga xizmat qiladi. Ertaklar o‘qitilayotganda esa ularning multimedia elementlari, 3D modellar va qisqa metrajli animatsiyalar bilan boyitilishi o‘quvchining badiiy tasavvurini kengaytiradi, matndagi ko‘chma ma’noli so‘zlar va arxaizmlarning mohiyatini oson tushunishga imkon beradi.

Pedagogik jarayonning navbatdagi muhim poydevori kontekstual-madaniy muhitni modellashtirish tamoyilidir. Folklor asarini to‘g‘ri va chuqur idrok etish uchun o‘quvchi o‘sha asar yaratilgan yoki uning syujeti kechayotgan tarixiy davr va etnomadaniy muhitni aniq tasavvur qila olishi shart. Masalan, “Alpomish” yoki “Go‘ro‘g‘li” dostonlaridagi xalqona hayot tarzini, o‘tovlarni, qadimiy qurol-aslahalarni va xalq sayillarini bugungi urbanizatsiyalashgan sharoitda yashayotgan o‘quvchiga faqatgina so‘z bilan tushuntirish qiyin kechadi. Shu bois darsda virtual reallik (VR) texnologiyalari yoki 360 darajali video-kontentlardan foydalanish o‘quvchilarni o‘tmishdagi qishloq hayoti, o‘tovlar ichki tuzilishi va qadimiy xalq bayramlari markaziga virtual ravishda sayohat qildirish imkonini beradi. Bunday muhit yaratilganda, o‘quvchi asar qahramonlarining xatti-harakatlarini, ularning kiyinish va muloqot madaniyatini shunchaki eslab qolmaydi, balki

1 Tilavov A. Folklorshunoslik nazariyasi. Ma’ruzalar to‘plami. – Toshkent, 2020

o‘sha madaniy kodlarni o‘zida his qiladi, bu esa milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ta’lim tizimida o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ijodkorga aylantirishni ko‘zda tutuvchi interaktivlik va faol ijodkorlik tamoyili ham markaziy o‘rinni egallaydi[2]. Raqamli didaktika talablariga ko‘ra, texnologiya darsda faqatgina o‘qituvchi namoyish qiladigan slayd bo‘lib qolmasligi, balki o‘quvchining mustaqil izlanishi uchun vositaga aylanishi kerak. Ushbu tamoyilni amalga oshirishda geymifikatsiya, ya’ni o‘yinlashtirish texnologiyalaridan unumli foydalaniladi[3]. Maktab adabiyot darslaridagi kichik janrlar — topishmoqlar, maqollar va matallarni o‘rganishda Wordwall, LearningApps yoki Kahoot kabi platformalarda intellektual o‘yinlar tashkil etilganda o‘quvchilarda jamoaviy ishlash va sog‘lom raqobat muhiti yuzaga keladi. O‘quvchilar virtual kvestlar (web-quest) orqali yashirin topishmoqlarning kalitini izlaydilar, maqollarning tushib qolgan qismlarini to‘ldirish orqali mantiqiy fikrlashlarini rivojlantiradilar. Hozirgi kunda yanada rivojlanayotgan sun’iy intellekt va neyrotarmoq texnologiyalari (masalan, Midjourney yoki ChatGPT) orqali o‘quvchilarga ertak qahramonlarining matndagi ta’rifi asosida ularning tashqi qiyofasini generatsiya qilish vazifasi berilishi mumkin. Bu jarayonda o‘quvchi matnni juda sinchkovlik bilan o‘qishga majbur bo‘ladi, chunki noto‘g‘ri kiritilgan detal qahramon qiyofasini buzib ko‘rsatadi. Natijada o‘quvchilarning ham matn ustida ishlash malakasi, ham raqamli ijodkorlik ko‘nikmalari parallel ravishda o‘sib boradi. Nihoyat, yuqoridagi barcha jarayonlarni yaxlit tizimga birlashtiruvchi omil fanlararo uzviylik va aloqadorlik tamoyilidir. Raqamli muhitda folklor namunalarini o‘qitish faqat adabiyot fanining chegarasi bilan cheklanib qola olmaydi, balki u zamonaviy ta’lim standartlariga mos ravishda integrativ xarakter kasb etadi. Bu o‘rinda adabiyot fani informatika, tarix, musiqa va tasviriy san’at fanlari bilan uzviy bog‘lanadi. Masalan, informatika darslarida olingan dasturlash yoki dizayn ko‘nikmalari adabiyot darsida xalq ertaklari uchun interaktiv taqdimot yoki kichik o‘yin yaratishda amaliyotga tatbiq etiladi. Musiqa fani bilan bog‘liqlik baxshichilik dostonlaridagi milliy cholg‘u asboblari (do‘mbira, qo‘biz) va doston kuylarining o‘ziga xos ritmlarini tahlil qilishda namoyon bo‘ladi. Tarix fani bilan integratsiya esa dostonlardagi voqealarni real tarixiy davrlar, raqamli xaritalar va virtual muzey eksponatlari bilan solishtirish orqali o‘quvchida davr kontekstini aniq shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu fanlararo zanjir o‘quvchining dunyoqarashini kengaytirib, bilimlarni qismlarga bo‘lingan holda emas, balki yaxlit tizim sifatida qabul qilishiga yordam beradi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning integrativ tamoyillari zamonaviy ta’lim samaradorligini kafolatlovchi, darsning didaktik imkoniyatlarini kengaytiruvchi va uni sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko‘taruvchi tizimli pedagogik mexanizmdir. O‘tkazilgan nazariy va metodik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘zbek xalq folklorining o‘ziga xos sinkretik tabiati bilan to‘g‘ri sintez qilinishi umumta’lim maktablari o‘quvchilarining fanga bo‘lgan qiziqishini tubdan o‘zgartirishga qodir. Mazkur integrativ tamoyillar darslik sahifalarida muhrlanib qolgan va zamonaviy o‘quvchi uchun goho tushunarsiz tuyulgan ko‘hna matnlarga raqamli makonda yangicha jon bag‘ishlaydi, ularni vizual va eshitish analizatorlari orqali o‘quvchi qalbi hamda shuuriga yaqinlashtiradi.

Folklor ta’limida raqamli integratsiyani amalga oshirish shunchaki dars jarayoniga texnik vositalarni sun’iy ravishda olib kirish emas, balki ta’lim oluvchining ichki motivatsiyasini uyg‘otuvchi interaktiv o‘quv muhitini loyihalash demakdir. Sinestetik mutanosiblik, kontekstual-madaniy muhitni modellashtirish, interaktivlik va fanlararo uzviylik kabi tamoyillarning dars jarayonida izchil qo‘llanilishi milliy ma’naviy merosimizni asrash va uni kelajak avlodga bezavol yetkazishning eng samarali strategiyalaridan biri hisoblanadi. Zero, ushbu tamoyillar asosida qurilgan ta’lim modeli o‘quvchini passiv tinglovchi yoki oddiy axborot iste’molchisi rolidan chiqarib, uni raqamli resurslar yaratuvchi, matn ustida ijodiy fikrlovchi va tahlil qiluvchi faol subyektga aylantiradi. Bu yondashuv maktab yoshidagi bolalarda xalq donishmandligiga bo‘lgan samimiy hurmat va daxldorlik tuyg‘usini shakllantiradi. Bundan tashqari, ushbu metodologik tamoyillarning amaliyotga tatbiq etilishi zamonaviy ta’limning eng muhim maqsadlaridan biri — o‘quvchilarda kompozitsion kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini ham muvaffaqiyatli hal etadi. Ya’ni, o‘quvchi folklor asarini o‘rganish jarayonida ham tarixiy, ham adabiy-estetik bilimga ega bo‘ladi, ham musiqa va san’at olamini his qiladi, shu bilan bir qatorda, bugungi axborot jamiyatida yashash va faoliyat ko‘rsatish uchun eng zarur hisoblangan raqamli savodxonlik, neyrotarmoqlar bilan ishlash va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini ham uzviy ravishda rivojlantirib boradi. Bu esa o‘zbek adabiyoti ta’limini jahon standartlari darajasiga olib chiqishda muhim qadamdir.

Yakuniy xulosa sifatida ta’kidlash joizki, taklif etilayotgan integrativ tamoyillar nafaqat umumta’lim maktablarining adabiyot darslari sifatini oshiradi, balki kelajakda folklor namunalarini raqamlashtirish bo‘yicha yaratiladigan elektron darsliklar, mobil ilovalar, virtual muzeylar va ta’limiy platformalarning ilmiy-metodik arxitekturasini belgilashda poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot doirasida belgilangan metodik tavsiyalar va tamoyillar maktab ta’limi tizimida xalq og‘zaki ijodini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o‘qitishning istiqbolli yo‘nalishlarini ko‘rsatib beruvchi muhim yo‘l xaritasi vazifasini o‘taydi.

2 To‘xliyev B. Yangi pedagogik texnologiyalar va adabiy ta’lim. “Filologik ta’limda innovatsion texnologiyalar” nomli ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2004.

3 Tolipov Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006
2. To‘xliyev B. Yangi pedagogik texnologiyalar va adabiy ta’lim. “Filologik ta’limda innovatsion texnologiyalar” nomli ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2004.
3. Tilavov A. Folklorshunoslik nazariyasi. Ma’ruzalar to‘plami. – Toshkent, 2020

Дилафруз АХМАДАЛИЕВА,
Наманганский государственный педагогический институт



ТРАНСФОРМАЦИЯ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ КАК ТЕКСТООБРАЗУЮЩИЙ ФАКТОР В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XX ВЕКА: КОГНИТИВНО-ДИСКУРСИВНЫЙ АСПЕКТ

Аннотация: в статье исследуется текстообразующий потенциал окказионально трансформированных фразеологических единиц (ФЕ) в художественном нарративе XX века. На основе когнитивно-дискурсивного подхода и теории концептуальной интеграции Ж. Фоконье и М. Тёрнера анализируются ментальные механизмы деформации устойчивых сочетаний в идиостилях М. А. Булгакова, В. В. Набокова, А. П. Платонова и И. А. Бродского. Выявлена специфика процессов рефрейминга, профилирования латентных слотов и деавтоматизации фразеологического значения. Представлен статистический анализ распределения структурно-семантических модификаций с фокусом на соотношении приемов субституции и буквализации. Доказывается, что окказиональные трансформации ФЕ выступают в качестве облигаторных детерминант, регулирующих категории когезии и когерентности макротекста

Ключевые слова: *фразеологическая трансформация, текстообразование, когнитивный фрейм, концептуальный бленднинг, когезия, когерентность, идиостиль, буквализация, субституция*

Annotatsiya: maqolada XX asr badiiy narrativida okkazional transformatsiyaga uchragan frazeologik birliklarning (FB) matn shakllantirish salohiyati tadqiq etilgan. Kognitiv-diskursiv yondashuv hamda J. Fokonye va M. Ternerlarning konseptual integratsiya nazariyasi asosida M. A. Bulgakov, V. V. Nabokov, A. P. Platonov va I. A. Brodskiy idiostillaridagi turg‘un birikmalar deformatsiyasining mental mexanizmlari tahlil qilingan. Refreyming, latent slotlarni profillashtirish hamda frazeologik ma’noning deavtomatizatsiyalashuvi jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Substitutsiya va bukvalizatsiya (so‘z-ma-so‘z ma’no berish) usullari nisbatiga e’tibor qaratgan holda, struktur-semantik modifikatsiyalar taqsimotining statistik tahlili taqdim etilgan. FBning okkazional transformatsiyalari makromatnning kogeziya (shakliy bog‘liqlik) va kogerentlik (mazmuniy yaxlitlik) kategoriyalarini tartibga soluvchi obligator determinantlar (majburiy belgilovchi omillar) sifatida namoyon bo‘lishi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: *frazeologik transformatsiya, matn shakllanishi, kognitiv freym, konseptual blending, kogeziya, kogerentlik, idiostil, bukvalizatsiya, substitutsiya.*

Annotation: the article explores the text-forming potential of occasionally transformed phraseological units (PUs) in the 20th-century fictional narrative. Drawing on the cognitive-discursive approach and the conceptual integration theory by G. Fauconnier and M. Turner, the author analyzes the mental mechanisms underlying the deformation of idioms within the idiostyles of M. Bulgakov, V. Nabokov, A. Platonov, and I. Brodsky. The study reveals the specific features of reframing, profiling latent slots, and de-automatizing phraseological meaning. It provides a statistical analysis of the distribution of structural and semantic modifications, focusing on the ratio between substitution and literalization techniques. It is demonstrated that occasional transformations of PUs act as obligatory determinants regulating the categories of cohesion and coherence in the macrotext

Key words: *phraseological transformation, text formation, cognitive frame, conceptual blending, cohesion, coherence, idiostyle, literalization, substitution.*

Введение. Современная лингвистическая парадигма характеризуется вектором на интеграцию семантико-стилистического и когнитивно-дискурсивного подходов к исследованию динамических явлений в языке. Одним из наиболее репрезентативных пространств актуализации языковой креативности выступает фразеологический фонд, традиционно манифестирующий устойчивость и консерватизм этнокультурных кодов. В условиях индивидуально-авторского текстопорождения узуальные фразеологические единицы (ФЕ) регулярно подвергаются деструкции. Долгое время подобные процессы рассматривались исключительно в границах экспрессивной стилистики или теории языковой игры. Экспланаторный разворот лингвистического знания требует переосмысления природы окказиональной

деформации ФЕ как глубинного когнитивного процесса, сопряженного с концептуальным моделированием художественного пространства.

Основная часть. Категория текстуализации в когнитивной лингвистике интерпретируется как процесс объективации ментальных пространств субъекта речи. В узуальном состоянии ФЕ функционирует в языковом сознании как жестко структурированный когнитивный фрейм со стабильной сеткой слотов, где связи между компонентами автоматизированы. Окказиональная трансформация нарушает данную стабильность, запуская когнитивный механизм концептуальной интеграции (блендинга), детально описанный в трудах Ж. Фоконье и М. Тёрнера.

Oliy ta’limning asosiy maqsadi – jamiyat rivoji uchun zarur bo‘lgan yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, mustaqil fikrlaydigan va ijodiy yondashuvli mutaxassislarni tayyorlashdir. Bu maqsadga erishishda o‘quv jarayonining o‘zagi bo‘lgan o‘quv dasturlari va ularda foydalaniladigan o‘quv adabiyotlari markaziy o‘rinni egallaydi. Ma’lumki, o‘quv dasturi ma’lum bir mutaxassislik fani bo‘yicha talabalarga berilishi lozim bo‘lgan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, malakalar hamda ularni egallash yo‘llarini belgilovchi hujjatdir. O‘quv adabiyoti esa ushbu dasturda ko‘rsatilgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yordam beradigan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, monografiyalar, ilmiy maqolalar va boshqa turdagi axborot manbalaridir.

Oliy ta’lim tizimida turli bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o‘quv rejalarida belgilangan fanlarning har biri uchun alohida o‘quv dasturlari (sillabuslar) yaratiladi. Mazkur o‘quv dasturlari va sillabuslarining muhim tarkibiy qismi fan uchun tavsiya qilinuvchi adabiyotlar bandi bo‘lib, ushbu band asosiy adabiyotlar, qo‘shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari kabi toifalarga ajratilgan bo‘ladi.

Dasturlar (sillabuslar)ning fan mazmuni qismi, ya’ni mavzular mundarijasi mohiyati, shu mavzular orqali o‘zlashtiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar o‘quv adabiyotlari mazmuniga singdirilgan bo‘ladi. Ta’lim jarayoni mazmunini belgilovchi ushbu ikki komponentning, ya’ni o‘quv dasturi va o‘quv adabiyotining bir-biriga mos va uyg‘un bo‘lishi ta’lim samaradorligining muhim shartidir. Agar o‘quv dasturi zamonaviy talablarga javob bersa-yu, undagi bilimlarni ochib beruvchi adabiyotlar eskirgan, nomutanosib bo‘lsa, ta’lim natijasi kutilgan darajada bo‘lmaydi. Aksincha, o‘quv adabiyotlari mukammal bo‘lsa-yu, o‘quv dasturi dolzarb muammolarni qamrab olmasa, talabalar bilimi zamonaviy talablarga javob bera olmasligi mumkin. Demak, mutanosiblik – bu uyg‘unlik, muvofiqlik va bir-birini to‘ldirish demakdir.

O‘quv dasturi va o‘quv adabiyoti mutanosibligi deganda maqsad va mazmun birligi, darajaviylik va uzviylik, zamonaviylik va dolzarblik, amaliyot bilan bog‘liqlik, metodologik va pedagogik asoslarga ko‘ra moslik tushunilishi mumkin.

Maqsad va mazmun birligi masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘quv dasturida belgilangan ta’limiy maqsadlar (bilim, ko‘nikma, malaka) o‘quv adabiyotlarida aks etgan mazmun bilan to‘liq qamrab olinishi lozim. Ya’ni o‘quv adabiyotlari dasturda ko‘zda tutilgan har bir mavzu, har bir kompetensiyani shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olmog‘i kerak. Aks holda talaba o‘quv dasturini bajarish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni adabiyotlardan topolmay qiynalishi mumkin.

Darajaviylik va uzviylikka kelsak, o‘quv dasturi ma’lum bir fan yoki mutaxassislik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning bosqichma-bosqich, uzviy rivojlanishini nazarda tutadi. Masalan, boshlang‘ich kurslarda asosiy, fundamental tushunchalar berilsa, keyingi kurslarda ularga asoslangan murakkabroq nazariyalar, uslublar va amaliy mashg‘ulotlar o‘rganiladi. Adabiyotlar ham shu tartibda, ya’ni soddadan murakkabga qarab, umumiydan xususiyga yo‘nalgan holda tuzilgan bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, oliy ta’limning asosiy vazifalaridan biri jahon ilm-fani va texnologiyalaridagi eng so‘nggi yutuqlarni o‘quv jarayoniga olib kirishdir. O‘quv dasturi doimo yangilanib turishi, jamiyat va ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashishi lozim. Shu bilan birga, o‘quv adabiyotlari ham eng so‘nggi ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy va madaniy yangiliklarni o‘z ichiga olishi, dolzarb muammolarni yoritishi zarur. Eskirgan adabiyotlar ta’lim mazmunini jahon standartlaridan orqada qoldirishi mumkin. Shu bois o‘quv dasturlarini tuzayotganda so‘nggi yillarda yaratilgan adabiyotlarni berish tavsiya etiladi. Oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv adabiyotlarini tayyorlash tartibi hamda o‘quv adabiyotlarini yaratishga va ulardan oliy ta’lim muassasalarida foydalanishga qo‘yiladigan talablarning 6-bob 33-bandida o‘quv adabiyotlarini yangilash davriyligi belgilab berilgan bo‘lib, unda ijtimoiy-gumanitar va iqtisodiy fanlar bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini har 5 yilda yangilash tavsiya qilinadi [6].

Tahlil va natijalar. O‘quv dasturi o‘z mohiyatiga ko‘ra muayyan fan yoki mutaxassislikni o‘qitishning ilmiy-metodologik asoslarini belgilaydi. O‘quv

adabiyotlari esa ushbu metodologiyani aks ettirishi, talabalar o‘zlashtirishi uchun qulay bo‘lgan uslubda yozilgan bo‘lishi lozim. Xususan, adabiyotlar tili sodda va tushunarli bo‘lishi, ilmiy terminologiya izohlangan bo‘lishi, mavzularni mustahkamlash uchun savollar, testlar, glossariyalar kiritilgan bo‘lishi talabalar uchun qulaylik yaratadi.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlari mutanosibligini ta’minlash ta’lim sifatini oshirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, talabaning fanga va umuman, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, kasbiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, pirovardida global standartlarga moslashish kabi bir qator sabablarga ko‘ra juda muhimdir. Chunonchi, o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlari mutanosibligi natijasida ta’lim jarayonining samaradorligi oshadi, talabalar mavzuni to‘liq va chuqur o‘zlashtiradi, nazariya bilan amaliyot orasidagi bog‘liqlikni anglaydi. Resurslardan samarali foydalanish orqali yangi va mos adabiyotlarni tanlash hisobiga talabalar va o‘qituvchilarning vaqti tejaladi, ma’lumot izlashga ketishi mumkin bo‘lgan vaqtni mazkur ma’lumotlarni o‘zlashtirishga, tahlil qilishga sarflashlari mumkin bo‘ladi.

Zamonaviy, qiziqarli va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan adabiyotlar talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Agar adabiyotlar qiziqarlilik va dolzarblikdan mahrum bo‘lsa, talabaning motivatsiyasi pasayishi mumkin. To‘g‘ri tavsiya qilingan adabiyotlar talabalarning o‘z kasbiy sohalarida yanada rivojlanishlari, yangi bilim va kompetensiyalarni o‘zlashtirishlari uchun zarur bo‘lgan fundamental bilimlarni beradi.

Oliy ta’lim tizimida o‘qitiladigan barcha fanlar o‘quv adabiyotlari bilan birdek ta’minlansa-da, o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlari mutanosibligi o‘quv rejalaridagi fanlar kesimida turli darajada bo‘lishi mumkin (1-jadvalga qarang).

Fan turlari	Mutanosiblik darajasi	Izoh
Fundamental, nazariy fanlar	A’lo	Nisbatan barqaror nazariy fanlarda dastur va adabiyotlar mutanosibligi a’lo darajada bo‘ladi. Adabiyotlar sifatida tavsiya qilinuvchi manbalar soni ham ko‘proq bo‘ladi.
Metodika fanlari	Yaxshi	Bunday zamon bilan hamqadam yuradigan fanlarda ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy tendensiyalar hisobiga tub burilishlar va yangicha yondashuvlar yuzaga keladi, natijada adabiyotlar ortda qolishi mumkin.
Tanlov fanlari	O‘rta	Ko'pincha xorijiy tildagi adabiyot mavjud yoki o'zbek tilidagi manba hali yaratilmagan. Asosan so‘nggi tadqiqotlar, ilmiy maqolalar, elektron resurslar bilan ta’minlanadi.

1-jadval. O‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlarining turli fanlar kesimidagi mutanosibligi

Odatda oliy ta’lim tizimida barqaror tarzda o‘qitilib kelinayotgan fundamental fanlarning adabiyotlar bilan ta’minlanishi, mazkur fanlar bo‘yicha yaratilgan o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlarining mutanosibligi yuqori darajada bo‘lib, bu borada deyarli muammolar kuzatilmaydi. Masalan, o‘zbek tili va adabiyoti, filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv rejalarida muntazam ravishda majburiy fanlar blokida o‘qitiladigan hozirgi o‘zbek adabiy tili, o‘zbek adabiyoti singari mutaxassislik fanlari bo‘yicha tuziladigan dasturlar ham, ushbu dasturlar uchun asos bo‘lgan yoki ular asosida yaratiladigan o‘quv adabiyotlari mazmuni ham nisbatan barqaror deyish mumkin. Bunday deyishimizning sababi, asrimiz boshida va bugungi kunda shu kabi nazariy fanlar mazmunida keskin farq kuzatilmaydi. Yaratilayotgan yangi adabiyotlar zamonaviy tadqiqotlar natijalari bilan boyitilyapti, biroq mutloq tafovutlar mavjud emas.

Metodika fanlarida ham shunday barqarorlik kuzatiladi deyish qiyin, chunki mamlakatimizda metodika sohasida tub burilishlar, yangicha yondashuvlar, jahon tajribasida o‘zini oqlagan metodikalar oqimi kuzatiladi. Tabiiyki, dasturlar bunday jadal rivojlanishni o‘zida aks ettira olsa ham, o‘quv adabiyotlarida bu masalalar to‘liq aks etishi uchun muayyan vaqt talab etiladi.

O‘quv rejalarga kiritiladigan tanlov fanlar nuqtayi nazaridan o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlari mutanosibligini ta’minlash, o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish bir qadar mushkul masala. Sababi o‘quv rejalariga kiritiluvchi fanlar odatda, jahon tajribasiga muvofiq, davr nuqtayi nazaridan dolzarb va ayni vaqtda muhim masalalarni o‘qitishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Tabiiyki, bunday fanlar bo‘yicha o‘quv adabiyotlari yo asosan, xorijiy tilda mavjud bo‘ladi yoki shu fanlar uchun asos bo‘lgan qarashlar, manbalar hali ilmiy ishlar: dissertatsiyalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar shaklida ommaga chiqarilgan, ular asosida hali o‘zbek tilidagi o‘quv adabiyotlari yaratishga ulgurilmagan bo‘ladi.

O‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlarining mutanosibligi ikki xil yo‘l bilan ta’minlanishi mumkin:

1. Mavjud o‘quv adabiyotlaridagi mavzular dasturlarda aynan berilib, o‘quv jarayoni shu asosda amalga oshiriladi. Bu mutanosiblikni to‘liq ta’minlaydi, yuqoridagi jadvalda qayd qilganimizdek, ushbu yo‘l asosan, yaratilgan adabiyotlar yetarlicha miqdorda bo‘lgan nazariy

fanlarda yaxshi natija beradi, lekin tezkor o‘zgarishlarni o‘zida ifodalay olmasligi mumkin.

2. Dastur ishlab chiqilib, shu dastur asosida yangi adabiyotlar yaratiladi. Bunda ham mutanosiblik to‘liq ta’minlanadi. Faqat buning uchun muayyan vaqt talab etiladi. Ushbu yo‘ldan borish asosan, yangi kiritiluvchi tanlov fanlarida ro‘y beradi. Bu holatda ta’lim jarayoni muayyan vaqt xorijiy adabiyotlarga, ilmiy tadqiqotlar, raqamli resurslarga tayanib tashkil qilinadi.

Tanlov fanlari taklifi nisbatan barqarorlashganida, ushbu tanlov fanlarini o‘qitib, darslarga tayyorgarlik jarayonlarida turli manbalardan materiallar to‘plab, ular asosida ma’ruza matnlari va amaliy mashg‘ulot ishlanmalarini yaratib borgan professor-o‘qituvchilar tarkibi tomonidan o‘quv adabiyotlari yaratilib, keyingi o‘quv jarayonlarida takomillashtirilib borilsa, bu kabi muammolarning ham oldi olinadi. Yuklama taqsimoti vaqtida ham tanlov fanlari soatlari taqsimlanayotganida imkon qadar shunday fanlarning o‘quv-uslubiy materiallar majmuasini yaratgan professor-o‘qituvchilarga berilishini nazarda tutish o‘rinli. O‘zbek tilidagi o‘quv adabiyotlari bazasi shakllanmagan fanlarning har yili har xil o‘qituvchilarga taqsimlanib qolishi ham fan bo‘yicha o‘quv adabiyotlarining yaratilmay qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlarining mutanosibligini ta’minlash jarayonida yuqoridagi singari bir qator qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin, ularni quyidagicha tasniflaymiz:

a) moddiy-texnik ta’minot cheklovlari: yangi, zamonaviy o‘quv adabiyotlarini nashr etish, xarid qilish yoki elektron resurslarni taqdim etish uchun mablag‘ va texnik imkoniyatlarning yetishmasligi.

b) nashr jarayonlarining murakkabligi va vaqt talab etishi: yangi darslik va qo‘llanmalarni yaratish, ekspertizadan o‘tkazish, nashrga tayyorlash va chop etish jarayonlarining uzoq davom etishi.

d) o‘qituvchilarning yangi adabiyotlar nashri haqidagi ma’lumotlarga egaligi, shunday adabiyotlarning ommalashishi bilan bog‘liq muammolar: ba’zi o‘qituvchilarning eski, o‘zlari yaxshi bilgan adabiyotlaridan voz kechib, yangilarini o‘rganishga moyil bo‘lmasligi, ayrim hollarda yangi adabiyotlar nashr qilinganidan bexabarligi yoki xabardor bo‘lsa ham, ushbu adabiyotlarning nashr qilingan, elektron variantlarini topa olmasligi.

e) axborot oqimining tezligi: fan va texnologiyalarning tez rivojlanishi natijasida adabiyotlarning tez eskirib qolish xavfi.

Xulosa va takliflar. Qayd qilingan ushbu muammolarning yechimi sifatida elektron kutubxonalar va ochiq ta’lim resurslaridan foydalanishni rag‘batlantirish, nashr jarayonlariga ketadigan vaqtni qisqartirish, elektron nashrlarga ustuvorlik berish, jarayonlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish, yangi nashr qilingan adabiyotlarning elektron variantda ommalashtirilishini qo‘llab-quvvatlash, o‘quv dasturlariga muntazam ravishda yangi ma’lumotlarni kiritib borish, ushbu qo‘shilgan ma’lumotlarni o‘zlashtirishga xizmat qiladigan qo‘shimcha materiallar (onlayn kurslar, ilmiy maqolalar, ma’ruzalar) berib borish, ochiq ta’lim resurslaridan faol foydalanish kabilarni taklif qilish mumkin. Elektron darsliklar, interaktiv qo‘llanmalar, onlayn kurslar, videoma’ruzalar, virtual laboratoriyalar kabi raqamli resurslarga ustuvorlik berish o‘z navbatida, talabalarning fanlarga va umuman, ta’lim jarayoniga nisbatan qiziqishini oshiradi. Bunday resurslar tez yangilanadi, ko‘plab talabaga bir vaqtning o‘zida taqdim etilishi, multimedia elementlari bilan boyitilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlarining bir-biriga mos va mutanosib bo‘lishi ta’lim sifatining muhim kafolatidir. Bugungi kunda jahon ilm-fanining jadal rivojlanishi, texnologiyalarning o‘zgarib borishi sharoitida bu mutanosiblikni ta’minlash tobora murakkablashmoqda, biroq ayni paytda yanada zarur bo‘lib bormoqda. Respublikamizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, zamonaviy darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishni kengaytirish kabi sa’y-harakatlar ushbu muhim vazifani bajarishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mallayeva M.A. O‘quv dasturlari ta’lim sifatining muhim omili sifatida// Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti ilmiy-metodik jurnali, 2024-yil 1-son. 93–98-b. 14. Mallayeva M, maqola 3.pdf

2. Alijonov U.M. Professional ta’lim muassasalari uchun yangi shakldagi zamonaviy o‘quv adabiyotlari yaratish masalalari// Academic Research in Educational Sciences, Volume 4, Issue 5, 2023. 162–167-b. 6467dac9d8dc9644583485.pdf

3. Oliy ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarini yaratishga qanday talablar qo‘yildi?

4. PQ-3775-сон 05.06.2018. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (murojaat sanasi 24.04.2026-yil)

5. 816-сон 10.10.2018. Oliy ta’lim muassasalarini o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash to‘g‘risida (murojaat sanasi 24.04.2026-yil)

6. Oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv adabiyotlarini tayyorlash tartibi hamda o‘quv adabiyotlarini yaratishga va ulardan oliy ta’lim muassasalarida foydalanishga qo‘yiladigan talablar (murojaat sanasi 24.04.2026-yil)

Musharraf ABDULXAYEVA,
Qo‘qon davlat universiteti Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI O‘QUVCHILARDA YOZMA NUTQNI SHAKLLANTIRISHGA OID KASBIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quvchilarda yozma nutqni shakllantirishga oid kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda yozma nutqni shakllantirishning nazariy asoslari, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligi, kreativ fikrlashi hamda zamonaviy ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritishi uchun zarur omillar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *yozma nutq, pedagogik shart-sharoit, kasbiy tayyorgarlik, bo‘lajak o‘qituvchi, kompetensiya, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, kommunikativ yondashuv, metodik tayyorgarlik, ta’lim jarayoni.*

Аннотация: в данной статье с научно-педагогической точки зрения проанализированы педагогические условия развития готовности будущих учителей к профессиональной деятельности по формированию письменной речи учащихся. В исследовании раскрыты теоретические основы формирования письменной речи, вопросы использования педагогических технологий, интерактивных методов и развития профессиональных компетенций. Кроме того, проанализированы факторы, необходимые для методической подготовки будущих педагогов, развития их креативного мышления и эффективной деятельности в современной образовательной среде.

Ключевые слова: *письменная речь, педагогические условия, профессиональная подготовка, будущий учитель, компетенция, интерактивные методы, педагогические технологии, коммуникативный подход, методическая подготовка, образовательный процесс.*

Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda yozma nutqni shakllantirishga oid kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlovchi, shaxsning kasbiy shakllanishini yo‘naltiruvchi hamda o‘qituvchilik faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini aniqlab beruvchi muhim tizimli omil sifatida qaraladi. Bu shart-sharoitlar pedagogik maqsadga erishish jarayonida ichki va tashqi omillar — ya’ni ta’lim mazmuni, tashkil etilgan o‘quv muhitining sifati, kommunikativ munosabatlar darajasi, tashkiliy-menejerlik faoliyati, diagnostik vositalar va metodik resurslarning uyg‘unlik darajasini o‘z ichiga oladi. Shu asosda bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarning yozma nutqni shakllantirishga oid kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi kompleks funksional tizim sifatida shakllantiriladi.

O‘quvchilarni yozma nutqini rivojlantirishda bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarning ruhiy holatini ham hisobga olishlari talab etiladi. R.G.Safarova va boshqa olimlar “Har bir o‘quv vaziyati chuqur o‘ylangan holda loyihalashtirilishi lozim. O‘quv vaziyatining o‘qituvchi tomonidan tuzilgan loyihasi didaktik vaziyatning tavsifi, uning maqsadi, vazifalari, u haqidagi farazlar, o‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan muammolar, o‘quv vaziyatining tahlili, tashqi hamda ichki vositalari, ularni tashkil etish imoniyatlari, pedagogik faoliyat muvaffaqiyatni ta’minlovchi mezonlar tavsifi, vaziyatlarning mazmuni va tarkibini aks ettiruvchi qismlar bayonidan iborat bo‘ladi [7, 3-b.]” – deb ta’kidlagan va “muvaffaqiyat qozonishga yo‘naltirilgan vaziyatlar o‘qituvchilar tomonidan o‘quv jarayonida vujudga keltiriladi. Shuning uchun ham u tom ma’noda o‘quv vaziyati hisoblanadi” [7, 5-b.] deya izohlab uning zanjirsimon bog‘lanishga ega ekanligi haqida o‘zlarining fikr-mulohazalarini bildirganlar.

Ilmiy-pedagogik manbalarda bu holat ko‘p komponentli, integrallashgan va tizimli yondashuv orqali talqin etiladi. Slastenin ta’kidlaganidek, o‘qituvchini tayyorlash jarayoni nafaqat bilimlarni berish, balki “kommunikativ, tashkiliy va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan tashqi va ichki omillar uyg‘unligida pedagogik faoliyatga yo‘naltirilgan kompleks tizimni yaratish”dan [3, 53-b.] iboratdir. Shu bois pedagogik shart-sharoitlar faqat makon va resurslar bilan cheklanmay, balki ta’lim jarayonida kommunikatsiya sifati, ta’lim subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik darajasi hamda kasbiy o‘sishga yo‘naltirilgan tashkiliy model va real diagnostik tahlil mexanizmlari orqali ta’minlanadi [11,152-b].

Xususan, yozma nutqni o‘rgatish bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik shart-sharoitlarning kommunikativ jihatlari o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘qituvchi-o‘qituvchi hamda o‘qituvchi-mentor o‘rtasidagi professional muloqot samaradorligini belgilaydi. Mazkur muloqot jarayoni o‘qituvchining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga, yozma ifoda madaniyatini boyitishga va pedagogik tafakkurning tahliliy komponentlarini faollashtirishga xizmat qiladi. Diagnostik jihatlar esa bo‘lajak o‘qituvchining yozma nutqni o‘rgatish bo‘yicha tayyorgarlik darajasini aniqlash,

uning kuchli va sust jihatlarini ko‘rsatish, shuningdek, individual yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi. Bu borada R.M.Granatov tomonidan taklif etilgan pedagogik monitoring modeli baholash mezonlarini moslashtirish va faoliyatni rivojlantiruvchi tahlil asosida aniqlash zarurligini ilgari suradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish, ularning tarkibidagi kommunikativ, diagnostik va tashkiliy jihatlarning funksional imkoniyatlarini tizimli ravishda uyg‘unlashtirish asosida amalga oshiriladi. Bunday yondashuv shaxsiy salohiyat va kasbiy ehtiyojlar asosida shakllanuvchi, mustaqil va refleksiv faoliyatga tayyor o‘qituvchini tayyorlash imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida, pedagogik maqsadga erishishning muvaffaqiyat darajasini va yozma nutqni shakllantirish bo‘yicha kasbiy faoliyat yo‘nalishini belgilovchi muhim determinanta sifatida xizmat qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik jihatlari, avvalo, ta’lim natijalarini chuqur va tizimli tashxislash, shuningdek, o‘qitish jarayonida yozma nutqni samarali rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish bilan bevosita bog‘liqdir. Bu jarayonning samaradorligini ta’minlashda didaktik faoliyatning markaziy unsurlaridan biri — o‘quv maqsadlari va kasbiy tayyorgarlik mazmunining o‘zaro uyg‘unligi, ya’ni ularning metodik va funksional jihatdan reprezentativligidir. Ushbu uyg‘unlikni ta’minlash esa, o‘z navbatida, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning har bir bosqichida o‘quvchilarning yozma nutq faoliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘zgaruvchan, kontekstual va moslashuvchan metodik mexanizmlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Bu holatda metodik moslashuvchanlik tushunchasi nafaqat o‘quv dasturini yangilash yoki texnologiyalarni integratsiyalash bilan cheklanmaydi, balki har bir o‘qituvchining kasbiy shakllanish darajasiga, o‘quvchilar ehtiyojlariga va darsning didaktik maqsadlariga mos metodik yondashuvlarni tanlash va ularni samarali qo‘llay olish salohiyatini ham o‘z ichiga oladi. Kraevskiy ta’kidlaganidek, o‘quv maqsadining kasbiy tayyorgarlik bilan metodik-mantiqiy mosligi bilimni amaliyotga tatbiq etishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi [4, 132-b.]. Bu yondashuv yozma nutqni o‘rgatish bo‘yicha faoliyatda kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayonida o‘quv maqsadlarining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham funksional bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, zamonaviy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda metodik tizimlar dinamik tarzda tashkil qilinmoqda. Khutorskoy ta’kidlaganidek, shaxsga yo‘naltirilgan kompetensiyaviy modelda ta’lim metodikasi adaptiv, refleksiv va konstruktiv komponentlar asosida qurilishi lozim bo‘lib, bu metodologik yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida yozma nutqni o‘rgatishga doir faoliyatni ta’lim natijalariga yo‘naltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [5, 94-b.].

Yana bir muhim jihat shundaki, o‘quv maqsadlarining kasbiy tayyorgarlik bilan ifodaviy mosligi (ya’ni reprezentativligi) — bu, o‘z navbatida, baholash, refleksiya va tahlil jarayonlarida aniq mezonlar asosida samaradorlikni ko‘rsatishga xizmat qiladi. Shuning uchun o‘qituvchining yozma nutqni o‘rgatishga doir faoliyatini tashxislashda aniq belgilangan maqsadlarga mos yozma topshiriqlar, lingvodidaktik vositalar va monitoring mexanizmlarining tizimli qo‘llanilishi shart. Serikov ta’kidlaganidek, o‘qituvchining kasbiy faoliyati “o‘zgaruvchan pedagogik holatlarga moslashishga qodir, reflektiv-innovatsion kompetensiya asosida shakllangan faol tizim” bo‘lishi zarur [6, 217-b.].

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari o‘quv natijalari, metodik moslashuvchanlik va kasbiy kompetensiya o‘rtasidagi tizimli bog‘liqlikni chuqur nazarda tutgan holda, ta’lim jarayonining har bir bosqichida yozma nutqni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bu esa tayyorgarlik mazmunini samarali va sifatli tashkillashtirish, u orqali natijaviy, amaliy va mustahkam til kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi. Slastenin ta’kidlaganidek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik shart-sharoitlar nafaqat kasbiy tayyorgarlikning sifatini, balki boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [2, 152-b.].

Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda yozma nutqni shakllantirishga oid kasbiy faoliyatga tayyorlash zamonaviy pedagogik ta’limning dolzarb masalalaridan biridir. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

– yozma nutqni shakllantirish o‘qituvchining metodik kompetensiyasiga bevosita bog‘liq;

– pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi;

– bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv va kreativ yondashuvni shakllantirish muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Kelgusida mazkur yo‘nalishda raqamli pedagogika va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida yozma nutqni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Slastenin, V. A. Pedagogika (3rd ed.). Akademiya. 152-b.
2. Xalikov A.A. “Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish” // Ped. fan. dokt. dis. (PhD) avtorefarat. – T., 2018. 53-b.
3. Краевский, В. В. Педагогика: курс лекций. Академия. 2004. – С.132
4. Хуторской, А. В. (2003). Ключевйе компетенции как компонент личностно-ориентированной модели образования. Москва: Наука. – С. 94
5. Сериков, В. В. Обшчая педагогика. Академия. 2010. – С. 217
6. Сафарова Р., Юсупова Ф. ва б. Ўқувчиларнинг билиш фаолиятини кенгайтиришга йўналтирилган ўкув вазиятларини фанлар кесимида лойихалаш. -Т.: «Fan va texnologiya». 2013. – Б.5.

Rayxon RASULOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti;
Farida IBADOVA,
Alfraganus universiteti, ingliz filologiyasi
kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: r.rasulova@cspu.uz

O‘QUVCHILARNING O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INTEGRATIY YONDASHUV

Annotatsiya: ushbu maqolada umumta’lim maktab o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishda integratiy yondashuv asoslari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *til o‘qitish, biologiya ta’limi, integratsiya, CLIL, kommunikativ kompetensiya.*

Аннотация: в данной статье представлены основы интегративного подхода к повышению уровня грамотности чтения у учащихся средних школ.

Ключевые слова: *преподавание языка, биологическое образование, интеграция, CLIL, коммуникативная компетентность*

Annotation: this article discusses the basics of an integrative approach to improving reading literacy among secondary school students.

Key words: *language teaching, biology education, integration, CLIL, communicative competence*

Hozirgi globallashuv sharoitida fan va til o‘rtasidagi chegaralar tobora qisqarib bormoqda. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning tezlashishi, fan, ta’lim, siyosat, ishlab chiqarish, texnika taraqqiyotida aloqadorlik rivojlanishlarning kuchayishi tufayli integratsiyaga qiziqish ortdi. XII-XIV asr G‘arbiy Yevropada ishlab chiqarish kuchlari, savdo-sotiqning rivojlanishi, fanlarning qayta “Uyg‘onish”iga tayyorgarlik ko‘rish davri bo‘ldi. XVI-XVII asrlardan boshlab Yevropadagi barcha yirik davlatlarda, sanoat rivojlanadi, texnika vujudga keladi, mexanik qurollar va mashinalar ixtiro etilib, ishlab chiqarishga tatbiq etila boshlandi. Sharq mamlakatlarida ta’lim va tarbiyaning bir vaqtda olib borilishi ham integratsiyadir. Chunki, dars faqat ta’limiy bo‘lib qolmasdan, o‘quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Integratsiya Farididdin Attorning quyidagi fikrlariga hamohangdir: bu ro‘yi zaminda mayda narsaning o‘zi yo‘q, hamma narsa bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi.

Mashhur mutafakkir Alisher Navoiy Alloh bu olamni aniq bir reja asosida bunyod qilganligi haqida yozar ekan, unda hech bir narsa tasodifiy yaratilmaganligini aytadi. Shoirning fikricha, Yaratuvchi koinotdagi barcha narsa va hodisalarni o‘zaro aloqador holda vujudga keltirgan, shu jihatdan olib qaraganda tabiat son-sanoqsiz uyg‘unliklarning bir butun majmuidan iborat.

Mazkur misralarda Navoiyning tabiat va ilohiyotning bir butunligi (vahdat ul-vujud) nazariyasiga asoslangan konsepsiyasi ham o‘zining qisqacha poetik ifodasini topgan. Shoirning fikricha, olamdagi barcha narsa, hodisa va o‘zgarishlarning ijodkori bo‘lgan Xudo o‘zi yaratgan narsalardan tashqarida emas, balki ular bilan birga, bir butun holda mavjuddir. Shunga ko‘ra, ilohiyot va tabiatni bir-biridan ajratib qarash mumkin emas. Tabiiyotni fan sifatida rivoj topishi (eramizdan oldingi, 384-322 yillar) Aristotelning “Fizika”, “Metafizika” asarlarida o‘z aksini topgan edi. Qadimgi Yunoniston va Sharqda (eramizdan oldingi VI-V asrlar (“Avesto”) falsafa bilan birgalikda naturfalsafa ham yuzaga kelgan. Integratsiya jarayoni differensatsiya bilan mustahkam aloqaga ega bo‘lib, mazkur jarayonlar o‘quv fanlarining tanlanishida, tuzilishida va o‘quvchilar bilimini umumlashtirishda o‘z aksini topadi. «Integratsiya differensiatsiya jarayonlaridagi fanlarning o‘zaro yaqinlashuvi va bog‘liqligida ko‘rinadi.

Tabiatni fan sifatida o‘rganishga va rivojlantirishga Forobiy (950), Abu Ali Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1048) katta hissa qo‘shganlar. XII asr

G‘arbiy Yevropada Yevklid, Geron, Ptolemey, Galen, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino va boshqa mutafakkirlarning tabiatshunoslikka oid asarlari tarjima qilinib o‘rganilgan. Shuning uchun bu asr “tarjima” asri deb atalgan. Fan namoyandalarining tabiat qonunlarini tinmay o‘rganishlari natijasida, tabiiyot fanlarining yangidan yangi sohalari vujudga keldi. Integratsiya atamasi XVIII asrda Spenser tomonidan izohlangan. Integratsiyani tafakkur o‘stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa hamda ta’lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etilgan.

Integratsiya tarixi XX asr ta’lim-tarbiyasida uch bosqichga bo‘linadi, XX asrning 20-yillarda “Tabiat”, “Mehnat” va “Jamiyat” mavzusidagi integrativ kurslar yaratildi. Boshlang‘ich 1-4 sinflar uchun “Atrof olam” va yuqori 5-7 sinflar uchun. “Tabiatshunoslik” integrativ kurslari yaratildi. Bu kurslarda tabiat, inson va jamiyat haqidagi o‘quv materiallari o‘zaro bog‘lanishda aks ettirilgan.

1. Asr boshi (20-yillar) – fanlararo asosda muammoli-kompleks ta’lim (mehnat maktabi, ish maktablar);

2. 50-70-yillar – predmetlararo aloqalar turli ilmiy fanlar; shuning uchun bu ikkinchi bosqichda ta’lim mazmunida integratsiya ustunlik qiladi; pedagoglar 70-yillardagina darsni o‘rganish va tushuntirishga tizimli yondashish zarurligini to‘la angladilar.

3. 80-90-yillar – fanlarning integratsiya usullarini o‘rganish;

XXI asr boshlarida. 4-bosqich boshlanadi – har xil integratsion o‘rganish yondashuvlari, hozirgi vaqtda “konsepsiya” ta’limda integratsiya “tamoyillar, obyektlar (integratsiya jarayonining tarkibiy qismlari), shakllari, turlari, darajalari, yo‘nalishlari, bosqichlari” bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida integrativ yondashuvlarni qo‘llash o‘quvchilarning ko‘p qirrali rivojlanishini ta’minlaydi. PIZA xalqaro baholash dasturida ko‘zda tutilgan o‘qish, matematik hamda tabiiy fanlar savodxonligi o‘quvchi yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlashda zarur bosqichlardan hisoblanadi. Ona til darslarini biologiya, matematika kabi fanlar bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarga ilmiy bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish va ularni xalqaro miqyosda ifodalash imkonini beradi. Integratsiyalashgan ta’lim yondashuvlari konstruktivizm va kommunikativ til o‘qitish nazariyalariga asoslanadi. CLIL modeli bu borada eng samarali yondashuvlardan biri bo‘lib, unda o‘quvchilar fan mazmunini o‘rganish orqali til ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Coyle (2010) ta’kidlashicha, “CLIL nafaqat bilim olish, balki til orqali fikrlashni rivojlantirish vositasidir.” Shu bilan birga, Vygotsky nazariyasiga ko‘ra, til kognitiv rivojlanishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Integratsiyalashgan ta’lim yondashuvlari konstruktivistik pedagogika va kommunikativ til o‘qitish nazariyasiga asoslanadi. Masalan, CLIL modeli bu borada samarali vosita bo‘lib, unda o‘quvchilar biologik mazmunni o‘rganish orqali tilni tabiiy muhitda o‘zlashtiradi.

Coyle va boshqalar (2010) fikricha, “CLIL o‘quvchilarning fikrlash, muloqot va madaniy tushunish kompetensiyalarini birgalikda rivojlantiradi.”

Integratsiyalashgan ta’lim yondashuvlari konstruktivistik pedagogika va kommunikativ til o‘qitish nazariyasiga asoslanadi.

Biologiya va til ta’limini integratsiyalash metodlari:

1. **Terminologik integratsiya.**

Biologik tushunchalarni til ta’limida o‘rgatish (masalan, “cell – hujayra”, “photosynthesis – fotosintez”) o‘quvchilarda ilmiy lug‘at boyligini oshiradi. Bu metod barcha bosqichlarda samaralidir. Biologiya darslarida o‘quvchilar yangi terminlarni o‘rganish bilan birga, ularni ishlatishni mashq qilishadi. Bu ilmiy lug‘atni tabiiy kontekstda egallashga yordam beradi.

2. **Matn asosida o‘qitish (Text-based learning)**

O‘quvchilar biologiyaga oid matnlarni o‘qib, ularni tahlil qiladi va muhokama qiladi. Matn va ilmiy maqolalar bilan ishlashda biologiyaga oid sodda maqolalar yoki matnlar orqali o‘quvchilar o‘qish, tushunish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu ayniqsa Biology va til kompetensiyasini birgalikda shakllantiradi. O‘quvchilarga qisqa moslashtirilgan matn beriladi.

Topshiriqlar:

- matnni o’qing va tahlil qilish
- asosiy g‘oyani aniqlash
- savollarga javob berish

3. Loyihaviy faoliyat

Mavzu: “Ekotizimlar”

O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi va O‘zbekiston hududidagi ekotizimlardan birini tanlaydi (masalan, cho‘l, tog‘ yoki daryo ekotizimi).

Topshiriq: loyiha tayyorlash, taqdimot qilish, vizual materiallardan foydalanish.

“Ekotizimlar” mavzusida loyiha tayyorlab ma’ruza shaklida taqdim etish ham mumkin. Bu usul o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘simliklar yoki hayvonlar haqida loyiha tayyorlab, izohlab taqdim etishadi. Bu nutq, yozish va tushuntirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. Interaktiv metodlar. Rol o‘yinlari (masalan, “olim va jurnalist”), debatlar, prezentatsiyalar orqali o‘quvchilar biologik jarayonlarni ilmiy tilida tushuntiradi. O‘quvchi intervyu uchun savollar tayyorlaydi. Bu metod o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantiradi.

5. Vizual va multimodal yondashuv. Diagrammalar, videolar va infografikalar orqali biologik jarayonlarni tushuntirish ilmiy tilni tushunishni osonlashtiradi.

Masalan, YouTube orqali qisqa ilmiy videolarni tomosha qilib, keyin muhokama qilish orqali o‘quvchilarning ilmiy va kommunikativ kompetensiyasi bir vaqtda rivojlanad hamda motivatsiya kuchayadi.

- Nutqni real kontekstda rivojlantirish osonlashadi
- O‘quvchilarning motivatsiyasi oshadi
- Ilmiy fikrlash va muloqot birgalikda rivojlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida fan va til integratsiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, fanlarni xalqaro standartlar asosida o‘rgatish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Biologiya fanini til ta’limi bilan integratsiyalash o‘quvchilarga nafaqat ilmiy bilimlarni, balki global ilmiy axborotdan foydalanish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Shu asosda quyidagi integratsion metodlarni keng joriy etish mumkin:

Turli tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va bilimlarni uzoq muddatga saqlab qolishga yordam beradi. Dalton-Puffer (2011) o‘z tadqiqotida CLIL o‘quvchilarining akademik til ko‘nikmalari an’anaviy o‘quvchilarga nisbatan yuqori ekanligini qayd etadi.

Shuningdek, biologiya darslarida ilmiy uslubni qo‘llash o‘quvchilarning ilmiy nutqini rivojlantiradi, bu esa ularning kelajakdagi akademik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston o‘rta ta’lim tizimida biologiya va tilni integratsiyalash katta istiqbolga ega. CLIL yondashuvini bosqichma-bosqich joriy etish orqali o‘quvchilarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu esa ularning xalqaro ta’lim va ilmiy muhitga integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Biologiya va til ta’limini integratsiyalash zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. CLIL va unga o‘xshash metodlar orqali o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida ikki kompetensiyani egallaydi: ilmiy va lingvistik. Bu esa ularni global bilim makonida raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge University Press.

2. Dalton-Puffer, C. (2011). “Content-and-Language Integrated Learning: From Practice to Principles?” *Annual Review of Applied Linguistics*.

3. Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M. (2008). *Uncovering CLIL*. Macmillan.

4. Raykhan Rasulova. Formation of text-formating competence of students in the process of literary education based on an integrative approach. THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL SCIENCE AND TEXHNOLOGY. **VOLUME-**4, ISSUE-6, ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024

5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.

6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society*. Harvard University Press.

Tolib AVLIYAQULOV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti
Elektron pochta:kasabauyushma84@gmail.com



TALABALAR AXLOQIY TA'LIM-TARBIYASIDA PEDAGOGIK-QADRIYATLI YONDASHUVLARNI AMALGA OSHIRISHNING MAVJUDLIGI

Annotatsiya: mazkur maqolada talabalar axloqiy ta'lim-tarbiyasida pedagogik-qadriyatli yondashuvlarning mazmuni, mohiyati va ularni amalga oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida qadriyatlar asosida tarbiyalashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilib, bu yondashuvning samaradorligini oshirishga oid tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: *axloqiy tarbiya, qadriyat, pedagogik yondashuv, talaba shaxsi, ma'naviyat, aksiologiya, ta'lim tizimi.*

Аннотация: в данной статье анализируются содержание, сущность и возможности педагогико-ценностно-ориентированных подходов в нравственном воспитании студентов. Также освещаются теоретические и практические аспекты ценностно-ориентированного образования в системе высшего образования и даются рекомендации по повышению эффективности этого подхода.

Ключевые слова: *нравственное воспитание, ценности, педагогический подход, личность студента, духовность, аксиология, система образования.*

Annotation: this article analyzes the content, essence and possibilities of pedagogical-value-based approaches in the moral education of students. It also highlights the theoretical and practical aspects of value-based education in the higher education system and provides recommendations for increasing the effectiveness of this approach.

Key words: *moral education, value, pedagogical approach, student personality, spirituality, axiology, education system.*

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar, xususan, talabalar axloqiy tarbiyasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida nafaqat bilim berish, balki yuksak ma'naviyatli, axloqan yetuk shaxsni shakllantirish ham asosiy vazifalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik jarayonda qadriyatlarga asoslangan yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axloqiy madaniyat shaxsning ichki dunyosi, uning dunyoqarashi va xulq-atvori bilan bevosita bog'liq bo'lib, uni shakllantirishda ta'lim muassasalarining roli katta.

1. Pedagogik-qadriyatli yondashuv tushunchasi. Pedagogik-qadriyatli (aksiologik) yondashuv — bu ta'lim jarayonini insoniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda tashkil etishdir. Ushbu yondashuvda talaba shaxs sifatida markazga qo'yiladi va uning axloqiy, ma'naviy rivojlanishi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlarga ko'ra, qadriyatlarga asoslangan yondashuv talabalarni kasbiy va axloqiy jihatdan tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi .

2. Talabalar axloqiy tarbiyasida qadriyatlarning o'rni

Axloqiy tarbiya quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- axloqiy ong
- axloqiy dunyoqarash
- axloqiy xulq
- axloqiy me'yorlarga rioya qilish

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, axloqiy madaniyat — bu insonning jamiyatdagi o'z o'rnini anglash va unga mos ravishda harakat qilishidir.

Talabalarda quyidagi qadriyatlarni shakllantirish muhim:

- vatanparvarlik
- halollik
- mas'uliyat
- ijtimoiy faollik
- bag'rikenglik

3. Pedagogik-qadriyatli yondashuvni amalga oshirish mexanizmlari

Ushbu yondashuvni ta'lim jarayonida amalga oshirish quyidagi yo'llar orqali olib boriladi:

a) Ta'lim mazmunini qadriyatlar asosida boyitish

O'quv dasturlariga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali talabalarda axloqiy qarashlar shakllantiriladi.

b) Tarbiyaviy muhit yaratish

Pedagogik muhitda hurmat, hamkorlik va ijobiy munosabatlar ustuvor bo'lishi kerak.

c) Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv

Talabaning individual xususiyatlarini hisobga olish orqali uning ichki salohiyati rivojlantiriladi.

d) Refleksiya va o‘z-o‘zini rivojlantirish

Talabalarga o‘z xatti-harakatlarini baholash imkonini berish muhimdir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida o‘z-o‘zini anglash va o‘zini namoyon qilish imkoniyatlari yaratilsa, bu axloqiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi .

4. Zamonaviy oliy ta’limda aksiologik yondashuvning ahamiyati

Zamonaviy ta’lim tizimida qadriyatlar asosida yondashuv quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- talabaning shaxs sifatida shakllanishi
- kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishi
- ijtimoiy moslashuvning kuchayishi

Oliy ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida aksiologik yondashuv muhim metodologik asoslardan biri sifatida qaralmoqda.

5. Amaliy natijalar va muammolar

Pedagogik-qadriyatli yondashuvni joriy etishda quyidagi natijalarga erishiladi:

- talabalarda mustaqil fikrlash rivojlanadi
- axloqiy barqarorlik shakllanadi
- ijtimoiy mas’uliyat kuchayadi

Biroq ayrim muammolar ham mavjud:

- nazariyaning amaliyotga to‘liq joriy etilmasligi
- pedagoglarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi
- qadriyatlarga oid yagona tizimning yo‘qligi

6. Pedagogik-qadriyatli yondashuvning metodologik asoslari

Talabalar axloqiy tarbiyasida pedagogik-qadriyatli yondashuvning samaradorligi uning metodologik asoslariga bog‘liqdir. Ushbu yondashuv falsafa, pedagogika, psixologiya va aksiologiya fanlari bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Ayniqsa, insonparvarlik tamoyillari, milliy qadriyatlar hamda umuminsoniy axloqiy me’yorlar mazkur yondashuvning nazariy poydevorini tashkil etadi.

Aksiologik yondashuvning asosiy metodologik tamoyillari quyidagilardan iborat:

- insonni oliy qadriyat sifatida tan olish;
- shaxs erkinligi va mas’uliyatining uyg‘unligi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning integratsiyasi;
- ta’lim va tarbiyaning uzviyligi;
- shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishiga ko‘maklashish.

Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan pedagogik faoliyat talabaning nafaqat intellektual, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan ham kamol topishiga xizmat qiladi.

7. O‘qituvchining pedagogik-qadriyatli faoliyati

Talabalarning axloqiy tarbiyasida pedagog shaxsi muhim o‘rin tutadi. Chunki talaba ko‘pincha o‘qituvchini nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki ma’naviy namuna sifatida ham qabul qiladi. Shu sababli pedagog quyidagi kasbiy va axloqiy sifatlarga ega bo‘lishi zarur:

- pedagogik madaniyat;
- kommunikativ kompetentlik;
- bag‘rikenglik;
- adolat va xolislik;
- innovatsion fikrlash;
- ma’naviy yetuklik.

O‘qituvchi dars jarayonida talabalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish uchun interfaol metodlardan samarali foydalanishi lozim. Jumladan:

- munozara va debatlar;
- muammoli vaziyatlar tahlili;
- “Case study” metodlari;
- rolli o‘yinlar;
- refleksiv mashg‘ulotlar.

Bunday metodlar talabalarni mustaqil fikrlashga, o‘z pozitsiyasini himoya qilishga va axloqiy qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, talabalar axloqiy ta’lim-tarbiyasida pedagogik-qadriyatli yondashuvni amalga oshirish zarur va samarali yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali talabalarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning ma’naviy-axloqiy sifatlari ham rivojlanadi.

Kelgusida quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- pedagoglarni aksiologik yondashuv bo‘yicha tayyorlash
- ta’lim dasturlarini qadriyatlar asosida takomillashtirish
- innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunova M.S. Talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirishning ilmiy pedagogik jihatlari. 2025.
2. Avliyaqulov T. Talabalar kasbiy-axloqiy tayyorgarligiga qadriyatlarga asoslangan yondashuv. 2025.
3. Tohirova G.Y. Oliy ta’lim pedagogikasini modernizatsiyalashning aksiologik asoslari. 2024.
4. Hasanov Ch.U., Taylanova Sh.Z. Pedagoglarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish. 2025.
5. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. – Toshkent, 2023.
6. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2017.
7. Hamidova M. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent, 2008.

Avazbek QORABOYEV,
HX va MU ning Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti dotsenti

KURSANTLARDA VATAN HIMOYACHISI SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada harbiy ta'lim tizimida kursantlarda vatan himoyachisi sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning ahamiyati ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, muammoli ta'lim, raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv hamda amaliy mashg'ulotlarning kursantlarning ma'naviy-ruhiy, intellektual va kasbiy tayyorgarligiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali kursantlarda vatanparvarlik, liderlik, mas'uliyat, tezkor qaror qabul qilish va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berildi. Tadqiqot natijalari harbiy ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *harbiy pedagogika, innovatsion ta'lim, kursant, vatanparvarlik, kompetensiya, interfaol metodlar, liderlik, harbiy ta'lim, pedagogik texnologiya, ma'naviy tarbiya.*

Annotation: this article scientifically and pedagogically analyzes the importance of innovative pedagogical approaches in the formation and development of defender-of-the-motherland qualities among cadets in the military education system. During the research, the influence of interactive methods, problem-based learning, digital technologies, competency-based approaches, and practical training on cadets' moral, intellectual, and professional preparation was studied. Furthermore, the possibilities of developing patriotism, leadership, responsibility, rapid decision-making, and teamwork skills in cadets through innovative pedagogical technologies were substantiated. The research results demonstrate that modern pedagogical approaches play a significant role in improving the effectiveness of military education.

Key words: *military pedagogy, innovative education, cadet, patriotism, competence, interactive methods, leadership, military education, pedagogical technology, moral education.*

Аннотация: в данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируется значение инновационных педагогических подходов в формировании и развитии качеств защитника Родины у курсантов в системе военного образования. В ходе исследования было изучено влияние интерактивных методов, проблемного обучения, цифровых технологий, компетентностного подхода и практических занятий на духовно-нравственную, интеллектуальную и профессиональную подготовку курсантов. Также обоснованы возможности развития у курсантов патриотизма, лидерских качеств, ответственности, навыков оперативного принятия решений и командного взаимодействия посредством инновационных педагогических технологий. Результаты исследования показывают, что современные педагогические подходы занимают важное место в повышении эффективности военного образования.

Ключевые слова: *военная педагогика, инновационное образование, курсант, патриотизм, компетенция, интерактивные методы, лидерство, военное образование, педагогическая технология, духовно-нравственное воспитание.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda davlat xavfsizligini ta'minlash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda harbiy kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish eng muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, harbiy oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kursantlarni nafaqat zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish, balki ularda Vatanga sadoqat, harbiy burchga fidoyilik, mas'uliyat, qat'iyatlilik va intizom kabi fazilatlarni shakllantirish muhim pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki zamonaviy harbiy xizmatchi yuqori darajadagi nazariy tayyorgarlik bilan bir qatorda, murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qila oladigan, psixologik jihatdan barqaror hamda jamoaviy boshqaruv ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Pedagogik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, ta'lim samaradorligi o'quv jarayonida qo'llanilayotgan metod va texnologiyalarning mazmuniga bevosita bog'liqdir [1]. Shu sababli bugungi kunda harbiy ta'lim tizimida an'anaviy o'qitish metodlaridan innovatsion pedagogik yondashuvlarga o'tish zarurati ortib bormoqda. An'anaviy metodlar asosan, tayyor bilimlarni yetkazishga qaratilgan bo'lsa, innovatsion yondashuv kursantning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va amaliy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi [2].



Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, raqamli platformalar, simulyatsion mashg‘ulotlar va kompetensiyaviy yondashuv kursantlarning kasbiy va ma’naviy sifatlarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bunday metodlar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, kursantlarning liderlik, tashabbuskorlik va strategik tafakkurini ham rivojlantiradi [3]. Shu nuqtai nazardan, harbiy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi kursantlarda vatan himoyachisi sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslashdan iborat.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish, suhbat, umumlashtirish va tahliliy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida harbiy oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarning mazmuni va samaradorligi o‘rganildi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarning kursantlar tayyorgarligiga ta’siri tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hamda faoliyatga asoslangan pedagogik konsepsiyalar tashkil etdi. Kompetensiyaviy yondashuv kursantlarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki amaliy faoliyatga tayyorligini ham rivojlantirishga xizmat qiladi [4]. Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim kursantlarning individual qobiliyatlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitishni tashkil etishni nazarda tutadi.

Tadqiqot davomida quyidagi innovatsion pedagogik texnologiyalar samaradorligi tahlil qilindi:

- interfaol ta’lim metodlari;
- muammoli o‘qitish texnologiyasi;
- “Case-study” usuli;
- simulyatsion va trening mashg‘ulotlari;
- multimedia vositalari;
- raqamli ta’lim platformalari;
- jamoaviy hamkorlikka asoslangan ta’lim.

Interfaol metodlar kursantlarning dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, muammoli o‘qitish texnologiyasi ularda analitik va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi [2]. Simulyatsion mashg‘ulotlar esa harbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan vaziyatlarni modellashtirish orqali kursantlarning amaliy tayyorgarligini kuchaytiradi. Raqamli texnologiyalar va multimedia vositalari esa o‘quv materiallarining vizualligini oshirib, axborotni tezroq va samaraliroq o‘zlashtirish imkonini yaratadi [5].

Mazkur metodlar kursantlarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, ularni real harbiy vaziyatlarga tayyorlash va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik yondashuvlarning kursantlarda vatan himoyachisi sifatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Kuzatishlar davomida interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda kursantlarning darsdagi faolligi, mustaqil fikrlashi va muloqot ko‘nikmalari sezilarli darajada oshgani aniqlandi.

Xususan, “Aqliy hujum”, “Debat”, “Case-study”, “Rolli o‘yinlar” va jamoaviy muhokama metodlari kursantlarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, tezkor qaror qabul qilish hamda o‘z fikrini asosli ravishda himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Bunday metodlar kursantlarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, ularning o‘quv motivatsiyasini oshirdi [1].

Simulyatsion va trening mashg‘ulotlari kursantlarda harbiy faoliyatga oid amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qildi. Harbiy vaziyatlarni modellashtirish asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar kursantlarning stressga chidamliligi, liderlik qobiliyati, jamoani boshqarish va tezkor vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Bu esa harbiy tayyorgarlik sifatini oshirishga xizmat qildi.

Raqamli texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish natijasida o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligi oshdi. Elektron platformalar, virtual simulyatorlar va multimedia materiallari kursantlarning axborotni tezroq qabul qilishi hamda mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirdi [5].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion pedagogik yondashuvlar kursantlarning quyidagi sifatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi:

- Vatanga sadoqat va vatanparvarlik hissi;
- harbiy mas’uliyat;
- intizomlilik;
- liderlik kompetensiyasi;
- jamoaviy boshqaruv ko‘nikmalari;
- mustaqil qaror qabul qilish;
- psixologik barqarorlik;
- strategik fikrlash qobiliyati.

Shuningdek, innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda kursantlarning o‘zlashtirish darajasi va amaliy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari an’anaviy metodlarga nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi. Bu esa innovatsion pedagogik texnologiyalarning harbiy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Muhokama. Bugungi kunda harbiy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biriga aylanmoqda. Chunki hozirgi davr harbiy mutaxassisi faqat nazariy bilimlarga ega bo‘lish bilan cheklanib qolmasdan, murakkab va tezkor vaziyatlarda strategik fikrlay oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan hamda jamoa bilan samarali ishlash kompetensiyalariga ega bo‘lishi kerak.

An’anaviy o‘qitish tizimi ko‘proq tayyor bilimlarni yetkazishga qaratilgan bo‘lsa, innovatsion pedagogik yondashuv kursantni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi [3]. Bu esa kursantlarning o‘quv motivatsiyasi va kasbiy faolligini oshirish bilan bir qatorda, ularda ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlarning muhim afzalliklaridan biri shundaki, ular kursantlarni erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlarni mustaqil tahlil qilishga va jamoaviy faoliyat olib borishga o‘rgatadi. Ayniqsa, harbiy ta’limda qo‘llaniladigan simulyatsion mashg‘ulotlar kursantlarning real harbiy vaziyatlarga moslashuvchanligini oshiradi hamda amaliy tayyorgarligini mustahkamlaydi [6].

Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar harbiy ta’limning moslashuvchanligi va samaradorligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Elektron platformalar, virtual laboratoriyalar va multimedia vositalari kursantlarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi.

Biroq innovatsion texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi, ayrim pedagoglarning raqamli kompetensiyasi pastligi, elektron resurslar bilan ta’minlashdagi cheklovlar va zamonaviy simulyatsion vositalarning yetishmasligi innovatsion ta’limni to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun harbiy pedagoglarning malakasini oshirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, zamonaviy simulyatsion vositalarni joriy etish hamda innovatsion metodlarni amaliyotga keng tatbiq etish zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kursantlarda vatan himoyachisi sifatlarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar kursantlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda, ularning ma’naviy-axloqiy, psixologik va intellektual sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlar, muammoli ta’lim, simulyatsion mashg‘ulotlar hamda raqamli ta’lim vositalari kursantlarning mustaqil fikrlash, liderlik, strategik tafakkur va jamoaviy hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, innovatsion pedagogik texnologiyalar kursantlarni real harbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kelgusida harbiy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni yanada keng joriy etish, elektron ta’lim platformalarini takomillashtirish, simulyatsion mashg‘ulotlar ulushini oshirish hamda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.* – Toshkent: Fan, 2017. 240-b.
2.Ishmuhamedov R. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar.* – Toshkent: Iste’dod, 2019. 318-b.
3.Klarin M. V. *Innovatsionnye modeli obucheniya.* – Moskva: Nauka, 2018. 286 s.
4.Richards J. C., Rodgers T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching.* – Cambridge University Press, 2014. 410 p.
5.Azizxo‘jayeva N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* – Toshkent: TDPU, 2016. 192-b.
6.Dewey J. *Democracy and Education.* – New York: Macmillan, 2015. 456 p.

Насиба НИЯЗОВА,
профессор кафедры Узбекского языка и литературы
Ташкентского государственного
юридического университета
кандидат педагогических наук
E-mail: n.niyazova@tsul.uz, iztdyu@mail.ru



ТРУДНЫЕ СЛУЧАИ СИНТАКСИЧЕСКИХ НОРМ ПРИ СОСТАВЛЕНИИ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ – ЮРИСТОВ

Аннотация: в данной статье представлен ряд трудностей, возникающих при выборе форм управления и согласования, построения предложения, использования деепричастного оборота, нужного предлога. Кроме этого описаны сложные синтаксические нормы научного и официально-делового стилей речи.

Ключевые слова: *синтаксические нормы, предлоги, предложно-падежные формы, монологическая речь, переходные глаголы, синтаксическая сложность.*

Annotatsiya: ushbu maqolada boshqaruv va moslashuv shakllarini tanlash, gap tuzish, ravishdosh oborotini qo‘llash, kerakli predlogni tanlashda yuzaga keladigan bir qator qiyinchiliklar keltirilgan. Bundan tashqari, ilmiy va rasmiy-idoraviy nutq uslublarining murakkab sintaktik me’yorlari bayon etilgan.

Tayanch iboralar: *sintaktik me’yorlar, predloglar, predlog-kelishik shakllari, monologik nutq, o‘timli fe’llar, sintaktik murakkablik.*

Annotation: this article presents a number of difficulties that arise when choosing forms of management and coordination, constructing a sentence, using the adverbial modifier, and using the necessary preposition. In addition, complex syntactic norms of scientific and official-business speech styles are described.

Key words: *syntactic norms, prepositions, prepositional-case forms, monologic speech, transitive verbs, syntactic complexity.*

Синтаксические нормы определяются структурой языка и так же, как и другие нормы (орфоэпические, морфологические) претерпевают изменения в процессе развития языка. В синтаксисе, как в никаком другом разделе языка, наблюдается ряд трудностей, возникающих при выборе форм управления и согласования, построения предложения, использования деепричастного оборота, нужного предлога при построении монологической речи.

Количество синтаксических норм чрезвычайно велико и описать их все невозможно, поэтому мы ставим целью отметить наиболее сложные и наиболее часто употребляемые в официально-деловом стиле речи синтаксические явления.

Некоторую трудность представляют варианты норм, связанных с управлением при предложно-падежных формах. При управлении возможны конструкции с синонимичными предлогами и такие случаи, когда при одном управляющем слове выступают различные предложно-падежные формы, выражающие разный смысл.

Синонимические отношения связывают многие предлоги, поэтому при управлении можно выбрать две формы, например: нож, изъятый с места происшествия – нож, изъятый на месте происшествия; по отбытии срока наказания – после отбытия срока наказания.

В современном русском языке при построении монологической речи всё большее распространение получает предлог «по», ставший синонимом предлогов «о», «для», «на», «до» и беспредложных словосочетаний: заключение по уголовному делу (об); пункт по охране общественного порядка (пункт охраны). Во многих местах этот предлог уместен: следователь по особо важным делам (предлог указывает на сферу деятельности): уголовная ответственность по статье…УК РУз (предлог указывает на отношения в определённой области). Иногда предлог «по» используется неправильно: следственная

группа по убийству К. (предлог создаёт некоторую двусмысленность).

Предлог «по» управляет преимущественно дательным падежом, например: грустить по сыну, по дедушке; проявить по отношению и так далее. Однако с местоимениями 1 и 2 лица, а также со словами, выражающими временные отношения, предлог «по» (в значении «после») управляет предложным падежом, например: грустить по нас, скучать по вас, по истечении срока, по прошествии долгого времени, по окончании следствия.

Предлоги «благодаря, согласно, вопреки» также управляют дательным падежом, хотя раньше предлог «согласно» управлял родительным падежом, например: согласно объяснениям соседей, согласно статье…УК РУз*, благодаря помощи общественности; вопреки* объяснениям подозреваемого; вопреки оперативным действиям милиции. Предлог «благодаря» употребляется в основном для указания причины, вызвавшей положительный результат. Поэтому будет ошибочной фраза «Брак был допущен благодаря его невнимательности» (нужно: «из-за его невнимательности»).

Иногда при управляющем слове могут выступать различные формы, выражающие разный смысл. Например, переходные глаголы в конструкции с отрицанием управляют родительным и винительным падежом (сравнить: не причинить ущерб – не причинить ущерба, не соблюдать требований – не соблюдать требования). Наблюдения показывают, что форма родительного падежа подчёркивает отрицание: не обнаруживает признаков жизни. Винительный падеж конкретизирует объект и ослабляет отрицание: не объяснил причину, не признал вину.

Очень трудно воспринимается на слух «нанизывание» падежей, то есть расположение цепочкой нескольких одинаковых падежей: «с целью улучшения использования средств автоматизации труда». Предложение будет звучать лучше, если отглагольное существительное заменить инфинитивом: чтобы улучшить использование.

Одной из сложных синтаксических норм научного и официально-делового стилей речи является использование так называемого расщеплённого сказуемого, выраженного вспомогательным глаголом + отглагольным существительным, например: оказать помощь, осуществить строительство, принять участие, принять во внимание и так далее. Между частями «расщеплённого» сказуемого возможны различные уточняющие вставки – прилагательные, причастия, местоимения, числительные и так далее, например: заключить незаконченную сделку, совершить две кражи, обвинить в умышленном убийстве. Конструкции с «расщеплённым» сказуемым часто приобретают значение терминов, представляют собой многочленное терминированное словосочетание и становятся однозначными при передаче информации в определённой речевой сфере, например: совершить умышленное повреждение средств сигнализации, совершить убийство при превышении пределов необходимой обороны. В таких случаях использование «расщеплённого» сказуемого уместно, т.к сочетания «умышленно повредил средства сигнализации, убил при превышении пределов необходимой обороны» менее конкретны и не могут выступать в качестве терминов. Однако, если оборот с «расщеплённым» сказуемым не выражает специальное понятие, то он воспринимается как громоздкая неуместная конструкция, затемняющая смысл высказывания, например: назначить экспертизу для устранения противоречий показаний свидетелей *(Назначить экспертизу, чтобы устра*нить противоречия в показаниях свидетелей).

Синтаксическую сложность может вызывать употребление деепричастного оборота. Деепричастный оборот, как известно, обозначает действие, добавочное к действию глагола, и относится к подлежащему данного предложения: ознакомившись с показаниями, он подписал протокол допроса (он – подписал и он же ознакомился). Стилистическим нарушением является употребление деепричастного оборота, если он не обозначает действия лица, которое в предложении является подлежащим (то есть субъекты действия деепричастия и сказуемого должны совпадать), например: находясь в состоянии алкогольного опьянения, между ними возникла ссора («находясь» относится не к ссоре, а к ссорящимся – к ним). Деепричастный оборот не может также употребляться в страдательной конструкции, в безличном или неопределённо-личном предложении, так как в этом случае происходит смешение: производители действий, выраженных сказуемым и деепричастием, не совпадают, так как в безличном и неопределённо-личном предложении они отсутствуют, например: *Н*е доезжая до населённого пункта «А», автомобиль, находящийся в розыске, был обнаружен сотрудниками ГАИ или Прибыв на место происшествия, оперативно-розыскной бригаде были переданы некоторые документы. Такие конструкции следует заменить параллельными синтаксическими конструкциями с придаточными обстоятельственными значениями, например: Когда оперативно-розыскная бригада прибыла на место происшествия, ей были переданы документы. Автомобиль, находящийся в

розыске, был обнаружен сотрудниками ГАИ вблизи населённого пункта «А».

Одну из синтаксических особенностей составляет порядок слов, который в русском языке относительно свободен. Различается прямой порядок слов (объективный) и обратный порядок слов или инверсия.

Во всех предложениях по смыслу можно выделить 2 части: исходные данные (известное, тема) и новая информация, дополняющая эти сведения (новое, рема), например: В. (данное, тема) был задержан по подозрению в ограблении магазина (новое, рема). Такой порядок слов называется прямым или объективным, то есть данное - тема - предшествует новому - реме. При инверсивном порядке слов наблюдается иное расположение частей, например: по подозрению в ограблении магазина был задержан В. Однако такой порядок слов типичен больше для публицистической речи, так как может быть использован в качестве выразительного средства речи или для акцентирования количества информации (в данном случае акцент падает на задержание В, а не А или С). Нормы же официально-делового стиля требуют прямого порядка слов, который подчиняется следующим правилам: подлежащее предшествует сказуемому, обстоятельственные слова стоят в начале предложения, согласованное определение обычно ставится перед определяемым словом: телесные повреждения, государственная пошлина, описанное имущество; а несогласованные – после определяемого слова: заключение эксперта, срок давности, условия договора. Например: В ночь на 17 сентября 2001 года примерно в 2 часа на перекрёстке улицы Х. и В. N. совершил наезд на К, в результате чего от полученных травм К скончался на месте.

Однородные члены предложения способствуют логической организации текста и обычно сопровождают тексты юридического характера. Однако в построении предложений с однородными членами наблюдаются некоторые синтаксические трудности, нарушающие логику предложений. Так, логически неверно соединять в качестве однородных несопоставимые понятия: Кроме того были похищены рулетки, отвёртки, женская кожаная куртка и другие мелкие инструменты (понятие « другие мелкие инструменты» воспринимается как обобщающее, в связи с чем возникает логическая ошибка). В перечисление однородных членов не должны входить понятия, совпадающие по логическому объёму: Пожар уничтожил лес и растительность на 2-х гектарах.

В конструкциях с однородными членами могут встречаться логические и синтаксические ошибки: В этой комнате стоят холодильник, газовая плита. Других беспорядков не обнаружено. (Из протокола осмотра места происшествия). Автомашина находилась на проезжей части и смотрела по направлению города (из протокола).

Однородные члены предложения часто организуются в логические рубрики, требованием к которым является однотипность перечисляемых грамматических форм. Так, неверной будет следующая рубрикация: запрещается: *1) курить; 2) перевоз детей до 3-х лет.* Такую синтаксическую конструкцию следует организовать, используя или инфинитив, или существительные, например: следователь постановил: *1) в возбуждении уголовного дела в отношении К. отказать; 2) передать материалы дела в комиссию по делам* несовершеннолетних.

Законченная мысль может быть выражена при помощи простых и сложных предложений. В зависимости от того, суммой каких предложений выражена мысль, меняется характер высказывания. Цепь простых предложений подчёркивает независимый характер высказывания, выделяя отдельные детали. Кроме того, простые предложения носят характер лаконичной, зачастую непринуждённой разговорной речи.

Мысли, выраженные при помощи сложных предложений, тщательно связаны друг с другом в единое сложное целое и выступают как его органические элементы. Сложные предложения дают богатые возможности для выражения смысловых отношений и синтаксических связей между частями высказывания. При помощи сложных, особенно сложноподчинённых предложений с их разнообразными структурами отчётливо выявляются логические отношения между выдвигаемыми положениями (например: причины, условия, следствия, времени и так далее). Анализ синтаксического строя речи показывает, что сочинительная связь более характерна для разговорного стиля, в то время как подчинительная – для книжных стилей и, в частности, для юридической речи.

Список литературы:

1. Воинова М.Г. Культура речи юриста. Учебник для студентов юридических вузов. Издание второе, дополненное и переработанное. – Ташкент: Издательство ТГЮИ, 2012.

2. Короткина, И. Б. Академическое письмо: процесс, продукт и практика: учеб. пособие для вузов / И. Б. Короткина. Москва: Издательство «Юрайт», 2015.

KICHIK TADQIQOT

Mohira QAYUMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
adabiyotshunoslik: adabiyot nazariyasi fakulteti
2-kurs magistranti

SYUJET, KONFLIKT VA YORDAMCHI OBRAZLAR VOSITASIDA XARAKTERNI OCHISH MEXANIZMLARI (ERKIN A'ZAM QISSALARI TALQINIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada Erkin A'zam qissalarida xarakter ochishning syujet, konflikt va yordamchi obrazlarga tayangan mexanizmlari tadqiq etiladi. Tadqiqotda bosh qahramonning ruhiy va estetik qiyofasi faqat portret yoki nutq orqali emas, balki voqeabandlik, qarama-qarshilik tizimi, epizodik obrazlar, marosimiy muhit va kompozitsion qarshilantirishlar vositasida tobora chuqurlashib borishi ko'rsatib beriladi. "Pakananing oshiq ko'ngli", "Shoirning to'yi" va "Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati" misolida qahramonning ichki mohiyati aynan syujet sinovlari, konflikt bosimi va ikkilamchi obrazlar bilan munosabat jarayonida ochilishi yoritiladi. Natijada Erkin A'zam qissalarida xarakter syujetdan tashqarida emas, balki voqea va ziddiyatlarning markazida shakllanuvchi dinamik estetik tuzilma ekani asoslanadi.

Kalit so'zlar: *syujet, konflikt, yordamchi obraz, xarakter ochish, kompozitsiya, qissa, Erkin A'zam, epizodik personaj, dinamika*

Annotation: this article studies the mechanisms of character revelation in Erkin Azam's novellas through plot, conflict, and secondary images. It demonstrates that the moral and aesthetic identity of the protagonist is deepened not only through portrait or speech, but also through the event structure, the system of contradictions, episodic characters, ritual settings, and compositional contrasts. On the basis of "Pakananing oshiq ko'ngli," "Shoirning to'yi," and "Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati," the paper shows that the protagonist's inner essence emerges precisely through plot trials, conflict pressure, and relations with secondary figures. The article concludes that in Erkin Azam's novellas character is not outside the plot, but a dynamic aesthetic structure formed at the center of events and contradictions.

Key words: *plot, conflict, secondary image, character revelation, composition, novella, Erkin Azam, episodic character, dynamics*

Аннотация: в статье исследуются механизмы раскрытия характера в повестях Эркина Аъзама через сюжет, конфликт и вспомогательные образы. Показывается, что нравственно-эстетический облик главного героя углубляется не только через портрет или речь, но и посредством событийной структуры, системы противоречий, эпизодических персонажей, ритуальной среды и композиционных контрастов. На материале повестей «Pakananing oshiq ko'ngli», «Shoirning to'yi» и «Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati» выявляется, что внутренняя сущность героя раскрывается именно в процессе сюжетных испытаний, конфликтного давления и взаимодействия со второстепенными фигурами. Делается вывод о том, что в повестях Эркина Аъзама характер формируется в центре событий и противоречий как динамическая эстетическая структура.

Ключевые слова: *сюжет, конфликт, вспомогательный образ, раскрытие характера, композиция, повесть, Эркин Аъзам, эпизодический персонаж, динамика*

1. Kirish. Epik janrlarda xarakter hech qachon syujetdan butunlay tashqarida shakllanmaydi. Qahramon kimligi aynan voqea bosimida, qarama-qarshiliklar ichida, boshqalar bilan aloqada va tanlov vaziyatlarida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan qissa poetikasini tushunish uchun xarakter bilan syujet, konflikt va yordamchi obrazlar o'rtasidagi munosabatlarni bir butun tizimda ko'rib chiqish zarur. Erkin A'zam qissalari bu masalada, ayniqsa, boy ilmiy material beradi, chunki adib voqeani tashqi sarguzashtdan ko'ra, qahramon ruhiyatini sinovga soluvchi estetik mexanizm sifatida quradi.

Erkin A'zam qahramonlari ko'pincha jamiyat bilan, vaziyat bilan va o'z ichki "meni" bilan ziddiyatga kirishadi.

Ularning xarakteri voqea boshida to‘liq ochiq bo‘lmaydi; aksincha, syujet davomida yordamchi personajlar, epizodik to‘qnashuvlar, marosimiy yoki maishiy fonlar orqali o‘zini namoyon etadi. Shu sababli qissalardagi ikkilamchi obrazlarni “fon” yoki “dekoratsiya” deb qarash xato bo‘ladi.Ular bosh qahramonni yorituvchi oynalar, ba’zan uning aksi, ba’zan esa uni inkor etuvchi qarama-qarshi qiyofa sifatida ishlaydi.

Maqolaning maqsadi Erkin A’zam qissalarida xarakter ochishning syujet-kompozitsion mexanizmlarini aniqlash, konflikt tizimining bosh qahramon ruhiyati bilan bog‘liqligini ko‘rsatish hamda yordamchi obrazlarning xarakterologik vazifasini yoritishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, adib qissalarida qahramon poetikasi ko‘pincha detallarga bog‘lab talqin etilsa-da, aynan syujet va ikkilamchi obrazlar tizimining xarakter ochishdagi hissasi kamroq tizimlashtirilgan.

2. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Nazariy adabiyotlarda syujet va xarakter munosabati adabiyotshunoslikning asosiy muammolaridan biri sifatida baholanadi. Aristotel an’anasidan boshlab voqea va xulqning o‘zaro shartlanganligi ta’kidlangan.Keyingi davr nazariyalarida esa syujet qahramonning ichki tabiati sinovdan o‘tadigan maydon sifatida ko‘riladi. Konflikt bu yerda oddiy qarama-qarshilik emas, balki xarakterdagi yashirin qatlamlarni yuzaga chiqaruvchi estetik bosimdir.Shu bois kuchli epik asarda voqea va xarakter bir-birisiz to‘liq anglashilmaydi.

Yordamchi obrazlar masalasi ham zamonaviy narratologiyada muhim o‘rin tutadi.Epizodik yoki ikkilamchi personajlar nafaqat voqea harakatini ta’minlaydi, balki bosh qahramonning ma’naviy koordinatalarini aniqlashda faol ishtirok etadi.Ular kontrast, parallel, aks-sado, fon, ijtimoiy muhit timsoli yoki baholovchi nuqtayi nazar tashuvchisi bo‘lishi mumkin.Demak, bosh obrazni o‘rganish uni yolg‘iz holda tasvirlash emas, balki uni o‘rab turgan personajlar tizimida ko‘rish demakdir.

Erkin A’zam ijodiga oid mavjud ilmiy ishlarda qissalardagi maishiy fon, satirik ohang, ruhiy iztirob va “kichik odam” motivi ko‘p bor qayd etilgan.Biroq syujet, konflikt va yordamchi obrazlarning yagona xarakterologik mexanizm sifatidagi faoliyati hali alohida tahlil maydoni sifatida yetarli darajada ishlanmagan. Ushbu maqolada aynan shu jihatga urg‘u beriladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda poetik, kompozitsion, konfliktologik va qiyosiy-tipologik tahlil usullari qo‘llanildi. Asosiy material sifatida Erkin A’zamning “Pakananing oshiq ko‘ngli”, “Shoirning to‘yi” va “Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati” qissalari tanlandi. Mazkur asarlarda bosh qahramonning xarakteri voqea sinovi, ziddiyat bosimi va yordamchi obrazlar bilan munosabatda ochilishi kuzatildi.

Tahlil mezonlari sifatida quyidagilar belgilandi: syujet qahramonni qanday vaziyatlarga olib kiradi; qaysi konfliktlar uning yashirin qatlamlarini yuzaga chiqaradi; yordamchi obrazlar qahramonning qaysi sifatlarini yoritadi yoki inkor etadi; kompozitsion qarshilantirishlar xarakter ma’nosini qanday chuqurlashtiradi. Ushbu yondashuv Erkin A’zam qissalarida xarakter dinamikasini voqeabandlik bilan bog‘liq holda ko‘rsatish imkonini berdi.

4. Tahlil va natijalar. Erkin A’zam qissalarida syujet odatda qahramon xarakterini bezab turuvchi tashqi fon emas, balki uni o‘qishga majbur qiluvchi mexanizm sifatida ishlaydi. Adib syujetni kutilmagan sarguzashtlar bilan murakkablashtirishdan ko‘ra, insoniy holatni bosqichma-bosqich ochadigan sinovlar zanjiri sifatida quradi. Shu sababli voqealar ko‘lami nisbatan ixcham bo‘lsa ham, ulardagi ma’naviy bosim kuchli seziladi. Har bir yangi vaziyat qahramon haqida yangi qatlamni ochadi: u nimani tanlaydi, nimaga chidamaydi, nimadan uyat qiladi, nimani orzu qiladi, nimadan qo‘rqadi.

“Pakananing oshiq ko‘ngli” qissasida syujet bosh qahramonni tashqi ko‘rinish bilan ichki orzu o‘rtasidagi ziddiyat maydoniga olib kiradi.Bu yerda konflikt shunchaki muhabbatning amalga oshishi yoki amalga oshmasligi bilan cheklanmaydi. Asl ziddiyat – shaxsiy qalb ehtiyoji bilan jamiyatning qarashi, insoniy hisning pokligi bilan tashqi ko‘rinish ustidan chiqarilgan hukmlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikdir. Syujet shu ziddiyatni bosqichma-bosqich kuchaytirib, qahramonning ichki nozikligini va ma’naviy chidamliligini ochadi. Agar voqea bo‘lmaganida, qahramonning ruhiy olami faqat taxmin darajasida qolgan bo‘lardi; aynan syujet sinovi uni xarakter sifatida shakllantiradi.

Mazkur qissada yordamchi obrazlar bosh qahramonning ichki qiymatini o‘lchovchi ijtimoiy ko‘zgular vazifasini bajaradi.Ular orasida qahramonni past baholaydigan, unga shubha bilan qaraydigan yoki uni oddiy kulgi obyekti sifatida qabul qiladigan qarashlar bosh qahramonning ichki olamini yanada yorqinlashtiradi.Aksincha, ayrim mehr yoki tushunish ishoralari uning qalbini boshqa rakursdan ko‘rsatadi. Demak, yordamchi personajlar qahramonning tashqi

muhit bilan munosabatini oydinlashtirib, uning o‘zini o‘zi his etish mexanizmini ham kuchaytiradi.

“Shoirning to‘yi” qissasida syujetning asosiy mexanizmi marosimiy vaziyatning o‘zidir.To‘y tashqi tomondan quvonchli, tartibli va jamiyat tomonidan tasdiqlangan hodisa bo‘lsa-da, bosh qahramon uchun u ichki sinov maydonidir. Voqea davomida tashqi tantana va ichki bo‘shliq qarama-qarshiligi tobora kuchayadi. Qahramonning sha’ni, ijodkorlik qiyofasi, tan olinishi va ichki yolg‘izligi bir-biriga to‘qnashadi.Konflikt aynan shu ikki qatlam orasida yuz beradi: jamoaviy marosim va individual ruhiyat.Syujetning kuchi shundaki, u qahramonni shu ziddiyatni boshdan kechirishga majbur etadi.

Bu qissada yordamchi obrazlarning vazifasi ayniqsa kuchli.Marosim atrofidagi shaxslar, mehmonlar, kuzatuvchilar, olqishlovchilar yoki befarq qatnashchilar bosh qahramonning ichki holatini turli rakurslardan yoritadi.Ularning har biri mustaqil xarakter bo‘lishi shart emas; lekin ular bosh qahramonning ruhiy noqulayligini kuchaytiruvchi yoki aksincha, unga estetik kontrast yaratadigan funksional birliklar sifatida ishlaydi.To‘y muhitidagi jamoaviy ovoz qahramonning yolg‘iz ovozini bo‘g‘ishga urinayotgandek taassurot qoldiradi.Shu tariqa yordamchi obrazlar nafaqat syujetni to‘ldiradi, balki xarakterologik bosim hosil qiladi.

“Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati” qissasida syujet va konflikt satirik-kompozitsion tamoyilga bo‘ysunadi.Bu yerda voqealar tizimi bosh qahramonni absurd va odatiy holatlar oralig‘iga olib kiradi. Konflikt tashqi ko‘rinishda mayda yoki kulgili tuyulishi mumkin, ammo uning zamirida jamiyatdagi ma’naviy konformizm, ma’qullash marosimi va shaxsiy sezgirlik o‘rtasidagi keskin ziddiyat yotadi. Bosh qahramonning xarakteri aynan mana shu ijtimoiy absurdlarga munosabatida ochiladi. U nafaqat hodisalarni ko‘radi, balki ularning ma’naviy ma’nosini og‘riqli sezadi.Bu sezgirlik esa uni boshqa personajlardan ajratib turuvchi asosiy xarakterologik belgiga aylanadi.

Qissadagi yordamchi obrazlar “chalpak” madaniyatining tashuvchilari sifatida bosh qahramon bilan kontrast hosil qiladi.Ular bosh obrazning ichki mustaqilligi va ruhiy bezovtaligini yoritadi. Agar bu personajlar bo‘lmaganida, qahramonning qarshiligi yoki ichki noqulayligi ham bu qadar kuchli bilinmas edi. Demak, yordamchi obrazlarning asosiy funksiyasi – bosh qahramonning qaysi mezonlar bilan yashayotganini ko‘rsatishdir. Ular qahramonni tushunmasligi, unga qarama-qarshi bo‘lishi yoki unga moslashishni taklif qilishi mumkin, ammo har bir holatda ular bosh obrazni yorituvchi kompozitsion vositaga aylanadi.

Erkin A’zam qissalarida konflikt bir qatlamli emas. Tashqi konflikt ko‘pincha ichki konfliktning ko‘rinadigan shaklidir. Muhabbat, sha’n, marosim, ijtimoiy moslashuv, olqish yoki kulgi kabi tashqi holatlar qahramonning o‘z “meni” bilan to‘qnashuvi uchun xizmat qiladi. Shu bois qissalarda xarakter ochish mexanizmi faqat “nima bo‘ldi?” savoliga javob bermaydi; u “voqealar qahramonda nimani yuzaga chiqardi?” degan savolga ham yo‘naltiriladi.Bu esa epik poetikaning yuksak darajasidan dalolat beradi.

Kompozitsion qarshilantirishlar ham xarakter ochishda faol ishlaydi. Orzu va armon, tantana va yolg‘izlik, olqish va ichki bo‘shliq, kulgi va iztirob, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi oppozitsiyalar bosh qahramonning ma’naviy qiyofasini belgilaydi.Erkin A’zam aynan shu qarshilantirishlar orqali bosh obrazni maishiy voqea doirasidan chiqarib, falsafiy-estetik maydonga olib chiqadi. Qahramonning xarakteri shunda oddiy odamning boshidan kechgan voqea emas, muayyan davr va muhitda yashayotgan insonning murakkab ruhiy modeli sifatida ko‘rinadi.

Bundan tashqari, syujetning ritmi ham xarakterga ta’sir qiladi. Erkin A’zam voqealarni tezkor dramatizm emas, balki ichki bosimni to‘plovchi usulda joylashtiradi. Ayrim epizodlar qahramon uchun hal qiluvchi sinov bo‘lishidan avval uning kayfiyati, kutishi, bezovtaligi yoki ichki tortinishi beriladi.Shu tufayli o‘quvchi voqeani tashqi hodisa sifatida emas, qahramon ruhiyatining davomiy jarayoni sifatida qabul qiladi.Xarakter shu ritm ichida asta-sekin yoritiladi.

Natijada Erkin A’zam qissalarida xarakter ochish mexanizmi voqealar zanjiri, ziddiyatlar tizimi va yordamchi obrazlar funksiyasi uyg‘unligidan tashkil topadi. Bosh qahramon hech qachon bo‘sh makonda mavjud emas; u doim biror ijtimoiy bosim, marosimiy muhit, kulgili yoki iztirobli vaziyat, qarshi personaj yoki aks-sado vazifasini bajaruvchi ikkilamchi obrazlar qurshovida turadi. Aynan shu poetik qurilish adib qissalarida xarakter dinamikasi va estetik qudratini yuzaga chiqaradi.

Erkin A’zam qissalarida yordamchi obrazlarning poetik qimmati shundaki, ular bosh qahramonning o‘rnini egallamay turib, uning ma’nosini kengaytiradi. Ayrim epizodik personajlar birgina sahnada ko‘rinishi mumkin, biroq ularning munosabati, ohangi yoki

ijtimoiy roli bosh qahramonning holatini keskin yoritib yuboradi. Bunday obrazlar ko‘pincha qahramonning ichki mezonlariga zid keluvchi tashqi mezonlarni ifodalaydi.Shu jihatdan ular syujetda ikkinchi darajada turgandek ko‘rinsa ham, xarakter ochish jarayonida asosiy funksiyani bajarishi mumkin.

Shuningdek, konflikt faqat shaxslararo qarama-qarshilik shaklida emas, makon va vaziyat poetikasi orqali ham shakllanadi.Marosim, olomon, olqish, kulgi, kutish yoki ijtimoiy rasmiyat kabi omillar bosh qahramon uchun bosim maydoniga aylanadi. Bunda qahramon bilan “muhit” o‘rtasida ham estetik konflikt yuz beradi. Erkin A’zam aynan mana shu turdagi nozik konfliktlar orqali o‘z qahramonlarini chuqurlashtiradi. Natijada syujet nafaqat voqea rivoji, balki ma’naviy sinov va ichki bahslar tizimi sifatida o‘qiladi.

Yordamchi obrazlar tizimining yana bir jihati shundaki, ular bosh qahramonning ichki ovozini tashqi shaklda aks ettirishi mumkin.Ba’zan epizodik personaj aytgan birgina jumla, namoyon etgan birgina munosabat bosh qahramonning ichida allaqachon mavjud bo‘lgan, ammo hali ifodalanmagan fikrni uyg‘otadi. Bunday hollarda yordamchi obrazlar shunchaki qarshi turuvchi emas, qahramon ichki bahsining tashqi ko‘rinishiga aylanadi.Erkin A’zam qissalarida mazkur mexanizm xarakterologik tahlil uchun nihoyatda muhim, chunki u bosh qahramon ruhiyatini dialogik maydonda ko‘rsatadi.

Demak, qissa voqealarining har bir burilishi qahramon xarakteri uchun tekshiruv nuqtasidir.O‘quvchi voqea rivojini kuzatar ekan, bosh qahramonning ma’naviy ko‘lami yordamchi obrazlar va konfliktlar fonida tobora aniqroq ko‘rina boshlaydi. Shu sababli Erkin A’zam qissalarida xarakter tahlili doimo kompozitsiya, personajlar tizimi va voqeabandlik bilan birgalikda olib borilishi kerak.

Bunda syujetning yakuniy nuqtasi ham katta ahamiyatga ega: Erkin A’zam ko‘pincha voqeani “yechib qo‘yish”dan ko‘ra, qahramonning ma’naviy holatini ochiqroq qoldirishni afzal ko‘radi.Shuning uchun konflikt rasmiy tarzda tugagandek ko‘rinsa ham, uning aks-sadosi qahramon ruhiyatida davom etadi. Mazkur usul bosh obrazning badiiy umrini uzaytiradi va yordamchi obrazlar, voqealar hamda kompozitsion qarshilantirishlar orqali yaratilgan ma’no qatlamlarini yanada mustahkamlaydi.

5. Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Erkin A’zam qissalarida xarakter syujetdan mustaqil holda emas, balki voqealar bosimi va konfliktlar tizimi ichida shakllanadi.Yordamchi obrazlar esa bosh qahramonni to‘ldiruvchi fon emas, balki uning ma’naviy-estetik qiyofasini yorituvchi faol poetik birliklardir. Shu jihatdan adib qissalarida xarakter ochish mexanizmi ko‘p qatlamli va dinamik xususiyatga ega.

Mazkur kuzatishlar Erkin A’zam poetikasini o‘rganishda syujet va ikkilamchi personajlar tizimiga nisbatan yangicha e’tibor zarurligini ko‘rsatadi. Kelgusida adib qissalarida marosimiy muhit, jamoaviy ovoz, ijtimoiy niqob va epizodik obrazlar poetikasini alohida tadqiq etish maqsadga muvofiq.Shuningdek, uning qissalarini zamonaviy narratologiya, konfliktologiya va aks-sado obrazlar nazariyasi asosida qayta talqin qilish katta ilmiy samara berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A’zam, E. *Pakananing oshiq ko‘ngli* [Elektron matn]. – Toshkent.
2. A’zam, E. *Shoirning to‘yi* [Elektron matn]. – Toshkent.
3. A’zam, E. *Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati* [Elektron matn]. – Toshkent.
4. Quronov, D. *Adabiyotshunoslikka kirish*. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004. 224-b.
5. Quronov, D. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. – Toshkent: Akademnashr, 2018.480-b.
6. Ulug‘ov, A. *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 400-b.
7. Mo‘minova, T. S. Badiiy asarda nuqtayi nazar va xarakter ifodasi // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*. – 2022. – Vol. 2, No. 2.768–774-b.
8. Бахтин, М. М. *Эстетика словесного творчества*. – Москва: Искусство, 1979. 424-с.
9. Чернец, Л. В. (ред.). *Литературоведение. Литературное произведение: основные понятия и термины*. – Москва: Высшая школа, 1999. 556-с.
10. Forster, E. M. *Aspects of the Novel*. – London: Edward Arnold, 1927. 192-p.

Azizjon ELMURODOV,
CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti 1-kurs magistranti

KOMPOZITSIYA YARATISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (ORHAN PAMUK “QIZIL SOCHLI AYOL” ROMANI MISOLIDA)

Annotatsiya: mazkur maqolada Orhan Pamukning “Qizil sochli ayol” romani misolida kompozitsiya yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Asarda ota-o‘g‘il munosabatlari, taqdir, aybdorlik hissi, xotira motivi hamda insonning o‘tmish bilan yuzlashuvi kabi masalalar yoritilgan. Roman kompozitsiyasida modernistik ruh, tarixiy va folklor unsurlarining uyg‘unligi, ramziy obrazlar hamda quduq motivining ma’noviy ahamiyati ochib berilgan

Kalit so‘zlar: kompozitsiya, Orhan Pamuk, “Qizil sochli ayol”, ota-o‘g‘il munosabatlari, modernizm, xotira motivi, quduq motivi, intertekstualizm.

Аннотация: в данной статье анализируются особенности создания композиции на примере романа Орхана Памука «Рыжеволосая женщина». В произведении рассматриваются такие вопросы, как отношения отца и сына, судьба, чувство вины, мотив памяти и проблема обращения человека к своему прошлому. В композиции романа раскрывается гармоничное сочетание модернистского духа, исторических и фольклорных элементов, символических образов, а также смысловая значимость мотива колодца.

Ключевые слова: *композиция, Орхан Памук, «Рыжеволосая женщина», отношения отца и сына, модернизм, мотив памяти, мотив колодца, интертекстуализм.*

Annotation: this article analyzes the specific features of composition in Orhan Pamuk’s novel “The Red-Haired Woman.” The work explores issues such as father–son relationships, fate, feelings of guilt, the motif of memory, and a person’s confrontation with the past. The novel’s composition reveals a harmonious combination of modernist spirit, historical and folkloric elements, symbolic images, and the semantic significance of the well motif.

Key words: *composition, Orhan Pamuk, “The Red-Haired Woman”, father–son relationship, modernism, memory motif, well motif, intertextualism.*

Kirish (Introduction). Adabiyotda voqealar rivojining kompozitsiya bilan aloqador shakllanishi turli xil davr talablari bilan bevosita bog‘liqdir. Adabiyot o‘zgarishi natijasida undagi yo‘nalishlar va stereotiplar ham o‘zgara boshlaydi. Turk adabiyoti katta va boy tarixga ega bo‘lganligi sababli, Usmoniylar davridan bugungi kungacha bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan. Aynan shu davrlarda roman yaratishdagi kompozitsiya tushunchasi ham serqirralik kasb etadi.

Orhan Pamuk 2016-yilda yaratgan *“Qizil sochli ayol”* romanida oila munosabatlari, ota va o‘g‘ilning qanday bo‘lishi kerakligi hamda jamiyatdagi nuqsonli ota-o‘g‘il munosabatlari qalamga olinadi.

Metodlar (Methods / Methodology). Romanda yosh maktab o‘quvchisining yozgi ta’tilda quduq qazuvchi insonga shogird tushishi bilan boshlanuvchi voqealar asar kompozitsiyasining ta’sirchanligini oshiradi.

Germenevtik yondashuv asosida esa o‘quvchi qahramonning quduq qazuvchi ustaga shogird tushishi orqali insonning hayot mazmuni, mehnat va mas’uliyat haqidagi tushunchalarni bosqichma-bosqich anglash jarayonini talqin qiladi. Bu jarayon matnda yashirin ma’no qatlamlarini ochish, ya’ni qahramon ongining shakllanishini izohlashga xizmat qiladi.

Semiotik nuqtayi nazardan quduq obrazi belgi tizimi sifatida talqin qilinib, u nafaqat mehnat jarayoni, balki chuqurlik, ildiz, taqdir va ichki dunyo ramzi sifatida ishlaydi. Shuning uchun ham ushbu motiv matnda ma’nolarni kodlashtiruvchi asosiy semiotik birliklardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijalar (Results). Muallif romanda Istanbulning rivojlanib, gullab-yashnashi, ya’ni zamonaviy ruhda hayot kechirishi bilan birga, insonning o‘z qiyofasini anglashi va o‘z ildizlarini murakkab munosabatlar orqali tushunishini ham ochib beradi. Semiotik jihatdan Istanbul shahri faqat makon emas, balki *“modernlik–an’ana”* qarama-qarshiligini ifodalovchi belgi tizimi sifatida ishlaydi. *Germenevtik talqinda* esa bu makon qahramon ongidagi ichki ziddiyatlarni tushunish kaliti bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil davomida romanning mavzusi va qahramonlari, ya’ni obraz yaratish mahorati modernistik hamda tarixiy ruh bilan bog‘liqligi ko‘rinadi. *Intertekstual yondashuv* ushbu bog‘liqlikni qadimiy syujetlar bilan dialog sifatida ochib beradi, germenevtika esa qahramonlar tajribasining ma’no qatlamlarini izohlaydi. Semiotik tahlil esa matndagi ramzlar tizimini - quduq, shahar, mehnat va taqdir belgilarini - yagona struktura sifatida birlashtiradi.

Muhokama (Discussion). Romandagi voqealarning ifodaviylik xususiyati Turkiya va Istanbulning rivojlanish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘tmishdan zamonaviylikka qadam qo‘yayotgan jamiyat sifatida talqin etiladi. Orhan Pamuk asarlarida tez-tez uchraydigan xususiyatlardan yana biri xotira motividir. Intertekstual nuqtayi nazardan xotira motivi boshqa matnlar bilan dialogga kirishsa, germenevtik jihatdan u shaxsiy va kollektiv ongni tushunish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi, semiotik jihatdan esa hikoya ichidagi bog‘lovchi belgi vazifasini bajaradi. *“Xotiradan unumli foydalanish orqali shaxsiyat va hikoya qilish tushunchalari yoritiladi, ya’ni bir voqea-hodisaga boshqa voqealarni bog‘lash natijasida matnning ko‘p qatlamli semantik tuzilmasi yuzaga keladi”*[2].

Orhan Pamuk asarlarining tuzilishi soddalik va ravonlikka, tez o‘qilishiga asoslanadi. Aynan ushbu xususiyat muhim ahamiyat

kasb etadi. Romanni bir necha bosqichlarga bo‘lish mumkin. *Birinchi bosqichda* asar qahramoni Jeymning o‘quvchi sifatidagi o‘tmishi, ishlashi, otasining o‘rnida ustozini ko‘rishi va haqiqiy ota qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi tushunchalar Usta Mahmud va yosh o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar orqali yoritiladi.

Ikkinchi bosqichda esa usta bilan ishlash jarayonida mas’uliyat tushunchasini o‘rganish, voyaga yetish davridagi insonning ayollarga, ustozga va ishga bo‘lgan munosabatlari shakllana boshlaydi.

Uchinchi bosqichda esa oradan bir necha yil o‘tib, muvaffaqiyatli muhandis va pudratchi sifatida faoliyat yuritayotgan inson qiyofasi gavdalanadi. Roman yaratishda voqea-hodisalar ma’lum bir insonning hayot bosqichlari orqali yoritilishi mumkin.

To‘rtinchi bosqichda esa Shoh Edip hamda Rustam-Suhrob kabi munosabatlarning qahramon hayotidagi voqealar rivoji bilan ma’lum ma’noda o‘xshashligi kuzatiladi. Yoshlik yillarida bilib-bilmay aralashib qolgan voqealarning oqibatlari uni kelajakda ham bezovta qiladi.

Voqealar rivoji sirli tusga ega bo‘lib, romanning asosiy mavzusi ota-o‘g‘il munosabatlari sifatida ko‘zga tashlanadi. Biroq unda ramziy ma’noda Istanbul shahri ham tasvirlanadi. Asarda keskinlik va ziddiyat motivlari mavjud. Bu yerda yetishmovchilikning shakllanishi, aholining munosabatlari hamda erkak kishining oiladagi o‘rni syujet chizig‘ida yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, Orhan Pamuk ushbu munosabatlarni tarixdan kelayotgan madaniy meros, hokimiyat boshqaruvi, insonlarning mehnati va taqdirning ramziy ifodasi sifatida qalamga oladi.

Asardagi quduq motivini alohida ramziy unsur sifatida talqin qilish mumkin. Quduq motivi yer qa’riga tushish, ya’ni an’ana, mehnat, intilish va taqdir tushunchalarini ifodalaydi. Chunki inson doimo yerga mehr berib, yerdan o‘z rizqini topib kelganiga urg‘u beriladi.

Aynan quduq motivi orqali romanda taqdir mavzusi yaqqol ko‘rinadi. Inson bir vaqtning o‘zida ham qulab tushishi, ham yuksalib maqsadiga yetishi mumkinligi ta’kidlanadi. Qizil sochli ayol obrazida esa istak, noaniqlik va vayronkor joziba kabi tushunchalar mujassamlashgan. Balog‘atga yetgan yigitning ayollarga bo‘lgan munosabati Qizil sochli ayol va qahramon o‘rtasidagi munosabatlar orqali ochib beriladi.

“Orhan Pamuk asarlarida kompozitsiyaning ahamiyatli jihatlaridan biri zamonaviylik ruhining folklor, ya’ni xalq og‘zaki ijodi bilan uyg‘unlashib ketishi hamda bir necha madaniyatlarning mushtarak holda ifodalanishidir”[1]. Bunga sabab Usmonli imperiyasining katta hududda faoliyat yuritganligi va natijada turli madaniyatlarning qorishuvi orqali turk adabiyotining o‘ziga xos tarzda rivojlanganligidir. Ya’ni ushbu asarda o‘g‘ilning taqdiri Shoh Edip hamda Rustam va Suhrob munosabatlari o‘rtasida qurilgan ramziy ko‘prikka o‘xshaydi. Asarda ota va o‘g‘il munosabatlari qalamga olinadi. Edip, Rustam va Suhrob kabi obrazlar qadimiy hikoyalar asosida shakllangan bo‘lib, bir-biriga zid keluvchi dramatik holatlarni ifodalaydi. Ota va o‘g‘il o‘rtasidagi murakkab va fojeaviy munosabatlar tasvirlanadi.

“Orhan Pamuk ushbu holatlarning zamonaviy talqinda, bugungi dunyoda ham takrorlanishini alohida urg‘ulaydi. Suhrobning otasini tanimay o‘ldirib qo‘yishi va Shoh Edip bilan bog‘liq dramatik munosabatlar Jem hayotida ham ma’lum ma’noda takrorlanadi”[2]. Ya’ni Rustam va Suhrob munosabatlaridagi o‘g‘ilning haqiqat izlab yo‘lga chiqishi hamda Shoh Edip obrazidagi taqdir bilan yuzlashuv holatlari ushbu romanda ham aks etadi. Orhan Pamuk yaratgan Jem obrazi esa pul topish maqsadida safarga chiqadi va uydan uzoqlashadi. Aynan shu jihatlar bir-biriga o‘xshash bo‘lib, an’anaviylik xususiyatini namoyon qiladi.

“Ustoz-shogird munosabatlari esa mehr va raqobat uyg‘unligida tasvirlanadi. Bir tomondan ustoz-shogirdlik munosabati mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomondan ichki raqobat hissi ham sezilib turadi”[3]. Kasb o‘rganayotgan shogird uchun ustozning mahorati, quduq qazish va suv topish kabi jarayonlar katta qiziqish uyg‘otadi. Bu esa o‘z kasbiga muhabbat bilan yondashish hamda uni egallash istagini shakllantiradi.

Zamonaviy Istanbul va qishloq muhiti o‘rtasidagi munosabat ham turli konfliktli holatlarda ifodalanadi. Bunda makonning psixologik holatlar bilan uyg‘unlashuvi kuzatiladi. Romanda dunyoning ikki xil qarash asosidagi to‘qnashuvi qalamga olinadi. Bir tomondan ulg‘aygan, voyaga yetgan Jemning Istanbul hayoti tasvirlansa, ikkinchi tomondan quduq qazayotgan bola obrazi namoyon bo‘ladi. Istanbul tezlik, gavjumlik va rivojlanayotgan maskan sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birga, insonning o‘z kasbi bilan shug‘ullanishi, hayotdan kutgan maqsadlariga erishishi kabi tushunchalar ham yoritiladi. Qarama-qarshilik aynan shu o‘rinlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Orhan Pamukning hikoya qilish uslubida xotira muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, insonning o‘zidan qoniqmasligi, aybdorlik hissi va qayta qurilgan hikoya, ya’ni bir hikoyaning kelajakda davom etishi kabi tushunchalar ham asarning ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Jem Chelek obrazi romanning markaziy qahramonlaridan biridir. Otasining oilani tashlab ketishi undagi oilaga nisbatan mas’uliyat hissini yanada kuchaytiradi. Aybdorlik hissi esa uning o‘tmish bilan yuzlashishdan qo‘rqishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, uning hayoti ikki asosiy yo‘nalishga bo‘linadi. Birinchisi - ustoz bilan bo‘lgan munosabatlari, ikkinchisi esa ustozini quduqda qoldirib qochib ketishi bilan bog‘liq voqealardir. Aynan ushbu holatlar romanning dramatik va psixologik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

1 Oy A., “Tarih Boyunca Türkçe Atasözleri”, 1972: 155-172

2 Umar Asim Aksoy, “Türkçe atasözleri ve deyimler sözlüğü”, İnkılap,1993.:37

3 https://levelvan.ru/pcontent/sovremenniki-7/orhan-pamuk

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oy A., “Tarih Boyunca Türkçe Atasözleri”, 1972: 155-172
2. Umar Asim Aksoy, “Türkçe atasözleri ve deyimler sözlüğü”, İnkılap,1993.:37
3. https://levelvan.ru/pcontent/sovremenniki-7/orhan-pamuk
4. https://uz.psychicslog.com/10609267-what-is-the-character-of-red-haired-people

Sapura SALIMOVA,
NavDU Adabiyotshunoslik yo‘nalishi
1-kurs magistranti

MUMTOZ ADABIYOTDA QOFIYANING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada mumtoz adabiyotda qofiyaning badiiy-estetik mohiyati, uning she’riy tizimdagi o‘rni va funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Qofiyaning musiqiylikni ta’minlash, mazmunni chuqurlashtirish, kompozitsion yaxlitlikni yuzaga keltirish hamda eslab qolish jarayonidagi roli ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, mumtoz she’riyat namunalari asosida qofiyaning badiiy imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *mumtoz adabiyot, qofiya, aruz, g‘azal, badiiylik, poetika, ritm, radif.*

Annotation: this article analyzes the artistic-aesthetic essence of rhyme in classical literature, as well as its position and functional significance in the poetic system. The role of rhyme in ensuring musicality, deepening content, creating compositional integrity, and facilitating memorization is explained on a scientific basis. Furthermore, the artistic possibilities of rhyme are revealed through examples of classical poetry.

Key words: *classical literature, rhyme, aruz, ghazal, artistry, poetics, rhythm, radif (refrain).*

Аннотация: в данной статье анализируются художественно-эстетическая сущность рифмы в классической литературе, её место в поэтической системе и функциональное значение. На научной основе освещается роль рифмы в обеспечении музыкальности, углублении содержания, создании композиционной целостности, а также в процессе запоминания. Кроме того, на основе образцов классической поэзии раскрываются художественные возможности рифмы.

Ключевые слова: *классическая литература, рифма, аруз, газель, художественность, поэтика, ритм, радиф.*

Kirish. Mumtoz Sharq adabiyoti o‘zining mukammal poetik tizimi bilan ajralib turadi. Ushbu tizimda qofiya muhim o‘rin egallab, she’riy nutqning shakliy va mazmuniy uyg‘unligini ta’minlaydi.

Qofiyaning nazariy asoslari Sharq poetikasida keng o‘rganilgan bo‘lib, u aruz vazni bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Bu jihat mumtoz she’riyatda ohangdorlik va ritmik mukammallikni yuzaga keltiradi.

1. Tadqiqot metodlari va materiallari

Mazkur maqolada quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Qiyosiy-tipologik metod — turli janrlarda qofiya tizimini solishtirish;

Struktural tahlil — she’r tuzilishida qofiyaning o‘rnini aniqlash;

Semantik tahlil — qofiyaning mazmuniy yukini ochib berish;

Matnshunoslik yondashuvi — mumtoz she’riy matnlar asosida tahlil olib borish.

Qofiyaning nazariy asoslari

Qofiya (ar.) – misralar oxiridagi qo‘shimcha, so‘z va so‘z qo‘shilmalarining o‘zaro ohangdosh bo‘lib kelishi. Qofiya mumtoz she’rshunoslikda vazn kabi she’riy ritmni vujudga keltiruvchi asosiy unsur bo‘lib, uning bayt so‘ngida qo‘llanilishi zaruriy talablardan biri bo‘lgan.Sharq musulmon adabiyotshunosligida qofiya haqidagi nazariy qarashlar maxsus fan – ilmiy qofiyada o‘z ifodasini topgan.[1]

Sharq mumtoz adabiyotida muhim ilmlardan biri - ilmiy qofiyaga oid bir qancha maxsus risolalar yaratilgan bo‘lib, ularda bu ilmning nazariy asoslari bilan birga, amaliy ahamiyati ham isbotlab berilgan. Qofiya ilmi nazariyasiga oid ilmiy qarashlar ilmi aruz va ilmi bade’ga nisbatan ancha ilgari yaratilgan bo‘lib, ilmi segona tadqiqotchilari she’rshunoslikda bu ilmning muhim ahamiyat kasb etishini yaxshi anglaganlar. Arab olimlari Ibn Qutayba, Qudama ibn Ja’far, Asmaiy, Ibn Xaldun kabi olimlarning asarlarida she’rshunoslik, she’r tuzilishi kabi masalalalar bilan birga poetikaning ajralmas qismlari, xususan, ilmi qofiya haqida ham ilmiy qarashlar mavjud. Yunon va hind she’r shaklini o‘rgangan Abu Nasr Forobiy va Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham she’r san’ati va tuzilishi borasida munosabatlar mavjud. Biroq bu munosabatlar ma’lum bir millatning she’riy shakliga moslashtirilib tushuntirilgani bois anchayin sodda.

Mumtoz qofiya nazariyasida qofiyalanuvchi so‘zlar tarkibiga qarab raviydan oldin va raviydan keyin 4 tadan qofiya unsuri ishtirok etishi mumkin. Raviydan oldin keluvchi unsurlar: qayd — raviydan oldin kelgan harakatsiz undosh tovush („balandqand“ so‘zlaridagi „n“ tovushi); ridf — undosh raviydan oldin kelgan cho‘ziq unli („sha-har-sahar“ so‘zlarida „r“ raviydan oldingi „a“ unlisi); ta’sis — raviydan oldin kelgan bir harakatli undoshdan ilgari keluvchi cho‘ziq unli („homil-qotil“ so‘zlaridagi „o“ tovushi); daxil — raviy bilan ta’sis orasida keluvchi harakatli undosh („zoyil-qoyil“ so‘zlaridagi „y“ undoshi). Raviydan keyin keluvchi qofiya unsurlari ham 4 ta: vasl — raviyga vositali yoki vositasiz tirkalgan tovushlar („ulfatim-suhbatim“

1 Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish/ darslik. Toshkent: “MALIK-PRINT CO”. 2021.256- B.

so‘zlaridagi „m“ undoshi va „bulog‘i-qulog‘i“ so‘zlaridagi „i“ unlisi); xuruj — vasldan so‘ng takrorlanuvchi harakatsiz undosh yoki cho‘ziq unli; mazid — xurujdan keyin keluvchi undosh yoki cho‘ziq unli; noira — maziddan so‘ng kelgan undosh va cho‘ziq unlilar.[2]

Qadimdan arablar, forslar va o‘zbeklar tomonidan ishlatib kelingan qofiya turlari 36 ta bo‘lsa ham, bundan 16 tasi ma’lum emas. Qolgan 20 xil qofiyalarning namunalari o‘zbek mumtoz poeziyasi namunalarida va o‘zbek xalq og‘zaki ijodida

qo‘llanib kelingan.

Qofiya she’rning g‘oyaviy mohiyati, janr xususiyatlari, tuzilishi va badiiy qurilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Undagi ohangdoshlik, asosan, so‘z o‘zaklarining yoki qo‘shimchalarning o‘zaro muvofiqligi natijasida yuzaga keladi. Odatda, she’rning asosiy yukini tashuvchi kalit so‘zlar qofiya sifatida tanlanadi va ular o‘quvchi e’tiborini tortish uchun misra oxiriga joylashtiriladi.Qofiya nafaqat ohangni ta’minlaydi, balki **badiiy takt** vazifasini ham o‘taydi. Bu esa asar mazmunining ta’sirchan va jozibali chiqishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, qofiya kompozitsion jihatdan misralarni o‘zaro bog‘lab, yaxlitlikni vujudga keltiradi hamda **bayt** yoki **band** kabi she’riy birliklarning shakllanishini ta’minlaydi.

2. Natijalar. Mumtoz adabiyotda qofiya shunchaki satr oxiridagi ohangdoshlik emas, balki she’riyatning “ustuni” va “ruhi” hisoblanadi. Uning o‘rni va ahamiyatini quyidagi muhim jihatlarda ko‘rish mumkin:

Mazmunni jipslashtiruvchi markaz: qofiya baytdagi fikrni tugallab beradigan nuqtadir. Shoir aytmoqchi bo‘lgan asosiy g‘oya ko‘pincha qofiyadosh so‘zlar zimmasiga yuklanadi. U tarqoq misralarni bir maqsad atrofida birlashtirib, yaxlit bir badiiy matn hosil qiladi.

Musiqiylikni ta’minlash: qofiyaning eng muhim funksiyalaridan biri — she’rga musiqiylik baxsh etishdir. Tovushlarning takrorlanishi natijasida o‘ziga xos ohang paydo bo‘ladi. Mumtoz she’riyatning kuylanishga moyilligi aynan qofiya va vazn uyg‘unligi bilan bog‘liq.

Kompozitsion yaxlitlikni ta’minlash: mumtoz she’riyatda qofiya she’rni strukturaviy jihatdan tartibga soladi. Matla’ va maqta’ kabi elementlar aynan qofiya tizimi orqali bir-biriga bog‘lanadi. Natijada asar yaxlit kompozitsiyaga ega bo‘ladi.

Xotirada saqlash vositasi: mumtoz asarlar, ayniqsa, doston va g‘azallar og‘zaki ijro etilganda, qofiya tinglovchining diqqatini tortgan va she’rning yodda qolishini osonlashtirgan.

Mazmuniy yechim: qofiya baytda ifodalanayotgan fikrning yechimini o‘zida mujassam etadi va g‘oyaviy mazmunni ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

She’riy intizom me’mori: qofiya shoirga ma’lum bir chegaralarni qo‘yadi. Bu cheklov ijodkordan so‘z tanlashda nihoyatda ehtiyotkor bo‘lishni va mahoratni eng yuqori darajaga ko‘tarishni talab qiladi.

Janr shakllanishi: g‘azal, qasida, ruboiy, tuyuq kabi mumtoz janrlarni vujudga keltirishda va ularning tarkibiy tuzilishini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Hissiy ta’sir kuchi: qofiyadosh so‘zlarning takrorlanishi o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi. U misralar orasidagi ichki bog‘liqlikni kuchaytirib, asarning emotsional ta’sirini bir necha barobar oshiradi.

2. Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, mumtoz adabiyotda qofiya ko‘p funksiyali poetik vosita hisoblanadi.U nafaqat tashqi shakl elementi, balki ichki mazmunni shakllantiruvchi muhim komponentdir.

Alisher Navoiy ijodida qofiya va radif uyg‘unligi ayniqsa diqqatga sazovor. Shoir qofiya orqali tasavvufiy g‘oyalarni chuqur va ta’sirchan ifodalaydi. Bu esa qofiyaning semantik imkoniyatlari keng ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, qofiya tizimi janrlar kesimida ham o‘ziga xoslik kasb etadi. Masalan, g‘azalda erkin baytlar ichida yagona qofiya tizimi saqlansa, ruboiyda qisqa va lo‘nda shaklda mazmun jamlanadi. Bu esa qofiyaning strukturaviy rolini yanada muhimlashtiradi.

3. Xulosa. Mumtoz adabiyotda qofiya she’riy nutqning ajralmas qismi bo‘lib, u musiqiylik, mazmuniy chuqurlik va kompozitsion yaxlitlikni ta’minlaydi. Qofiya orqali shakl va mazmun uyg‘unlashadi, natijada badiiy mukammallik yuzaga keladi. Shu bois qofiya mumtoz she’riyatning asosiy poetik vositalaridan biri sifatida ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Qofiya tizimi aruz vazni bilan chambarchas bog‘liq. Aruz tizimida har bir misra qat’iy vazn asosida quriladi va qofiya ushbu vaznning tabiiy davomchisi sifatida xizmat qiladi. Natijada she’rda mukammal ritmik va fonetik uyg‘unlik yuzaga keladi.

2 https://uz.wikipedia.org/wiki/Qofiya

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Ulug‘ov “Adabiyotshunoslikka kirish”. –T.: Universitet, 2000.
2. Boboev T. She’r ilmi ta’limi. –T.: “O‘qituvchi”, 1996.
3. B.Sarimsoqov “Badiiylik asoslari va mezonlari” –T., 2004.
4. Fitrat “Adabiyot qoidalari”.–Toshkent, 2002.
5. I.Sultonov “Adabiyot nazariyasi”. –T.: O‘qituvchi, 2002.
6. D.Quronov “ Adabiyotshunoslikka kirish”. –T., 2004
7. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ НМК, 1998. 158 -б.
8. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Т.: Ўзбекистон, 2014. 320-б.

Sevara YARASHOVA,
BuxDPI I bosqich magistranti

ADABIYOT DARSLARIDA ARUZ VAZNI VA INSONPARVARLIK G‘OYALARI TALQINI (HABIBIYNING “ODAM BILUR” G‘AZALI MISOLIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada XX asr o‘zbek mumtoz adabiyoti an’analarining munosib davomchisi, O‘zbekiston xalq shoiri Habibiy ijodiga mansub “Odam bilur” g‘azalining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, undagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar hamda aruz tizimidagi vazn o‘lchovlari (taqte’ va aruz qoidalari) chuqur tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *aruz vazni, Ramali musammani mahzuf, taqte’, vasl, imola, g‘azal, ijtimoiy kontrast, tashbeh.*

Аннотация: в данной статье проводится углубленный анализ идеологических и художественных особенностей газели «Адам билур», достойного преемника традиций узбекской классической литературы XX века, произведения народного поэта Узбекистана Хабибия, социально-философских взглядов, содержащихся в ней, и размеров метра в системе аруз (правила такте и аруз).

Ключевые слова: *метр аруз, Рамали муссамани махзуф, такте, васл, имола, газель, социальный контраст, аллюзия.*

Annotation: this article provides a profound analysis of the ideological and artistic features, socio-philosophical views, and metrical measures within the *aruz* system (specifically *taqti’* and the rules of *aruz*) of the ghazal “Odam bilur” (Only a Human Knows) by Habibiy, a People’s Poet of Uzbekistan and a worthy successor to the traditions of 20th-century Uzbek classical literature.

Key words: *aruz metre, Ramali musammani mahzuf, taqti’ (scansion), vasl (liaison), imola (vowel lengthening), ghazal, social contrast, tashbih (simile).*

KIRISH

Klassik she’riyatimiz shakllari, xususan, aruz vazni asrlar davomida xalqimizning ma’naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirib kelgan eng ta’sirchan vositalardan biridir. XX asrda yashab ijod etgan, mumtoz adabiyotimizning munosib davomchisi **Habibiy (Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li, 1890–1980)** o‘zining go‘zal g‘azallari bilan aruz an’analarini yangi davrga olib kirdi. Shoirning teran ijtimoiy-falsafiy mushohadalarga boy bo‘lgan «Odam bilur» g‘azali insoniy munosabatlar, hamdardlik va hayot maktabining og‘ir saboqlari haqida kuylangan mukammal asardir.

I. G‘AZALNING VAZN XUSUSIYATLARI

“Odam bilur” g‘azali aruz tizimining eng ohangdor va mahzun vaznlaridan biri — **Ramali musammani mahzuf** vaznida bitilgan. Ushbu vazn o‘zining vazmin, sokin va o‘ychan ohangi bilan o‘quvchini chuqur mushohada yuritishga chorlaydi.

Vaznning umumiy metrik qolipi quyidagicha:

Failatun / Failatun / Failatun / Failun

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

Aruz qoidalariga ko‘ra, undosh bilan tugagan yoki tarkibida cho‘ziq unli bor bo‘g‘inlar **cho‘ziq (–)**, unli bilan tugagan ochiq bo‘g‘inlar esa **qisqa (V)** deb olinadi. Quyida g‘azalning to‘liq matni misralar ostiga ramzlar chizilgan holda (taqte’ qilinib) ko‘rsatiladi:

1-bayt

Одам аҳлин қадрини фарзона бир одам билур,

O / da / mah / lin / qad / ri / ni / far / zo / na / bir / o / dam / bi / lur

– V – – / – V – – / – V – – / – V – *(Metrik tahlil: “Odam ahlin” birikmasida **vasl** (ulash) hodisasi yuz berib, “O-da-mah-lin” shaklida ritmga tushgan).*

Қайғуликни қайғулик, хуррам сирин хуррам билур.

Qay / g‘u / lik / ni / qay / g‘u / lik / xur / ram / si / rin / xur / ram / bi / lur

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

2-bayt

Очу муҳтожу яланғочларни билмас қорни тўқ,

O / chu / muh / to / ju / ya / lan / g‘och / lar / ni / bil / mas / qor / ni / to‘q

– V – – / – V – – / – V – – / – V – *(Metrik tahlil: Misra oxiridagi “to‘q” so‘zi bitta yopiq bo‘g‘in bo‘lsa-da, qoidaga ko‘ra oxirgi bo‘g‘in doimo cho‘ziq (–) sanaladi).*

Очлик, муҳтожлик бир ғамки, аҳли ғам билур.

Och / lik / muh / toj / lik / bir / g‘am / ki / ah / li / g‘am / bi / lur

– V – – / – V – – / – V – – / – V – *(Metrik tahlil: “lik” bo‘g‘inida ohang ravonligi uchun yengil **imola** (cho‘zish) qo‘llangan).*

3-bayt

Давлат(и) соғлиқни соғлар, тандурустлар билмагай,

Dav / la / ti / sog‘ / liq / ni / sog‘ / lar / tan / du / rust / lar / bil / ma / gay

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

Дард тортиб, шипга термулган кўзи пурнам билур.

Dard / tor / tib / ship / ga / ter / mul / gan / ko‘ / zi / pur / nam / bi / lur

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

4-bayt

Ишқ аҳлига келган қаттиқ узоқ ҳижрон тунин,

Ish / qah / li / ga / kel / gan / qat / tiq / u / zoq / hij / ron / tu / nin

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

Сабзадек ҳар кеча бўлган киприги шабнам билур.
Sab / za / dek / har / ke / cha / bo‘l / gan / kip / ri / gi / shab / nam / bi / lur
– V – – / – V – – / – V – – / – V –

5-bayt

Аҳли донишлар бировларга қилур ғамхўрлик,
Ah / li / do / nish / lar / bi / rov / lar / ga / qi / lur / g‘am / xūr / lik
– V – – / – V – – / – V – – / – V –

Бефаросат масту мағрур аҳли қайдин ҳам билур.
Be / fa / ro / sat / mas / tu / mag‘ / rur / ah / li / qay / din / ham / bi / lur
– V – – / – V – – / – V – – / – V –

6-bayt

Дўсти холис, ошинойи беғараз нозирлигин,
Dōs / ti / xo / lis / o / shi / no / yi / be / g‘a / raz / no / zir / li / gin
– V – – / – V – – / – V – – / – V –

Бўлса ғурбатда кишига улфату ҳамдам билур.
Būl / sa / g‘ur / bat / da / ki / shi / ga / ul / fa / tu / ham / dam / bi / lur
– V – – / – V – – / – V – – / – V –

7-bayt (Maqta)

Эй Ҳабибий, кулфату роҳатни кўрганлар каби,
Ey / Ha / bi / biy / kul / fa / tu / ro / hat / ni / kūr / gan / lar / ka / bi
– V – – / – V – – / – V – – / – V –

Дарҳақиқат, кўрмаганлар билсалар ҳам кам билур.
Dar / ha / qi / qat / kūr / ma / gan / lar / bil / sa / lar / ham / kam / bi / lur
– V – – / – V – – / – V – – / – V –

II. G‘AZALNING BADIY VA FALSAFIY TALQINI

G‘azalning bosh g‘oyasi xalqimiz orasidagi “Boshidan o‘tgan tabib” yoki “To‘qning och bilan nima ishi bor” degan hayotiy va falsafiy matallarga tayanadi. Shoir har bir baytda insoniy kechinmalarni qarama-qarshiliklar (antiteza) vositasida tasvirlaydi.

Matla’ (1-bayt) talqini: Habibiy asarni umuminsoniy qadriyat bilan boshlaydi. Insonning asl qadrini faqat uning o‘zi kabi ma’rifatli, donishmand (farzona) kishilar biladi. Ruhiy holatlar ham shunday: g‘amgin qalbni faqat dardi bor odam tushunadi, shodlikning sirini esa faqat ichki dunyosi quvonchga to‘la inson his qila oladi. **Ijtimoiy ziddiyatlar (2 va 3-baytlar):** Bu yerda chuqur ijtimoiy dramatizm bor. Farovonlikda, to‘qchilikda yashayotgan inson hech qachon ochlik va muhtojlikning yukini tasavvur qilolmaydi. Eng muhimi, eng katta boylik — sog‘liq ekanini inson faqat uni yo‘qotganda anglaydi. Tunlari azobdan uxlay olmay shiftga termulib chiqqan xastaning ko‘z yoshi (kūzi purnam) sog‘liq qadrini hammadan ko‘ra yaxshiroq biladi. **Badiiy san’atlar (4 va 5-baytlar):** To‘rtinchi baytda mumtoz adabiyotga xos go‘zal **tashbeh (o‘xshatish)** san’ati qo‘llangan. Hijron tunlarida ko‘z yosh to‘kkan oshiqning kipriklari tongda ustiga shabnam qo‘ngan ko‘m-ko‘k maysalarga (*sabza*) o‘xshatiladi. Beshinchi baytda esa olijanob ilm egalari va kibrga berilgan fahm-farosatsiz odamlar qarama-qarshi qo‘yilib, jamiyatdagi ma’naviy qashshoqlik tanqid ostiga olinadi. **Sadoqat va G‘urbat (6-bayt):** Inson o‘z vatanida, yaqinlari bag‘rida yurganda do‘stning xolisligini bilmasligi mumkin. Ammo boshiga musibat tushganda yoki musofirlikda (g‘urbatda) qolgandagina chin dildan hamdam bo‘lgan beg‘araz dushman yoki do‘stning qadrini anglaydi. **Maqta’ (7-bayt) — Yakuniy falsafa:** Shoir o‘z taxallusi — Habibiy nomiga murojaat qilib, hayotiy xulosasini aytadi. Hayot maktabining achchiq kulfatlarini va shirin rohatlarini o‘z tanasida tatib ko‘rgan insonlar haqiqiy donishmandlardir. Bu qiyinchiliklarni ko‘rmagan, faqat kitoblardan o‘qigan yoki eshitgan odamlar esa hayotni bilsalar ham, baribir juda kam biladilar, ularning bilimi yuzakidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Habibiyning «Odam bilur» g‘azali nafaqat aruz vaznining qat’iy qonuniyatlariga to‘liq javob beradigan yuksak texnik mukammallikka ega, balki o‘zining tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati bilan ham o‘lmas asardir. Shoir o‘quvchini xudbinlikdan uzoq bo‘lishga, atrofga teranroq nazar tashlashga, o‘zgalarning dardiga hamdard va sherik bo‘la olishga chorlaydi. Ushbu asar o‘zbek she’riyatining oltin merosi sifatida yosh avlodni komillikka yetaklovchi eng go‘zal qo‘llanmalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Habibiy. Devon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1971. – 320 bet (Shoirning ushbu g‘azali va boshqa mumtoz asarlari jamlangan asosiy manba).
2. Habibiy. Zamon farhodlari. She’rlar va g‘azallar to‘plami. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1959. – 148 bet
3. To‘ychiyev, U. O‘zbek poetikasi masalalari (Aruz vazni va qofiya darsligi). – Toshkent: O‘qituvchi, 1982. – 208 bet (G‘azalning Ramal vazni va taqte’ tizimini ilmiy asoslash uchun).
4. Is’hoqov, Yo. So‘z san’ati jozibasi (Mumtoz poetika asoslari). – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 160 bet (Maqoladagi tashbeh va antiteza kabi badiiy san’atlar tahlili uchun).
5. Hojiahmedov, A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999. – 240 bet (Aruz vaznida imola, vasl va taqte’ qoidalarining nazariy manbasi).
6. O‘zbek tili va adabiyoti masalalari (Ilmiy maqolalar to‘plami). – Toshkent: Fan, 1985. – 45-52 bet (XX asr aruznavisligi va Habibiy ijodiy merosiga bag‘ishlangan tadqiqotlar).

Sitora SUXANBERDIYEVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich magistranti



ADABIYOT DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyot darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning didaktik tamoyillari va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Badiiy asarni tanqidiy tafakkur bilan tahlil qilishda yaxlitlik, tizimlilik va tarixiylik tamoyillariga amal qilinsa, tahlil ilmiy, tanqidiy va nazariy jihatdan to‘g‘ri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *komil inson, yaxlitlilik, tizimlilik, tarixiylik tamoyillari.*

Annotation: this article discusses the didactic principles of developing critical thinking in literature lessons and their importance in the educational process. If the principles of integrity, systematicity, and historicity are followed in the critical analysis of a work of art, the analysis will be scientifically, critically, and theoretically correct.

Key words: *perfect person, principles of integrity, systematicity, and historicity.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются дидактические принципы развития критического мышления на уроках литературы и их важность в образовательном процессе. Если при критическом анализе произведения искусства соблюдаются принципы целостности, систематичности и историчности, то анализ будет научно, критически и теоретически корректным.

Ключевые слова: *совершенный человек, принципы целостности, систематичности и историчности.*

Maktab ta’limida o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishgina emas, balki uning ta’sirchan qalb, samimiy tuyg‘ular, boy hissiyot, ezgu sifatlar egasi, bir so‘z bilan aytganda, komil inson bo‘lishiga ustuvor ahamiyat berilishi lozimligi milliy pedagogikamiz tarixidan ma’lum[1]. Bu yerda adabiyotshunos olim Q.Yo‘ldoshev adabiyotni inson ma’naviyatini rivojlantiruvchi vositalardan biri sifatida baholaydi. Har qanday badiiy asardan go‘zallik izlash ham olimning asosiy prinsiplaridan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Adabiyot, avvalo, insonni, chin ma’nodagi shaxsni tarbiyalashi kerak ekan, bu so‘zlar hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Chin ma’nodagi shaxsdan esa har qanday yetuk fikrlarni kutish mumkin. Tanqidiy tafakkur insonda u qachonki shaxs darajasiga yetganda shakllanishni boshlaydi. O‘quvchilarda bu kabi tafakkurni shakllantirish uchun chinakam mehnat talab etiladi. Bu borada o‘quvchilarga ma’lum bir alternativ fikrdan qochishni, yoki qachonlardir qat’iy qoidaga aylangan qonuniyatlarni ham inkor eta olish qobiliyatini shakllantirish joiz. Zotan, Q.Yo‘ldoshev olimning ta’biricha, tafakkur taraqqiyotiga xolis nazar tashlash shuni ko‘rsatadiki, inson tomonidan yaratilgan har qanday qarashlar tizimi, kashf etilgan qonuniyatlar sistemasi ham abadiy bo‘la olmaydi. Qachonlardir qoidaga aylanib ulgurgan nazariyalar ham eskiradi, insoniyat rivojlanishda davom etar ekan, u hamisha yangilangan tafakkur bilan fikrlashga intilishi lozim. Faqat qoliplarga ko‘nikib qolgan avlodgina tanqidiy tafakkurga erisha olmaydi.

Adabiyot darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning didaktik tamoyillari o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tahlil jarayonidagi eng muhim tamoyil *yaxlitlikdir*[2]. Yaxlitlik talabi, avvalo, o‘rganiladigan badiiy asarga yaxlit nigoh bilan qarashdir. Zotan, asl san’at yaxlitlikdan iboratdir. San’at asarining ichki butunligiga daxl

1 Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 17 б.

2 Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 196-б.

qilinmagandagina uning butunligini ochish mumkinligini olim Q.Yo‘ldoshev o‘z ilmiy ishida isbotlab bergan. Bu tamoyilni ilgari surganda tahlil barkamol shaxs ma’naviyatini shakllantirishdek ulkan pedagogik maqsadni ko‘zda tutar ekan, shaxsni ham faqatgina yaxlit holda shakllantirish mumkinligini hisobga olish zarur. Chunki tarbiyanaluvchiga tanqidiy tafakkur qilishni o‘rgatish uchun unga bilimni ham, badiiy asarni ham yaxlit holda berish talab etiladi. Inson aynan yaxlit holda bilim olsagina aynan o‘sha asar haqida yaxlit bilim shakllanadi, yoxud har qanday berilgan bilim chala bo‘lib qolaveradi. “Chinakam badiiy asarni o‘qish, uni butunicha yaxlitligicha qabul qilish, uning qa’riga berkitilgan go‘zallikdan to‘lig‘icha ta’sirlanish o‘quvchi ruhiyatidagi, vujuddagi imkoniyatlarni shu darajada uyg‘otib yuboradiki, uni kamolotning yo‘lidan shunday sur’at bilan ketishga undaydiki, eng zamonaviy texnika sirini o‘rganish ham o‘quvchi shaxsini bunchalik rivojlantira olmaydi”, – deya ta’kidlaydi Q.Yo‘ldoshev. U yana shuni ta’kidlaydiki, badiiy asarga mo‘jizaviy butunlik tarzida yondashilmas ekan, uning butun jozibasini ham, tub ma’nosini ham tushunib bo‘lmaydi. Badiiy asar tahlili jarayonida tanqidiy tafakkurni rivojlantish uchun tanlanayotgan badiiy asar tahlil jarayoniga bus-butunicha olib kirilishi kerak. Bu orqali asarning butun ma’nosi, bor tarovati va o‘quvchiga beradigan estetik zavqi yuzaga chiqadi. Ana shunda kutiladigan natijalarga tezroq erishish mumkin.

O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan tamoyillardan yana biri *tizimlilik*dir[3]. Aslida, tizimlilik tamoyili ham yaxlitlik tamoyilining uzviy davomi bo‘lsa-da, u badiiy asarni tashkil etgan komponentlarning muayyan tizimli ko‘rinishga ega ekanligini ko‘zda tutadi va tahlilda shu holat hisobga olinishi kerakligini talab qiladi. Tizimlilik tamoyili ta’lim jarayonidagi bilim, ko‘nikma, malakalar tartibli, mantiqiy bog‘langan, bosqichma-bosqich hamda uzviy ravishda shakllantirilishini nazarda tutadi. Bu tamoyil ta’lim dasturidagi uzviylikni ham, biror badiiy asardagi uzviylikni ham nazarda tutadi. Ya’ni, chinakam badiiy asarda tizimlilikni buzadigan, uning umumiy ma’nosiga putur yetkazadigan hech qanday unsurlar bo‘lmaydi. Turli badiiy tasvir vositalari bir badiiy asar tarkibiga tasodifan yig‘ilib qolmaydi, aslida, ularning asar tarkibida yig‘ilishidan biror mantiqiy ma’nosi bo‘ladi. Shuningdek, tizimlilik tamoyili badiiy asar o‘qish jarayonida aynan tanlangan asar mazmuniga qarshi xizmat qiladigan vositalarni ta’lim jarayoniga olib kirishni rad etadi. Hech qanday omil o‘rganiladigan asar mazmuniga putur yetkazmasligi lozim. Tanqidiy fikrlashda tizimlilik quyidagicha ishlaydi[4]:

3 Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 196-б.
4 John Dewey. How we Think. – Boston: D.C. Heath with Co., 1910.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda tizimlilik

Bosqich	O‘quvchi faoliyati	Kutilayotgan natija
1. **Qiziqtirish**	Savol, muammo	Fikr uyg ‘onishi
2. **Anglash**	Tahlil, izlash	Ma’lumotning tushunilishi
3. **Taqqoslash**	Dalillarni solishtirish	Mustaqil qarash paydo bo‘lishi
4. **Baholash**	To‘g‘ri-noto‘g‘riga ajratish	Tanqidiy yondashish
5. **Xulosa**	Fikrni himoya qilish	Shaxsiy pozitsiyaga ega bo‘lish

O‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda foydalaniladigan tamoyillardan yana biri *tarixiylik*dir. Bu tamoyil tahlilga tortiladigan badiiy asarning kelib-chiqish tarixi, yozilish sababi va maqsadi kabilarga javob beradi. Muxtasar aytganda, tahlil qilinadigan har qanday badiiy matnning yaratilgan davrini va imkoni bo‘lsa, bu asarning yaratilishiga turtki bo‘lgan asosiy sababni bilmay turib, uni chuqur o‘rganish va haqqoniy xulosaga kelishning imkoni yo‘q. O‘quvchilar o‘rganilayotgan badiiy asarga tarixiylik nazari bilan yondashsa, qahramonlarning ruhiy holatini ham, ularni turli faoliyatlarga undagan sabablarni ham tushuna oladi. Shuningdek, tarixiylik tamoyili ta’lim metodologiyasining muhim didaktik qismi bo‘lib, bilimni tayyor natija sifatida emas, balki ma’lum ijtimoiy-madaniy sharoitda shakllangan jarayon sifatida o‘rganishni talab qiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi har qanday g‘oya, tushuncha yoki

asarni uning paydo bo‘lish sabablarini, rivojlanish bosqichlarini va davr talablarini hisobga olgan holda tahlil qiladi. Shuning uchun tarixiylik tamoyili tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi: u baholashni hissiy yoki yuzaki hukmdan ilmiy asoslangan xulosaga olib keladi. Didaktika nazariyasida ham tarixiylik juda muhim o‘rin tutadi. Pedagog olim I. Ya. Lerner o‘quv faoliyatini reproduktiv va produktiv turlarga ajratadi[5]. Uning ta’kidlashicha, bilimni tayyor shaklda berish reproduktiv tafakkurni, bilimning paydo bo‘lish mantiqini ochish berish esa produktiv tafakkurni rivojlantiradi. Tarixiylik tamoyili aynan produktiv fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi, chunki u holda o‘quvchi natijani emas, unga olib kelgan fikrlash jarayonini tahlil qiladi.

Adabiyot darslari nafaqat o‘quvchilarga badiiy asarlarni o‘rgatish, balki ularning tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ham muhim maydon hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash, ayniqsa, “hamma ishonadigan yolg‘onlar”ni aniqlash va ulardan yiroq turib, mustaqil fikrlashda muhim o‘rin tutadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jahonda dolzarb masala sifatida ko‘rilayotgan bir paytda uni amalga oshirish uchun yechimlar ko‘rib chiqilmoqda. Birinchi navbatda, har qanday badiiy asar, badiiy matn chuqur o‘rganilishi kerak[6].

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash insonning axborotni tahlil qilish, baholash, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Mazkur ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish muayyan pedagogik tamoyillarga asoslanadi. Avvalo, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim tamoyillaridan biri *mustaqil fikrlash tamoyili*dir. Ushbu tamoyilga ko‘ra, o‘quvchi tayyor bilimlarni passiv ravishda qabul qiluvchi emas, balki bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtiruvchi va ularga nisbatan o‘z munosabatini bildiruvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Mustaqil fikrlash o‘quvchining o‘z nuqtai nazarini shakllantirishiga, muammolarga turli rakurslardan yondashishiga hamda mavjud qarashlarni tanqidiy tahlil qilishiga imkon yaratadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda *muammolilik tamoyili* ham alohida ahamiyatga ega. Mazkur tamoyil ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va o‘quvchilarni ushbu muammolarning yechimini izlashga jalb etishni nazarda tutadi. Muammoli vaziyatlar o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi, ularni izlanishga undaydi hamda bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi. *Dalillarga asoslanish tamoyili* tanqidiy fikrlashning markaziy unsurlaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilar har qanday fikr yoki xulosani ilgari surishda ishonchli dalillar, faktlar va manbalarga tayanishlari zarur. Bu esa ularning subyektiv qarashlardan voz kechib, obyektiv va asoslangan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mustaqillik, muammolilik va dalillarga asoslanish kabi tamoyillarga tayanadi. Ushbu tamoyillarning ta’lim jarayoniga izchil tatbiq etilishi o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, asosli qaror qabul qilish va zamonaviy jamiyat talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

5 Лернер I.Ya. Дидактические основы методов обучения. Москва, 1981
6 Critical thingking: why is it so hard to teach? Daniel Willingham. Arts education policy review, 2010. Page 23.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий- методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 196-бет
2. John Dewey. How we Think. – Boston: D.C. Heath with Co., 1910.
3. Лернер I.Ya. Дидактические основы методов обучения. Москва, 1981.
4. Critical thingking: why is it so hard to teach? Daniel Willingham. Arts education policy review, 2010. P- 23.

Nargiza BERDIRASULOVA,
Nukus DPI magistranti

SHE'RIYATDA ESTETIK IDEAL VA PSIXOLOGIK TASVIR

Annotatsiya: mazkur maqolada she'riyatda estetik ideal va psixologik tasvir masalalari lirik kechinma asosida tahlil qilinadi. Lirik asarning markazida inson qalbi, uning ruhiy holati va hissiy-intellektual tafakkuri turishi yoritiladi. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida yuz bergan yangilanishlar, ijod erkinligi va badiiy tafakkur taraqqiyoti haqida fikr yuritiladi. Shoira Guljamol Asqarova she'riyati misolida ko'ngil erki, ruhiy kechinmalar, realizm va poetik idrok uyg'unligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *she'riyat, estetik ideal, psixologik tasvir, lirik kechinma, poetik obraz, ruhiy olam, lirik qahramon, badiiy tafakkur, realizm, tuyg'u va tafakkur.*

Annotation: this article analyzes the issues of aesthetic ideal and psychological portrayal in poetry based on lyrical experience. It highlights that the human soul, its psychological state, and emotional-intellectual thinking occupy the central place in a lyrical work. The paper discusses the renewal processes, creative freedom, and the development of artistic thinking in Uzbek poetry during the independence period. Using the poetry of Guljamol Asqarova as an example, the harmony of freedom of the soul, emotional experiences, realism, and poetic perception is revealed.

Key words: *poetry, aesthetic ideal, psychological portrayal, lyrical experience, poetic image, spiritual world, lyrical hero, artistic thinking, realism, emotion and thought.*

Аннотация: в данной статье анализируются вопросы эстетического идеала и психологического изображения в поэзии на основе лирических переживаний. Освещается центральное место человеческой души, её психологического состояния и эмоционально-интеллектуального мышления в лирическом произведении. Рассматриваются процессы обновления, творческой свободы и развития художественного мышления в узбекской поэзии периода независимости. На примере поэзии Гульджамол Аскаровой раскрывается гармония свободы души, духовных переживаний, реализма и поэтического восприятия.

Ключевые слова: *поэзия, эстетический идеал, психологическое изображение, лирическое переживание, поэтический образ, духовный мир, лирический герой, художественное мышление, реализм, чувство и мышление.*

Kirish (Introduction). Adabiy jarayonning ajralmas va eng nozik qatlamlaridan biri bo'lgan lirik kechinma bu she'riyatning asosiy mazmuniy markazi hisoblanib, uning badiiy-estetik kuchini belgilovchi bosh omillardan sanaladi. Lirik asar mohiyatiga ko'ra, shoirning individual ruhiy olami, ichki kechinmalari hamda subyektiv munosabatining badiiy ifodasi bo'lib, u o'z tasviriy vositalari orqali keng umumlashmalarga ko'tariladi. Inson qalbida kechadigan turfa holatlar – iztirob, quvonch, shodlik, sog'inch yoki hayrat – lirik matn strukturasi ichida obrazlashib, o'quvchi ongida ham o'ziga xos estetik kayfiyatni hosil qiladi. Har bir she'r tug'ilar ekan, u shoir, yaratuvchining ma'lum bir fikriy qarashlaridan kelib chiqib yuzaga keladi. She'r shunchaki yaratiqgina bo'lib hisoblanmay, unda shoirdagi hissiy tuyg'ular ifodasi o'z aksini topadi.

Metodologiya (Methods / Methodology). Maqolada she'riy matnlarni badiiy-estetik va psixologik tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Guljamol Asqarova she'riyati misolida lirik kechinma, poetik obraz va ruhiy tasvir masalalari qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Adabiyot gullab-yashnashi, ravnaq topishida, avvalo Mustaqillikning roli beqiyos bo'ldi. Istiqlol sharofati tufayli yurtimiz tarixida yangi davr boshlandi. Mamlakat hayotining hamma jabhalarida, jumladan, adabiyot sohasida ham buyuk o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrda adabiyotimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga – keskin burilish va yangilanishlar bosqichiga ko'tarildi. Mustaqillik davri adabiyotidagi eng katta yangilik shuki, bu davrda ijodkorlar sotsialistik realizm va kommunistik mafkura tazyiqidan xalos bo'lib, tom ma'noda so'z, ijod va e'tiqod erkinligiga muyassar bo'ldilar. Natijada hayotda bo'lganidek, adabiyotda ham demokratiya va oshkoralik kuchaydi.

Natijalar (Results). Ko'p mavzularni tasvirlashda avvalgi mezonlarga qat'iy chek qo'yildi. Bu chin erkinlikni hammadan ham ko'proq shoirlarimizning o'zlari teran anglamoqdalar va bu bu haqda iftixor va g'urur bilan yozmoqdalar. Zero, muhtaram Prezidentimiz ham bu borada alohida ta'kidlaydilar. "Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi"[1].

Inson hayoti tuganmas sir-u sinoatlarga boy. Har bir kishi mavjudlik maydoni o'z holicha yaxlit bir kitobdir. Inson qalbi esa mana shu sahifalarni yog'dulantirib,

1 Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 49.

nurlantirib turuvchi mo‘jizakor xilqat sanaladi. Inson hayotini hamisha turfa taqdirlarga duchor qiluvchi qalb mohiyati juda murakkab, dunyoda ezgulik va yovuzlik, sadoqat va xiyonat, mehr va zulm kabi tushunchalar bir-biri bilan yonma-yon yashar ekan, inson qalbi, hayot mana shu sohillari aro o‘zini o‘zi yaratib, ishg‘ol qilib, kashf etib boradi.

Tabiiyki, mavjud holatda nutq badiiy vazifadoshligi ham o‘lchamini o‘zgartiradi. Buning natijasi o‘laroq, ziddiyat hamda uyg‘unlik aloqalantirilgan sajiyasi muhokama mag‘zini tayin etadi. Muallif adabiy talqinida inson (subyektiv ibtido) va voqelik (obyektiv intiho) plastik tasavvur yaxlitligiga evriladi. ***Kuzatish***, ***sharhlash*** hamda ***baholasharo*** uyg‘unlik ijodkor alohidaligini belgilaydigan asosiy omil. Voqelikni, inson ruhiyatini realistik idrok va ifoda etishda hissiy tafakkurdan sizib chiquvchi tuyg‘u madaniyati birlamchi o‘rin tutadi. Realizm, avvalo, tuyg‘u bilan tafakkurning yuksak omuxtaligi, sintezi samarasi, haq va haqiqatga yetishish vositalaridan biri sanaladi.

Muhokama (Discussion). Guljamol Asqarova she’riy matnida ko‘ngil erki masalasi g‘oyat keng va rangin qirralarda voqe bo‘ladi. Badiiy asar tabiati, ijod psixologiyasi, adabiy jarayon tamoyillari bilan omuxta kuzatilgani bois u obrazlar qatimiga, so‘z san’atkori tafakkur tarziga, ijodiy individualligiga singdirib yuboriladi. Aynan ana shu qalbga “mutelik” oshnolikka aylanib, hamkor-hamnafas holatida inson quvonch-shodliklari va dard-alamlarini ifodalaydi: hayot, shaxs, jamiyat haqidagi teran mushohadalar tusini oladi. So‘z san’ati namunalari shu tariqa qadriyatlar maqomiga ega bo‘ladi: falsafiy, axloqiy-ma’rifiy mazmun-mohiyati bilan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi hamda qayta idrokda baholangan estetik hodisaga aylanadi.

Har bir avlod shoirlari obrazlar tizimi bir-biriga o‘xshamaganidek so‘z san’atkorlari lirik qahramonlari ham har bir she’rda betakror yo‘sinda fikrlaydi. Joriy holat har bir ijodkor avlodi badiiyat tarixidagi o‘zlik qiyofasini belgilab berish barobarida, shoirlar individual dunyosini ham tayin etadi.

Chinakam san’at uchun, ayniqsa, she’riyat uchun xarakterli bo‘lgan asosiy omil lirik “MEN”ning ruhiy olamidir. Ruhiy borliqsiz esa har qanday mazmun esa o‘lik hisoblanadi. Lirik qahramonning murakkab tuzilishi va uning ehtiroslarga boy bo‘lgan qalbisiz she’riyat chinakam badiiyat namunasiga aylanishi qiyin. Zero, Ulug‘bek Hamdam e’tirof etganidek, “Har qanday yaxshi she’r markazida o‘zining quvonch va tashvishi, orzu-armoni bilan – INSON turadi. She’rni tahlil qilar ekanmiz, biz xuddi shu insondan, uning tabiatidagi maqsad va intilishlaridan, yanada to‘g‘risi inson haqidagi o‘z tasavvurimizdan kelib chiqamiz”[2]. She’riyatdagi ruhiy olam qirralari ko‘plab badiiy unsurlar, birinchi galda esa poetik obrazlar oraqli vujudga keladigan obrazlilikda namoyon bo‘ladi. “Poetik obrazlar ruhiy olam qirralarini kashf etishda boshqa unsurlarni birlashtirib turuvchi asosiy omilga aylanadi”[3]. Yuqoridagi she’rda ham tabiat unsurlariga murojaat qilish orqali lirik qahramon ichki ruhiy holatini anglash u qadar qiyin emas.

Intellektual inson – tabiat va jamiyat haqidagi tafakkur madaniyati eng baland cho‘qqisi. Ramzlarga, badiiy shartlilikka, timsollarga tayangan fikrlash tarzi tuyg‘ular realligiga, hayot haqiqatiga etishish, ko‘rish ham ko‘rsatish vositalari hisoblanadi. Aslida so‘zni tushunish va tushuntirishda hissiy-emotsional idrok bosh omil hisoblanadi. “Tuyg‘u fikrni uyg‘otadi, takomillashtiradi, ezgulik, adolat, go‘zallik maqomidagi ma’naviy-axloqiy taxlit qadriyatlarni yoqlovchi tafakkur madaniyati tarzida qiyomiga yetkazadi. U bilim, ijtimoiy-falsafiy fikr tariqasida zohir bo‘ladi. Shoira tuyg‘u-tafakkur quli ham, hukmdori ham emas”[4]. Faqat tuyg‘u-tafakkurlar haqiqatini ro‘yobga chiqaruvchi, bir umr ko‘ngliga e’tibor keltirib yashagan, uning royishlari bilan istaklarini amalga oshiruvchi fidoyi bir shaxs. Shu ma’noda, shoira hech qachon o‘z ko‘nglini yengolmaydi, ko‘ngliga farmoyish ham berolmaydi, vaholanki, uning buyukligiyu ojizligi ham shunda ko‘rinadi.

Xulosa (Conclusion). She’riyatda estetik ideal va psixologik tasvir inson ruhiy olamini yoritishda muhim badiiy vosita hisoblanadi. Lirik kechinmalar orqali shoirning ichki dunyosi va poetik tafakkuri namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat, she’rdagi poetik mazmun o‘zining go‘zal shakliga ega bo‘lsagina estetik zavq berishi mumkin. Boshqa san’at turlarida turfa xil materiallar san’at unsurlari sifatida namoyon bo‘lsa, badiiyatda faqat so‘za va so‘z orqali namoyon bo‘ladigan poetik unsurlargina, poetik mazmun mutanosibligini vujudga keltirishi mumkin, xolos. Biroq, asardagi poetik mazmun bilan muayyan shakl uyg‘unligining o‘zi badiiy barkamol asar yaratish uchun asos bo‘ladi degan tasavvur xatodir.

2 Хамдамов У. Давр руҳининг шеъриятда акс этиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001. – В. 23.
3 Nosirov O‘. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. – Toshkent: Fan, 1981.
4 Qurbonboyev I. Hozirgi o‘zbek lirikasi. – Toshkent: Muharrir, 2012.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 49-bet
2. Хамдамов У. Давр руҳининг шеъриятда акс этиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001. – В. 23-bet
3. Nosirov O‘. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. – Toshkent: Fan, 1981.
4. Qurbonboyev I. Hozirgi o‘zbek lirikasi. – Toshkent: Muharrir, 2012.

Dilsora RASULOVA,
Qarshi davlat universiteti 3-bosqich talabasi



ZAMONAVIY O‘ZBEK AYOLLAR SHE’RIYATIDA MUHABBATNING PSIXOLOGIK TASVIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek ayollar she’riyati misolida muhabbatning psixologik tasviri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida muhabbatning sog‘inch, intizorlik, iztirob, umid, ma’naviy kamolot va o‘zlikni anglash kabi psixologik ko‘rinishlari aniqlanadi. Shuningdek, ichki monolog va psixologik parallelizm kabi poetik vositalarning lirik qahramon ruhiy holatini ochib berishdagi o‘rni baholanadi. Tadqiqot natijalari zamonaviy o‘zbek ayollar she’riyatida muhabbat mavzusi nafaqat estetik hodisa, balki inson ichki olamini aks ettiruvchi muhim psixologik fenomen sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy o‘zbek she’riyati, ayollar she’riyati, muhabbat, psixologik tasvir, lirik qahramon, ruhiy kechinma, poetik tasvir, falsafiy mazmun, psixologizm.*

Аннотация: в данной статье на примере современной узбекской женской поэзии анализируется психологическое изображение любви. В ходе исследования выявляются такие психологические проявления любви, как тоска, ожидание, душевные страдания, надежда, духовное совершенствование и самопознание. Также оценивается роль поэтических средств, таких как внутренний монолог и психологический параллелизм, в раскрытии душевного состояния лирического героя. Результаты исследования показывают, что тема любви в современной узбекской женской поэзии выступает не только как эстетическое явление, но и как важный психологический феномен, отражающий внутренний мир человека.

Ключевые слова: *современная узбекская поэзия, женская поэзия, любовь, психологическое изображение, лирический герой, душевные переживания, поэтический образ, философское содержание, психологизм.*

Annotation: this article analyzes the psychological representation of love in contemporary Uzbek women’s poetry. The study identifies various psychological manifestations of love, including longing, anticipation, emotional suffering, hope, spiritual growth, and self-awareness. It also evaluates the role of poetic devices such as inner monologue and psychological parallelism in revealing the emotional state of the lyrical hero. The findings demonstrate that the theme of love in contemporary Uzbek women’s poetry appears not only as an aesthetic phenomenon but also as an important psychological phenomenon reflecting the inner world of an individual.

Key words: *contemporary Uzbek poetry, women’s poetry, love, psychological representation, lyrical hero, emotional experience, poetic imagery, philosophical content, psychologism.*

Zamonaviy o‘zbek she`riyatini ayollar she’riyatining o‘ziga xos kechinmalar izhori, ruhiy tasvirlar yetakchiligi bilan turfa mavzulardagi she’rlari boyitib turibdi. Ayniqsa, muhabbat mavzusining keng qalamga olinishi, uning psixologik tasvirlar orqali ifodalanishi ko‘p shoiralar she’rlarida kuzatiladi. Hamma davrlardagidek muhabbat mavzusi keng ifoda topib kelayotir. Ma`lumki, ushbu tuyg’uning sarhadlari nihoyatda keng. Shoir o`z ishqiy tuyg’usini yaratganga, Vatanga, xalqiga, ota-onasiga, do`stiga nisbatan izhor qilishi mumkin. Haqiqiy muhabbat tuyg’usi bilan yo`g’rilgan she`riyatning ta’sir kuchi har narsadan kuchliroq bo`ladi. Shunday mavzuda yozilgan asarlarning bugungi shoiralar tomonidan yangicha usulda yaratilayotgani she`riyatimizda ro`y berayotgan evrilishdan dalolatdir. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonida haqiqiy oshiq haqida shunday yozadi: «Haqiqiy oshiq deb sen bilki, u dard bilan yashaydi, uning tili ham, dili ham, ko`zi ham pok bo`ladi. Ishq uni «men»idan pok qilib, hatto fano o`tiga hashak qilgan bo`ladi. Yuzini sariq qilib, dardini yashiradi, ko`zini ariq qilib yosh oqizadi”[1]. Bundan ko`rinadiki, haqiqiy oshiqning ahvoli dil izhoridan emas, holatidan bilinadi. Shoir o`zlarining ishqqa mubtaloligini ruhiy kechinmalari, tashqi holatli yokida turli tabiat hodisalari-yu, vositalari orqali ifodalaydi. Quyida Zebo Mirzayevaning mubolag‘aviy misralaridagi lirik qahramon ruhiyatidagi otashin dard tasviri chizilgan she’rga to ‘xtalsak:

Ko‘zim tushsa kuyadi oftob,
Qo‘lim cho‘zsam to‘kilar dilim,
Aytsam gunoh, aytmasam azob,
Bu qanday dard,
Bu qanday o‘lim[5]

Shoira qalbini o‘rtayotgan dard o‘lim kabi azob tasviri shoira ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochib beradi. Lirik qahramon ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari muhabbat bilan bog ‘liq uzviylikda yuzga chiqadi. Zebo Mirzayeva she’riyatida muhabbat undan chekiladigan dardlar: sog‘inch, hijron, ayriliq ham go‘zal ifodasini topadi.

Shoira dardsiz inson inson bo‘lmasligini uqritayotgandek, muhabbat ilohiy tuyg‘u va uning iztiroblar ham in’om ekanligiga ishonadi va ishontiradi. O‘z o‘rnida, muhabbatning ruhiy kuch va ilhom manbai sifatida e’tirof qilmaslik mumkin emas. Uning otashi kuydirishi tayin, ammo faqat muhabbatgina dunyoga go‘zallik, umid hamda ma’no keltira oladi:

Yomg‘ir yog‘ar
Nurlar yomg‘ri,
Kulib yig‘lab ochiladi kun.
Yurgingni qiynar ishq siri,
Derazaga qaraysan mahzun[5].

“She’riyat (poeziya) – o‘ziga xos, murakkab, boy va yuksak san’at. U inson qalbining nozik his-tuyg‘ularini, fikr va hissiyotlarini, ehtiroslar kurashi va rivojini ta’sirchan tusda aks ettiradi”[3]. Ruhiy tasvir ijodkor kayfiyati, orzu-intilishlarini ham anglashga yordam beradi. Ijodkor muhabbat orqali o‘zining badiiy-g‘oyaviy qarashlarini ham ko‘rsatadi va falsafiy mushohadalar bilan uyg‘unlashtiradi. Shunday she’riy tasvirlar Farida Afro‘z she’riyatida tez-tez ko ‘zga tashlanadi.

Tozarmoq istasang, oddiy yaxshi ko‘r,
Borini boricha sevgin, betahlil.
Bu dunyo beishqni aylar-ku, abgor,
Ajab, u dunyo ham etmasmish qabul[10].

Shoira muhabbatni ma’naviy yuksaltiruvchi kuch sifatida talqin qiladi. Oshiq qalbidan kechgan kechinmalar falsafiy mushohadalar bilan uyg‘un tasvirlanadi. Yuqoridagi misralarda ham shoira muhabbat insonni o‘zligini anglashi, ruhiy poklanishining muhim omili sifatida tasvirlagan va bu hissiy kechinmalarning chuqur falsafiy mazmun bilan boyitgan.

“Badiiy psixologizm – bu asar personajining xayolot olami, fikrlari, mulohazalarining o‘ziga xos badiiy vositalardan foydalangan holda juda to‘liq, batafsil va chuqur ifodalab berish”[9]. She’riyat shunday psixologik tasvirlarning yuqoriligi bilan ajralib turadi. Farida Afro‘z she’riyatida lirik qahramonning hissiy-kechinmalari metafora va o‘xshatishlar bilan badiiy qiyomiga yetib boradi. Lirik qahramon muhabbat, sog‘inch, hijron bilan tashqi va ichki olamida namoyon bo‘lgan o‘zgarishlar girdobida qoladi. Sog‘inchning so‘ngsiz sohilida, hijron olovida yonadi:

Yuragimning qayeridir kuyadi,
Simillaydi,
Charsillar, sanchar,
Go‘yo ming yil yuraksiz yashab.
Bir qadoq og‘riqqa kunim qolganday...[10]

Keyingi yillar ayollar she’riyatida muhabbat mavzusidagi she’rlarning mahzun ohangi, dil izhorlarning samimiyati yaqqol seziladi. Ayniqsa, hijron, ayriliq, sog‘inch motivlari birinchi planga ko‘tariladi. Sog‘inch tuyg‘usining insonni butkul o‘zgartirishi, intiq odamning holati, ruhiyati bor ranglari, ohanglari bilan ifodalangan. Shular jumlasida, Gulandom Tog‘ayevaning quyidagi she’rida sog‘inch tuyg‘usining butun vujudni egallagan tasviri yuzga chiqadi:

Sog‘indim, sog‘inching qildi-ku ado,
Bir bor ko ‘rsat menga yuzingni, erkam.
“Yana bir bor, bir bor meni de, Xudo”, -
Bir bor o‘pay sening ko ‘zingni, erkam...[4]

Ma`lumki, kimgadir intiq odamning butun vujudi quloqqa aylanadi, xayolida faqat uning yodi kezadi, qo`li har qanday ishdayu, fikri yodi kutganida bo`ladi. She’rdagi lirik qahramonning holati bunga misol. Shoira ijodida badiiy psixologizmning ortib borishi, ruhiy holat suratlari, his-tuyg‘uning badiiy shaklida yoritilib boradi.

Zamonaviy o‘zbek ayollar she’riyatida muhabbatning psixologik tasviri ayol qalbining nozik kechinmalarini, inson ruhiyatidagi murakkab jarayonlarni hamda ma’naviy izlanishlarni badiiy ifodalashga xizmat qiladi. Keyingi yillar ayollar she’riyatida psixologizmning kuchayishi, ayniqsa, muhabbat, ishq qalamga olingan she’rlarda ruhiy tasvirning namoyon bo‘lishi, boqiy mavzuning yangicha ifodalanishiga imkon beradi. Muhabbat orqali ichki kechinmalar, ijodkor dunyoqarashini qirralari hamda falsafiy mazmun ham badiiylashadi. Bu esa zamonaviy o‘zbek ayollar she’riyatining psixologizm jihatidan boy va serqirra ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. -262-бет
2. Bahodir Karim ,,Ruhiyat alifbosi’’ G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2018
3. Boboev T. She’r ilmi ta’limi. – T.: O ‘qtuvchi, 1996. -344-bet
4. Гуландом Тоғаева. Ишқ ҳандасаси. Шеърлар. – Тошкент: “Адабиёт”, 2023.
5. Zebo Mirzayeva ,,Ishq’’ Toshkent, ,,Akademnashr’’ 2011-y.
6. Назар Эшонқул. Мендан “мен”гача. /Адабий-танқидий мақолалар тўплами. – Тошкент: Академнашр, 2014. – 512-бет
7. Normurodov A. “Zamonaviy o‘zbek adabiyotida muhabbat mavzusi”. Zarafshon nashriyoti, 2022. Samarqand.
8. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007. – 260-бет
9. http://www.litmind.ru/milits-616-1.html 8. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси.
10. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/farida-afro-z-1956

Madina MURODILLAYEVA,
NavDU 2-kurs magistiranti



IQBOL MIRZONING INDIVIDUAL USLUBI

Annotatsiya: Iqbol Mirzoning she'riy ijodining milliy adabiyotimizdagi o'rniga oydinlik kiritish, lirikasining ijtimoiy tabiati, san'atkorlik mahorati, tabiat va she'riyat, lirik kechinma va poetik tasvir uyg'unligi masalasining poetik shakl, mazmun hamda obrazda namoyon bo'lish xususiyatlarini ilmiy-nazariy aspektda ochib berishdan iborat. Shoir betakror uslubining asl mohiyati ochib berildi va poetik jihatdan talqin qilindi. Ijodkorning o'ziga xos uslubi yorqin namunalar asosida isbotlandi. Shoirning badiiy mahorati va xalqchilligi uslubining universalligi keng tahlil qilindi va ijod namunalari tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: *individual uslub, jonlantirish, o'xshatish, neologizmlar, omonimlar, poetik talqin, kapalaklar, milliylik, ruhiy holat, ijodkor, haqiqat, ijod siri, tasvir vositalari, an'anaviy shakl.*

Annotation: the purpose of this article is to clarify the place of Iqbal Mirzo's poetic work in our national literature, to reveal the social nature of his lyrics, artistic skill, nature and poetry, lyrical experience and the characteristics of the harmony of poetic image and image in poetic form, content and image from a scientific and theoretical aspect. The true essence of the poet's unique style was revealed and interpreted poetically. The creator's unique style was proven on the basis of vivid examples. The universality of the poet's artistic skill and folk style was widely analyzed and creative samples were analyzed**.**

Key words: *individual style, revival, analogy, neologisms, homonyms, poetic interpretation, butterflies, nationality, state of mind, creator, truth, secret of creativity, means of expression, traditional form.*

Аннотация: цель данной статьи — прояснить место поэтического творчества Икбала Мирзо в национальной литературе, раскрыть социальный характер его лирики, художественного мастерства, природы и поэзии, лирического опыта, а также особенности гармонии поэтического образа и образности в поэтической форме, содержании и образности с научной и теоретической точки зрения. Раскрыта и поэтически интерпретирована истинная сущность уникального стиля поэта. Уникальный стиль творца доказан на основе ярких примеров. Широко проанализированы универсальность художественного мастерства поэта и его народного стиля, а также рассмотрены творческие образцы.

Ключевые слова: *индивидуальный стиль, возрождение, аналогия, неологизмы, омонимы, поэтическая интерпретация, бабочки, национальность, душевное состояние, творец, истина, секрет творчества, средства выражения, традиционная форма.*

Kirish. Hozirgi adabiyotshunosligimizda uslub jilolarini aniqroq tasavvur etish uchun betakror uslub yo'lidan borayotgan ijodkorlar asarlarni talqin qilish adabiyotimiz, adabiyotshunosligimiz ufqlarida yangi-yangi imkoniyatlar ochadi. M.Davr**o**n**o**vaga k**o**'ra: "Uslub bu – individual xususiyat, so'z, tarkib topgan jumla, she'riyatning ranginligi, badiiy va tarixiy asarlardagi matn, tilning o'ziga xos jihatlarini aks ettiruvchi san'atdir. Har bir davr o'sha davrni aks ettiruvchi voqealari, o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turganidek, har bir davrning taraqqiyotini (shu bilan bir qatorda illat va kamchiliklarini) ko'rsatuvchi, zamonni tasvirlovchi ijodkorlari mavjud. Bu ijodkorlar o'z davrini aks ettirganida o'sha davr illati va kamchiliklari hamda yutuqlarini o'ziga xos yo'lda tasvirlab beradilar. Bir xil voqealarni yoki bir xil jarayonni tasvirlashsa-da, biroq bu tasvirlarda ijodkor "men"i ya'ni uslubi yarqirab turadi"[1].

Iqbol Mirzo inson ruhiyatiga ta'sir etgan, o'zi bilan bog'liq bo'lgan voqealarni an'anaviy shaklda tasvirlaydi. Uning tasvirlarida hayotning eng shirin lahzalar-yu, eng og'riqli nuqtalari o'ziga xos uslubda sho'x-shodon ifodalanadi. Unda falsafiy teranlik ham, noan'anaviy jihatlar ham kuzatilmaydi. Shoirning "Men" she'riga razm solamiz:

Men na qilay, harna qilsa, qildi taqdir,
Ikki nuqta aro jismim muallaqdir.
Ikki yoqqa boqar bo'ldim lolu hayron:
Birisining ismi – zamin, biri – osmon.

Iqbol Mirzo ushbu she'rda o'z hayoti tasvirini to'liq berishni maqsad qilmaydi. Balki poetik yondashish asosida hayotidagi ayrim to'lqinlarni ifoda etadi, xolos. Shu sabab

1 Давронова М. . Ҳозирги ўзбек шеъриятида индивидуал услуб поэтикаси (У.Азим, И.Мирзо, Фахриёр ва А.Қутбиддин ижоди мисолида), ФФД., Самарқанд, 2019. 33-бет.

uning she'riy uslubi boshqa ijodkorlardan farqlanib turadi. Mumtoz she'riyat va folklor an'analarini uyg'unlashtirish I.Mirzo poetik uslubida xalqonalikni kuchaytirgan omillardan. Psixologik holatlar o'z navbatida shoir ruhiyatini ko'z o'ngimizda gavdalantirishga yordam beradi.

Iqbol Mirzo ham muayyan voqealardan ta'sirlanadi, undagi ruhiy o'zgarishlar esa ijod jarayoniga ta'sir etib, yangi bir asar yuzaga kelishidan dalolat beradi. Xuddi shunday ta'sirlanish el sevgan shoir Shavkat Rahmon olamdan o'tgan vaqtda sodir bo'ldi. Pirovard natijada, "Shavkat Rahmon" marsiyasi yuzaga keldi:

Uchib-qo'nib, uchib-qo'nib shom-saharlar
Nafis san'at sahnasida poyga ketdi.
Shavkat Rahmon qayga ketdi birodarlar,
Kapalaklar uchmaydigan joyga ketdi.

Kim quyoshga soldi yerdan topib gavhar,
Kim ko'ngliga shu'la istab oyga yetdi.
Shavkat Rahmon qayga ketdi, birodarlar,
Chiroq yonib o'chmaydigan joyga ketdi[2].

Iqbol Mirzoning yaqin birodaridan ajragan inson sifatida ushbu she'rda ruhiy holati ochila boradi. U Shavkat Rahmonni axtarish asnosida o'z-o'ziga hamda o'quvchiga ritorik so'roq beradi. Manzil esa aniq. U kapalaklar uchmaydigan, bulbullar sayramaydigan, tuyg'ular bezovta qilmaydigan joy. Adabiyotshunos U.Normatov kapalaklar uchmaydigan joy haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi: "...kapalaklar bilan bog'liq tashbeh yo'qlov qo'shiqlarida qadimdan bor ekan. "Badiiy adabiyot, bu til sanoati (K.Fedin) bo'lib, unda milliy tilning fikr ifodalashdagi bor imkoniyati to'laligicha namoyon bo'ladi. Bu jabhada ijodkorning so'z tanlay bilish, fikrni badiiy tafsillar vositasida obrazli ifodalash, til boyliklari va tasviriy vositalar yordamida betakror badiiy nutq yarata olish mahorati muhim ahamiyatga ega. "Badiiy adabiyot namunali adabiy normativ ifodaning qonuniyatlarini belgilovchi o'ziga xos jarayon, u shunday laboratoriyaki, unda umumxalq tilidagi nutq vositalari ijodiy ravishda qayta ishlanadi"[3].

Iqbol Mirzo ijodining o'ziga xos individual uslubi shunisi bilan farqlanadiki, shoir she'rlarining sodda, samimiylik, xalqonaligi, shuningdek, milliy til imkoniyatlaridan oqilona foydalanganida ko'rinadi. Masalan, shoirning tarixiy leksemalar va iste'mol doirasidagi so'zlar bilan omonimiya hosil qilishi she'rga tarixiylik, milliylik, ramziylik bag'ishlash bilan birga, uning badiiy qimmatini ham oshirishga xizmat qilishi tahlillar jarayonida kuzatildi. Buni mana bu she'r misolida ham kuzatish mumkin:

Tumanli ochunda tuman yil o'tdi.
Ilking tegsin ilk bor.

Tuman – "tabiat hodisasi (ot)", tuman – "o'n ming" tarixiy leksema (son). Ilk – " qo'l" (ot), ilk bor – "dastlab, birinchi bor" (ravish).

Shoirlarning bir satrda bir necha omonimlardan unumli foydalanishi she'rga yana-da badiiylik, ohangdorlik bag'ishlaydi va alliteratsiya hodisasi aks etgan go'zal she'rlar yaratilishiga asos bo'ladi:

Biz oh ursak, har oshiqdan ko'ra oshiq ohimiz bor.

I. Oh – "insonning ruhiy holati" (oh urmoq), II. Oh – " dard" (ot so'z turkumi), I. oshiq – sevgan odam (otlashgan sifat), II. Oshiq – "ko'p" (ravish)

Omonimlar turli so'z turkumlari, so'z birikmalari o'rtasida ham voqe bo'lib, ohangdorlikni ta'min etadi. Shuningdek, shaklan o'xshash yoki o'zakdosh so'zlar ham she'rga musiqiylik bag'ishlaydi:

Gulyuzligim yuz noz ila burdi yuzin.

Gulyuz so'zidagi yuz bilan burdi yuzin birikmasidagi yuz – nomni bildirsa, yuz noz birikmasida yuz- son - miqdorni ifodalaydi.

Omonimlar vositasida mumtoz adabiyotimizda iyhom – (shubhaga solish) sanoati yaratilgan[4][17]. Iqbol Mirzoning mana bu satrlarida fikrimizga misol bo'ladi:

Lahzalar tig' uzra tomib chiqadi:
"Chiq-chiq, chiq-chiq..."
Ming pichoq ursa na qonim chiqadi:
"Jonim chiq..."- o'rtanib jonim chiqadi:
Chiqmaysiz otangiz izmidan (Iqbol Mirzo).

"Yozuvda va talaffuzda bir o'rinda so'zni, ikkinchi o'rinda so'z birikmasining o'xshash – teng keltirish hodisasi ham omonim so'zlar doirasini kengaytiradi"[5][17]. Shoirning: *Yelkalar yalang'och, yalang och* ko'zlar (I. Mirzo) misralaridagi "yalang'och" va "yalang och" so'zlari bunga misol.

Shoir Iqbol Mirzo ijodida ham individual neologizmlar she'r ruhiga mos tasvir yaratishga yordam bergan:

Sodiqning cho'pdek ozgan,
Aqldan ozgan, ayoli.
Suvqizi kabi sochlari yozg'in
O'tirarmish Bachqirariq qirg'og'ida.

Bunda shoir sochlari yoyilgan, yoyiq kabi so'zlar o'rniga ekspressivlik xususiyati sezilarli yozg'in so'zini yaratadi. Yozg'in so'zi horg'in holatdagi parishonlik, o'ychanlik, hardamxayollik sifatlarini ham o'zida mujassam etgan. Bu ruhiy holatlar Sodiqning "cho'pdek ozgan, aqldan ozgan" ayolining qiyofasini aniq namoyon qiladi va tasvirga aynan mos keladi. Jonlashtirish metaforaning maxsus turi bo'lib, unda kishilarning harakatlari, his-tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chiriladi.

Jonlantirish nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslikning ham muhim o'rganish obyektidir. Chunki

2 Иқбол Мирзо. Сизни куйлайман. –Тошкент: Шарқ, 2007, 246-бет.
3 Виноградов В.В. О языке художественной литературы. - М., 1959 . С. 223.
4 Qarang: Хожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. - Т.: Шарқ, 1999.83-84-Б.
5 Шомаксудов А., Расулов И. Ўзбек тили стилистикаси - Т.: Ўқитувчи, 1983. 43-Б.

jonlantirishga leksik vositalarning valentlik xususiyati ishora qilib turadi. Ma'lumki, sintagmatik munosabatga kirishayotgan leksemalarning til sathida o'zaro birikuvchanlik (valentlik) xususiyati bo'lmaydi. Jonlantirish hodisasi ro'yobga chiqayotgan sintaktik birliklarning birida jonlilik, ikkinchisida jonsizlik semasi mavjud bo'lib, bu semalar aslida ushbu birliklarning sintagmatik munosabati uchun mone'lik qiladi. Badiiy nutqda bunday zid semali birliklarning sintagmatik munosabatga kirishuvi obrazlilikni, ifodalilikni vujudga keltiradi.

Xazin qarg'ish oqar yig'ingizdan
Qoracho'g'da alamlar farron...
Har tong tongdek yostig'ingizda
Gullar ochiladi – zahfaron. (Iqbol Mirzo).

Ma'sum qalb egasining mahzun ichki olami, ruhiy holati, kechmishi xazin, za'faron sifatlashlari orqali ochib berilgan. Tongday yostiq metaforik sifatlash bo'lib, tongning oqlik, beg'ubor va musaffolik sifatlari yostiqqa nisbatan ishlatiladi va bu oq yostiqda ochilgan za'faron gullar – ko'z yoshlarning yostiqdagi aksi "mushkin bo'yli", "qumrol soch" egasi "pari"ga tegishli ekanligi go'zal tarzda ifodalangan.Shuningdek, shoir ijodida siniq tabassum, qirovli muhr singari individual epitetlar va ularning mazmuniy bog'lanishlari uchraydiki, bu shoir she'riyatining o'ziga xos uslubini belgilaydi.

O'**xshatish** ham adabiyotshunoslikning, ham tilshunoslikning o'rganish obyektidir. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan u tropning bir ko'rinishi sifatida, ifodalanish usullari, struktural tarkibi o'rganilsa, tilshunoslar uni gapning tarkibiy komponenti ekanligi, umuman, til fakti sifatida o'rganadilar.

Ma'lumki, an'anaviy o'xshatishlar obrazlilik va ekspressivlik xususiyatlariga ega emas. Ijodkor esa ulardan foydalanib, orginallik yaratishi mumkin:

Shoir ongda otib kelayotgan tong – o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlarni qo'msash va ularga qaytish tasvirini orginal o'xshatishlarda ifodalagan. Go'yo inson bir borliq, bosh – yer shari, ong-shafaq, taralayotgan nur. Shuurda kechadigan o'y esa o'q va uning sanchilishiga qiyoslanadi. Ongida kuchli qo'zg'alish ro'y bergan lirik qahramon esa Alptegin singari ajdodlarini qo'msab, haq so'zlarni yozgani qog'oz emas "g'azab kabi og'ir", "G'amday benavo" "tosh kerak", deya xitob qiladi. O'xshatish etaloning bunday birin-ketin berilishi ma'no, ta'kidni kuchaytirgan, kuchli hissiyotni ifodalagan.

Men yengim yirtig'in muallimadan.
Yashirganim kabi, anduhlarimni-
Pinhon tutajakman to oxirgi dam,
Yashiraman qalbim chandiqlarini. (Iqbol Mirzo).

Shoir holatlar o'xshatishini o'xshatish ergash gap orqali ifodalagan, ya'ni ichki ruhiy olamning tasviri, tashqi muhitdagi holatga qiyoslab aks ettirilgan.

Shuni e'tirof etish mumkinki, o'xshatish turli obyektlar o'rtasida yuzaga keladi: a) jonli va jonsiz narsalar o'rtasida; b) holatlar o'rtasida; v) tabiat hodisalari bilan inson ruhiyati o'rtasida; g) inson xarakterini ochishda predmetlarning belgisi o'rtasida.

Xulosa. Mustaqillik she'riyatining o'ziga xos jihatlaridan biri unda birlikni, yakdillikni, hatto inson o'zligidan bir so'z, bir dillikni talqin etilishidir. Jamiki, el dardi, yurt qayg'usi deb yongan insonlarning yagona tilagi – urug'dek sochilgan urug'ni birlashtirish, ezgu maqsad yo'lida bir tan bir jon qilish, inson ongidagi ikkilanish, ikki yuzliliklardan xalos bo'lish edi va u she'riyatda o'z aksini topdi. Shuning uchun ham bu davr she'riyatida sinekdoxa, metonimiya ham birlik, yakdillikni ifodalash uchun xizmat qilgan.

Hozirgi adabiyotshunosligimizda uslub jilolarini aniqroq tasavvur etish uchun betakror uslub yo'lidan borayotgan ijodkorlar asarlarni tahlil qilish adabiyotimiz, adabiyotshunosligimiz ufqlarida yangi-yangi imkoniyatlar ochadi. Iqbol Mirzo o'z uslubiga, betakror tiliga ega shoir. Bu uning so'z qo'llashdagi shoirona mahorati, xalq tilining betakror jozibasidan foydalanib obraz yaratishida, tuyg'ular samimiyligida ko'rinadi. Iqbol Mirzoning individual uslubini o'rganish orqali shoirning san'atkorlik mahorati, o'ziga xos badiiy olamini kashf etish, hamda bugungi she'riyatimiz ufqlarini teranroq anglashga yo'l ochadi. Ijtimoiy mavzular Iqbol Mirzo she'riyatida yetakchilik qiladi. Uning she'rlarida yurt mustaqilligi uchun kurashgan ajdodlarimiz o'tmishi, kurash yo'li, ma'rifat osmoniga narvon qo'ygan olim-u fuzalolar siymosi bilan birga bugungi zamondosh obrazi badiiy tasvirlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Давронова М. . Ҳозирги ўзбек шеъриятида индивидуал услуб поэтикаси (У.Азим, И.Мирзо, Фахриёр ва А.Қутбиддин ижоди мисолида), ФФД., –Самарқанд, 2019. 33-бет.

2. Иқбол Мирзо. Сизни куйлайман. –Тошкент: Шарқ, 2007, 246-бет.


Виноградов В.В. О языке художественной литературы. - М., 1959 . С. 223.

3. Хожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.: Шарқ, 1999. Б.83-84.Шомақсудов А., Расулов И. Ўзбек тили стилистикаси – Т.: Ўқитувчи, 1983.

4. Shukurov N., Xotamov N., Xolmatov Sh., Mahmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: O'qituvchi, 1979.

5. Jabborov N. Yangi zamon she'riyati tamoyillari // Sharq yulduzi,2014.

Farangiz TOSHMAMATOVA,
NavDU 2-kurs magistranti



USMON AZIM IJODIDA FALSAFIYLIK VA EKSIZTENSIAL RUH

Annotatsiya: ushbu maqolada xalqimiz suygan sermahsul ijodkor, bugungi o‘zbek adabiyotining yirik namayondasi Usmon Azim ijodidagi falsafiylik va eksiztensial ruh talqini tahlil qilindi. Usmon Azim lirikasida falsafiy mushohada she’rning ichki strukturasi bilan uyg‘un holda shakllanadi. Ijodkorning poetik tafakkurida tashqi voqelik ko‘pincha ichki kechinmalar bilan qorishib ketishligi, lirikasida shoirning individual “men”i umuminsoniy mohiyat bilan uyg‘unlashib ketganligi ijodidagi falsafiylikning muhim tomoni ekanligini tadqiq etdik.

Kalit so‘zlar: *falsafiylik, ekzistensial ruh, ijodkor “men”i, poetik tafakkur, ramziy tafakkur, dramatizm, tasavvufiy-falsafiy mazmun, samimiy viqor*

Аннотация: в данной статье был проведён анализ философичности и интерпретации экзистенциального духа в творчестве любимого народом, плодотворного автора, одного из крупнейших представителей современной узбекской литературы — Усмана Азима. Было исследовано, что философское осмысление в лирике Усмана Азима формируется в органичном единстве с внутренней структурой стихотворения. Также было установлено, что важной особенностью философичности его творчества является то, что внешняя реальность в поэтическом мышлении автора нередко переплетается с внутренними переживаниями, а индивидуальное лирическое «я» поэта гармонично сливается с общечеловеческой сущностью.

Клочевые слова: *философичность, экзистенциальный дух, авторское «я» творца, поэтическое мышление, символическое мышление, драматизм, суфийско-философское содержание, искреннее достоинство.*

Annotation: this article analyzes the interpretation of philosophical depth and existential spirit in the works of Usmon Azim, a prolific writer beloved by our people and one of the major representatives of contemporary Uzbek literature. In Usmon Azim’s lyrics, philosophical reflection is formed in harmony with the internal structure of the poem. The study reveals that an important aspect of the philosophical nature of his творчество is the way external reality in the poet’s poetic thinking is often intertwined with inner experiences, while the poet’s individual “self” in his lyrics merges with a universal human essence.

Key words: *philosophy, existential spirit, creative «I», poetic thought, symbolic thought, dramatism, mystical-philosophical content, sincere dignity*

Kirish. XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi o‘zbek she’riyati inson ruhiyatini yangicha poetik tafakkur asosida talqin etishga intilgan ijodkorlar faoliyati bilan xarakterlanadi. Ana shunday shoirlardan biri - Usmon Azimdir. Uning she’riyati hissiyotning oddiy poetik ifodasi bilangina emas, balki inson va borliq, vaqt va xotira, ruh va vujud, erk va e’tiqod o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni badiiy-falsafiy mushohada asosida yoritishi bilan ham ajralib turadi. Shoirning poetik olamida inson qalbi markaziy nuqtaga aylanadi va barcha poetik tasvirlar ana shu ruhiy markaz atrofida shakllanadi.

Usmon Azimning poetik tafakkurida inson ichki olami tashqi voqelikdan ustun turadi. Shoir ko‘proq qalbning jim og‘riqlari, aytilmagan iztiroblari, ruhiy bo‘shliqlari haqida yozadi. She’rlarida ichki dramatizm kuchli. Insonning o‘zi bilan o‘zi kurashi, ruhiy izlanishlari, hayot mohiyatini anglashga bo‘lgan ehtiyoji falsafiy uslubning asosiy qatlamlarini tashkil etadi.

Shoir lirikasining muhim poetik belgilaridan biri – ramziy tafakkurning kuchliligidir. Usmon Azim oddiy tabiat manzaralarini ham chuqur ruhiy ma’no bilan boyitadi. Kuz, shamol, yomg‘ir, tun, osmon, yo‘l kabi poetik obrazlar inson ruhiyatining metaforik ifodasiga aylanadi. Natijada tabiat tasviri inson qalbining ichki aks-sadosi sifatida namoyon bo‘ladi.

Parizodim, o‘zingni teja –
Vujudingni sarflamagin mast.
Parizodim achin o‘zingga,
Dunyo uchin qon to‘kmoq bekor.[1]

Usmon Azimning “Kuz” nomli to‘plamdan o‘rin olgan “Qizg‘aldoqzor” she’rida tabiatning eng nafis va jozibador manzaralaridan biri o‘ziga xos poetik uslubda tasvirlangan. She’rda qizg‘aldoqzor obrazi oddiy tabiat tasviri emas, balki inson ruhiyati va hayot falsafasining ramziy ifodasiga aylangan. Parizodning o‘tloqda yugurib, tovoni qonashi

1 Азим, Усмон. Куз Шерлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиет ва сан’ат нашр. 2001. 335- Б

va ana shu qonlardan qizg‘aldoqlar unib chiqishi go‘zal tashbeh hamda majoziy talqin asosida ifodalangan. Shoir shu orqali go‘zallikning oson yaralmasligi, har qanday nafislik ortida qurbonlik va ichki iztirob mavjudligini badiiy-falsafiy mazmunda ochib beradi.

She’rda ochiq va yashirin falsafiy qatlam uyg‘unlashgan. Pari obrazi bahor va qizg‘aldoqzor go‘zalligi uchun o‘zini ayamayotgan, butun borlig‘ini sarflayotgan timsol sifatida talqin qilinadi. Ari va kapalak obrazlari ham she’rda an’anaviy ijobiy ma’nodan ko‘ra kengroq falsafiy mazmun kasb etadi. Shoir ushbu timsollar orqali go‘zallikka oshuftalik, umrning o‘tkinchiligi va mavjudotlarning bir-biriga bog‘liq uyg‘unligini ifodalaydi. Shu tariqa tabiat va inson bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit borliq sifatida talqin etiladi.

Usmon Azim lirikasidagi falsafiylikning yana bir muhim tomoni shundaki, unda shoirning individual “men”i umuminsoniy mohiyat bilan uyg‘unlashadi. Shoir o‘z dardini yozayotgandek tuyuladi, biroq o‘quvchi bu satrlarda o‘z ruhiyatini ham ko‘ra boshlaydi. Ana shu holat ijodkor she’riyatining estetik va falsafiy ta’sir kuchini oshiradi.

Mumtoz adabiyotimizda ishq, may, alyor obrzlariga duch kelamiz. Zamonaviy she’riyatda ham aynan shu obrazlardan foydalanilgan, go‘zal badiiy falsafiy, tasavvufiy qarashlarning o‘rin olganligi guvohi bo‘lamiz. Shoir Usmon Azim 1994-yilda chop etilgan “G‘ussa” nomli to‘plamidan o‘rin olgan “Bu dunyo bir mayxona” deb ataluvchi she’rida salaflari qo‘llagan ilohiy sir va ishqni o‘zida jo etuvchi pok qalb ma’nosini beruvchi qadah istilohi o‘rniga piyola so‘zini qo‘llaydi.

Ushbu she’r chuqur tasavvufiy-falsafiy mazmun bilan yo‘girilgan. Asarda piyola obrazi oddiy maishiy buyum darajasidan chiqarilib, inson yaralishining ramziy ifodasiga aylantiriladi. Piyolaning tuproqdan yaratilgani kabi insonning ham asl manbai tuproq ekani poetik parallelizm asosida talqin etiladi. Shu jihatdan tuproq obrazi she’rda insonning ibtidosi va intiho nuqtasini anglatuvchi muqaddas timsol sifatida namoyon bo‘ladi. She’r tarkibidagi “yoqasi yo‘q kiyim” obrazi kafan ramzi sifatida qo‘llansa, “tovonni kuydiradigan yo‘l” sirot ko‘prigini eslatuvchi majoziy tasvirga aylanadi. “Gulxandagi zamon” esa jahannam va ruhiy azob timsoli sifatida falsafiy ma’no kasb etadi. Shoir ana shu sinovlarga qarshi “bir piyola ishq”ni najot vositasi sifatida ilgari suradi. Bu o‘rinda ishq dunyoviy hissiyot emas, balki ilohiy muhabbat, Allohga bo‘lgan cheksiz sadoqat va ruhiy komillik timsoli sifatida talqin qilinadi. Natijada she’rda insonning hayot va oxirat sinovlarini faqat ilohiy ishq orqali yenga olishi haqidagi tasavvufiy g‘oya badiiy-falsafiy asosda ifodalangan.

Ijodkor kuz fasli tasviriga vazminlikni, o‘ychanlikni va hayot ma’nosini anglab yetgan umr mazmunini singdirib yuborgan.

Shoir ayrim she’rlarida insonning yashashdan charchashi, biroq baribir yashashga intilishi kabi murakkab ruhiy holatlarni tasvirlaydi. Bu holat ekzistensial poetikaning muhim belgilaridan biridir. Inson qalbidagi bo‘shliq va ma’naviy yolg‘izlik shoirning metaforik tafakkuri orqali estetik shaklga kiradi.

Usmon Azim lirikasida tun obrazi ham ko‘pincha ana shu ruhiy yolg‘izlikning poetik timsoliga aylanadi. Tun - shoir poetikasida ichki sukut, mushohada va qalbning o‘zi bilan qolgan holatidir. Shu sababli tun tasviri oddiy peyzaj vazifasini bajarmaydi; u ruhiy-estetik ma’no tashuvchi poetik vositaga aylanadi.

Xudoyim! Bu tun ham qorong‘ulikda
Turnalar qaygadir yig‘lab o‘tdilar.[2]

Usmon Azimning deyarli barcha she’rlarida falsafiylik ko‘rinib turadi. O‘ziga xos uslubiga ega bo‘lgan ijodkor poetik ifoda tarzi orqali har qanday mavzudagi she’rlariga o‘z siyratini ko‘chira olgan yetuk iste’dod sohibi hisoblanadi.

Shoir she’rlarining ta’sir kuchi, avvalo, ularning soddalik va teranlik uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Aytilmagan dardlarning sukut orqali berilishi Usmon Azim uslubining o‘ziga xos jihatlaridan biridir.

Usmon Azim ba’zi she’rlarida dunyoni “xizmatkorim” deb ataydi. Bu misralarning har birida boshqa she’rlaridagi kabi ijodkorning o‘ziga xos uslubi aniq ko‘rinib turibdi. Dunyoni xizmatkorim deb atashligida biz Usmon Azimning ruhiy kuchini ham anglaymiz. Biz aksariyat xollarda sevgi, ishq, muhabbat so‘zarini bir xil tushunamiz, aslida esa ular bir- biridan farq qiladi.

Alisher Navoiy o‘zining ”Saddi Iskandariy” dostoni muqaddimasida “ko‘k gumbazi uzra bezakli qandil” deya ta’rif bergan islom olaming eng mashhur notiqlaridan bo‘lgan Abu Homid G‘azzoliy o‘zining “Mukoshafatul qulub” nomli asarida “Inson tabiatini zavqlantiruvchi xuzurbaxsh lazzatga, mayl-istak ishq demakdir”, sevgining oliy darajasi ishq deyiladi. Oshiqlar o‘z mashuqlarining visoliga yetishmoq uchun hattoki jonlarini ham ayamaydilar”[3] deya ta’kidlagan. Usmon Azim ham ushbu she’rida dunyoga buyuk ishq keltir deydi. Dunyo keltirgan buyuk ishq lirik qahramonni bolalikdan yulib o‘tadi, uning oldidan uyalib, kulib o‘tadi. Sevgi va uning oliy darajasi bo‘lgan ishq hali yo‘llarning tuproqligi - hayotning yumshoqligini, orzularning barq urayotganligini, yurakning tinimsiz jo‘sh urayotganligini, hali rejalarni amalga oshirishga va orzular ro‘yobi uchun harakat qilishga vaqt borligini ko‘rsatuvchi obraz bo‘lib kelmoqda. Falsafiy jihatdan esa ushbu she’rda ruhiy yuksalishga ishora mavjud.

2 Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 107-б.

3 «Мукашофатул қулуб: қалблар кашфиёти / Абу Ҳомид Ғаззолий; – Тузатилган қайта нашр. – Тошкент: “Book Media Shop” МЧЖ қошидаги “Munir” нашриёти, 2025.» 38 Б.

Usmon Azim lirikasidagi markaziy falsafiy tushunchalardan biri - erkdir. Shoir uchun erk siyosiy shior emas, balki inson ruhiyatining tabiiy ehtiyojidir. Shu bois uning lirik qahramoni tashqi bosimlardan ko‘ra ichki qullikdan qo‘rqadi.

“She’r yozadiganlar ko‘p, ammo sevishga qodir, ko‘nglini ishq ishg‘ol aylagan shoirlar nihoyatda kam. Usmon Azimni Alloh sevgidan qismagan. Shuning uchun uning ko‘ngli erkin, ruhi va fikri erkindir. Shuning uchun ham uning eng yaxshi she’rlarida ishq va e’tiqod shulasi porlab turadi”[4].

Shu sababli Usmon Azim poetikasida viqor tushunchasi alohida estetik mohiyat kasb etadi. Shoir viqorni insonning tashqi ko‘rinishidagi mag‘rurlik emas, balki qalbning sinmasligi sifatida tushunadi. Uning ko‘plab she’rlarida ruhiy bukilmaslik motivi sezilib turadi. Ana shu ruhiy matonat Usmon Azim she’riyatining falsafiy-estetik asosini tashkil qiladi.

Do‘stlar, iliq yolg‘on komidan
Haydang — kuzga chiqsin qalbingiz.
Iching zarif g‘ussa jomidan,
Titranarkan nogoh labingiz. [5]

She’rda “kuz” obrazi markaziy falsafiy ramz sifatida xizmat qiladi. Ushbu she’rdagi “g‘amni ichish” motivi ruhiy poklanish, ichki tozalanish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa she’rning falsafiy qatlamini yanada chuqurlashtiradi. Vaqt “teran va tig‘iz” hodisa sifatida tasvirlanib, inson mavjudligini bevosita o‘zgartiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Shu jarayonda lirik subyektning ichki kechinmalari keskinlashadi va ekzistensial iztirob kuchayadi.

She’r yakunida esa ramziy-falsafiy cho‘qqi kuzatiladi: kuz inson qalbiga “yurakni mixlashi” orqali og‘riq va ma’naviy uyg‘onish bir vaqtda sodir bo‘ladi. “Yurak – Iso payg‘ambar kabi” degan metaforik ifoda esa iztirob orqali poklanish, azob orqali haqiqatga yetish g‘oyasini kuchaytiradi.

Usmon Azimning “Kim deding? Men seni tanimayman, kuz...” satri bilan boshlanuvchi she’rida insonning umr poyoniga munosabati falsafiy-psixologik talqinda yoritiladi. She’rda qarilikni inkor etishga urinayotgan ruhiyat tasviri berilgan bo‘lsa-da, vaqtning muqarrar hukmi lirik qahramonni haqiqatni tan olishga olib keladi. Shoir sukut, ichki bo‘shliq va ruhiy iztirob orqali insonning ekzistensial kechinmalarini poetiklashtiradi. Natijada asarda kuz obrazi umrning xazon fasli sifatida ramziy ma’no kasb etadi.

Kim deding? Men seni tanimayman, kuz.
Kunlaring kunimning begonasidir.
Kuz degan fasl yo‘q. Bog‘dagi ma’yus
Vaqt asli bahorning vayronasidir.[6]

Inson umriga hamohang tasvirlangan fasllardan biri bo‘lgan oltin kuz ijodkor nazdida yo‘q fasl, kuzni tanimaydi, kuzni tan olmaydi, shunchaki bu faslni yasharish fasli bo‘lgan go‘zal bahorning vayronasi, qarigan bahor, o‘tkinchi hayot, sinashta turmush, bog‘lar oralab kezgan bebolta o‘tinch deya ta’riflaydi. Ushbu she’r shu darajada go‘zal tashbehlar ila yozilganki kuzni sherxon hayolida ajoyib tarzda gavdalantiradi. Kuzning tugashini bahorning kavushini xazon barglariga to‘ldirib mangullikka ketishiga qiyos etadi. Butun she’r davomida “kuz yo‘q” deya yig‘lagan shoir, kuzni tan olmagan ijodkor xazon bilan birga ketmaganidan afsuslanib, “...Ruxning ruhdan quyuq qa’ridadurman ... Endi kuzakdan ham naridadurman” deya alam chekadi.

Usmon Azim poetikasida vaqt va fanolik, erk va viqor, yolg‘izlik va ruhiy izlanish, tabiat va inson qalbi o‘rtasidagi uyg‘unlik yetakchi falsafiy-estetik tamoyillarga aylanadi. Shoirning individual uslubi aynan ana shu ruhiy-falsafiy qatlamlarning poetik ifodasi orqali namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Shoir she’riyatining estetik qimmati ham uning inson qalbini chuqur his qilishi, ruhiy kechinmalarni original poetik shaklda ifodalay olishi bilan belgilanadi. Natijada Usmon Azim lirikasida falsafiy tafakkur va poetik obraz uyg‘unlashib, o‘ziga xos badiiy olamni yuzaga keltiradi. Usmon Azim lirikasidagi falsafiylik shoirning ruhiy-estetik tafakkuri bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lishi, ayniqsa, inson qalbidagi ichki dramatizmni poetiklashtirish orqali yuzaga chiqishi bilan xarakterlanadi. Ana shu jihat Usmon Azim poetikasining zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi o‘ziga xos o‘rnini belgilaydi.

4 Иброҳим Ҳаққулнинг «Ғуссали юрак – ёлқинли юрак» мақоласидан. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/usmon-azim-azizim-naqadar-sherga-o‘xshaysan.html

5 Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: афур улом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 317-б.

6 Азим, Усмон. Куз Шерлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиет ва сан’ат нашр. 2001. 205- Б

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Азим, Усмон. Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матба ижодий уйи, 2018. 456-бет

2.Азим, Усмон. Куз: Шерлар. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр.. 2001. 448-бет.

3. У., Азим Сўнгсўзлар: У.Азим. - Тошкент: Илм-зиё-з аковат, 2020. – 512-бет

4.«Мукашофатул қулуб: қалблар кашфиёти / Абу Ҳомид Ғаззолий; – Тузатилган қайта нашр. – Тошкент: “Book Media Shop” МЧЖ қошидаги “Munir” нашриёти, 2025.» 288-бет.

5. *Иброҳим Ҳаққулнинг «Ғуссали юрак – ёлқинли юрак» мақоласидан. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/usmon-azim-azizim-naqadar-sherga-o‘xshaysan.html*

Dilfuza BAROTOVA,
ChDPU magistranti

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATI LINGVISTIK VA POETIK TAHLILINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada Muhammad Yusuf she'riyatining lingvistik va poetik xususiyatlari lingvopoetik yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda shoirning "Brigadir", "Menga bering", "Izhori dil", "Qarg'a", "G'urur" hamda "Orol dengizi" she'rlari misolida leksik-semantik, morfologik, sintaktik va stilistik birliklarning badiiy matndagi funksiyasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *lingvopoetika, badiiy matn, poetik diskurs, leksik-semantik tahlil, metafora, metonimiya, antiteza, personifikatsiya, oksimoron, ritorik so'roq.*

Annotation: this article analyzes the linguistic and poetic features of the poetry of Muhammad Yusuf on the basis of a linguopoetic approach. The study examines the functions of lexical-semantic, morphological, syntactic, and stylistic units in literary texts through the examples of the poet's poems "Brigadir," "Menga bering," "Izhori dil," "Qarg'a," "G'urur," and "Orol dengizi."

Key words: *linguopoetics, literary text, poetic discourse, lexical-semantic analysis, metaphor, metonymy, antithesis, personification, oxymoron, rhetorical question.*

Аннотация: в данной статье лингвистические и поэтические особенности поэзии Muhammad Yusuf анализируются на основе лингвопоэтического подхода. В исследовании на примере стихотворений поэта «Бригадир», «Дайте мне», «Изхори дил», «Ворона», «Гордость» и «Аральское море» раскрываются функции лексико-семантических, морфологических, синтаксических и стилистических единиц в художественном тексте.

Ключевые слова: *лингвопоэтика, художественный текст, поэтический дискурс, лексико-семантический анализ, метафора, метонимия, антитеза, персонификация, оксюморон, риторический вопрос.*

Kirish. Muhammad Yusuf she'riyatining lingvistik va poetik jihatdan tahlil qilinishi bugungi zamonaviy filologiyada badiiy matnni nafaqat estetik hodisa, balki murakkab lingvistik tizim sifatida o'rganish bilan bog'liqdir. Lingvopoetikada badiiy matnning til xususiyatlari, ifodaviyligi hamda ma'noning hosil bo'lish mexanizmlari o'rganiladi. Muhammad Yusuf ijodiyotida *fonetik, leksik, morfologik va sintaktik elementlar* lingvistik tahlilda yaqqol namoyon bo'ladi. Shoir she'riyatining poetik xususiyatlari esa uning so'z qo'llash mahorati, ramziylik va ifodaviylik bilan aloqadordir.

Tadqiqot metodologiyasi usullari. Tadqiqotda *intertekstual, germenevtik, semiotik hamda lingvopoetik tahlil metodlaridan* foydalanildi. Germenevtik metod yordamida esa vatan, milliy identitet, tarixiy xotira va ekologik muammolar bilan bog'liq ma'no qatlamlari talqin qilindi. Lingvopoetik yondashuv asosida leksik-semantik, sintaktik va stilistik birliklarning badiiy matndagi funksiyasi tahlil etildi.

Natijalar . Muhammad Yusuf qalamiga mansub *"Brigadir"* nomli she'rda umumiy lingvistik tavsifning badiiy uslub asosida ifodalanishiga guvoh bo'lish mumkin. Unda poetik diskursning sintetik va realistik xususiyatlari maishiy hayot tasviri orqali ochib berilgan. Asarda sevgi, ijtimoiy hayot va jamiyatdagi adolat tushunchalari asosiy mavzu sifatida namoyon bo'ladi. Takroriy fe'l shakllari, xususan, *"Men seni sevaman, sevaman"*[1] kabi reduplikatsiyalar emotsional ta'sirchanlikni oshiradi.She'rda ritorik so'roq gaplar ham uchraydi: *"Qayerdasiz, o'rtoq muhbirlar, nimalarni ko'zlab yuribsiz?"* kabi misralar bunga misol bo'la oladi.

Stilistik vositalarning metafora, oksimoron va personifikatsiya orqali ifodalanishi ham she'rning badiiyligini kuchaytirgan. Jumladan, *"Kaftimda laylakqor", "Atirgul"* kabi obrazlar orqali tasvir va his-tuyg'u uyg'unligi asosida metaforik ma'no yuzaga kelgan. *"Qora ko'z bolasi", "Quvonch va og'riq"* kabi

1 Muhammad Yusuf. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 2005.12 - B.

birikmalar esa oksimoronning shakllanishida muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Psixologik jihatdan esa ichki kechinmalar, ijtimoiy hayotdan uzoqlashish hamda o‘zini tahlil qilishga oid “ichki men” tasviri ko‘zga tashlanadi.

“Menga bering” deb ataluvchi she’rda umumiy lingvistik tasnif turli badiiy uslub va lirik diskurslar orqali ifodalangan. Tarixiy-madaniy maydonning Temur, Bobur, Temuriylar sulolasi, shuningdek, Beruniy va Ibn Sino kabi tarixiy siymolar bilan bog‘lanishi she’rning badiiylik darajasini oshirgan. Ushbu she’rda *“menga bering, menga bering”* kabi takrorlar emotsionallikni kuchaytirish bilan birga ritmik ohangdorlikni ham ta’minlagan. *“Temur — davlat qudrati”* kabi ifodalar orqali metonimiya yuzaga kelganini ko‘rish mumkin. *“Ibn Sino — ilm-fan”* singari birliklar ham tarixiy shaxs nomi orqali ma’lum tushuncha ifodalanishini ko‘rsatadi.

“Izhori dil” deb nomlanadigan she’rda leksik-semantik tahlil jarayonida vatan konsepti yetakchi o‘rinda turadi.Vatan tushunchasining xalq va yer orqali millat tushunchasi bilan bog‘lanishi metafora bilan birga metonimiya vositasida ham ifodalangan.*“Personifikatsiya esa jonlantirish vositasida vatanning ranjishi, yashashi va gapirishi kabi holatlarda namoyon bo‘ladi”*[2].Antiteza usuli *“xoh xafa, xoh kulib”* kabi birikmalar orqali ifodalanib, she’rning ta’sirchanligini oshirgan.

Muhammad Yusuf qalamiga mansub *“Qarg‘a”* nomli she’rda leksik-semantik tahlilda tabiat va hayvonot dunyosi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik qushlar obrazi orqali yoritilgan. Tabiat tasviri allegorik jihatdan qarg‘a, quzg‘un, shox-shabba va daraxt kabi tushunchalar bilan ifodalangan.

Muhokama. Insoniy-ijtimoiy kategoriyalar olim, rahbar, shoir, bolalar, yigitlar kabi birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Emotsional-etika maydoni esa faryod chiqarmoq, kulfat keltirish, befarqlikda yashash, azob chekish kabi tushunchalar orqali ifodalangan.

Modal ma’no ifodalovchi *“qiyin bo‘ladi”, “foydasiz”, “kerak emas”*[3] kabi birliklar ham she’r mazmunini kuchaytiradi. Sintaktik jihatdan ellipsis va ritorik strukturalarning qo‘llanishi kuzatiladi.

“G‘urur” deb nomlangan she’rda madaniy xotira qora qumg‘on obrazi orqali ochib berilgan.Ushbu tushuncha choy, momo, bobo, qishloq va qishloq ahli kabi leksik birliklar bilan bog‘liq holda ifodalangan. Semantik maydonda emotsional-psixologik tushunchalar ham muhim o‘rin tutadi. Bunda atrofdagi voqea-hodisalarga nisbatan beparvolik, savol nigohi bilan yuzlashish, ko‘z yosh, ichmoq va g‘urur kabi tushunchalar ifodalangan.

“Sintaktik jihatdan bog‘lovchilarning qo‘llanishi, gaplarning qisqa va aniq shaklda tuzilishi she’rning o‘ziga xosligi ta’minlagan.Antiteza usuli sevgi va befarqlik, yaqinlik va ajralish kabi qarama-qarshi tushunchalar orqali yuzaga chiqqan”[4].Simvolik jihatdan qora qumg‘on oilaviy xotira, avlodlar davomiyligi hamda milliy qadriyatlarning avloddan-avlodga o‘tishini ifodalashga xizmat qilgan.

“Orol dengizi” nomli she’rda Muhammad Yusuf tabiatga befarq insonlar, millatning kelajakdagi farovonligi va fojialarga yuz tutishi bilan bog‘liq muammolarni yoritadi.Asarda tabiat inqirozining insoniyat oldidagi katta fojiaga aylanishiga urg‘u beriladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, M. Yusuf lingvistik jihatdan emotsional bo‘yoqdor so‘zlardan she’rlarida ko‘p foydalangan. *Jumladan, “bechora”, “qovjiragan”, “baxti qora”* kabi birliklar orqali ifodalangan.Tabiat leksikasiga oid *dengiz, qirg‘oq, yer, tog‘, tekislik, adir* kabi tushunchalar she’rning ta’sirchanligini oshiradi. Undalmalar ham muhim o‘rin tutib, *“Ey qadrdon Orol”, “Peshonamga bitmagan yolg‘iz ummonim”* kabi ifodalar orqali namoyon bo‘ladi.

2 Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. Buxoro, 2000- yil

3 Muhammad Yusuf. Ulug’imsan Vatanim. –Toshkent: O‘zbekiston, 2010.9-B.

4 Йўлдошов М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент. 2019

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 2005.12 - B.
2. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. –Buxoro, 2000- yil
3. Muhammad Yusuf. Ulug‘imsan Vatanim. –Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
4. Йўлдошов М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент. 2019

Sevinch MUMINOVA,
Kattaqo‘rg‘on davlat pegagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
o‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi
23_13-guruh talabasi



GULI SAYFULLAYEVA SHE’RLARIDA TASAVVUFONA CHIZGILAR. SHOIRA SHE’RLARI TAHLILI

Annotatsiya: maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining iste’dodli vakillaridan biri Guli Sayfullayevaning lirikasi badiiy-g‘oyaviy jihatdan chuqur tahlil etiladi. Shoiraning “Seni izlab” va “Kalitlaring” she’rlari tasavvufiy yondashuv asosida ochib beriladi. Ushbu maqolada shoira ijodida falsafiy mushohadalarning o‘ziga xosligi ko‘rsatiladi. Shoira lirik qahramoni ruhiy olami tadqiq etiladi. Guli Sayfullayeva she’riyatida ma’naviy poklik, ruhiy yetuklik, kamolot, komil inson tushunchalari aks etganligi isbotlab beriladi. Jumladan, ijodkor g‘azallari, ularning mavzu ko‘lami, shuningdek, “Ishq” g‘azali adabiyotshunoslik asosida tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *Guli Sayfullayeva, tasavvuf, soqiy, may, falsafiy mushohadalar, kalitlar, shukronalik, nafs, vasl, ishq, poklik, komil inson tushunchalari.*

Annotation: the article deeply analyzes the lyrics of one of the talented representatives of modern Uzbek poetry, Guli Sayfullayeva from an artistic and ideological perspective. The poems of the poetess “Looking for You” and “Your Keys” are revealed in the poetess’s work. The spiritual world of the poetess’ lyrical hero is studied. It is proved that the concepts of spiritual purity, spiritual maturity, perfection, and a perfect person are reflected in Guli Sayfullayeva’s poetry. In particular, the creative ghazals are analyzed on the basis of their thematic scope, as well as the ghazal “Ishk” on the basis of literary criticism.

Key words: *Guli Sayfullayeva, Sufism, cupbearer, mystical symbol, philosophical reflections, key concepts, gratitude, ego, union, divine love, purity, the concept of the Perfect Human.*

Аннотация: в статье проводится углубленный анализ лирики одной из талантливых представительниц современной узбекской поэзии, Гули Сайфуллаевой с художественно-интеллектуальной точки зрения. Стихотворения поэтессы «Ищу тебя» и «Твои ключи» рассматриваются на основе мистического подхода. В статье показана уникальность философских наблюдений в творчестве поэтессы. Изучается духовный мир лирического героя поэтессы. Доказано, что в поэзии Гули Сайфуллаевой выражены понятия духовной чистоты, духовного совершенства, совершенной личности. В частности, анализируется тематика творческих газелей, а газель «Ишк» анализируется на основе литературоведения.

Ключевые слова: *Гули Сайфуллаева, мистицизм, соци, май, философские наблюдения, ключи, благодарность, нафс, васл, ишк, чистота, понятия совершенной личности.*

Nazm san’atning shunday turiki, u insonni hayajonga soladi. She’riyatga oshno bo‘lish insonning yoshiga, kasbiga, millatiga, diniga qaramaydi. Ana shunday shoiralarimizdan biri Guli Sayfullayevaning asl kasblari muhandis-programmistdir. Shoira Samarqand shahrida dunyoga kelgan. Bolalik yillari so‘lim Kattaqo‘rg‘on shahrida o‘tgan. 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabini oltin medal bilan bitirgandan so‘ng, Toshkent politexnika institutining “Avtomat boshqarish sistemalari” fakultetida tahsil olgan. Texnika fanlari nomzodi unvoniga sazovor bo‘lgan. She’rlari Respublika matbuotida e’lon qilingan. Navoiy, Mashrab, Umay Xayyom, Ogahiy lirikasidagi ifodalar, orifona ruh shoirada ham yetakchilik qiladi. Shuningdek, shoira o‘zbek she’riyatida yangi usul bo‘lgan, parapsixologiyaning yirik vakillaridan biridir. Guli Sayfullayevaning “Chorlov” va “Atrof – sening aksing” nomli she’riy to‘plamlari dunyo yuzini ko‘rgan. Hozirgi kunda esa yana bir she’riy to‘plam ustida ishlamoqda.

Tasavvuf (so‘fiylik) – islom dinida insonni ruhiy va axloqiy jihatdan kamolotga, nafsni poklash va Allohga ma’rifat orqali yaqinlashishga yo‘llovchi ta’limot. Shoira

she’rlarida ham tasavvufona ruh yetakchilik qiladi, Allohning yagona ekanligi ko‘p tilga olinadi. Jumladan, “Seni izlab” she’rida shoira shunday deydi:

Dilda borim, tanhodirsan, ko‘rganlarim ro‘yodir.
Haqiqat sening o‘zingsan, ishqingda jon kuyodir.

Bundan ko‘rinadiki, ijodkor Alloh yagonaligini ta’kidlamoqda. U ma’rifat bosqichlaridan poklanib o‘tmoqda, haqiqat bosqichi sari yo‘nalmoqda.

Gulzordagi gulga boqgum, ko‘rmoq istab yuzingni.
Oy ila quyoshga boqgum, istab qosh-u ko‘zingni.
Ulug‘liging hayolida tog‘larga qarab yurgum.
Go‘zalliging ko‘rmoq istab, bog‘larga yuzim burgum.
Bor vujudim seni izlar, his-tuyg‘ular jam bo‘lib.
Yulduzlardan so‘roqlayman, jimirlashadi kulib.

Tasavvufda jilva tushunchasi mavjud bo‘lib, unga ko‘ra dunyo, tabiat, inson va boshqa narsalarga Alloh bir xususiyatini in’om qiladi va u go‘zalliklar bizga chiroyli bo‘lib, jilolanib ko‘rinadi. Ushbu misralarda ijodkor yaratilmishlardan Yaratganni izlayapti. Bu yerda, dunyo ham jannatdan bir nusxadir, degan ta’limot bor.

Guli noumid bo‘lmag‘ay, istagi - vasling sening,
Garchi ul beor tikanlar to‘ssalar yo‘lin aning.

Bu yerda Allohdan umidvorlik tuyg‘usi naqadar kuchli. Lirik qahramonning asl murodi Allohning vaslidir.

Soqiyo, quygin mayingni,
May deb borim urar bong.
Mastona bo‘lib ul yorga
Yetishsam magar, ne tong!

Soqiyga murojaat qadimdan keng ishlatilib kelinmoqda. Soqiyga xitob ustozga, pirga murojaat qilish demakdir. Bu yerda bo‘lsa lirik qahramon ko‘ngilga murojaat etmoqda. May - Allohning ishqi. Shoira esa aytganlaridek, bu yerda barcha bilimlar may timsolini hosil qilgan. Mastona bo‘lish esa lirik qahramon ruhiyatida jazba holatiga o‘tish. Jazba bu ilohiy ishqdan mast bo‘lish demakdir. Ya’ni adib ilohiy ishqdan mast bo‘libgina, Allohning vasliga yetish mumkinligini, bu holat ajablanarli emasligini uqtirmoqda.

Shoira she’rlarida “Ey” deb boshlanuvchi she’rlar ham bor. Uning nazm bo‘stonida shunday falsafiy mushohadalar borki, ular har xil ranglarda tovlanadi. Masalan, ijodkor bir she’rida quyoshni ilohiy mehrga qiyoslaydi. U aksariyat ijod namunalarida fikr tarbiyasi haqida so‘z yuritadi. “Kalitlaring” she’rida asl kalitlar insonni o‘zida ekani ifoda etiladi. Haqiqiy kalitlar – kundalik hayotimizdagi ishlarimiz, fikrlarimiz, his-tuyg‘ularimiz, zikrlarimiz, hatti-xarakatlarimiz ekanligiga yana bir bor urg‘u beriladi. Ushbu she’rda yomon illatlar, ya’ni nafsning turlari sanab o‘tiladi. Ulardan yiroq turmoqlikni, qutilmoqlikni, shundagina hayotimiz ijobiy tomonga o‘zgarishini uqtiriladi.

Taning nosog‘, dushman paydo, ishlaring ko‘ngildakmas,
Xullas, noxushliklar senga kelaverar basma-bas.
Ana shunday damlar agar hayotingda bor bo‘lsa,
Sababni top, sabab - illat, u gar senga yor bo‘lsa.
Illatlarni aytay senga, sen yaxshilab o‘ylab boq,
O‘zingda qay birin ko‘rsang, quvgin uni, o‘tda yoq.
Kibr-havo, dimog‘dorlik, xudbinlik, ayb qidirish,
Tanqid, da’vo, norozilik, adovat, g‘iybat qilish.
Achchiqlanish, nafrat, g‘azab, hasad, xushomad, yolg‘on,
Ko‘ngil qolish, xafalik, o‘ch, maqtanchoqlik va gumon.
Qo‘rquv, tashvish va xavotir, o‘kinch, qat’iyatsizlik,
G‘am-alam, qayg‘u va hasrat, ziqlik va umidsizlik.
G‘arazgo‘ylik, ta’magirlik, hirslik va qizg‘anchiqlik,
Munofiqlik, rashk, ochko‘zlik, xasislik, qurumsoqlik.
Bu ro‘yxatni o‘zing oson davom etishing mumkin,
Sababini bilsang agar, nedan kayfiyat tushkun.

Guli Sayfullayeva she’rlarida lirik qahramon ruhida shukronalik tuyg‘usi yaqqol ko‘rinib turadi. Misol uchun “Tushkunlikka tushgan do‘stga” she’rida quyidagi misralar ko‘zga tashlanadi:

Suygan bandalarin sinarkan Alloh,
Sen g‘amlarga emas, faqat Unga boq,
Tushkunlikning uyin kuydir, o‘tda yoq,
Shukronalik tog‘i tomon yo‘lni bur,
G‘am sellari seni oqizib ketmay.
Jon do‘stim, so‘zlarim olmagin og‘ir,
Ko‘ngil Haqda bo‘lsin, bas, etma sag‘ir,
Undan keldik, Unga qaytamiz axir,
Shukronalik tog‘i tomon yo‘lni bur,
G‘am sellari seni oqizib ketmay.

Yana bir she’rida esa shukronalik haqida shunday deydi: ““Borim-yo‘g‘imga shukr” deb yashamoq men-chun baland taxt”.[1]

Shoira ijodida g‘azal janri ham uchraydi. Aruz vaznida ijod qilish juda mushkul, ammo shoira buni muvoffaqqiyatli uddalagan. G‘azallari mavzusi jihatdan poklik, nafsdan yiroq bo‘lish, kibr ofatlari, komillik, ilohga yetishish haqidadir.

“Ishq” g‘azali

Har ne bir kun topar fano, va le yolg‘iz baqodir ishq,
Cho‘g‘i tushib yonayotgan ko‘ngildagi samodir ishq.

1 Guli Sayfullayeva, “Chorlov” she’riy to‘plami, “Turon-Zamin-ziyo” nashriyoti, Toshkent, 2013 yil.

O‘tirsang ham turganingda dilingda yolg‘iz yor ishqi,
Bu foniy dunyoda dardmand ko‘ngilga yak davodir ishq.
Tunlaringda oyu yulduz, kunlaringda quyoshingdir,
Olam turgunicha turgung, magar senga havodir ishq.
Haqiqiy oshiqlar ma’shuq vasliga yetgaylar albat,
Garchi imtihon qasdida ba’zan etar “rasvo”dir ishq.
Ma’shuqa vasliga loyiq bo‘lmog‘i lozim oshiqning,
Noloyiqlik dashti uzra suv yog‘dirar hayodir ishq.
Cholg‘uvchi bazmidan o‘zga hushroq bazm topolmassan,
Chun ul ijrosida har kuy va har bitta navodir ishq.
Shukr qil, ey Guli, har dam, ishqsizlik cho‘lidamassan,
Gul-u gulzor ichradirsan, chunki senga ravodir ishq.

G‘azal an’anaviy 7 baytdan iborat. Qadimdan ham Sharqda 7 baytli g‘azallar keng tarqalgan. Ramali musammani solim vaznida yozilgan, ushbu g‘azalda: baqodir, samodir, davodir, havodir, rasvodir, hayodir, navodir, ravodir so‘zlari qofiyadosh so‘z vazifasini bajargan. o–tovushi esa raviy bo‘lib kelgan. Mazkur “Ishq” g‘azali tasavvufiy-falsafiy ruhda yozilgan bo‘lib, unda ishq inson qalbini poklovchi, ma’naviy kamolga yetaklovchi ulug‘ kuch sifatida talqin qilinadi. G‘azalda lirik qahramon ishqni oddiy tuyg‘u emas, balki hayotning ma’nosi, ruhning nafasi va insonni boqiylikka eltuvchi qudrat deb tasvirlaydi. Shoira foniy dunyoda hamma narsa yo‘q bo‘lishini, ammo ishq boqiy qolishini ta’kidlaydi: “Har ne bir kun topar fano, va le yolg‘iz baqodir ishq”. Bu misrada “fano” va “baqo” tushunchalari qarama-qarshi qo‘yilgan. Fano - yo‘q bo‘lish, o‘tkinchilik; baqo esa abadiylik ma’nosini beradi. Uning nazarida ishq inson ruhining boqiy qismidir. Lirik qahramon qalbida ishq alangasi yonib turadi. U yor ishqini dardmand ko‘ngilning yagona davosi deb biladi. Bu holat quyidagi satrlarda yorqin ifodalanadi: “Bu foniy dunyoda dardmand ko‘ngilga yak davodir ishq.” Bu yerda ishq shifobaxsh kuch sifatida tasvirlangan. Qahramon ruhiy iztirob ichida bo‘lsa-da, aynan ishq orqali taskin topadi. “Tunlaringda oy-u yulduz, kunlaringda quyoshingdir”. Bu misrada ishq oy, yulduz va quyoshga qiyoslangan. Muallif ishqni inson hayotini yorituvchi nur sifatida ko‘rsatadi. “Ishqsizlik cho‘li” obrazi orqali esa ishqsiz qalb huvillagan sahroga o‘xshatiladi. Aksincha, ishq bor qalb: “Gul-u gulzor ichradirsan” deya tasvirlanadi. “Garchi imtihon qasdida ba’zan etar “rasvo”dir ishq”. Haqiqiy ishq yo‘lida inson turli sinovlarga duch kelishi tabiiydir. Biroq bu sinovlar oshiqni poklaydi, uni ma’shuq vasliga munosib qiladi. “Haqiqiy oshiqlar ma’shuq vasliga yetgaylar albat” misrasi orqali sabr va sadoqat oxir-oqibat visolga olib borishi ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda, Guli Sayfullayeva ijodi zamonaviy o‘zbek she’riyatida tasavvufiy-falsafiy ruhni o‘zida mujassam etgandir. Shoira she’rlarida ilohiy ishq, ma’naviy poklanish, nafsni yengish, shukronalik va komillikka intilish kabi mavzular yetakchilik qiladi. Uning lirik qahramoni doimo Haqiqatni izlaydi, Alloh vasliga yetishni inson hayotining eng oliy maqsadi sifatida talqin etadi. “Ishq”, “Seni izlab”, “Kalitlaring”, “Dori” kabi she’rlarida shoira yuksak mahorati ko‘rinadi. U ishqni inson qalbini nurga to‘ldiruvchi, uni ruhiy kamolot sari yetaklovchi ilohiy qudrat deb tasvirlaydi. Ayniqsa, g‘azallaridagi aruz ohangi, falsafiy mushohadalar va ramziy timsollar uning ijodiy salohiyatini namoyon qiladi. Ijodkorning she’riyati o‘quvchini ezgulikka, sabrga, ruhiy poklikka va shukronalik bilan yashashga chorlaydi. Shu jihatdan, Guli Sayfullayeva ijodi nafaqat estetik zavq uyg‘otadi, balki inson qalbini tarbiyalaydi, uni ma’naviy yuksaklikka da’vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Guli Sayfullayeva, “Chorlov” she’riy to‘plami, – Toshkent: “Turon-Zamin-ziyo” nashriyoti, 2013 yil.
2. Guli Sayfullayeva, “Atrof - sening aksing” she’riy to‘plami, – Toshkent: “Navro’z” nashriyoti, 2015 yil.
3. Najmiddin Komilov, “Tasavvuf”, – Toshkent: “Movarounnahr”–“O‘zbekiston”, 2009 yil.
4. Usmon Turar, “Tasavvuf tarixi”, “Istiqlol” nashriyoti, 1998 yil.
5. Yevgeniy Bertels, – Toshkent: “So‘fizm va tasavvuf adabiyoti”, 2005 yil.

Yulduz MADAMINOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi yo‘nalishi
1-bosqich magistranti

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA MUROJAAT BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya*:* ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining klassik namoyandasi Abdulla Qahhorning badiiy asarlarida qo‘llangan murojaat birliklarining leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida murojaat birliklarining tarkibiy-semantik tuzilishi, uslubiy vazifalari va pragmatik ahamiyati o‘rganildi. Adibning «Sarob», «Qo‘shchinor chiroqlari», «O‘g‘ri», «Bemor», «Anor», «Dahshat» kabi asarlari asosida murojaat vositalarining badiiy matn yaratishdagi o‘rni aniqlashtirildi. Tahlillar shuni ko’rsatdiki, Abdulla Qahhor asarlarida murojaat birliklari nafaqat so‘z-nominativ birlik sifatida, balki personajlar psixologiyasini ochishning samarali vositasi hamdir.

Kalit so‘zlar: *murojaat, leksik-semantik tahlil, badiiy matn, pragmatika, uslubiy vazifa, nutq akti, personaj nutqi.*

Annotation*:* this article analyzes the lexical-semantic properties of the units of reference used in the works of the classical representative of Uzbek literature, Abdulla Qahhor. In the course of the research, the structural-semantic structure, stylistic functions and pragmatic significance of the units of reference were studied. Based on the author’s works such as “Mirage”, “Lights of the Koshchinor”, “Thief”, “Patient”, “Pomegranate”, “Dahshat”, the role of the means of reference in creating a literary text was determined. The analysis showed that in the works of A. Qahhor, units of reference are not only a word-nominative unit, but also an effective means of revealing the psychology of characters.

Key words*: address, lexical-semantic analysis, literary text, pragmatics, stylistic task, speech act, character speech.*

Аннотация: в данной статье анализируются лексико-семантические свойства референционных единиц, используемых в произведениях классического представителя узбекской литературы Абдуллы Каххора. В ходе исследования изучены структурно-семантическая структура, стилистические функции и прагматическое значение референционных единиц. На основе таких произведений автора, как «Мираж», «Свет Кощинора», «Вор», «Пациент», «Гранат», «Дахшат», определена роль референционных средств в создании литературного текста. Анализ показал, что в произведениях А. Каххора референционные единицы являются не только словоименительной единицей, но и эффективным средством раскрытия психологии персонажей.

Ключевые слова: *обращение, лексико-семантический анализ, литературный текст, прагматика, стилистическая задача, речевой акт, речь персонажа.*

Kirish. O‘zbek tilshunosligida murojaat birliklari nutqning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini ochib beruvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy matnda murojaat birliklari qahramonlarning o‘zaro munosabati, ijtimoiy mavqeyi, ruhiy holati hamda milliy-madaniy qadriyatlarni ifodalashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan Abdulla Qahhor asarlaridagi murojaat birliklarini leksik-semantik jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Yozuvchi o‘z asarlarida xalqona nutq, sodda va tabiiy dialoglardan mohirona foydalanganligi sababli murojaat birliklari badiiy-estetik vazifani ham bajaradi. Til va adabiyot o‘rtasidagi munosabat har doim tilshunoslik fanining diqqat markazida bo‘lgan. Badiiy asarda til vositalarining qo‘llanishi nafaqat tasviriylik, balki personajlar ichki dunyosini ochish jihatidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Murojaat birliklari — bu shaxslararo muloqotda so‘zlovchi tomonidan tinglovchiga yoki matnda tasvirlangan obyektga qaratilgan lisoniy birliklardir [1]. Ular nutq aktining tarkibiy qismini tashkil etib, so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi.

Abdulla Qahhor (1907-1968) — o‘zbek nasri va dramaturgiyasining yirik vakili bo‘lib, uning asarlari tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ko‘p qirraliligidir. Adibning qahramonlari o‘rtasidagi dialog va muloqotda murojaat birliklarining xilma-xil ko‘rinishlari kuzatiladi. Bu holat asarlar tilini leksik-semantik jihatdan tadqiq etishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Tadqiqotning maqsadi — A.Qahhor asarlarida murojaat birliklarining leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash, ularning uslubiy va pragmatik vazifalarini tavsiflab berish. Maqolada quyidagi vazifalar hal etiladi: 1) murojaat birliklarining nazariy asoslarini ko‘rib chiqish; 2) A.Qahhor asarlaridan olingan misollar asosida murojaat vositalarini tasniflash; 3) ularning badiiy matndagi semantik yukini tahlil qilish.

Asosiy qism. Murojaat birliklari tilshunoslikda «address units», «vocatives» (lot. vocativus — chaqirish) atamasi

bilan ham yuritiladi. Rossiya tilshunosligida V.V.Vinogradov, A.A.Shaxmatov, N.Y.Shvedova kabi olimlar murojaat birliklarining grammatik tabiatini o‘rganishgan. O‘zbek tilshunosligida esa bu masala A.G‘ulomov, M.Mirtojiyev, Sh.Yusupova, B.To‘xliyev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan [2].

Leksik-semantik tahlil metodologiyasi sifatida ushbu ishda struktural-semantik tahlil, kontekstual tahlil va pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi. Murojaat birliklarini tasniflashda J.L.Ostinning nutq akti nazariyasi va J.R.Serlning ilokutiv aktlar tasnifi asos qilib olindi. O‘zbek tilshunosligi nuqtayi nazaridan esa Sh.Yusupova tadqiqotlarida ilgari surilgan «murojaat-shaxs» munosabati konsepsiyasiga tayanildi.

Murojaat birliklarining asosiy turkumlari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Ism-murojaat birliklari (antroponimik murojaat): shaxs ismi, familiya yoki laqab orqali berilgan murojaatlar.

2. Munosabat-murojaat birliklari: qarindoshlik atamalari (ota, ona, aka, opa), hurmat bildiruvchi so‘zlar (janob, xonim, ustoz).

3. Sifat-murojaat birliklari: ijobiy yoki salbiy baholash ma’nosini ifodalovchi murojaatlar (azizim, jonim, tentak va h.k.).

4. Metaforik murojaatlar: hayot-tabiat hodisalari orqali ifodalangan ko‘chma ma’noli murojaatlar.

Abdulla Qahhor asarlarining asosiy xususiyatlaridan biri — jonli xalq tiliga yaqinligidir. Yozuvchi dialoglarni tabiiy shaklda yaratishda murojaat birliklaridan unumli foydalangan. Bu birliklar:

– personaj xarakterini ochishda;

– davr ruhini ko‘rsatishda;

– milliy koloritni yaratishda;

– ijtimoiy tabaqalanishni ifodalashga xizmat qiladi.

A.Qahhorning «Sarob» romanida murojaat birliklarining barcha ko‘rinishlari uchraydi. Jumladan, Saidakbarning Ra’noga murojaatida: «Ra’no, siz hali yoshsiz, hayotni tushunmaysiz» — iborasida shaxs ism-murojaati ijtimoiy-psixologik bosim vositasi sifatida ishlatilgan [3]. Bu misolda murojaat nutqiy aktning lokutiv qismini tashkil etibgina qolmay, ilokutiv kuch — ya’ni ta’sir va ishontirish — vazifasini ham bajaradi.

«Qo‘shchinor chiroqlari» asarida esa murojaat birliklari personajlar ijtimoiy maqomini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Xo‘jayin va ishchi o‘rtasidagi dialogda: «Ha, Yo‘ldosh, sening ishingdan rozi emasman» — murojaatidagi sodda ism ishlatilishi ijtimoiy tengsizlikni ifoda etadi. Akademik T.Qodirov ta’kidlaganidek, bunday murojaatlar «badiiy matnda ijtimoiy munosabatlarning lisoniy ko‘zgusi» hisoblanadi [4].

Qisqa hikoyalar — «O‘g‘ri», «Bemor», «Anor» — da esa murojaat birliklarining ixchamligi, ularning yuqori pragmatik zichligi ko‘zga tashlanadi. «Anor» hikoyasidagi «Bolam, sen bilmaysan» murojaatida ona-farzand munosabatini ifodalovchi «bolam» so‘zi effektiv-emotsiv semantikaga ega bo‘lib, matn ichidagi hissiy-ta’sirchan kuchni oshiradi [5]. Bu fenomen M.M.Baxtinning dialogizm nazariyasi doirasida ham talqin qilinishi mumkin — har bir murojaat «boshqa ovoz»ga yo‘naltirilgan va matnning poliofonik tabiatini ta’minlaydi [6].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, A.Qahhor asarlarida murojaat birliklari leksik-semantik jihatdan boy va ko‘p qatlamli tizimni tashkil etadi. Ular quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi: a) kommunikativ — muloqotda tinglovchini aniqlashtirish; b) ekspressiv — so‘zlovchining emotsional holatini ifodalash; d) ijtimoiy — personajlar o‘rtasidagi ierarxik munosabatlarni ko‘rsatish; e) badiiy-uslubiy — matnning estetik ta’sirchanligini oshirish.

Adibning badiiy uslubida murojaat birliklarining semantik yuklanishi odatdagi til normalaridan yuqori bo‘lib, ular nutqiy portret yaratishning asosiy vositalaridan biriga aylanadi. Xususan, qarindoshlik atamalari asosidagi murojaatlar (ota, ona, aka, opa, bolam) o‘zbek milliy mentaliteti va oilaviy munosabatlar tizimini aks ettiradi.

Shuningdek, murojaat birliklarim A.Qahhor ijodining indidual uslubini belgilovchi vositalardan biri bo‘lib, ular orqali muallif personojlarining nutqiy portretini yaratadi. Murojaatlarning semantik va pragmatik tahlili o‘zbek tilidagi nutq madanyati, milliy muloqot odobi hamda lingvopragmatik jarayonlarini tadqiq etishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: 1. O‘zbek badiiy adabiyotida murojaat birliklarini o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus lug‘atlar tuzilishi maqsadga muvofiqdir. 2. Murojaat birliklarining kognitiv-pragmatik tadqiqi kelgusidagi ilmiy ishlar uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. 3. A.Qahhor asarlari tilining mukammal lingvopoetik tahlili zarurligi belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirtojiyev M. O‘zbek tilining semantikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2006. 192-b.
2. Qodirov T. O‘zbek badiiy nutqining pragmatikasi. — Toshkent: Fan, 2015. 224-b.
3. Qahhor A. Sarob: Roman. — Toshkent: O‘zdavnashr, 1960. 312-b.
4. Qahhor A. Hikoyalar to‘plami. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1964. 280-b.
5. Yusupova Sh. O‘zbek tilida murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari. — Toshkent: Fan, 2003. 148-b.
6. To‘xliyev B. Badiiy matn lingvistikasi. — Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013. 176-b.

Madiyor YO‘LCHIYEV,
Turon universiteti magistranti

TOG‘AY MUROD QISSALARIDA MILLIY KOLORITNING BADIIY-ESTETIK KONSEPSIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada Tog‘ay Murod qissalarida milliy koloritning badiiy-estetik talqini, xalqona ruh va milliy qadriyatlarning adabiy ifodasi tahlil qilinadi. Adib asarlarida o‘zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlari, milliy tafakkuri hamda ruhiy olami obrazlar va badiiy tasvir vositalari orqali yoritilgani ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining til mahorati, folklor unsurlaridan foydalanishi va milliy xarakter yaratishdagi o‘ziga xos uslubi ilmiy-nazariy asosda tadqiq etiladi. Maqolada Tog‘ay Murod qissalarining o‘zbek milliy adabiyotidagi estetik ahamiyati hamda milliy koloritni aks ettirishdagi o‘rni haqida xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *qissa, milliy kolorit, badiiy-estetik konsepsiya, milliy ruh, folklor, obraz, badiiy tasvir, o‘zbek adabiyoti, xalqona uslub, milliy qadriyat, adabiy tahlil.*

Аннотация: в данной статье анализируется художественно-эстетическая интерпретация национального колорита, литературное выражение народного духа и национальных ценностей в рассказах Тогая Мурада. Выявлено, что произведения писателя освещают образ жизни, обычаи, национальное мышление и духовный мир узбекского народа посредством образов и средств художественного изображения. На научно-теоретической основе также изучены языковые навыки писателя, использование фольклорных элементов и его уникальный стиль в создании национального характера. В статье сделаны выводы об эстетическом значении рассказов Тогая Мурада в узбекской национальной литературе и их роли в отражении национального колорита.

Ключевые слова: *сюжет, национальный колорит, художественно-эстетическая концепция, национальный дух, фольклор, образ, художественный образ, узбекская литература, народный стиль, национальная ценность, литературный анализ.*

Annotation: this article analyzes the artistic and aesthetic interpretation of national color, the literary expression of the folk spirit and national values in the stories of Togay Murad. It is revealed that the writer’s works illuminate the lifestyle, customs, national thinking and spiritual world of the Uzbek people through images and means of artistic depiction. The writer’s language skills, use of folklore elements and his unique style in creating a national character are also studied on a scientific and theoretical basis. The article draws conclusions about the aesthetic significance of Togay Murad’s stories in Uzbek national literature and their role in reflecting national color.

Key words: *story, national color, artistic and aesthetic concept, national spirit, folklore, image, artistic image, Uzbek literature, folk style, national value, literary analysis.*

Adabiyotshunoslikda milliy kolorit masalasi milliylik, xalqchillik va realizm kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Realistik adabiyotda hayotni haqqoniy tasvirlash talabi milliy muhitni tabiiy va ishonarli ifodalash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan milliy kolorit badiiy asarning obrazlar tizimi, til va uslubi, syujet va kompozitsiyasi, makon va vaqt tasvirida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchilar milliy koloritni tashqi va ichki qatlamlarga ajratadilar. Tashqi kolorit urf-odatlar, marosimlar, kiyim-kechak va kundalik turmush detallari orqali ko‘zga tashlansa, ichki kolorit xalqning tafakkuri, ruhiyati va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi. Haqiqiy badiiylik aynan shu ikki qatlamning uyg‘unligida yuzaga keladi. Milliy kolorit muayyan omillar ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi. Eng muhim omillardan biri til hisoblanadi, chunki badiiy asarda qo‘llanilgan so‘z boyligi, dialektlar, iboralar va maqollar milliy muhitni jonlantiradi hamda qahramonlarning ijtimoiy va madaniy qiyofasini ochib beradi. Mentalitet ham milliy koloritning asosiy negizini tashkil etadi, chunki u insonlarning fikrlash tarzi, qadriyatlari va hayotga munosabatini ifodalaydi. Badiiy asarda qahramonlarning xatti-harakatlari, qarorlari va hissiy reaksiyalari orqali milliy mentalitet namoyon bo‘ladi. Urf-odat va an’analar ham milliy koloritni shakllantiruvchi muhim omillar qatoriga kiradi, chunki ular xalqning tarixiy tajribasi va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Bundan tashqari, makon va tabiiy muhit ham milliy koloritning ajralmas qismi bo‘lib, tabiat tasvirlari orqali nafaqat voqelik fonini yaratadi, balki qahramonlarning ruhiy holatini ham ifodalaydi. Milliy kolorit badiiy asarda turli vositalar orqali ifodalanadi. Avvalo, obrazlar tizimi milliylikni aks ettiruvchi asosiy vosita bo‘lib, qahramonlarning xarakteri, nutqi va xatti-harakatlari orqali milliy ruh ochiladi. Lingvopoetik vositalar, jumladan metafora, epitet va boshqa tasviriy vositalar milliy koloritni yanada boyitadi. Syujet va konflikt qurilishida ham milliy muhit o‘z aksini topadi, chunki

unda jamiyatga xos ijtimoiy muammolar va qadriyatlar ifodalanadi. Badiiy detal esa milliy koloritni aniqlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi, chunki kichik bir predmet orqali ham muayyan davr va muhitni tasvirlash mumkin. Globallashuv sharoitida milliy kolorit masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki global madaniyat ta'siri kuchaygan sari milliy o'ziga xoslikni saqlash zarurati ortib bormoqda. Zamonaviy o'zbek nasrida milliy kolorit bir tomondan an'anaviy qadriyatlarni saqlash, ikkinchi tomondan esa yangi ijtimoiy sharoitda ularni qayta talqin qilish orqali rivojlanmoqda. Bu jarayonda yozuvchilar milliy koloritni nafaqat tashqi belgilar orqali, balki chuqur falsafiy mazmun bilan boyitishga intilmoqdalar. Milliy kolorit badiiy adabiyotning muhim estetik kategoriyalaridan biri bo'lib, u muayyan xalqning ruhiyati, madaniyati va tarixiy tajribasini o'zida mujassam etadi. U badiiy asarning realizmini ta'minlaydi, milliy ong va tafakkurni aks ettiradi hamda o'quvchiga kuchli estetik ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli milliy koloritni o'rganish adabiyotshunoslik bilan bir qatorda madaniyatshunoslik va tilshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Tog'ay Murod ijodi misolida milliy koloritning badiiy imkoniyatlarini chuqurroq anglash mumkin.

Badiiylik va milliy kolorit o'rtasidagi munosabatni qahramonlar nutqi misolida ham ko'rish mumkin, chunki qahramonlarning nutqi orqali ularning milliy mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishi va dunyoqarashi ochib beriladi, bu jarayonda xalqona iboralar, maqollar, dialektlar va frazeologik birliklar muhim rol o'ynaydi, aynan shu til unsurlari orqali milliy kolorit shakllanadi va badiiylik darajasi ortadi. Chunki ular nutqqa tabiiylik va samimiylik bag'ishlaydi, shu bilan birga estetik zavq uyg'otadi, bu esa tilning go'zallik yaratish xususiyatining yorqin namunasidir. Tilning ikki tomonlama badiiy xususiyati milliy koloritni shakllantirishda quyidagicha namoyon bo'ladi, bir tomondan yozuvchi real milliy hayotni aks ettiradi, ya'ni urf-odatlar, marosimlar, turmush tarzi va tabiat tasvirini berish orqali milliy muhitni ko'rsatadi, ikkinchi tomondan esa u tilning badiiy imkoniyatlaridan foydalanib, ushbu muhitni estetik jihatdan boyitadi va umumlashtiradi. "Tilning emotsionalligi badiiy matnda qahramon ruhiyati, muallif munosabati va milliy xarakter ifodasini kuchaytiruvchi muhim uslubiy vosita hisoblanadi".[1] Natijada milliy kolorit faqat faktlar yig'indisi emas, balki badiiy tizimga aylangan estetik hodisa sifatida yuzaga keladi. Adabiy jarayonda ijodkorning individual uslubi ham milliy kolorit va badiiylik uyg'unligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi, har bir yozuvchi milliylikni o'ziga xos tarzda ifodalaydi va bu uning til tanlovi, obraz yaratish usullari hamda estetik qarashlarida aks etadi. Masalan, Tog'ay Murod ijodida tilning sodda, xalqona va obrazli qo'llanishi orqali milliy ruh tabiiy va ta'sirchan tarzda ifodalanadi, uning asarlarida til bir vaqtning o'zida ham real hayotni aks ettiradi, ham yangi estetik go'zallikni yaratadi, bu esa badiiylik va milliy koloritning uyg'unlashgan holatini ko'rsatadi. Milliy kolorit va badiiylik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik o'quvchi idrokida ham o'z aksini topadi, chunki badiiy asarni o'qish jarayonida o'quvchi nafaqat voqealarni anglaydi. Balki estetik zavq oladi, aynan milliy kolorit orqali bu zavq yanada kuchayadi, chunki u o'quvchini o'ziga tanish yoki qiziqarli bo'lgan milliy muhit bilan bog'laydi, shu bilan birga badiiy til vositalari orqali bu muhit estetik jihatdan boyitiladi. "Agar tasvirlamoqchi bo'lgan narsalaringizga yetarli darajada bardosh va e'tibor bilan tikilsangiz, uning hali hech kim ko'rmagan va tasvirlamagan tomonlarini, albatta, topasiz... Arzimagan narsaning ham hali ma'lum bo'lmagan biror qirrasi bor. Yonib turgan olovni yoki tekis joydagi bir daraxtni tasvirlash uchun ularni boshqa hech qaysi olovga yoki daraxtga o'xshamay ko'ringuncha o'rganish kerak"[2] degan fikrlar to'laqonli haqiqat. Badiiy adabiyotda tasvir aniqligi va kuzatuv chuqurligi masalasi milliy koloritni yaratishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi, chunki yozuvchi tasvirlamoqchi bo'lgan voqelikni yuzaki emas, balki uning ichki mohiyatigacha anglab yetgan taqdirdagina uni badiiy jihatdan mukammal ifodalay oladi. Shu jihatdan har qanday predmet, hodisa yoki inson xarakteri o'zida betakror jihatlarni mujassam etadi va aynan ana shu o'ziga xoslikni topish ijodkorning asosiy vazifasiga aylanadi, natijada badiiy tasvir umumiylikdan xususiylikka, oddiylikdan betakrorlikka o'tadi va milliy koloritning shakllanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, badiiy asarda qahramon ruhiy holatini tasvirlashda ijodkor mahorat bilan foydalanadigan badiiy unsurlar xalqona tasvir yaratishga xizmat qiladi: "Qahramon ruhiyati badiiy asarda personajning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va psixologik holatini ochib beruvchi asosiy estetik unsurlardan biri hisoblanadi"[3] deb yozadi adabiyotshunos Izzat Sulton. Xalq hayotini tasvirlashda milliy koloritning ishonarli chiqishi yozuvchining kuzatuvchanligi va tafakkur chuqurligiga bevosita bog'liq bo'ladi, chunki oddiy ko'rinadigan voqea yoki predmet ham aslida ko'p qirrali mazmunga ega bo'lib, uning ichida milliy turmush tarzi, qadriyatlar tizimi va estetik qarashlar mujassam bo'ladi.

"Har bir yozuvchining o'zga bir yozuvchiga o'xshamasligi, uning adabiyotdagi mustaqil ovozi mazkur adib uslubini belgilashga xizmat qiladi. Ayni chog'da yozuvchining hayotni tadqiq etishdagi o'ziga xos yo'li hayotni qanday ko'radi va uni qanday tushuntiradi; nimani tasdiqlaydi-yu, nimani inkor qiladi– shularning hammasi

1 A. Shomaqsudov, I. Rasulov, R. Qo'ng'urov, H. Rustamov. O'zbek tilining stilistikasi – Toshkent: O'qituvchi, 1983. 112-bet.

2 Badiiy ijod haqida.(Maqolalar to'plami). – T.: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960. 276-b

3 Sulton I. Adabiyot nazariyasi – Toshkent: O'qituvchi, 2005. 214-bet.

uslub doirasiga kiradi”[4] deb e’tirof etadi tadqiqotchi M. Sultonova. Shuningdek, yozuvchi uslubi badiiy asarda xalq hayotini jonli tasvirlash va milliy koloritni to‘laqonli aks ettirishda eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda yozuvchi uslubi masalasi ijodkorning badiiy individualligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi, chunki har bir yozuvchi borliqni o‘ziga xos tarzda idrok etadi va uni badiiy shaklda ifodalaydi, shu jihatdan tadqiqotchi M. Sultonova ta’kidlaganidek, ijodkorning boshqa yozuvchilarga o‘xshamasligi, uning adabiyotdagi mustaqil ovozi aynan uslub orqali namoyon bo‘ladi, bu esa nafaqat til va ifoda vositalarida, balki hayotni ko‘rish, tushunish va baholash jarayonida ham o‘z aksini topadi. Natijada uslub ijodkorning badiiy dunyoqarashini ifodalovchi kompleks hodisa sifatida shakllanadi. Yozuvchi uslubi hayotni tadqiq etish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u voqelikni qanday ko‘rishi, uni qanday talqin qilishi va qanday estetik xulosalar chiqarishi orqali namoyon bo‘ladi, shu ma’noda uslub faqat tashqi ifoda vositalari yig‘indisi emas, balki ijodkorning ichki dunyosi, falsafiy qarashlari va estetik ideallarining badiiy ifodasidir. Aynan shu jihat yozuvchi uslubini boshqa ijodkorlardan ajratib turadi va unga o‘ziga xoslik bag‘ishlaydi, natijada har bir asar muallif shaxsiyatining badiiy aksiga aylanadi. Izzat Sultonning o‘ziga xoslik haqidagi: “Milliy kolorit san’atkor tasvirlayotgan xalq hayotining milliy o‘ziga xosligi, urf-odatlari, tili, ruhiyati va turmush tarzining badiiy ifodasida namoyon bo‘ladi” degan fikrlari ayni o‘rinlidir.

Tog‘ay Murodning o‘ziga xos uslubini tahlil qilganda, unda xalq og‘zaki ijodi — dostonlar, maqollar, ertaklar, tez aytishlar bilan bir qatorda, mumtoz adabiyot an’analari va qadimiy turkiy bitiklar ifoda uslublari o‘zaro uyg‘unlashib ketganini kuzatish mumkin. Masalan, “Saraton balolardan sariq bo‘ldi, balolar saratondan-da sariq bo‘ldi” jumlasida mumtoz she’riyatga xos tardi aks san’ati qo‘llangan bo‘lsa, “Qizillar qulog‘i qirqta bo‘ladi” ifodasida alliteratsiya — tovushlar uyg‘unligi va takrori yaqqol seziladi, bu esa she’riyatga xos ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Aynan shunday usullar tez aytish janrida ham keng qo‘llanadi. Shoir Yo‘ldosh Eshbekning “Tog‘ay Murodning asarlari proza emas, poeziya” degan fikri ham bejiz emas, chunki yozuvchining nasriy matnlarida she’riy ifoda, ritm va badiiy ohang kuchli sezilib turadi. Bu jihatdan u mumtoz adabiyot an’analarini zamonaviy nasr bilan uyg‘unlashtira olgan noyob ijodkorlardan biridir. Xuddi Alisher Navoiy ijodida uchraydigan ayrim hikmatli misralarning xalq maqollariga yaqinligi yoki keyinchalik maqolga aylanib ketgani kabi, Tog‘ay Murod asarlaridagi ko‘plab iboralarni ham maqollardan ajratish qiyin. Ular shu darajada xalqona va hikmatli. Umuman olganda, bu betakror adibning uslubini shunchaki “xalqona” deb baholash yetarli emas, chunki uning ijodi chuqur qatlamlarga ega bo‘lib, unda milliy tafakkur, badiiy tajriba va estetik izlanishlar uyg‘unlashgan. Shu sababli uning uslubini yanada kengroq va chuqurroq o‘rganish adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tog‘ay Murod ijodi misolida milliy kolorit masalasi yanada yaqqolroq ko‘rinadi. Uning asarlarida tasvirlangan qahramonlar, hatto ular boshqa madaniy kontekstga ko‘chirilgan taqdirda ham, o‘z milliy mohiyatini yo‘qotmaydi. Bu holat shuni anglatadiki, yozuvchi milliylikni tashqi atributlar orqali emas, balki ichki mazmun — xarakter, dunyoqarash va axloqiy pozitsiya orqali yaratadi. Demak, koloritning eng yuqori bosqichi bu — ichki koloritdir, ya’ni obrazning ruhiy va ma’naviy tabiatida mujassam bo‘lgan milliylikdir.

“Adirlarda qo‘y boqib, nay chaldim. Nafasim yetmay qoldi. Shunda eski bir do‘mbira topdim. Do‘mbirani sayratdim. Bepoyon adirlar, yoyilib o‘tlayotgan qo‘ylar, cho‘qqilar ustida tinmay chug‘urlayotgan qushlar, pag‘a-pag‘a oppoq bulutlarga qarab doston aytdim. Bu dostonlarni to‘ylar, olis yaldo kechalari bobolarimiz biri qo‘yib, biri aytar edi. Bobolarning ko‘plari rahmatlik bo‘ldi. Rahmatliklarday doston aytib bo‘lmaydi, Bizniki, baholi qudrat…”[5] Keltirilgan parcha Tog‘ay Murod ijodiga xos milliy kolorit va individual uslubning yorqin namunasi bo‘lib, unda xalqona hayot manzarasi, estetik tafakkur va badiiy ifoda o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Ushbu matndan milliy kolorit elementlarini aniqlash uchun uni mazmuniy va shakliy jihatdan tahlil qilish zarur.

4 Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. – T.: “Fan” nashriyoti, 1973. 116-b

5 Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Ziyonashr. – T.: 2019. 131-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Shomaqsudov, I. Rasulov, R. Qo‘ng‘urov, H. Rustamov. O‘zbek tilining stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. 112-bet.
2. Badiiy ijod haqida.(Maqolalar to‘plami). O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. –T., 1960. 276-b.
3.Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. 214-bet.
4. Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. – T.: “Fan” nashriyoti, 1973. 116-b
5. Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. – T.: Ziyonashr, 2019. 131-b

Nilufar FATULLAYEVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

X. DO‘STMUHAMMAD QISSALARIDA NOREALISTIK UNSURLAR

Annotatsiya*:* mazkur maqolada Xurshid Do‘stmuhammadning “Kuza” va “Oromkursi” qissalarida qo‘llangan norealistik unsurlar tahlil qilinadi. Asarlardagi ramziy obrazlar, shartli badiiy makon, psixologik tasvir, metaforik tafakkur hamda modernistik poetika elementlarining badiiy-estetik funksiyalari yoritiladi. Tadqiqot natijasida adibning inson ruhiyati va jamiyat muammolarini yoritishda norealistik tasvir vositalaridan samarali foydalangani aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *norealizm, modernizm, ramziy obraz, metaforik tafakkur, psixologizm, badiiy makon, Xurshid Do‘stmuhammad, qissa, poetika, shartlilik.*

Annotation: this article analyzes the non-realistic elements used in the stories “Kuza” and “Oromkursi” by Khurshid Dostmuhammad. The artistic and aesthetic functions of symbolic images, conditional artistic space, psychological image, metaphorical thinking, and elements of modernist poetics in the works are highlighted. As a result of the research, it is determined that the writer effectively used non-realistic means of depiction in illuminating the problems of the human psyche and society.

Key words: *non-realism, modernism, symbolic image, metaphorical thinking, psychologism, artistic space, Khurshid Dostmuhammad, story, poetics, conditionality.*

Аннотаци: *в* данной статье анализируются нереалистические элементы, использованные в рассказах Хуршида Достмухаммада «Куза» и «Оромкурси». Выделены художественно-эстетические функции символических образов, условного художественного пространства, психологического образа, метафорического мышления и элементов модернистской поэтики в произведениях. В результате исследования установлено, что писатель эффективно использовал нереалистические средства изображения для освещения проблем человеческой психики и общества.

Ключевые слова: *нереализм, модернизм, символический образ, метафорическое мышление, психологизм, художественное пространство, Хуршид Достмухаммад, рассказ, поэтика, условность.*

Kirish.Mustaqillik davri o‘zbek nasrida badiiy tafakkurning yangilanish jarayoni kuzatildi.Bu davr adabiyotida voqelikni aks ettirishning an’anaviy realizm tamoyillari bilan bir qatorda modernistik va postmodernistik izlanishlar ham kuchaydi[1]. Natijada inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib beruvchi, real voqelik chegaralarini kengaytiruvchi hamda ramziy tasvirlarga tayanuvchi asarlar maydonga keldi. Xurshid Do‘stmuhammad ana shunday yangicha badiiy tafakkur namoyandalaridan biri hisoblanadi.

Adibning “Kuza” va “Oromkursi” qissalari zamonaviy o‘zbek nasrida norealistik tasvir usullarining yorqin namunalaridan sanaladi.Ushbu asarlarda real voqelik bilan shartli badiiy makon, psixologik kechinmalar bilan ramziy tasvirlar, kundalik hayot hodisalari bilan falsafiy mushohadalar uyg‘unlashib ketadi. Natijada asarlarda voqealarning tashqi ko‘rinishidan ko‘ra ularning ichki mohiyati va falsafiy mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi.

Norealistik unsurlar adib ijodida fantastik effekt yaratish vositasi emas, balki inson ruhiyati, ma’naviy tanazzul, yolg‘izlik, o‘zlikni anglash va hayot mazmuni kabi murakkab masalalarni badiiy talqin qilish vositasi sifatida xizmat qiladi[2].Shu sababli mazkur qissalarning poetikasini o‘rganish zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi badiiy yangilanish jarayonlarini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Jahon adabiyotshunosligida norealistik tafakkur va modernistik poetika masalalari M. Baxtin, K. Yung, N. Fray, T. Todorov va U. Eko kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan[3].Ularning ilmiy qarashlarida ramziy obrazlar, mifologik tafakkur va fantastik elementlarning badiiy matndagi funksiyalari tahlil etilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida U. Normatov, Q. Yo‘ldoshev, D. Quronov, H. Umurov, B. Karimov kabi olimlar zamonaviy nasr poetikasi, modernistik tafakkur va ramziylik masalalarini o‘rganganlar. Xurshid Do‘stmuhammad ijodi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda yozuvchining falsafiy mushohadalari, ramziy obrazlar tizimi va psixologik tasvir mahorati alohida e’tirof etiladi.

Biroq “Kuza” va “Oromkursi” qissalaridagi norealistik unsurlarni qiyosiy jihatdan o‘rganish masalasi hali yetarli darajada tadqiq qilinmagan.

“Kuza” qissasida norealistik tafakkur, avvalo, ramziy obrazlar orqali namoyon bo‘ladi. Asarda buyum va predmetlar oddiy maishiy vosita sifatida emas, balki ma’lum bir falsafiy ma’noni ifodalovchi timsollar sifatida talqin qilinadi. Xususan, kuza obrazi inson xotirasi, vaqt va ma’naviy merosning ramzi sifatida namoyon bo‘ladi[4].

Asardagi voqealar rivoji davomida real va ramziy qatlamlar bir-biri bilan qorishib ketadi. Kitobxon qahramonlar hayotida sodir bo‘layotgan voqealarni nafaqat real hodisa sifatida, balki chuqur ma’naviy-falsafiy mazmunga ega hodisa sifatida qabul qiladi.

Yozuvchi kuza obrazini markaziy ramz darajasiga ko‘tarish orqali insonning o‘z o‘tmishi, xotiralari va ma’naviy ildizlari bilan bog‘liqligini badiiy ifodalaydi. Shu jihatdan asardagi norealistik tasvirlar qahramon ruhiyatini ochishga xizmat qiladi.

1 Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007.45-47 – B.
2 Todorov T. The Fantastic. – New York: Cornell University Press, 1975.24-28 – P.
3 Baxtin M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – M., 1986.112-118 – S.; Todorov T. The Fantastic. – New York, 1975. 24-30– P.
4 Do‘stmuhammad X. Saylanma. 1-jild. – T.: Sharq, 2017.85-87 – B.

“Oromkursi” qissasida norealistik unsurlar ko‘proq psixologik shartlilik va ichki ruhiy tasvirlar orqali yuzaga chiqadi. Asarda oromkursi oddiy mebel buyumi bo‘lib qolmay, insonning ichki dunyosi, yolg‘izligi va hayot haqidagi mushohadalarini ifodalovchi ramziy obrazga aylanadi[5].

Qahramonning ichki kechinmalari va ruhiy holatlari ko‘pincha real voqelik qonunlariga bo‘ysunmaydigan tasvirlar yordamida ifodalanadi. Bu esa asarning modernistik xarakterini kuchaytiradi.

“Oromkursi” qissasida vaqt va makon tushunchalari ham shartli xarakter kasb etadi. Muallif voqealarni aniq tarixiy makonga bog‘lamaydi, balki inson ruhiyati markazga qo‘yilgan badiiy makonni yaratadi.Natijada asar umumlashma falsafiy mazmun kasb etadi.

Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida norealistik tasvirning asosiy ko‘rinishlaridan biri ramziy obrazlar tizimi hisoblanadi. Adib asarlarida predmet va hodisalar o‘zining bevosita ma’nosidan tashqari chuqur falsafiy va ma’naviy mazmun kasb etadi. Shu jihatdan “Kuza” va “Oromkursi” qissalari ramziy tafakkurga asoslangan asarlar sifatida e’tiborni tortadi.

“Kuza” qissasida kuza obrazi insoniyatning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va ma’naviy merosining timsoli sifatida talqin etiladi. Kuza tashqi tomondan oddiy buyum bo‘lsa-da, asar davomida u insonning o‘z o‘tmishi bilan bog‘liqligi, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy uzviylik va tarixiy xotira tushunchalarini ifodalovchi markaziy ramzga aylanadi. Muallif shu obraz orqali zamonaviy insonning o‘z ildizlaridan uzoqlashishi va ma’naviy bo‘shliqqa duch kelishi muammosini ko‘taradi.

“Oromkursi” qissasida esa oromkursi obrazi insonning ruhiy osoyishtalikka bo‘lgan intilishi, yolg‘izlik va ichki kechinmalarining ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.Asar davomida ushbu predmet qahramonning ruhiy holati bilan uyg‘unlashib boradi va natijada oddiy buyum falsafiy timsol darajasiga ko‘tariladi.

Har ikki qissada ramziy obrazlar voqealar rivojini emas, balki g‘oyaviy mazmunni shakllantirish vazifasini bajaradi.Shu sababli kitobxon asarni o‘qish jarayonida voqealarning tashqi qatlamidan ko‘ra ularning ichki ma’nosini anglashga intiladi.

Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida psixologik tasvir alohida ahamiyat kasb etadi.Adib inson ruhiyatidagi murakkab jarayonlarni ochishda modernistik poetikaning muhim vositalaridan foydalanadi. Qahramonlarning ichki monologlari, xayoliy tasavvurlari va ruhiy kechinmalari voqealar rivojidan ko‘ra muhimroq o‘rin egallaydi.

5 Do‘stmuhammad X. Hikoyalar va qissalar. – T.: O‘zbekiston, 2019. 142-145– B.

“Kuza” qissasida qahramonning o‘tmish va bugun o‘rtasidagi ichki ziddiyatlari, tarixiy xotira bilan bog‘liq kechinmalari tasvirlanadi.Bu jarayonda real voqelik ikkinchi planga tushib, qahramon ruhiyati markazga chiqadi. Natijada asarda norealistik tafakkur psixologik tahlil vositasiga aylanadi.

“Oromkursi” qissasida esa qahramonning ichki dunyosi, yolg‘izlik hissi va hayot mazmuni haqidagi mulohazalari asosiy tasvir obyektiga aylanadi. Muallif qahramon ruhiyatini bevosita tasvirlash bilan cheklanmay, ramziy va metaforik vositalar orqali uni chuqurroq ochib beradi.

Modernistik adabiyot uchun xos bo‘lgan ong oqimi elementlari ham ayrim epizodlarda kuzatiladi.Bu esa asarlarning badiiy-falsafiy qatlamini yanada boyitadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Xurshid Do‘stmuhammad qissalaridagi norealistik unsurlar bir necha muhim funksiyalarni bajaradi.

Birinchidan, ular qahramon ruhiyatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Muallif insonning ichki kechinmalarini oddiy realist tasvir vositalari bilan emas, balki ramziy va metaforik obrazlar orqali ifodalaydi.

Ikkinchidan, norealistik tasvirlar asarlarning falsafiy mazmunini boyitadi. Kuza, oromkursi va boshqa obrazlar orqali hayot, vaqt, xotira, yolg‘izlik va ma’naviyat kabi umuminsoniy masalalar yoritiladi.

Uchinchidan, bunday tasvir usuli kitobxonni faol mushohada yuritishga undaydi. Asardagi ramz va shartliliklarni anglash jarayonida kitobxon ham ijodiy tafakkur ishtirokchisiga aylanadi.

To‘rtinchidan, norealistik unsurlar muallifning individual uslubini shakllantiradi.Aynan shu vositalar orqali Xurshid Do‘stmuhammad zamonaviy o‘zbek nasrida o‘ziga xos badiiy maktab yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Xulosa. Xurshid Do‘stmuhammadning “Kuza” va “Oromkursi” qissalari zamonaviy o‘zbek nasrida norealistik tafakkurning yorqin namunalaridan hisoblanadi.Mazkur asarlarda real voqelik bilan ramziy tasvirlar, psixologik kechinmalar bilan metaforik tafakkur o‘zaro uyg‘unlashgan.

Demak, Xurshid Do‘stmuhammad norealistik tasvir vositalari yordamida inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini, ma’naviy izlanishlarini hamda zamonaviy jamiyatdagi muammolarni badiiy jihatdan chuqur yoritishga erishgan[6]. Bu esa adib qissalarining zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi estetik va ilmiy ahamiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir.

6 Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – T.: Sharq, 2012.174-176 – B.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Do‘stmuhammad X. Saylanma.1-jild. – Toshkent: Sharq, 2017.
2. Do‘stmuhammad X. Hikoyalar va qissalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
3. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
5. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2012.
6. Karimov B. Yangilanish sog‘inchi. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
7. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
8. Baxtin M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – Moskva: Iskusstvo, 1986.
9. Todorov T.The Fantastic. – New York: Cornell University Press, 1975.
10. Eco U. Interpretation and Overinterpretation.– Cambridge University Press, 1992.

Ra’no CHORIYEVA,
Qarshi davlat universiteti
Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi
2-kurs magistri

“TEMURNOMA” ASARI LEKSIKASIDAGI SINONIMIK BIRLIKLAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asaridagi sinonimiya hodisasi tahlil qilinadi. Asarda qo‘llangan sinonimik birliklarning semantik xususiyatlari, uslubiy vazifasi hamda badiiy-estetik ahamiyati yoritiladi. Sinonimlarning matnda takroriylikni kamaytirish, fikr ta’sirchanligini oshirish, emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish va obrazlilik hosil qilishdagi o‘rni misollar asosida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *sinonimiya, sinonimik birliklar, leksikologiya, semantika, uslubiy xususiyat, badiiylik, “Temurnoma”.*

Annotation: this article analyzes the phenomenon of synonymy in Salohiddin Toshkandiy’s “Temurnoma.” The semantic features, stylistic functions, and artistic significance of synonymic units used in the work are examined. The role of synonyms in reducing repetition, increasing expressiveness, strengthening emotional impact, and creating imagery in the text is demonstrated through examples

Key words: *synonymy, synonymic units, lexicology, semantics, stylistic features, artistic expression, Temurnoma*

Аннотация: в данной статье анализируется явление синонимии в произведении Салохиддина Тошканди «Темурнома». Рассматриваются семантические особенности, стилистические функции и художественно-эстетическое значение синонимических единиц, использованных в произведении. На основе примеров показана роль синонимов в уменьшении повторов в тексте, усилении выразительности мысли, повышении эмоционально-экспрессивного воздействия и создании образности.

Ключевые слова: *синонимия, синонимические единицы, лексикология, семантика, стилистические особенности, художественность, «Темурнома»,*

“Temurnoma” asari leksikasida shakl va ma’no munosabatiga asoslangan lug‘aviy birliklar muhim ahamiyatga ega.

Asarda sinonimlar bir tushunchani turli ma’no qirralari va uslubiy bo‘yoqlar orqali ifodalash vazifasini bajargan. Muallif sinonimlardan takrorlarni kamaytirish, fikr ta’sirchanligini oshirish hamda matnga rang-baranglik berish uchun unumli foydalangan. Sinonimlar nutqda takror so‘zlarni oldini olish, fikrni ta’sirchanroq yetkazish, bundan tashqari, muayyan uslubiy maqsadni amalga oshirishda muhimdir. Biror holatni badiiyroq tarzda ifodalash uchun turli sinonim birliklardan foydalanish kerak deyiladi.Shu bilan birga, sinonimlar orqali muallif nutqqa emotsional-ekspressiv rang beradi, obrazlilikni kuchaytiradi va matnning estetik qimmatini oshiradi. Muayyan matn ichida ikki va undan ortiq sinonimlarni badiiy tasvir vositasi tarzida ishlatish til birliklari takrori bois voqelanadigan ifoda qashshoqligining oldini oladi[1].

Salohiddin Toshkandiy “Temurnoma”sida ham sinonim so‘zlar ko‘p qo‘llangan bo‘lib, asarning ta’sirchanligini oshirgan.

Sinonimlar tilning leksik boyligi bo‘lib, avvalo, so‘zlarning nozik ma’no bo‘yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi, gapdagi o‘rinsiz takrorni bartaraf etadi. Ular badiiy uslub vositasi bo‘lib, adabiy tilni boyitish manbalaridandir. Sinonimlar nutqni ravon va ta’sirchan qilishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bir ma’noni turli leksemalar orqali ifodalash fikrni jozibali aks ettirishda, semantik bo‘yoqdorlikni namoyon etishda ahamiyatlidir[2].

“Temurnoma” asarida sinonimik qatorlar keng va faol qo‘llangan. Keltirilgan birliklar semantik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ular ma’no nozikliklari, uslubiy bo‘yoqlari hamda kontekstual qo‘llanishi bilan farqlanadi. Ularni bir necha semantik guruhlarga ajratib tasniflash mumkin:

Birinchi guruh – hokimiyat va saltanatni ifodalovchi sinonimlar: *taxtga julus ayladi, taxtga mindi, taxt uzra o‘lturdi, saltanatga o‘lturdi, saltanat surdi, taxtiga qaror oldi.*

“Baroqxon saltanat taxtiga minib, andin keyin To‘qtemurxon Samarqandga poytaxt qildi”[3].

“Samarqand taxtiga o‘lturdi”[4].

“Boburshoh saltanatga o‘lturdi[5].

“Ubaydullaxon Karmanadin xuruj qilib, o‘ttiz to‘rt yil saltanat surdi”[6].

Bu sinonimlar “hokimiyatni qo‘lga olish yoki boshqarish” ma’nosida kelgan. Lekin ma’nolar orasida farq kuzatiladi, “taxtga julus ayladi” tantanavorlikni, “saltanat surdi” esa doimiy hukmronlik jarayonini ifodalab, uslubiy

1 Дадабоев Ҳ.“Қутадғу билиг” матнида бадиий актуаллашган лексик воситалар хусусида// Стилистика ва прагматика. Профессор С.Каримов таваллудининг 60 йиллигига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари. – Самарқанд, 2010. 4-5 июнь. 49– В.

2 Xolmurodova M. Qutadg‘u bilig leksikasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. 104– B.

3 STT. – T.: Cho‘lpon, 1991. 36– B.

4 STT. – T: Cho‘lpon, 1991. 36– B.

5 STT. – T.: Cho‘lpon, 1991. 37– B.

6 STT. – T.: Cho‘lpon, 1991. 37– B.

jihatdan farqlanadi. Barcha misollarda bir xil umumiy mazmun hokimiyatni qo‘lga olish va uni amalga oshirish ma’nolari turli sinonimik vositalar orqali ifodalangan. Bu birliklar o‘zaro yaqin ma’noli bo‘lsa-da, bo‘yoqlari bilan farqlanadi. “*Saltanat taxtiga minib*” birikmasida hokimiyat tepasiga chiqish ifodalangan. *“Taxtiga o‘lturdi”* birikmasida harakatning natijasi yuzaga chiqqan, ya’ni hukmdor sifatida taxtga chiqish ma’nosi ustun. *“Saltanatga o‘lturdi”* so‘zida esa “taxt” so‘zi tushgan, lekin hokimiyatni egallash ma’nosi sezilib turibdi. *“Saltanat surdi”* deyilganda esa qolganlariga qaraganda jarayonning davomiyligi seziladi. Ya’ni bu yerda hokimiyatni egallash emas, balki uni uzoq muddat boshqarish ma’nosi asosiy o‘rinda turadi. Keltirilgan sinonimlar bir semantik maydonga mansub, lekin ularning birida jarayon (taxtga chiqish), biri natija taxtda o‘tirish), birida esa davomiyik (saltanat surish) aks etgan.

Ikkinchi guruh – o‘lim va yakunini ifodalovchi sinonimlar*: olamdan o‘tdi, vafot topdi, intiqol qildi, rixlat qildi, umri tamom bo‘ldi, halok bo‘ldi, shahid bo‘ldi, rahmati Parvardigorga ulandi.*

“Ul zoti bobarakot ham olamdin o‘tib, rahmati Parvardigorga ulandilar[7].

“Muholiflar shahid qildi”[8].

“Chingizxon viloyati Xurosonni zabt etib, aksar viloyatni qatli om ayladi”[9].

Bu so‘zlar bir xil denotativ ma’noga ega bo‘lsa-da, ularning emotsional-ekspressiv va diniy-uslubiy bo‘yoqlari turlicha. Masalan*, “rixlat qildi”* va *“halok bo‘ldi”* fojeaviy, *“shahid bo‘ldi”* esa diniy mazmunni kuchaytiradi*. “Ruh to‘tisi tan qafasin zindondan uchdi…”* kabi leksemalar esa individual- sinonim sifatida ajralib turadi. *“Shahid qildi”* va *“qatli om ayladi”* birliklari ham o‘lim bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ular bir-biriga o‘xshamaydi, birinchisi diniy bo‘lsa, ikkinchisi zo‘ravonlik va ommaviy qirg‘inni ifodalaydi.

Uchinchi guruh – harbiy harakat va zabt etish bilan bog‘liq sinonimlar : *fath ayladi, musaxxara ayladi, zabt etdi, hamla qildi, yurtni oldi.*

“Iroq jonibig‘a tavajjuh etib, tamomi mulkni fath ayladi”[10].

“Xitoy va Xo‘tan iqlimida taxtga julus ayladi va ul navohini musaxxara etib, yigirma besh yil saltanat surdi”[11].

Bu leksemalar “zabt etish” ma’nosiga ega, biroq “fath ayladi” ko‘proq tantanavor g‘oliblikni, “hamla qildi” salbiy jarayonni, “zabt etdi” esa natijaga erishganlikni .

To‘rtinchi guruh – zo‘ravonlik va yo‘q qilish bilan bog‘liq sinonimlar: *qatli om qildi, o‘ldirdi, qo‘lida o‘ldi, shahid qildi, barham berdi*. Bu birliklarda umumiy mazmun – o‘ldirish, lekin ularning mazmun bildirishida farq bor. Masalan, *“qatli om”* odamlar to‘dasini yo‘q qilish, *“barham berdi”* so‘zi esa batamon tugatish ma’nosini ifodalaydi.

Beshinchi guruh – inson ichki kechinmalari va ruhiy holatini ifodalovchi sinonimlar: *g‘am, hasrat, nola, zor, alam, achchig‘i keldi, g‘azabi keldi, alami keldi.* Bu sinonimlar insonning ichki kechinmalarini ifodalaydi va matnga ifodaviy kuch bag‘ishlaydi.

“Man otang Sadr ash shariat kasal va betob bo‘lib yotibman”[12]. Kasal va betob sinonimlarining yonma-yon qo‘llanishi nutqda ta’kid va kuchaytirish vazifasini bajaradi. Natijada qahramonning ahvoli og‘ir, achinarli tarzda tasvirlanadi va matnning emotsional ta’sirchanligi oshadi.

Oltinchi guruh – ijtimoiy-axloqiy baho beruvchi sinonimlar: qonxo‘r, zolim, nobakor. Bu sinonimlar salbiy xarakterdagi shaxslarni ifodalab, muallifning munosabatini ham ochib bergan.

“Ul nobakor va zolim-u kunxor mullalarni kelturib shahid qila berdi”[13]. Ushbu misolda ma’nodosh so‘zlar salbiylikning turli darajalarini ifodalagan, ularning ketma-ket qo‘llanishi kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Yettinchi guruh – makon va tabiat bilan bog‘liq sinonimlar: *cho‘l, dasht, biyobon. “Baroqxon bechora dushmanlardin hech shahr ichra kirolmay, doim cho‘l, dashtu biyobonlarda yurur erdi”*[14]. Bir o‘rinda qo‘llangan bu sinonimlar kimsasiz joy ma’nosini kuchli tarzda ifodalagan.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, muallif ushbu sinonimik birliklar bilan asar tilining boyligini, nutqning ekspressiv imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Sinonimlar orqali bir xil tushuncha turli semantik va uslubiy qirralarda ifodalanib, matnning ta’sirchanligi va badiiyligi kuchaytirilgan.

7 STT. – T.: Cho‘lpon, 1991.38 – B.
8 STT. – T.: Cho‘lpon, 1991. 37– B.
9 STT. – T.: Cho‘lpon, 1991. 35– B.
10 STT. – T.: Cho‘lpon, 1991.35 – B.
11 STT. – T.: Cho‘lpon, 1991. 35– B.
12 STT. – T.: Cho‘lpon, 1991. 48– B.
13 STT. – T.: Cho‘lpon, 1991. 106– B.
14 STT. – T.: Cho‘lpon, 1991. 106– B.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdialiyev A, Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021.
2. Дадабоев Ҳ, Ҳамидов З, Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. –Т.: Фан, 2007.
3. Дадабоев Ҳ.“Қутадғу билиг” матнида бадиий актуаллашган лексик воситалар хусусида// Стилистика ва прагматика. Профессор С.Каримов таваллудининг 60 йиллигига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари. – Самарқанд, 2010. 4-5 июнь.
4. Temurnoma.Amir Temur jangnomasi. (Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va lug‘at muallifi Poyon Ravshanov).– Toshkent: Cho‘lpon nashriyoti, 1991.
5. Xolmurodova M. Qutadg‘u bilig leksikasi. – Toshkent.: Nodirabegim, 2020.

Shartli qisqartma: STT – Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. Amir Temur jangnomasi.

Diyora FAYZULLAYEVA,
ToshDO‘TAU magistranti

OLLOMUROD ANNABOY O‘G‘LINING “O‘G‘UZ, ALANQUVA VA SHAYBONIYNOMA” ASARINING MAVZUSI VA G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqola Ollomurod Annaboy o‘g‘lining “O‘g‘uz, Alanquva va Shayboniynoma” asarining mavzu va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini yoritib berishga bag‘ishlangan. Shuningdek, bizgacha yetib kelgan O‘g‘uzxon, Alanquva va Shayboniynoma turkumidagi bir qancha asarlar bilan g‘oyaviy jihatdan taqqoslanadi.

Kalit so‘zlar: *O‘g‘uzxon, sulola, afsona, rivoyat, “Shajarayi turk”, “Tarixi Rashidiy”, “Jome ut-tavorix”, Muhammad Solih, “Shayboniynoma”.*

Annotation: this article is devoted to the theme and ideological and artistic features of the work "Oguz, Alanquva and Shaybaniynoma" by Ollomurod Annaboy oglu. It is also compared ideologically with a number of works in the Oguzkhan, Alanquva and Shaybaniynoma series that have survived to us.

Key words: *Oguzkhan, dynasty, legend, narrative, "Shajarayi turk", "Tarihi Rashidiy", "Jome ut-tavorix", Muhammad Salih, "Shaybaniynoma".*

Аннотация: данная статья посвящена тематике и идеологическим и художественным особенностям произведения Олломурод Аннабой оглу «Огузхан, Аланкува и Шайбанийнома». Также проводится идеологическое сравнение с рядом сохранившихся до наших дней произведений из серии «Огузхан, Аланкува и Шайбанийнома».

Ключевые слова: *Огузхан, династия, легенда, повествование, «Шаджарайи турк», «Тарихи Рашидий», «Джоме ут-таворикс», Мухаммад Салих, «Шайбанийнома».*

Turkiy xalqlar tarixini, ularning kelib chiqishi, siyosiy shakllanishi va madaniy taraqqiyotini o‘rganishda o‘rta asr tarixiy manbalari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, Buxoro xoni Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk”, Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” va Rashiduddinning “Jome ut-tavorix” kabi asarlar turkiy xalqlarning tarixiy ongini, genealogik qarashlarini va siyosiy mafkurasini aks ettiradi. Jome’ ut-tavorix” (1310-yillar atrofida yozilgan) – Ilxoniylar saroy tarixchisi Rashididdin Fazlulloh tomonidan yaratilgan bo‘lib, unda turkiy va mo‘g‘ul xalqlarining kelib chiqishi haqida tizimli ma’lumot beriladi. Tarixi Rashidiy” (1541–1546-yillar oralig‘ida yozilgan) – Mirzo Muhammad Haydar Dug‘lat tomonidan yozilib, unda Mog‘uliston va Movarounnahr tarixiga oid aniq voqealar bayon etilgan. “Shajarayi turk” (1663-yil) – Abulg‘ozi Bahodirxon tomonidan yozilib, turkiy xalqlarning genealogiyasi xalqona uslubda ifodalangan. Ollomurod Annaboy o‘g‘lining “O‘g‘uz, Alanquva va Shayboniynoma” asari ham ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra yuqoridagilaridan qolishmaydi. Ushbu asarlarda O‘g‘uzxon, Alanquva va Shayboniyxon kabi siymolar markaziy o‘rin egallaydi. Ollomurod Annaboy o‘g‘li Buxoro xoni Amir Haydar davrida ushbu risolani yozadi. Negaki bu davrda Amir Haydar saroyda yuritgan siyosati tufayli ilm-ma’rifatga bo‘lgan e’tibor kuchayadi. Hukmdor buyrug‘i bilan bir qancha qimmatli asarlar tarjima qilinadi, qayta ko‘chiriladi. Ayniqsa tarixiy asarlarga e’tibor yanada oshadi. Bu davrda aynan O‘g‘uzxon yoki Alanquva kabi tarixiy-mifologik shaxslar tarixini qayta yaratish, ular to‘g‘risida alohida risola yozishga nima sabab bo‘ldi degan o‘rinli savol paydo bo‘ladi. Ma’lumki, XIX asr boshlarida yurtimiz xududida uchta mustaqil xonlik hukm surar, hali vaziyat biroz barqaror bo‘lsa-da, podsho Rossiyasi allaqachon vatanimiz hududlariga o‘z ko‘lankasini tashlab ulgurgan edi. Bunday siyosiy qaltis vaziyatda esa, xalq birligi, yagona davlatchilik masalalari har qachongidanda muhim sanaladi. Shunday ekan, aynan turkiy qavmlarni birlashtirgan, ulkan markazlashgan davlatchilikka asos solgan O‘g‘uzxon, ilohiy nurdan homilador bo‘lgan Alanquva, Temuriylardan so‘ng mamalakat hududlarini qayta birlashtira olgan Shayboniyxon to‘g‘risida asar yaratish shunchaki ilm-ma’rifatga bo‘lgan e’tiborgina emas, balki zarurat ham edi. Ollomurod Annaboy o‘g‘li o‘zi yaratgan ushbu risolani muxtasar asar deb ataydi. Asar yuzasidan olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, risola haqiqatda juda ixcham. Unda tarixiy asarlarda uchraydigan an’anaviy kirish qismlar – hamd va nat qismlari yo‘q. Qolaversa bu turdagi risolalar odatda Odam Atodan boshlansa, muallif bu borada o‘zgacha yo‘l tutadi. Bu kichik asar Nuh alayhissalom rivoyatidan boshlab,Yofas tarixini va uning avlodlarining to O‘g‘uzxongacha undan Alanquvadan Chingizxon va Shayboniyxongacha bo‘lgan shajarasini qisqargan shaklda bayon qiladi. Ba’zi shaxslar haqida bir sahifa, ba’zilari to‘g‘risida esa boryo‘g‘i bir necha jumla ma’lumot keltirilgan. Ammo asarning O‘g‘uzxonga tegishli qismi avvalgilaridan sezilarli darajada farq qiladi. Ollomurod Annaboy o‘g‘lining ushbu asaridagi ma’lumotlar “Shajarayi turk” bilan deyarli bir xil amma juda qisqartirilgan. Butun e’tibor asosiy voqealarga qaratilgan bo‘lib, tafsilotlarga to‘xtalmagan. Shunisi e’tiborliki, muallif o‘z asarini yozishda asosan Rashiduddinning “Jome ut-tavorix” va Mirzo Muhammad Haydarning “ Tarixi Rashidiy” asarlaridan foydalanganligi haqida bir necha o‘rinlarda aytib o‘tadi, ammo biron marta Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari yoki noma’lum muallif tomonidan yaratilgan “Nusratnoma” asari haqida so‘z yuritmqudi.

“Sohibi Tarix Rashidiy andog‘ ayturkim deb Boqumi otlig‘ ulug‘ o‘g‘li erdi. Podshohlig‘ anga qaror topdi va aning to‘rt o‘g‘li

bor erdi. Bu yo‘sunlig‘ Qoraxon, O‘zxon, Kirxon, Karxon va ba’zi tarixda andog‘ debdurlarkim”.(4-kadr b sahifa)

“Jome at- tarixda andog‘ bitibdurkim Qo‘ng‘irot oltin to'shakda tuqg‘on kishidir. Uyg‘ur yaxshilari Xitoy tarixda bu qo‘ng‘irot qavmining ulug‘liq va azamatlig‘larini asru sharh va bayon qilibdurlar”.(37-kadr a sahifa).

O‘g‘uzxon turkiy xalqlarning afsonaviy ajdodi sifatida ko‘plab tarixiy va epik manbalarda tilga olinadi. “Jome’ ut-tavorix”, “Shajarayi turk” hamda “O‘g‘uz, Alanquva, Shayboniynoma” asarlarida O‘g‘uzxon mifologik elementlari kuchli, mo‘jizaviy tug‘ilish va g‘ayritabiiy qudratga ega shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu obraz orqali turkiy xalqlarning kelib chiqishi, davlat tuzumi va urug‘-qabila tizimi munosabatlari ham ham ochib beriladi. Bu bilan mualliflar turkiy xalqlarning yagona ildizdan tarqalganligini asoslashga intilganlar.

Alanquva obrazi, ayniqsa, “Shajarayi turk” va “Jome’ ut-tavorix”da muhim o‘rin tutadi. U mo‘g‘ul va turkiy hukmdorlar sulolasining onasi sifatida tasvirlanadi. Ma’lumki, Alanquva turmush o‘rtog‘ining vafotidan so‘ng g‘ayritabiiy tarzda ilohiy nurdan homilador bo‘ladi va uch farzandni dunyoga keltiradi. Uning zurriyotlari keyinchalik o‘zlarini nurinlar ya’ni nurdan paydo bo‘lganlar deb atay boshlashadi. Bu g‘oya orqali hukmdorlar nasl-nasabning muqaddasligini va ilohiy kelib chiqishlarini, qolaversa hukmdorlar naslini ilohiylashtirish va siyosiy hokimiyatni asoslashga urinilgan. Ammo O‘g‘uzxon obrazida ham Alanquva obrazida ham tarixiy reallikdan ko‘ra badiiy xususiyatlar – mistik motivlar (nur orqali homilador bo‘lish rivoyati), ramziylik, tarixiy va afsonaviy qatlamlarning uyg‘unligi ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Yuqoridagi tarixiy asarlarda bu rivoyat biroz farqlar bilan, ammo to‘la to‘kis bayon qilingan bo‘lsa, Ollomurod Annaboy o‘g‘li o‘z asarida bu vaqealarni qisqartirib, asosiy o‘rinlarnigina keltirib o‘tadi. Ko‘rinib turibdiki, Alanquva obrazi mo‘g‘ul va turkiy hukmdorlar nasabini asoslashda muhim vosita hisoblanadi. Bu ilohiy ayol haqidagi rivoyatlar hukmdor sulolalarning ilohiy kelib chiqishini ko‘rsatish orqali ularning hokimiyatini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Shayboniyxon obrazi asosan “Tarixi Rashidiy” va boshqa tarixiy manbalarda real tarixiy shaxs sifatida tasvirlanadi. Shayboniyxon obrazida mualliflar tarixiy voqealarni aniq va daliliy tarzda yoritishga harakat qilganlar, bu esa o‘rta asr tarixnavisligining yangi bosqichini ko‘rsatadi. Tarixchi olim Muhammad Solih esa o‘z “Shayboniynoma”siga o‘zgacharoq yondashadi. Uning asari badiiy asar bo‘lib, voqealar bayonida xalq og‘zaki ijodiga xos tasvir vositalaridan keng foydalanadi. Ushbu asarda Shayboniyxon real obrazdan ko‘ra badiiy obrazga yaqinroq turadi. Bundan tashqari asarda Muhammad Solihning shaxsiy pozitsiyasi ham aniq seziladi. Uning otasi Temuriylar tomonidan qatl etilgach hayoti yetimlikda va qiyinchilikda kechadi. Shu bois Muhammad Solih mamlakatdagi boshboshdoqlik va tartibsizliklarga asosiy aybdor Temuriy bekzodalar deb biladi va Shayboniyxon xizmatiga kiradi. Asarida ham Temuriylarga bo‘lgan adovati Muhammad Shayboniyxonga bo‘lgan ihlosi yaqqol sezilib turadi.

Акл ила Бу Алийи асрдур ул,
Шох эмас, валийи асрдур ул.

Аклдиндур буки, давлат борида,
Борча асбоби фарогат борида, [2]

Muhammad Solih “Shayboniynoma” asarida Shayboniyxon Turkiston zaminiga kelib bu yerlarga tinchlik ato etganini ta’kidlab, hukmdorlik uchun uni eng munosib inson sifatida ko‘radi. Asarida ham bu fikrini dalillash uchun qator dalillar keltirib o‘tadi. Bu fikr asarning asosiy g‘oyasini tashkil etadi.

Хорликлар била устум бисёр,
Зорлиглар била курдум озор.

Курмадим хайре мирзолардин,
Тиладим раъйе донолардин. [2]

Ollomurod Annaboy o‘g‘lining “O‘g‘uz, Alanquva va Shayboniynoma” asarida muallifning qarashlari mutlaqo betaraf. Bu asarda yuqorida ta’kidlaganimizdek tafsilotlarga to‘xtab o‘tilmagan. Asar asosan hukmdorlarning kelib chiqishi va shajarasiga bag‘ishlangan. Risolada, hatto aniq tarixiy sanalar ham deyarli qo‘llanilmaydi. Qo‘lyozmaning asosiy maqsadi va g‘oyasi Nuh alayhissalomdan to Shayboniyxongacha bo‘lgan hukmdorlar shajarasi bilan o‘quvchini tanishtirish va bu sulola vakillarining nechog‘liq qadim va ulug‘ tarixga ega ekanligini ko‘rsatishdan iborat. Shuningdek asar mavzusiga ko‘ra siyosiy kurashlar, davlat barpo etish va Movarounnahr uchun kurash masalalarini ham o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘g‘uzxon, Alanquva va Shayboniyxon haqidagi tarixiy asarlar turkiy xalqlar tarixiy ongining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Ular orqali nafaqat tarixiy voqealar, balki siyosiy mafkura, diniy qarashlar va estetik tamoyillar ham ifodalangan. O‘g‘uzxon va Alanquva obrazlari ko‘proq mifologik va ideologik xarakterga ega bo‘lib, ular orqali hukmdorlikning ilohiyligi asoslangan. Shayboniyxon obrazi esa tarixiy realizm asosida yaratilgan bo‘lib, u real siyosiy jarayonlarning mahsulidir. “Shajarayi turk”, “Tarixi Rashidiy”, “Jome’ ut-tavorix” va “O‘g‘uz, Alanquva va Shayboniynoma” asarlarida mifologiya va tarix uyg‘unlashib, o‘ziga xos badiiy-tarixiy makon yaratilgan. Bu esa ushbu asarlarning nafaqat tarixiy manba sifatidagi, balki badiiy-estetik jihatdan ham ahamiyatini belgilaydi.

Foydalangilgan adabiyotlar

1. Олломурод Аннабой ўғли. Ўғуз, Аланқува ва Шайбонийнома. ЎзР ФА ШИ, 4347 рақамли қўлёзмаасар. 99 варақ.
2. Мухаммедь Салихъ. Шейбани-наме. Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.1989
3. Абдуллаева М. Ўғузнома ва Шажарайи тарокима асарларининг қиёсий таҳлили. Toshkent:Mumtoz so‘z,2017.

Ilhomjon ISMATILLAYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
1-bosqich magistranti

FOZIL YO‘LDOSH O‘G‘LI KUYLAGAN “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONINING O‘ZBEK VA TURK OLIMLARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Farhod va Shirin” dostoning o‘zbek va turk olimlaring o‘rganganligi va uning xususiyatlari hamda boshqa dostonlardan nimalari bilan farq qilishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *tarixiy Tabariy, Farhod, Xusarv, Shirin, ikkinchi darajli timsol, epik obraz, g‘azal, syujet, kompozitsiya.*

Аннотация: в данной статье рассматривается исследование эпической поэмы «Фарход и Ширин» Фазиля Юлдаша оглу узбекскими и турецкими учеными, ее особенности и отличия от других эпических поэм.

Ключевые слова: *исторический Табари, Фарход, Хусарв, Ширин, вторичный образ, эпический образ, газель, сюжет, композиция.*

Annotation: this article discusses the study of the epic poem “Farhod and Shirin” by Fazil Yuldash oglu by Uzbek and Turkish scholars, its features, and how it differs from other epic poems.

Key words: *Historical Tabari, Farhod, Khusarv, Shirin, secondary image, epic image, ghazal, plot, composition.*

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” asarini yaratishda salaflari dostoni bilan kifoyalanmadi, tarixiy manbalarga, xalq og‘zaki ijodi durdonalariga murojaat qildi. Ulug‘ shoir xalq ijodini rang-barang gullar ochilgan chamanga, durlarga koni tubsiz dengizga qiyoslagan. Afsuski, shoir qaysi afsona va dostonlardan foydalanganini bilolmaymiz. Navoiy xalqdan olgan xazinani yana xalqqa qaytarib berdi. Uning “Farhod va Shirin” idan ilhomlangan xalq juda ko‘p ertak va dostonlarni yaratdi.

O‘zbek xalqi tomonidan asrab kelingan, sevib ijro etilgan “Farhod va Shirin” hikoyasi ko‘plab tadqiqotchilarning e’tiborini tortdi, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida “Farhod va Shirin” variantlarini yozib olish hamda ilmiy o‘rganish boshlandi. A. Kushakevich, N. Lyapunova, N. Volinskiy va boshq rus folklorshunoslari “Farhod va Shirin” variantlarini yozib oldilar va nashr qildilar. Masalan, A.Kushakevich xalq orasida tarqalgan ertak va afsonalarni to‘plab, qog‘ozga tushirib, 1871 - yilda rus tilida nashr ettirgan. A. Y. Yakubovskiy va K. V. Treverlar esa Farhod va Shirin haqidagi mif va afsonalar bo‘yicha tadqiqot ishlari olib bordilar.

N. Lyapunova yozib olgan variantning xotimasida Turkiston Rossiyaga qo‘shiladi, Mirzacho‘lga suv chiqadi. Suv faqat Mirzacho‘lga emas, o‘liklarga ham jon bag‘ishlaydi. Farhod va Shirin tirilib qabrdan chiqib keladi va xursandliklaridan bir-birlarining bag‘riga otiladi.

O‘zbek folklorshunoslari Nazarmat Egamnazarov (1939), M.Afzalov (1944), Muzayyana Alaviya (1945) va boshqalar tomonidan “Farhod va Shirin” ning turli variantlari yozib olindi. 1968-yilda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan doston nashr etildi.

Aslida, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijodi o‘zbek ziyolilari e’tiborini 1922- yildanoq o‘ziga jalb qilgan. Dastlab G‘ozi Olim Yunusov, keyinchalik V. M. Jirmunskiy, Hodi Zarifov, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Muhammadnodir Saidov kabi olimlar, keyingi paytda esa To‘ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, Shomirza Turdimovlar baxshi ijodini tadqiq etishda jonbozlik ko‘rsatdilar. Bugungi kunda baxshidan yozib olingan terma va dostonlarga bag‘ishlangan katta-kichik tadqiqotlar, ilmiy maqolalar soni besh yuzga yetadi.

M.Afzalov 1950-yilda folklor ma’lumotlari asosida “Farhod va Shirin” dostonining xalq varianti haqida mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Dissertatsiyada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoniga Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining shu nomdagi xalq dostoni qiyosiy ravishda o‘rganiladi. Olim mavzu tadqiqiga kirishishdan oldin o‘zi izlanishlar asnosida to‘plagan materiallarni ham qiyoslab o‘tadi, ertak, rivoyatlarning o‘zbek xalqi hayoti bilan bog‘liq ravishda talqin qilinganiga urg‘u beradi. Shuningdek, olim ishda ilmiy maqola shaklida Fitrat tomonidan o‘rganilgan dastlabki ma’lumotlarni kengroq tahlilga tortadi. Alisher Navoiyning dostoni mazmunini Fozil Yo‘ldosh

o‘g‘liga yetkazishda vosita bo‘lib xizmat qilgan yoxud xalq orasida keng tarqalgan ikkilamchi asarlarni ta’riflab o‘tadi. Jumladan, Umar Boqiy, XIX asrda Mahzun tomonidan, 1908-yil Mir Maxdum ibn Shohyunus tomonidan nasriy bayon qilingan “Qissai Farhod va Shirin”, xalq orasidagi Farhodning suv chiqarishi bilan bog‘liq ertak va afsonalarni tahlilga tortadi. Jumladan, bu dostonni Fozil Yo‘ldosh ustozi Yo‘ldosh shoirdan eshitganini aytib, shu nomdagi xalq qissalari katta ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlab o‘tadi: “Qissalar xalq shoiri – baxshilar ijodiga ma’lum darajada ta’sir etib kelgan. Xat-savodli bo‘lmagan xalq shoir va dostonchilari qissalarni savodlilarga o‘qitib tinglar va o‘z hofizalarida saqlab, keyin xalq dostonlari usulida asarlar yaratganlar”. Dissertatsiya ishi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining kiritgan o‘zgartirishlari va badiiy mahoratini ochishga qaratilgan ish sifatida muhim qiymatga ega. Shuningdek, N.Mallayevning “Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti”(1974), S.Erkinovning “Sharq adabiyotida Farhod qissasi” (1985) va “Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili” (1971) monografiyalari, A.Qayumovning “Farhod va Shirin” sirlari” (1979) asarlarida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining dostoni haqida umumiy ma’lumotlar berilgan.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijodiga qiziqish Turkiyada ham kuchli. 2019-yilda folklorshunos Emina Bakar professor Huseyin Baydemir rahbarligida “Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Farhod va Shirin” hikoyasi bo‘yicha bir tahlil” mavzusida doktorlik ishini muvaffaqiyatli himoya qildi. Ilmiy ishda o‘zbek dostonlarining tasnifi, baxshichilik maktablari haqida ma’lumot berilgan; Fozil shoir va A.Navoiy dostonlari qiyosiy o‘rganilgan, shuningdek tadqiqotga Fozil shoir kuylagan dostonning o‘zbekcha matni va turk tiliga tarjimasi ilova qilingan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, olima Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan dostondagi motivlarni Stif Tompson taklif qilgan “Xalq adabiyotining motiflar indeksi” katalogi bo‘yicha tadqiq etgan. Badiiy asardagi motivlarni aniqlashda maxsus usul qo‘llanilmaydi. Xalq hikoyalarining motivlarga boyligi uning mavzusi va ta’sirlantirgan manbasiga bog‘liq. Agar hikoya qahramonlik yoki oshiqlar hayoti haqida bo‘lsa, bunday asar motiv jihatidan zaif bo‘ladi, chunki asar bir necha motivlar ustiga quriladi, deydi Alptekin. Olimaning fikricha, tadqiq etilayotgan dostonda aniqlangan motivlarning aksariyati Motif indeksi katalogida aniqlangan motivlarga mos keladi. Katalogdan farqli o‘laroq, aniqlangan yangi motivlar soni yettita bo‘lib, ishda motiv boshida (T) qo‘yish bilan ifodalangan.

Tompsonning motivlar indeksi sarlavhalarini keltirish joiz :

A. Mifologik motivlar
B. Hayvonlar
C. Taqiqlangan narsalar
D. Sehr - jodu
E. O‘lim
F. Favqulodda holatlar
G. Devlar, jodugar va sehrgarlar
H. Imtihonlar
J. Donishmandlar va ahmoqlar
K. Aldashlar
L. Taqdir burilishlari
M. Kelajakni bashorat qilish
N. Omad va omadsizlik
P. Jamiyat
S. Mukofot va jazolar
R. Asirlar va qochoqlar
S. Anormal shafqatsizliklar
T. Jinsiyat/ sevgi-muhabbat
U. Hayot tarzi
V. Din
V. Xarakter xususiyatlari
X. Hazil-mutoyiba
Z. Turli motivlar

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizday, turkiy yozma va og‘zaki adabiyotda “Farhod va Shirin” qissasining turlicha talqin va variantlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afzalov M. “Farhod va Shirin” dostonining xalq varianti. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent,1950.
2. Алиев Г. Легенда о Хосрове и Ширин в литературах народов Востока – Москва,1960 .
3. Raxmanova N. Turkiy adabiyotdagi Farhod obrazining genezisi va tadriji. X Халықаралық Түркология конгресі (Қазіргі заманғы түркология: ғылыми парадигмалары және пәнаралық сипаты) 17-20 қазан 2023, Түркістан/ Казақстан. Материалдардың жинағы – С.241-245

Sevara BAROTOVA,
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

MUROD MANSURNING “JUDOLIK DIYORI” ROMANIDA ONALAR PSIXOLOGIYASI TASVIRINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida onalar psixologiyasining badiiy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda romandagi Asol xola, Salomxon aya, Huri xola kabi ona obrazlarining ruhiy kechinmalari, ichki iztiroblari, sabr-matonati, farzand taqdiri bilan bog‘liq fojiaviy holatlari hamda ma’naviy-axloqiy qiyofasi o‘rganiladi. Maqolada badiiy psixologizm, psixologik portret, ichki monolog, dialog, sukut, badiiy detal va ramziy obrazlarning ona ruhiyatini ochishdagi vazifasi yoritiladi. Xususan, “arvohkapalak” va “qoratol” kabi detallar Asol xola ruhiyatidagi iztirob, yolg‘izlik, motam, umidsizlik va o‘tmish xotirasidan uzila olmaslik holatlarini ifodalovchi psixopoetik vosita sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: *“Judolik diyori”, ona obrazi, onalar psixologiyasi, badiiy psixologizm, psixologik tasvir, badiiy detal, iztirob, sabr, onalik mehri.*

Annotation: this article analyzes the artistic interpretation of mothers’ psychology in Murod Mansur’s novel *Judolik diyori*. The study examines the psychological experiences, inner sufferings, patience, endurance, tragic states related to children’s fate, and moral-ethical qualities of mother images such as Asol xola, Salomxon aya, and Huri xola. The article highlights the role of artistic psychologism, psychological portrait, inner monologue, dialogue, silence, artistic detail, and symbolic images in revealing maternal psychology. In particular, such details as “arvohkapalak” and “qoratol” are interpreted as psychopoetic devices expressing Asol xola’s suffering, loneliness, mourning, hopelessness, and inability to detach herself from memories of the past.

Key words: *Murod Mansur, Judolik diyori, mother image, mothers’ psychology, artistic psychologism, psychological representation, artistic detail, suffering, patience, maternal love.*

Аннотация: в данной статье анализируется художественная интерпретация психологии матерей в романе Мурода Мансура *«Judolik diyori»*. В исследовании рассматриваются психологические переживания, внутренние страдания, терпение, стойкость, трагические состояния, связанные с судьбой детей, а также нравственно-этический облик таких материнских образов, как Асол хола, Саломхон ая, Хури хола. В статье раскрывается роль художественного психологизма, психологического портрета, внутреннего монолога, диалога, молчания, художественной детали и символических образов в изображении материнской психологии. В частности, такие детали, как «арвоҳкапалак» и «қоратол», интерпретируются как психопоэтические средства, выражающие страдание, одиночество, траур, безысходность и неспособность Асол хола оторваться от воспоминаний прошлого.

Ключевые слова: *«Judolik diyori», образ матери, психология матерей, художественный психологизм, психологическое изображение, художественная деталь, страдание, терпение, материнская любовь.*

Kirish. O‘zbek adabiyotida ona obrazi qadimdan yuksak ma’naviy qadriyatlar, mehr-muhabbat, sabr, fidoyilik, vatanparvarlik va insoniy poklik timsoli sifatida tasvirlanib kelgan. Ona obrazi nafaqat oilaviy muhitning markaziy siymosi, balki xalqning ma’naviy dunyosi, axloqiy qarashlari va milliy ruhiyatini ifodalovchi muhim badiiy obrazlardan biridir. Badiiy adabiyotda ona shaxsi orqali insoniy munosabatlarning eng nozik jihatlari, farzand taqdiri bilan bog‘liq iztiroblar, mehr va ayriliq, umid va umidsizlik, sabr va matonat kabi ruhiy holatlar chuqur aks ettiriladi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda inson ruhiyatini, xususan, ona qalbining ichki kechinmalarini o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki ona obrazi badiiy matnda faqat tarbiyachi yoki oila tayanchi sifatida emas, balki murakkab psixologik olamga ega bo‘lgan shaxs sifatida talqin qilinadi. Ona ruhiyatini tahlil qilish orqali asardagi ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar, ma’naviy qadriyatlar va insoniy fojealarning mohiyatini chuqurroq anglash mumkin.

Badiiy psixologizm qahramon ichki olami, ruhiy holati, hissiy kechinmalari va ongida kechadigan ziddiyatlarni tasvirlashga xizmat qiluvchi muhim poetik hodisadir. L.Y.Ginzburg psixologik proza haqidagi tadqiqotlarida inson ichki dunyosini ochishda xotira, kechinma, ruhiy kuzatuv va ichki dramatizmning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi.[1] A.B. Yesin esa badiiy psixologizmni qahramon xarakterining ichki asoslarini yorituvchi, uning ruhiy ziddiyatlarini chuqurlashtiruvchi adabiy-estetik hodisa sifatida izohlaydi.[2] Ushbu nazariy qarashlar ona obrazining badiiy talqinini tahlil qilishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Murod Mansurning “Judolik diyori” romani o‘zbek nasrida inson taqdiri, ayriliq iztirobi, oila, ma’naviy qadriyatlar va ayol ruhiyatining badiiy talqini bilan ajralib turadi. Romanda ona obrazlari, ayniqsa, Asol xola, Salomxon aya, Huri xola kabi qahramonlar orqali onalik mehri, farzand dardi, taqdir sinovlari, ruhiy bardoshlilik va ma’naviy kuch masalalari chuqur yoritilgan. Asarda ona ruhiyati tashqi voqealar ta’sirida shakllanadigan oddiy hissiy holat emas, balki inson qalbining murakkab, ko‘p qatlamli va dramatik jarayoni sifatida tasvirlanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida onalar psixologiyasining badiiy talqinini o‘rganish, ona obrazlari ruhiyatini ochishda qo‘llangan poetik vositalarni aniqlash hamda yozuvchining onalik iztirobi, sabr-

1 Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – Ленинград: Советский писатель, 1977. – 443 с.
2 Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: учебное пособие. – Москва: Флинта: Наука, 2011. – 176 с.

matonat va ruhiy bardoshlilikni tasvirlashdagi mahoratini yoritishdan iborat.

Metodologiya. Maqolada badiiy matnni ilmiy-adabiy tahlil qilishga asoslangan metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini badiiy psixologizm, obraz poetikasi, psixologik portret, ichki monolog, badiiy detal, ramziy tasvir va nutqiy tavsif haqidagi ilmiy qarashlar tashkil etdi. O‘zbek adabiyotshunosligida badiiy obraz, xarakter va ruhiy tahlil masalalariga oid Izzat Sulton, Dilmurod Quronov, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov kabi olimlarning nazariy qarashlari tadqiqot uchun ilmiy tayanch vazifasini bajardi.[3]

Tadqiqotda, avvalo, **psixologik tahlil metodi**dan foydalanildi. Ushbu metod asosida Asol xola, Salomxon aya va Huri xola obrazlarining ichki kechinmalari, farzand taqdiri bilan bog‘liq iztiroblari, ruhiy sinish, sukut, sabr va e’tiqodga tayangan bardoshlilik holatlari o‘rganildi.

Ikkinchidan, **badiiy-estetik tahlil metodi** orqali romanda ona obrazlarining asar g‘oyaviy-estetik mazmunidagi o‘rni, ularning obrazlar tizimidagi vazifasi va ma’naviy-axloqiy ahamiyati tahlil qilindi.

Uchinchidan, **struktural-semantik yondashuv** asosida ona ruhiyatini ochishda xizmat qilgan badiiy detallar, ramziy obrazlar, portret, dialog, sukut va muallif bayonining ma’no qatlamlari o‘rganildi. Xususan, “arvohkapalak” va “qoratol” kabi detallar Asol xola ruhiyati bilan bog‘liq psixologik va ramziy ma’noda talqin qilindi.

To‘rtinchidan, **tahliliy-qiyosiy metod** yordamida romandagi ona obrazlari o‘zaro qiyoslandi. Masalan, Asol xola obrazida onalik iztirobi va ruhiy sinish kuchli ifodalansa, Huri xola obrazida sabr, e’tiqod va ma’naviy bardoshlilik yetakchilik qilishi ko‘rsatildi. Salomxon aya esa ayol taqdiridagi fojiani anglaydigan, lekin uni o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan avlod vakili sifatida tahlil qilindi.

Maqolada xulosalar bevosita badiiy matn tahlili, obrazlar ruhiyatini kuzatish, detallar semantikasini ochish va ona obrazlarining roman g‘oyaviy tizimidagi vazifasini aniqlash asosida chiqarildi.

Muhokama va natijalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Judolik diyori” romanida onalar psixologiyasi asarning eng muhim badiiy-psixologik qatlamlaridan birini tashkil qiladi. Romanda ona obrazlari voqealar rivojida shunchaki ishtirok etuvchi personajlar sifatida emas, balki insoniy iztirob, oilaviy fojia, ma’naviy bardosh, sabr, mehr va farzand taqdiri bilan bog‘liq ruhiy kechinmalarni mujassamlashtiruvchi obrazlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Asarda Asol xola obrazi onalik iztirobining eng keskin badiiy ifodalaridan biri sifatida talqin qilinadi. Uning o‘g‘li Bahriddinning to‘y kuni olib ketilishi bilan bog‘liq voqea ona ruhiyatini larzaga keltiradi. Bu hodisa Asol xola uchun oddiy ayriliq emas, balki ona qalbining butun borlig‘ini yemiruvchi fojiadir. Farzand taqdiri bilan bog‘liq noaniqlik, yo‘qotish, iztirob va kutish holati uning ruhiy dunyosida chuqur o‘zgarishlar yuzaga keltiradi. Muallif Asol xolaning ruhiy holatini bevosita izohlash bilan cheklanmaydi, balki uning ichki og‘rig‘ini portret, sukut, xatti-harakat, badiiy detal va ramziy tasvirlar orqali ochadi.

Asol xola ruhiyatini yoritishda “arvohkapalak” detali alohida o‘rin tutadi. Mazkur detal tashqi tasvir unsuri sifatida emas, balki qahramon ichki olamini ochuvchi psixopoetik vosita sifatida xizmat qiladi. “Arvohkapalak” obrazi Asol xola ruhiyatidagi bezovtalik, o‘tmishdan uzila olmaslik, iztirob, yolg‘izlik va ruhiy noaniqlikni ifodalaydi. Kapalakning “arvoh” sifatida tasavvur qilinishi qahramon qalbida yashayotgan xotira, yo‘qotish va motam tuyg‘ulari bilan bog‘lanadi. Shu jihatdan ushbu detal ona ruhiyatidagi fojiaviy holatni yanada ta’sirchanlashtiradi.

“Qoratol” detali ham Asol xola obrazining ruhiy mazmunini chuqurlashtiradi. Qoratol obrazida motam, yolg‘izlik, umidsizlik va ruhiy sinish ma’nolari mujassamlashgan. Bu detal orqali muallif Asol xolaning cheksiz iztirobini, farzand dardi bilan yashashini, vaqt o‘tgan sari chuqurlashib boradigan ichki og‘rig‘ini ramziy yo‘sinda tasvirlaydi. Qoratol oddiy tabiat tasviri emas, balki qahramon ruhiyatining tashqi belgisi, uning qalbidagi sukutli fojianing badiiy ifodasidir. Dilmurod Quronov badiiy detal obraz yaratishning muhim vositasi ekanini ta’kidlaydi[4]. “Judolik diyori” romanida ham detal qahramonning ruhiy olamini ochishda asosiy poetik vositalardan biriga aylanadi.

Romandagi Salomxon aya obrazi esa onalik va ayollik tajribasining ijtimoiy-psixologik qatlamini ifodalaydi. U hayot sinovlarini ko‘rgan, ayol taqdiridagi fojialarni anglaydigan, ammo mavjud holatni tubdan o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan obraz sifatida tasvirlanadi. Salomxon aya ruhiyatida hayotiy tajriba, ichki og‘riq, kuzatuvchanlik va sukut uyg‘unlashadi. Uning obrazida o‘zbek ayoliga xos andisha, sabr, mehr va ichki iztirob mujassam bo‘ladi. U voqealarga befarq emas, biroq uning munosabati ko‘pincha baland ovozli norozilikda emas, balki ichki kechinma, sukut va yurakdan his etilgan dard orqali namoyon bo‘ladi.

Huri xola obrazi esa ruhiy bardoshlilik, e’tiqod va ma’naviy kuch timsoli sifatida talqin qilinadi. U ham fojeani boshdan kechiradi, biroq bu fojia uni butunlay sindirmaydi. Huri xola iztirobni ochiq faryodga aylantirmaydi; aksincha, uni sabr, duo, ezgu tilak va mehr orqali yengishga intiladi. Bu jihat uning ruhiyatida ma’naviy barqarorlik va ichki kuch mavjudligini ko‘rsatadi. Asarda Huri xola obrazi orqali ona qalbidagi og‘riqning e’tiqod bilan uyg‘unlashgan shakli badiiy ifodasini topadi.

Romanda onalar psixologiyasini ochishda nutq ham muhim o‘rin tutadi. Ona obrazlarining nutqi ularning ruhiy holati, ichki dunyosi va ma’naviy pozitsiyasini ifodalaydi. Ayrim holatlarda ularning so‘zlari iztirob, mehr, duo va dardga yo‘g‘rilgan bo‘lsa, ba’zan sukutning o‘zi ham nutqiy vazifa bajaradi. Sukut ona qalbidagi eng chuqur og‘riqni, aytib bo‘lmaydigan dardni, ichki sinishni ifodalovchi badiiy vositaga aylanadi. Shu ma’noda romanda ona nutqi va sukuti bir-birini to‘ldiruvchi psixologik ifoda shakllari sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, “Judolik diyori” romanida onalar psixologiyasi ko‘p qatlamli badiiy tizim asosida tasvirlangan. Asol xola obrazida fojiaviy iztirob va ruhiy sinish, Salomxon aya obrazida hayotiy tajriba va sukutdagi dard, Huri xola obrazida

3 Qarang: Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980; Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. 268-b.; Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. 640-b.; Normatov U. Qalb inqilobi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. 351-b.

esa sabr, e’tiqod va ruhiy bardoshlilik yetakchilik qiladi. Ushbu obrazlar orqali muallif ona qalbining turli holatlarini individual va umumiy insoniy mazmunda ochib beradi.

“Judolik diyori” romanida onalar psixologiyasining badiiy talqini o‘zbek adabiyotidagi ona obrazini yaratish an’analari bilan uzviy bog‘liq. O‘zbek adabiyotida ona obrazi ko‘pincha mehr, sabr, fidoiylik va ma’naviy poklik timsoli sifatida tasvirlangan. Biroq Murod Mansur romanida ona obrazi faqat ezgulik va mehr ramzi sifatida emas, balki fojia, ruhiy sinish, ichki og‘riq va ma’naviy bardoshni o‘zida mujassamlashtirgan murakkab psixologik obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

Asol xola obrazi bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Uning ruhiy holatida ona mehrining fojiaviy shakli ko‘rinadi. Farzandning yo‘qolishi yoki undan ayrilish ehtimoli ona qalbida doimiy bezovtalik va ruhiy iztirob uyg‘otadi. Muallif bu holatni bevosita bayon bilan emas, balki ramziy detallar va psixologik tasvirlar orqali beradi. Bu esa obrazning ta’sirchanligini oshiradi. “Arvohkapalak” va “qoratol” detallarining qo‘llanishi Asol xolaning ruhiy dunyosini tashqi muhit bilan bog‘lab, uning ichki fojeasini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Salomxon aya obrazi ona psixologiyasining boshqa bir qirrasini namoyon qiladi. U voqealarning mohiyatini anglaydi, ayol va ona taqdiridagi iztiroblarni his qiladi, ammo ularni o‘zgartirishga ojiz. Bu obraz orqali muallif ona ruhiyatidagi ijtimoiy cheklanganlik, andisha va ichki dardni yoritadi. Salomxon aya obrazi shuni ko‘rsatadiki, ba’zan ona dardi faqat shaxsiy fojia emas, balki butun avlodning sukutli iztirobi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Huri xola obrazida esa ona ruhiyatining ma’naviy jihati ustunlik qiladi. U iztirobni bardoshga, og‘riqni duoga, dardni mehrga aylantira oladigan obraz sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan Huri xola faqat individual qahramon emas, balki o‘zbek ayolining sabr, e’tiqod va ma’naviy kuch bilan bog‘liq fazilatlarini mujassamlashtiruvchi badiiy timsoldir.

Romanda onalar psixologiyasining muhim jihati shundaki, u faqat shaxsiy kechinmalar doirasida qolmaydi. Ona obrazlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, oila barqarorligi, farzand taqdiri, ayolning jamiyatdagi o‘rni va ma’naviy qadriyatlar masalalari ham yoritiladi. Bunda ona ruhiyati asarning umumiy g‘oyaviy mazmuni bilan bevosita bog‘lanadi.

Badiiy psixologizm nuqtayi nazaridan qaraganda, “Judolik diyori” romanida ona obrazlari tashqi voqelik ta’sirida o‘zgaradigan, iztirob chekadigan, biroq ma’naviy asosini saqlab qolishga intiladigan murakkab xarakterlar sifatida yaratilgan. Ularning ruhiyati ichki monolog, dialog, sukut, detal, ramz va muallif bayoni orqali ochiladi. Ayniqsa, sukut va detalning faol poetik vazifa bajarishi romanning psixologik ta’sirchanligini oshiradi.

Shu jihatdan Murod Mansurning ona obrazlarini yaratishdagi mahorati shundaki, u onalik tuyg‘usini umumiy, mavhum tushuncha sifatida emas, balki konkret hayotiy vaziyatlar, fojiaviy holatlar va ruhiy kechinmalar orqali tasvirlaydi. Asardagi ona obrazlari o‘quvchini bevosita hayotiy dard, insoniy iztirob va ma’naviy bardoshlilik haqida o‘ylashga undaydi.

Xulosa. Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida onalar psixologiyasi chuqur badiiy-psixologik asosda tasvirlangan. Romandagi Asol xola, Salomxon aya, Huri xola kabi obrazlar orqali ona qalbining iztirobi, sabri, mehr-muhabbati, ruhiy sinishi va ma’naviy bardoshliligi yoritiladi. Ushbu obrazlar syujet rivojida ishtirok etuvchi oddiy personajlar emas, balki asarning g‘oyaviy-estetik mazmunini ochuvchi muhim psixologik markazlardir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Asol xola obrazida onalik iztirobi va fojiaviy ruhiy sinish, Salomxon aya obrazida hayotiy tajriba va sukutdagi dard, Huri xola obrazida esa sabr, e’tiqod va ma’naviy kuch ifodalangan. Ularning har biri ona ruhiyatining alohida qirrasini namoyon qiladi.

Romanda onalar psixologiyasini ochishda badiiy detal, ramziy tasvir, nutq, sukut, psixologik portret va muallif bayoni muhim poetik vazifa bajaradi. “Arvohkapalak” va “qoratol” kabi detallar Asol xola ruhiyatidagi iztirob, motam, yolg‘izlik va o‘tmish xotirasidan uzila olmaslik holatlarini chuqur ifodalovchi psixopoetik vositalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, “Judolik diyori” romanida onalar psixologiyasining tasviri o‘zbek nasrida ayol ruhiyatini badiiy talqin qilishning muhim namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Murod Mansur ona obrazlari orqali inson qalbining nozik, fojiaviy va ma’naviy qatlamlarini ochib berishga erishgan. Mazkur roman onalik iztirobi, sabr-matonat va ruhiy bardoshlilik masalalarini o‘rganishda muhim adabiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – Ленинград: Советский писатель, 1977. – 443 с.
2. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: учебное пособие. – Москва: Флинта: Наука, 2011. – 176 с.
3. Mansur M. Judolik diyori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2007.
4. Mansur M. Judolik diyori. Uchinchi kitob. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2006. 270-b.
5. Mansur M. Judolik diyori. To‘rtinchi kitob. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2014. 260-b.
6. Normatov U. Qalb inqilobi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. 351-b.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. 268-b.
8. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. 408-b.
9. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. 640-b.
10. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. 230-b.

Iroda ISMATOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
irodaismatova95@gmail.com

MUQIMIY HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISHDA SAYOHAT DARSLARINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya: ushbu maqolada taniqli o‘zbek demokrat shoiri Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy hayoti va boy adabiy merosini zamonaviy ta’lim tizimida noan’anaviy hamda interaktiv metodlar, xususan, sayohat (ekskursiya) darslari orqali o‘qitish masalalari yoritilgan. Maqolada davlatimiz rahbarining madaniyat, san’at va teatr sohasini rivojlantirishga oid tashabbuslari, muqimiyshunoslik tarixi hamda adib tarjimai holini o‘rgatishning pedagogik-psixologik ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida integratsion yondashuvni ta’minlash, multimedia vositalari (kinofilm, sun’iy intellekt elementlari) va “Rangli kubiklar” interaktiv o‘yinidan foydalanish bo‘yicha amaliy dars ishlanmalari hamda tavsiyalar bayon etilgan. Metod o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol izlanuvchiga aylantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Muqimiy, sayohat darslari, muqumiyshunoslik, interaktiv metodlar, Rangli kubiklar, ta’lim integratsiyasi, multimedia, sun’iy intellekt, adabiyot metodikasi, lirik meros, Sayohatnoma.*

Annotation: this article explores innovative and non-traditional methods, specifically travel-based (excursion) lessons, for teaching the life and rich literary heritage of the prominent Uzbek democratic poet Muhammad Aminkhoja Muqimiy within the modern education system. The paper highlights recent state initiatives in cultural and theater development, the history of Muqimiy studies, and the pedagogical and psychological value of teaching authors’ biographies. Furthermore, it provides practical recommendations and lesson designs for integrating cross-curricular approaches, multimedia resources (cinema, artificial intelligence elements), and interactive games like “Color Cubes” into literature classes. These methods aim to shift students from passive listeners into active researchers and critical thinkers.

Key words: *Muqimiy, travel lessons, Muqimiy studies, interactive methods, Color Cubes, educational integration, multimedia, artificial intelligence, literature methodology, lyrical heritage, Sayohatnoma (Travelogue).*

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы преподавания жизни и богатого творческого наследия выдающегося узбекского поэта-демократа Мухаммада Аминходжи Мукими в современной системе образования с использованием нетрадиционных и интерактивных методов, в частности, уроков-путешествий (экскурсий). В работе анализируются государственные инициативы по развитию культуры и театрального искусства, история мукимиведения, а также педагогико-психологическое значение изучения биографии писателей. Кроме того, представлены практические рекомендации и разработки по внедрению интеграционного подхода, мультимедийных средств (кинофильмы, элементы искусственного интеллекта) и интерактивной игры «Цветные кубики», способствующих переходу учащихся от пассивного слушания к активному исследованию.

Ключевые слова: *Мукими, уроки-путешествия, мукимиведение, интерактивные методы, Цветные кубики, интеграция образования, мультимедиа, искусственный интеллект, методика литературы, лирическое наследие, Саёхатнома (Путевые заметки).*

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 22-noyabr kuni madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, xususan, teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlashga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Bu haqda o‘tgan yil 22-dekabrda bo‘lgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida aytilgan edi. Mutasaddilar shu borada ishlab chiqilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida axborot berdi. Unga ko‘ra, 2025-2030-yillarda teatrlarda “Milliy qahramon” va “Inson qadri uchun” mavzularida 32 ta turkum spektakllar yaratish taklif etilmoqda”[1:1] Shu munosabat bilan birgalikda Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatriga “akademik”

maqomi berildi. Bugun Muqimiy nomi shu darajada ulug‘ maqom kasb etyapti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida milliy adabiyot, madaniyat va ma’naviyatni rivojlantirish kontekstida Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy merosiga alohida e’tibor qaratgan. Davlat rahbarining ma’ruzalari va qabul qilgan qarorlarida Muqimiy ijodi hamda uning nomidagi teatr faoliyati bo‘yicha muhim fikrlar ilgari surilgan. Prezident Mirziyoyev adabiyot va milliy o‘zlikni anglash masalalarida Muqimiy kabi demokrat shoirlarning o‘rnini yuqori baholaydi”[2:1].

Muhammad Aminxo‘janing she’rga havas qo‘yishida, taxmin qilish mumkinki, uning xizmatlari katta bo‘lgan. Bo‘lajak shoir eski maktabda xat-savod chiqargach, 1864-yildan Qo‘qondagi “Hokim oyim” madrasasida o‘qiydi.[3:61]


“Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot o‘qitish kechinmalarining yozuvchilar umr bayonini o‘rgatish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkorning hayoti va ijod yo‘lini o‘rgatishda adabiy ta’lim ikki maqsadni ko‘zda tutadi. Birinchidan, adiblar millatning diqqat-e’tiborini tutgan, hurmatini qozongan is’tedodli va o‘ziga xos kishilar bo‘lganligi uchun ularning shaxslik sifatlari hamda hayot yo‘li bilan tanishish o‘quvchilar uchun juda qiziqarlidir. Ijodkorlar shaxsiyatida bolalarga namuna bo‘ladigan jihatlar ko‘p bo‘lganligi tabiiy. Binobarin, yozuvchi shaxsiyatiga xos jihatlar o‘quvchilar uchun ma’naviy o‘rnak sifatida ahamyatlidir. Negaki, barcha ijodkorlar istisnosiz o‘ta faol o‘qurmanlar bo‘lishadi. Yoshlar ma’naviyatining shakllanishida esa kitob beqiyos o‘rin tutishi ma’lum. Boshqa tamondan, adiblarning tabiati, insoniy saviyasi, bosib o‘tgan hayot yo‘li ularning maktabda o‘rganilgan asarlarida o‘z nuqsini, albatta, qoldirgan bo‘ladi.[7:145] ” – deya alohida ta’kidlaydilar – metodist olim Qozoqboy Yo‘ldosh. Shu sabali ijodkorning biror bir asarini o‘rganayotganimizda ularning hayot yo‘lini o‘rganishimiz muhim omil hisoblanadi.

Boshqa metodist olimlar: Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovalar ijodkor umr yo‘lini o‘rgatish zarurligini: “Tarjimaiy hol yozuvchining navbatdagi darsda.... o‘rganilajak asarining yaratilish tarixi shu asarning mazmunini tushunishga, o‘quvchilarni bunga ruhiy jihatdan tayyorlashga yordam beradi.” – deb aytadilar[4:95]. Shu sababli maktablarda biron bir ijodkorni asarini o‘rgatishdan avval, uni hayot yo‘lini o‘quvchilarga o‘rgatishimiz kerak.

Undan tashqari boshqa olimlar ham yuqoridagi fikrlarga to‘la qonli qo‘shiladilar, Masalan, taniqli adabiyotshunos Yu.M.Lotman “Biografiya – ijodkorning yuzi” maqolasida : “Ijodkor shaxsiga o‘qirmanlar qiziqishi tagida hamisha go‘zal va boy inson shaxsi bilan uchrashish ehtimoli yotadi” deb aytib o‘tadi”[8:25]

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimga ega bo‘lishi, balki o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni hayotiy voqelik bilan bog‘lay olishi ustuvor vazifa hisoblanadi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda an’anaviy dars shakllari (ma’ruza, savol-javob) o‘quvchi qiziqishini doimiy ushlab turish uchun yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shu sababli, ta’lim jarayoniga noan’anaviy metodlarni, xususan, **sayohat darslarini** olib kirish pedagogik nuqtayi nazardan g‘oyat dolzarbdir. Sayohat darslari o‘quvchilarga borliqni bevosita kuzatish, tabiat va jamiyatdagi bog‘liqliklarni anglash imkonini beradi. Ushbu dars shakli ta’limning hayot bilan bog‘liqligi tamoyilini amalda ta’minlaydi.

O‘yin sharti: o‘qituvchi oldindan tomonlari to‘rt xil rangga bo‘yalgan (qizil, sariq, yashil, ko‘k) kubik-rubik va to‘rt xil rangdagi qutilarni (yoki konvertlarni) tayyorlab qo‘yadi. Sinfdagi o‘quvchilarning soniga qarab savollar jamlanmasini tayyorlaydi. 1-qutiga Muqimiy hayotiga oid savollar, 2-qutiga shoirning lirik merosiga oid savollar; 3-qutiga “Sayohatnoma” ning tuzilishiga oid savollar; 4-qutiga “Sayohatnoma”dagi obrazlar haqidagi savollar joylashtiriladi. O‘yinni o‘tkazish uchun o‘quvchilar ikki guruhga ajratiladi. So‘ng har bir guruhdan bitta o‘quvchi doskaga chiqadi va kubikni aylantirib stol yuzasiga tashlaydi. Qaysi rang tushsa, o‘sha rangdagi qutidan savol yozilgan qog‘ozni oladi va javob beradi. O‘yinni ikkinchi guruh a’zosi davom ettiradi. To‘g‘ri javob 1 ball, notog‘ri javob 0 ball bilan baholanadi. Eng ko‘p ball to‘plagan guruh g‘olib bo‘ladi.




Materiallar shu shaklda bo‘ladi:

Muqimiy mavzusi bo‘yicha qutilarga joylashtiriladigan namunaviy savollar o‘yin muvaffaqiyatli o‘tishi uchun qutilar ichidagi

savollar Muqimiy ijodiga aniq mos kelishi shart. Mana sizga darsda qo‘llash uchun tayyor savollar jamlanmasi:



Ko‘k quti (“Sayohatnoma” obrazlari) “Sayohatnoma”dagi “Xo‘ja Iso” obrazi kim va shoir unga qanday ta’rif beradi? (Qo‘shtegirmonlik mingboshi, xalqni talovchi “badkor” amaldor) Shoir asarda yo‘lda o‘ziga hamroh bo‘lgan qaysi kasb egalarini tilga oladi? (Chitfurush — gazlama sotuvchi, baqqol va boshqalar)



Qizil quti (Hayoti) Muqimiy qaysi yillarda yashagan va uning asl ismi nima? (1850-1903, Muhammad Aminxo‘ja) Shoir nima sababdan “Muqimiy” (doimiy, muqim turuvchi) taxallusini tanlagan? (Moddiy yetishmovchilik tufayli bir umr Qo‘qondagi xonadonida va madrasa hujrasida muqim yashashga majbur bo‘lgani uchun)



Yashil quti (“Sayohatnoma” tuzilishi) Muqimiy “Sayohatnoma” asarini qaysi adabiy janr va shaklda yozgan, u qaysi vaznda? (Masnaviy shaklida, ramal musaddasi solim vaznida yozilgan) Muqimiy o‘z sayohatini qaysi shahardan boshlaydi va asarda nomi tilga olingan ilk qishloq qaysi? (Qo‘qon shahridan boshlaydi, birinchi manzil — O‘ltarma qishlog‘i)



Sariq quti (Lirik merosi) Muqimiyning ijtimoiy-tanqidiy va hajviy asarlariga qaysi asarlarini misol keltira olasiz? (“Tanobchilar”, “Veksel”, “Maskovchi boy ta’rifida”) Shoir lirikasi asosini qaysi mavzu tashkil etadi va uning mashhur biror lirik she’rini ayting? (Sevgi, sadoqat va g‘am-alam mavzusida)

Metodning yaxshi jihatlari va darsga foydasi Vaqtdan unumli foydalanish: 10-15 daqiqa ichida butun bir sinfning o‘tilgan mavzuni qanchalik o‘zlashtirganini. To‘rtta qutining mavjudligi Muqimiy ijodini tizimli guruhlashga (tarjimai hol, lirika, poema, obrazlar) yordam beradi.[6:23]

Muqimiy ijodini o‘rgatishda sayohat darslarining qo‘llanilishi adabiyot darsini geografiya (vodiy xaritasi, qishloqlar joylashuvi), tarix (XIX asr oxiridagi ijtimoiy qatlamlar) muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta’limda integratsion yondashuvni ta’minlaydi. Metod doirasida asardagi lirik va hajviy obrazlar (masalan, “badkor” Xo‘ja Iso) tahlil qilinishi o‘quvchilarda ijtimoiy illatlarga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantiradi. Dars yakunida beriladigan “Mening qishlog‘im sayohatnomasi” kabi ijodiy topshiriqlar esa ularning mustaqil yozma nutqini o‘stiradi. bosqichida o‘quvchilar bilimini xolis va qiziqarli baholashga yordam beradi. Umuman olganda, Muqimiy merosini bunday noan’anaviy dars shakllari orqali o‘qitish milliy adabiyotimizga bo‘lgan qiziqishni orttirish va yosh avlod ma’naviyatini shakllantirishning eng unumli yo‘llaridan biridir.

Foydalanılgan adabıyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. – Toshkent, 2018 yil, 7-avgust.

2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruza. – Toshkent, 2017. – president.uz

3.Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004. 296-b.

4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. 295-b.

5. Rustamov E. Muqimiy hayoti va ijodi. – Toshkent: Fan, 1965. 280-b.

6. Sabitova T., Raxmanova N. Ona tili va adabiyot ta’limida didaktik o‘yinlar texnologiyasi. – Toshkent: Malik Print, 2021. 20-b.

7. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. 371-b.

8. Лотман Ю. Биография – живое лицо // Новый мир. – Москва, 1985, №2. – 230 с.

9. https://arboblar.uz // Muqimiy

10. https://cyberleninka.ru // M. Madumarova, Muqimiy hayoti va ijodiga nazar.

11.https://n.ziyouz.com//MuhammadAminxo‘jaMuqimiy. 12.uz.wikipedia.org//Muqimiy.

Shahnoza OCHILDIYEVA,
O‘zJOKU 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Gulnoza DJURAKULOVA
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

OZOD SHARAFIDDINOVNING “E’TIQODIMNI NEGA O‘ZGARTIRDIM” MAQOLASI MISOLIDA IBORALAR TARJIMASIDAGI MUHIM JIHATLARI TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada taniqli adabiyotshunos, adabiy tanqidchi va tarjimon Ozod Sharafiddinovning “E’tiqodimni nega o‘zgartirdim” maqolasining ingliz tiliga tarjimasi tahlil qilinib, iboralar tarjimasida uchraydigan shakl va ma’no munosabatlari yoritiladi. Ularning tarixiy, siyosiy va madaniy ma’nosi turli misollar bilan ochib beriladi. Shuningdek, bir nechta iboralar misolida matn mazmuni, muallif fikri va maqsadiga mos ravishda to‘g‘ri so‘z tanlash ko‘nikmalari bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: *frazeologik ibora, ijtimoiy holat, aniqlik, metafora, kommunistik e’tiqod, ibora, millat, mazmun.*

Annotation: this article analyzes the English translation of “Why I Changed My Beliefs,” a work by the prominent literary scholar, critic, and translator Ozod Sharafiddinov. Particular attention is paid to the form–meaning relationship encountered in the translation of phraseological units. Through various examples, the study explores the historical, political, and cultural cootations embedded in these expressions. Furthermore, the article discusses the importance of selecting appropriate lexical equivalents that accurately convey the content of the text, the author’s intention, and the communicative purpose of the original work.

Key words: *phraseological unit, social context, accuracy, metaphor, communist belief, expression, nation, meaning.*

Аннотация: в данной статье анализируется английский перевод статьи «Почему я изменил свои убеждения», принадлежащей известному литературоведу, литературному критику и переводчику Озод Шарафиддинов. Особое внимание уделяется соотношению формы и значения при переводе фразеологических единиц. На основе различных примеров раскрываются исторические, политические и культурные коннотации данных выражений. Кроме того, рассматриваются принципы выбора адекватных лексических соответствий, позволяющих наиболее точно передать содержание текста, авторский замысел и коммуникативную цель оригинала.

Ключевые слова: *фразеологическая единица, социальный контекст, точность, метафора, коммунистические убеждения, выражение, нация, содержание.*

Kirish

Ozod Sharafiddinov maqolalari nafaqat o‘zining chuqur tahliliy mazmuni, balki boy adabiy tili bilan ham ajralib turadi. Muallif qaysi jarayonda qanday uslubdan foydalanishni, qaysi vaziyatni qanday ifodalashni mukammal biladi va amalda isbotlaydi. Shunday ekan, adib asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilish ham tarjimondan yetarlicha bilim va mahorat talab qiladi. Ozod Sharafiddinov ijodidagi eng taniqli maqolalardan biri hisoblangan “E’tiqodimni nega o‘zgartirdim” maqolasini ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida maqola tili, mazmuni va uslubi bilan bog‘liq o‘ziga xos jihatlarni uchratish mumkin. Bunda so‘zlar shunchaki tarjima qilinmaydi. Aksincha, maqola mazmuni tarjimon tomonidan yaxshi tushunilgan holda ma’no ingliz tilida qayta ishlanadi. Ba’zi so‘z va iboralarning aynan muqobili mavjud bo‘lmaganda tarjimon o‘zining ijodkorlik mahoratidan foydalanib muammoga yechim topishi zarur bo‘ladi. Shuningdek, maqolada muallif yashab o‘tgan davr, siyosiy tuzum va ijtimoiy holatga doir terminlarni ingliz tiliga o‘girish kuchli e’tibor talab etadi.

Natija va mulohazalar

Maqolada muallif bir qator ilmiy va adabiy iboralardan samarali foydalanadi. Masalan, “Aql bovar qilmaydi” iborasi, hayratlanish ma’nosida ishonish qiyin bo‘lgan narsa va hodisalarga nisbatan ishlatiladi. Buni ingliz tiliga “Impossible to believe” deb tarjima qilish to‘g‘ri bo‘ladi.

“Oyoqosti qilish” esa so‘zma-so‘z tarjima qilinsa “to put under foot” shaklida bo‘ladi. Ammo maqolada bu ibora biror buyumga nisbatan emas, majoziy ma’noda xalq, millat va siyosiy kamsitishlarga nisbatan ishlatilgan. Bu vaziyatda “disrespect for somebodies history” ma’nosini beruvchi “trample upon”iborasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

“Sha’nimga aytilgan” iborasi “addressed exactly into my own honor”, “boshi berk ko‘cha” esa “dead end”, “maqsadsiz sargardon” ta’rifi “wandering aimlessly” tarzida chiroyli tarjima qilinadi.

O‘zbek tilida “Chaqsa kepakka sotib yuborish” – kimnidir juda arzon baholash, qadrini tushirish yoki foydasiz bir narsadek qarash kabi ma’nolarni anglatadi.Buni ingliz tiliga bir necha xil ko‘rinishda ifodalash mumkin. Masalan, “To sell someone short”- kimnidir past baholash, “to undervalue”- haqiqiy qiymatni bermaslik yoki “to sell for next to nothing”- deyarli bepulga sotib yuborish ma’nosida keladi. Akademik matnlarda “undervalue” shaklidan

foydalanish tavsiya qilinadi. Ammo maqolada “chaqsa kepakka sotib yuborish” shunchaki qiymatsizlantirish emas, balki “juda kichik foyda uchun xiyonat qilish”, “sotqinlik qilib ketish” ma’nosini anglatib, partiya a’zolari va muallifning zamondosh kishilari orasidagi sotqinlarga nisbatan qo‘llanadi. Bu holatda “betray for a pittance” iborasidan foydalangan ma’qul.(Example: They betrayed their nation for a pittance.)

Shuningdek, muallif davr siyosati ostida sodir bo‘lgan voqealar va o‘z kechinmalari haqida yozar ekan, “peshonada bor ekan” iborasini ishlatadi. Bu mashxur ibora, asosan, “biror voqea muqarrar taqdirda bor”, “qismatda yozilgan” degan ma’nolarni anglatadi. Ingliz tilida bunga bir nechta chiroyli sinonimlar mavjud: “It was meant to be”, “destined for smth”, “fate had it” va biroz she’riy shaklda “It’s in one’s stars”. Ammo maqola mazmunidan kelib chiqqan holda, adibning hayotidagi qiyin vaziyatlar va ichki chalkashlik holatlarini qabul qilish jarayoni uchun “Such is my lot!” iborasini qo‘llashimiz mumkin. Masalan: “I lost my wealth and friends. Such is my lot!” (Men boyligim va do‘stlarimni yo‘qotdim. Peshonada bor ekan…)

Maqolada muallif qanday qilib o‘zining kommunistik e’tiqodidan voz kechgani va o‘z-o‘zi bilan kechgan og‘ir nizolarini tasvirlab shunday yozadi: “jamiyatning ruhiy muvozanati buziladi, qanchadan qancha odamlar to‘satdan o‘zini junun vodiysiga tushib qolganday his qiladi…” Avvalo, “Junun” so‘zi nima ma’noni anglatishini bilishimiz lozim. Bu so‘z “telbalik” degani bo‘lib, “junun vodiysi” adabiyotda chuqur ruhiy iztirob, ichki qarama-qarshiliklar va yo‘lini yo‘qotgan hissiyotlar oqimini tasvirlashda ishlatiladi. Bu xuddi, chek-chegarasi, yo‘q dengizda yolg‘iz tashlangan qayiq kabi ichki kechinmalarni ko‘rsatadi. Aslida bu ibora uzoq tarixga ega bo‘lib, Alisher Navoiy ijodidan olingan. U ichki hissiy “ofat”,qaror topolmaydigan chorasizlik holatlarini tasvirlashda qo‘llangan. Maqolani ingliz tiliga o‘girganda ushbu metaforani “valley of madness”- junun vodiysi iborasi ingliz tilidagi aynan adabiy va metaforik tarjimasi sifatida ishlatiladi.

Maqolada shunday bir parcha borki, o‘sha davr jamiyatidagi ijtimoiy holat haqida yaqqol tasavvur yarata oladi:

“Ammo masalaning “lekin”i shundaki, o‘sha kezlarda e’tiqodini o‘zgartirgan birgina men yoki Eshmat bilan Toshmat emasdi. Undaylar minglab, yuz minglab va hatto millionlab edi”. Ya’ni e’tiqodini o‘zgartirgan faqatgin u emasdi, bu millionlab odamlar bilan sodir bo‘lgan hodisa edi. Ushbu jarayonda “har kim”, “istalgan odam” ma’nosini beruvchi “ any Tom, Dick or Harry” iborasidan foydalanish mumkin. Ammo bu she’riy yoki og‘zaki matnlarda ko‘proq qo‘llanadi. Akademik ohang va aniqlikni saqlash uchun maqolaga mutlao mos keladigan “It wasn’t a case of this person or that person” iborasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Maqolada muallif “Ular o‘z o‘tmishini oyoqosti qilmoqdalar deya ta’na toshini yog‘dirgan bilan ish bitarmikan” degan fikrlarini yozar ekan, “tana toshini yog‘dirish” iborasini qo‘llaydiki, uni ingliz tilida “casting stones” iborasi bilan metaforik ravishda ifodalash mumkin. Ushbu “casting stones” iborasi Injilda keltirilgan bo‘lib, juda mashhur frazeologik iboradir. Bu kimnidir jamoat oldida tanqid qilish, ayblash ma’nolarini anglatadi va O.Sharafiddinov maqolada ifodalagan fikrini ifodalash uchun nihoyatda mos keladi.

Xulosa

Ushbu izlanishlarda O.Sharafiddinovning “E’tiqodimni nega o‘zgartirdim” maqolasida qo‘llangan iboralar tahlil qilinib, ularning ingliz tilidagi tarjimalari qiyosiy o‘rganildi. O‘zbek tilidagi ko‘plab iboralar chuqur tarixiy, milliy va madaniy mazmunga ega bo‘lib, ularni ingliz tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish har doim ham mumkin emas. Ammo ayrim iboralarning ingliz tilidagi muqobil frazeologik birliklar orqali ifodalash, yana boshqalarini esa erkin tarjima orqali yetkazish mumkin. Bu esa tarjima jarayoni nafaqat lingvistik balki madaniy, diniy va tarixiy xususiyatlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Maqolada qo‘llangan metaforik va obrazli ifodalar adibning ruhiy kechinmalari va o‘z davrining ijtimoiy muhitini yoritishda muhim rol o‘ynagan.

Shuningdek, qiyosiy tahlil natijasida aniqlandiki, ma’no aniqligi va shakl mukammalligi barobar saqlanishi kerak. Bu ikki til, ikki millat va umuman bir-biridan farqli qadriyatlar o‘rtasida ko‘prik bo‘lish degani.Shunday ekan , nafaqat asl matnga sodiq qolish kerak, balki tarjima qilinayotgan matnning ingliz tilidagi shaklning tabiiyligi va ma’noning aniqligi o‘rtasida muvozanatni saqlash zarur.

Xulosa o‘rnida, iboralarni tarjima qilish va tarjimalarni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish jarayonida matn mazmuni chuqurroq anglanadi. Shuningdek, tarjimonlik mahorati rivojlanadi. Chunki bunda tarjimon matnga bir tarjimon ko‘zi bilan emas, ham o‘zbek ham ingliz kishisi sifatida ma’noni anglashga, ikki xil dunyoqarash va qadriyatlarga ega ikki shaxs nazarida vaziyatlarni baholashga harakat qiladi. Bu kabi izlanishlar badiiy matnlarda iboralarni tarjima qilishda muhim manbaa, yosh tarjimonlarga esa yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Tanlangan asarlar”. Ozod Sharafiddinov. (2019) 313-346 b.”
2. Xurshid Davron kutubxonasi | Adib asarlari, tarjimalari, hamda o‘zbek va jahon adabiyotidan namunalar (n.d)
3. “Tarjimon va til”. Zuhriddin Isomiddinov. “Adabiyot” Nashriyoti. 2024

Nafosat HAYITMURODOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs talabasi

BADIIY ASAR TAHLILIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Annotatsiya: mazkur maqolada badiiy asar tushunchasi, uning tahlili jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Adabiyot darslarida interfaol metodlar, muammoli ta'lim, klaster, aqliy hujum, bahs-munozara hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkuri, mustaqil fikrlashi va tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *badiiy asar, adabiyot ta'limi, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, innovatsion yondashuv, tahliliy fikrlash, muammoli ta'lim.*

Annotation: this article discusses the theoretical and practical foundations of using modern pedagogical technologies in the analysis of literary works. The role of interactive methods, problem-based learning, clustering, brainstorming, debates, and information and communication technologies in developing students' aesthetic thinking, independent reasoning, and analytical skills is analyzed.

Key words: *literary work, literature education, pedagogical technologies, interactive methods, innovative approach, analytical thinking, problem-based learning.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретические и практические основы использования современных педагогических технологий в процессе анализа художественных произведений. Проанализирована роль интерактивных методов, проблемного обучения, кластерного подхода, мозгового штурма, дискуссий, а также информационно-коммуникационных технологий в развитии эстетического мышления, самостоятельности и аналитических навыков учащихся.

Ключевые слова: *художественное произведение, литературное образование, педагогические технологии, интерактивные методы, инновационный подход, аналитическое мышление, проблемное обучение.*

Kirish. Barchamizga ma'lumki, so'nggi yillarda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishni talab qilmoqda. Shubhasiz ushbu holat ta'lim jarayonining rivojiga hamda yosh avlodning o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qiladi. Ayniqsa, ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda badiiy asarlarni chuqur tahlil qilish, o'quvchilarning estetik didini shakllantirish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois badiiy asar tahlilida an'anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism. Dastlab badiiy asar tushunchasining zamiriga e'tibor qaratsak. Badiiy asar yozuvchi yoki ijodkorning hayot voqealarini, insoniy his-tuyg'ular va ichki kechinmalarini estetik jihatdan idrok etib, turli badiiylik mezonlari hamda obrazlar vositasida yaratgan ijod mahsulidir. Badiiy asar haqida so'z ketar ekan, adabiyotshunos Dilmurod Quronov unga shunday ta'rif beradi: "Badiiy adabiyot va san'at badiiy asar shaklida yashaydi, shunga ko'ra, badiiy asar adabiyot va san'atning yashash shakli hisoblanadi"[1:96]. Bundan tashqari dramaturg va adabiyotshunos Izzat Sulton o'zining "Adabiyot nazariyasi" asarida: "Har qanday badiiy asar xuddi "O'tkan kunlar" romani kabi, bizni hayajonga soladi, ya'ni u ta'sirchanlik xususiyatiga ega. Badiiy asarning bu xususiyati uning o'ziga xosligining eng kuchli tomonini tashkil etadi. O'zi ifoda etgan fikr va hislar bilan o'quvchi yoki tomoshabinni ta'sirlantiradigan, hayajonga soladigan badiiy asarlarnigina haqiqiy san'at asari, deb hisoblash mumkin"[2:68]. Darhaqiqat yuqorida ta'kidlanganidek, badiiy asar kitobxonni qaysidir ma'noda mahv etishi lozim.

Badiiy asardagi ta'sirchanlik mezonining shakllanishi uchun esa, shubhasiz, tahlil muhim sanaladi. Badiiy asar tahlili adabiyot ta'limining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning asar mazmuni, g'oyasi, obrazlar tizimi va badiiy tasvir vositalarini anglashiga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Sababi, pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning

natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonidir. Shunday ekan, bugungi kunda ta'lim muassasalarida dars tashkil etish uchun asosiy poydevor ham aynan zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Bu borada muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ham fikrlari mavjud: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi".

Kelajagimiz vorislari bo'lmish yoshlar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va interfaol metodlar orqali o'quv jarayonini olib borish, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish har tomonlama rivojlanish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Interfaol metodlar badiiy asarni o'rganishda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Masalan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Venn diagrammasi", "Bahs-munozara", "Insert" kabi metodlar asarni tahlil qilishda o'quvchilarning fikrlash faolligini oshiradi. Natijada ular asar voqealariga mustaqil munosabat bildirish, qahramonlar xarakterini tahlil qilish va muallif g'oyasini anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham badiiy asar tahlilining samaradorligini oshiradi. Elektron taqdimotlar, videoroliklar, audio materiallar va elektron darsliklar yordamida asar mazmunini yanada ta'sirchan tarzda yetkazish mumkin. Bu esa o'quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytiradi va mavzuni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, loyiha asosida o'qitish texnologiyasi ham badiiy asarlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar ma'lum bir asar yoki yozuvchi ijodi yuzasidan mustaqil tadqiqot olib borib, natijalarini taqdim etadilar. Mazkur holat ularda izlanish, tahlil qilish va taqdimot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Interaktiv testlar yaratuvchi mashhur Quizlet yoki Kahoot texnologiyasi yordamida asardagi vaziyatlarni tahlil qilish uchun mantiqiy savollar tuzish orqali tahlilni amalga oshirish ham foydali usullardan biri sanaladi. O'quvchilar qahramonlar faoliyatiga baho berish, muammolarning yechimini topish va o'z nuqtayi nazarlarini asoslashga o'rganadilar. Natijada tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

Yuqorida sanalgan metodlarni 9-sinfning 2025-yilda nashrdan chiqqan adabiyot darsligidagi "Chinor" romani tahlilida ko'rib chiqamiz. Asqad Muxtorning "Chinor" romani inson taqdiri, avlodlar davomiyligi, milliy qadriyatlar va ma'naviy meros masalalarini yorituvchi yirik epik asardir. Asarni tahlil qilishda quyidagi zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalardan foydalanish samarali natija beradi. 1. Qiyosiy diagramma tuzish – bunda asardagi qahramonlar aniqlanib ularning o'xshash va farqli jihatlari o'quvchilar tomonidan aniqlanadi. Natijada, bolalar yozuvchi asar orqali nima demoqchi bo'lganini anglashga harakat qilishadi, ya'ni qaysidir ma'noda oqni qoradan ajratishni o'rganishadi. Masalan, darslikdagi roman parchasida berilgan qahramonlar: Ochil bobo, Akbarali, Bektemir, Azimjon va boshqalar. 2. Mustaqil loyiha yaratish – asardagi muammoli holatlar aniqlanadi va aslida nima qilganda bunday halokatlar bo'lmasligi yoritib beriladi. Ushbu loyiha hammaning fikrlash doirasi hamda dunyoqarashi asosida erkin shakllantiriladi. Buni yakka holda yoki guruhli tarzda ham amalga oshirish mumkin. Maktablarda vaqt taqsimotini hisobga oladigan bo'lsak, guruhli tarzda amalga oshirish maqbuldir. 3. Aqliy hujum orqali tahlil qilish, ya'ni o'qituvchi romanda ishtirok etgan ramziy obrazlar va ishltilgan birliklarni berib shu asosida bolalardan kichik taqdimot tayyorlashini vazifa sifatida berish. Misol uchun: "Nima uchun muallif asarga chinor daraxti nomini berdi yoki nima uchun Akbarali qissasi nomli qismi boshlanmasida Nasriddin Afandining: "Eng dahshatli yirtqich – quyon", m – degan so'zlaridan foydalanildi?"

Xulosa qilib aytganda, badiiy asar tahlilida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha va keys-stadi usullari o'quvchilarning adabiy bilimlarini mustahkamlash, mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash bugungi kunning muhim talablaridan hisoblanadi. Zero, ta'lim jarayoni uchun amalga oshirilgan har qanday masala kelajak uchun ustun vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent
2. Izzat Sulton. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2005
3. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2019
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent, 2013
5. 9-sinf Adabiyot darsligi. "Chinor" romani (48-bet). – Toshkent, 2025O'zbekiston Respublika Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi.

Oybarchin XUSANOVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti 1-bosqich magistranti
ORCID: 0009-0006-5084-824
xusanovaoybarchin@gmail.com

INTERNET TILINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada internet tilining shakllanish bosqichlari hamda uning lingvistik tabiati kompleks yondashuv asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda diaxron, qiyosiy-tahliliy va diskursiv metodlardan foydalanilib, elektron yozishmalar, forum diskursi, ijtimoiy tarmoqlar va messenjer platformalariga oid matnlar korpusi o‘rganildi. Olingan natijalar internet tilining evolyutsion rivojlanishi bir necha bosqichni qamrab olishini, xususan, dastlabki texnogen-kommunikativ muhitdan ommaviy raqamli diskursgacha bo‘lgan jarayonda yangi leksik, grafik va semantik birliklar shakllanganini ko‘rsatdi; qisqartmalar, emotiv belgilar, memetik birliklar va kod-aralash hodisalarning faolligi aniqlandi. Tahlillar internet tilining ochiq, dinamik va adaptiv tizim sifatida global kommunikativ makonda faol amal qilishini hamda tillararo va madaniyatlararo integratsiyani jadallashtiruvchi omil ekanini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: *internet tili, diskurs, diaxroniya, lingvistik innovatsiya, raqamli kommunikatsiya, memetika, globalizatsiya*

Annotation: this article analyzes the stages of the formation of Internet language and its linguistic nature through a comprehensive approach. The research employs diachronic, comparative-analytical, and discursive methods, examining a corpus of texts related to electronic correspondence, forum discourse, social networks, and messenger platforms. The obtained results demonstrate that the evolutionary development of Internet language encompasses several stages; in particular, new lexical, graphic, and semantic units emerged during the transition from the initial technogenic-communicative environment to mass digital discourse. The study also identifies the active use of abbreviations, emotive symbols, memetic units, and code-mixing phenomena. The analyses substantiate that Internet language functions as an open, dynamic, and adaptive system within the global communicative space and serves as a factor accelerating interlingual and intercultural integration.

Key words: *Internet language, discourse, diachrony, linguistic innovation, digital communication, memetics, globalization.*

Аннотация: в данной статье на основе комплексного подхода анализируются этапы формирования интернет-языка и его лингвистическая природа. В исследовании использованы диахронический, сравнительно-аналитический и дискурсивный методы; изучен корпус текстов, относящихся к электронной переписке, форумному дискурсу, социальным сетям и платформам мессенджеров. Полученные результаты показали, что эволюционное развитие интернет-языка охватывает несколько этапов; в частности, в процессе перехода от первоначальной техногенно-коммуникативной среды к массовому цифровому дискурсу сформировались новые лексические, графические и семантические единицы. Выявлена активность сокращений, эмотивных символов, меметических единиц и явлений смешения кодов. Проведённый анализ обосновывает, что интернет-язык функционирует как открытая, динамичная и адаптивная система в глобальном коммуникативном пространстве, а также выступает фактором, ускоряющим межъязыковую и межкультурную интеграцию.

Ключевые слова: интернет-язык, дискурс, диахрония, лингвистическая инновация, цифровая коммуникация, меметика, глобализация.

Kirish. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insoniyat hayotining barcha sohalarida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, global tarmoq sifatida internetning keng tarqalishi kommunikativ jarayonlarning shakli va mazmuniga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Natijada an’anaviy til tizimidan farq qiluvchi, o‘ziga xos lingvistik va pragmatik xususiyatlarga ega bo‘lgan internet tili shakllandi. Mazkur hodisa tilshunoslikda yangi tadqiqot yo‘nalishlarining, xususan, raqamli kommunikatsiya va diskurs tahlilining rivojlanishiga zamin yaratdi.

Internet – bu faqat texnologik infratuzilma emas, balki o‘ziga xos til va kommunikatsiya madaniyatini shakllantirgan ijtimoiy fenomendir. Zamonaviy dunyoda internet tili endi tor texnik doira bilan cheklanmay, millionlab odamlarning kundalik muloqotiga singib ketgan. Bu til o‘zining qisqa tarixi davomida shunchalik tez rivojlandiki, lingvistlar uni “eng tez o‘zgaruvchan til hodisalaridan biri” deb atashmoqda.

Internet tili dastlab elektron pochta va forumlar doirasida yuzaga kelgan bo‘lsa, keyinchalik ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va messenjer platformalarining ommalashuvi bilan yanada kengayib, murakkab kommunikativ tizimga aylandi. Ushbu jarayonda til birliklarining qisqarishi, grafik belgilar (emotikonlar, emoji), memetik konstruksiyalar hamda kod-aralash hodisalarning faol qo‘llanilishi kuzatiladi. Bu esa

internet tilining nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham ahamiyatini oshiradi.

Shu bilan birga, internet tilining shakllanish bosqichlarini tizimli ravishda o‘rganish, uning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash hamda zamonaviy kommunikativ makondagi o‘rnini belgilash dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlarda internet tilining ayrim jihatlari yoritilgan bo‘lsa-da, uning evolyutsion taraqqiyoti va bosqichma-bosqich shakllanishi yetarli darajada kompleks tahlil etilmagan.

Adabiyotlar sharhi.XI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida til tizimida yangi hodisa – internet tili shakllandi. Internet tili an’anaviy yozma va og‘zaki nutq elementlarini o‘zida mujassam etgan holda, qisqartmalar, emojilar, transliteratsiya va gibrid shakllar orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu hodisani ilmiy o‘rganish lingvistikaning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotchilar internet tilini ijtimoiy-lisoniy jarayon sifatida talqin etadilar. Jumladan, D. Crystal internet tilini “yangi kommunikativ muhitda shakllangan va o‘ziga xos grafik, leksik hamda sintaktik xususiyatlarga ega til shakli” deb ta’riflaydi (2006). Shuningdek, internet tili globalizatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, turli tillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni kuchaytiradi.

Internet tilining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. D. Crystal o‘zining “Language and the Internet” asarida internet tilining quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatadi: tezkorlik, qisqalik va multimodallik. U shunday yozadi: “Internet language is neither purely written nor purely spoken; it is a hybrid form shaped by the demands of electronic communication” (Internet tili na to‘liq yozma, na to‘liq og‘zaki nutq hisoblanadi; u elektron muloqot ehtiyojlari asosida shakllangan gibrid til shaklidir) (2006).

N. Baron esa internet tilini ijtimoiy muhit bilan bog‘lab, uning evolyutsion xarakterga ega ekanligini ta’kidlaydi: “Digital communication reshapes linguistic norms, often privileging efficiency over formality” (Raqamli kommunikatsiya til me’yorlarini qayta shakllantiradi va ko‘pincha rasmiylikdan ko‘ra samaradorlikni ustun qo‘yadi) (2008). Bu fikr internet tilida qisqartmalar va norasmiy birliklarning keng qo‘llanishini izohlaydi.

Shuningdek, S. Herring kompyuter vositasidagi muloqot (CMC – Computer-Mediated Communication) doirasida internet tilini tahlil qilib, uning diskursiv xususiyatlarini ochib beradi. Unga ko‘ra: “CMC discourse reflects both technological constraints and user creativity) (2004).

Mahalliy tadqiqotlarda ham internet tiliga e’tibor kuchaymoqda. O‘zbek tilshunoslari internet tilining milliy xususiyatlarini o‘rganib, unda ingliz tilidan kirib kelgan birliklar, transliteratsiya va kod-almashish jarayonlarini qayd etadilar. Masalan, ayrim tadqiqotlarda internet tilida “chatlashmoq”, “post joylamoq” kabi yangi so‘z yasash modellari shakllanayotgani ta’kidlanadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, internet tili:

- gibrid til shaklidir;
- tezkor va iqtisodiy kommunikatsiyani ta’minlaydi;
- global va lokal til unsurlarini uyg‘unlashtiradi;
- doimiy ravishda rivojlanib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: tavsifiy metod – internet tilining lingvistik xususiyatlarini aniqlash uchun. Qiyosiy metod – an’anaviy yozma til bilan internet tilini taqqoslashda qo‘llanildi. Diskurs tahlili – ijtimoiy tarmoqlar va chat platformalaridagi matnlarni o‘rganishda ishlatildi. Korpus tahlili elementi – internet matnlaridan olingan misollar asosida umumlashmalar chiqarildi. Tadqiqot materiali sifatida ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Twitter/X, Instagram), forumlar va bloglardan olingan yozishmalar xizmat qildi.

Natija va muhokamalar. Olib borilgan tadqiqotlar va empirik materiallar (ijtimoiy tarmoqlar, chat yozishmalari, forum matnlari) tahlili natijasida internet tilining shakllanishi bosqichma-bosqich rivojlanganligi aniqlandi. Ular quyidagilar:

Bosqich	Davr	Asosiy texnologik omillar
Texnik boshlanish davri	1969–1985	ARPANET, elektron pochta, buyruq satri interfeysi (CLI)
Ommaviy tarqalish davri	1985–1995	Shaxsiy kompyuterlar, AOL, CompuServe, e-mail tizimlari
World Wide Web va grafik internet davri	1995–2004	WWW, Mosaic brauzeri, IRC, ICQ, MSN Messenger, blog platformalari
Ijtimoiy tarmoqlar davri	2004–2015	Facebook, Twitter, Instagram, meme madaniyati, Unicode emoji
Mobil internet va messenjerlar davri	2007–hozirgacha	Smartfonlar, WhatsApp, Telegram, TikTok
Sun’iy intellekt davri	2020–hozirgacha	ChatGPT, Claude, LLM texnologiyalari

Internet tilining rivojlanish jarayoni insoniyatning raqamli kommunikatsiyaga moslashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir. Dastlab internet faqat texnik va ilmiy doiralarda qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik u global kommunikatsiya vositasiga aylanishi natijasida o‘ziga xos lingvistik tizimni shakllantirdi. Internet tilining evolyutsiyasi texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda jamiyatning kommunikativ ehtiyojlari, madaniy o‘zgarishlari hamda yangi media shakllarining paydo bo‘lishi bilan izohlanadi.

1969–1985-yillarni qamrab olgan “texnik boshlanish” davrida internet tili asosan dasturchilar va texnik mutaxassislar o‘rtasidagi yozishmalarda shakllandi. Ushbu bosqichning asosiy xususiyati kommunikatsiyaning ixcham va funksional xarakterga ega bo‘lishidir. Aynan shu davrda FYI (For Your Information), BTW (By The Way) kabi qisqartmalar ommalashib, keyinchalik internet kommunikatsiyasining ajralmas qismiga aylandi. Buyruq satri interfeysi (CLI) qisqa va aniq yozishni talab qilgani sababli ixcham ifoda usuli internet tilining asosiy tamoyillaridan biri sifatida shakllandi. Shuningdek, lotin alifbosi hamda ASCII belgilar tizimining standartlashuvi global internet kommunikatsiyasi uchun yagona yozuv asosini yaratdi. 1971-yilda Ray Tomlinson tomonidan elektron pochta tizimining yaratilishi internet tarixida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Ayniqsa, @ belgisi foydalanuvchi nomi va manzilni ajratish vositasi sifatida qo‘llanilib, keyinchalik internetning universal ramziga aylandi.

1985–1995-yillarda internetning ommaviylashuvi internet tilining ijtimoiylashuv bosqichini boshlab berdi. Shaxsiy kompyuterlarning keng tarqalishi hamda AOL va CompuServe kabi xizmatlarning paydo bo‘lishi internetdan oddiy foydalanuvchilarning ham foydalanishiga imkon yaratdi. Natijada internet tili faqat texnik vosita emas, balki kundalik kommunikatsiya shakliga aylandi. Ushbu davrda yozma muloqotda hissiyot va ohangni ifodalash muammosi yuzaga keldi. Bunga javoban 1982-yilda Scott Fahlman tomonidan :-) va :-(emotikonlari taklif qilindi. Bu hodisa raqamli kommunikatsiyada his-tuyg‘ularni ifodalashning yangi bosqichini boshlab berdi. Shu bilan birga, Caps Lock yordamida yozish orqali “baqirish” ma’nosini ifodalash kabi norasmiy kommunikativ normalar shakllandi. Bu esa internet tilining o‘ziga xos pragmatik qoidalari paydo bo‘layotganidan dalolat beradi.

1995–2004-yillarda World Wide Web texnologiyasining rivojlanishi internet tilining ommaviy madaniyatga aylanishiga sabab bo‘ldi. Tim Berners-Lee tomonidan yaratilgan WWW hamda Mosaic brauzerining paydo bo‘lishi internetni matnli tizimdan multimediaviy platformaga aylantirdi. Giperhavola (hyperlink) tushunchasi matnni qabul qilish va o‘qish usulini o‘zgartirib yubordi. “Click here” yoki “Visit our website” kabi iboralar internet diskursining yangi lingvistik birliklariga aylandi. IRC, ICQ va MSN Messenger platformalarining ommalashuvi esa real vaqt rejimidagi muloqotni kuchaytirdi. Tez yozish eht3iyoji LOL, BRB, AFK, OMG kabi qisqartmalarni keng yoyilishiga olib keldi. Muhimi shundaki, ushbu birliklar keyinchalik og‘zaki nutqqa ham kirib bordi va yozma internet tilining kundalik nutqqa ta’sirini namoyon etdi.

1990-yillarning oxiri hamda 2000-yillarning boshida blog madaniyatining shakllanishi internet tiliga individual uslub va shaxsiy ovoz elementlarini olib kirdi. Blogger, LiveJournal va WordPress platformalari oddiy foydalanuvchilarga ommaviy auditoriyaga murojaat qilish imkonini yaratdi. Natijada internet tilida submadaniyatlar va individual identifikatsiya kuchaydi.

2004–2015-yillar oralig‘i ijtimoiy tarmoqlar davri sifatida internet tilining eng faol transformatsiya bosqichi hisoblanadi. Facebook, Twitter va Instagram kabi platformalar internetni nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy va madaniy maydonga aylantirdi. Twitter’dagi belgilar sonining cheklanishi foydalanuvchilarni qisqa, lekin mazmunli ifoda yaratishga undadi. Shu davrda hashtag (#) belgisi global kommunikativ vositaga aylandi. Bundan tashqari, memlar madaniyati internet tilining yangi fenomeni sifatida shakllandi. “Lolspeak” yoki “Doge” kabi mem formatlari ataylab grammatik normalarni buzish orqali o‘ziga xos stilistik uslub yaratdi. Bu hodisa internet tilida kreativlik va norasmiylikning kuchayganini ko‘rsatadi.

Emoji’larning Unicode tizimiga kiritilishi esa internet tilining vizual qatlamini mustahkamladi. Emoji endi faqat hissiyot ifodasi emas, balki mustaqil ma’no birligi sifatida qo‘llanila boshlandi. Ayrim hollarda emoji ketma-ketliklari butun gap yoki murakkab fikrni ifodalash imkonini berdi. Shu sababli emoji zamonaviy raqamli kommunikatsiyaning yangi semiotik tizimi sifatida baholanmoqda.

2007-yildan keyingi mobil internet va messenjerlar davrida internet tili yanada tezkor va norasmiy tus oldi. Smartfonlarning ommalashuvi internet kommunikatsiyasini inson hayotining doimiy qismiga aylantirdi. WhatsApp va Telegram kabi messenjerlarda guruh kommunikatsiyasining rivojlanishi natijasida har bir guruhning o‘ziga xos jargon va ichki til tizimi shakllandi. Ovozli va video xabarlarning keng qo‘llanilishi esa internet tilini multimodal kommunikatsiya shakliga olib keldi.


TikTok kabi qisqa video platformalarining paydo bo‘lishi internet tilining yangi bosqichini boshlab berdi. Endilikda kommunikatsiya matn bilan cheklanmay, musiqa, ovoz, tasvir va harakat uyg‘unligida amalga oshirilmoqda. “POV”, “duet”, “stitch” kabi yangi formatlar internet kommunikatsiyasining yangi media grammatikasini shakllantirdi.

2020-yildan boshlangan sun’iy intellekt davri internet tilining yana bir transformatsion bosqichi sifatida namoyon

bo‘lmoqda. ChatGPT va boshqa yirik til modellari bilan muloqot inson tilining yangi funksiyasini yuzaga chiqardi. “Prompt engineering”, “hallucination”, “fine-tuning” kabi terminlarning ommalashuvi internet tilining ilmiy-texnik qatlamini kengaytirdi. Endilikda til nafaqat insonlar o‘rtasidagi aloqa vositasi, balki sun’iy intellektni boshqarish va unga topshiriq berish vositasi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

Hozirgi kunda qo‘llanishi:

- Internet foydalanuvchilari dunyo aholisining taxminan 68–74% internetdan foydalanadi.
- Ijtimoiy tarmoqlar: global aholining ~64% ijtimoiy tarmoqlarda faol.
- Emoji ishlatilishi: onlayn muloqotlarning 90%+ qismida emoji yoki vizual reaksiyalar ishlatiladi.
- Messenjerlar: WhatsApp, Telegram, Messenger kabi platformalardan internet foydalanuvchilarining katta qismi foydalanadi; WhatsApp’ning o‘zi 3.5 mlrd akkauntga ega.
- AI chatbotlar: AQSH kattalarining 34% ChatGPT ishlatganini bildirgan; global foydalanish tez o‘smoqda.
- Internet qisqartmalari: LOL, OMG, BRB kabi birliklar kundalik yozishmalarda keng qo‘llanadi.
- Mobil internet: internetga kirishning asosiy qismi smartfonlar orqali amalga oshiriladi (~95%).



Shunday qilib, internet tilining rivojlanishi texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda jamiyatning kommunikativ ehtiyojlari va madaniy transformatsiyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Internet tili bugungi kunda global kommunikatsiyaning eng dinamik va tez o‘zgaruvchi shakllaridan biri sifatida zamonaviy tilshunoslikning muhim tadqiqot obyektiga aylangan.

XULOSA. Internet tilining shakllanish tarixi – bu faqat texnik terminlarning ko‘payishi emas, balki insoniyatning yangi muloqot ehtiyojlariga moslashuv jarayonidir. ARPANET qisqartmalaridan emoji va AI-promptlargacha bo‘lgan bu yo‘l, tilning naqadar moslashuvchan va innovatsion hodisa ekanligini namoyon etadi.

Har bir texnologik to‘lqin o‘z til to‘lqinini ham olib keldi. Elektron pochta rasmiy yozishma uslubini o‘zgartirdi; chat xonalari qisqartmalar madaniyatini yaratdi; ijtimoiy tarmoqlar hashtag va meme tilini shakllantirdi; mobil internet muloqotni yanada tez va multimodal qildi; sun’iy intellekt esa yangi insoniyat-mashina tilini vujudga keltirayapti.

Foydalanilgan adabiyotlar

Baym, N. K. (2015). *Personal connections in the digital age (*2nd ed.). Polity Press.
Dawkins, R. (1976). *The selfish gene.* Oxford University Press.
Herring, S. C. (2007). *A faceted classification scheme for computer-mediated discourse.* Language@Internet, 4.
O‘zbekiston Milliy Universiteti. (2020–2024). O‘zbek tilshunosligida internet tili tadqiqotlari. Ilmiy to‘plam.
Shea, V. (1994). *Netiquette.* Albion Books.
Thurlow, C., & Mroczek, K. (Eds.). (2011). *Digital discourse: Language in the new media.* Oxford University Press.

E’zoza JUMABOYEVA,
CHDPU, o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.
ezozaabduzakhidovna@mail.com
Ilmiy rahbar: O‘.R.Saidov, f.f.f.d. (PhD)

O‘ZBEK TILIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING KIRIB KELISH TURLARI VA MANBALARI

Annotatsiya: o‘zbek tili so‘z va ma’no boyligi jihatidan dunyo tillari orasida munosib o‘rin egallaydi. Tilimizdagi so‘zlar tarixiy taraqqiyot bosqichlarida shakllanib, sayqallanib borgan. Shu bilan birga, turli chet tillardan ko‘plab so‘zlar o‘zlashgan.Bunday o‘zlashma so‘zlar globallashuv davrida rivojlangan mamlakatlar bilan madaniy, ilmiy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada o‘zlashma so‘zlar turlari va manbalari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zlashma so‘z, lug‘at, rus tili, ingliz tili, arab tili, o‘zbek tili, ta’lim, globalizatsiya.*

Аннотация:узбекский язык занимает достойное место среди языков мира по своему словарному и смысловому богатству. Слова в нашем языке формировались и совершенствовались на протяжении исторического развития. Наряду с этим, в узбекский язык проникло множество слов из различных иностранных языков. Такие заимствованные слова в эпоху глобализации способствуют укреплению культурных, научных и общественных связей с развитыми странами. В данной статье рассматриваются виды, источники и роль заимствованных слов в узбекском языке.

Ключевые слова: *заимствованное слово, словарь, русский язык, английский язык, арабский язык, узбекский язык, образование, глобализация.*

Annotation:the Uzbek language occupies a worthy place among the languages of the world in terms of lexical and semantic richness. The words in the language have been formed and refined throughout the stages of historical development. At the same time, many words from various foreign languages have entered the Uzbek language. Such borrowed words serve to strengthen cultural, scientific, and social relations with developed countries in the era of globalization. This article discusses the types, sources, and role of borrowed words in the Uzbek language.

Key words: *borrowed words, vocabulary, Russian language, English language, Arabic language, Uzbek language, education, globalization.*

Kirish. Ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyot o‘zbek tilining lug‘at tarkibini o‘z ichki manbalari hisobiga boyitib keldi. Bu tizimda o‘z qatlam asosiy omil bo‘lib yangi so‘zlar yaratildi, iste’moldagi so‘zlar ma’nosi kengaydi yoki toraydi. Shu bilan birga til manbalarining rivojlanishida o‘zlashma so‘zlar muhim ahamiyatga ega, chunki ular zamonaviy va yangi tushunchalarni ifodalash, globallashuv davriga moslashish imkonini beradi. Dunyo tillari kabi o‘zbek tili ham tarixiy taraqqiyot davrida ko‘plab o‘zlashma so‘zlarni qabul qilgan. Bunday o‘zgarishlar tilning rivojlanishida nafaqat til boyligini kengaytirish, balki tilning globallashuv jarayonida dunyo tillari bilan integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Sobiq ittifoq davrida kundalik turmush, ilm-fan, texnologiya va ta’limda o‘zlashma so‘zlardan keng qo‘llanilgan bo‘lsa, mustaqillik davrida ingliz tilidan kirib kelgan atamalar xalqaro biznes, aloqa, texnologiyalar bilan bog‘liq sohalarda bevosita ahamiyatga ega bo‘ldi. Bugungi kunda bunday o‘zlashma so‘zlar san’at va madaniyat sohasida ham keng qo‘llanilmoqda. Internetning tez sur’atlarda rivojlanishi natijasida o‘zlashma so‘zlar juda tez iste’molga kirib keldi. Bu esa ona tilining o‘ziga xos jihatlarini saqlab qolish borasida yetarlicha muammolarni keltirib chiqaradi. Jamiyatga bu so‘zlarning singib ketishi, uning xalq orasida qo‘llanilishi, ularning ta’lim, media, ilmiy va siyosiy sohalarda ishlatilishi tilning kelajakdagi istiqboliga katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbek tiliga o‘zlashma so‘zlarning kirib kelishi bir qancha olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Masalan, S.Ismatova o‘z tadqiqotida ingliz va rus tillaridan kirib kelgan so‘zlarning fonetik va morfologik moslashuvini tahlil qilib, bu jarayon milliy til xususiyatlarini saqlashning muhimligini ta’kidlab o‘tadi[1].

B.Tomashevskiy (2006) sobiq sovet ittifoqi davrida rus tilidan kirib kelgan atamalarni, ularning texnologiya, ta’lim va madaniyatga ta’sirini o‘rgangan. Mustaqillik davrida esa, Yuldashev A. (2020) ingliz tilidan kirib kelgan atamalar, ayniqsa, texnologiya va biznes sohasida, til boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlagan. Crystal D. (2003) globalizatsiyaning mahalliy tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga ta’sirini ko‘rsatib, xalqaro atamalarni qabul qilish jarayoni bilan birga, milliy xususiyatlarning yo‘qolish xavfini ham qayd etadi. Bundan tashqari, o‘zbek tilshunosligida o‘zlashma qatlam masalasi A.Hojiyev, M.B.Abdiyev, A.Aliqulovning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Ushbu ilmiy yondashuvlar o‘zlashma so‘zlarning lingvistik moslashuvi, ularning til boyligi va milliy til xususiyatlari mukammal o‘rganilgan.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada o‘zlashma so‘zlarning o‘zbek tiliga kirib kelish jarayoni bir qancha metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Rus va ingliz tillaridan o‘zlashgan so‘zlarni fonetik, morfologik va semantik moslashuv jarayonlarini lingvistik va sotsiolingvistik adabiyotlarni tahlil qilish orqali o‘rganildi. Tadqiqotda mustaqillikdan keyingi davr mobaynida o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlar tadqiq va tahlil qilindi. Bunday integratsiyalangan yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asosini mustahkamlab, o‘zlashma so‘zlarning o‘zbek tilining rivojlanishidagi har tomonlama ta’sirini o‘rganishga xizmat qiladi.

1 Ismatova S. Maqola nomi. – Toshkent: E’zoza nashriyoti, 2025. 45-50– B.

O‘zlashma so‘zlarning o‘zbek tiliga kirib kelishining eng ko‘p miqdori XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Sovet davrida rus tilining dominant bo‘lganligi, keyinchalik esa globallashuv va texnologik taraqqiyot va xalqaro til sifatida ingliz tilining ommalashuvi ko‘plab o‘zlashma so‘zlarning o‘zbek tiliga kirib kelishiga sabab bo‘ldi.

O‘zlashma so‘z tushunchasi. O‘zlashma so‘zlar boshqa tillardan bevosita yoki bilvosita kirib kelgan, talaffuz va struktura jihatidan moslashtirib olingan bo‘lib, iste’molda foydalaniladigan va lug‘at tarkibiga kirgan so‘zlardir. Ular, asosan, madaniy, siyosiy, iqtisodiy aloqalar, texnologik innovatsiyalar natijasida yuzaga keladi. Tilshunoslikda bu tilning dinamiklik va universal xususiyatlarini ochib beruvchi jarayon hisoblanadi. Bu haqida Ra’no Sayfullayeva quyidagicha ta’rif beradi: “Yangi leksika tilda yangi paydo bo‘lgan va yangilik bo‘yog‘i sezilib turgan leksemalardir.Ular ilmiy terminologiyada neologism deb ham yuritiladi. Ya’ni leksema va yangi so‘zni farqlash lozim. Masalan, “kitobchi”, “kompyutershunos”, “zakovatchi” birliklari. Yangi leksika esa tilimizdan joy olgan yangi leksemadan tarkib topadi.”

Turli tillardan tilimizga o‘zlashgan so‘zlar.

Arab tilidan- kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, ma’no, ilhom, kasb, qassob, san’at, asbob, bino, imorat, ovqat, g‘alla, fil, parranda, hasharot, inson, odam, oila, amma-xola, dimog‘, idora kabi.

Rus tilidan – stol, stul, telefon, tramvay, bank, kredit, aeroplan, fabrika, pochta, zavod kabi.

Ingiliz tilidan – dizayn, marketing, komfort so‘zlari kirib kelgan. Har bir turdagi so‘zlarning ko‘payishi va ma’nosining kengayishi natijasida tilning lug‘at tarkibi yanada boyigan. Bu turdagi so‘zlarning lug‘at tarkiblariga qo‘shilishida manbalarning ham ahamiyati katta. O‘zlashma so‘zlar qanday til tarkibiga qo‘shilganligiga qarab turlarga ajratilgan. Bular: to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashgan so‘zlar, kalkalar (so‘zma-so‘z tarjima qilingan so‘z va so‘z birikmalari), xalq etimologiyasi ta’siridagi o‘zlashmalar, semantik o‘zlashmalar hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashgan so‘zlar – talaffuzi milliy tilga yaqinlashib ketgan bo‘lishiga qaramay shaklan tanib olish mumkin bo‘lgan so‘zlardir.

Masalan, radio, telefon, ofis, taksi, restoran, futbol, bank, biznes va boshqalar;

Kalkalar (so‘zma-so‘z tarjima qilingan so‘z va so‘z birikmalari)- mazmun boshqa tilga tegishli, lekin shaklan o‘z til birliklariga ega o‘zlashmalar.

Masalan, ish stoli rus tilida “рабочий стол” kabi.

Xalq etimologiyasi ta’siridagi o‘zlashmalar – xalq tomonidan o‘zlashtirilgan, lekin aslidan boshqacharoq talaffuz qilinadigan so‘zlar.

Masalan, samalyot- samolyot, kompyuter- kampyutr kabi.

Semantik o‘zlashmalar – tilda mavjud so‘zning ma’no ko‘lamining kengayishi hisoblanadi.

Masalan, “Sichqoncha” tilda mavjud bo‘lgan so‘z, lekin “kompyuter sichqonchasi” ma’nosini ham olgan. “Oyna” tilda deraza oynasi ma’nosida qo‘llanilgan, keyinchalik “display, ekran” ma’nosini ham olgan.

Har bir turdagi so‘zlarning ko‘payishi va ma’nosining kengayishi natijasida tilning lug‘at tarkibi yanada boyigan. Bu turdagi so‘zlarning lug‘at tarkiblariga qo‘shilishida manbalarning ham ahamiyati katta.

Xulosa. O‘zlashma so‘zlar o‘zbek tilining lug‘at boyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida arab, rus, ingliz va boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar tilimizning rivojlanishi hamda zamonaviy tushunchalarni ifodalash imkoniyatlarini kengaytirdi. Ayniqsa, globallashuv, ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi natijasida yangi atama va tushunchalarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Shu bilan birga, o‘zlashma so‘zlarning tilimizga moslashuvi fonetik, morfologik va semantik jihatdan muhim jarayon hisoblanadi. Bunday so‘zlar millatlararo madaniy, ilmiy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilsa-da, ona tilining milliy xususiyatlarini saqlab qolish masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Demak, o‘zlashma so‘zlardan o‘rinli va me’yor asosida foydalanish o‘zbek tilining boyishi va taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidov O‘.R. Amaliy tilshunoslik. – Toshkent: “Zebo print” nashriyoti, 2025. 350-b.

2. SAIDOV, U. (2023, June). *Statistical Description of Professional Terms Given in “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language”.* JOURNAL OF ADVANCED LINGUISTIC STUDIES.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=a2ic-oEAAAAJ&citation_for_view=a2ic-oEAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC

3. Saidov, U. R. (2023, March). *Ish yuritish terminlarini til korpusida semantik razmetkalash (antonim va omonim ish yuritish terminlari misolida).* Academic research in educational sciences.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=a2ic-oEAAAAJ&citation_for_view=a2ic-oEAAAAJ:2osOgNQ5qMEC

4. Saidov, U. R. (2024, May). *O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi ish yuritishga oid terminlar ustida ishlash tamoyillari.* O‘zbekiston milliy axborot agentligi – O‘zA ilm-fan bo‘limi (Elektron jurnal).
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=a2ic-oEAAAAJ&citation_for_view=a2ic-oEAAAAJ:IjCSPb-OGe4C

5. Saidov, U. (2022). Requirements for linguistic classification of business terms. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10 (9), 300-304.

Gulnoza OYBOLOYEVA,
Namangan davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura bo‘limi 2-bosqich magistranti
goybolayeva@gmail.com



O‘ZBEK TILIDA O‘XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI (NASRIY ASARLAR MISOLIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek badiiy nasridagi o‘xshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlari tadqiq etilgan.Nasriy asarlar misolida o‘xshatishlarning milliy-madaniy mentalitet, xalq urf-odatlari va dunyoqarashini ifodalashdagi o‘rni tahlil qilingan.Tadqiqot davomida o‘xshatishlarning nafaqat badiiy-estetik vazifasi, balki o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi lisoniy vosita ekanligi asoslab berilgan. Olingan natijalar o‘zbek tili lingvokulturologiyasi va frazeologiyasi sohasidagi tasavvurlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, o‘xshatish, badiiy nasr, milliy mentalitet, madaniy kod, ko‘chma ma’no, lisoniy manzara.*

Аннотация: в данной статье исследуются лингвокультурологические особенности сравнений в узбекской художественной прозе. На примере прозаических произведений анализируется роль сравнений в выражении национально-культурного менталитета, народных обычаев и мировоззрения. В ходе исследования обосновано, что сравнения выполняют не только художественно-эстетическую функцию, но и служат языковым средством, отражающим национальные ценности узбекского народа. Полученные результаты способствуют расширению представлений в области лингвокультурологии и фразеологии узбекского языка.

Ключевые слова: *лингвокультурология, сравнение, художественная проза, национальный менталитет, культурный код, переносное значение, языковая картина мира.*

Annotation: this article investigates the linguacultural characteristics of similes in Uzbek fiction prose. Using examples from prose works, the role of similes in expressing national-cultural mentality, folk customs, and worldview is analyzed. The study demonstrates that similes serve not only an artistic-aesthetic function but also act as linguistic tools reflecting the national values of the Uzbek people. The findings contribute to expanding perspectives in the field of Uzbek linguacultural studies and phraseology.

Key words: *linguacultural studies, simile, fiction prose, national mentality, cultural code, figurative meaning, linguistic picture of the world.*

Kirish.O‘xshatish tilning badiiy-ifodaviy vositalaridan biri bo‘lib, u orqali bir predmet yoki hodisaning muayyan belgisi boshqa bir predmet bilan qiyoslab tasvirlanadi.Bunday qiyoslash inson tafakkuriga xos bo‘lib, atrof-muhitni tushunish va izohlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqda o‘xshatishdan foydalanish fikrni oddiy bayon qilishdan ko‘ra aniqroq va ta’sirchanroq ifodalash imkonini beradi. O‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi.Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo‘ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. M.I.Cheremisina o‘xshatishni morfologik yoki lug‘aviy emas, balki sintaktik konstruksiya deb baholaydi, chunki o‘xshatish uchun bittagina so‘z yoki shakl kamlik qiladi. Shuningdek, ular orqali ifodalangan milliy-madaniy mazmun va muallif uslubining o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi. Shu asosda, keyingi satrlarda tanlangan asarlardagi o‘xshatishlar misollar asosida batafsil tahlil qilinib, ularning badiiy matndagi o‘rni va ahamiyati ochib beriladi.

Adabiyotlar tahlili: “Daraxtlarning barglari qo‘rg‘oshindan quyilgandek vazmin sollanib turadi” (Shuhrat “Oltin zanglamas”) –avvalo, gapda o‘xshatish (simile) vositasi qo‘llangan: “qo‘rg‘oshindan quyilgandek”. Qo‘rg‘oshin — o‘zbek madaniy tasavvurida og‘ir, zich, sovuq metall sifatida qabul qilinadi.Shu sababli bu o‘xshatish barglarning odatdagi yengil va hilpirab turuvchi holatidan farqli ravishda, ularning og‘irlashgan, sust va harakatsiz holatini ifodalash uchun ishlatilgan.Lingvokulturologik nuqtayi nazardan, bu yerda tabiat tasviri orqali insoniy holat yoki ruhiy kechinmalarni anglash mumkin. O‘zbek tilida va madaniyatida tabiat hodisalari ko‘pincha inson ruhiyati bilan uyg‘un holda tasvirlanadi. Barglarning “vazmin sollanishi” — bu nafaqat jismoniy holat, balki ichki sokinlik, og‘irlik yoki hatto ma’yuslikni ham anglatishi mumkin.Shuningdek, “vazmin” so‘zi o‘zbek madaniyatida ijobiy sifat sifatida qaraladi — u jiddiylik, bosiqlik, salobatni bildiradi. Bu esa gapga estetik va madaniy rang bag‘ishlaydi. Barglarning “vazmin” tasvirlanishi tabiatni insoniylashtirish (antropomorfizm) orqali yanada jonlantiradi.

“Ardoqlab oqqa ko‘chirayotgan xatingga siyoh to‘kilgandek yuraging achishadi” (Shuhrat “Oltin zanglamas”) – ushbu gap lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinganda, unda o‘zbek xalqining yozuvga, so‘zga va his-tuyg‘uga bo‘lgan munosabati yaqqol aks etadi. Avvalo, gapda kuchli o‘xshatish (simile) mavjud: “siyoh to‘kilgandek yuraging achishadi”.Bu yerda yozuv jarayoniga oid holat — ya’ni, katta e’tibor va mehr bilan yozilayotgan xatga tasodifan siyoh to‘kilib ketishi — insonning ichki og‘riq holatiga qiyoslanmoqda. O‘zbek madaniyatida xat yozish, ayniqsa, “oqqa ko‘chirish” jarayoni juda mas’uliyatli va hurmatli ish sanaladi. “Ardoqlab” so‘zi esa bu jarayonga mehr, ehtirom va ehtiyotkorlik bilan yondashilayotganini bildiradi. Lingvokulturologik jihatdan, siyohning to‘kilishi — bu faqat jismoniy hodisa emas, balki buzilish, armon, izdan chiqish ramzi sifatida talqin qilinadi.

Shuning uchun ham bu obraz orqali yurakdagi og‘riq, ichki iztirob juda ta’sirchan ifodalangan. Shuningdek, bu gapda yozuv va his-tuyg‘u o‘rtasida chuqur madaniy bog‘liqlik mavjud.O‘zbek tilida “yurak achishishi” iborasi ko‘pincha ruhiy azob, afsus yoki armonni bildiradi. Uni siyoh to‘kilishi bilan qiyoslash esa bu og‘riqning kutilmagan va achinarli ekanini yanada kuchaytiradi.

“Adolat xola tabiatan halimdek yumshoq, shirin so‘z ayol edi.”(Shuhrat “Oltin zanglamas”) –ushbu gap lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinganda, unda o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, ayniqsa, inson fazilatlarini baholash mezonlari va madaniy obrazlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Avvalo, gapda o‘xshatish (simile) mavjud: “halimdek yumshoq”.Halim — o‘zbek milliy taomlaridan biri bo‘lib, u uzoq vaqt davomida pishiriladi va nihoyatda yumshoq, muloyim bo‘ladi. Shu bois, o‘zbek madaniyatida “halimdek yumshoq” iborasi insonning fe’l-atvori — ya’ni uning mehribon, muloyim, ko‘ngli toza ekanini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu yerda oziq-ovqat bilan bog‘liq obraz orqali inson xarakteri tasvirlanmoqda, bu esa lingvokulturologik jihatdan milliy tafakkurning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.Shuningdek, “shirin so‘z” birikmasi ham bevosita ta’m sezgisi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, aslida nutqning yoqimliligi, muloyimligi va odobliligini bildiradi. O‘zbek madaniyatida shirinso‘zlik juda yuqori qadrlanadi va insonning muomala madaniyatining muhim belgisi hisoblanadi.

“Bunga ham qanoat qilmay, uning ketidan mushukdek silliq kirib, shaftoli qoqidek kam go‘sht sekretar xotinga tushuntirdi.” (Shuhrat “Oltin zanglamas”) –ushbu gap lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinganda, unda o‘zbek tiliga xos obrazli tafakkur, kundalik hayotga yaqin tasvir vositalari va inson xarakterini ifodalashda milliy madaniyat unsurlaridan foydalanish yaqqol ko‘rinadi.Avvalo, gapda bir nechta o‘xshatishlar (simile) mavjud. Birinchisi — “mushukdek silliq kirib”.Mushuk o‘zbek xalq tasavvurida epchil, sezgir va juda ehtiyotkor harakat qiluvchi jonivor sifatida qaraladi. Shu bois bu o‘xshatish orqali shaxsning sezdirmay, ohista va ayyorona harakat qilgani ifodalangan. Bu yerda hayvon obrazi orqali inson xatti-harakatiga baho berilmoqda.

Ikkinchi o‘xshatish — “shaftoli qoqidek kam go‘sht”. Shaftoli qoqi — quritilgan meva bo‘lib, u odatda yupqa, suvsiz va kam hajmli bo‘ladi. O‘zbek madaniyatida bu obraz orqali insonning ozg‘in, nozik yoki juda kam go‘shtli ekanini ifodalash odatiy hisoblanadi. Bu esa kundalik turmush va oziq-ovqat bilan bog‘liq tajriba asosida shakllangan lingvokulturologik birlikdir.

“Darslik bilan kifoyalanish jo‘jalarni katakda boqishdek gap” (Shuhrat “Oltin zanglamas”) – gapda o‘xshatish (simile) mavjud: “jo‘jalarni katakda boqishdek”.Jo‘ja o‘zbek madaniyatida hali rivojlanmagan, parvarishga muhtoj mavjudot sifatida qaraladi. Uni “katakda boqish” esa cheklangan muhitda saqlash, erkinlik bermaslik, tabiiy rivojlanishga to‘sqinlik qilish ma’nolarini anglatadi.Bu obraz orqali insonning bilim olish jarayoni tor doirada qolib ketishi tanqid qilinmoqda.

“Darslik bilan kifoyalanish” iborasi esa faqat kitobiy bilim bilan chegaralanib qolishni bildiradi.O‘zbek lingvokulturasida esa haqiqiy bilim — tajriba, kuzatish, amaliyot bilan boyitilganda mukammal bo‘ladi degan qarash kuchli. Shu sababli bu gapda faqat darslikka tayanish yetarli emasligi, inson fikrlashi va dunyoqarashi kengroq bo‘lishi kerakligi uqtiriladi.Lingvokulturologik jihatdan, bu yerda qishloq xo‘jaligiga oid oddiy holat (jo‘ja boqish) orqali murakkab ijtimoiy-falsafiy fikr — ta’limning erkin va keng qamrovli bo‘lishi zarurligi ifodalangan. Bu esa xalq tafakkurining hayotiy tajribaga yaqinligini ko‘rsatadi.

O‘xshatishlar badiiy matnning estetik jozibadorligini oshiruvchi eng muhim tasviriy vositalardan biri sifatida qadim zamonlardan buyon inson nutqini boyituvchi samarali vosita hisoblanadi.Ularning badiiy asardagi asosiy vazifasi obrazlilik va ifodaviylikni ta’minlashdan iborat.M.Yoqubbekova o‘z tadqiqotlarida o‘xshatishlarni tashqi va ichki turlarga ajratib, shaxsning tashqi ko‘rinishini tasvirlashga qaratilgan o‘xshatishlar haqida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Tashqi tasvirga ko‘ra, o‘xshatishlar qahramon qiyofasini, uni qurshab turgan narsalarni,shart-sharoitni tashqi ta’sir sezgilari asosida ta’riflaydi”

Avvalo, o‘zbek xalqining dunyoqarashi va milliy mentalitetida o‘xshatishlarning alohida o‘rni mavjudligi kuzatildi.O‘zbek tilidagi ko‘plab o‘xshatishlar xalqning tabiatga, insoniy munosabatlarga, mehnatga, oilaga va axloqiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Jumladan, “oydek yuz”, “sher yurak”, “asalday shirin”, “tog‘dek bardosh” kabi o‘xshatishlarda xalqning estetik qarashlari, qahramonlik va go‘zallik haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan. Bu esa o‘xshatishlarning milliy madaniyat bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek nasriy adabiyotida o‘xshatishlar xalqning milliy tafakkuri, estetik qarashlari va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi muhim lingvokulturologik birlik sifatida namoyon bo‘ladi.Ularni lingvokulturologik jihatdan o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.Shuningdek, o‘xshatishlarning kontekstual realizatsiyasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular badiiy matnda faqat tasviriy vosita emas, balki diskursiv strategiya sifatida ham xizmat qiladi.Muallif o‘xshatishlar orqali o‘quvchiga ta’sir o‘tkazadi, uning tasavvurini boshqaradi va muayyan estetik hamda emotsional effektni yuzaga keltiradi.Natijada, o‘zbek tilidagi o‘xshatishlar lingvokulturologik, kognitiv va kommunikativ jihatlarning kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab til hodisasi ekanligi isbotlandi. Ular milliy tafakkur va madaniyatni aks ettiruvchi, shu bilan birga badiiy nutqning estetik mukammalligini ta’minlovchi universal lingvistik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oyboloyeva Gulnoza Arzimaxammat qizi – “O‘zbek tilida o‘xshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlari haqida mulohazalar”.
2. Jo‘raev N. O‘zbek tilida obrazlilik vositalari. – Toshkent: Fan, 1983.
3. Saidova M. O‘zbek tilida o‘xshatishlar va ularning funksional-stilistik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2007. 192-bet.
4. Usmonov F. O‘zbek tilida o‘xshatishlarning lingvomadaniy talqini: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 2018. 24-bet.
5. Shuhrat “Oltin zanglamas”. 2021-yil.

Marjona ZIYOYEVA,
BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti magistranti
Zilola PO‘LATOVA,
BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti magistranti

O‘ZBEK PAREMALARIDA QARINDOSHLIK NOMLARINING ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA NON LEKSIK-SEMANTIK BIRLIKLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, xususan, maqol va matallarda (paremalarda) aks etgan qarindoshlik nomlarining etnolingvistik xususiyatlari hamda non leksik-semantik birliklarining lingvokulturologik tabiati o‘zaro sintez qilingan holda tadqiq etiladi. Maqolada o‘zbek etnosining ijtimoiy tuzilishi, oilaviy iyerarxiyasi hamda moddiy-ma’naviy hayotining markazi bo‘lgan “non” konseptining konnotativ ma’nolari o‘zaro aloqadorlikda, lisoniy misollar yordamida qiyosiy-tahliliy usullar orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *parema, etnolingvistika, lingvokulturologiya, qarindoshlik nomlari, non leksik-semantik birligi, mentalitet, konsept, semantika, lisoniy olam manzarasi.*

Annotation: this article studies the ethnolinguistic features of kinship names reflected in Uzbek folk folklore, in particular, proverbs and sayings (parems), and the linguocultural nature of the lexical-semantic units of bread in a mutually synthesized manner. The article examines the social structure of the Uzbek ethnos, the family hierarchy, and the connotative meanings of the concept of “bread”, which is the center of its material and spiritual life, in their interrelations, using comparative-analytical methods using linguistic examples.

Key words: *parema, ethnolinguistics, linguoculturology, kinship names, non-lexical-semantic unity, mentality, concept, semantics, linguistic worldview.*

Аннотация: в данной статье в рамках сравнительно-аналитического подхода исследуются этнолингвистические особенности родственных имен, отраженные в узбекском фольклоре, в частности, в пословицах и поговорках (паремах), а также лингвокультурная природа лексико-семантических единиц, связанных с хлебом. В статье рассматривается взаимосвязь социальной структуры узбекского этноса, семейной иерархии и коннотативных значений понятия «хлеб», являющегося центром его материальной и духовной жизни, с использованием лингвистических примеров.

Ключевые слова: *парема, этнолингвистика, лингвокультурология, родственные имена, нелексико-семантическое единство, менталитет, концепция, семантика, лингвистическое мировоззрение.*

Til shunchaki fikrni bayon qilish quroli emas, balki millatning madaniy kodi, uning asriy tajribalari va falsafiy dunyoqarashini muhrlovchi tirik xazinadir. Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigma (tilni inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganish) doirasida shakllangan etnolingvistika va lingvokulturologiya yo‘nalishlari lisoniy birliklar zamiridagi yashirin madaniy ma’nolarni ochishga xizmat qiladi. Har bir xalqning o‘z lisoniy olam manzarasi mavjud bo‘lib, unda etnos uchun eng qadrli bo‘lgan tushunchalar markaziy o‘rinni egallaydi. O‘zbek xalqi mentalitetida bunday markaziy tushunchalardan birinchisi — oila va qarindoshlik munosabatlari (ijtimoiy-etnik omil) bo‘lsa, ikkinchisi — non va uning muqaddasligi (moddiy-ma’naviy omil) hisoblanadi.

Paremalar (maqol, matal va idiomalik iboralar) o‘z ichiga olgan xalq donoligi ushbu ikki konseptni ko‘p hollarda yonma-yon, uzviy bog‘liqlikda tasvirlaydi. Chunki o‘zbek xonadonida non topish, uni ulashish va bir dasturxon atrofida jam bo‘lish bevosita oilaviy iyerarxiya va qarindoshlik rishtalari bilan belgilanadi. Paremalar xalqning tarixiy xotirasi, hayotiy tajribasi va ma’naviy qarashlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ular orqali xalqning oila, mehnat, vatan, do‘stlik, halollik, saxovat va baraka haqidagi tasavvurlari aks etadi. Etnolingvistika til va etnos o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Ushbu termin ilk bor amerikalik olimlar tomonidan qo‘llanilgan bo‘lsa-da, keyinchalik rus va turkiyshunos olimlar tomonidan keng rivojlantirildi. Etnolingvistikaning asosiy vazifasi xalqning madaniy tajribasi, urf-odatlari, e’tiqodlari va dunyoqarashining til birliklarida qanday aks etishini aniqlashdan iborat. Lingvokulturologiya esa til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini o‘rganadi. V.A.Maslova, Yu.S.Stepanov, V.N.Teliya, N.Mahmudov kabi olimlarning tadqiqotlari lingvokulturologiyaning nazariy asoslarini yaratishda muhim o‘rin tutadi.

Ota va ona tushunchalarining ijtimoiy-lisoniy statusi

O‘zbek paremologik fondida ota va ona leksik birliklari nafaqat biologik ota-onani, balki muqaddaslik, tayanch va hayot manbaini ifodalaydi:

“Ota rozi – Xudo rozi” paremasida ota subyektining ijtimoiy-diniy maqomi eng yuqori cho‘qqiga ko‘tarilgan. Bu yerda etnolingvistik jihatdan otaga bo‘lgan bo‘ysunish, oilaviy barqarorlikning kafolati sifatida ko‘riladi. Ota oilaning ma’naviy ustuni sifatida talqin etiladi. Ota konsepti o‘zbek madaniyatida hokimiyat, tajriba, himoya va mas’uliyat ramzi hisoblanadi. Shuningdek, tarbiyachi va yo‘l ko‘rsatuvchi sifatida tasvirlanadi.

Ona konseptining etnolingvistik talqini

Ona konsepti mehr, muhabbat va fidoyilik timsolidir. *“Onaning mehri quyoshdan issiq”* mazmunidagi paremalar ona konseptining xalq tafakkuridagi yuksak mavqeini ko‘rsatadi. *“Ona suti — tana quvvati”* maqolida esa ona obrazi hayot manbai, mehr – muruvvat ramzi sifatida etnik ongda mustahkamlangan.

Akalik-ukalik va opa-singillik munosabatlarining vertikal iyerarxiyasi

O‘zbek xalqida yoshga qarab hurmat ko‘rsatish etnolingvistik birliklarda yaqqol ko‘rinadi. Ingliz tilidagi umumlashtiruvchi “brother” yoki “sister” so‘zlaridan farqli o‘laroq, o‘zbek tilida aka, uka, opa, singil tushunchalari qat’iy iyerarxik chegaralarga ega: *“Akali uka — qal’ali uka, akasiz uka — boshi ochiq uka”.* Ushbu paremada “aka” tushunchasi himoyachi, qal’a rolida kelmoqda. Bu o‘zbek etnosida to‘ng‘ich farzandning zimmasiga tushadigan ijtimoiy mas’uliyatni lisoniy ifodalaydi.

Qudachilik va chekka qarindoshlik munosabatlarining etnolingvistik tahlili

O‘zbek xalqi munosabatlar tizimida etnik jihatdan begona bo‘lgan, ammo nikoh orqali bog‘lanadigan guruhlar bor. Nikoh asosidagi qarindoshlik nomlari (kuyov, kelin, qaynota, qaynona, quda) ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni ifodalaydi. *“Kelin uyga baraka keltirar”, “Quda — qo‘shni emas, qarindosh”* kabi paremalar nikoh munosabatlarining ijtimoiy ahamiyatini, oilalar o‘rtasidagi hamkorlik va birdamlikni aks ettiradi. *“Kuyov keldi — quyosh keldi, kelin keldi — qut keldi”* paremasida kelinning xonadonga baraka (qut) olib kelishi haqidagi qadimiy mifologik va etnik qarashlar o‘z ifodasini topgan.

Etnolingvistika til va etnos o‘rtasidagi munosabatlarni, til orqali etnik guruhning o‘z-o‘zini anglash jarayonini o‘rganadi. O‘zbek tilidagi qarindoshlik leksikasi murakkab ierarxik tizimga ega bo‘lib, har bir genealogik pozitsiya uchun aniq termin mavjudligi bilan ajralib turadi. Qarindoshlik terminlari genealogik (ota, ona, bobo, buvi, aka, uka, opa, singil) va nikoh asosidagi (kuyov, kelin, qaynota, qaynona, quda) aloqalarni ifodalaydi. Bu terminlar nafaqat biologik rishtalarni nomlaydi, balki ijtimoiy funksiyalar, axloqiy qadriyatlar va madaniy stereotiplarni ham kodlaydi.

Non leksik-semantik birliklarining lingvokulturologik xususiyatlari

Non — dunyo xalqlarida eng mashhur va ko‘p iste’mol qilinadigan asosiy yegulik bo‘lib, insoniyatning ozuqaviy ehtiyojini qondirishi vositasi bo‘libgina qolmay, turli lingvomadaniy xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

O‘zbek madaniyatida nonga bo‘lgan munosabat sakral (muqaddas) xarakterga ega. Bu holat paremalarda dinamik aks etgan: *“Non ursin”* — eng og‘ir qasamyod shakllaridan biri. Bu yerda non jazolovchi, haqiqatni aniqlovchi ilohiy kuch darajasiga ko‘tariladi. *“Non ham non, ushog‘i ham non”* paremasida esa moddiy ne’matni isrof qilmaslik, har bir zarraga hurmat bilan qarash kabi lingvokultologik norma yotadi. O‘zbek xalqida non bilan bog‘liq ko‘plab urf-odatlar mavjud: Nonni yerga tashlamaslik, non ustiga boshqa buyum qo‘ymaslik, nonni hurmat bilan ushlash , safarga ketayotgan kishiga non tutish, kelin-kuyovni non bilan kutib olish. Ushbu urf-odatlar nonning oddiy oziq-ovqat emas, balki madaniy qadriyat ekanligini ko‘rsatadi. Non komponentli frazeologik birliklar xalqning kundalik turmushidan unib chiquvchi iboralardir va turli lingvomadaniy xususiyatlarni o‘zida namoyon etadi. O‘zbek tilida: “Noni butun”— ma’lum bir kasbga yoki hunarga ega bo‘lgan, o‘zining moddiy ehtiyojlarini o‘zi qondira oladigan insonga nisbatan qo‘llaniladi. “Nonini tuya qilmoq” — kimningdir bo‘sh-bayovligi sabab uning haqini ma’lum qismini o‘zlashtirish.

Non komponentli paremiologik birliklar

“Non bo‘lsa bas, o‘zgasi havas”

“Non ham non, ushog‘i ham non”

“Mehnatli non — shakar, mehnatsiz non — zahar”

“Non yemoqchi bo‘lsang, o‘tin tashishdan erinma”

Bu maqollarda umumiy shukronalik, mehnat qilishlik, erishilgan natijaning qilingan say-harakatga bog‘liqligi kabi ma’nolar ifodalanmoqda. Paremalarda qarindoshlik nomlari bilan non birligi birikkanda, ko‘pincha lisoniy ko‘chishlar (metafora, metonimiya, sinekdoxa) yuzaga keladi. Masalan: “Noni butunlik” — oila boshlig‘ining (otaning) tirikligi va oilaning ijtimoiy himoyalanganligiga nisbatan qo‘llaniladi. “Bir tishlam nonni baham ko‘rish” — aka-uka yoki qarindoshlar o‘rtasidagi oqibat, qiyin damlarda bir-birini tashlab qo‘ymaslik etnik normasini ifodalaydi. “Noni yarimta bo‘lish” — oilada yaqin qarindoshning (masalan, umr yo‘ldoshining yoki ota-onaning) vafot etishi natijasida keladigan ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy bo‘shliqni ifodalovchi og‘ir lingvokulturologik metaforadir.

Qarindoshlik terminologiyasi etnolingvistik jihatdan murakkab ierarxik tizimga ega bo‘lib, har bir termin genealogik, ijtimoiy va madaniy funksiyalarni bajaradi. Non leksemasi nafaqat oziq-ovqat ma’nosini, balki tirikchilik, baraka, rizq-ro‘z va muqaddaslik kabi ramziy ma’nolarni ham anglatadi.. Ikki mavzuning integratsiyasi til va madaniyatning o‘zaro aloqalarini, milliy mentalitet va qadriyat tizimini to‘laqonli ifodalashga imkon beradi. Tadqiqot natijalari tilshunoslikdagi semasiologik, kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar uchun metodologik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent, 2013.

2.Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent, 2006.

3.Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – Moskva, 2001.

4.Rahmatov B.U. O‘zbek tilidagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. — 2026. — B. 1-15.

5. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 404 b.

Nurjayna ORINGALIEVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti Filologiya va tillarni o‘qitish:
o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs talabasi



O‘ZBEK NUTQIDA DEYKSIS BIRLIKLARI VA ULARNING DISKURSIV VAZIFALARI

Annotatsiya: maqola o‘zbek nutqidagi deyksis birliklari va ularning diskursiv vazifalarini chuqur tahlil qiladi. Unda shaxs, makon, zamon, diskurs va ijtimoiy deyksis turlari ko‘rib chiqilib, ularning nutqiy jarayondagi o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot deyktik ifodalarning nutqda qanday qilib ma’no yaratishi, bog‘liqlikni ta’minlashi va so‘zlovchining pozitsiyasini aks ettirishini o‘rganadi. Ushbu ish o‘zbek tiliga xos deyktik vositalarning nazariy asoslarini amaliy misollar bilan boyitib, ularning kommunikativ jarayondagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu esa o‘zbek tilshunosligida deyksisni o‘rganishga yangi yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: *deyksis, deyktik birliklar, o‘zbek tili, diskurs tahlili, kommunikativ vazifalar, shaxs deyksisi, makon deyksisi, zamon deyksisi*

Annotation: this article provides an in-depth analysis of deictic units in Uzbek speech and their discursive functions. It examines various types of deixis, including person, spatial, temporal, discourse, and social deixis, highlighting their specific characteristics in communicative processes. The study investigates how deictic expressions create meaning, ensure and reflect the speaker’s perspective within discourse. By enriching the theoretical foundations of deixis with practical examples, this work demonstrates the significance of deictic devices inherent to the Uzbek language. This approach offers new perspectives for studying deixis in Uzbek linguistics.

Key words: *deixis, deictic units, uzbek language, discourse analysis, communicative functions, person deixis, spatial deixis, temporal deixis*

Аннотация: данная статья представляет углубленный анализ дейктических единиц в узбекской речи и их дискурсивных функций. В ней рассматриваются различные типы дейксиса, включая личностный, пространственный, временной, дискурсивный и социальный дейксис, освещая их специфические особенности в коммуникативных процессах. Исследование изучает, как дейктические выражения создают смысл, обеспечивают связность и отражают позицию говорящего в дискурсе. Обогащая теоретические основы дейксиса практическими примерами, эта работа демонстрирует значимость дейктических средств, присущих узбекскому языку. Такой подход предлагает новые перспективы для изучения дейксиса в узбекском языкознании.

Ключевые слова: *дейксис, дейктические единицы, узбекский язык, дискурсивный анализ, коммуникативные функции, личностный дейксис, пространственный дейксис, временной дейксис*

Kirish. O‘zbek nutqida deyksis birliklari va ularning diskursiv vazifalari mavzusiga bag‘ishlangan ushbu tadqiqot zamonaviy lingvistikaning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Deyksis, ya’ni til birliklarining nutq vaziyatiga, so‘zlovchiga, tinglovchiga, vaqtga va makonga bog‘liq holda o‘z ma’nosini o‘zgartirish xususiyati, insoniy muloqotning asosiy mexanizmlaridan biridir. U nutqning kontekstual bog‘liqligini ta’minlashda, matnni yaratishda va referensiyani aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida deyktik birliklarning boyligi va ularning murakkab diskursiv vazifalari chuqur ilmiy tahlilni talab etadi.

So‘nggi yillarda filologiya sohasidagi tadqiqotlar, jumladan, turli tillardagi lingvistik birliklarni o‘rganishga qaratilgan ishlar sezilarli darajada faollashgan. Tilning fundamental birliklarini, masalan, segmental birliklarni qiyosiy o‘rganish orqali tilshunoslik nazariyalarini boyitishga bo‘lgan intilishlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq o‘zbek tilidagi deyktik birliklarning diskursiv vazifalarini tizimli va kompleks tarzda o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar hali ham yetarli emas. Mavjud ishlar, asosan, deyksisning grammatik yoki semantik jihatlariga e’tibor qaratgan bo‘lib, ularning nutq jarayonidagi dinamik va pragmatik funksiyalarini to‘liq yoritib bermagan.

Ushbu maqola o‘zbek nutqidagi deyktik birliklarning turlarini aniqlash, ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish hamda diskursiv vazifalarini atroflicha o‘rganishni maqsad qilgan. Xususan, shaxsiy, makon, zamon, diskursiv va ijtimoiy deyksis birliklarining o‘zbek tilida qanday namoyon bo‘lishi, ularning matn va referensiyani ta’minlashdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilshunosligi, pragmalingvistika va diskurs tahlili sohalariga nazariy va amaliy hissa qo‘shishi kutilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Deyksis nazariyasi lingvistika fanida uzoq yillardan buyon muhim tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan. Bu sohada Charlz Fillmor, Stiven Levinson, Jon Lyons kabi olimlarning ishlari fundamental ahamiyatga ega. Fillmorning “Deyxis Lectures” asari deyksisning turli turlarini (shaxsiy, makon, zamon, diskursiv, ijtimoiy) tizimlashtirishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

Levinson esa o‘zining “Pragmatics” kitobida deyksisni pragmatikaning markaziy hodisalaridan biri sifatida ko‘rib chiqib, uning nutq jarayonidagi funksiyalarini chuqur tahlil qilgan. Lyonsning “Semantics” asarida deyksisning semantik va pragmatik jihatlari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganilgan. So‘nggi o‘n yilliklarda deyksisga bo‘lgan qiziqish yanada ortib, uning kognitiv lingvistika, psixolingvistika va kompyuter lingvistikasi doirasidagi tadqiqotlari faollashgan. Xususan, nutqning kontekstual bog‘liqligini tushunishda, sun’iy intellekt tizimlarida tabiiy tilni qayta ishlashda deyktik birliklarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilida deyktik birliklar boy va rang-barang tizimga ega. Biroq turkiy tillar doirasida deyksisning diskursiv vazifalarini kompleks o‘rganishga qaratilgan ishlar hali ham cheklangan. Mavjud tadqiqotlar ko‘pincha deyktik birliklarning morfologik, sintaktik yoki semantik tasnifiga e’tibor qaratgan. Masalan, olmoshlar, ko‘rsatish olmoshlari, zamon va makon ravishlari, shaxs-son qo‘shimchalari kabi grammatik kategoriyalar doirasida deyksisning ayrim ko‘rinishlari tahlil qilingan. O‘zbek tilshunosligida deyksis masalasi, asosan, grammatika va leksikologiya darsliklarida umumiy tarzda yoritilgan bo‘lib, uning pragmatik va diskursiv salohiyati chuqur o‘rganilmagan. Ba’zi ishlar shaxsiy olmoshlarning nutqdagi vazifalarini, ko‘rsatish olmoshlarining makonni ifodalashdagi xususiyatlarini yoritgan bo‘lsa-da, bu birliklarning matnni ta’minlashdagi, referensiyani aniqlashdagi va so‘zlovchi niyatini ifodalashdagi murakkab diskursiv mexanizmlari yetarli darajada tahlil etilmagan.

Filologiya sohasidagi tadqiqotlar, jumladan, turli tillardagi lingvistik birliklarni o‘rganishga qaratilgan ishlar so‘nggi yillarda sezilarli darajada faollashgan. Jumladan, “Filologiyaning dolzarb masalalari” kabi to‘plamlar zamonaviy tilshunoslikning keng qamrovli muammolariga bag‘ishlangan bo‘lib, bu sohadagi umumiy ilmiy faollikni ko‘rsatadi. Bu turdagi tadqiqotlar tilning ichki tuzilishini chuqur tushunishga yordam beradi. Ammo deyksis kabi nutq vaziyatiga bevosita bog‘liq bo‘lgan, kontekstual ma’no tashuvchi birliklarning diskursiv funksiyalarini o‘rganishda bunday chuqur pragmatik va diskursiv tahlilga ehtiyoj sezilmoqda.

O‘zbek tilshunosligida deyksisning diskursiv vazifalarini o‘rganishda mavjud bo‘shliqlar, asosan, quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi: birinchidan, deyktik birliklarning nutqiy o‘zaro ta’sir jarayonidagi dinamikasi, ya’ni ularning so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlarni qanday shakllantirishi, nutq aktlarining samaradorligini qanday oshirishi yetarli darajada tahlil qilinmagan. Ikkinchidan, deyksisning matn va referensiyani ta’minlashdagi mexanizmlari, xususan, anafork va katafork munosabatlarida deyktik birliklarning o‘rni chuqur o‘rganilmagan. Uchinchidan, o‘zbek tiliga xos bo‘lgan ijtimoiy deyksis, ya’ni hurmat, xushmuomalalik, ijtimoiy masofa kabi tushunchalarni ifodalashda deyktik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning diskursiv strategiyalardagi roli kompleks tarzda yoritilmagan. To‘rtinchidan, turli nutq janrlarida (masalan, ilmiy, publitsistik, badiiy, og‘zaki muloqot) deyktik birliklarning qo‘llanilish chastotasi, funksional xususiyatlari va ularning janrga xos diskursiv vazifalari qiyosiy jihatdan tahlil etilmagan. Ushbu bo‘shliqlar o‘zbek tilining pragmatik va diskursiv salohiyatini to‘liq tushunishga to‘siq bo‘lmoqda.

Shu bois ushbu tadqiqot o‘zbek nutqidagi deyktik birliklarning turlarini aniqlash, ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish hamda diskursiv vazifalarini atroflicha o‘rganish orqali mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari deyksisning til tizimidagi va nutq jarayonidagi murakkab mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam berib, o‘zbek tilshunosligi, pragmalingvistika va diskurs tahlili sohalariga nazariy va amaliy hissa qo‘shishi kutilmoqda. Ayniqsa, o‘zbek tilining boy pragmatik resurslarini ochib berish orqali uning xalqaro miqyosdagi o‘rganilishiga ham hissa qo‘shadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot o‘zbek nutqidagi deyktik birliklarning turlari, semantik-pragmatik xususiyatlari va diskursiv vazifalarini chuqur tahlil qildi. Keng qamrovli korpusga asoslangan tahlil natijalari o‘zbek tilining boy pragmatik salohiyatini ochib berib, deyktik birliklarning turli nutq janrlarida ijtimoiy munosabatlar va kommunikativ strategiyalardagi dinamik rolini ko‘rsatdi. Tadqiqot deyksisning til tizimidagi murakkab mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam berib, o‘zbek tilshunosligi, pragmalingvistika va diskurs tahlili sohalariga muhim nazariy va amaliy hissa qo‘shadi, uning xalqaro miqyosdagi o‘rganilishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Barron, Anne, Yueguo Gu, and Gerard Steen, muharrirlar. Kembrij Pragmatika Qo‘llanmasi. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022.

2. Cutting, Joan, and Jonathan Culpeper. Pragmatika: Talabalar uchun resurs kitobi. 4-nashr. – London: Routledge, 2021.

3. Traugott, Elizabeth Closs. “Deyksis va intersubyektivlik o‘zaro muloqotda” Pragmatika Jurnali, jild. 161, 2020, 1–10-bet.

4. Gürel, Ayşe, and Aslı Özyürek. “Makoniy deyksis Turk tilida: Kognitiv-lingvistik yondashuv” Kognitiv Lingvistika, jild. 4-son, 2021, 605–638-bet.

5. Li, Xinyi. “Ijtimoiy deksis va onlayn nutqda shaxsiyat qurilishi” Nutq va Jamiyat, jild. 1-son, 2022, 3–23-bet.

6. Karagjosova, Elena. “Vaqt deyksisining hikoyadagi pragmatikasi” Pragmatika jurnali, vol. 183, 2021, pp. 103–116.

7. Schneider, Klaus P. Kontekst va Kognitsiya: Havola Pragmatikasi. – London: Routledge, 2020.

8. Wierzbicka, Anna H. S. “Shaxs deyksisi va so‘zlovchi-tinglovchi munosabatlarining shakllanishi” Pragmatika Jurnali, vol. 161, 2020, pp. 11–23.

9.Meyerhoff, Miriam A. “Deyksis va diskurs markerlari og‘zaki muloqotda” Til Jamiyatda, vol. 51, no. 2, 2022, pp. 241–265.

Sevinch ORTIQOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
3-bosqich talabasi
sevinchortiqova50@gmail.com
Ilmiy rahbar: Firuza MURODOVA,
Chichiq davlat pedagogika universiteti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

RAQAMLI MAKON VA HARBIY TIL: O'ZBEK HARBIY LEKSIKOGRAFIYASINING YANGI QATLAMLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada raqamli transformatsiya davrida harbiy terminologiyaning rivojlanish tamoyillari tadqiq etiladi. An'anaviy harbiy leksikadan kiber-makon va neyro-lingvistik operatsiyalar qatlamiga o'tish jarayonini tahlil qilinadi.Maqolada o'zbek harbiy tilidagi xalqaro neologizmlarning semantik xususiyatlari va ularni standartlashtirish muammolari yangi ilmiy misollar yordamida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *axborot dominanti, kiber-ataka, lisoniy filtr, sun'iy intellekt, harbiy doktrina, semantik derivatsiya, kognitiv neologizm.*

Аннотация: в данной статье исследуются принципы развития военной терминологии в эпоху цифровой трансформации. Анализируется процесс перехода от традиционной военной лексики к уровням киберпространства и нейролингвистических операций. В статье освещаются семантические особенности международных неологизмов в узбекском военном языке и проблемы их стандартизации на основе новых научных примеров.

Ключевые слова: *информационное доминирование, кибератака, лингвистический фильтр, искусственный интеллект, военная доктрина, семантическая деривация, когнитивный неологизм.*

Annotation: this article examines the principles of the development of military terminology in the era of digital transformation. It analyzes the transition from traditional military lexicon to the domains of cyberspace and neurolinguistic operations. The paper highlights the semantic features of international neologisms in the Uzbek military language and the challenges of their standardization, supported by new scientific examples.

Key words: *information dominance, cyber attack, linguistic filter, artificial intelligence, military doctrine, semantic derivation, cognitive neologism.*

XXI asr yangiliklari, ilmiy izlanishlari va kashfiyotlari, turmush tarzi va fikrlash ko'lami yangicha tus olmoqda, balki harbiy mojarolari ham klassik "front chizig'i" tushunchasidan voz kechib, "tarmoqqa yo'naltirilgan urush" (Network-centric warfare) modeliga o'tmoqda. Bu jarayonda til shunchaki aloqa vositasi bo'lib qolmay, balki strategik ustunlikni ta'minlovchi qurollardan biriga aylandi. Faqatgina harbiy usullar hamda hujumlar emas aqliy , strategik yo'llar ham ustunlik beruvchi omil hisoblanmoqda. Raqamli makonning harbiy sohaga integratsiyalashuvi o'zbek harbiy leksikografiyasi oldiga terminologik inventarizatsiya o'tkazish va yangi tushunchalarni milliy qolipga solish vazifasini qo'ymoqda.Zamonaviy urushlarda "jang maydoni" (battlefield) tushunchasi o'rnini "operatsiyalar teatri" (theater of operations) egalladi, bu esa o'z navbatida raqamli va virtual makonlarni ham o'z ichiga oladi. "Kiber-razvedka" an'anaviy razvedkadan farqli o'laroq, dushman tizimlaridagi ma'lumotlar oqimini passiv kuzatish va algoritmlar orqali tahlil qilishni anglatsa, "Axborot ustunligi" nafaqat ko'p ma'lumotga ega bo'lish, balki dushmanning qaror qabul qilish tezligidan o'zib ketish imkoniyatini beruvchi texnologik va lisoniy holatdir.

Kognitiv ta'sir va lisoniy manipulyatsiya o'zaro bog'liqlik kasb eta boshladi.Misol tariqasida keltirsak, ekosizimlar jangi: xalqaro harbiy terminologiyada "Echo chamber" (aks-sado kamerasi) tushunchasi paydo bo'ldi. Bu harbiy maqsadlarda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga faqat bir tomonlama ma'lumot berib, ularning dunyoqarashini qutbiylashtirishni anglatadi. Neyro-harbiy leksika – inson miyasining neyro-biologik zaifliklariga ta'sir etuvchi axborot oqimlarini ifodalovchi terminlar qatlami shakllanmoqda.O'zbek tilida bu tushunchalarni "ongning neyronli bloklanishi" kabi birikmalar bilan ifodalash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.[1]

Raqamli makonda harbiy harakatlarni ham sun'iy intellekt (SI)siz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu sohada o'zbek tiliga quyidagi yangi tushunchalar kirib kelmoqda:

— "O'zi o'rganuvchi algoritmlar" – harbiy strategiyada raqibning yurishlarini bashorat qiluvchi tizimlar nomi sifatida;

— To'da intellekti ("Swarm intelligence"): kichik dronlar guruhining birgalikdagi, muvofiqlashtirilgan harakatini ifodalovchi harbiy-texnik termin. O'zbek tilida bu tushunchani "kiber-to'da" yoki "aqlli galalar" shaklida qo'llash taklif etilmoqda. Ushbu texnologik yondashuv harbiy taktikada "tarmoqli o'z-o'zini tashkil etish" tamoyilini yuzaga keltirmoqda.O'zbek harbiy leksikasida bu tushuncha nafaqat texnik birlik, balki "ko'p vektorli dinamik hujum" semantikasi bilan boyitilishi lozim.Bu esa leksikografik nuqtayi nazardan

1 Hoffman, F. G. Conflict in the 21st Century: The Rise of Hybrid Wars. Potomac Institute for Policy Studies, 2007.

“to‘da” atamasining oddiy kundalik tushunchadan to‘liq harbiy-strategik termin darajasiga ko‘tarilganidan dalolat beradi.

– Gibrid nizo esa ijtimoiy muhandislik hujumi bo‘lib jamiyatdagi ishonch darajasini pasaytirishga qaratilgan amaliyotdir. Bunda asosiy maqsad jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga (qadriyat, an’ana, milliy o‘zlik va ishonch) putur yetkazishni maqsad qilgsan holda olib boriluvchi strategik jarayon. Bu holatda mutlaqo harbiy usullardan holi harakat qilinadi.

– Axborot urushi – ma’lumotlar zaharkunandasi. Bunda har ikki tomon ham sun’iy intellekt o‘rganadigan bazaga noto‘g‘ri ma’lumot kiritish orqali uning faoliyatiga ta’sir o‘tkazishni maqsad qiladi.

–Axborot ustunligi (dominanti). Faqat axborotga egalik emas, uni boshqarish qobiliyati. Ayni holatda qaysi tomon qo‘lidagi ma’lumotlar borligi uchungina emas, bu bazadan to‘g‘ri foydalangani uchun ustunlikni egallaydi.

–Nishonni aniqlash va biriktirish raqamli radarlar yordamida nishonni kuzatuvga olishning texnik ifodasidir. Mazkur jarayon “sensorlar sintezi” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u turli manbalardan (dronlar, sun’iy yo‘ldoshlar va kiber-razvedka) olingan ma’lumotlarni yagona algoritmga birlashtirishni anglatadi. Bunda nishonni biriktirish tushunchasi nafaqat vizual kuzatuvni, balki “raqamli imzo” orqali nishonni avtomatik identifikatsiya qilish va uni yo‘q qilish zanjiriga uzatishning lisoniy ifodasidir.

O‘zbekiston Respublikasining harbiy bazasi yangi terminologik qatlamni qonuniy jihatdan huquqiy-me’yoriy asoslar va terminologik standartlashtirish orqali mustahkamlab bermoqda. Masalan, 2022-yildagi “Kiber-xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonun ilk bor “kiber-identifikatsiya”, “kiber-insident” va “kiber-tahdid” tushunchalari huquqiy maqomga ega bo‘ldi.Bu harbiy leksikada ushbu terminlarni “informatika” sohasidan “milliy xavfsizlik” sohasiga o‘tkazish uchun zamin yaratdi. O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasida esa “axborot-psixologik qarshilik” tushunchasi keltirilgan bo‘lib, bu termin raqamli makonda dushmanning axborot manipulyatsiyasiga qarshi milliy terminologik immunitetni shakllantirishni anglatadi.U “kognitiv urush” termini bilan bevosita bog‘lanadi. Kognitiv urush sharoitida raqib tildagi “semantik bo‘shliqlar” (semantic gaps) dan foydalanib, jamiyat ongiga yod g‘oyalarni singdirishga urinadi. Shuning uchun harbiy leksikografiya oldida turgan asosiy vazifa — begona tushunchalarni shunchaki qabul qilish emas, balki ularning milliy mentalitet va davlat suverenitetiga mos keladigan “lisoniy ekvivalentlari”ni ishlab chiqishdir. Standartlashtirish masalasida esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi qarorlarida raqamli iqtisodiyot va kiber-makonni himoya qilishda “milliy terminologik baza”ni yaratish ustuvor vazifa qilib belgilangan.[2]

“Statistik dalil” sifatida qaraydigan bo‘lsak, terminlar o‘sishi oxirgi 5 yilda yaqqol ko‘zga tashlandi. Ya’ni hozirgi vaqtga harbiy lug‘atlarga kirgan yangi so‘zlarning 65% qismi kiber-makon va sun’iy intellekt bilan bog‘liq. Yoki kiber-hujumlar dinamikasida 2023-yilgi xalqaro hisobotlarga ko‘ra, davlat sektoriga qilingan kiber-hujumlar soni yiliga 38% ga oshgan. Bu esa harbiy leksikografiyada “mudofaa” (defense) tushunchasidan tashqari “faol kiber-qarshilik” (active cyber-counteraction) terminining paydo bo‘lishiga olib keldi.[3] Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yangi shakllanayotgan terminlarning qariyb 22 foizi bevosita “kiber-operatsiyalar etikasi” va huquqiy tartibga solish bilan bog‘liqdir. Bu esa o‘z navbatida harbiy va huquqiy leksikografiyaning integratsiyalashuviga, natijada “harbiy-kiber-huquqiy” terminologik qatlamning paydo bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli makon va harbiy tilning o‘zaro ta’siri o‘zbek tili lug‘at tarkibini nafaqat tubdan yangilamoqda, yangi terminlar bilan boyitmoqda, balki mavjud harbiy terminlarning “semantik transformatsiyasi” jarayonini ham tezlashtirmoqda. Ushbu yangi qatlamlarni nafaqat tarjima qilish, balki milliy harbiy doktrinaga moslashtirilgan holda standartlashtirish davlat xavfsizligining lingvistik asosi hisoblanadi. Harbiy leksikologiya endi faqat “qurol-yarog‘” tili emas, balki “algoritmlar va axborot” tiliga aylanmoqda.Bir muddat ilgari bu sohaga yod bo‘lgan tushunchalar endi bu sohaning ham ma’lum bir qismini egallab bormoqda.O‘zbek harbiy terminologiyasini ushbu yangi tendensiyalar asosida boyitish, milliy mudofaa quvvatini lingvistik jihatdan ta’minlashning asosiy shartidir. Shuni inobatga olgan holda, kelgusida o‘zbek harbiy leksikografiyasi doirasida “Kiber-harbiy terminologiya”ning alohida tarmog‘ini shakllantirish va uni doimiy yangilanib turuvchi elektron platformalarga, sun’iy intellekt bazasiga integratsiya qilish milliy xavfsizlikning talabi hisoblanadi va bu dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qoladi.

2 O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, “Kiber-xavfsizlik to‘g‘risida” O‘RQ-764-son, 15.04.2022 y.

3 Check Point Research, “Cyber Attack Trends: 2024 Mid-Year Report”. International Telecommunication Union (ITU), “Global Cybersecurity Index 2024” report

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliyev J., E., Gibrid va axborot urushlari: zamonaviy strategik tahdidlar.Zamonaviy xalqaro munosabatlarda markaziy osiyo: barqarorlik va taraqqiyot istiqbollari, 2025.
2. Check Point Research, “Cyber Attack Trends: 2024 Mid-Year Report”.
3. International Telecommunication Union (ITU), “Global Cybersecurity Index 2024” report.
4. Hoffman, F. G. Conflict in the 21st Century: The Rise of Hybrid Wars. Potomac Institute for Policy Studies, 2007.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, “Kiber-xavfsizlik to‘g‘risida” O‘RQ-764-son, 15.04.2022 y.

Hilola SATTOROVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti biologiya mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Xusnobod XUSHVAKTOVA



BUG‘DOYNING “ALEKSEEVICH” VA “GROM” NAVLARI XUSUSIYATLARI, AFZALLIKLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada bug’doyning Alekseevich (Triticum aestivum L.”Alekseevich”) va Grom (Triticum aestivum L“Grom”) navlari haqida keng qamrovli ma’lumot berilgan. Navlarning biologik xususiyatlari, hosildorligi, kasalliklarga chidamliligi, agronomik ko’rsatkichlari va iqtisodiy ahamiyati o’rganilgan. Ikkala nav ham O’rta Osiyo va MDH mamlakatlari sharoitida sinovdan o’tkazilgan bo’lib, dehqonchilik amaliyotida keng qo’llanilishi mumkin. Maqolada navlarning afzalliklari va kamchiliklari qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: *bug’doy, Alekseevich navi, Grom navi, hosildorlik, seleksiya, agronomiya, don sifati, kasalliklarga chidamlilik.*

Аннотация: в данной статье представлена подробная информация о сортах пшеницы Алексеевич (Triticum aestivum L. «Алексеевич») и Гром (Triticum aestivum L. «Гром»). Изучены биологические особенности сортов, их урожайность, устойчивость к болезням, агрономические показатели и экономическое значение. Оба сорта прошли испытания в условиях Средней Азии и стран СНГ и могут широко применяться в сельскохозяйственной практике. В статье проведён сравнительный анализ достоинств и недостатков каждого из сортов.

Ключевые слова: *пшеница, сорт Алексеевич, сорт Гром, урожайность, селекция, агрономия, качество зерна, устойчивость к болезням*

Annotation: This article provides comprehensive information about the wheat varieties Alekseevich (Triticum aestivum L. «Alekseevich») and Grom (Triticum aestivum L. «Grom»). The biological characteristics, productivity, disease resistance, agronomic indicators, and economic importance of both varieties have been studied. Both varieties have been tested under the conditions of Central Asia and CIS countries and can be widely applied in agricultural practice. The article presents a comparative analysis of the advantages and disadvantages of each variety.

Key words: *wheat, Alekseevich variety, Grom variety, productivity, selection, agronomy, grain quality, disease resistance.*

Kirish. Bug’doy (Triticum aestivum L.) dunyo bo’ylab eng muhim oziq-ovqat ekinlaridan biri hisoblanib, global don ishlab chiqarishning asosini tashkil etadi. Jahon miqyosida yiliga 750 million tonnadan ortiq bug’doy yetishtiriladi va bu ko’rsatkich insoniyatning asosiy kaloriya manbaini ta’minlashda hal qiluvchi rol o’ynaydi.O’zbekiston va MDH mamlakatlarida bug‘doy yetishtirish iqtisodiyotning strategik tarmog’i sifatida qaraladi. So’nggi yillarda selektsiya fani yangi, yuqori samarali navlar yaratish yo’lida katta yutuqlarga erishdi. Alekseevich va Grom navlari ana shunday zamonaviy seleksiya yutuqlari qatoriga kiradi.

Ushbu maqolaning maqsadi — bug’doyning Alekseevich va Grom navlarini har tomonlama o’rganib, ularning xususiyatlarini, agronomik ko’rsatkichlarini va qo’llanish sohalarini yoritib berishdan iborat.

Alekseevich navning kelib chiqishi va tavsifi. Alekseevich navi Rossiya Federatsiyasining yetakchi selektsiya markazlaridan birida yaratilgan kuzgi bug’doy navi bo’lib, o’rta iqlim mintaqalarida yetishtirishga mo’ljallangan. Nav 1990-yillarning oxirida davlat reyestriga kiritilgan va o’sha davrdan buyon keng qo’llanib kelinmoqda.

Biologik va morfologik xususiyatlari

- O’simlik bo’yi: 80–95 sm, o’rta bo’yli
- Poya: mustahkam, yotib qolishga chidamli
- Boshoq: silindrsimon, o’rta uzunlikda (8–10 sm)
- Don: yirik, oval shaklda, qizg’ish-sariq rangda
- 1000 dona don og’irligi: 38–44 gramm
- Pishish muddati: erta-o’rta (vegetatsiya davri 270–290 kun)

Hosildorligi

Alekseevich navi qulay sharoitda gektardan 55–70 sentner hosil beradi. Intensiv texnologiya qo’llanilganda hosildorlik 75–80 sentnerga yetishi mumkin. Don sifati yuqori bo’lib, kleykovini miqdori 28–32% ni tashkil etadi va un sifati A1–A2 guruhiga kiradi.

Kasalliklarga chidamliligi

- Sariq zang (Puccinia striiformis): o’rta chidamli
- Qo’ng’ir zang: yaxshi chidamli

- Unli shudring (mildew): o’rta chidamli
- Boshma (Fusarium): o’rta darajada ta’sirlanadi

GROM NAVI

Navning kelib chiqishi va tavsifi

Grom navi — zamonaviy seleksiya yutug’i bo’lib, yuqori mahsuldorlik va keng moslashuvchanlik bilan ajralib turadi. Nav Krasnodar o’lkasining ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan va 2000-yillarning boshida ishlab chiqarishga joriy etilgan. «Grom» (momaqaldiroq) nomi navning kuchli va faol o’sish quvvatiga ishora qiladi.

Biologik va morfologik xususiyatlari

- O’simlik bo’yi: 85–100 sm, nisbatan baland
- Poya: qalin va mustahkam, shamolga chidamli
- Boshoq: uzun (10–13 sm), zichroq
- Don: yirik, yaxlit, shishasimon, qizg’ish
- 1000 dona don og’irligi: 40–48 gramm
- Pishish muddati: o’rta (vegetatsiya davri 275–295 kun)



Bug’doyning Grom*(Triticum aestivum “Grom”)* navi

Hosildorligi.Grom navi hosildorlik bo’yicha kuchli ko’rsatkichlarga ega. O’rtacha hosildorlik gektardan 60–75 sentnerni tashkil etadi. Intensiv sharoitda esa 80–90 sentner va undan yuqori natijalarga erishilgan. Don sifati a’lo darajada — kleykovini miqdori 30–36%, natijada un mahsulotlari sifati yuqori. ***Kasalliklarga chidamliligi***

- Sariq zang: yaxshi chidamli (4–5 ball)
- Qo’ng’ir zang: yuqori chidamlilik
- Unli shudring: yaxshi chidamli

Xulosa. Alekseevich va Grom navlari zamonaviy seleksiya yutuqlari bo’lib, har biri o’zining afzalliklari bilan ajralib turadi. Grom navi yuqori hosildorligi, don sifati va kasalliklarga chidamliligi bilan sug’oriladigan iqlim mintaqalarida eng samarali ekuvchi sifatida tavsiya etiladi. Alekseevich navi esa quruqroq iqlim sharoitlarda va sug’orish imkoniyati cheklangan hududlarda ishonchli va barqaror hosil beruvchi nav sifatida qimmatlidir. Ikkala navni ham dalada almashlab ekish orqali qo’llash xo’jaliklarga xavfni kamaytirish va barqaror hosil olish imkonini beradi. Agrotexnik tadbirlarni to’g’ri amalga oshirish, o’g’itlash va sug’orish me’yorlarini saqlash orqali ikkala nav ham o’z salohiyatini to’liq namoyon eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dospekhov B.A. Polevoy opyt (statisticheskaya obrabotka dannykh). — Moskva: Agropromizdat, 1985. — 351 b.
2. Eroshenko A.A., Efremova I.V. Selektsiya i semenovodstvo ozimoy pshenitsy. — Stavropol: SNIISX, 2003. — 192 b.
3. Vavilov N.I. Izbrannye trudy. Tom III. Selektsiya kak nauka. — Moskva-Leningrad: AN SSSR, 1962. — 532 b.
4. Krupnov V.A. Pshenitsa: biologiya i selektsiya. — Saratov: SGAU, 2006. — 246 b.
5. Lutfullaev Sh., Nazarov O. O’zbekistonda bugdoy yetishtirish agrotexnikasi. — Toshkent: O’zbekiston, 2010. — 178 b.
6. Sanin S.S. Fitosanitarnoye sostoyaniye posevov pshenitsy v Rossii. // Zashchita rasteniy, 1999. — №3. — B. 14–18.
7. Zelensky G.L. Selektsiya ozimoy myagkoy pshenitsy na Kubani. — Krasnodar: KGAU, 2004. — 236 b.
8. Tursunov M., Xolmatov I. Bug’doy navlarini sinovdan o’tkazish metodikasi. — Toshkent: O’zR QXV, 2015. — 88 b.

Muhammad Sajid HUSAIN,
FarDu magistranti

O‘ZBEK VA URDU TILLARI MISOLIDA IKKI TILLILIKNING KOGNITIV JARAYONLARGA TA’SIRI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek va urdu tillari misolida ikki tillilikning kognitiv jarayonlarga ta’siri tahlil qilinadi. Bilingvizmning e’tibor, xotira, kognitiv nazorat va til almashinuviga ta’siri yoritilib, o‘zbek-urdu bilingvlarining psixolingvistik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ikki tillilikning kognitiv moslashuvchanlik va metalingvistik ong rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: *ikki tillilik, bilingvizm, kognitiv jarayonlar, o‘zbek tili, urdu tili, interferensiya, til almashinuvi.*

Аннотация: в статье анализируется влияние билингвизма на когнитивные процессы на примере узбекского и урду языков. Рассматривается воздействие двуязычия на внимание, память, когнитивный контроль и переключение языков, а также психолингвистические особенности узбекско-урду билингвов. Результаты исследования подтверждают положительное влияние билингвизма на когнитивную гибкость и развитие метаязыкового сознания.

Ключевые слова: *билингвизм, когнитивные процессы, узбекский язык, язык урду, интерференция, переключение языков.*

Annotation: this article examines the impact of bilingualism on cognitive processes through the example of Uzbek and Urdu languages. The study focuses on the effects of bilingualism on attention, memory, cognitive control, and language switching, while highlighting the psycholinguistic features of Uzbek-Urdu bilinguals. The findings confirm that bilingualism contributes positively to cognitive flexibility and the development of metalinguistic awareness.

Key words: *bilingualism, cognitive processes, Uzbek language, Urdu language, interference, language switching.*

Kirish. XXI asr globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va xalqlar o‘rtasidagi madaniy hamkorlikning kengayishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda bir nechta tillarni bilish insonning nafaqat kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi, balki uning intellektual va kognitiv rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ikki tillilik (bilingvizm)[1] muammosi zamonaviy tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika va kognitiv fanlarning eng dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo aholisining yarmidan ko‘pi ikki yoki undan ortiq tillarda muloqot qilishi haqidagi ma’lumotlar bilingvizmning global miqyosdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Ikki tillilik insonning ikki til tizimidan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Biroq zamonaviy ilmiy qarashlarda bilingvizm faqat ikki tilni bilish emas, balki ularni turli kommunikativ vaziyatlarda faol qo‘llash, ular o‘rtasida almashish va bir vaqtning o‘zida boshqarish jarayoni sifatida talqin qilinadi. F. Grosjean bilingv shaxsni ikki tilni mukammal biladigan emas, balki kundalik hayotida ikki tildan muntazam foydalanadigan inson sifatida tavsiflaydi.[2] Shu jihatdan qaralganda, o‘zbek va urdu tillarini biluvchi shaxs ham ikki tilning grammatik, leksik va semantik tizimlarini bir vaqtning o‘zida boshqaruvchi murakkab kognitiv tizim egasi hisoblanadi.

Til va tafakkur o‘rtasidagi munosabat masalasi qadimdan olimlar e’tiborini tortib kelgan. L.S. Vygotskiy til tafakkurning shakllanishi va rivojlanishida muhim vosita ekanligini ta’kidlagan. Olimning fikriga ko‘ra, inson tafakkuri til orqali shakllanadi va rivojlanadi. Demak, bir emas, balki ikki til tizimiga ega bo‘lgan shaxsning kognitiv faoliyati ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi tabiiydir. Aynan shu jihat bilingvizmning kognitiv jarayonlarga ta’sirini o‘rganishni muhim ilmiy masalaga aylantiradi.

So‘nggi yillarda olib borilgan psixolingvistik tadqiqotlar bilingv shaxslarning ayrim kognitiv vazifalarni bajarishda monolingv shaxslarga nisbatan ustunlikka ega bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Xususan, E. Bialystok tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ikki tilli insonlarda selektiv e’tibor, ishchi xotira va ijro funksiyalari samaraliroq rivojlanishi qayd etilgan. Bunga sabab sifatida ikki tilni doimiy ravishda nazorat qilish va kerakli vaziyatda mos tilni tanlash jarayoni ko‘rsatiladi.

Masalan, o‘zbek va urdu tillarini biluvchi talaba universitetda o‘zbek tilida ma’ruza tinglab, bir vaqtning o‘zida urdu tilidagi ilmiy manbalardan foydalanishi mumkin. Bunday vaziyatda miya ikki til tizimidan kelayotgan ma’lumotlarni parallel ravishda qayta ishlaydi. Natijada e’tiborning taqsimlanishi, axborotni saralash va kerakli ma’lumotni tanlab olish qobiliyati rivojlanadi[3].

Kognitiv jarayonlar insonning tashqi muhitdan ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan aqliy faoliyatidir[4]. Ular tarkibiga idrok, e’tibor, xotira, tafakkur, nutq, tasavvur va qaror qabul qilish kabi jarayonlar kiradi. Bilingv shaxslarda ushbu jarayonlar ikki til tizimi bilan uzviy bog‘langan holda amalga oshadi.

Masalan, o‘zbek tilidagi “kitob” va urdu tilidagi “کتاب” (kitāb) so‘zlari ma’no jihatdan bir xil bo‘lsa-da, ular turli grafik va fonetik shakllarga ega. O‘zbek-urdu bilingvi ushbu birliklarni eshitganda yoki o‘qiganda, uning ongida ikkala til tizimi ham faollashadi[5]. Shu sababli bilingv shaxs ma’lumotni qayta ishlashda murakkabroq kognitiv mexanizmlardan foydalanadi.

Bilingvizmning muhim jihatlaridan biri til almashinuvi (code-switching) hodisasidir. Til almashinuvi ikki yoki undan ortiq tillarning bitta nutq jarayonida navbatma-navbat qo‘llanishini

1 Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2010. 192-b
2 Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. 256-b.
3 Faruqi S.R. Early Urdu Literary Culture and History. – New Delhi: Oxford University Press, 2001. – 485 p.
4 Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Sangzor, 2006. – 220 b.
5 Saksena R.B. A History of Urdu Literature. – Lahore: Sang-e-Meel Publications, 1992. – 398 p.

anglatadi. O‘zbek-urdu bilingvlarida bunday holat tez-tez uchraydi.

Masalan:

Men bugun universitetga bordim, lekin professor ne kaha ke assignment kal submit karna hai.

Ushbu gapda o‘zbek va urdu tillari elementlari birgalikda ishlatilgan. Nutq davomida bir tildan ikkinchisiga o‘tish miya uchun qo‘shimcha nazorat mexanizmlarini talab qiladi. Natijada kognitiv moslashuvchanlik va vazifalararo almashish qobiliyati rivojlanadi[6].

Ikki tillilikning kognitiv jihatlaridan yana biri interferensiya hodisasi bilan bog‘liq. Interferensiya bir tilning boshqa tilga ta’siri natijasida yuzaga keladigan fonetik, grammatik yoki leksik o‘zgarishlarni anglatadi. Masalan, urdu tilidagi “mujhe jana hai” konstruksiyasining ta’sirida o‘zbek tilida “men borishim kerak” o‘rniga “menga borish kerak” kabi konstruksiyalar yuzaga kelishi mumkin. Yoki o‘zbek tilining sintaktik modeli urdu tilida gap qurishga ta’sir etishi mumkin.

Bunday hodisalar ko‘pincha salbiy omil sifatida baholansa-da, aslida ular bilingv ongning murakkab ishlash mexanizmlarini aks ettiradi. Chunki ikki til tizimining o‘zaro ta’siri natijasida inson ongida yangi assotsiativ bog‘lanishlar shakllanadi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan bilingvizm dunyo manzarasining shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Har bir til voqelikni o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. Masalan, o‘zbek tilida “ko‘ngil” tushunchasi insonning ruhiy holati, his-tuyg‘ulari va ichki kechinmalarini ifodalaydi[7]. Urdu tilida esa ushbu ma’noga yaqin “dil” konsepti mavjud.

O‘zbek tilida:

“Ko‘nglim tog‘dek ko‘tarildi.”

Urdu tilida:

“میرا دل خوش ہو گیا” (Mera dil khush ho gaya).

Har ikki birlik hissiy holatni ifodalasa-da, ular turli madaniy va konseptual asosga ega. O‘zbek-urdu bilingvi ushbu konseptlarni parallel ravishda o‘zlashtiradi va natijada uning konseptual dunyoqarashi kengayadi. Shuningdek, o‘zbek va urdu tillarida arab va fors tillaridan kirib kelgan ko‘plab umumiy leksik birliklar mavjud. Masalan:

ilm — علم
kitob — کتاب
adab — ادب
dunyo — دنیا
ma’rifat — معرفت

Ushbu birliklarning ikki tilda mavjudligi bilingv shaxsning semantik xotirasini boyitadi va ma’lumotlarni tezroq qayta ishlashiga yordam beradi. Bunday o‘xshashliklar til o‘rganish jarayonini ham yengillashtiradi.

Ikki tillilik muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish jarayonlarida ham muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar bilingv shaxslarning vazifadan vazifaga o‘tish tezligi yuqoriroq bo‘lishini ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbek-urdu bilingvi ilmiy maqola yozish jarayonida o‘zbek tilidagi nazariy manbalarni urdu tilidagi ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy tahlil qilishi mumkin. Bu esa uning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Metalingvistik ongning rivojlanishi ham bilingvizmning muhim natijalaridan biridir[8]. Metalingvistik ong til birliklarini tahlil qilish va ular ustida ongli ravishda fikr yuritish qobiliyatidir. Masalan, o‘zbek va urdu tillarini biluvchi shaxs “ilm”, “adab”, “maktab”, “ma’naviyat” kabi so‘zlarning etimologik jihatdan umumiy manbaga ega ekanligini anglay oladi[9]. Bu esa uning til haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikning rivojlanishi natijasida o‘zbek va urdu tillariga qiziqish ortib bormoqda. Shu sababli ushbu tillar asosidagi bilingvizmni o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Bunday tadqiqotlar xorijiy tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, tarjimashunoslik rivojiga hissa qo‘shish hamda madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Demak, o‘zbek va urdu tillari misolida ikki tillilik insonning e’tibor, xotira, tafakkur, kognitiv nazorat, metalingvistik ong va konseptual dunyoqarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois o‘zbek-urdu bilingvizmini psixolingvistik va kognitiv jihatdan tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

6 Jamil Jalibi. Tareekh-e-Adab-e-Urdu (Urdu adabiyoti tarixi). – Karachi: Majlis-e-Taraqqi-e-Adab, 2006. – 5 jild.
7 Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Sangzor, 2006. 220-b.
8 Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. 256-b.
9 Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2010. 192-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – 352 с.
2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Sangzor, 2006. 220-b.
3. Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. 256-b.
4. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2010. 192-b.
5. Yo‘ldoshev B. Kognitiv tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2011. 240-b.
6. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018. 560-b.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. 416-b.
8. Cummins J. The Influence of Bilingualism on Cognitive Growth // Working Papers on Bilingualism. – 1976. – № 9. – P. 1–43.
9. Bialystok E. Bilingualism in Development: Language, Literacy and Cognition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 288 p
10. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
11. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2008. – 272 с.
12. Saksena R.B. A History of Urdu Literature. – Lahore: Sang-e-Meel Publications, 1992. – 398 p.
13. Faruqi S.R. Early Urdu Literary Culture and History. – New Delhi: Oxford University Press, 2001. – 485 p.

Zarifa MAHMUDOVA,
Turon universiteti magistranti

INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILINGAN ASARLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan badiiy asarlarning lingvistik xususiyatlari IMRAD metodologiyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarjima jarayonida yuzaga keladigan leksik, grammatik, stilistik va lingvomadaniy muammolar o‘rganildi. Asosiy e’tibor ingliz va o‘zbek tillarining struktur-semantik farqlari, ekvivalentlik masalasi hamda tarjimon tomonidan qo‘llanilgan transformatsion usullarga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, badiiy tarjimada lingvistik birliklarning milliy-madaniy mazmunini saqlash tarjima sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shuningdek, maqolada tarjimada adekvatlik va pragmatik moslikni ta’minlash uchun qo‘llanilgan usullar tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *tarjima nazariyasi, lingvistik tahlil, badiiy tarjima, ekvivalentlik, transformatsiya, stilistik vosita, lingvomadaniyat, pragmatika.*

Аннотация: в данной статье лингвистические особенности художественных произведений, переведённых с английского языка на узбекский, анализируются на основе методологии IMRAD. В исследовании рассматриваются лексические, грамматические, стилистические и лингвокультурологические проблемы, возникающие в процессе перевода. Основное внимание уделяется структурно-семантическим различиям английского и узбекского языков, проблеме эквивалентности, а также трансформационным методам, используемым переводчиком. Результаты исследования показывают, что сохранение национально-культурного содержания языковых единиц в художественном переводе является одним из важнейших факторов, определяющих качество перевода. Кроме того, в статье анализируются методы, применяемые для обеспечения адекватности и прагматической соответствия перевода.

Ключевые слова: *теория перевода, лингвистический анализ, художественный перевод, эквивалентность, трансформация, стилистическое средство, лингвокультурология*, прагматика.

Annotation: this article analyzes the linguistic features of literary works translated from English into Uzbek based on the IMRAD methodology. The study examines lexical, grammatical, stylistic, and linguocultural problems arising in the translation process. Particular attention is paid to the structural-semantic differences between the English and Uzbek languages, the issue of equivalence, and the transformational methods applied by translators. The findings demonstrate that preserving the national and cultural content of linguistic units in literary translation is one of the key factors determining translation quality. Furthermore, the article analyzes the methods used to ensure adequacy and pragmatic equivalence in translation.

Key words: *translation theory, linguistic analysis, literary translation, equivalence, transformation, stylistic device, linguoculturology, pragmatics.*

Tarjima xalqlar o‘rtasidagi madaniy, ilmiy va adabiy aloqalarni rivojlantiruvchi muhim vositalardan biridir. Ayniqsa, ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinayotgan badiiy asarlar zamonaviy tarjimashunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tarjima jarayonida nafaqat mazmun, balki muallif uslubi, milliy kolorit, lingvomadaniy birliklar ham saqlanishi lozim. Shu sababli tarjima qilingan asarlarning lingvistik jihatdan tahlil qilinishi tarjima sifati va uning adekvatligini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tilidagi adabiyotlarning o‘zbek tiliga keng tarjima qilinayotgani tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslik oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ingliz va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lgani sababli ularning grammatik qurilishi, semantik tizimi va stilistik imkoniyatlari bir-biridan sezilarli farqlanadi. Bu esa tarjima jarayonida turli transformatsiyalarni qo‘llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlarning lingvistik xususiyatlarini IMRAD metodologiyasi asosida tahlil qilishdan iborat.

Mazkur tadqiqotda ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan bir qator badiiy asarlar tahlil materiali sifatida tanlab olindi. Jumladan, Jane Eyre, The Adventures of Tom Sawyer hamda The Grapes of Wrath asarlarining o‘zbekcha tarjimalari qiyosiy jihatdan o‘rganildi.

Tadqiqot davomida qiyosiy-tipologik metod, lingvistik tahlil metodi, semantik tahlil va stilistik tahlil kabi metodlardan foydalanildi:

Tahlil jarayonida original matn va tarjima matni o‘zaro qiyoslandi. Leksik birliklar, frazeologizmlar, metaforalar, idiomatik ifodalar hamda grammatik konstruksiyalar o‘rganildi. Tarjimada qo‘llangan transformatsiyalar

klassifikatsiyasi sifatida Barkhudarov, Komissarov va Newmark nazariyalariga murojaat qilindi.

Masalan, ingliz tilidagi “He broke into tears” iborasi o‘zbek tilida “u yig‘lab yubordi” tarzida tarjima qilinadi. Bu yerda frazeologik birlik semantik jihatdan adekvat tarzda transformatsiya qilingan. Shuningdek, lingvomadaniy birliklarning tarjimada saqlanishi yoki moslashtirilishi alohida tahlil qilindi. Chunki ingliz xalqining madaniyati va mentalitetiga xos tushunchalar o‘zbek tilida to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmasligi mumkin.

Tadqiqot natijalari ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlarda bir qator lingvistik o‘zgarishlar yuz berishini ko‘rsatdi. Eng ko‘p uchraydigan holatlar leksik-semantik transformatsiyalar bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Ingliz tilidagi ko‘plab idiomatik birliklar o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmaydi. Tarjimonlar asosan ma’noviy moslashtirish usulidan foydalanadilar.

Masalan:

“Time is money” → “Vaqt oltindan qimmat”.

Bu tarjimada so‘zma-so‘z emas, balki pragmatik ekvivalentlik asosida tarjima amalga oshirilgan.

Yana bir misol:

“He has a heart of stone” → “Uning bag‘ri tosh”.

Bu yerda metaforik birlik o‘zbek tilidagi muqobil frazeologizm bilan almashtirilgan. Ingliz tilidagi analitik konstruksiyalar o‘zbek tilida sintetik vositalar orqali ifodalangan. Ayniqsa, zamon kategoriyasi va artikllarning tarjimasida muayyan o‘zgarishlar kuzatiladi.

Masalan:

“She had been waiting for hours.”

Tarjima:

“U bir necha soatdan beri kutayotgan edi.”

Bu misolda ingliz tilidagi Perfect Continuous zamoni o‘zbek tilidagi analitik konstruksiya orqali ifodalangan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, metafora, epitet, ironiyalarni tarjima qilish eng murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Tarjimon muallif uslubini saqlashga harakat qilgan bo‘lsa-da, ayrim holatlarda stilistik bo‘yoq qisman yo‘qolgan.

Masalan, Mark Twain asarlarida uchraydigan yumoristik uslub o‘zbek tilida ba’zan soddalashtirilgan holda beriladi. Bu esa pragmatik ta’sirning pasayishiga olib keladi.

Tadqiqot davomida ingliz tilidagi milliy-madaniy birliklarning tarjimasi alohida muammo ekani aniqlandi. Masalan, ingliz xalqining turmush tarziga oid realiyalar tarjimada izohli yoki moslashtirilgan shaklda beriladi.

Misol:

“Thanksgiving dinner”

Tarjima:

“Shukronalik bayrami dasturxoni”.

Bu yerda tarjimon madaniy tushunchani izohlash orqali o‘quvchiga yaqinlashtirgan.

Lingvistik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayoni oddiy til almashtirish emas, balki murakkab kommunikativ va madaniy jarayondir. Tarjimon ikki tilning grammatik tizimi, leksik fondi va stilistik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. Tarjima jarayonida ekvivalentlik masalasi muhim o‘rin tutadi. Formal ekvivalentlik har doim ham pragmatik moslikni ta’minlamaydi. Shu sababli tarjimon ko‘pincha funksional ekvivalentlikka murojaat qiladi.

Masalan, ingliz tilidagi hazil, kinoya yoki metafora o‘zbek mentalitetiga moslashtirilmasa, matnning badiiy ta’siri yo‘qolishi mumkin. Bu holat ayniqsa badiiy adabiyot tarjimasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Eugene Nida tarjimada “dynamic equivalence” nazariyasini ilgari surib, tarjimaning asosiy maqsadi o‘quvchida original matnga yaqin ta’sir uyg‘otish ekanligini ta’kidlagan. Mazkur yondashuv ingliz-o‘zbek tarjimalarida ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarjima sifati ko‘p jihatdan tarjimonning lingvistik kompetensiyasi va madaniyatlararo kommunikativ tajribasiga bog‘liq ekanligi kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlarning lingvistik tahlili tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari tarjima jarayonida leksik, grammatik, stilistik va lingvomadaniy transformatsiyalar faol qo‘llanishini ko‘rsatdi.

Shuningdek, tarjimada formal ekvivalentlikdan ko‘ra funksional va pragmatik moslik ko‘proq ahamiyat kasb etishi kuzatildi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik, qiyosiy tilshunoslik va lingvomadaniyat sohalarida keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод. — Москва: Международные отношения, 1975. — 240 с.
2. Комиссаров В.Н. Теория перевода. — Москва: Высшая школа, 1990. — 253 с.
3. Newmark P. A Textbook of Translation. — London: Prentice Hall, 1988. — 292 p.
4. Nida E. Toward a Science of Translating. — Leiden: Brill, 1964. — 331 p.
5. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. — London: Oxford University Press, 1965. — 103 p.
6. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. — Москва: Наука, 1981. — 139 с.

Xurshidabonu HUSANBOYEVA,
Farg'ona davlat universiteti 1 -kurs talabasi

CHET TILLARINI O'QITISHDA ONLAYN PLATFORMALARNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada chet tillarini o'qitishda onlayn platformalarning didaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan Duolingo, Memrise va Busuu kabi platformalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati yoritib beriladi. Maqolada onlayn ta'lim muhitining interaktivlik, individuallashtirilgan yondashuv, multimediya vositalaridan foydalanish, tezkor teskari aloqa hamda gamifikatsiya kabi asosiy didaktik xususiyatlari ilmiy asosda izohlanadi. Shuningdek, raqamli platformalarning o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish, bilimlarni takrorlash va mustahkamlash, hamda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdagi roli ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, onlayn platformalar ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi va ularning individual ehtiyojlariga moslashish imkonini yaratadi.

Kalit so'zlar: *onlayn platformalar, Zoom, Duolingo, raqamli texnologiyalar, dars jarayonlari, ingliz tili, didaktik xususiyatlar*

Annotation: this article analyzes the didactic features of online platforms in teaching foreign languages. In particular, the role and importance of platforms such as Duolingo, Memrise and Busuu, created on the basis of modern digital technologies, in the educational process are highlighted. The article scientifically explains the main didactic features of the online learning environment, such as interactivity, individualized approach, use of multimedia tools, instant feedback and gamification. It also reveals the role of digital platforms in students' independent learning, repetition and consolidation of knowledge, and the development of communicative skills. The results of the study show that online platforms, along with increasing educational efficiency, increase students' motivation and allow them to adapt to their individual needs.

Key words: *online platforms, Zoom, Duolingo, digital technologies, teaching processes, English, didactic features*

Аннотация: в данной статье анализируются дидактические особенности онлайн-платформ в обучении иностранным языкам. В частности, освещается роль и значение таких платформ, как Duolingo, Memrise и Busuu, созданных на основе современных цифровых технологий, в образовательном процессе. В статье научно объясняются основные дидактические особенности онлайн-среды обучения, такие как интерактивность, индивидуализированный подход, использование мультимедийных инструментов, мгновенная обратная связь и геймификация. Также раскрывается роль цифровых платформ в самостоятельном обучении студентов, повторении и закреплении знаний, а также в развитии коммуникативных навыков. Результаты исследования показывают, что онлайн-платформы, наряду с повышением эффективности обучения, повышают мотивацию студентов и позволяют им адаптироваться к своим индивидуальным потребностям.

Ключевые слова: *онлайн-платформы, Zoom, Duolingo, цифровые технологии, образовательные процессы, английский язык, дидактические особенности*

Zamonaviy raqamli texnologiyalar asrida ta'lim jarayoni odatdagi auditoriya, darslik va shaxsiy muloqot bilan cheklab bo'lmaydi. Internet tarmoqlarining rivojlanishi, raqamli resurslar va turli onlayn platformalarning paydo bo'lishi o'qitish jarayonida keskin o'zgarishlar yasab, katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ayniqsa, ingliz tili kabi xalqaro muloqot tilini o'rganish va o'rgatish jarayonida onlayn darslar, masofaviy treninglar, vebinarlar hamda virtual platformalar bugungi kunda keng ommalashib bormoqda. Ingliz tili o'qituvchilari bugungi avlodning chet tillariga oid bilimini shakllantirishda muhim bo'g'in hisoblanadi. Shu bois, bo'lajak yoki faol ingliz tili o'qituvchisi raqamli vositalar bilan ishlash, interaktiv muhitda metodik texnologiyalarni qo'llash, onlayn platformalar imkoniyatlarini to'liq ishga solish orqali talabalarga chuqur va barqaror bilim berish yo'lida tinimsiz izlanishi kerak.(Shohistaxon K. Tojiboyeva. 2025: 260-266)

Bugungi kunda Duolingo, Memrise va Busuu kabi onlayn platformalar chet tillarini o'rganishda keng qo'llanilmoqda. Ushbu platformalar o'zining interaktivligi, individuallashtirilgan yondashuvi, multimediya vositalaridan foydalanishi hamda tezkor teskari aloqa berish imkoniyati bilan ajralib turadi. Natijada, o'quvchilar uchun mustaqil ta'lim olish, o'z bilimini nazorat qilish va til ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni ancha qulaylashadi.

Didaktik xususiyat tushunchasi - bu ta'lim jarayonida bilimni qanday berish, qanday o'rgatish va o'quvchi uni qanday o'zlashtirishini belgilovchi asosiy pedagogik belgilar va imkoniyatlar majmuasi ma'nosini anglatadi. Qisqa qilib aytganda, didaktik xususiyat "qanday o'qitamiz va bu qanchalik samarali" degan savolga javob beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida onlayn platformalar ta'limning muhim vositasiga aylandi. Ushbu platformalar nafaqat

bilim berish, balki o’quvchining mustaqil fikrlashi, til ko’nikmalarini rivijlantirishi va o’quv jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, ularning didaktik xususiyatlarini tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Raqamli platformalarning yana bir muhim jihati – moslashuvchanlikdir. Har bir bola bir xil tezlikda til o‘rganmaydi: ayrim bolalar eshitish orqali tezroq o‘zlashtirsa, boshqalari vizual yoki kinestetik stimullarga kuchliroq javob beradi. Platformalardagi multimodal imkoniyatlar aynan shu jihatni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan: bola audio topshiriqlar orqali tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantiradi, tasvirlar yordamida “so‘z–obraz” bog‘lanishini mustahkamlaydi, harakatga asoslangan mini-o‘yinlar esa so‘zlarni faol qo‘llash imkonini yaratadi. Shuningdek, lug‘atni mustahkamlashga qaratilgan algoritmlar bola xatoga yo‘l qo‘yganda avtomatik tarzda qo‘shimcha mashqlarni taklif etadi. Ushbu jarayon individual ta’limning elektron shakli sifatida talqin etiladi. Raqamli ta’limning yana bir afzalligi – takrorlash jarayonining cheklanmaganligidir. An’anaviy mashg‘ulotlarda vaqt chegaralangan bo‘lsa, raqamli platformalarda bola so‘z yoki iborani istaganicha qayta eshitishi va takrorlashi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 5 yoshli bolalarda inglizcha so‘zlarni 5–7 marotaba takrorlash o‘zlashtirishni mustahkamlash uchun yetarli hisoblanadi, raqamli ilovalarda esa bunday takrorlash jarayoni tabiiy ravishda amalga oshadi. Natijada platformalar bolaning xotira mexanizmlarini samarali va izchil ishga soladi.(Qayumova Nargiza, 2025: 2257)

Hozirda til o’rganuvchilar va o’rgatuvchilar tomonidan eng ko’p qo’llanadigan onlayn platformalar, ya’ni Zoom, Duolingo, BBC Learning va Moodle platformalarini misol tariqasida ko’rsatadigan bo’lsak, o’quvchilar bir vaqtning o’zida bu programmalar orqali ingliz tilidagi turli xil mahoratlarni(skill) turli xil bosqichdan(level) boshlab o’rganish imkoniyatiga ega bo’ladilar (Ahmadaliyeva N: 2021) . Xususan, lug’at boyligini oshirish, kommunikatsion mahoratni o’stirish imkoniyatlari yuzaga keladi. Jumladan, pedagoglarga ham darslarni yanada samarali tashkil etish imkoniyatlari paydo bo’ladi. Masalan, Moddle platformasini qo’llash orqali o’qituvchi o’quvchilarning yozma, o’qib tushunish hamda eshitish mahoratini o’stirishga yordam bersa, aynan shu jarayonda yuzaga keladigan savollar hamda o’quv faoliyatiga doir bo’lgan masalalarni Zoom platformasi orqali o’quvchilarga boshqalar bilan muloqot qilish, savollarni birgalikda tahlil qilish va eng muhimi sof og’zaki nutqni shakllantirish imkoniyati beriladi. Bu kabi audio ya’ni autentik vositalar orqali o’quvchilar tilni real hayotda qo’llay oladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun ta’lim tizimida, shu jumladan til o’rgatish jarayonida ham paradigmani o’zgartirmoqda. U nafaqat bilim yetkazib beruvchi, balki axborotning hammuallifi, maslahatchisi va baholovchisi hamdir.(Hasanov. I. 2020)

Xususan, ingliz tilini o’qitishda qiziqarli o’yinlardan foydalanish ham samarali yo’llardan biri hisoblanadi. Interaktiv o’yinlar va simulyatsiyalar o’quvchilarga tilni qiziqarli va samarali o’rganishni o’yin shaklida taqdim etadi. Masalan, “Minecraft Education Edition” va “Kahoot” kabi o’yinlar bilan o’quvchilar o’yinlarni yanada qiziqarli o’tkizishadi va ularning til o’rganishga bo’lgan qiziqishlari sezilarli darajada ortadi. O’qituvchilar uchun mazkur o’yiblarga dars davomida ingliz tiliga doir bo’lgan grammatik hamda so’z boyligiga asoslangan test topshiriqlarini kiritishlari hamda o’quvchilarning o’zlashtirish darajasini aniqlash va baholash imkoniyati tug’iladi.(Muhammadiyev, B, 2019: 12)

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o‘qitishda onlayn platformalardan foydalanish zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan Duolingo, Memrise, Busuu kabi platformalar o‘zining interaktivligi, individuallashtirilgan yondashuvi, multimediya imkoniyatlari va tezkor teskari aloqa mexanizmlari bilan ajralib turadi. Bu esa o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va qulay tashkil etishga xizmat qiladi. Umuman olganda, onlayn platformalar chet tillarini o‘qitishda katta didaktik salohiyatga ega bo‘lib, ularni an’anaviy ta’lim usullari bilan uyg‘unlashtirish orqali yanada yuqori natijalarga erishish mumkin. Kelgusida bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va amaliy tajribalarni rivojlantirish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmadaliyeva N. Ingliz tilini o’rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli. – Toshkent: TDPU, 2021
2. Hasanov. I. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2020
3. Muhammadiyev, B. “Onlayn resurslar va mobil ilovalar yordamida ingliz tili o’qitish metodikasi”// Pedagogik yondashuvlar jurnali, 2019, 1(2), - 12-183-bet
4. Qayumova Nargiza. Raqamli ta’lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o’rgatish// Maktab va maktabgacha ta’lim, 2025, 12 son. – 2257-bet
5. Shohistaxon K. Tojiboyeva. (2025) ‘Methods of developing critical thinking skills of english language teachers on online platforms’, Inter education & global study, №4(1), pp. 260–266-bet

Диляра УМЕРОВА,
студ. 2 курса фак-та филологии
Джизакский государственный педагогический университет
Научный руководитель: Ким О. А.,
канд. филолог. наук, доцент
Джизакский государственный педагогический университет

ПРОБЛЕМА ОТЦОВ И ДЕТЕЙ В РОМАНЕ И. ТУРГЕНЕВА «ОТЦЫ И ДЕТИ»

Аннотация: в статье рассматривается конфликт поколений в романе «Отцы и дети» И. С. Тургенева через противостояние Базарова и Павла Петровича Кирсанова. Анализируются их взгляды на искусство, природу, народ и общественные ценности, а также нигилизм Базарова. Особое внимание уделено внутреннему конфликту героя и трагичности его судьбы

Ключевые слова: *конфликт поколений, нигилизм, мировоззренческая позиция, природа, внутренний конфликт, столкновение старых и новых взглядов на жизнь, любовь, тема смерти.*

Annotation: this article examines the generation gap in I. S. Turgenev's novel "Fathers and Sons" through the confrontation between Bazarov and Pavel Petrovich Kirsanov. Their views on art, nature, people, and social values are analyzed, as well as Bazarov's nihilism. Particular attention is paid to the protagonist's internal conflict and the tragic nature of his fate.

Key words: *generation gap, nihilism, ideological position, nature, internal conflict, clash of old and new views on life, love, theme of death.*

Annotatsiya: ushbu maqolada I. S. Turgenevning "Otalar va o'g'illar" romanidagi avlodlar tafovuti Bazarov va Pavel Petrovich Kirsanov o'rtasidagi qarama-qarshilik orqali o'rganiladi. Ularning san'at, tabiat, odamlar va ijtimoiy qadriyatlar haqidagi qarashlari, shuningdek, Bazarovning nihilizmi tahlil qilinadi. Bosh qahramonning ichki mojarosi va uning taqdirining fojiali tabiatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *avlodlar tafovuti, nihilizm, mafkuraviy pozitsiya, tabiat, ichki mojaro, hayot haqidagi eski va yangi qarashlarning to'qnashuvi, sevgi, o'lim mavzusi.*

Роман «Отцы и дети» является одним из наиболее значимых произведений русской литературы XIX века. В нем И. Тургенев поднимает важную общественную проблему - конфликт поколений, который становится отражением социальных и духовных изменений в России того времени. Произведение было написано в эпоху общественных преобразований, когда старые дворянские традиции постепенно утрачивали свое влияние, а новое поколение стремилось к переоценке прежних идеалов и ценностей. Именно в этом романе писателю удалось передать разницу взглядов разных поколений на исторические, социальные, культурные события в обществе. При этом И. Тургенев подчеркнул те общечеловеческие ценности, которые объединяют людей, независимо от возраста.

Актуальность данной темы заключается в том, что проблема взаимоотношений между поколениями остается значимой и в современном обществе. Различие взглядов, ценностей и жизненных принципов между представителями разных поколений нередко становится причиной непонимания и конфликтов.

На наш взгляд, конфликт произведения раскрывается через взаимоотношения Евгения Базарова и Павла Петровича Кирсанова. Эти герои являются представителями двух противоположных мировоззрений. Павел Петрович относится к поколению «отцов».

Он аристократ, дворянин, человек высокой культуры и воспитания. Для него большое значение имеют честь, моральные принципы, искусство и традиции. Он привык жить по законам дворянского общества и считает, что именно культура и духовные ценности делают человека личностью: «смею сказать, меня все знают за человека либерального и любящего прогресс; но именно потому я уважаю аристократов – настоящих…» [1, 354].

Евгений Базаров, напротив, представляет новое поколение. Он является нигилистом, то есть человеком, который отрицает общепринятые нормы, авторитеты и ценности. Базаров не признает искусство, романтику, поэзию и любовь, считая их бесполезными для общества. Он убежден, что человек должен руководствоваться только разумом, наукой и практической пользой: «Аристократизм, либерализм, прогресс, принципы, - говорил между тем Базаров, - подумаешь, сколько иностранных… и бессмысленных слов!»

Герой полагается исключительно на собственный опыт и считает, что все необходимо подвергать сомнению и проверке. Именно поэтому между ним и Павлом Петровичем постоянно возникают споры. Как нам представляется, конфликт героев проявляется в их отношении к народу, искусству, природе и аристократии. Павел Петрович восхищается красотой природы, уважает культуру и поэзию, тогда как Базаров относится ко всему этому с насмешкой и отрицанием. Особенно ярко

мировоззрение героя раскрывается в его известной фразе: «Природа не храм, а мастерская, и человек в ней работник» [1, 350]. Эти слова показывают, что Базаров воспринимает окружающий мир исключительно с практической точки зрения. Для него природа не является источником вдохновения или духовного наслаждения. Он считает, что человек должен использовать ее ради пользы и труда.

Павел Петрович не может принять подобные взгляды, поскольку для него искусство и духовная жизнь являются важной частью человеческого существования. Он убежден, что без культуры, нравственности и уважения к традициям общество не сможет существовать. Именно поэтому споры между героями становятся настолько напряженными. Каждый из них уверен в собственной правоте и не желает понимать точку зрения другого.

Тургенев же не показывает ни одного из героев абсолютно правым или абсолютно виноватым. Автор стремится объективно изобразить представителей обоих поколений, раскрывая как их достоинства, так и недостатки. Павел Петрович, несмотря на благородство и воспитанность, во многом оказывается человеком прошлого. Его взгляды постепенно теряют актуальность, а сам он не способен приспособиться к новым общественным изменениям. В то же время Базаров, отрицая духовные ценности и человеческие чувства, лишает свою жизнь внутренней гармонии. «Нигилизм становится визитной карточкой Базарова, такой же экспозицией его идей, как экспозицией его портрета являются красная рука, балахон и ироническая улыбка» [5, 236]

Не случайно наиболее ярко внутренние переживания Базарова раскрываются через его любовь к Анне Одинцовой. «…Базаров был великий охотник до женщин и до женской красоты, но любовь в смысле идеальном, или, как он выражался, романтическом, называл белибердой, непростительною дурью, считал рыцарские чувства чем-то вроде уродства или болезни…» [1, 379].

